O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON TARJIMASHUNOSLARI FORUMI – 2021

(ilmiy maqolalar to‘plami)

Toshkent – 2021

“O‘zbekiston tarjimashunoslari Forumi – 2021” (ilmiy maqolalar to‘plami). –T.: TDSHU, 2021. − 445 b.

Ushbu to‘plamdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi 78-F-sonli Farmoyishi asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 1-apreldagi “*Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida 2021-yilda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumanlar rejasini tasdiqlash to‘g‘risida*”gi 1521-sonli buyrug‘ida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida 2021-yil 11-dekabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “O‘zbekiston tarjimashunoslari Forumi – 2021” mavzusida bo‘lib o‘tgan Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilari hamda TDSHU «Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalisika” kafedrasida ushbu ilmiy yo‘nalishda tadqiqotlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar va yosh tadqiqotchilarning tarjima tarixi, nazariyasi, amaliyoti va tanqidi, sinxron tarjima, shuningdek, xalqaro jurnalistikaga oid mavzular yoritilgan maqolalari o‘rin olgan.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
*PhD. **Nargiza Ismatullayeva***

Mas’ul muharrir:
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori, filologiya fanlari nomzodi, dots. **Gulchehra Rixsiyeva***

Taqrizchilar:
*filologiya fanlari nomzodi, dots. **Rustam Sharipov***
*filologiya fanlari nomzodi, dots. **Ergash Ochilov***

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021-yil 25-noyabrdagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

Maqolalardagi ilmiy faktlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar mas’uldir

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021

“O‘zbekiston tarjimashunoslari Forumi – 2021” *ilmiy maqolalar to‘plamining ushbu soni*
*O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining **30** yilligi,*
*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-aprel kuni “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti negizida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tashkil etilganligining **1** yilligi,*
*Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining alohida muassasa sifatida ish boshlaganining **30** yilligi,*
*Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasi tashkil etilganining **10** yilligiga,*
shuningdek,
taniqli adabiyotshunos olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori,
filologiya fanlari doktori, professor,
ijodkor, mudarris va murabbiy
***G‘AYBULLA SALOMOV**ning*
porloq xotirasiga

b a g‘ i sh l a n a d i

TARJIMONLAR VA TARJIMASHUNOSLAR TAYYORLASH DOLZARBLIGI FORUM MUHOKAMASIDA

***Gulchehra RIXSIYEVA**, TDSHU rektori*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-mart-dagi 78-F-sonli Farmoyishi asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 1-apreldagi “Vazirlik tizimi-dagi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida 2021-yilda o‘tkazila-digan ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumanlar rejasini tasdiqlash to‘g‘risi-da”gi 1521-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan reja asosida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “O‘zbekiston tarjimashunoslari Forumi – 2021” Respublika ilmiy-amaliy anjumani universitet oldiga qo‘yilgan vazifalar doirasida faoliyatimizni tanishtirish, ayniqsa, tarjimashunoslikning barcha yo‘nalishlarida kadrlar tayyorlashning muhim jihatlarini muhokama qilish, o‘zbek adabiyoti namunalarini sharq tillariga va jahon adabiyotining yetuk asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish masalalari yuzasidan mutaxassislar va olimlar bilan fikr almashish uchun katta bir ilmiy munozaralar maydoni hisoblanadi.

Forumga kelgan ilmiy maqola va tezislarga keng o‘rin berilgan “O‘zbekiston tarjimashunoslari Forumi – 2021” to‘plamining ushbu so-ni O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining **30** yilligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-aprel kuni “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti negizida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tashkil etilganligining **1** yilligi, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining alohida muassasa sifatida ish boshlaganining **30** yilligi, Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasi tashkil etilganining **10** yilligiga, shuningdek, taniqli adabiyotshunos olim, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori, filologiya fanlari doktori, pro-fessor, ijodkor, mudarris va murabbiy, O‘zbekistonda tarjimashunoslik faniga asos solib, o‘ziga xos maktab yaratgan ustoz **G‘aybulla Salo-mov**ning porloq xotirasiga bag‘ishlangan bo‘lib, undan bugungi an-juman ishtirokchilari hisoblangan taniqli tarjimonlar va sohaning eng ko‘zga ko‘ringan olimlari, TDSHU “Tarjimashunoslik va xalqaro jur-nalistika” kafedrasida ushbu ilmiy yo‘nalishda tadqiqotlar olib borayot-gan professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar va yosh tadqiqotchilarning tarjima tarixi, nazariyasi, amaliyoti va tanqidi, sinxron tarjima, shuning-

dek, xalqaro jurnalistikaga oid dolzarb mavzular yoritilgan ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4680 qaroriga ko‘ra ta’lim muassasamizga sharqshunoslik sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, ilm-fanni jadal rivojlantirish, professor-o‘qituvchilarning salohiyati, pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borish, talaba-yoshlarni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalashni takomillashtirish maqsadida bir qator dolzarb vazifalar belgilab berilgan bo‘lib, ular orasida yangi ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish masalasi ham bo‘lib, o‘tgan o‘quv yilidan aynan tarjima faoliyati bilan bog‘liq yangi -– gid hamrohlik va tarjimonlik, xalqaro jurnalistika, sinxron tarjima bo‘yicha mutaxasssislar tayyorlash ishlari boshlandi. Ayni o‘sha yildan e’tiboran “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasining yo‘nalishlari kengayib, “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” deb nomlangan, talabalar kontingenti ham keskin ko‘paygan edi. Bularning barchasi xalqaro munosabatlar kengayib borayotgan bugungi kunda sharq tillari bo‘yicha tarjimon mutaxassislarga bo‘lgan katta ehtiyojdan tashqari, ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, ularning soni va sifatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar bilan bog‘liq, albatta. Tarjima asarlari milliy adabiyotimizning muhim bir bo‘lagini tashkil etayotgan bugungi kunda ana shu ma’naviy boylikni asrash, uni e’zozlab, kelajak avlodlarga yetkazish, shuningdek, adabiyotimiz orqali xalqaro aloqalarimizni yanada kuchaytirish universitetimiz oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Millatimizning badiiy tafakkuri oynasi bo‘lmish adabiyotimiz durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish ishini keng miqyosda amalga oshirish bugungi kunda yanada dolzarb masalaga aylanganligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar, tarixiy hujjatlar tasdiqlab turibdi.

Respublikamiz va undan tashqarida tanilgan adabiyotshunos, tilshunos va tarjimashunos olimlarning ushbu Forumga ishtirok etish uchun ma’ruza mavzulari va maqolalarini tashkiliy qo‘mitaga yuborganliklari anjumanning nufuzi va saviyasini ko‘rsatmoqda.

Bugungi anjumanga ishtirok etayotgan muhtaram mehmonlar, aziz ustozlar va o‘zbek tarjimashunosligining jonkuyarlari bo‘lgan taniqli olimlar va tadqiqotchilarga Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rahbariyati va jamoasi nomidan minnatdorchilik bildirgan holda, anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Qariyb o‘n yil mobaynida TDSHUda uzluksiz tashkil etib kelinayotgan ilmiy anjuman an’anaviy tarzda respublikada hamda kelajakda xalqaro miqyosda ham tarjimachilik va tarjimashunoslik masalalari muhokamasi uchun asosiy ilmiy muhitni yaratuvchi eng muhim tadbirlardan biri bo‘lib qoladi, deb umid qilamiz.

TARJIMASHUNOSLIK TARIXI, TARJIMA STILISTIKASI, TANQIDI HAMDA TAHRIR MASALALARI

ЎЗАРО ЯҚИН ВА ЯҚИН БЎЛМАГАН ТИЛЛАРДАН ТАРЖИМАДА «СОХТА ЭКВИВАЛЕНТЛИК» МАСАЛАСИ

Филол. ф. д. ***Абдураҳим МАННОНОВ****, ТДШУ профессори*

Ҳар бир сўз товуш ва маъно нуқтаи назаридан ўз қимматига эга. Фақат бир хил сўз икки тилда учраганда, у баъзан ўзгаришсиз қолиш билан бир пайтда маъно жиҳатдан ҳам фарқлилик касб этиши мумкин. Тиллар ўзаро яқин, қардош, ёки бир-биридан жуда узоқ бўлишидан қатъий назар, улар орасида таржима амалга оширилаётганда тез-тез муаммоларга дуч келиниши табиий ҳол. Бундай муаммолардан бири “сохта эквивалентлар”дир.

Умумий тилшунослик ва таржимашуносликда “сохта эквивалентлар” турлича номланади. Жумладан, ўзбек тилшунослиги ва таржимашунослигида эса “сохта эквивалентлар”, “ёлғончи муқобиллар”, “алдоқчи сўзлар”, “таржимоннинг сохта дўстлари” каби терминлар билан атаб келинади ва улар бир хил ҳодисани аташ учун хизмат қилади.

Шаклан бир-бирига ўхшаган, лекин маъно жиҳатдан бир-биридан кескин фарқ қилувчи сўзлар «сохта эквивалентлар»дир. Таржимашуносликда XIX аср охирларида илк бор қайд этилган ушбу ҳодиса XX аср бошларидан эътиборан махсус ўрганила бошланди. Ушбу йўналишда қилинган амалий ишларнинг биринчиси француз луғатшунослари М.Кеслер ва Ж.Дерокинининг «Инглизча-французча таржимоннинг алдоқчи дўстлари» луғати ҳисобланади. “Сохта эквивалентлар” француз тилида “faux ami”, немис тилида “falscher freund”, италян тилида “falso amico”, испан тилида “falso amigo”, инглиз тилида “false friend” ва рус тилида “ложные друзья переводчика” (таржимоннинг “сохта” дўстлари) ёки “ложные эквиваленты” деб номланади.

Асосан яқин тилларда учрайдиган бундай бирликлар «таржимоннинг алдоқчи дўстлари», «тиллараро омонимлар», «тиллараро аналогизмлар», «оҳангдош сўзлар», «алдоқчи сўзлар» ҳам дейилади.

Рус тадқиқотчиси М.Ю.Илюшкинанинг таъкидлашича, “Тарихий нуқтаи назаридан қараганда, “сохта эквивалентлар” тилларнинг ўзаро таъсири натижасида юзага келади, асос-тилдаги умумий прототипларга бориб тақалувчи қариндош сўзларга асосланади ва айрим ҳолларда тасодифий мос келишлар натижасида юзага келади. Уларнинг умумий миқдори ва эҳтимолий манбалардан ҳар бирининг юзага келишдаги ўрни алоҳида олинган ҳар бир тиллар жуфтлиги учун фарқлидир, буни тиллар орасидаги генетик ва тарихий муносабатлар белгилайди”[1].

А.В.Фёдоров турли тилларда фақат айрим сўзларнинг фонетик жиҳатдан ўхшашлигини сохта эквивалент деб олган бўлса, Ғ.Саломов бу терминни тузилиши жиҳатидан бир-бирига ўхшаш, аммо маъноси жиҳатидан бир-биридан жиддий фарқ қиладиган, ҳатто баъзида бир-бирига зид фразеологик бирликларга нисбатан қўллайди. «Кўр ҳассасини бир марта йўқотади». − «Сапер ошибается один раз». «Онасини Учқўрғондан кўрсатмоқ». − «Показать кузькину мать» каби. Сохта эквивалентларни фарқлай олмасликка аслият тилини етарлича билмаслик, таржима жараёнида луғат билан ишламаслик, матн мазмунини тўла тушунмаслик сабаб бўлади. Бадиий таржимада яқин тилларда «сохта эквивалентлар» масаласи деярли барча таржимашунос олимларнинг эътиборини ўзига тортган. Жумладан, З.Исомиддинов ва Э.Очиловларнинг тадқиқотларида туркий тиллар орасида таржима жараёнида дуч келинаётган муаммолар устида батафсил тўхтаб ўтилиб, муаммонинг ечимлари тавсия этилган[2].

Таржимашунос Э. Очилов бир мақоласида тили, ҳаёт тарзи, диний эътиқоди яқин бўлган халқларнинг тилларидан таржима қилишнинг қулайлиги, турли тил гуруҳларига кирадиган мутлақо бегона, дини ва урф-одатлари бир-бирига ёт халқлар тилидан таржимага нисбатан бирмунча осонлигини таъкидлаш билан бир қаторда, таржимашуносликда “узоқ тиллардан таржимага кўра, яқин тиллардан таржима қийинроқ” деган нотўғри бир қараш кенг

---

[1] Илюшкина, М. Ю., Теория перевода: основные понятия и проблемы: [учеб. пособие] / [науч. ред. М.О.Гузикова]; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. –Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2015. – с.38.

[2] Исомиддинов З., «Алдоқчи сўзлар» билан баҳс // «Таржима санъати» (Мақолалар тўплами). 5-китоб. – Тошкент, 1980; Очилов Э., Яқин тиллардан таржима муаммолари, мақола, Таржима масалалари, илмий мақолалар тўплами. –Т.: 2012. – Б. 9.

тарқалганлиги, бунга ҳам аслият тили, ҳам таржима тили луғатида мавжуд, шаклан бир хил бўлса-да, мазмунан бир-биридан узоқ сўзлар – сохта эквивалентлар важ қилиб кўрсатилаётганлигини айтади. [3] Э.Очилов ўз фикрининг тасдиғи сифатида таржимашунос олим З.Исомиддиновнинг "Яқин тиллардан таржима қилишда "сохта эквивалентлар"нинг таржимонга панд бериш ҳоллари аслида мутаржимнинг оригинал тилини етарли даражада билмаслиги туфайли келиб чиқади" деган сўзларини келтиради.[4]

Ўзбек тадқиқотчиси Бердақ Юсуф ўзининг "Туркча-ўзбекча "алдоқчи" сўзлар луғати"да ушбу ҳодисани "sesteş kelimeler" деб атайди ва турк тилида бунинг "çevirmenin sahte dostları" (таржимоннинг сохта дўстлари), "dillerarası homonimler" (тиллараро омонимлар), "dillerarası analogizmler" (тиллараро аналогизмлар), "aldatıcı kognatalar" (алдоқчи сўзлар), "iletişimi zorlaştıran kelimeler" (мулоқотни қийинлаштирувчи сўзлар) ва ниҳоят "sesteş kelimeler" (товушдош сўзлар, яъни омонимлар) дея турлича номланиб келинаётганини таъкидлайди[5].

Дунёдаги ҳеч қайси тил алоҳида ажралган ҳолда тараққий этмаган, улар орасида ҳар доим муайян алоқа мавжуд бўлган. Хусусан, келиб чиқиш жиҳатдан қариндош, бир оилага мансуб тиллардан қилинган таржималарда бундай муносабатлар янада яққолроқ намоён бўлади. Бошқача айтганда, таржималарда «сохта эквивалентлар» деб номланган лексик бирликлар кўпроқ қийинчиликлар юзага келишига сабаб бўлади.

Мисоларга мурожаат қиламиз: «академик» сўзи немис тилида «олий маълумотли киши», «талаба», «олий мактаб ўқитувчиси» ва гоҳо «академик» маъноларини англатса, рус ва ўзбек тилларида асосан «Фанлар академиясининг ҳақиқий аъзоси» маъносида келади. Ёки «драматург» немис тилида «режиссёр», «театр репертуари мудири» маъноларида келса, ўзбек тилида «драматик асар муаллифи» маъносида келади. Туркий тилларда бундай сўзлар кўп. Чунончи: *юрт* − ўзбекчада: халқ, ўлка, жамоат, ватан;

---

[3] Очилов Э., Яқин тиллардан таржима муаммолари, мақола, Таржима масалалари, илмий мақолалар тўплами, Тошкент, 2012, 7 -б.

[4] Исомиддинов З. "Алдоқчи сўзлар" билан баҳс // "Таржима санъати" (Мақолалар тўплами). 5-китоб, 159-б. – Тошкент, 1980.

[5] Yusuf Berdak, Turkcha – o'zbekcha "aldoqchi" so'zlar lug'ati. Türkçe-Özbekche Sesteş Kelimeler Sözlüğü, Toshkent, 2009, 5-b.

татарчада: уй. *кир* − ўзбекчада: тепа ва яйлов; татарчада: чет, қирра; *қизғанмоқ* − ўзбекчада: қизғаниш; татарчада: раҳм қилмоқ; туркчада: рашк қилмоқ каби. Шу билан бирга, даврлар ўтиши билан маъно доираси кенгайган ёки ўзгарган сўзлар ҳам сохта эквивалентлар сафидан жой олади. Жумладан, айрим сўзлар мумтоз адабиётда бошқа маъно касб этган бўлади. Дейлик, «меҳнат» сўзи ҳозирда, асосан, «иш» маъносида қўлланади, ҳолбуки, ўтмишда у айнан шу маъносида деярли ишлатилмаган, балки машаққат, қийинчилик, ташвиш маъноларида истифода этилган. Худди шундай «ҳунар» сўзи ҳозиргидай «касб» эмас, балки фазилат, хислат маъноларига эга бўлган.

Бир оилага кирувчи тиллар орасида асар таржима қилишга бел боғлаган таржимоннинг аслият ва таржима тилини мукаммал билмаслиги таржимада катта муаммолар келтириб чиқаради. Бошқача айтганда, “сохта эквивалентлар” деб номланган лексик бирликлар кўпроқ ўзаро яқин тиллар орасида амалга оширилган таржималарда қийинчиликлар юзага келишига сабаб бўлади.

Дарҳақиқат, ўзаро яқин тиллар доирасидаги ўзбек ва турк тиллари бир тил оиласига мансуб бўлгани боис таржимонлар “сохта эквивалентлар”га кўпроқ дуч келадилар. Фактларга эътибор бериладиган бўлса, араб тилидан туркий тилларга ўзлашган *iflâs (iflâ:s)* сифати турк тилида “қарзларини тўлай олмаслиги суд томонидан аниқланган юридик ёки жисмоний шахс тушган оғир молиявий аҳвол – “банкротлик”, “синиш”, “қадрсизланиш” маъносида қўлланилади. Ўзбек тилида эса “ифлос” сўзи ўз маъносида “нопок нарсалар билан булғанган, булғанч”, кўчма маънода “нопок, разил, қабиҳ, ярамас, палид” маъносида қўлланади *(Отхона ичидан ифлос курак ва супурги кўтариб Жўра чиқди.* – Ойбек) [ЎТИЛ,1981,340]. Икки тилни, икки халқнинг миллий ўзига хосликлари, маданияти, қадриятларини яхши билган моҳир таржимон «сохта эквивалентлар»га алданмайди.

Таржимада «сохта эквивалентлар», тиллараро омонимлар билан бир қаторда тиллараро паронимлар ҳам таржимонларни чалғитади. Талаффузи, эшитилиши ва морфем таркиби ўхшаш, лексик маънолари бошқа-бошқа ёки қисман яқин бўлган бундай сўзлар таржимада хатоликларга сабаб бўлувчи унсурлар бўлиши мумкин. Масалан, араб тилидан ўзбек тилига ўзлашган *“таклиф”* сўзи “даъват”, “тавсия” каби маъноларда ишлатилса, дарий ва

пашту тилларида “қийинчилик”, “ноқулайлик” маъноларида қўлланилади. Бундай камчиликлар яқин тиллардан қилинган деярли барча таржималарда учрайди. «Кийим, уст-бош», «кўриниш, қиёфа» каби маъноларга эга бўлган *«kılık»* сўзи баъзан ўзбек тилидан турк тилига матн ўгираётган таржимонга панд беради. Чунки «қилиқ» сўзининг ўзбек тилидаги маънолари туркчадан бир оз фарқли: «феъл-атвор, характер», «одат», «ўрганиш», «хатти-ҳаракат» каби.

Келтирилган мисоллар бадиий таржиманинг, хусусан, яқин тиллардан таржима соҳаси етарли даражада ривожланмаганлиги, унинг қоида ва принциплари ҳали етарлича ишлаб чиқилмаганлиги ҳамда бу соҳа назоратдан бир қадар четда қолганлиги, бу борада таржимонлар ўзлари хоҳлаган усулда таржима қилаётганлиги, бу соҳага профессионал таржимонлар қолиб, кўпинча тасодифий кишиларнинг қўл ураётганлиги ўзбек таржимашунослигидаги мавжуд муаммоларнинг янада кўпайишига сабаб бўлаётганлигини кўрсатади.

Таржима назариясида «сохта эквивалентлик» мавзуси етарлича талқин этилган бўлса-да, муайян жанрдаги асар таржимасига қандай принцип асосида ёндашиш таржимонларнинг интуициясига ҳавола этилган бўлиб, кўп ҳолларда яқин тилда битилган асар таржимасида тутилган йўл узоқ тилдаги асарни ағдариш принципидан фарқ қилмайди. Бу эса хорижий бадиий асарга нотўғри баҳо берилишига ҳамда фан тараққиётига салбий таъсир кўрсатувчи хулосалар чиқарилишига олиб келади. Қардош тиллар қандай хусусиятларга эга бўлишидан қатъи назар, бундай таржима узоқ тиллардан таржимага нисбатан бирмунча қийин бўлади. Чунки, қардош тиллар лексиконида шаклан бир хил, мазмунан эса бир-биридан фарқ қилувчи, ҳатто буткул бошқа маъно англатувчи сўзлар учрайди.

«Сохта эквивалентлар» тилларнинг ўзаро таъсири, айрим ҳолларда эса тасодифий мос келишлар натижасида юзага келади. Уларнинг умумий миқдори ва эҳтимолий манбалардан ҳар бирининг юзага келишдаги ўрни алоҳида олинган ҳар бир тиллар жуфтлиги учун фарқлидир. Буни тиллар орасидаги генетик ва тарихий муносабатлар белгилайди.

Умумий қилиб айтиладиган бўлса, сохта эквивалентлик муаммоси таржимоннинг ўз билими ва хотирасига ортиқча

ишониши, манбаларга эътибор бермаслиги, қунтсизлиги, бир лаҳза паришонхотирликка берилиши, ҳатто фойдаланилаётган манбанинг етарли даражада ишончли эмаслиги оқибатида юзага келади. Икки тил, икки халқнинг миллий ўзига хосликлари, маданияти, қадриятларини яхши билган моҳир таржимон бунга йўл қўймайди.

Хулоса қилиб айтганда, ўзаро яқин тиллар орасида бевосита таржима килиш аслида бошқа тиллар орасида қилинаётган таржимадан анча осон. Албатта, қардош тилларнинг грамматик қурилиши, лексика ва фразеологиясида ўхшашликлар, муштарак қонун-қоидалар ва умумийликлар кўп. Бироқ бундан таржимада бир тилдаги сўзларни иккинчи тилга кўчириб кўя қолиш мумкин экан, деган хулоса келиб чиқмайди. Демак, ўзаро яқин тиллар орасида таржимани амалга оширишнинг қулайликлари билан бирга қатор ўнғайсизликлари борлигини ҳам бор тан олиш керак. Бинобарин, бир сўзнинг хам аслият тилида, ҳам таржима тилида (кўпинча ўзаро яқин тиллар орасида) турлича маъно касб этиши натижасида юзага келган “алдоқчи сўзлар” таржимашуносликнинг муҳим масалаларидан бўлиб қолмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

Илюшкина, М. Ю., Теория перевода: основные понятия и проблемы: [учеб. пособие] / [науч. ред. М.О.Гузикова]; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. –Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2015.

Очилов Э., Яқин тиллардан таржима муаммолари, мақола, Таржима масалалари, илмий мақолалар тўплами, Тошкент, 2012.

Исомиддинов З. “Алдоқчи сўзлар” билан баҳс // “Таржима санъати“ (Мақолалар тўплами). 5-китоб, 159-б. – Тошкент, 1980.

Саломов Ғ., Таржима ташвишлари. –Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашрииёти, 1983 –192 б.

Федоров А. В. Искусство перевода и жизнь литературы. – Л.: Сов. писатель, 1983. – 116 с.

Yusuf Berdak, Turkcha – o‘zbekcha “aldoqchi” so‘zlar lug‘ati. Türkçe-Özbekche Sesteş Kelimeler Sözlüğü, Toshkent, 2009.

Ҳамидов Х.Х. Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. – Тошкент: ТошДШИ, 2014. – 148 б.

O‘RTA ASRLARDA ESKI O‘ZBEK TILIDA BITILGAN RASMIY MATNLARDA QO‘LLANGAN IJTIMOIY-SIYOSIY, HUQUQIY BIRLIKLARNING TALQINI VA TARJIMASI MASALASI

Filol.f.d. ***Qudratulla OMONOV,*** *TDSHU professori*

Til tizimida so‘zning ahamiyati, uning matnni anglashdagi yetakchi o‘rnini ko‘rsatadi. So‘z har qanday janrdagi matnning asosiy birligidir. Muayyan leksik birliklarning matndagi vazifasini, asosan, so‘z stilistikasi o‘rganadi. U muayyan nutq vaziyatida ishlatilayotgan so‘zning o‘rniga baho beradi. Shuningdek, turli uslublarda so‘z ishlatishning o‘lchovlarini ishlab chiqadi.

So‘z stilistikasi zamonaviy semasiologiya qo‘lga kiritgan yutuqlarni qo‘llagan holda tildagi mavjud so‘zlarni turli-tuman sistemali bog‘lanishini o‘rganadi. Bunday yondashuv, birinchi navbatda, rasmiy matnlar uchun ma’lumotni aniq berish vositasi bo‘lib xizmat qiluvchi, atamalar va ijtimoiy-siyosiy, huquqiy birliklarni o‘rganishni taqozo etadi. So‘z stilistikasining markazida so‘zlarning qo‘llanishida uslub jihatdan farqlanishi, turli muloqot o‘rinlarida kerakli leksik vositalarning ishlatilish qonun-qoidalarini tahlil etish turadi.

So‘zga uslub jihatdan yondashuv fikrni aniq ifodalashga ko‘mak beruvchi so‘zni tanlash muammosini keltirib chiqaradi. Muallif tomonidan so‘zning to‘g‘ri tanlangani uslub fazilatigina bo‘lib qolmay, matnning axborot tashish qimmatini oshiradi va uning mazmun ta’sirini kuchaytiradi. Bu masalada o‘tmishda to‘g‘ri yo‘l tutilgan. Rasmiy matnlarda so‘z tanlashga katta ahamiyat berilgan.

O‘rta asrlarning eski o‘zbek tilida bitilgan hujjatlar matnini tahlil etish kundalik so‘zlashuvda ishlatiladigan ayrim leksik birlik va birikmalar rasmiy matnga o‘tganda atamalik xususiyatini bajarganligini ko‘rish mumkin. Rasmiy matnlar bilan davrdosh yozma yodgorliklarda qo‘llangan, kundalik muloqotda muayyan ma’nolarda ishlatib kelingan so‘z rasmiy uslubda yangi ma’noda, istilohiy anglamda ishlatilgan.

So‘zimiz quruq bo‘lmasligi uchun o‘rnaklarga murojaat qilsak. Masalan, davrdosh yodgorliklarda al birligi ko‘p uchraydi. Bu so‘z asosan, “hiyla” ma’nosida qo‘llanilgan. Ayni birlik rasmiy matnlarda “tovlamachilik” ma’nosida huquqiy birlik anglamida keladi. Yoki, barchamiz yaxshi biladigan yazuq so‘zi o‘rta asr manbalarida “gunoh”

ma’nosida qo‘llanilgan. Hozir ham ayni ma’noda “yozig‘im nima?” so‘rog‘ida ishlatamiz. Biroq bu birlik rasmiy matnlarda atama sifatida “jinoyat” anglamida keladi. Yana bir misol: tilämäk birligi o‘tmishda yaratilgan asarlarda ko‘p uchraydi hamda “tilamoq, so‘ramoq” ma’nolarini beradi. Ushbu so‘z hujjatlarda rasmiy “arz etish” ma’nosini beradi. “Qut” so‘zi ham shunday. U yozma manbalarda “tole’, baxt” ma’nosida, rasmiy matnlarda esa “siyosiy hokimiyat” anglamini beradi. Buning singari misollarni o‘nlab keltirish mumkin.

Rasmiy matnlarda leksik birliklarning kundalik muloqotdan boshqa o‘ziga xos ma’noda, istilohiy anglamda kelishi, o‘rta asrlardan qolgan turkiy hujjatlarni hozirgi o‘zbek, turk, rus, nemis tilidagi tarjimalarida ko‘pda hisobga olinmagan. Qator ishlarda rasmiy matnllardagi so‘zlar va birikmalar davrdosh yodgorliklarda qo‘llangan kundalik muloqotdagi ma’nolaridan foydalanib talqin etilgan [1]. Ota-bobolarimizdan qolgan qadim hujjatlarda huquqiy, ijtimoiy-siyosiy atamalarni anglatishda kundalik turmushdagi muayyan biror bir leksik birliklaprdan foydalanilgan. Hujjatlar tarjimasida ushbu masalani doimo e’tiborda tutish kerak.

Turkiy hujjatlarning zamonaviy nashrlarida hujjatdagi ayrim ijtimoiy-siyosiy, huquqiy birliklarni xato o‘qish oqibatida ham tarjima va talqinda yanglish mulohazalar yuzaga kelgan o‘rinlar ko‘p uchraydi.

Xususan, Temuriylar salatanatining markazlaridan biri Hirotda 1422 yilda Shohruh Mirzo nomidan berilgan suyurg‘ol hujjatining boshlanishiga diqqat qaratsak. Ushbu hujjat kirishida davlatning kirim-chiqim, savdo-sotiq, soliq yig‘ish ishlarini olib boruvchi va nazorat qiluvchi mahkamalarga murojaat qilinadi: Divānlarğa. – «Devonlarga» [2]. Shu o‘rinda matnda berilgan mazkur atamaning franzuzcha talqiniga e’tibor qaratsak. Hujjat matnini frantsuz sharqshunosi J.Deni fanga ma’lum qilgan edi; o‘qilishi va mazmunini ham birinchi bo‘lib shu olim keltirgan. Fanga olib kirilgani va birinchi bor o‘qilishi turkologiya uchun katta kashfiyot. Lekin kamchiligi bor: o‘qilishi va mazmunda ayrim xatolar ketgan. Olim hujjat boshlamasidagi murojaatni divānlarğa birligini toyunlarğa ko‘rinishida o‘qib, frantsuzchada Aux moines (bouddigues) (buddaviy rohiblarga) deya tarjima va talqin etadi [3].

Uning tarjimasi va talqini Shohruh Mirzo hujjati ustida ish olib borgan boshqa olimlarni ham chalg‘itib qo‘ydi. Chunonchi, sankt-

peterburglik tarixchi A. Grigorьev rasmiy matnning boshlamasi to‘g‘risida fikr bildirib: “Shohruh bitigi “budda rohiblariga” qaratilgan. Biroq matn mazmunidan hujjatda berilayotgan imtiyozlar budda rohibiga emas, musulmon ruhoniysiga berilganligi ayon bo‘ladi. Shuning uchun o‘sha kezlarda “to‘yun” atamasi buddaviy ruhoniylardan tashqari, boshqa dinga e’tiqod etuvchi kishilarga nisbatan ham qo‘llanilgan bo‘lishi mumkin”, – deb yozgan edi [4]. Asl matnga e’tibor qilinsa, bu so‘zning budda rohiblariga umuman bog‘liqligi yo‘q: u toyunlarğa emas, divānlarğa deb o‘qiladi. Bu so‘z matn boshlamasining adresati bo‘lib, Shohruh Mirzoning murojaatini anglatadi. Matnni ana shunday o‘qilganda, unga munosabat ham o‘zgaradi.

Umuman, so‘z tarkibi va leksik birliklarning tanlanishi jihatidan ilk va o‘rta asrlardan qolgan rasmiy matnlar uslubi o‘ziga xosdir. Bu o‘zgachalik hujjatlar matnida umumturkiy lug‘at qatlamidagi mavjud birliklar kundalik muloqotdagi ma’nolaridagina emas, balki hujjatlar uslubiga tegishli istilohiy anglamda qo‘llanishi mumkin. Ana shundan kelib chiqib rasmiy matnlarning zamonaviy tarjima va talqinlarini amalga oshirish o‘rta asrlardan qolgan turkiy hujjatlar matni va mazmunini to‘g‘ri talqiniga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] *Radloff W.W.* Uigurische sprachdenkmäler. Leningrad, 1928.

[2] *Омонов Қ.Ш. XIV*–XV асрларда уйғур хатида битилган имтиёз ҳуқуқини берувчи давлат ҳужжатларининг лисоний-услубий тадқиқи. Номзодлик диссертацияси. Тошкент, 1997.

[3] *Deny 1959 – Deny J.* Un Soyurgal du Timouride Sahruh en ecriture Ouigoure. // Journal Asiatique. Tome CCXLV. Paris, 1957. Pp. 253–266.

[4] *Григорьев 1978 – Григорьев А.П.* Монгольская дипломатика XIII–XV вв. Л., 1978, 134 стр.

TARJIMA SIYOSATI HAQIDA

***Zuhriddin ISOMIDDINOV**, filologiya fanlari nomzodi*

Shu paytga qadar biz ona tilimizga qanday asar tarjima qilinmasin, barchasini olqishlab keldik. Tilimizda yangragan asarlar ko‘p bo‘lishini tiladik. Nimagaki, tarjimalar oz edi. Aslida, hozir ham ko‘p emas. Masalan, bizga yaxshi tanish bo‘lgan rus tarjima adabiyoti ko‘lamini qarasak, dunyoning yuzga yaqin tilidan bevosita o‘giriladi. Biz esa

oʻntacha tilning nari-berisida ish koʻryapmiz. Uning ham aksari keyingi oʻttiz yil – istiqloldan keyin qoʻshildi. Ungacha chet el adabiyoti namunalari rus tilidan oʻzbekchalashtirilar edi. Bu hukumat tomonidan ragʻbatlantirilib kelgan. Chunonchi, rus tilidan qilingan sheʼriy tarjimaning har bir misrasi uchun 1 soʻm 40 tiyindan haq toʻlansa, turkiy tillararo she'riy tarjimaning har misrasiga 70 tiyindan – ruschadan oʻgirishning yarmi miqdorida qalamhaqqi berilar edi va bu hol turkiy tillardan ham rus tili vositasida oʻgirishga ragʻbatlantirishga omil boʻldi. Shuning uchun, oʻtgan asrning 30-90- yillari oraligʻida oʻzbek tilidagi tarjimalarning kamida 95 foizi rus tilidan qiliindi. Endi – XXI asrning yigirmanchi yillariga kelibgina rus, tojik, arab, ingliz, olmon, turk, ozar, qozoq, qirgʻiz, turkman, tatar va hokazo yana bir necha tillardan tarjima qilib turibmiz.

Bizga, axir, yapon, hind, xitoy kabi tillardan qilingan tarjimalarga koʻzingiz tushmadimi, deb savol berishlari mumkin. Rost, bular ham bor, ammo hali surunkali tus olganicha yoʻq, ulardan oʻzbek tiliga bevosita tarjima qilish amaliyoti tetapoya pallasida, oʻgirish koʻnikmalari shakllanmagan, asosan shu til muallimlari – adabiy ish tajribasiga ega boʻlmagan soha mutaxassislari faoliyat yuritib kelishyapti, ular orasida adabiyot maydonida taniqli boʻlgan shoir va yozuvchilar yoʻq hisobi. Endi xorijiy tillardan bevosita oʻgira oladigan mutarjimlar koʻpayishi va ularning til “geografiyasi” kengayishi lozim.

Ikkinchidan, bizda bundan yigirma yillar muqaddam “Oʻzbekistonni dunyoga tanitamiz”, degan bir gʻoya oʻrtaga tashlandi va tanitish uchun qanday vositalar taklif etilsa – ma'qul deb topildi. Shu yoʻsinda, “hech bir narsa mamlakatni sport va san'at kabi dunyoga tez tanita olmasligi” aytildi. Siz bilasiz, adabiyot – soʻz san'ati, shundan kelib chiqib, badiiy tarjima ham san'at turi oʻlaroq, bizni “dunyoga tanitadigan vosita” deb qaraldi. Oʻsha harakat inersiyasi sifatida unga tarixda misli koʻrilmagan vazifa yuklandi – oʻzbek qalamkashlari, agar biron chet tilni bilsa, adabiyotimiz namunalarini oʻsha tilga tarjima qilishi kerakligi ta'kidlandi, buning uchun kadrlar tayyorlashga ham kirishilib, birnecha oliy oʻquv yurtlarida vetnam, korey, yapon, ingliz va hokazo tillarga kelgusida badiiy tarjima qilishi kutilayotgan talabalar oʻqitila boshladi.

Mutaxassis chet tilni puxta oʻrgangan boʻlsa, ikki kishi oʻrtasida tilmochlik qilishi yoki bir notiqning chiqishini koʻpchilikka chiroyli tarzda talqin etib berishi mumkin, bu toʻgʻrisida e'tirozimiz yoʻq.

Xorijga eksport qilinayotgan texnika, dori-darmonlarning yo‘riqnomasini ham ajnabiy tilda to‘la bera olishlariga ishonchimiz komil. Ammo badiiy asar... bu boshqa olam-ku?

O‘zbek tarjimachiligini to‘g‘ri va ilmiy asosli tarzda yo‘lga qo‘yish uchun ana shu yanglish qarash asosida shakllangan amaliyotdan – o‘zbek adabiyoti asarlarini boshqa tillarga o‘zimiz o‘girib taqdim etishday ajabtovur bir ishdan voz kechib, barcha kuchlarni boshqa tillardan o‘zbekchaga tarjima qilish sari yo‘naltirishimiz darkor. Hyech bir xalq o‘z asarini boshqa tilga o‘zi ag‘darib bergan emas, agar shunga qo‘l urilgan bo‘lsa, bu ish barbod bo‘lgan. Inglizlar yapon tiliga, olmonlar farangchaga, ruslar hindchaga – hyech qaysisi o‘z asarini boshqa xalqlar tiliga tarjima qilmaydi. Masalan, bizga yaxshi bir muhit: loaqal biron to‘rtlik yoki chastushkani ruslar o‘zbek tiliga tarjima qilib berganmi? Yo‘q. Chunki bu badiiy ijodning tabiatiga xilof, tarjima kabi yuksak san'atning mohiyatini tushunmaslik bo‘lar edi.

Unda, Navoiyni, Boburni va boshqa mumtoz shoirlar asarlarini, Oybek va Hamid Olimjon asarlarini rus tiliga o‘girgan Lipkin, Derjavin, Grebnyov kabi o‘nlab rus tarjimonlari eski o‘zbek tili tugul, hozirgi tilimizni ham bilishmagan, bunda o‘zbek adiblari shu asarlarning rus tiliga taglamalarini tayyorlab berishgan-ku, deb e'tiroz bildirishlari mumkin. Ha, shunday, ammo o‘sha taglamalarni she'riy baytga, oxir-oqibat esa badiiy tarjimaga – adabiy ijod namunasiga aylantirish biz tilga olgan rus mutarjimlarining xizmati, ular faqat taglamadan o‘giribgina qolmay, til bilmasa ham asliyatga e'tibor berib, taglamada aks etmagan badiiy san'atlariga qadar rus tilida aks ettirishga intilganlarini ko‘rganmiz. Ammolekin biron-bir o‘zbek ijodkori rus tiliga o‘zi tarjima qilgan emas, bu boradagi urinishlar esa... urinish bo‘lib tarixda qolgan.

Chunki badiiy tarjima, yana aytamiz – san'at asari, u mutarjimdan obrazli tafakkur tarzini talab qiladi. Bunda nozik bir jihat shundaki, har bir ijodkor faqat o‘z ona tilida badiiy obraz, so‘z obrazi yaratishga qodir. Hyech bir shoir yo adib o‘zga bir tilda kishini hayajonga soladigan, uning dili tubidagi tuyg‘ularini uyg‘otishga qodir asar yoza olmaydi. Demak, boyagiday “qo‘lbola” tarjimachilik yurtimiz chet elda obro‘ qozonishiga emas, ana shu yaxshi niyatning aksiga xizmat qiladi – uni o‘qigan chet ellik kitobxon o‘zbek adabiyotining badiiy saviyasi shu ekan, deb o‘ylaydi.

Albatta, chet ellar bizni tanishi, tan olishini istaymiz, ammo bundan ham avval, biz dunyoni qanchalik taniymiz, dunyoni qanchalik bilib, anglaymiz – o‘sib rivojlanishimiz uchun bu yanada muhimroq emasmi?

Uchinchidan, tarjima asarlarini nashr etish va o‘giruvchiga qalamhaqqi to‘lash muammosini ko‘rib chiqish, ko‘rib chiqish emas, hal etish vaqti keldi. Tarjima asarlari uyoqda tursin, original ijod mahsuli ham asosan ijodkordan pul olib nashr qilinadigan bir zamonda yashab turibmiz. Shunday ekan, qaysidir bir ajnabiy adibning asarini bir-ikki yilda tarjima qilib, keyin uni chop ettirish uchun yonidan mablag‘ to‘lashga shay vallomatni qaydan topamiz? Nashriyot tarjimonni emas, tarjimon nashriyotni “boqsa”, u bu ishdan qo‘l yuvib qo‘ltig‘iga urmaydimi? Ba'zi jurnallar, nashriyotlar tarjima asarlarini bosib chiqaryapti, bunisi rost, ammo tarjima asarlar ko‘pmi bu ijod mahsullari orasida?

Oqibat, jiddiy, millatimizning ijtimoiy fikrini o‘stiradigan asarlar emas, avom sotib olib o‘qiydigan oldi-qochdilar, qotillik tafsiloti, mafiyaxonlik, oson “hazm” bo‘ladigan asarlar tarjimasi ko‘payib, ilmiy-ma'rifiy, yuksak badiiy asarlar tarjimachiligiga chetga surilyapti. Tarjimachilikni rivojlantirishga harqalay ko‘mak beradigan “Rus adabiyotining yuz jildligi” kabi nashrlar boshlandi, deb suyingan edik, u ham ora yo‘lda depsinib qoldi. Eng chatog‘i, ularda qachonlardir chiqqan tayyor tarjimalarni qayta bosish hollari ko‘p. “Turkiy adabiyot durdonalari” yuz jildligi esa hali biron jildi bosilmay turib, to‘xtadi-qoldi. Bas, ularda bugungi o‘zbek tarjima san'ati darajasi aks etishi kerakligi haqida gapirish ham ortiqcha.

Tarjima ishi chinakamiga rag‘batlantirilmasa, mutarjimga mehnatiga arzigulik qalamhaqqi to‘lash yo‘lga qo‘yilmasa, kerakli asarlar tarjimasi kamaya beradi, bu esa o‘zbek ilm-fani rivojiga ham, adabiyot taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir qiladi, pirovardida – o‘tgan yuz yillikda tarjima sohasida erishilgan yutuqlarni tobora boy berishga qarab ketamiz.

To‘rtinchidan. E'tibor qiling, chinakam yuksak san'at asari bo‘lgan asarlar bizda ko‘p yaratilyaptimi? Odil Yoqubov va Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Tog‘ay Murod, Shavkat Rahmon va Muhammad Yusuf davri bir tush kabi o‘tib, bugungi o‘quvchining kuni har yili tomtom asarlar yozvoradigan birnecha adiblaru, hyechkim intiq bo‘lib kutmasa ham, o‘nlab jild she'riy to‘plamlarini chiqarib tashlayotgan shoirlarga qolib ketmayaptimi?

Bu, endi, milliy adabiyotimizga oid. Ammo badiiy tarjimachilikda ham ahvol shunga monand. Boshqa xalqlarning mumtoz adiblari qala-

midan chiqqan narsalar kamayib ketdi. Bir mahallar turk adabiyotidan Rashod Nuri Guntekin, Sabohiddin Ali va Aziz Nesin asarlarini intiqlik bilan o‘qirdik, ular qayta-qayta nashr qilinar, har bir asar tarjimasi o‘zbek adabiyoti uchun yangilik bo‘lar, ayrimlari san'atkorlarimiz tomonidan sahnaga olib chiqilar, kinofilm qilinar ham edi. Endi esa ozar adibi Elchin Safarli, turk nosiri A.Shenliko‘g‘lu singari “yozarman”larning asarlari tarjimasi hamma yoqni bosib ketdi. Ularni mutolaa qilayotgan yosh avlodning adabiy didi ham shunga yarasha bo‘lishi tabiiy.

Va nihoyat, **beshinchidan,** modomiki jiddiy tarjima asarlari kitob bo‘lib bosilib chiqar ekan, katta tarjima adabiyotimizning taqdiri nashriyotlar faoliyatiga juda bog‘liq ekanini ham aytib o‘tish kerak. To‘g‘ri, bu sohada ko‘p yangiliklar joriy etilayotir. Va albata, ularning barchasi, beistisno ravishda, ijobiy natija beradi, deb fol ochish ham anoyilik bo‘lar edi. Biz sinov va tajriba yo‘llaridan o‘tib boryapmiz. Shunday ekan, bosib o‘tgan yo‘llarimizdagi ijobiy holatlarni “eskilik” deya uloqtirib tashlamasdan, ulardan foydalanishimiz darkor. Shu haqda o‘ylaganda, masalan men, nashriyot ochish uchun litsenziya olishning bekor qilinishi, istagan odam nashriyot ochib, bu to‘g‘rida xabar berib qo‘ysa kifoya ekanligi, xullas, bu sohani to‘liq “bozor iqtisodiyati”ga o‘tkazish sari tashlanayotgan qadamlar mafkuraviy va ma'naviy ishni kuchaytirishga xizmat qilmasa kerak, degan ishtibohdaman. Axir, nashriyot ochib noshir bo‘lish maktab ochib muallimlik qilish yoki shifoxona ochib hakimlik qilishdan ko‘ra mas'uliyatliroq ish-ku. Muallim yo duxtur ko‘pi bilan yuz-ikki yuz odamga qarasa, noshir, kerak bo‘lsa yuz ming kishining ongini o‘stirishi yoki bulg‘ashi mumkin. Chamasi, biz bunda milliy mafkuramizni asrashga qaraganda chet davlatlardagi “demokratik” mahkamalar tuzadigan allaqanday “reyting”lar shkalasida pasayib ketmaslikning g‘amini ko‘proq yeyayotganga o‘xshaymiz.

Istagan odam nashriyot ochishi mumkin bo‘lgani uchunmi, keyingi paytda nashriyot deganingiz bolalab ketdi. “Munir”, “Buuk media-nashr” kabi yangi va yangi nashriyotlar chiqib, to‘rtta jumlani eplab yoza olmaydigan, ammo kompyuter ustasi bo‘lgan ustasi faranglarni ishga olib, “Gugl” internet kompaniyasining onlayn-tarjima xizmatiga dunyo adabiyoti klassiklari bitgan asarlarni texnik saviyada tarjima qildirib, uni yaltir-yultir muqovada chop etib, adabiyotimizga katta ziyon yetkazayotir. Nabi Alimuhamedov, Mirzakalon Ismoiliy, Qodir Mirmuhamedov, O.Sharafiddinov, I.G‘afurov kabi ulug‘ mutarjimlar o‘girgan asarlarni emas, xuddi shu asarlarning “Gugl” o‘girgan chulchutcha

“tarjima”larini bosib chiqarib, boplab pullayotir. Bu esa, voqyean, ustoz adiblarning eng go‘zal tarjimalarini inkor etish bo‘ladi, albatta.

Xayriyatki, “Gugl-tarjimon”ning she'riy asarlarga tishi o‘tmaydi. Yo‘qsa, o‘nlab she'riy romanlar “tarjima”sini ham tutal gap eshitayotgan odam kabi tutab o‘qiyotgan bo‘larmidik?

“Gugl” tarjimasidan qandaydir texnik matnlarni o‘girishda foydalanish mumkindir, ammo... qo‘limda bo‘lsa edi, badiiy asarni mashinaga tarjima qildirishday bema'nilik va bunday yo‘l bilan daromad topishday muttahamlikka taqiq qo‘ygan bo‘lar edim.

Bugun har bir millat hayotida original manbalarga qaraganda tarjima ko‘proq. Gazeta-jurnalu radio-televideniedagi, ijtimoiy tarmoqlardagi axborotning asosiy qismi – tarjima. Shunday ekan, ona tilimizning sofligi va tabiiyligini asrashni, elning ma'naviy bikrligi va komilligini parvarishlashni, ilmiy va ma'rifiy hayotimiz go‘zalligini muhofaza qilishni, o‘zligimizni saqlab qolishni istasak, tarjima ishini rivojlantirishimiz, uning sifati va saviyasini yaxshilash g‘amini yeyishimiz kerak.

ALISHER NAVOIY IJODINING OLMON TILI VA ADABIYOTIDAGI RETSEPTSIYASI: TALQIN, TABDIL VA TARJIMA MUAMMOLARI

***Xurram RAXIMOV**, O‘zDJTU professori*

Insoniyat tarixida turli millat va elatlar o‘rtasida boshlangan dastlabki muloqotlardayoq bir-birini tushunishda psixologik va madaniy-ma’rifiy retseptsiya jarayoni muammolar bilan limmolim: to‘g‘ri tushunish natijasida do‘stona , egri tushunish natijasida esa dushmanona munosabatlar yuzaga kelgan. Bu jarayon deyarli barcha ko‘rinishva sohalarda o‘zini namoyon qiadi.Quyida biz ana shu jaryonlarning adabiyoyotda Alisher Navoiyning ijodining olmonzabon adabiyotlarda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq ayrim holatlarni tahlil qilishga haraat qilamiz.

Ma’lumki, adabiy jarayonda paydo bo‘ladigan retseptsiya dastavval adabiy aloqalarda va bundan so‘ng tabdilu tarjimlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu hodisa ayniqsa bevosita kontaktda bo‘lgan va

qolaversa uzoq-yaqin millatlar o‘rtasidagi og‘zaki va yozma shaklda ko‘zga tashlanadi. Makon va zamon nuqtai nazaridan olmon va o‘zbek xalqlari va tillari bir—biridan uzoq va o‘zaro bevosita kontaktda emas. Millatlararo aloqaning bir ko‘rinishi bo‘lgan madaniy, jumladan adabiy aloqa esa aynan tarjima orqali amalga oshadi. O‘zbek-olmon adabiy aloqalari tarixi esa asosan aynan Alisher Navoiyning “Xamsa”sidagi “Sabai sayyor” dostoni tarjimasi bilan boshlangan. Doston 1512 yili forschaga va 1528 yili italyan tiliga qisman o‘girilgan. Olmon tiliga esa bu doston rus sharqshunos olimi Bartold ma’lumotiga qaraganda, ana shu italyancha tarjimadan 1580 yilda amalga oshgan va u Shveytsariyaning Syurix shahri kutubxonasida saqlanmoqda. Demak, o‘zbek-olmon adabiy aloqalari tarixining boshlang‘ich sanasi 1580 yil. Alisher Navoiy asarlarini o‘zbekchalashtirish ishini 1863-1867 yillar Turkiston o‘lkasiga ilmiy safar bilan kelgan mojar olimi Herman Vamberi davom ettirgan. U “Chig‘atoy tili tadqiqotlari” nomli fundamental asarida o‘sha davr o‘zbek tili va adabiyotiga bag‘ishlangan bu asarida turli adabiy asarlar asli va ularning olmoncha tarjimasini o‘z tarjimasida bergan. Jumladan, Navoiyning “Farhod va Shirin”idan bir parcha, xalq og‘zaki ijodidan “Yusuf va Ahmad” dostonini, bir qancha o‘zbek xalq ertaklari va o‘zbek xalq maqollarining tarjimasini, dastlabki o‘zbekcha-olmoncha lug‘at loyihasini e’lon qilgan. Xorijliklar ning o‘z ona iliga qilgan tarjimalaridan tashqari o‘zimizning olmonshunos tarjimonlarimiz ham Navoiy ijodidan chet til bo‘lgan olmon tiliga tarjimalarni amalga oshira boshladilar. Bu jur’atli ishni tajribali tarjimon marhum Yo‘ldosh Parda boshlab, u Alisher Navoiydan 20 ta g‘azal va birqancha ruboiylarni olmoncha tarjimada 1992 yil e’lon qildi. Uning tarjimalarini olmonzabon shoira Nora Pfeffer qayta ishlab, olmoncha metrika va matnda chop ettirdi.

Shu paytdan boshlangan o‘zbek olmon adabiy aloqalari “Boburnoma” tarjimalari bilan davom etigan. Аммоб ana shu “Boburnoma”ning o‘zbekcha asliyatdan forschaga va forschadan ingliz tiliga Erskin va Laydenlar amalga oshirgan tarjimasida qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yilgan. Z.M.Boburning shu asarda Alisher Navoiyga munosabat bildirib aytgan “Alisherbek munshoot tuzishda Jomiyga taqlid qilgan” degan fikrini ingliz tarjimoni “Alisher Navoiy badiiy ijodda Jomiy va Attorga taqlid qilgan va “Xamsa” asarini Nizomiydan tarjima qilgan” qabilida inglizchalashtirib, juda katta tarixiy va tarjimaviy xatoga yo‘l qo‘yganki, natijada Yevropada Alisher Navoiyning ijodkor shaxs

sifatidagi siymosining noto‘g‘ri retseptsiyasi tarqalib ketgan. Bu holat hattoki Germaniyalik o‘zbekshunoslarning mashhuri bo‘lgan professor Ingeborg Baldauf xonim fikrlarini ham chalg‘ita olgan. Kamina Uchqun Nazarovning “Chayon yili” romanini olmon tiliga muvaffaqiyatli o‘girgan Ingeborg Baldauf xonim bilan bo‘lgan telefon orqali muloqotida mutarjitmni bu yutug‘i bilan tabriklab, biroq tarjima izohlarida tarjimon yozgan “O‘zbek adabiyotining asoschisi Z.M.Bobur” degan izohli qaydlarini eslatdim va hozirgi o‘zbeklarga o‘zbek tili va adabiyotining asoschisi maqomi Alisher Navoiyga nisbatan aytilishini bildirganimda, opa “Bu fikrga men qo‘shila olmayman, chunki Alisher Navoiy o‘zbek emasku, u uyg‘ur millatiga mansub”, deb javob berganlar. Bu fikr albatta chalkash fikr, chunki 2021 yil 9 fevralda Alisher Navoiyning tavalludiga 580 yil to‘lishi munosabati bilan Toshkentdagi Adiblar xiyobonida o‘tkazilgan katta tadbirda Afg‘onistonning O‘zbekistondagi elchisi hazrat Navoiyni buyuk o‘zbek shoiri sifatida qayd qilgan edi. Navoiyga nisbatan uning uyg‘ur millatiga aloqadorligiga asos qilib ayrim munaqqidlar shoirning onasi tarafidan uyg‘urlarga dahldorligi haqida davo keltiradilar. Biroq butun hayoti va ijodida o‘sha paytdagi o‘zbek tilining chig‘atoy variantida qalam tebratib, tilimizning imkoniyati va lisoniy qudratini isbotlash uchun maxsus filologik asar yozgan va o‘zning barcha asarlarida shu tilning hadsiz imkoniyatlarini namoyish qilgani uchun ul zotni xalqimiz o‘zbek tili va adabiyotining asosichisi maqomida ko‘rishini ayrim xorijlik turkolog olimlar bu faktni hisobga olmasliklari ajablanarli, albatta. Ana shu misolda ham buyuk shoir siymosi retseptsiyasi nohaq ravishda buzilganiga iymon keltirsa bo‘ladi.

Retseptsiya hodisasi nafaqat ikki til muqoyasasida namoyon bo‘ladi. Bu jaroyon bitta tilning turli davrlari misolida, jumladan Alisher Navoiy asarlarining hozirgii o‘zbek tilidagi tabdili va talqinida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunga kamina ulug‘ shoir g‘azallarini olmon tiliga o‘girish jarayonida amin bo‘ldim.

Hazrat Navoiy tavalludining 575 yilligi arafasida Yozuvchilar uyushmasi topshirig‘iga binoan tavsiya qilingan g‘azallar tarjimasini boshlashga to‘g‘ri keldi. Tarjimadan oldin men sharq shoirlari Mavlono Rumiy, Hofiz Sheroziy, Sa’diy Sheroziy, Umar Hayyom kabilarning nemischa tarjimalarini, qolaversa Fridrix Ryukkert, Avgust Platen, Hammer fon Purgshtal, Teodor Shtorm, Gotfriyd Keller, Detlev fon Liliynxron, Haynrix Hayne kabi olmonzabon g‘azalnavis shoirlar ijodi-

ni o‘rganib chiqdim. Tarjimada g‘azallarning mazmuni va shaklini hamda boshqa janr xususiyatlarini saqlashga baholu qudrat harakat qildim. Biroq Navoiy asarlarining 10 jildlik antologiyasi, to‘rt jildlik Navoiy asarlari izohli lug‘ati, O‘zbek mumtoz adabiyot lug‘ati, o‘zbek tilining besh jildli izohli lug‘ati va boshqa birqancha manbalarni, jumladan shu g‘azallarning Aziz Qayumov, Najmiddin Komilov, Alibek Rustamov, Vahob Rahmonov, Ibrohim Haqqulov, Nusratullo Jumaxo‘ja, Boqijon To‘xliev, Karomat Mullaxo‘jaeva, Zuxriddin Isomiddinov va boshqa adabiyotshunos va tarjimashunoslar, ayniqsa shoira Sharifa Salimova tayyorlagan nasriy bayonlarini qarasak-da, Hazrat Navoiy lisoniyati uslubiyoti va ruhoniyati salohiyatini anglay ololmagan holatlarimiz ko‘p bo‘lganini tan olamiz. Chunki, 15-asrda bitilgan bu g‘azallarda aksariyat so‘z, ibora va obrazlar ko‘chma va so‘-fiyona ma’nolar kasb etgan, ko‘plab lisoniy iboralar arxaiklashgan. Munaqqid N.Jumaxo‘ja birgina “Qaro ko‘zum” g‘azalining turli talqin va tabdillariga bag‘ishlab katta monografik asar e’lon qildi. Unda 40dan ortiq o‘zbek adabiyotshunoslari va navoiyshunoslarining ana shu bittagina g‘azal talqini va tabdiliga bag‘ishlngan nasriy bayonlarini keltirgan va birorta munaqqid haligacha Navoiyning “Qaro ko‘zum” g‘azalini asliyatmonand tabdil qila olmagan, degan o‘z xulosasi bilan kitobini yakunlagan. Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek adabiyotshunoslari ichida ham Navoiy g‘azallarining retseptsiyasida hali hamon yakdillik yo‘q. Biroq bizdek oddiy olmonshunos bechora hazratning yuz g‘azalini olmon tiliga baholi qudrat ag‘darishga harakat qildik. Bu ishda bizga o‘zbek germanist olimlari professor Shavkat Karimov, filologiya fanlari doktorlari Roviyajon Abdullaeva va Zohidjon Sodiqov, professor Otaboy Jumaniyozovlar, qizim - Olmoniyada doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan Gulruh Raximovalar, Olmoniyalik shoira Gabriele Keller xonim o‘z maslahatlarini ayamadilar. Dastlabki 100 g‘azal tarjimasi 2021 yil yanvar oyida Toshkentning Adabiyot nashriyotida “Alisher Navoiy. Qaro ko‘zum. Meine Schwarzäugige” nomi bilan chop etildi. Shu yilning may va sentyabr oylarida shu g‘azal tarjimasi Berlin va Frayburg shaharlarida Alischer Navoiy. Liebeslieder der Nachtigall nomi bilan nashrdan chiqdi.. Bu nashrlarga o‘zbek va olmon mutaxassislarining tanqidiy taqrizlari ham e’lon qilindi. Jumladan Berlindagi Fraye universitetning Turkologiya instituti professori Barbara Kelner-Haynkele xonim, Berlindagi Humboldt universitetining

o‘zbek tili va adabiyoti muallimalari - fan doktorlari Zigrid Klaynmixel va Barno Aripova xonimlar, Frayburglik shoira Gabriele Keller xonimning, Namangan davlat universiteti proffessor Zohidjon Sodiqovning olqishli e’tiroflari e’lon bo‘ldi. Olmoniyada chop etilgan bu kitoblarimizning 2021 yil noyabr oyidagi katta iqtisodiyot forumida mamlakatimiz bosh vaziri Abdulla Aripov ishtirokida taqdimoti o‘tkazildi. Biz esa boshlagan ishimizni davom ettirishga, Navoiyning shoh asari Xamsa dostonlarini olmon va o‘zbek tarjimonlari bilan hamkorlikda jamoa bo‘lib tarjima qilishga kirishdik. Shu o‘rinda tanqidchi xonim va janoblarga iltimos qilgan bo‘lardik: sizning maxsus vaqt ajratib bildirgan munosabatingizdan mamnunmiz. Yaxlit g‘azal va yoki asar tarjimasini biz bilan baham ko‘rsangiz, nur ustiga a’lo nur va ayni muddao va xayrli ish bo‘lgan bo‘lur edi. Shu orqali o‘zbek adabiy tili va adabiyotimizning asoschisi Hazrat Navoiyning ruhoniyati va ijodiy salohiyati bor bo‘y-basti bilan yanada yorqinroq namoyon bo‘lur edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Babur. Babur nama. Zürich 1980. Übersetzung von W. Stammler.
2. Alischer Navoiy. Die Perlen aus dem Ozean. Übersetzung von J. Parda und Nota Pfeffer. Taschkent. Sharq 1922.
3. Raximov X. Alisher Navoiy. Qaro ko‘zum. Alissher Navoiy. Meine Schwarzäugige. Adabiyot 2021.
4. Rachimov Ch. Die Liebeslieder der Nachtigall. Freiburg 2021.
5. Jumaxo‘ja N. Qaro ko‘zum. Toshkent: Sharq 2021.

G‘AYBULLA SALOMOV TARJIMASHUNOSLIK MAKTABI

filol.f.d. (DSc) ***Zohid SADIQOV****, NamDU, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri*

Salima SADIQOVA*, NamDU o‘qituvchisi*

Ushbu maqolada o‘zbek tarjimashunosligi asoschisi, professor G‘aybulla Salomov tarjima maktabining o‘ziga xos tomonlari o‘rganilib, bunda olimning tarjimon mahorati, tarjima va adabiy aloqalar, bir asarning bir necha tarjimalari bo‘lishi muqarrarligi hamda asliyat matniga nisbatan tarjimonlarning ixtisoslashuvi borasidagi qarashlari tahlil etildi.

Tarjima nazariyasi fani dunyoda ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo‘la boshladi. Mazkur fan bo‘yicha jahonning turli mamlakatlarida o‘ziga xos maktablarga asos solindi. Jumladan, AQShda Yujin Nayda, Fransiyada Jorj Munen, Germaniyada Otto Kade, Avstriyada Erix Prunch, Bolgariyada Anna Lilova, Slovakiyada S.Vlaxov va S.Florin hamda Dionaz Dyurishin, Rossiyada Andrey Fyodorov, Gruziyada Givi Gachechiladze, Ozarbayjonda Bayram Tohirbekov, Armanistonda Levon Mkrtichyan, Belarussiyada Kopanev kabilarning maktablari ma’lum. O‘zbekistonda esa bu mas’uliyat G‘aybulla Salomov chekiga tushdi. U o‘sha paytlarda birinchilardan bo‘lib “Tarjima nazariyasiga kirish” (1978) darsligini yaratdi. ToshDU (hozirgi Milliy universitet) qoshida ilk bora “Tarjima nazariyasi” kafedrasini tashkil etdi. Oliy ta’lim tizimida tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha (Tarjima tarixi, tarjima nazariyasi, tarjima tanqidi) fan dasturini ishlab chiqib, ta’lim jarayoniga tadbiq qildi. U asos solgan tarjima maktabiga xos o‘ziga xoslik, avvalo, *tarjimaga san’at sifatida qarash*ida ko‘rinadi. Bu borada ustoz shunday deydi:

“Tarjimaning san’at ekanligiga 3ta dalil:

Birinchisi, tarjimaning til sohasidagi ijod ekanligi;

Ikkinchi dalil: agar bir asarni o‘n kishi o‘girsa, ularning tarjimalari bir xil qolipdan chiqqanday, bir-biriga aynan o‘xshab qolmaydi; bil’aks jiddiy farq qiladi. Sababi, har bir tarjimon – ijodkor. Bir-biriga o‘xshamaydilar [1.18].

Uchinchi dalil shuki, ayni bir asarni o‘girganda hosil bo‘lgan bir qancha tarjimalar ijodkorlar mansub bo‘lgan maktab, adabiy an’analar, o‘girilayotgan asliyatning tabiati, tor xususiyatlari bilan bir-biridan yaqqol ajralib turadi [1.19]”.

G‘aybulla Salomov tarjima maktabining yana bir muhim jihati har bir *asliyat matnini o‘girishga nisbatan ixtisoslashuv tamoyili* edi. U o‘zining mazkur g‘oyasini badiiy asarlar tarjimasi misolida keng va chuqur tarzda asoslab berdi. Jumladan, Lev Tolstoy asarlariga Mirzakalon Ismoiliy, Anton Chexov ijodiga Abdulla Qahhor, Aleksand Pushkinga Oybek, Uilyam Shekspirga Maqsud Shayxzoda va Jamol Kamol, Chingiz Aytmatovga Asil Rashidov va Ibrohim G‘afurov, Iohann Gyotega Erkin Vohidov va Poshali Usmon, Alegeri Dantega Abdulla Oripovlarning original va tarjimaviy ijodlari uslubiy mushtaraklik kasb etishini isbotlagan holda *tarjimonning asliyat*

muallifi ruhiga uslubiy kalit topish yo‘llarini ko‘rsatib berdi [3]. Bu esa o‘z navbatida universal tarjimon, har qanday asarni tarjima qilaverish kabi noo‘rin urunishlarga keskin zarba berdi va tarjima san’ati sifatini yanada yuqoriroq pog‘onaga ko‘tarishga xizmat qildi.

G‘aybulla Salomov asos solgan tarjima maktabining yana bir muhim qirrasi unda tarjimaga nisbatan san’at sifatida qaralishi bilan birgalikda, *badiiy tarjima ham original ijod, vatan adabiyotining muhim va ajralmas qismi ekanligi*ni asoslab berganligi edi. Ustoz o‘zining “Adabiy an’ana va badiiy tarjima” [2] monografiyasi va shu yillarda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek tilida Shekspir asarlarini tarjima qilish an’analari tahlili bilan badiiy tarjimada ham xuddi original adabiyotdagi kabi o‘ziga xos an’ana bo‘lishi mumkinligini asoslab berganligi edi. Bunda Shekspirning “Hamlet” tragediyasining Cho‘lpon, Shayxzoda, Jamol Kamol tarjimalari misolida o‘zbek badiiy tarjimachiligida realistik qayta yaratishning paydo bo‘lishi bosqichlari, asliyat va tarjima, original ijod va tarjima, vatan adabiyoti va tarjima adabiyoti, tarjima – adabiy aloqa – adabiy ta’sir kabi masalalar tahlili asosida oldinga qo‘yilgan maqsad yoritib berilgan. Bu boradagi G‘.Salomov tadqiqotining originalligi shunda ediki, muallif tarjimashunoslikda ilk bor badiiy tarjima (Shekspir asarlarining o‘zbekcha tarjimalari) ning paydo bo‘lishi va uning tarjima o‘quvchisiga, teatr sahnasiga, hayotga, iste’molchiga yetib borish jarayoni ham tadrijiy, ham mavjud an’analar xususiyatlari bilan bog‘langan holda qiyosiy-tipologik asnoda tadqiq qilib berildi. Bu esa tarjimaning til sohasidagi o‘ziga xos original ijod ekanligini isbotlab berishi bilan birgalikda tarjima tarixi, tarjima tanqidi muammolarini yechishda ham muhim ahamiyat kasb etdi.

G‘aybulla Salomov tarjima maktabining betakror jihatlaridan yana biri jahon adabiyotining buyuk asarlarini qayta yaratishda ko‘plab *mohir tarjimonlar mahorati*ning o‘rganilganligidir. Uning “Tarjima nazariyasi asoslari” [4] nomli monografiyasida bu boradagi qarashlari o‘z ifodasini topgan. Xususan, o‘tgan asrning 80-90 yillarida Ogahiy (Najmiddin Komilov), Lev Penkovskiy (Komiljon Jo‘raev), Mirtemir (Zuhriddin Isomiddinov), Abdulla Qahhor (Absalom Umarov), Zulfiya (Xurshida Mamatova) kabilar uning bevosita ilmiy rahbarligida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar.

G‘aybulla Salomov tarjima maktabining keyingi o‘ziga xos xususiyatlaridan biri *tarjimaga original ijodning ikkinchi umri sifatida qaralishi*dir. Bunga ko‘ra, o‘zbek tarjimashunosligida ilk bor jahon adabiyotining buyuk siymolari ijodini o‘zbek tiliga o‘zgirish va o‘zbek adabiyoti namunalarini tarjima vositasida dunyoga tanitish borasida tadqiqotlardir.

Muallif bu borada shunday degan edi:

Buyuk so‘z ustalarining ijodi har bir xalqning milliy timsoli va g‘ururiga aylanishi barobarida, ularning asarlari olamshumul umuinsoniy, baynamilal g‘oyalar bilan sug‘orilgan bo‘ladi [1.27].

Bu boradagi tadqiqotlarning yana bir muhim tomoni bir asarning bir necha tarjimalari misolida qiyosiy tipologik asnoda izlanishlar olib borilganligidir. Natijada asliyatdan o‘girilgan bir necha tarjimaning o‘zaro farq qiluvchi jihatlari o‘rganilishi bilan birgalikda tarjimadagi vorisiylik masalasi ham e’tibordan chetda qoldirilmadi. Uning 1982 yilda shogirdi Najmiddin Komilov bilan hamkorlikda yozgan “Do‘stlik ko‘priklari” kitobida she’riy tarjima o‘ziga xosliklari tadqiq qilinib, qayta yaratish san’atidagi tarjimaviy metodlari, *aniqlik va erkinlik masalalari* tadqiq qilindi. Xususan, ustozning 1996 yilda Namanganga tashrifi davomida “Jahongashta Boburnoma” monografiyasi bu boradagi ishlarni umumlashtirishda muhim rol o‘ynadi. Natijada G‘aybulla Salomovning bevosita ilmiy rahbarligida bu borada ham bir qator doktorlik va nomzodlik ishlari himoya qilindi. Jumladan, “Boburnoma”ning ingliz tiliga tarjimalari borasida N.Otajonov, R.Karimov, M.Sobirov, D.Xoshimova, fransuzcha tarjimalari bo‘yicha S.Shukrullaeva, nemischa tarjimalari bo‘yicha G‘.Xo‘jaevlar dissertatsiya yoqladilar. Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining nemischa va inglizcha tarjimalari borasida Z.Sodiqov, Q. Sidiqovlar dissertatsiya himoya qilgan bo‘lsalar, Alisher Navoiy asarlarining ruscha tarjimalari bo‘yicha S.Olimov, K.Jo‘raevlar monografik tadqiqotlar yaratdilar. Ayni paytda jahon adabiyotining buyuk siymolaridan Gyotening o‘zbekcha tarjimalari bo‘yicha S.Jabborov, S.Salim, P.Usmon tadqiqotlar olib borgan bo‘lsalar, Shiller ijodi bo‘yicha O‘.Nurmatov o‘zining nomzodlik ishini himoya qildi. Bundan tashqari ingliz Jorj Bayron she’riyatining o‘zbekcha talqinlari borasida M.Baqoeva muvaffaqiyatli ish olib borib, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishga erishdi. Shuningdek, G‘aybulla

Salomov ilmiy rahbarligida Hamidulla Karomatovning buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temur siymosini tarjima vositasida jahon adabiyoti sahnasida e'tiroq etilishiga oid "Xristofor Marloning "Buyuk Temur" asarining sarchashmalari, asliyati va o'zbekcha tarjimasi" nomli nomzodlik hamda "O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari" doktorlik ishlarini ham alohida ta'kidlash kerak.

G'aybulla Salomov tarjima maktabi bugungi kunda ham o'z mevalarini bermoqda. U o'zining "Til va tarjima" [5] nomli 1966 yilda nashr ettirgan monografiyasida mamlakatimizda tarjima ixtisoslgi bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash, tarjimashunoslik bo'yicha dissertatsiyalar himoyasiga ixtisoslashgan Ilmiy kengashlar tashkil qilish borasida orzu qilgan edi. Bugungi kunda uning bu ezgu niyatlari amalga oshdi. Jumladan, O'zbekiston Milliy universititi, O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Buxoro, Andijon va Namangan davlat universitetlarida 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha filologiya fanlari doktori (DSc) hamda filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari himoya qilish bo'yicha kengashlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda mazkur sohaga oid ishlarning barchasida o'zbek tarjima maktabining asoschisi G'aybulla Salomov nomini ko'rib quvonasan kishi. Ustoz - shogirdlar – ustozlarning umri davomiyligidir" , - deb bejiz aytmagan ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Саломов Ғайбулла. Мен сув ичган дарёлар. – Тошкент: "Ёш гвардия" нашриёти, 1990 йил.

2. Саломов Ғайбулла. Адабий анъана ва бадиий таржима. – Тошкент: Фан, 1982 йил.

3. Саломов Ғайбулла. Таржима ташвишлари – Тошкент, 1993

4. Саломов Ғайбулла. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982 йил.

5. Саломов Ғайбулла. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966 йил.

TARJIMADA TIL VA TAFAKKUR MASALASI

Filol.f.n. ***Qosimboy MAMUROV****, TOShDO‘TAU v.b. professori,*
Nargiza TILAKOVA*, TOShDO‘TAU o‘qituvchisi*

Mazkur maqola tilda ifodalangan ma’noni to‘g‘ri tarjima qilish uchun tarjimon ikki huquqiy tizimdagi davlatlar (G‘arb va sobiq Sovet respublikalar o‘rnidagi mustaqil davlatlar xalqlari – MDH) fuqarolarining mentaliteti va tafakkurini farqlab olishi uchun qonun tilining ifoda vositalarini farqlab olishiga bag‘ishlangan. Jumladan, O‘zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, fuqarolarning huquqlari davlat tomonidan ta’minlanadi va kafolatlanadi deyilgan bo‘lsa, AQSh konstitutsiyasida Amerika fuqarolarining huquqlarini davlat organining mansabdorlari tomonidan rad etilishi yoki cheklanishi man etiladi deb ifodalangan. Fuqarolarning tafakkuri va tilidagi bunday fundamental farq tarjimon tomonidan yaxshi anglanishi va farq qilinishi shart. Shundagina, u asl ma’noni va g‘oyani berishda yaxshiroq tarjimani amalga oshira olgan bo‘ladi.

Bugungi kunda barcha xalqimizga va har bir fuqaroga berilgan eng qadrli va eng qudratli huquq – so‘z erkinligi ko‘p masalalar ustida ochiq mushohada yuritib gapirish va yozish imkonini berdi. Shuning uchun ham xalqimiz matbuot sahifalarida eng dolzarb masalalar to‘g‘risidagi bir-birlari bilan erkin va ochiq fikrlari bilan o‘rtoqlashmoqdalar.

O‘z innauguratsiya nutqida Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev “...jahon konstitutsiyaviy tajribasini o‘rganib, puxta o‘ylagan holda bugungi va kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan Asosiy qonunimizni takomillashtirish masalasini ham ko‘rib chiqishimiz kerak” [1], degan fikrlari asosida bu masalaning tarjima, til va tafakkur bilan bog‘liq masalalar borasida ba’zi mulohazalar bilan o‘rtoqlashmoqchi bo‘ldik. Amaldagi Konstitutsiyamiz yarim sotsialistik, yarim mustaqil demokratik huquqiy davlat qonuni shaklida va mazmunida yozilgan. Shuning uchun ham u mustaqillikning 30 yillik davrida ham xalq dunyoqarashini o‘zgartira olmadi, xalq dunyoqarashi o‘zgarmay keldi. Shuning uchun ham, bugungi kungacha ko‘pdan ko‘p ijtimoiy masalalar o‘z yechimini uzil-kesil topmadi. Yarim sotsialistik, yarim kommunistik deganimiz qonunchilik tilida “ta’minlamoq" va kafolatlamoq” degan kommunistik davlat faoliyatiga xos so‘zlar Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda juda ko‘p o‘rinlarda ishatilganligi fikrimizning dalili bo‘la oladi. Nima uchun? Chunki,

ta’minlashni, kafolatlashni faqat kommunistik davlatgina va’da qila oladi. Rivojlangan demokratik davlat qonunlarida esa ko‘proq “majburlov" va "taqiqlash” ma’nosidagi so‘zlar, demokratik davlatlarning konstitutsiyasidan tortib har bir qonun matnida, so‘zida, gap qurilishida va qonun ruhida o‘z lisoniy ifodasini topganini ko‘rish mumkin. Demokratik davlatda qonun chinakam adolatli, sud hokimiyati o‘ta mustaqil va kuchli bo‘lishi shart, aks hoda, u demokratik davlat bo‘a olmaydi.

Masalan, jurnalistlar faoliyatining kafolatlari degan bizning qonunda "jurnalistga axborot olish huquqi kafolatlanadi" deyilgan. Ammo, jurnalist axborot ololmay sarson. Agar davlat mansabdor shaxsi axborot berishdan bosh tortsa, kim axborotni kafolatlaydi, mansabdorni kim majbur qila oladi? Keyingi kunga qoldirish esa axborotni eskirishiga, o‘z dolzarbligini yo‘qotishiga olib keladi. Shuning uchun, ko‘p tajribali demokratik davlatlar qonunlarida bu mazmundagi norma "Jurnalistning axborot olish huquqiga monelik qilish man qilinadi" degan ko‘rinishda yozilgan. Kimki unga monelik qilsa, qonun unga qarshi darhol ishlaydi va u muqarrar ravishda javobgarlikka tortiladi.

Masalan, 1791-yili kiritlgan AQSh konstitutsiyasining birinchi qo‘shimcha moddasida “Kongress diniy e’tiqod erkinligini, yoxud so‘z erkinligi, matbulot erkinligini, xalqning tinch namoyish o‘tkazish va o‘z shikoyatlari bilan hukumatga murojaaat etish huquqlarini cheklash va taqiqilash bo‘yicha bironta ham qonun qabul qilishi mumkin emas” (ya’ni man qilinadi) (“Congress shall make no law respecting an establishment of religion, or prohibiting the free exercise thereof; or abridging the freedom of speech, or of the press; or the right of the people peaceably to assemble, and to petition the Government for a redress of grievances”). Bunday ruhda yozilgan jumlalarga yana 100 lab misollar keltirish mumkin.

Bundan tashqari, AQSh konstitutsiyasida “mumkin emas” degan inkor moddalik semantikasiga ega bo‘lgan “taqiqlash”, “man qilish” ma’nosidagi ibora ham juda tez-tez ishlatiladi. Masalan, AQSh Konstitutsiyasining 4-qo‘shimcha moddasi birinchi gapi “Xalqning shaxsiy daxlsizlgi, turar joyi, hujjatlari hamda mulkini asossiz tintuv va olib qo‘yishdan himoyalanish huquqi buzulishi mumkin emas”. 5 – qo‘shimcha moddasi “Hech kim o‘lim jazosi yoki boshqa tarzda shafqatsiz jinoyati uchun katta hakamlik hay’atining (grand jury) taqdimnomasi yoki ayblov xulosisi bo‘lmasa, javobgarlikka tortilishi

mumkin emas,...". Xuddi shunday tarzda "mumkin emas" iborasi bilan "taqiqlash", 8, 9, - qo‘shimcha moddada, 12- qo‘shimcha moddaning oxirgi jumlasida, 13- qo‘shimcha moddaning 1- jumlasida, 14 qo‘shimcha moddanig 1 va 3-bo‘limlarida, 15- moddaning 1-bo‘limida, 18- qo‘shimcha moddaning 1 bo‘limida, 21 –qo‘shimcha moddaning 3-bo‘limida, 22- qo‘shimcha moddaning 1 bo‘limi oxirida "taqiqlanadi" so‘zini o‘zi ishlatilgan, 19 - qo‘shimcha moddaning birinchi gapida "mumkin emas", 22 - qo‘shimcha moddaning 1-bo‘limida "mumkin emas, 24 - qo‘shimcha moddaning 1- bo‘limida "mumkin emas", 26 moddaning 1- bo‘limida "mumkin emas", taqiqlashni ifodalovchi modal ibora ishlatilgan. Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, fuqarolarning huquqlarini buzish "mumkin emas", ya’ni huquqlarni buzish taqiqlanishi kuchli modal ibora yoki aynan "taqiqlamoq" so‘zi bilan ifodalangan [2]

Konstitutsiyaning ifoda tilida huquqni buzish qat’iy "man" qilinganligini, "taqiqlanganligini", "mumkin emasligini" takror va takror o‘qiymiz. Kimdir unga amal qilmasa, albatta jazoga tortishlishi, jazo muqarrar ekanligi unda sezilib turadi. Nima uchun u aynan shunday tilda yozilgan? Chunki, Amerika davlati hududida 150 yil fuqarolik jamiyati hukm surgan demokratik muhitda (1610- 1750 yy.) yashagan xalq orasidan, aynan shu muhitda tarbiyalanib, yetakchi bo‘lib shakllangan Amerika davlatining asoschi-etakchilari o‘z konstitutsiyasini aynan shunday tilda yozishni va ifodalashni afzal ko‘rishgan. Bunday tilda yozish bilan ular o‘z konstitutsiyalari orqali xalqning huquq va manfaatlarini ustuvor qo‘yganligi va uni davlat va uning ijro, qonunchilik va sud hokimiyatlaridan hamda, kuch ishlatuvchi organlardan chinakam himoya va muhofaza qilinganligining kafolati aynan qonun tilida ham aniq va ravshan ifodalab qo‘yilganligini ko‘rsatadi. AQSh fuqarolarining dunyoqarashi va tafakkurining asosini aynan mana shu falsafa tashkil qiladi. Va u 1787 yildan bugungi kungacha amal qilib kelmoqda. Shu davr ichida AQSh Konstitutsiyasiga atiga 26 ta qo‘shimcha modda kiritilgan, xolos.

Shuning uchun tarjimon qonun yozilgan til mohiyatini va ifoda so‘zlarini inkor shaklda qo‘llanganligini to‘g‘ri tushungan bo‘lishi shart. Chunki, Amerika davlati asoschilari 150 yildan oshiq davr ichida (1610-1750) demokratik muhit ustunlik qilgan fuqaolik jamiyatida yashab tajrib orttrgan va shu muhitda o‘z mentalitet va tafakkurlarini shakllantirgan edilar. Shuning uchun ham ular o‘z konstitutsiiyalarini

shu tila yozishni avfzal koʻrdilar Shunday tilda yozish bilan ular oʻz konstitutsiyalarida oʻz fuqarolarining huquq va manfaattlarining ustunligini kafolatladilarki, bunda fuqarolar davlatning, ijro, qonunchilik va sud organlarining hamda huquq va tartibot organlarining oʻz vakolatlarini suiiste'mol qilishlaridan chinakam himoya qilingani aniq ifodaga ega boʻldi. Bu qonun tilida juda aniq ifoda etildi. Bu degani, qonun bilan hokimiyat organlari va mansabdorlari tomonidan oʻz vakolatlarini suiiste'mol qilishlari qat'iy taqiqlab qoʻyildi.

AQSh konstitutsiyasidan farqli oʻlaroq, bizning Konstitutsiyamizda "Oʻzbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega boʻlib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" (18 - modda) deb yozilgan. Aynan shunday ma'nodagi qoida AQSh Konstitutsiyasida ham bor, ammo u oʻzgacha ifodalangan: "Qoʻshma shtalar fuqarolarining ovoz berish huquqi Qoʻshma Shtatlar yoki har qanday shtat tomonidan yoshi yoki jinsiy farqi asosida rad etilishi yoki cheklanishi man etiladi" "The right of citizens of the United States to vote shall not be denied or abridged by the United States or by any State on account of sex" (Amendment 19), or in Amendment 26, biz oʻqiymiz: "The right of citizens of the United States, who are eighteen years of age or older, to vote shall not be denied or abridged by the United States or by any State on account of age" (Amendment 26) [2]. Oʻzbekiston Respubliasi fuqarolarining mazkur teng huquqga egaligi tilda boshqacha ifodalangan (inglizcha tarjimada: "All citizens of the Republic of Uzbekistan shall have equal rights and freedoms, and shall be equal before law without discrimination by sex, race, nationality, language, religion, social origin, convictions, individual and social status" (Article 18) [3]).

Shunday qilib, mazkur tilda ifodalangan ma'noni toʻgʻri tarjima qilish uchun tarjimon ikki huquqiy tizimdagi davlatlar (Amerika va Oʻzbekiston) fuqarolarining mentaliteti va tafakkurini farqlab olishi lozim boʻladi. Oʻzbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, fuqarolarning huquqlari davlat tomonidan ta'minlanadi, ammo Amerika fuqarolarining huquqlarini davlat organining mansabdorlari tomonidan rad etilishi yoki cheklanishi man etiladi. Fuqarolarning tafakkuri va tilidagi bunday fundamental farq tarjimon tomonidan yaxshi anglanishi va farq qilinishi shart. Shundagina, u asl ma'noni va gʻoyani berishda yaxshiroq tarjimani amalga oshira olgan boʻladi.

Demak, davlatning mavjud ma’muriy tizimiga muvofiq, hokimiyat idoralarining mansabdorlari o‘zlari istagan holatda qonunlarni buzish, o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilish orqali fuqarolarning huquqlarini buzish holatlariga duch kelishlari mumkin ekan. Ammo, fuqarolarning esa o‘z buzilgan huquqlarini himoya qilishi yoki tiklashi juda qiyin hisoblanadi. Shuning uchun barcha sobiq Sovet republikalari o‘rnidagi davlatlarning fuqarolari o‘z mustaqiliklari davrida qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan foydalanish va himoya qilishda ojiz bo‘lib qolmoqdalar. Buning sababi huquqiy savod va madaniyatni yetishmasligi, himoya mexanizmlaridan unumli foydalana olmaslik hisoblanadi. Shuning uchun ham davlat o‘z mansabdorlariga qonunni buzish yoki vakolatni suiste’mol qilishni qonun tilida qat’iy man etishi oson va samarali bo‘lishi mumkin ekan.

Yuqorida ta’kidlangan holatda esa, o‘z qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun fuqarorlar kurash olib borishlariga hojat qolmaydi. Chunki, fuqarolarning huquq va manfaatlarini buzish qonunlarda qat’iy man etilgan. Agarda qandaydir mansabdor o‘z vakolatini suiiste’mol qilish bilan fuqaroning huquqini buzsa, u javobgarlikka albatta tortiladi. Shu yo‘l bilan hokimiyat uchun fuqarolarning huquqlarini o‘z joyida himoya qilish oson bo‘ladi. Chunki hokimiyat fuqarolarning huquqlarini himoya qilishning mavjud mexanizmini, uni samarali qo‘llashi shartligini ham yaxshi biladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyevning inauguratsiya marosimida so‘zlagan nutqi. https://daryo.uz/k/2021/11/06/shavkat-mirziyoyevning-inauguratsiya-marosimida-sozlagan-nutqi/
2. US Constitution. In Uzbek. Editor-in-Chief: A.Kh. Saidov, translator: H.M. Tursunov. IHMM , T.2013y, 72 pages.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi/The Sonstitution of the Republic of Uzbekistan, Tashkent “Adolat”., 2014 (In English).
4. William Burnham. “Introduction to the law and legal system of the United States”. ST.PAUL, MINN., WEST GROUP, 1999. –P.626.
5. Law Dictionary. Fifth Edition. By Steven H.Gifis. BARRON’S. 2003.

TURK ADABIYOTINI O‘RGANISH VA TARJIMA TARIXIDAN

*Filol. f.n. **Adhambek ALIMBEKOV,** TDSHU dotsenti*

Turkiy xalqlar qadimdan bir-birining adabiyotiga e’tiborli bo‘lganlar. Hazrat Alisher Navoiyning ijodi turkiy xalqlar she’riyatiga qanchalik ta’sir qilganini, Fuzuliyni o‘zbeklar naqadar sevganini yaxshi bilamiz. Ayniqsa, turk, ozarbayjon, tatar adabiyoti bilan o‘zbek adabiyotining aloqalari izchil edi. So‘z O‘zbekistonda turk adabiyotining o‘rganilishi haqida ketar ekan, avvalo jadid bobolarimizni yodga olamiz. Jadid adabiyotining namoyandalari turk adabiyotidan yetarlicha boxabar edilar. Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy turk adabiyotini yaxshi bilganlar va o‘z vaqtida targ‘ib qilganlar. Abdulla Qodiriyning Yahyo Kamol va boshqa turk ijodkorlari xususidagi fikrlarini , Cho‘lponning Rizo Tovfiq va Tovfiq Fikrat haqidagi maqolalarini eslaylik. Cho‘lpon yozadi: “Usmonli adabiyotini oz-moz o‘quganlar, uning bilan bir daraja oshno bo‘lganlardan qaysi birisi bu ismni bilmaydi, qaysi birisi muni tanimaydi.

Usmonlilarning “Adabiyoti jadida”(Yangi adabiyotchi)larining pir va ustozi bo‘lgan Tavfiq Fikratbek butun yangi nasl turklarining yuraklarina go‘zal, nafis va latif she’r buketlari qadamishdir. Uning keng hayoli ravon (tez) va yengil ifodasi kimni, qaysi bir she’r va adabiyot muhibini tasxir etmas? Xususan uning “Rubobi shikasta”(siniq dutor)si, undagi baland va latif yo‘llar naqadar jozibali va zavqli narsalardir!

Tavfiq Fikrat “Rubobi shikasta”si ila qancha tanilgan bo‘lsa, uning ila qancha nafosat suyuvchilarni o‘ziga maftun etgan bo‘lsa, “Tarixi qadim”i, u dahshatli faryodi ila odamlarning qalbinda buyuk-buyuk o‘zgarishlar vujudga keltirmishdir” (“Adabiyot nadir” Toshkent “Cho‘lpon” nashriyoti. 1994. 43-bet).

Millatparvar ijodkorlarimizning turk adabiyotiga ko‘proq murojaat qilishlarining sabablari bor edi. Turk adabiyoti tarixida, X!X asrning ikkinchi yarmida tanzimotchilar (isloh, reforma) Yevropa adabiyoti bilan boshqa turkiy xalqlarga nisbatan oldinroq tanishib bu borada Sharq xalqlari, xususan turkiy xalqlarga o‘rnak bo‘ldilar. Turk adabiyotida yangi janrlarning – masalan, roman, drama janrlarining vujudga kelishi, ma’rifatparvarlik g‘oyalarining kuchayishi tanzimot davrida (1860-1895), ya’ni G‘arb adabiyoti bilan kengroq tanishish asnosida yuzaga keladi. Bu bosqichni o‘zbek adabiyoti ham ma’lum

ma’noda bosib o‘tgan. O‘zbek adabiyotida roman janrini paydo bo‘lishini esga olaylik. Abdulla Qodiriy Sharq va G‘arb romanchiligidagi yutuqlarni sintezlashtiraolgani (uyg‘unlashtira) uchun ham “O‘tkan kunlar”dek noyob asar yozdi.

Oybek, G‘afur G‘ulom, M. Shayxzoda, Mirtemirlarning adabiy avlodi ham turk adabiyotini yaxshi bilganlar. Bu haqda Oybek A. Naumov bilan suhbatda shunday degandi: “Yangi turk poeziyasining asarlari meni ilk marta lirik soddalik yo‘lida izlanishga o‘rgatdi. Men turk poeziyasi bilan texnikumning studenti bo‘lgan yillarimda tanishdim. O‘sha paytda Bokuda Yahyo Kamol, Rizo Tavfiq, Abdulhaq Homid va boshqa bir necha turk shoirlarining asarlari nashr qilingandi. Bu asarlar mening ham qo‘limga tushub qoldi. Bular hozir ham menda saqlanadi. Yaqinda ularni qaytadan varaqlarkanman, ilk marta ta’sirlanganimni ko‘z oldimga keldirdim” (A, Naumov bilan suhbat. Oybek. Yigirma jildlik to‘la asarlar to‘plami).

Ammo sho‘rolar davrida turk adabiyoti haqida o‘zbek adiblarining bir nima yozishi va targ‘ib qilishining iloji bo‘lmagan. Zamon tutimi shunday edi. G‘afur G‘ulomning turk adabiyotini qanchalik yaxshi bilganiga bir misol. Maqsud Shayxzoda Moskvada davolanayotib, G‘afur G‘ulom xotirasiga bag‘ishlangan “G‘afurga xat” she’rini chop etilishi munosabati bilan o‘sha vaqtdagi “Sovet O‘zbekistoni” gazetasida ishlayotgan shoir Jumaniyoz Jabborovga 1966 yil 2 sentyabrida yozgan xatida shuday jumlalar bor: “Homid” emas. Bu Abdulhaq Hamid (2.2.1852-12.4.1937) nomli mashhur gumanist, turk shoiridir. Rahmatli G‘afur uni ko‘p yaxshi ko‘rar va aksar she’rlarini yoddan bilar edi. Bu shoir... Nozim Hikmatni ustozi bo‘lgan”. “G‘afurga xat” she’rida shunday misralar bor:

Sen Hamidning shu baytin derding serkadar:
“Evoh, na yer, na yor qoldi,
Ko‘nglim to‘la ohu zor qoldi!”

Bu keltirilgan ikki misra Abdulhaq Hamidning “ Maqbar” nomli marsiyasidan olingan bo‘lib, shoir uni Bayrutdan qaytayotganda vafot qilgan umr yo‘ldoshining xotirasiga bag‘ishlab yozgan. G‘afur G‘ulom va Shayxzodaning suhbatlarida turk adabiyotining bilimdoni G‘afur G‘ulom Abdulhaq Hamid she’rlaridan o‘qib bergan bo‘lishi mumkin. E’tiborli jihati G‘afur G‘ulom nega shu misralarni takrorlashni xush ko‘rganida. Ruhiga mos, aytolmagan gaplarini aytishning yo‘lini qilgananidadir. Abdulhaq Hamid tanzimot davri turk adabiyotining yorqin namoyandasi. Uning ayniqsa “Maqbar” poemasi juda mashhur

bo‘lgan. Bu avlod turk adabiyotini qanchalik yaxshi bilmasin, tashviq qilishda imkonlari cheklangan edi. Qilgan tarjimalari ham asliyatdan emas, rus tilidan bo‘lgan. Masalan, G‘afur G‘ulom turk tilini bilgani holda Nozim Hikmatning “Bir sevgi afsonasi” dramasini rus tilidan tarjima qilgan (O‘zdavnashr. Toshkent-1955).

Umuman olganda o‘ttizinchi yillardan to‘qsoninchi yillarning boshigacha O‘zbekistonda turk adabiyotini o‘rganishda tanaffus bo‘ldi desak bo‘ladi. Sabohiddin Ali, Umar Sayfiddin, Nozim Hikmat, Rashod Nuri Guntekin, Aziz Nesin, Yashar Kamol, O‘rxon Kamol, Said Foiq, Faqir Boyqurt, Faxri Erdinch, Samim Ko‘jago‘z, Fozil Husnu Dog‘larja, O‘qtoy Rifat va boshqa turk shoir, adiblari ijodidan asarlari rus tiliga o‘girilganlari o‘zbek tiliga tarjima qilinardi. Hatto turk ertaklari ham rus tilidan o‘girilgan. Ayrim asarlar turk tilidan tarjima qilingan bo‘lsada avval rus tilida chop etilgan bo‘lishi shart edi. G‘aybulla Salomov so‘zboshisi bilan nashr etilgan “Hozirgi zamon turk she’riyati” to‘plamiga kirgan tarjimalarda Rauf Parfi, Miraziz A’zam, Tilak Jo‘ra kabi ijodkorlarning mahoratini, asliyatdan o‘girmagan bo‘lsada, asar ruhiyatini topa olganini alohida ta’kidlash kerak. Tilak Jo‘ra Nozim Hikmat she’riyati haqida ilmiy izlanishlar olib borib, 1986-yili “Nozim Hikmat va o‘zbek sovet she’riyati” mavzusida nomzodlik ishini yozib tugatgan. Shunga o‘xshash bir-ikki hodisalarni aytmaganda sobiq sho‘rolar davrida turk adabiyotini o‘rganish rus tili orqali edi.

1983-yili ToshDUning o‘zbek filologiyasi fakulьtetida “ Turkologiya” kafedrasining ochilishi ilmiy hayotda voqea bo‘ldi. Sobiq Ittifoqdagi shu nomda beshinchi kafedra bo‘lgan “Turkologiya” kafedrasida turk tili va adabiyoti keng o‘qitila boshladi. Professor Iristoy Qo‘chqortoev, mashhur tarjimon Miyad Hakimov va xorijdan kelgan boshqa o‘z sohasining bilimdonlari dars berdilar. Sekin astalik bilan bevosita turk adabiyotidan tarjima qiladigan yoshlar yetishib kela boshladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach bu jarayon yanada tezlashdi. Mustaqillik davrida tarjima qilingan asarlarni mazmun mohiyatidan kelib chiqib to‘rt guruhga ajratish mumkin.

1. Nasriy asarlar. Romanlar: Husayn Nihol Otsiz. “Ko‘kbo‘rilarning o‘limi”, “Ko‘kbo‘rilarning tirilishi” (Tohir Qahhor tarjmasi. Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. Toshkent. 2001. 2006). Husayn Rahmi Gurpinar. “Jinlar orasida qolgan qiz”. (Poshshajon Kenjaeva tarjimasi. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2002). Ahmad Lutfi Qozonchi. “O‘gay

ona”. (Poshshajon Kejaeva tarjimasi. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2002.) Suod Darvish. “Fosforli Javriya”. (tarjimon Boboxon Muhammad Sharif. “Jahon adabiyoti” 2002 №7,№8). Xolid Ertug‘rul. “O‘zini qidirgan ayol”, (tarjimon Rohila Ro‘zmonova. Toshkent 2006. “Istiqlol” nashriyoti”) ,“Qidirganini topgan ayol” (tarjimon Rohila Ro‘zmonova. Toshkent 2006. “Voris” nashriyoti”) , Dundar Alp. “Sharqning buyuk hukmdori”. (tarjimon Tohir Qahhor. “Jahon adabiyoti” jurnali 2013. №4, №5) Tariq Bug‘ro. “Usmon G‘ozixon”. (tarjimon Fayzi Shohismoil. “Jahon adabiyoti” jurnali. 2006 №5,№6). Xolid Ziyo Ushoqligil. “Marhumning kundaligi” (tarjimon Sabohat Bozorova. “Chashma print” nashriyoti. 2011). “Bir vijdon uyg‘onur” (tarjimon Rohila Ro‘zmonova. Toshkent 2014. “Navro‘z” nashriyoti”) , Yavuz Bahodiro‘g‘li “Xorazm”. (Boboxon Muhummad Sharif tarjimasi..”O‘zbekiston” NMIU 2010), “Malazgirtda juma tongi”. (tarjimon B. Muhammad Sharif. “EXTREMUM PRESS” .Toshkent, 2011), R. N. Guntekin.” Muhabbat simfoniyasi”. (Tarjimon Miraziz A’zam. G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU. Toshkent 2011). R.N Guntekin.”Qon da’vosi”. (Boboxon Muhummad Sharif tarjimasi. “O‘zbekiston” 2011). R.N. Guntekin. “Otash kechasi” (B.Muhammad Sharif tarjimasi. Toshkent.”Yangi asr avlodi” ,2013). “Xotin dushmani” (B. Muhammad Sharif tarjimasi. Toshkent.”Yangi asr avlodi” ,2013). “Oqshom quyoshi”.(B.M.Sharif tarjimasi.”O‘qituvchi” 2018). “Choliqushi” romani esa qayta-qayta nashr etilmoqda. Ismoil Bo‘zqurt. “Manqal” (B.Muhammad Sharif tarjimasi. Toshkent “Meriyus” 2012). Dundar Alp. “Sharqning eng buyuk hukmdori Temur” (Tohir Qahhor tarjimasi. Toshkent. O‘zbekiston” NMIU 2018). Ahmad Shimshirgil “Amir Temur” (Tohir Qahhor tarjimasi) “Jahon adabiyoti” jurnalining 2019 yilgi 5-6 sonlarida e’lon qilindi. Mehmed O‘nder. “Mavlono” (Shermurod Subhon tarjimasi.Toshkent.”Sharq”nashriyoti. 2020) . Yavuz Bahodir o‘g‘li. “Sulton Salohiddin” (B.Muhammad Sharif tarjimasi. Toshkent.”Yangi asr avlodi” ,2020). Amina Shenliko‘g‘li. “Vijdon azobi” (Yo‘ldosh Eshbek tarjimasi. Toshkent.”Yangi asr avlodi” ,2020).

2. Hikoyalar to‘plamlari: “Beg‘amning o‘limi” (Toshkent. “Davr Press”.2010. tarjimon Gulbahor Abdulloh qizi). “Kutilmagan mehmon”. (Tarjimonlar: Vali Savash Yelo‘q, Poshshoxon Kenjaeva. Toshkent. “Akademnashr” 2011). Bahor kasali. (turk hikoyalari, Toshkent. “Turon-iqbol”nashriyoti. 2010), Umar Sayfiddin. “Badal”

(B.Muhammad Sharif tarjimasi. “Yagni asr avlodi” nashriyoti. 2012.), Binafsha.(Hikoyalar. Tarjimon Poshshajon Kenjaeva. Toshkent. “Mumtoz so‘z” 2015). “Turk hikoyalari”(turkchadan Umida Adizova o‘girgan. “Muharrir” nashriyoti. Toshkent,2018). Umar Sayfiddin. “Turk hikoyalari” (Ma’rufjon Yo‘ldoshev tarjimasi. “Kamalak-PRESS”.Toshkent, 2019). “Oltin bulbul” (turk ertaklari, “Ma’naviyat”. 2005).

3. Dramatik asarlar nisbatan kam tarjima qilindi. R. Nuri Guntekinning “ Halala” komediyasi (rus tilidan Ozod Obid tarjimasi. “Jahon adabiyoti”. 2001. №7). O‘zbek akademik teatrida saynalashtirildi. “Go‘zallar va mirshablar” pьesasi Abror hidoyatov nomidagi teatrda saynalashtirilgan. Tunjer Jujen O‘g‘lining “Brut yoxud Yuliy Sezarning qotili” turk tilidan Oybek Veysal o‘g‘li tarjimasida “Jahon adabiyoti” jurnalining 2019 5-sonida chop etildi. “Ko‘chki” dramasida nashr qilingan. Vaholanki bu janrda ham turk adabiyotida tarjima qilishga arzigulik asarlar ko‘p. Aziz Nesin o‘ndan ortiq dramatik asarlar yozgan. O‘zbek kitobxonlari Aziz Nesinni asosan hajviy hikoyanavis sifatida biladilar, xolos.

4. She’riy to‘plamlar: Jalololiddin Rumiy. “Uchmoqqa qanot yo‘q vale uchgayman” (Tohir Qahhor tarjimasi. G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU. Toshkent 1994), “Zamonaviy turk she’riyati” (to‘plam, tarjimon Abdulatif Abdullaev.Toshkent. “Istiqlol”. 2006), Ahmad Posho. “Devon”. (Nashrga tayyorlovchi Rohila Usmonova.Toshkent. “Akademnashr” 2011), Yunus Emro. “Nechun yig‘larsen ey bulbul” (tarjimon Jamol Kamol. “O‘zbekiston” NMIU, 2018). Mehmed Emin Yurdakul. “Ey turk, uyg‘on”. (tarjimon Tohir Qahhor Toshkent. 2010). Shuningdek matbuot sahifalarida (asosan “Jahon adaabiyoti” jurnalida) Oshiq Veysal, Fozil Husnu Dog‘larja, Abdulhaq Hamid,Tavfiq Fikrat, Rizo Tavfiq, N.F.Qisakurak,O‘qtoy Rifat va boshqa turk shoirlari asarlaridan tarjimalar berildi.

5. Ilmiy asarlar. Sobiq sho‘rolar davrida o‘zbek tilida turk mumtoz adabiyoti haqida ma’lumot beruvchi birgina kitob – V. S. Garbuzovaning “Turk adabiyoti klassiklari” (1960. Sh. Yusupov tarjimasi) nashr qilingan edi. Mustaqillikka erishgan bu sohada ham ancha ilmiy-ma’rifiy asarlar tarjima qilindi. Usmon Turarning “Turkiy xalqlar mafkurasi”. (tarjimon Ulug‘bek Abduvahob. Cho‘lpon nashriyoti.1995). “Tasavvuf tarixi” (tarjimon Nodirxon Hasan. Toshkent. Istiqlol. 1999). “O‘zbek - turk maqollari va iboralari”

(Ibrohim Yo‘ldoshev, Tunjay O‘zturk, Yuksel O‘zturk. Toshkent-1998). Umar Foiq Saydo al- Jazariy. “Tasavvuf sirlari” (tarjimonlar: Bahriddin Umrzoq, Abdulloh Murod Tilav.Toshkent “Movarounnahr” 2000). Mahmud As’ad Jo‘shon. “Yunus Emro va tasavvuf”(tarjimon Sayfiddin Sayfulloh.Toshkent. “Fan”. 2001). Jahon O‘quyuji. “ Ichimizdagi Mavlono”. (Toshkent.“Chashma print” 2011). Yusuf Chetindog‘. “Alisher Navoiy” (Toshkent. “Muharrir”. 2013.) Abror G‘ulomov. “Istanbul daftari”. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2019). Jaloliddin Rumiyning “Ichidagi ichingdadur” (tarjimon Ulug‘bek Hamdam. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 5chi nashri 2019), yana Rumiyning “Etti majlis” (tarjimon Ra’no Hakimjonova.Toshkent. “Mumtoz so‘z”. 2014), Sulton Valad Jaloliddin Rumiy o‘g‘lining “Ma’rifatnoma” (tarjimon Abdumurod Tilavov.Toshkent. “Muharrir” 2011) kitoblari Turkiyadagi ilmiy ma’rifiy qarashlar haqida ma’lumot beradi.

O‘zbek olimlari tomonidan ham o‘zbek –turk adabiy aloqalariga oid birmuncha ilmiy ishlar yozildi. Adhambek Alimbekovning “Ishq asiri bo‘lgan jon”.(Toshkent. Mehnat. 1996). Jumali Shabanovning “Oshiq Veysal va turk folklori” (ToshDShI.2009), Poshshojon Kenjaevaning “XX asr turk hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillari” (Cho‘lpon. NNMIU. Toshkent-2017) monografiyasi, shuningdek ToshDShU “Turkiyot” kafedrasi olimlari Jumali Jabanov, Lola Aminova, Shoxina Ibrohimovalar tomonidan turk adabiyotiga oid bir nechta maqolalar e’lon qilindi. “Tarjimashunoslik” kafedrasi dotsenti Xayrullo Hamidovning “O‘zbek turk tarjimachiligining dolzarb muammolari (1991-2017) turkumidan e’lon qilgan “Abdulla Qodiriy asarlari turk tilida”, “Odil yoqubov asarlari turk tilida”, “O‘tkir Hoshimov asarlari turk tilida” risolalari ham shu sohadagi ko‘rinarli ilmiy ishlardandir.

“Jahon adabiyoti” jurnalida chop etilgan turk olimlarining ilmiy asarlari ham turk adabiyoti bilan tanishtirishda muhim pog‘ona bo‘ldi. A.S. Bayetning “Ertaklarning ertagi”, (2006. №9), Ismoil Porlatirning “Yangi turk she’riyati” (1998 № 3), Bayram Yilmasning “Gyote va Sharq” (1998 №8) ilmiy maqolalari shular jumlasidan.“Sharq mash’ali”, “Sharqshunoslik” jurnallarida ham turk adabiyoti oid maqolalr berib borildi.

Turk tilidan asarlar tarjima qilgan faol tarjimonlarimiz -Miraziz A’zam, Boboxon Sharif, Usmon Qo‘chqor, Shodmon Otabek, Tohir

Qahhor, Xosiyat Rustamova, Jumali Shabanov, Rustam Jabborov, Maʼrufjon Yoʻldoshev, Shermurod Subhon, Sabohat Bozorova, Poshshojon Kenjaeva, Abdumurod Tilavovlarning tarjimalarini alohida taʼkidlash darkor. Gunbay Yulduzning “Gullar suvsaganda”, Oʻrxon Pamukning 2006 yil Nobelь mukofotiga sazovor boʻlgan “Istanbul:shahar va xotiralar”, Elif Shafaqning “Ishqqa oid 40 qoida“ (tarjimon Shahnoza Qahhorova. Toshkent. “Mashhur –press”. 2019) romanlari, Umar Sayfiddin, Aziz Nesin, Samim Koʻjagoʻzning tarjima qilinmagan hikoyalari, Najib Fozil Qisakurak, Nozim Hikmat, Mehmed Akif Ersoʻy, Mehmed Emin Yurdakul, Fozil Husnu Dogʻlarja (bu roʻyxatni uzoq davom etdirish mumkin) asarlari fidoyi tarjimonlar mehnati tufayli oʻzbek kitbxonining maʼnaviy mulkiga aylandi. Ayniqsa, taniqli shoir va tarjimon Jamol Kamol tarjimasida Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy maʼnaviy”sining toʻliq tarjima qilinib chop etilgani maʼnaviy hayotimizda eʼtiborga loyiq hodisa boʻldi. Jaloliddin Rumiy turk adabiyotining salaflaridan. Nizomiy Ganjaviy fors tilida ijod qilgan boʻlsada ozarbayjon adabiyotining vakili ekanligini eʼtiborga olsak, Rumiyning ham adabiy merosi fors tilida bitilsada turk maʼnaviyatining taʼmal toshini qoʻygan ijodkordir.

Ayni payda oʻzbek adabiyotining namunalari ham turk tiliga tarjima qilindi, ammo bu alohida mavzu. Turk tilidan qilingan tarjimalrning saviyasi turlicha boʻlishi tabiiy. Chunki tarjimonlar safida Boboxon Sharif, Fayzi Shohismoil, Usmon Qoʻchqor, Tohir Qahhor singari tajribali ijodkorlar boʻlish bilan yosh tarjimonlar ham bor edi. Muhimi bir til oilasidan boʻlgan turk tilidan oʻzbek tiliga rus tili orqali emas, asliyatdan tarjimaning yoʻlga qoʻyilganidir.

Mustaqillik sharofati ila Oʻzbekistonda turk adabiyotiga oid ilmiy-tadqiqot ishlari ham qilana boshladi. Mumtoz va zamonaviy turk adabiyoti vakillari ijodi haqida maqolalar chop etildi. Bu ishning boshlanishida ustozlar – professorlar Begali Qosimov, Naim Karimov, taniqli olim Sherali Turdievlar faollik koʻrsatgandilar. Keyinchalik ularning izdoshlari bu ishni davom etdirdi.Tohir Qahhorning Jaloliddin Rumiy, M.E. Yurdakul ijodi haqidagi, Adhambek Alimbekovning Umar Sayfiddin, R.Nuri Guntekin, Holid Ziyo Ushoqligil, Oʻrxon Pamuk, Gunbay Yulduz ijodi haqidagi maqolalari, Lola Aminovaning “ Turk yozuvchisi Yashar Kamol asarlarida badiiy mahorat masalalari” (2003), Sh. Ibrohimova “Odil Yoqubov romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimada aks etishi” (2010), Tohir Qahhor “20-30 yillar oʻzbek

adabiyotining Turkiyada o‘rganilishi” (2004), Ro‘zmonova Rohila “ Alisher Navoiy an’analarining usmonli turk she’riyatiga ta’siri” (2011) mavzusida nomzodlik, Poshshajon Kenjaeva “ XX asr turk hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillari" (2017) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildilar. A. Alimbekovning “Turk adabiyoti tarixi “ o‘quv qo‘llanmasi, A. Alimbekov, va L. Aminovalarning “Turk adabiyoti” , P. Kenjaevaning “XX asr turk hikoyachiligining taraqqiyot tamoyillari” monografiyalari chop etildi. O‘zbek olimlari tomonidan bu mavzuda ilmiy tadqiqotlar izchil davom etdirilmoqda. Toshkent davlar sharqshunoslik universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat Til va adabiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folьklori instituti olimlarining o‘zbek –turk adabiy aloqalariga oid ilmiy izlanishlari buning yaqqol dalilidir.

Albatta, bir maqolada bu mavzuni to‘liq qamrab oldik deyolmaymiz. Bizning ko‘zimiz tushmagan tarjimalar, ilmiy ishlar (ayniqsa viloyatlardagi) bo‘lishi mumkin. Yozishdan maqsad o‘zbek – turk adabiy aloqalari haqida qiziquvchilarga ozmi-ko‘pmi ma’lumot berib, adabiy aloqalarimizni yanada jadallashtirishga rag‘bat uyg‘otishdir.

ОЛИМНИНГ “ИККИНЧИ” УМРИ

*PhD. **Xayrulla HAMIDOV**, TDSHU dotsenti*

Ўзбек таржимашунослиги мактабининг асосчиси дея ҳақли равишда эътироф этилган буюк олим, устоз Ғайбуллоҳ ас-Саломнинг ким эканлиги, ўзидан қанча бебаҳо илмий мерос қолдирганлигию ҳаёт чоғида бошидан қандай мусибатлар кечирганлиги хусусида батафсил сўз юритиш учун алоҳида китоб ёзиш керак. Ҳолбуки, бундай китоблар ёзилган ва яна ёзилади. Улардан бири “Ғайбуллоҳ ас-Салом замондошлари хотирасида” номли китоб бўлиб, унда олимнинг бой маънавий мероси ва ибратли ҳаёт йўли ҳақида ҳикоя қилинади, “юртимизнинг азиз ва

фидойи фарзандларидан бири, кенг қамровли филолог олим, толмас тадқиқотчи, элликдан ортиқ фан номзоди ва фан докторларига илмий раҳбарлик, илмий маслаҳатчилик қилган, юзлаб шогирдлар етиштирган дарёдил одам”[6] эканлиги ҳақида таърифлар келтирилади.

Ушбу мўъжаз мақолада биз устознинг ўзбек таржимашунослигининг асосчиси сифатида қолдирган буюк илмий мероси бугунги кунда қандай ўрганилаётгани, бундан кейин нималар қилиш кераклиги ҳақида мухтасар сўз юритилади.

Ғайбуллоҳ ас-Салом мероси ўзбек халқининг интеллектуал ва маънавий мулкига айланган ва улар олимнинг иккинчи умри бўлиб давом этмоқда. Бу иккинчи умрни янада узайтириш учун нималар қилишимиз керак, қуйида шу ҳақда сўз боради.

Олимнинг кўпчилик таржимон ва таржимашуносларга яхши маълум бўлган асарлари сирасига асосан “Тил ва таржима”[7] номли монографияси, “Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир”[8] рисоласи, “Таржима назариясига кириш”[9], “Таржима назарияси асослари”[10] ва бошқа бир нечта дарслик ва қўлланмалари, ўтган асарнинг 70-80-йилларида нашр этилган алоҳида олти китобдан иборат “Таржима санъати”[11] фундаментал тадқиқотлар тўплами киради.

Маълумки, олим ёки адибнинг номини яшатиш, меросини ўрганиш ва келажак авлод ҳам фойдаланиши учун уларни қайта нашр эттириш керак. Агар ҳисоблайдиган бўлсак, Ғ.Саломовнинг юқорида санаб ўтилган асарлари нашр этилганига 50-60 йил бўлибди. Қолаверса, уларни топиш ҳам осон эмас. Электрон нусхаларини топиб ўқиш эса унчалик самара бермайди. Демак, асарларни қайта нашр этиш керак экан. Ана шу вазиятни ҳисобга олиб 2016 йилда Тошкент давлат шарқшунослик институти Таржимашунослик кафедрасида Ғайбулла Саломовнинг 1978 йилда нашр этилган “**Таржима назариясига кириш**” дарслиги

---

[6] Ғофуров И., Дарё ҳаловат билгайми, мақола, Ғайбуллоҳ ас-Салом замондошлари хотирасида. –Т.: 2002.

[7] Саломов Ғ., Тил ва таржима. –Т.: Фан, 1966.

[8] Саломов Ғ., Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. – Т.: Фан, 1961.

[9] Саломов Ғ., Таржима назариясига кириш. –Т.: 1978.

[10] Саломов Ғ., Таржима назарияси асослари. –Т.: “Ўқитувчи”, 1983.

[11] Саломов, Ғ., Таржима санъати (мақолалар тўплами), 1-6-китоблар). – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. –Т., 1961, 1973, 1976, 1978, 1980, 1985;

қайта таҳрир қилиниб, институт миқёсида фойдаланиш учун лотин алифбосида нашр этилди ва дарслик сифатида таълимга жорий этилди[12]. Ҳозирда олимнинг 1966 йилда чоп этилган "**Тил ва таржима**" монографияси қайта таҳрир қилиниб, нашрга тайёрланмоқда.

Ғ.Саломов тузган ва ўзбек таржимашунослигида рўй берган тарихий воқеа сифатида эътироф этилган "**Таржима санъати**" мақолалар тўплами 1961-1985 йиллар давомида 6 марта нашр этилган. Бироқ, 90-йиллардан бошлаб бу тўпламнинг чиқиши тўхтаб қолди. Мана, салкам ўттиз йил мобайнида ушбу тўплам республикамиз таржимашунослари учун нодир мумтоз манбага айланди.

Юзага келган вазият, яъни Ғ.Саломов бошлаб берган илмий анъанани жонлантириш ва давом эттириш мақсадида 2013 йилда Тошкент давлат шарқшунослик институти "Таржимашунослик" кафедраси томонидан "Таржима масалалари" номли илмий мақолалар тўпламини нашр этиш бошланди. Ушбу тўпламни тайёрлашда устоз Ғ.Саломов анъанасини давом эттиришга ҳаракат қилинди. 2013-2015 йилларда мазкур тўпламнинг учта сони чоп этилди. Ҳозирги пайтда бу китоб нашри ҳам тўхтаб қолди. Сабаби кафедра ташаббуси республикамизнинг кўзга кўринган таржимашунослари томонидан қўллаб-қувватланмади.

2017-2018 йилларда Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси томонидан "Таржима санъати" илмий тўплами учун анча мақола тўпланди, бироқ бу иш ҳам ниҳоясига етмай қолди, китоб босилиб чиқмади.

Юқоридагилардан қуйидаги таклифлар келиб чиқади:

1. Ғ.Саломовнинг 2016 йилда ТДШИда қайта таҳрир қилиниб, институт миқёсида фойдаланиш учун кичик тиражда нашр этилган "**Таржима назариясига кириш**" дарслигини республиканинг нуфузли нашриётларида яна қайтадан чоп этиш, тарқатиш ва таълим тизимига жорий қилиш;

2. Ғ.Саломовнинг ТДШИда қайта таҳрир қилинган ва нашрга тайёрланган "Тил ва таржима" монографиясини республиканинг нуфузли нашриётларида қайта чоп этиш ва тарқатиш;

[12] Salomov G'aybulla, Tarjima nazariyasiga kirish. Darslik (Qayta nashrga tayyorlovchi: X.Hamidov). –Toshkent: ToshDSHI, 2016. 192 b.

3. Ғ.Саломовнинг ТошДШИда қайта таҳрир қилинган ва нашрга тайёрланган **“Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир”** номли рисоласини республиканинг нуфузли нашриётларида қайта чоп этиш ва тарқатиш;

4. Ғ.Саломов тузган ва 1961-1985 йиллар давомида 6 нашри дунё юзини кўрган “**Таржима санъати**” мақолалар тўпламининг янги (7-) нашрини чоп эттириш ва ушбу тўпламнинг ҳар йили нашр этиб борилишини таъминлаш;

5. 1961-1985 йиллар давомида нашр этилган “**Таржима санъати**” ва 1991 йилда (Ўзбекистон Республикаси Мустақиллиги эълон қилинишидан олдин) 3 жилдда нашр этилган “Таржима муаммолари” илмий мақолалар тўпламларидан энг юқори савиядаги, фундаментал тадқиқотга тенг илмий мақолаларни жамлаб, алоҳида китоблар ҳолида нашр этиш;

6. Ғ.Саломов асарларини рус ва бошқа тилларга нашр қилинишини йўлга қўйиш.

Юқоридаги таклифларнинг Халқаро конференция ниҳоясида тузиладиган резолюцияга киритиш ва маъқул топилганда бу ишларни амалга оширишга қодир ижодкор ва олимлар, мутахассислар, ташкилот ва муассасаларни белгилаш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

SA’DIY HIKMATLARI OGAHIY TARJIMASIDA

Ergash OChILOV, *O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folьklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi*

Ma’lumki, Ogahiy Sharq mumtoz so‘z san’atining ko‘plab durdona asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan zabardast va sermahsul tarjimon hisoblanadi. Bu tarjimalar orasida mashhur fors-tojik shoiri, adibi va mutafakkiri Muslihiddin Sa’diy Sheroziyning Sharq didaktik adabiyotining cho‘qqisi hisoblangan “Guliston” (1258) pandnomasi alohida ajralib turadi.

“Guliston” sakkiz bobdan iborat bo‘lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: debocha; birinchi bob – podshohlar siyrati zikrida; ikkinchi bob – darveshlar axloqi zikrida; uchinchi bob – qanoat fazilati zikrida; to‘rtinchi bob – sukut saqlashning foydalari zikrida; beshinchi

bob – ishq va yoshlik zikrida; oltinchi bob – qarilik va zaiflik zikrida; yettinchi bob – tarbiyat ta’siri zikrida; sakkizinchi bob – suhbat odobi zikrida. U “pandu nasihat va odob-axloq kitobi sifatida shuhrat qozongan... Umrining ko‘p qismini sayohatlarda o‘tkazgan, ko‘p xalqlar, millatu elatlar hayotini kuzatgan, turli tabaqa kishilari bilan muloqotda bo‘lgan Sa’diy ko‘rgan-kechirganlarini, hayotiy tajribasini umumlashtirib, ularni yuksak badiiy shaklda, qisqa-qisqa, ammo g‘oyat shirali, ta’sirchan musajja’ nasriy jumlalar va she’riy baytlar bilan ziynatlab, o‘ziga xos hikoyatlar to‘plamini yaratgan. Ularda donishmand bir hakim insonning zakovati, nasihatlari ham, yengil hazil-mutoibasi, lutfu nuktadonligi ham, his-tuyg‘ularga limmo-lim shoirona mahorati ham mujassam. Shu sababli har xil toifadagi, turli ta’bli odamlar “Guliston”dan bahra ola biladilar” [1,3–4].

Ogahiy – badiiy tarjima tarixida favqulodda hodisa hisoblanadi. O‘zi ham ulkan so‘z san’atkori bo‘lganligidan tarjimaga katta mas’uliyat bilan yondashadi. U, asosan, o‘z tarjimasining asliyatga har jihatdan muvofiq bo‘lishiga intilgan. O‘z-o‘zidan, “Guliston”ni ham katta mahorat bilan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Sa’diy hikoyatlari va she’rlarini butun jozibasi bilan o‘zbek tilida qayta jaranglatadi.

Ogahiyning tarjimonlik mahorati, jumladan, u amalga oshirgan “Guliston” tarjimasi ham taniqli tarjimashunos olim Najmiddin Komilov tomonidan birmuncha keng o‘rganilgan. Lekin uning asliyatga yondashish usullari, tarjima jarayonida qo‘llagan printsiplari, so‘z ustida ishlash mahorati va boshqalarni yanada kengroq tekshirish va ularni badiiy tarjima amaliyotiga tatbiq etish lozim. Shundan kelib chiqib, biz ayni maqolada donishmand Sa’diy hikmatlarining mutafakkir Ogahiy tomonidan qanchalik mahorat bilan o‘ziga xos tarzda tarjima qilinganligini ko‘rib chiqishga qaror qildik.

Hikmat sodda, tushunarli, oson ko‘ringani bilan uni yozish qiyin. Chunki hikmat muallifning o‘tkir aqli, chuqur ilmi, katta hayotiy tajribasi, teran tafakkuri va yuksak iste’dodi mahsuli bo‘lib dunyoga keladi. O‘z-o‘zidan bunday matn tarjimasi ham tarjimondan hikmat mohiyatini barcha ma’no qirralari bilan nozik idrok etib, uni tushunarli va ravon, go‘zal va ta’sirchan tarzda o‘quvchiga yetkazishni taqozo qiladi. Buning uchun tarjimon so‘zni chuqur his qilishi, fikrni teran tushunishi, uni tushunar va ravon ifodalashi kerak bo‘ladi.

Ma’lumki, pand-nasihat qancha ixcham va yorqin ifodalansa, shuncha ta’sirchan va jozibador bo‘ladi. O‘z-o‘zidan, tarjimada ham

ayni talab va qoidaga amal qilish taqozo qilinadi. Ayni jihatdan Ogahiy o‘zining buyuk salafi hikmatlari tarjimasi misolida ma’no tarjimasining betakror durdonalarini yaratganligining guvohi bo‘lamiz. Xususan, shoirning ko‘plab hikmatli baytlari uning tarjimasida ham jaranglab chiqqan. Chunonchi, mutafakkir shoirning dono va nodonni qiyoslab, dono dunyoning qaysi burchagiga bormasin, o‘z ilmu ma’rifati bilan hamma yerda hurmat qozonishi, lekin har qancha ulug‘zoda bo‘lmasin, bo‘lak yerda e’tibor topmasligi uchun nodon iloji boricha o‘z shahridan tashqari chiqmasligi haqidagi fikrlari ifodalangan quyidagi qit’asi Ogahiy tarjimasida ham asliyatga muvofiq jaranglaydi:

Vujudi mardumi dono misoli zari tilost,
Ki har jo biravad, qadru qimatash donand.
Buzurgzodai nodon ba shahr vomonad,
Ki dar diyori g‘aribash ba hech nastonand.

Keldi dononing vujudi, o‘ylakim, pokiza zar,
Borsa har yerg‘a qilurlar xalq qadru qiymatin.
Shahrdin chiqmas ulug‘zoda, agar nodon esa,
Ne uchunkim, tutmag‘aylar o‘zga yerda izzatin.

Sa’diyning umuinsoniy ahamiyatga egaligi jihatidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Tinchlik kengashi binosining peshtoqiga darj etilgan quyidagi mashhur misralari ham Ogahiy tomonidan mahorat bilan tarjima qilingan:

Bani odam a’zoi yak paykarand,
Ki dar ofarinish zi yak gavharand.
Chu uzve ba dard ovarad ro‘zgor,
Digar uzvhoro namonad qaror.
Tu, k-az mehnati digaron beg‘ami,
Nashoyad, ki nomat nihand odami.

Mazmuni: “Odam bolalari ibtidoda bir gavhardan bino bo‘lganlari tufayli yaxlit bir vujud kabidirlar. Binobarin, zamon uning bir a’zosiga jarohat yetkazsa, boshqa a’zolari ham o‘z tinchini yo‘qotadi. Sen agar boshqalar g‘amu tashvishiga (“mehnat” so‘zi o‘tmishda asosan g‘amu kulfat, ranju mashaqqat, azobu uqubat ma’nolarida keladi) loqayd bo‘lsang, odam atalishga loyiq emassan!”

Bir-birga ulus erur a’zo,
Zoti birdur borig‘a, ey dono.
Yetsa har a’zog‘a agar ozor,
Qolmag‘oy o‘zga uzvlarga qaror.
O‘zgalar dardidin esang beg‘am,
Loyiq ermas seni demak odam.

Ayni qit’aning oxirgi bayti Alisher Navoiyning “Agar sen chin inson bo‘lsang, xalq g‘amini o‘zining g‘ami deb bilmaydigan kishini odam dema” ma’nosidagi:

Odami ersang, demagil odami

Oniki, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami, – degan mashhur baytining yuzaga kelishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgani shubhasiz.

Odamlararo o‘zaro munosabatlarga asoslanib yaratilgan bu hikmat Alisher Navoiy qalamida yanada teranlashib, ma’no doirasi kengayib, shunga muvofiq ravishda ta’sir darajasi kuchayib, ijtimoiy mazmun kasb etgan: inson faqat atrofidagilarning emas, balki butun xalqning g‘amu tashvishlari bilan yashashi, o‘zini xalq bilan yalakat mag‘iz deb bilishi kerak.

Badiiy tarjima mutaxassislari asliyat o‘quvchisi olgan taassurotni tarjima o‘quvchisi ham olishi kerak deb hisoblaydilar. Buning uchun esa tarjima ona tilida yozilganday ravon va jaranglab chiqishi kerak. Bunday yuksak mahorat va ijodiy yondashuv samarasi bo‘lgan tarjimalar esa o‘zbek tarjima adabiyoti xazinasida behisob. Ogahiy tarjimalari xususida ham shunday deyish mumkin. Mohir mutarjimning Sa’diy hikmatlaridan qilgan qator tarjimalari xuddi o‘zbekchada yozilganday taassurot qoldiradiki, bu o‘z-o‘zidan tarjimaning yutug‘i, tarjimonning mahorati hisoblanadi. Zero, o‘zi ham ijodkor bo‘lgan tarjimon o‘zganing asariga ham ijodiy munosabatda bo‘ladi. Jumladan, Sa’diyning “Sira nojo‘ya ish sodir etmaydigan, o‘zi qilmagan ishni boshqalarga ham aytmaydigan kishigina olim degan nomga munosib” mazmunidagi misralarini Ogahiy “So‘zi bilan boshqalarni tarbiyalaydigan, o‘zi qilmagan ishni boshqalardan ham talab qilmaydigan kishini olim deydilar” tarzida ijodiy yondashgan holda erkin tarjima qilgan, lekin bayt xuddi o‘zbek shoiri yozganday ravon va ta’sirchan chiqqan:

Olim on kas buvad, ki bad nakunad,
Na bigo‘yad ba xalqu xud nakunad.

Olim uldurkim, asar qilg‘ay so‘zi,
Demagay ul so‘znikim, qilmas o‘zi.

Ha, bunday tarjimalarni o‘qib, mabodo Sa’diy o‘zbek tilida qalam tebratganida ham bundan o‘tkazib yozolmasdi deb o‘ylaysiz. Sa’diy o‘z zamonasining donishmand so‘z san’atkori edi, Ogahiy esa o‘z davrining mutafakkir shoiri. Binobarin, u buyuk salafi bilan dildoshgina emas, fikrdosh ham edi. Har ikki mutafakkir adibning tuyg‘u-

kechinmalari hamohang bo‘libgina qolmay, fikru qarashlari ham mushtarak edi. Mavlono Rumiy ta’biri bilan aytganda: “Hamdili az hamzaboni behtar ast” – “Dillarning o‘zaro yaqinligi tillar birligidan afzalroqdir”. Bu ikki alloma ijodkorning Olloh–Olam–Odam haqidagi qarashlarida o‘zaro mushtaraklik, dunyo mohiyati, hayot mazmuni, insoniy xislat va illatlar bilan bog‘lik mushohada va kuzatishlarida yaqinlik mavjud edi.

Har ikki shoir ham hayot hodisalari va inson tabiatini qalb prizmasidan o‘tkazib, tafakkur tarozisida tortib, o‘z fikru xulosalarini har tomonlama teran va badiiy yuksak bir tarzda ifodalaganlari uchun ham ular dunyo donishmandlarining hikmatlariday, xalq maqollariday jaranglaydi. Shuning uchun buyuk salafining hayot falsafasi bilan to‘yingan teran hikmatli so‘zlari uning shuurini yoritib, ko‘nglini nurlantirib yuboradi va xuddi o‘zi hikmat yaratayotganday ularni o‘zbek tiliga qoyilmaqom tarjima qiladi. Xalqona ta’bir bilan aytganda, muallif va mutarjimning yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelganligi uchun ham Sa’diy fikrlari Ogahiy qalbida aks sado berib, ikki ko‘ngil payvandi mahsuli bo‘lgan go‘zal tarjimalar dunyoga kelganligini ko‘rish mumkin.

Sa’diyni to‘lqinlantirgan va bezovta qilgan fikru tuyg‘ular oradan yetti asr o‘tib Ogahiy qalbida aks sado berganini bir-biridan go‘zal va ta’sirchan hikmatlar tarjimasi yaqqol ko‘rsatib turibdi. Voqean, u asarni birmuncha qisqartirib tarjima qilgan. Binobarin, u o‘ziga yoqqan, ko‘nglini to‘qingan, xayolini band etgan fikrlarni o‘zida ifodalagan hikmatlarni tanlab tarjima qilgan. Tarjimaning muvaffaqiyatini belgilagan omillardan biri shu ekanligi shubhasiz.

Eng muhimi, Ogahiy Sa’diy panjasiga munosib panja ura olgan. Buyuk salafining dunyo mohiyati, hayot mazmuni, inson tabiati, umr ma’nosi, odamlararo munosabatlar, bani bashar fe’l-atvorining turfa turlanish va tuslanishlari, insoniy xislat va illatlar haqidagi mushohada-mulohazalari, fikru xulosalarining qaymog‘i bo‘lmish hikmatli so‘zlarini haddi a’losiga yetkazib o‘zbek tilida jaranglata bilgan va bu hikmatlarning ko‘pchilik o‘quvchilar ko‘nglidan chuqur joy olgan.

Shoirlarning o‘z fikrlarini tasdiqlash yoki kuchaytirish uchun she’rlarida xalq maqol-matallariga, mashhur hikmatli so‘zlarga, el ichida yurgan obrazli iboralarga murojaat qilishlari ilmu bade’da irsoli masal san’ati deb yuritiladi. Jumladan, Sa’diy ham bir baytida “Xalq tilidan qutulib bo‘lmaydi” degan maqolni “Ehtimol, sodir etgan aybu

gunohi uchun uzr so‘rab va tavba qilib, Xudoning muqarrar azobidan ham najot topish mumkindir, lekin hech qanday yo‘l bilan odamlarning tilidan xalos bo‘lib bo‘lmaydi” tarzida rivojlantirib, boyitib va kuchaytirib, haddi a’losida ifodalaydi:

Ba uzru tavba tavon rastan az azobi xudoy,

Valek menatavon az zaboni mardum rast. (80)

Bu hikmat tarjimasi ham sof o‘zbekona ifodasi bilan o‘quvchi e’tiborini o‘ziga tortadi:

Qutulsa tavba birla Haq azobidin bo‘lg‘ay,

Valek xalq tilidin qutulmoq o‘lmag‘usi.

Ifoda – fikrning ham asosi. So‘zning ta’siri ifodasiga ko‘ra bo‘ladi. “Tarjimalarping esda qolarli, yorqin, quyma hikmat bo‘lib chiqqanligi siri shundaki: botiniy mazmun go‘zalligi bilan zohprpy shakliy-lisoniy lnbosning bir-biriga mos kelishiga alohida diqqat qilingan” [2,123].

Xalq hayotini yaxshi bilgan Sa’diy ko‘plab xalq maqol-matallari, obrazli iboralarini asarlariga olib kiradi. o‘z navbatida, bu donishmand insonning o‘zi ham ko‘plab hikmatlar ijod etganki, ular xalq og‘zaki ijodi tarkibiga singib ketgan: ulardan qaysi biri xalqqa tegishli-yu, qaysi biri Sa’diydan o‘zlashtirilganligini ajratib bo‘lmaydi.

Xalqda “Yaxshilik jazosiz qolmas” degan kinoyali maqol bor. Dunyoning ko‘plab donishmandlari nomunosib kimsaga yaxshilik ayni yomonlik ekanligini ta’kidlab o‘tishgan. Haqiqatan ham, yaxshilik qilgan baloga qolishi, yaxshilik ajri ba’zida yomonlik bo‘lib chiqishi ham hayotda ko‘p uchraydigan hodisa. Sharq mumtoz so‘z san’atida ayni ma’nodagi shikoyatomuz pandu nasihatlarga ham ko‘p duch kelamiz. Chunonchi, Sa’diy ham bir hikmatida “Dunyoda vafo aslitdan yo‘qmidi yoki uni zamon ahli unutib qo‘ydimi? Chunki kim mendan o‘q otish hunarini o‘rgangan bo‘lsa, oqibat ko‘ksimni nishonga oldi”, – deb achchiq alam bilan yozgan edi:

Yo vafo xud nabud dar olam,

Yo magar kas dar in zamona nakard.

Kas nayomo‘xt ilmi tir az man,

Ki maro oqibat nishona nakard.

Bu qit’a muallifga nafaqat hammaslak, hamfikr, balki hamkismat ham bo‘lgan mutarjim tomonidan asliga muvofiq tarjima qilinganligini ko‘ramiz:

Vafo yo‘q erdimu olamda hargiz,

Va yoxud qilmadi ahli zamona.

Ki har kim otmoq o‘q o‘rgandi mendin,

Meni ul oqibat qildi nishona.

Chunki ayni mazmundagi fikru mushohadalarga Ogahiyning o‘z ijodida ham duch kelamiz. Asarlaridan ma’lum bo‘lishicha, oqibatsizlik, xiyonat, hasad, fitna o‘qlariga shoir ko‘p duchor bo‘lgan. O‘zi boshidan o‘tkazgan, o‘ziga tanish kirdikorlar bo‘lgani uchun ham tarjimon bu misralarni yuragidan o‘tkazib, xuddi o‘zi yangi she’r yozayotganday qiyomiga yetkazib tarjima qilgan.

Hikmat har qancha lo‘nda va ixcham bo‘lmasin, u faqat fikrning teranligi bilan emas, ayni paytda hassos ko‘ngil taftiga yo‘g‘rilganligi bilan ham ajralib turadi. Boshqacha aytganda, hikmat aql zaminida dunyoga kelsa ham, u yurak taftida pishadi. Qalb qo‘riga yo‘g‘rilmagan fikr har qancha teran va serqirra bo‘lmasin, u yurakka to‘qinmaydi. Fikr go‘zaliga tuyg‘u joziba bag‘ishlaydi. Bu degani hikmat tarjimasida ham faqat fikrga urg‘u berish bilan kifoyalanib, uni yurak taftidan mosuvo qilmaslik kerak. Zero, tafakkur va tuyg‘u omuxtasi bo‘lmagan fikrning ta’sir quvvati kuchli bo‘lmasligini muallif kabi mutarjim ham hisobga olishi joiz.

Badiiy tarjimada har bir so‘zning aks etgan-etmaganligi emas, balki ma’noning asliyatga qanchalik muvofiq holda qayta yaratilganligi hisobga olinadi va bunda ba’zi so‘zlarning o‘zgarishga uchrashi, almashtirilishi va hattoki tushib qolishiga ham tabiiy hodisa sifatida qaraladi. Zero, “tarjimada so‘zni so‘z bilan emas, balki ma’noni ma’no bilan berish muhim” [3,202]. Qolaversa, she’riy tarjimaning qiyinchiliklaridan biri shundaki, unda barcha so‘zni aks ettirishning hamma vaqt ham iloji yo‘q. Chunonchi:

Daryob kunun, ki ne’matat hast dar dast,

K-in davlatu mulk meravad dast ba dast.

Mazmuni: “Qo‘lingda mulku davlat borida uning qadriga yet, chunki davlatu mulk qo‘ldan-qo‘lga o‘tadi”.

Ogahiy Sa’diyni o‘zbekcha gapirtirmoqchi bo‘lgan – shuning uchun ham matnga nihoyatda erkin yondashib, ijodiy tarjima qilgan. Jumladan, “qo‘lda yer tutmoq” sof o‘zbekcha ibora bo‘lib, qo‘lga kirmoq, tasarrufga olmoq ma’nolarini bildiradi. Forscha “darьyoftan” so‘zining g‘animat bilish, qadriga yetish ma’nolaridan tashqari, bilish, anglash, ogoh bo‘lish ma’nolari ham mavjudki, tarjimon “yaqin bilkim” – “aniq bilkim” deya shu ma’nosini oladi. “Meravad dast ba dast” – “qo‘ldan-qo‘lga o‘tadi” jumlasini esa “ necha qo‘ldan o‘tibdur” deb

o‘giradi.

Bu ne’matkim, qo‘lungda yer tutubdur,

Yaqin bilkim, necha qo‘ldin o‘tubdur.

Sa’diyning “Musofirlik nimaligini bilmaydigan kishigina g‘aribning ko‘nglini og‘ritadi” ma’nosidagi:

Durushti kunad bo g‘aribon kase,

Ki nobuda boshad ba g‘urbat base, – baytini ham Ogahiy “Musofirlikni boshidan o‘tkazmagan kishi g‘urbat ahlining qadriga yetmaydi” tarzida shaklan o‘zgarishlar bilan tarjima qilsa-da, mazmunan u asliyatga qoyimmaqom:

G‘urbat ahli qadrini bilmas kishi.

Toki g‘urbat birla tushmaydur ishi.

Yoki:

Xudovandi tadbiru farhangu hush,

Nago‘yad suxan, to nabinad xamo‘sh.

Tarjimasi: “Aqlu ma’rifatu farosat sohibi bo‘lgan kishi to birov so‘zini tugatmaguncha oraga gap suqmaydi”.

Ogahiy bu mazmunni sof o‘zbekona jaranglatib tarjima qiladi:

Aqlliq kishi hech demas kalom,

Kalomin birav qilmag‘uncha tamom.

G‘aybulla Salomov ta’biri bilan aytganda: “Bunday o‘rinlarda chuqur mazmunli mitti asarlar jonon piyoladay tipiq jaranglaydn, ular vujudi o‘zbek tilida yaratilganday, so‘ngra boshqa tillarga ko‘chnb, tarjima tufayli yana o‘z manbaiga, asl holatiga qaytganday taassurot tug‘iladi” [2,123].

Ba’zida Sa’diyning nasriy hikmatlarini she’rga solib tarjima qiladi:

“On ki zohid ast, zar namesitonad va on ki mesitonad, zohid nest”.

Tarjimasi: “Agar kishi zohid bo‘lsa, boylikka qiziqmaydi, agar boylikka qiziqsa, demak, u zohid emas”.

Bu nasriy hikmatni shoir she’rga solib, juda go‘zal fard yaratadi:

Kimki, zohiddur anga hojat emas dunyou zar,

Zohid ermas hap kishikim, qilsa dunyog‘a nazar.

Yoki:

“Dushman chi zanad, chu mehribon boshad do‘st”.

Tarjimasi: “Agar kishining mehribon do‘sti bo‘lsa, dushman uni hech narsa qilolmaydi”.

Bu fikrni ham tarjimon she’rga solib, farz o‘laroq tarjima qiladi:

Kimsaga gar do‘st bo‘lsa mehribon,

Dushmani ko‘b bo‘lsa, andin ne ziyon.

Forscha “zadan” so‘zining ma’no doirasi keng va rang-barang bo‘lib, bu yerda u hujum qilish, hamla qilish, yomonlik qilish, pand berish kabi ma’nolarda kelyapti. Ogahiy esa bu ma’nolarni umumlashtirib, “do‘sti ko‘p” deb oladi. Natijada hikmat boshqacha ko‘rinishga ega bo‘ladi: “Agar kishining mehribon do‘sti bo‘lsa. dushmani har qancha ko‘p bo‘lsa ham, hech bokisi yo‘q”. Tarjima asliyatdan go‘yo shaklan farqlansa ham, ma’no jihatdan mushtarak va u ijodiy tarjimaning go‘zal ko‘rinishi hisoblanadi.

Badiiy tarjimaning antinomiyalaridan biri shundaki, tarjimon matnga qanchalik yopishib olsa, uni so‘zma-so‘z tarjima qilishga urinsa, asliyatdan shunchalik uzoqlashadi, aksincha, matndan bir qadar chekinib, unga ijodiy yondashsa, muallifning so‘zini emas, fikrini uqishga, asarning zohiriy ma’nosini emas, balki botiniy mazmunini aks ettirishga intilsa, asliyatga shuncha yaqinlashadi, go‘zal va mukammal tarjima yaratadi.

Atoqli tarjimashunos G‘aybulla Salomov hikmatli so‘zlarni jajji asarlar deb ta’riflagan va bunday asarlar tarjimasining qiyinchiliklari xususida fikr yuritib, jumladan, shunday degan edi:

“Hikmatlar tarjimasida badiiy tarjimaga xos ko‘pgina alomatlar mavjuddir. Eng muhim talab shuki, bu yerda ayniqsa hijjalab o‘girish illatidan ehtiyot bo‘lish kerak, aks holda bnron chuqur fikr ifodalangan quyma gap oddiy, jo‘n so‘zlar tizmasiga aylanib, mantiqiy joziba, ko‘zni quvontirib, dilni yorishtiradigan luqma o‘rniga qandaydir anglashilmov-chilik, dudmollik, chuchmallik, mantiqiy chalkashlik – alogizm paydo bo‘ladi. Hijjali tarjima aforizmning bosh kushandasi hisoblanadi” [2,122].

Albatta, Ogahiy “Guliston”dagi nasriy hikmatlarni ham katta mahorat, shoirona hassoslik bilan tarjima qilgan. Jumladan:

“Sari mor ba dasti dushman biko‘b, ki az ihdo-l-hasayn (yake az du hasanot) xoli naboshad: agar in g‘olib omad, mor kushti, v-agar on az dushman rasti”.

Tarjimasi: “Ilonning boshini dushmanning qo‘li bilan yanchishga harakat qil, chunki shunday qilsang, ikki foydadan biriga muyassar bo‘lasan: agar dushman g‘olib kelsa, ilondan najot topasan, ilon zo‘r chiqsa, dushmandan qutulasan”.

Ogahiy tarjimasi deyarli so‘zma-so‘z asliga to‘g‘ri – faqat hikmatda ifodalangan fikrni o‘quvchiga imkon qadar tushunarli tarzda

yetkazish maqsadida o‘zidan ma’noning yarq etib ochilishiga xizmat qiladigan bir necha so‘z qo‘shgan. Natijada asliyatdagi 22 so‘z, bog‘lovchi va qo‘shimchadan iborat bo‘lgan hikmat tarjimada 28 ta so‘zga yetgan. Bu hol badiiy tarjima uchun tabiiy hisoblanadi.

“...yilonning boshin dushmanning qo‘li birla yonchg‘ilkim, munda ikki naf’ning biri bor turur: agar bu g‘olib bo‘lsa, yilonni o‘lturmish bo‘lg‘oysen va agar ul g‘olib kelsa, dushmanning qo‘lidin qutulmish bo‘lg‘aysen”.

Yoki:

“Mol az bahri osoishi umr ast, na umr az bahri gird kardani mol!”

Tarjimasi: “Boylik zoriqmay yashash uchun, nainki umr boylik to‘plash uchun”.

Ya’ni mol-dunyo yig‘ishdan maqsad munosib hayotni ta’minlash uchun bo‘lishi kerak, aksincha umrni boylik to‘plash uchun zoe qilmaslik kerak. Zero, ehtiyojingdan ortiqchasi boshqalar uchundir. Sulaymon Boqirg‘oniy ta’biri bilan aytganda:

Qismatimdan ortuq taom yemas bo‘lsam,

Bu dunyoni yig‘ib-terib netoyin...

Bu hikmatni ham Ogahiy maromiga yetkazib tarjima qilgan:

“Mol umr osoyishi uchundur, umr mol jam’ etmak uchun ermasturur”.

Bunday hikmatli satrlarni tarjima qilish mutarjimdan ham shunga yarasha malaka va mahorat talab qiladi. Chunki ma’noni tarjimada aks ettirib ham hikmatni chiqarolmaslik mumkin-da. Aytaylik, ortiqcha so‘z qo‘shib cho‘zsangiz, hikmatning ta’sir kuchi qirqiladi. Ifoda g‘aliz chiqsa, yoki ma’no mavhumlashsa, bunday hikmat badiiy-estetik vazifasini bajarolmaydi – o‘quvchiga yetib bormaydi, unga ta’sir qilmaydi, esida ham qolmaydi.

Aytish mumkinki, bu tarjima so‘zma-so‘z asliyatga qoyimmaqom.

Haqiqat qiyosda bilinadi deydilar. Sa’diy hikmatlarini ham turli tarjimalari bilan qiyoslash Ogahiyning bu borada qanchalik mahorat ko‘rsatganini yaqqol namoyon etadi. Chunonchi:

Miskin haris dar hama olam hameravad,

O‘ dar qazoi rizqu ajal dar qafoi o‘.

Mazmuni: “Bechora mol-dunyo bandasi butun olamni charx uradi: u rizq ketidan, ajal uning ortidan”.

Sayfi Saroyi tarjimasi:

Yelar dunyoning ortincha haris er,

O‘lumin anglamay oltun g‘amin yer.

Ogahiy tarjimasi:

Miskin haris olam aro tinmayin yurar:

Ul rizqning izidan, ajal oning izidan.

Bu tarjimalarni asliyat bilan chog‘ishtirsa, Sayfi Saroyi Sa’diy fikrini bir qadar erkin talqin qilgani, Ogahiy tarjimasi esa forsiy matnga muvofiqligi ma’lum bo‘ladi.

Aslida har ikki tarjima ham bir-biridan go‘zal va o‘ziga xos. Ayni paytda, ular bir fikrning ikki talqini ekanligi, biri ikkinchisini ochishi va to‘ldirishi jihatidan ham e’tiborga molik. Aytaylik, birinchi misolda yugurik dunyo va haris insonga urg‘u berilgan: omonat dunyoda g‘animat ekanligini bilmagan xom sut ichgan banda o‘limni xayoliga keltirmay, molu dunyo yiqqani-yiqqan. Holbuki, topgan davlatini bu dunyoda ham sarflab tugatolmaydi, u dunyoga ham olib ketolmaydi. Donishmandlar lutf etganlaridek, ortiqcha boylik to‘playotgan kimsa boshqalar uchun jon kuydirayotgan bo‘ladi.

Ikkinchi misolda odam va ajal asosiy obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi: haris banda dunyo bo‘ylab rizqini izlab yugursa, ajal uning jonini olish uchun ortidan qolmaydi. Ha, bu charxpalak dunyoda hamma narsa bir doira bo‘ylab bir-birining ortidan charx uradi: kim boylikning, kim ilmning, kim ishqning, kim maishatning... Lekin o‘zining ketidan ham bir narsa tushganini, hamisha payt poylab yurganini ko‘pchilik xayoliga keltiravermaydi.

Yoki:

Har ki shoh on kunad, ki o‘ go‘yad,

Hayf boshad, ki juz nako‘ go‘yad.

Mazmuni: “Shoh maslahati bilan ish qiladigan kishi faqat yaxshi so‘zni so‘zlamasa, hayf bo‘ladi”.

Ogahiy tarjimasi:

Eyki, sulton oldida so‘zing topibdur e’tibor,

Yaxshi so‘z ayturni pesha qil o‘zingga zinhor.

G‘afur G‘ulom tarjimasi:

Shohlarga o‘z gapin o‘tkazgan kishi,

Lozimdir yaxshi gap topib aytishi.

Tarjimalarni asliyat bilan solishtirsa, har ikki tarjima ham Sa’diy fikrlariga hamohangligi ayon bo‘ladi. Ayni paytda talqin va ifoda jihatidan ular orasida muayyan tafovutlar ham yo‘q emas. Ogahiy tarjimasida shoh dargohiga yo‘l topib, uning nazariga tushgan kishi

haqida gap borsa, G‘afur G‘ulom tarjimasida shohga maslahat beradigan shaxs ko‘zda tutilmoqda.

Tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zi ham mutafakkir shoir bo‘lgani uchun Ogahiy pandnomanavislar piri bo‘lgan Sa’diyning shaklan go‘zal, mazmunan teran va badiiy yuksak darajadagi hikmatli so‘zlarini maromiga yetkazib asliyatga muvofiq tarjima qilgan va ular o‘quvchilar e’tiborini o‘ziga tortib, ular ko‘nglidan chuqur joy olgan hamda hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Komilov N. Hikmatlar xazinasi. So‘zboshi // S a ’ d i y Sh ye r o z i y. Guliston. Forsiydan Muhammadrizo Ogahiy tarjimasi (Nashrga tayyorlovchi Subutoy Dolimov). – T.: Yozuvchi, 1993.

2. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1983.

3. Salomov G‘. Men suv ichgan daryolar. – T.: Yosh gvardiya, 1990.

YASHAR KAMOLNING “SEVGI AFSONASI” ROMANIDAGI MIFOLOGIK UNSURLARNING O‘ZBEKCHA TARJIMADA BERILISHI

Rustam SHARIPOV, *TDSHU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,*
Oybek JUMABOEV, *TDSHU magistranti*

Yuksak iste’dodi, inson qalbining tub-tubida yotgan kechinmalarni san’atkorona ifodalash qobiliyati, nasriy nazmi bilan XX asr ikkinchi yarmi turk adabiyotining yirik namoyandalaridan biriga aylangan atoqli adib – Yashar Kamolning «Sevgi afsonasi» (“Og‘ritog‘ nolasi” - “Ağrıdağı Efsanesi” [1]) romani jahon adabiyotining sara asarlari sirasiga kiradi. 1955 yilda nashr etilgan ushbu roman adibning qisqa davrda dunyoning qirqdan ortiq tiliga tarjima qilinib, adib nomini dunyoga tanitgan “Inja Mamad” romanidan keyingi mashhur asaridir. Asarda o‘z muhabbatini Mahmudxondan himoya qilgan Ahmad va Gulbahorning achchiq qismatlari haqida hikoya qilinadi. Afsonalar va xalq og‘zaki ijodiga chin yurakdan bog‘langan Yashar Kamolning ushbu asari inson psi-xologiyasining eng teran torlarini chertib o‘tadi. Tarjimada asarning ayni mana shu nozik xilqatlarini o‘zbek o‘quvchisiga aniq, ravon va eng muhimi badiiy salmog‘ini tushirmagan holda yetkazib berishga muvaffaq bo‘lingan.

Haqiqiy so‘z ustasi, o‘z ijodini Onado‘lu xalq og‘zaki ijodi namuna-lari bilan omuxta asarlar yozish bilan boshlagan Yashar Kamol turk tilining badiiy ifoda qudrati, nafosati, xalq og‘zaki ijodining yagona qahramoni bo‘lgan turk xalqining boy madaniyatidan ilhomlandi. Yevropada Yashar Kamolning “Og‘ritog‘ nolasi” asari Shahrizoda hikoyalari, Tolstoy romanlari kabi keng miqyosli, Dikkens romanlari kabi jonli ekanligi, kitobning go‘zalligi boy nazm uslubi, afsona tuyg‘usiga tayanishi ta’kidlanadi [2,6].

Ta’kidlash joizki, tarjima asarlari tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, tarjima tillarning rivojlanish sur’atini jadallashtiruvchi, lug‘at boyligini oshiradigan va takomillashtiradigan vosita sifatida ham muxim ahamiyatga ega. Ushbu jihatlar tarjimani inson ma’naviy xayotini boyituvchi, ona tilining bor bisotini ro‘yobga chiqaruvchi, ayni paytda, uning serjilo bo‘lishini ta’minlovchi, kitobxon tafakkurini charxlab, yangi g‘oyalar, tushunchalar bilan boyituvchi xususiyatga ega ekanligini namoyon etadi. Shu bilan birga, tarjima asarlar orqali milliy adabiyotlarga yangi g‘oyaviy yo‘nalish, yangicha syujet, janr, yangi obraz va badiiy tasvir vositalari kirib keladi. Shu ma’noda, badiiy tarjimani asliyatni qayta yaratish, talqin etish san’ati deb ham ta’riflash mumkin. Ushbu san’atni egallash uchun tarjimondan, birinchi navbatda, asliyat matni mazmun-mohiyatini to‘la-to‘kis idrok etish, uni o‘girilayotgan tilda bekami ko‘st qayta ifodalashga erishish talab qilinadi.

Bu masalaga lingvistik nuqtai nazardan yondashiladigan bo‘lsa, tarjimani bir tilda yaratilgan matnni uning shakl va mazmun birligini saqlab qolgan holda, o‘zga til vositalari asosida qayta yaratish maqsad qilib qo‘yilgan hamda ilmiy jihatdan asoslangan ijodiy-adabiy jarayon sifatida ta’riflash mumkin. Demak, tarjima jarayonida asliyat tili vositalari yordamida yaratilgan asar tarjima tili qonuniyatlari va imkoniyatlariga mos ravishda qayta yaratiladi va buning natijasida asliyat hamda tarjima matnlarining mazmuniy-uslubiy muqobilligi yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbatida lingvomadaniy qatlamlarning yaqinlashuviga zamin yaratadi.

Jahon adabiyoti xazinasi dunyo tamadduni tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyotlardan biri ekanligi shubhasiz. Ammo, lison otli xilqat sabab ushbu xazinadan hamma ham birday bahramand bo‘lishi

imkoniyati cheklangan. Ushbu muammoning yagona yechimi sifatida “badiiy tarjima” atalmish ham adabiy, ham ilmiy hodisa yuzaga kelgan.

Akademik Naim Karimov o‘zining “Tarjima san’ati va jahon adabiyoti” maqolasida shunday deb yozadi: “Odamzod qaerda, yer kurrasining qaysi bir go‘shasida yashagan bo‘lmasin, yangi hayot manzillarini kashf etish, daryolar, dengizlar, hatto ummonlarning narigi sohilidagi hayot bilan oshno bo‘lishga, o‘sha yerdagi hayot manbalaridan bahramand bo‘lishga intilgan. U shu maqsadda suzishni o‘rgangan, qayiqlar yasagan, ko‘priklar qurgan. Insoniyat taraqqiyotning muayyan bosqichiga ko‘tarilganidan so‘ng boshqa mamlakatlar va qit’alarda yashagan xalqlar badiiy madaniyatidan, nafis adabiyot olamida erishgan yutuqlaridan bahramand bo‘lishga katta ehtiyoj sezgan. Odamzodning ana shu ehtiyoj taqozosi bilan adabiyotlar aro qurgan “ko‘prigi” hozirgi kunda “badiiy tarjima” deb ataladi” [3].

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hech bir milliy madaniyat boshqa ma’naviy-ma’rifiy qatlamlardan, shuningdek tamaddun rivojlanish jarayonlaridan ajralgan holda yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilganini ko‘rmaymiz. Aksincha, dunyodagi barcha madaniyatlar bir-birlariga u yoki bu darajada ta’sir o‘tkazib, o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini boshidan o‘tkazib kelgan. Shuning uchun turli millatlar madaniyatlarida umumiylik va xususiylik borligini hisobga olib, tarjimani xalqlar o‘rtasidagi lingvomadaniy ko‘prik, tarjimonlarni esa madaniyat elchilari deyishga to‘la asosimiz bor.

Hayotdagi voqea-hodisalarni teran falsafiy idrok etish adib ijodiga xos xususiyatdir. U o‘z asarlari orqali hayotdagi azaliy va abadiy, har doim o‘zaro kurashib kelgan hayot va o‘lim, muhabbat va nafrat, sadoqat va xiyonat, go‘zallik va chirkinlik, shaxs va jamiyat kabi azaliy qarama-qarshiliklar mavzusiga murojaat qiladi. Ana shunday ijtimoiy muammolar, jumladan “hokimiyat va xalq” muammosi “Sevgi afsonasi” asarining ham markazida turadi.

“Yashar Kamol o‘z ijodini Onado‘lu xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan omuxta asarlar yozish bilan boshladi. Haqiqiy so‘z ustasi bo‘lgan adib turk tilining ifoda qudrati, nafosati, xalq og‘zaki ijodining yago-na qahramoni bo‘lgan turk xalqi madaniyatidan ilhomlandi” – deb yozgan edi tunislik olima Jeliha Hafsiya (La Press). Angliyaning Manchester Guardian jurnali adib haqida “Yashar Kamolning romani Tolstoy romani kabi keng miqyosli, Dikkens romani kabi jonlidir” deb, Irlandiyaning Irish Times gazetasi adibning tili haqida “Uning boy,

rangorang uslubi va yozgan har so‘zi o‘tkir, serjilo, sermag‘iz, bug‘doy doni kabi to‘q, sermah-suldir” deb yozgan edi.

Ushbu asar haqida Angliyaning Daily Telegraph gazetasi “Yashar Kamol Shahrizodaning hikoyalari, Tolstoy romanlari kabi keng miqyosli, Dikkens romanlari kabi jonlidir” deb yozgan bo‘lsa, “Sunday Telegraph” jurnali “Kitobning go‘zalligi boy nazm uslubi, afsona va mif tuyg‘usiga tayanadi” deb ta’kidlagan edi [2,5].

Turk mumtoz adabiyotining durdona asari tarjimasiga qo‘l urgan tarjimon zimmasiga jiddiy mas’uliyat yuklanishi tabiiy. Ammo, tarjimon asl matn tilini yaxshi egallaganligi, turk xalqining milliy ruhiy holati, tarixi, madaniyati, mentaliteti, mamlakatshunoslikka oid ma’lumotlardan xabardor bo‘lib, o‘zbek tili qonun-qoidalaridan boxabar bo‘lganligi asar o‘zbek tilidagi tarjimasining muvaffaqiyatli chiqishiga zamin yaratgan, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov shunday yozadi: “Asliyat matni ustida qunt va sabot bilan ish olib bormay turib, asarning o‘ziga yarasha iboralari, frazeologizmlari, obrazli ifodalariga daxldor maxsus lug‘atlar va izohlar tuzmay turib, qoralamalar qilmay turib, tarjimaga kirishib bo‘lmaydi. Har qadamda qoqilasiz va har qadamda noto‘g‘ri tarjima qilasiz. Bu jarayonga ilmiy-ijodiy yondoshib, asliyatning badiiy uslubiga yo‘l topasiz, zarur ritmika, jumlalarning ohanglarini anglay boshlaysiz. Muttasillik va uzluksizlik, izchillik - tarjima jarayon-larida juda ulug‘ amaliy ahamiyatga ega g‘oya! U tarjima ma’rifati va madaniyatida birinchi o‘rinda turadi”.

Yashar Kamol “Sevgi afsonasi” romanida Og‘ritog‘ (Ararat tog‘i) etaklarida yashagan xalqlarning hayot tarzi, mahalliy aholining tarixiy qadriyatlari, urf-odatalari, xalqlarga oid afsonalardan ustalik bilan foydalangan. Asarda hikoya qilingan voqea-hodisalarning ba’zilari afsona emas, balki tarixda yuz bergan voqealar bo‘lib, adib ularni o‘z asariga mohirona singdira olgan.

Asar Og‘ritog etagida joylashgan Kup ko‘li atrofida cho‘ponlarning xar yil bahor kelishi o‘tkazadigan marosimlari haqidagi hikoyasi bilan boshlanadi. Unga ko‘ra cho‘ponlar tog‘dagi qorlar erib, bahor ko‘z ochganda, hali quyosh chiqmasdan Kup ko‘li atrofida to‘planishadi, o‘zlari bilan olib kelgan sibizg‘alarini sozlab, “Og‘ritog‘ nolasi”ni chala boshlaydilar. Bu nola quyosh chiqishidan boshlanib, ufqqa bosh qo‘ygandagina nihoyasiga yetadi. Kun botishi bilan esa qorday oppoq, ingichka, barmoqday keladigan, mitti bir qushcha ko‘l uzra charx ura

boshlaydi. U ko‘lning moviy suviga bir qanotini tekkizib o‘tadi va bu harakatini uch marotaba takrorlaydi. Qushcha g‘oyib bo‘lgach, cho‘ponlar sibizg‘alarini yana belbog‘lariga qistirib, u yerdan jimgina uzoqlashadilar. Aynan shu hikoya asarda bir necha marotaba takrorlanadi va asarning qolgan qismi ushbu hikoya atrofida “aylanadi”.

Kumush bezakli, naqshinkor, cherkes ustalari yasagan egarli, kumushdan yasalgan uzangisiga naqsh solingan, kigiz yopinchiqli shohona bezatilgan, asar qahramoni Ahmadning boshiga tushgan tashvishlarning asosiy sababchisi bo‘lgan ushbu xoldor ot mohirona chalingan sibizg‘a nolasi tufayli Ahmadning uyi oldiga kelib to‘xtaydi. Avvaliga qo‘shnilar, xususan So‘fiy ham otni Ahmadni mehmonlariga tegishli deb o‘ylaydi. Otning ko‘rinishi, egari, undagi tamg‘adan otning yuqori martabali biriga tegishli ekanligi bilinib turardi. So‘fiy o‘z oyoqlari bilan kelgan otni Ahmadning qismati ekanligini ta’kidlaydi. Shunday bo‘lsada So‘fiy Ahmadga otni uch marotaba uydan uzoqqa tashlab kelishini maslahat beradi va har safar ot takror Ahmadning eshigi oldiga kelib to‘xtaydi. Shundan so‘ng Ahmad ham xoldor otning o‘z qismati va ilohiy mukofot ekanligiga ishonadi.

Mahalliy aholi urf-odatlariga ko‘ra, o‘z oyog‘i bilan kelgan ot asl egasiga hech bir holatda qaytarib berilmasdi. Bu vaziyat asliyatda quyidagicha berilgan: “Atın sahibi bey de olsa, paşa da, Osmanlı Padişahı, Acem Şahı da olsa, Köroğlu da olsa, kelleni verir de bu atı veremezsin. Ve hem de veremeyiz” [1,15]. Tarjimasi: “Mayli, otning sobiq egasi bey bo‘ladimi, poshshomi, Usmonli sultoni yoki Ajam mulkining podshosi bo‘ladimi, Go‘ro‘g‘li bo‘ladimi, boshingni o‘rtaga qo‘yasan, ammo otni egasiga qaytarib bermaysan. Bu bizning odatlarga to‘g‘ri kelmaydi [2,17]”.

Xoldor ot nafaqat Ahmad va Gulbahor uchun balki mahalliy aholi, Gulbahorning otasi, ushbu hudud begi Maxmudxon ham ot tufayli qizi va o‘z ta’sir kuchidan ayriladi. Oradan olti oy vaqt o‘tgandan so‘ng ot Boyazid begi Mahmudxonniki ekanligi ma’lum bo‘ladi va u otini qaytarib berishni talab qilib odamlarini jo‘natadi. Ahmad otni qaytarib bermagach, g‘azab otiga mingan Mahmudxon Og‘ritog‘ sari yurishga otlanadi. Ahmadning Sariq qishlog‘iga kirib kelgach, huvillab qolgan qishloqda So‘fiydan boshqa bironta tirik jonni topa olmaydi. Qishloq aholisi va Ahmad Maxmudxondan qochib Og‘ritog‘ bag‘ridagi qishloqda yashirinib oladi. Asarning keying qismlarida Ahmadga

Og‘ritog‘ cho‘qqisida mash’ala yoqish sharti qo‘yilganda tog‘ bilan bog‘liq afsonalarga keng o‘rin beriladi.

Asarda tog‘ dunyo yaratilgandan buyon mavjud bo‘lgan muqaddas makon sifatida beriladi. Afsonaga ko‘ra ushbu tog‘ dunyoning markazi ekanligi va insoniyat tarixida ilk olov ana shu tog‘ cho‘qqisidagi mash’aladan olingani aytiladi: “Ağrının tam tepesinde bir ateş harmanı vardır. Doruğun tam ortasından bir kuyu dünyanın ortasına iner. İlk ateş bu kuyudan alınmıştır”[1.121]. Ushbu parcha tarjimada quyidagicha berilgan: “Og‘ritog‘ning cho‘qqisida bir vulqon bor. Cho‘qqining aynan o‘rtasidan to yer qa’rigacha boradi. Ilk olov ana shu vulqon qa’ridan olingan ekan”. Bu yerda ilk olov aynan Og‘ritog‘dan olingan degan asotir ilgari suriladi. Mahmudxon Ahmadga Og‘ritog‘ning cho‘qqisida mash’ala yoqish shartini qo‘yganida, “tog‘dan olov o‘g‘irlash” voqeasi haqida so‘z boradi. Unga ko‘ra, insonlar Og‘ritog‘ning tepasidan olov olishga bir necha marotaba harakat qilishgan: “Ateşi kaçıranlardan bir tanesi dağın gafletinden faydalanmış, ateş gölünden bir tutam ateş koparmış, başlamış dağdan aşağı koşmağa, ta aşağılara inmiş. Tam bu sırada Ağrı uyanmış, bakmış ki ateşi koparan başını almış gidiyor. Hemen eli ateşli adamı orada, olduğu yerde yakalamış, durdurmuş. Adamı da, elindeki ateşi de o anda, orada dondurmuş” [1.121]. Tarjimada bu holat quyidagicha beriladi: “Olovni olib qochgan kishi tog‘ning g‘aflatda bo‘lgan paytidan foydalangan, olov dengizidan bir hovuch olov yulib olib tog‘dan pastga yugurgan. Shunda Og‘ritog‘ uyg‘ongan va tezda uni tutib olgan, uni ham, qo‘lidagi olovni ham toshga aylantirib qo‘ygan ekan [2,106]”.

Mahmudxon, Ismoil og‘a maslahatiga ko‘ra, Ahmadni tog‘ning cho‘qqisiga jo‘natar ekan, tog‘ bilan bog‘liq afsonalarga eslaydi va Ahmadni shartini bajara olmay cho‘qqida vafot etishiga ishonadi. Asarda ushbu holat shunday beriladi: “Balki chiqar, -dedi poshsho. – Chiqqan taqdirda ham qaytib tusha olmaydi. Og‘ritog‘ uni qo‘yvormaydi [2,106]”.

Garchi Og‘ritog‘ haqida manfiy afsonalar ko‘p berilgan bo‘lsada, tog‘ning zulmga uchraganlarga yordam qo‘lini cho‘zishi, yomonlikka qarshi g‘azabi bilan bo‘liq afsona ham keltiriladi.

Afsonaga ko‘ra cho‘pon va bekning qizi bir-birini yoqtirib qoladi. Bundan habar topgan bek va qo‘l ostidagi o‘n besh qishloqning yigitlari toqqa yashiringan cho‘pon yigitni topish uchun yo‘l oladi. Tog‘ning sevishganlarga qarshi bo‘lganlar va ularning zulmga g‘azabi

quyidagicha beriladi: “Ağrıdağı zulme, kötülüğe öfkelenmiş, kaldırmış bir parçasını bunların üstüne yollamış. On beş köy tekmil canlısıyla dağın altında kalmış. Dağ yutmuş onları”[1,118]. Tarjimasi: “Og‘ritog‘ zulmdan g‘azablangan, ana shu g‘azabdan bir parchasini ularga yo‘llagandi. O‘n besh qishloq aholisi bilan tog‘ ostida qolgan, tog‘ ularni yamlab yutgan edi…”.

Boshqa bir o‘rinda, Og‘ritog‘ning xalq bilan birgalikda Gulbahorni qutqargani Mahmudxon saroyi ustiga yurgani aytiladi. Ya’ni Og‘ritog‘ xalqqa aylanadi. “.…go‘yo yerdan odam unib chiqayotganday, osmondan yog‘ilayotganday so‘ngsiz olomon, Og‘ritog‘ bilan Mahmudxon saroyi tomon oqmoqda [2,85]”. Bu orqali yozuchi xalq birlashsa tog‘day kuchli bo‘la olishini ta’kidlashga harakat qiladi. Inson va koinotning yaratilishi bilan bog‘liq afsonalarga ko‘ra tog‘ insonlar orasidagi birlik ramzi ham hisoblanadi.

Roman oxirida Ahmad Kup ko‘lida afsonaviy qaldirg‘och kabi nozik, kichkina qushga aylanadi. Ushbu qush ishtirokidagi holat asar davomida bir necha bor takrorlanadi “…. kücücük ak bir kuş gelip kanadını suyun som mavisin batırır. Ve sonra da bir atın kapkara gölgesi gölün üstünden gelir geçer” [1,143]. Bu parcha tarjimada quyidagicha beriladi: “…shunda kichkina oppoq qushcha uchib kelib, qanotlarini moviy zilol suvga tekkizadi va yana yuqoriga parvoz qiladi…. So‘ngra bir qo‘ng‘ir otning qop-qora ko‘lankasi ko‘l ustidan uchib o‘tganday bo‘ladi” [2,125].

Barcha voqealarning sababchisi bo‘lgan xoldor ot va asar yakunida Ahmadning afsonaviy qushga aylanish sahnasida qo‘ng‘ir otning qop-qora ko‘lankasi paydo bo‘ladi. Otlar asarda Gulbahor obrazini ifodalaydi, buni ushbu parchadan ham bilib olishimiz mumkin “…Bu taqdirning taqozosi, peshonaga yozilgani, yigitning boshiga qo‘ngan baxt qushi edi. Ot ham, Gulbahor ham unga Yaratganning, Og‘ritog‘ning bebaho tuhfasi edi. Demak, Ahmad bu bebaho tuhfaga munosib bo‘lmog‘i kerak”.

Xulosa. “Sevgi afsonasi” (Og‘ritog‘ afsonasi) romanida ot, muqaddas hayot daraxti, temirchi kabi dostonga oid unsurlar; so‘fi, Karvon shayxi, Og‘ritog‘ cho‘qqisiga chiqib olov yoqish kabi hikoya va afsona motivlaridan foydalanilgan. Og‘ritog‘, Kup ko‘li, sibizg‘a nolasi, qaldirg‘ochga o‘xshagan nozik qushcha, qop-qora ot ko‘lankasi asarda afsonaviy ramzlarga aylantirilgan. Asarni o‘zbek tiliga mohirona o‘girilganligini e’tirof qilish barobarida, ushbu maqola mifologik

unsurlarga yo‘g‘rilgan turkcha roman va uning o‘zbekcha tarjimasi ustida olib borilayotgan tadqiqotimizning ilki ekanligi va bu mavzudagi ishlar kelajakda davom ettirilajagini ta’kidlamoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yaşar Kemal. Ağrıdağı Efsanesi, roman.www.cizgiliforum.com.
2. Yashar Kamol. Sevgi afsonasi: roman. Tarjimon: X.Hamidov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021 yil. – 128 b.
3. Karimov Naim. Tarjima san’ati va jahon adabiyoti. “Jahon adabiyoti” (el. nashr), 2017 yil.

HINDIY TILIDAN FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASIDA VARIANTLILIK

PhD. ***Nilufar XODJAYEVA,*** *TDSHU katta o‘qituvchisi, kafedra mudiri*

Hozirgi kunda Hindiston tilshunosligida ham ibora, maqol, matal va idiomalarni tarjima qilinishga doir aniq bir tizim mavjud emasligi mazkur mavzuda tadqiqot olib borishga turtki bo‘ldi. Hindistonda frazeologizmlar mavzusida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Hind tadqiqotchilaridan Bolanatx Tivari, Pratibxa Agarval, Omprakash Gupta, Ramchandra Varmalar nomlarini zikr etib o‘tish o‘rinli. Hindiy tili frazeologiyasining o‘rganilganlik darajasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Ramdaxin Mishra *हिंदी मुहावरे*” (1924), Baxadur Chand *लोकतियाँ और मुहावरे* (1932), Jambunatxan *हिंदी मुहावरकोश* (1935), Ar.Ji Shiraxindi *हिंदी मुहावरकोश* (1936), Brahmasvarup Dindar Sharma *हिंदी मुहावरे* (1938), Ambikaprasad Vajpay *हिंदुसतानी मुहावरे* (1940), Balmukand Arsh Malsiyani *मुहावरे और कहावतें* (1957), Pratibxa Agarval *हिंदी मुहावरे* (1969), Bolanatx Tivari *हिंदी मुहावरकोश* (1984)” [1,12-13], kabilarning asarlari juda muhim manba hisoblanadi. Frazeologizmlar tarjimasiga doir ma’lumotlar bir qancha ikki tillik lug‘atlarda ham o‘z aksini topgan.

O‘zbek tilshunosligi frazeologizm deganda faqatgina iboralarni nazarda tutsa, o‘zbek tarjimashunosligi frazeologizmlar tarjimasini tadqiqi [2, 89] ibora bilan bir qatorda maqol, matal va ideomalarni

ham qamrab oladi. Sababi tarjimashunoslikda ibora barobarida maqol, matal va ideomalarni tarjimasi hamda ekspressivlik darajasini yetkazib berish birdek murakkab hisoblanadi. Shu qatorda, yuqoridagilarni tarjima qilish usullari ham birdir.

“Frazeologik birikmalarni oddiy so‘z birikmalaridan ajratishning to‘rt asosiy belgisi:

- frazeologik birikmalarning ma’lum bir model asosida yasalmasligi;
- ko‘chma ma’noda ishlatilishi;
- turg‘unligi;

ikki yoki ko‘p mustaqil so‘zlardan yasalishi”[3,62].

Iboralar tarjimasining eng maqbul usuli ekvivalentini topib tarjima qilish hisoblanadi.

क्रोध तो तुम्हारी नाक पर रहता है। [4,24] Ushbu jumlaning *tarjimasi:* Jahling doim burning uchida turadi [5, 50].

Hindiy tilidagi क्रोध नाक पर रहना o‘zbek tilidagi “jahl burun uchida turmoq” iborasini ekvivalenti hisoblanadi. Ikki tilda ham “jahlning tezligi”ni ifodalovchi bir xil ibora borligi xalqlar turmush sharoitlari, urf-odatlari va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik, bog‘liqlik mavjudligini belgilaydi. Ha ikki tilda ham “jahl” bilan bog‘liq turli vaziyat va holatlarni ifoda etuvchi iboralar mavjudki, ular variant yohud sinonimlik xususiyatini o‘zida aks ettiradi.

Bu o‘rinda bir qancha iborlarni kuzatish mumkin, masalan: अपने जामे से बाहर होना – o‘zidan chiqib ketmoq, तलवों से लगना सिर में बुझना –burnidan tutun chiqmoq, दांत तले औंठ दबाना – tishini ko‘rsatmoq, दीदे निकालना – jahli chiqmoq, भभक उठना – yonib ketmoq, भभूका बनना– qizarib ketmoq, भभूके उठना– g‘azabi qaynamoq, भरा बैठना – g‘azabi qaynamoq, भवें तानना – ko‘zi kosasidan chiqmoq, बाल बिगड़ना – tepa sochi tikka bo‘lmoq, बौखला जाना– tutab ketmoq, भभूके उठना – qizarib ketmoq, चेहरा भभूका होना, चेहरा लाल होना, चेहरा तमतमा उठना " –yuzi qizarib ketmoq”, “bo‘zarmoq”. Yuqorida berilgan “jahl”ni ifodalovchi hindiy tilidagi iboralar o‘zaro sinonim hisoblanadi lekin bularni orasida भभूके उठना,

चेहरा भभूका होना, चेहरा लाल होना, चेहरा तमतमा उठना [6] iboralari o‘zaro variant sifatida qo‘llanilishi “lovullab ketmoq”, “yuzi qizarib ketmoq” ma’nolarini anglatadi.

तीसरे दिन प्रतपचंद्र की पुस्तक, कपड़े और अन्य सामग्रियाँ आ पहुँचीं, यह घाव पर नमक का छिड़काव था। [4,93] jumlasining *tarjimasi:* Uchinchi kuni Pratapchandrning kitoblari, kiyim-kechaklari va boshqa lash-lushlari ham yetib keldi, bu o‘lganining ustiga tepgan bilan baravar edi [7, 21]. O‘zbek tilida घाव पर नमक का छिड़काव iborasining “yaraga tuz sepmoq” ekvivalenti mavjud biroq, tarjimon qahramonning ruhiy holatini hisobga olgan va ushbu jumla tarjimasida “o‘lganining ustiga tepgan” muqobil ibora qo‘llagan. Hindiy tilida नमक छिड़काना [8, 210] -“tuz sepmoq”, घाव पर नमक का छिड़काव, ज़खम पर नमक छिड़कना, -“yaraga tuz sepmoq”, ज़खम में नमक भरना- “yarani tuzga to‘ldirmoq” iborasining variant sifatida qo‘llash mumkin. Shuningdek, ushbu ma’noni ifoda etuvchi कटे पर नोन-मिर्च लगाना – “yaraga qalampir surtmoq” iborasi ham mavjud bo‘lib sinonim sifatida qo‘llash mumkin.

राह देखते-देखते आँखें पथरा गयीं।[4,65] *Tarjimasi:* Yo‘lingizga qarayverib ko‘zlarim teshildi-ku [5, 85]. आँखें पथराना [8,25] iborasi “ko‘zning qotib qolishi”ni anglatadi, aslida पथराना so‘zi “toshdek qotib qolish” ma’nosini beradi. Hindiy tilida “kutish”ni anglatadigan yana bir आँखें तरस जाना -“kozlar jovdiramoq” iborasi mavjud. Asliyatdagi ta’sirchanlikni saqlab qolish maqsadida tarjimon ekvivalent qilib “ko‘zlarim teshildi-ku” iborasini qo‘llagan. O‘zbek tilida “ko‘zlari to‘rt bo‘lmoq” muqobil iborasi ham mavjud bo‘lib, unga variant sifatida “ikki ko‘zi to‘rt bo‘lmoq”ni qo‘llash mumkin. Hindiy tilidagi आँखें पथराना , आँखें तरस जाना, आँखें पथरा गयी – “ko‘zi qotib qolmoq” iborasi o‘zaro variant sifatida qo‘llaniladi.

Asliyatda qo‘llanilgan frazeologik birlikka ekvivalent frazeologizm topilmagan taqdirda, ko‘p hollarda muqobili yordamida tarjima qilinadi. Ma’no va uslubiy vazifa jihatlaridan mos ikki til frazeologik birliklari qator hollarda o‘zaro farq qiladilar va bunday

frazeologik birliklar o‘zaro muqobillik munosabatida bo‘ladi. Moddiy jihatdan farq qiladigan bunday muqobil variantlarning paydo bo‘lishi har bir xalq vakilining muayyan fikrni obrazli yoki hissiy-ta’sirchan tarzda ifoda etishda o‘z turmush tushunchalari, urf-odatlari, milliy-falsafiy qarashlari va o‘ziga xos ruhiyatidan kelib chiqishi bilan izohlanadi.

Muqobil variantlar tarjimada bir-birlarini bemalol almashtiraveradi. Chunki mazkur birliklar tarkiblarida ularning o‘zaro almashinuvlariga xalal beradigan milliy xususiyatli so‘zlar uchramaydi. Ammo tarjimonlar goho o‘z tillarida mavjud imkoniyatdan unumli foydalana olmasdan, ifodaning noadekvat talqiniga yo‘l qo‘yadilar.

इतना सुन्ना था कि कमला की नानी मर गयी [4,64] *Tarjimasi:* Buni eshitib, Kamlacharanning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi [5,84].

Asliyatda berilgan नानी मर गयी iborasini so‘zma so‘z “buvisi o‘lib qoldi” tarzida tarjima qilinsa ma’no anglashilmaydi. “Juda ko‘p frazeologizmlar borki, ular hijjalab tarjima qilinsa, bema’ni so‘z uyumlari hosil bo‘ladi, holos” [9, 262]. Aslida yuqorida keltirilgan नानी मर गयी - “tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq” iborasi barobarida “xafsala pir bulmoq” muqobilini ham qo‘llash mumkin edi.

Hindiy tilida नानी मर गयी *(*buvisi o‘lib qoldi*)* iborasinga variant sifatida नानी याद आ जाना (buvisini sog‘inmoq) iborasini ham qo‘llash mumkin. Ushbu ma’noni ifodalovchi हिम्मत हारना, हाथ धोना ,हाथ दो बैठना, हाथ धो लेना kabi iboralar ham mavjud bo‘lib havsala pir bo‘lishini ifodalaydi. हाथ धोना (qo‘l yuvmoq), हाथ दो बैठना (qo‘lini yuvib o‘tirmoq), हाथ धो लेना (qo‘lini yuvib olmoq) iboralari o‘zaro variantlilikni tashkil etib, o‘zbek tiliga “qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urmoq” shaklida tarjima qilish mumkin.

हाथों से तोते उड़ गये [4,63]. *Tarjimasi:* Kapalagi uchib ketdi.[5,78] Ushbu misoldagi हाथ के तोते उड़ जाना so‘zma-so‘z tarjimasi “qo‘lidan to‘tilari uchib ketmoq” bo‘lib, o‘zbek tilidagi muqobili bilan tarjima qilingan. Faqatgina hindiy tilida assotsiatsiya “to‘ti”, o‘zbek tilida esa “kapalak”. “Bir-biriga ma’no va uslubiy jihatlaridan mos qator

frazeologik ekvivalentlar leksik tarkib jihatdan bir, goho ikki komponentga farq qiladi. Bu, asosan, turli xalqlar vakillarining hayot voqea-hodisalariga o‘ziga xos tarzda yondashishlari, o‘z tasavvurlari doirasida fikr yuritishlari bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pgina narsa va hodisalar ular lafzida turlicha mazmun va ramziy ma’no kasb etadi” [10, 190].

Hindiy tilida ushbu iboraga sinonim sifatida होश उड़ जाना ,होश उड़ना, हड़बड़ाना, हिरन की तरह चौकड़ी भूलना, उछाला देना, [8] qo‘llanilishi mumkin,

Ona tili bilan qurollangan tarjimon, odatda, lug‘aviy ekvivalentlikdan ko‘ra uyg‘unlikka ko‘proq e’tibor bergani holda, badiiy matning estetik xususiyatini qayta yaratadi.

Asliyatda mantiqiy-erkin ma’nodagi so‘zlar yordamida bayon etilgan fikr tarjima tilida har xil lug‘aviy ma’noga ega til vositalari – asliyatdagi vositaga moddiy jihatdan yaqin hamda undan leksik tarkibi farq qiladigan til birliklari yordamida ifoda etiladi.

Tarjima jarayonida iboralarning sinonimi yohud variantini qo‘llanilishi ko‘p uchraydi. Kontekstual ma’noga tayangan tarjimon, mazmunga ko‘ra asliyatdagi ma’noni to‘liq ifodalaydigan ibora variantini qo‘llaydi

Tarjimashunoslikda iboralar tarjimasi uch usulga asoslanadi, iboralarning ekvivalent va muqobillarini topib tarjima qilish sermahsul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] – Sharqshunoslar anjumani. Ilmiy to‘plam – Toshkent: ToshDShI, 2011.

[2] – Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari – Toshkent: ToshDShI, 2014.

[3] – Badiiy tarjimaning aktual masalalari – Toshkent: Fan, 1977.

[4] – प्रेमचंद, वरदान, रजत प्रकाशन, दिल्ली गेट, मेरठ

[5] – Premchand. Sevgi in’omi //Jahon adabiyoti, 2009, 2-son.

Xodjayeva N. Hindiycha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-hindiycha iboralar lug‘ati (हिन्दी उज़्बेकी, उज़्बेकी-हिन्दी मुहावराकोश) – Toshkent, 2015.

[7] – Premchand. Sevgi in’omi //Jahon adabiyoti, 2009, 3-son.

[8] – बालमुकन्द अर्श मलसियानी, मुहावरे और कहावतें, दिल्ली १९५७ /

[9] – Salomov G‘. Til va tarjima – Toshkent: Fan, 1966.

[10] – Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari – Toshkent: Fan, 2005.

TARJIMA VA NASHR MAS’ULIYATI

Ibodulla ILYASOV, *SDChTI dotsenti*

Birinchi Prezidentimiz I. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ta’kidlab o‘tganidek, “Keyingi yillarda milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalarini chet tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. Lekin, afsuski, bu masalada biz hali-beri ko‘zga ko‘rinadigan amaliy natijalarga erisha olganimiz yo‘q. Ilgari o‘zbek adabiyotining namunalarini boshqa tillarga tarjima qilish asosan uchinchi til, ya’ni rus tili orqali amalga oshirilar edi. Bu borada qilingan katta ishlarni munosib baholagan holda, endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan g‘arb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san’atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari bizda mavjud. Uzoq yillar davomida o‘zbek adabiyotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ona tilimizdan tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan iste’dodli o‘g‘il-qizlarimizni mana shu mashaqqatli, ayni paytda olijanob ishga jalb etish, bu masalaning yechimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tashkiliy-amaliy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo‘lur edi”.

Darhaqiqat, marhum yurtboshimiz bu o‘rinda ijodkorlar oldida qanchalar mas’uliyatli vazifa turganligini yana bir karra ta’kidlash bilan birga, tarjima va adabiyot sohasida xalqaro aloqalarni kuchaytirishga ham urg‘u berganlar. Respublikamizda barcha fanlar qatori tarjima san’atiga bo‘lgan qiziqish ham kundan-kunga oshib bormoqda. Xorijiy tillarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘girish asta-sekin rivojlanish bosqichiga o‘tmoqda. Bu o‘rinda nemis-o‘zbek va o‘zbek-nemis adabiy aloqalari ildizi uzoq davrlarga borib taqalsa-da, bu yo‘nalishdagi keskin miqdor va sifat o‘zgarishlari asosan mustaqillik davrida sodir bo‘lmoqda. Ayniqsa, o‘zbek va nemis tillariga har ikki xalq adabiyoti namunalarini bevosita tarjima qilish rivojlanib bormoqda. Ayniqsa bu borada katta ilk jur’atli qadam bo‘lgan Adisher Navoiyning g‘azallarini nemis tiliga bevosita tarjima qilib 2021 yilda O‘zbekiston va Germaniyada chop

ettirgan Xurram Raximovning Meine Schwarzäugige tarjimasi tahsin va ibratga loyiq dadil qadam bo‘ldi.

Tarjima qilish, tarjimon shaxsini shakllantirishning asosiy omili chet tillarni mukammal o‘rgatish va o‘rganish bilan bog‘liq. Tarjima asriga aylanib borayotgan hozirgi davrda chet tillardan o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilinayotgan asarlar soni kun sayin ko‘payib bormoqda, sifati oshmoqda. Quvonarlisi shuki, o‘zbek tilidan chet tillarga tarjima qilish sohasida ham ibratli tarjimalar paydo bo‘layapti. Natijada milliy adabiyotimizni chet ellarga targ‘ib qilishdek savob ishga qo‘l uruvchilar safi kengaymoqda. Jumladan, xalq ertaklarini o‘z ona tilidan nemis tiliga bevosita tarjima qilish borasida ilk bor 1990 yilda Xurram Raximov “O‘qituvchi” nashriyotida o‘zbek xalq ertaklarining nemischa tarjimasi to‘plami chop ettirdi. Xorazmlik Otaboy Jumaniyozov esa Nasriddin Afandi latifalarini Germaniyada nemis tiliga o‘girib, nashr ettirdi. 2001-2004 yillarda Germaniya nashriyotlarida Xurram Raximovning “Märchen aus Samarkand” kitobi uch karra kengaytirilgan holda, o‘zbek naashriyotlarida esa Usbekische Zaubermärchen (2018), Zaubermärchen aus Südusbekistan (2016) tarjima to‘plamlari chop etildi. Oybek Ostanovning “Akademnashr” nashriyotida chop etilgan tarjimalari, ayniqsa akademik shoirimiz G‘afur G‘ulomning “Shum bola”si, ulug‘ adib Abdulla Qahhorning qator hikoyalari, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” kabi asarlar tarjimalari nemis kitobxonlarida katta qiziqish uyg‘otdi. Shuningdek, 2013 yilda “Adib” nashriyotida “O‘zbek xalq ertaklari” kitobi nemischa tarjimada chop etildi. Quvonarlisi shuki, tarjimani akademik litsey o‘quvchisi Zohirjon Akramxonov bajaribdi. Kitobga ushbu litseyda faoliyat yuritgan germaniyalik nemis tili o‘qituvchisi chiroyli so‘zboshi yozgan. Bular hammasi albatta tarjima sohasidagi yaxshi tajribalar. Biz Narimonbek Elchibekov tomonidan nemis va ingliz tillariga tarjima qilinib 2014 yilda “Cho‘lpon” nashriyotida Usbekische Volksmärchen nomida chop etilgan kitobni ham dastlab xursandchilik bilan qo‘lga olgan bo‘lsak, o‘qib chiqqach kayfiyatimiz buzila boshladi. Kitobga asliyat tilini biladigan va asosan nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjimalar qilgan Hafiza Qo‘chqorova taqriz yozgan.

Shu paytgacha biz o‘zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilingan 300 ga yaqin ertaklar tarjimasi bilan yaxshi tanishmiz. Ularning aksariyatini yo nemislar o‘z ona tiliga o‘girgan, yoki rus tarjimonlari ruscha tarjima variantlaridan nemischaga ag‘dargan. O‘zbek xalq ertaklarini o‘z ona

tilidan nemis tiliga bevosita tarjima qilgan birinchi tarjimon esa Xurram Raximovdir. Shu jihatdan bu tarjima qanday chiqqan ekan, degan tabiiy qiziqish bilan uni o‘qiy boshladik.

Kitobni qo‘lga olsangiz, sifatli muqova va qog‘oz, unga ishlangan rasmlar va milliy koloritni o‘zida aks ettiruvchi bezaklar ko‘zni quvontiradi. Biroq mutolaa jarayonida ko‘zga tashlangan dastlabki xatolardan ko‘z yumgan holda navbatdagi ertak - “Muqbil toshotar” ertagi tarjimasini o‘qishga tutindik va birdan “Bu ertakni 1990 yilda Xurram Raximov tarjima qilgan edi-ku” deb o‘ylab, o‘sha tarjimani topib qiyoslay boshladik. Kitobning ichiga kirgan sari ijobiy qiziqish o‘rnini salbiy hayajon egallay boshladi. Ertaklarning nemischa tarjimasini ularni asliyat matni bilan qiyoslab o‘qib, hayratdan yoqa ushlay boshladim. Tarjima tili nihoyatda g‘aliz; biror bir gap va jumla, biror bir sahifa yo‘qki, unda g‘ij-g‘ij xatolar bo‘lmasa: bular grammatik, leksik, fonetik, imloviy va punktuatsion xatolar; uslubiy va mantiqiy g‘alizliklar har sahifada uchraydi, tarixiy haqiqatning buzilishi holatlari ham mavjud (asliyat matnidagi “...o‘tgan zamonda Buxoro shahrida bir zolim podsho bor ekan” gapini nemischa matnda “In den vergangenen Zeiten lebte in Buchara ein grausamer König“(26-b), ya’ni “O‘tgan zamonlarda Buxoroda bir zolim qirol yashagan ekan” deb o‘girilgan. Buxoroda Somoniylar davrida podshohlar, mang‘itlar davrida esa amirlar hukmronlik qilgan emas-mi?! Podshih qirolga aylanti rilgan. Qirollar esa Yevropaga xos tushuncha emasmi ?!) Tarjimonning matnga bunday yondashuvi chet ellik o‘quvchilarni chalg‘itishi turgan gap. Shuningdek, tarjimonning nemis tili imlosi, grammatikasi, leksikologiyasi va stilistikasidan xabari yo‘qligi, aniq va noaniq artiklning qo‘llanishi, otlar va sifatlarning turlanishi, fe’l zamonlarining nisbiy qo‘llanishi, passiv darajaning yasalishi va ishlatilishi, so‘zlar sinonimiyasi, kontekstga qarab to‘g‘ri so‘z tanlash, so‘z yasalishi qoidalari va o‘zbek realiyalarining nemischa berilishi kabi oddiy masalalardan umuman bexabar ekanligi bizni hayron qoldirdi. Fikrimiz tasdig‘i uchun minga yaqin lisoniy xatolardan ayrimlarinigina “Qilich botir”. “Muqbil toshotar”, “Ur to‘qmoq” va boshqa ertaklar tarjimasida uchraganlari misolida ko‘rsatmoqchimiz::

1. Leksik xatolar: Kitob annotatsiyasida nemischalab “bu to‘plam o‘rta maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan” degan jumlada “o‘rta maktab” ni Mittelschule deyish o‘rniga Grundschule deyilgan; heiraten o‘rniga in den Ehestand treten ishlatьilgan.; xo‘p so‘zini Okay tarzida,

lahm tushunchasini Tunnel deb, sovchini Brautwerber o‘rniga Ehestifter deb, ustoni Meister o‘rniga Master, xunarni Kunst o‘rniga Handwerk, qo‘shinni Heer o‘rniga Armee, arzimoqni wert o‘rniga wertvoll, otajonni lieber Vater o‘rniga Vati, Mutter o‘rniga Mama, so‘zida turmoqni sein Wort halten o‘rniga sein Wort behalten deb, ota vasiyatini Vaters Vermächtnis o‘rniga Vaters Testament deb noto‘g‘ri o‘girgan. Bu kabi leksik xatolar sanoqsiz. Ular tarjimonning so‘z boyligi qashshoqligidan darak beradi.

2. Grammatik xatolar: grosse Interesse(grosses); der Schwert(das); Er ging immer weiter, als er …gesehen hatte (bis bo‘lishi kerak); Sie sah sich um, um sicherzustellen, dass alles ruhig war, und kam zum Zelt zurück(ob bo‘lishi kerak); niqobi bilan iborasini Mit einer Maske o‘rniga mit der Maske kabi ishlatilgan. Quyidagi kabi g‘aliz sintaktik qurilmalar nihoyatda ko‘p: Ich sehe, dass Du um Mitleid gebracht warden; Du bist wertesten, um die Stadt zu beherrschen; So wurde er sofort aufgestiegen; …fragte dem Mädchen; in diesem Moment flog sie nach seinen Nest; sprach zu den Kinder(190); dann begann einen strengen Winter(186); Nach Hause kehrte der Alte zurück(192); va b.

3. Uslubiy xatolar: “ sie war ausserordentlich sehr schön“(26 b); “Halt an, Knüppel“ o‘rniga „Halt ein, Knüppel“; “Erst dann wurde der Alte zu verstehen“(186 b); „Weckt mich, Kinder, in einer Stunde oder so, Und weinte nicht(196); „Aufs Schloss zurückgekehrt hatte, war sie bezaubert und wollte sie nicht aus dem Schloss hinaustreten“(196); „Die Pferdehirten, die er traf erraten, was das Problem war und riet…“(192); „Ich komme, um Sie auf der Suche nach Hilfe“(188); „Als der Tiger zwei Schritte von der armen Prinzessin entfern war, unerwartet, ein Hirt, der von Ferne sie geshen hatte, mit einem Steinund zerschmetterte dessen Kopf“(30); „Das Bergvolk beschloss, für Mukbyl um die Prinzessin zu wereben alles gäbe zur braut Werbung brachten sie viele Schafeund Pferde mit(30)“ va boshqa g‘alizliklar tarjimonda uslub va til tuyg‘usi umuman yo‘qligiga ishora qiladi.

4. Plagiat holatlari. Narimon Elchibekov tarjimasida 2014 yilda “Cho‘lpon” nashriyotida chop etilgan „Usbekische Volksmärchen“ kitobning ikkinchi ertagi “Muqbil toshotar”tarjimasini(26-47 betlar) Xurram .Raximovning 1990 yilda “O‘qituvchi” nashriyotida nashr etilgan tarjimasi bilan, “Ur to‘qmoq” ertagi tarjimasini Vera Novakning 1984 yilgi tarjimasi bilan solishtirib ishonch bilan aytish mumkinki. bu tarjimada plagiat, ya’ni o‘zgalarning intellektual mulkini o‘g‘irlash

hodisasi sodir bo‘lgan. X.Raximov tarjimasi 8 betdan iborat. Shundan 6 beti to‘la va yoppasiga, ya’ni 230 qator matn to‘laligicha, qolgan holatlarda esa qisman ko‘chirilgan. Tarjimaning boshini N.Elchibekov mustaqil bajargan. Hatto dastlabki “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan” degan o‘zbekcha an’anaviy ertak boshlamasini u X.Raximovga nisbatan muqobilroq qilib, “Es war einmal, es war keinmal” tarzida o‘girgan. Biroq keyingi sahifadan boshlangan (26-40 betlar) ko‘chirish jarayonida tarjimon plagiatni niqoblovchi turli usullardan foydalangan, jumladan: 1. So‘zlar- ning sinonimlari yoki ularning kontekstual muqobillaridan, mas. Emir, Bursche so‘zlari o‘rniga König, junger Mann, Kessel o‘rniga Kochtopf, Zauberkessel o‘rniga Zauberkochtopf, Ross o‘rniga Pferd, Pferdewärter o‘rniga Pferdehirt, auf den Thron steigen o‘rniga sich auf den Thron setzen, Eintracht o‘rniga Wohlstand, umbringen o‘rniga töten, Meister o‘rniga Master, Schleier o‘rniga Maske, tun o‘rniga machen, Vor Schmach und Schreck o‘rniga vor Schmach und Schande kabilar. 2. So‘z yasalishida so‘z yasovchi elementlarning qoidaga zid tarzda qo‘shib qo‘yilishi yoki olib tashlanishi, mas. X.Raximov tarjimasida ertak qahramoni nomida o‘zbekcha toshotar so‘zi nemischaga Steinwerfer deb o‘girilgan. N.Elchibekov esa bu juft so‘zni yasashda ikki nemis so‘zlari – Stein va Werfer so‘zlari o‘rtasiga ye bog‘lovchisini so‘z yasalish qoidasiga zid ravishda qo‘shgan va natijada Steinewerfer so‘zi paydo bo‘lgan. Barcha nemis tili izohli lug‘atlarida Stein so‘zi bilan berilgan – hamma so‘zlarda (Steinwurf, Steinbruch, Steinschleuder, Steinzeit) bu bog‘dlovchi vosita yo‘q. Laylaklar boshlig‘ini X.R. Storchenkönig deb to‘g‘ri o‘girgan, N.E. esa Königsstorch, ya’ni qirol laylagi tarzida noto‘g‘ri tarjima qilgan va almashtirgan. 3. Grammatik birliklar? va abzatslar o‘zgartirilgan, mas. X.R.da “Habe ich vielleicht Angst vor dir?”, N.E.da „Habe ich vielleicht vor dir Angst?“, ya’ni so‘z tartibi noto‘g‘ri o‘zgartirilgan.

Mazkur tarjimani boshidan oxirigacha diqqat bilan o‘qib chiqqach, bizda ayrim savollar paydo bo‘ldiki, ularga tarjimon, uning taqrizchisi va noshiri qanday javob berarkan?

Birinchidan, kitob jami 200 betdan iborat, shuning yarmi nemischa tarjima bo‘lib, uning matnida 1000(ming)ga yaqin turli xato va kamchiliklar qayd qilindi. Ajablanarlisi – ertaklarning inglizcha tarjimasining muallifi ham N.Elchibekov. Asosiy mutaxassisligi nemis tilidagi tarjimalari sifati shunday bo‘lsa, inglizchasi qanday ekan?

Ikkinchidan, tarjima kitobining taqdiri nima bo‘lishi bizni o‘ylantirmoqda. Uning narxi (45000 so‘m) ham oddiy o‘quvchi va talabaning hamyoniga monand emas. Chet elliklarga sotilsa, ularda 21 asr o‘zbegining saviyasi haqida o‘ta noxush tasavvur uyg‘onishi turgan gap. Demak bu tarjima kitobni sotish mumkin emas. Demak u makulaturaga topshirilar ekanda...500 adadli kitobga davlat dotatsiyasidan ketgan nashr va bosmaxona xarajatlari javobgarligi kimning zimmasida bo‘ladi? Nega nashriyot tajribasiz mutaxassisga uning imkoniyatlarini bilmasdan, oldingi tarjimalarini ko‘rmasdan bunday mas’uliyatli ishni beradi?

Uchinchidan, sodir bo‘lgan plagiatni va tarjimaning ayanchli ahvoliga tarjimon, uning taqrizchisi va nashriyot jamoasi qanday izohlaydi va bunga qanday baho beriladi, qanday chora ko‘riladi?

To‘rtinchidan, Nahotki tarjimon OAV va Germaniya matbuotida plagiat tufayli katta lavozim va obro‘laridan mosuvo bo‘lgan GFR mudofaa vaziri Karl Guttenberg va Gyote instituti sobiq rahbari Shavan xonim haqidagi xabarlardan bexabar bo‘lsa? Yoki xabari bo‘lsa ham, O‘zbekistonda ijodiy va intellektual mulk o‘g‘irligini hech kim tushunmaydi va topolmaydi deb o‘ylarmikan?

Beshinchidan, har qanday yozma nashr taqriz va tavsiya asosida paydo bo‘lishi tabiiy, chunki nashriyotlar shu taqrizlarga asosan xulosa chiqaradailar. Afsuski, bizda taqrizlar allaqachon o‘z vazni va ahamiyatini yo‘qotib bormoqda. Amaliyotda qo‘llanayotgan “balvanka”-taqrizlarni taqrizlanayotgan nashr oqlasa mayli edi-ya... Mazkur tarjimaga maxsus taqrizchi O‘zMU nemis filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi H.Qo‘chqorova ekan. Biz u kishini nemischadan o‘zbekchaga tarjima bo‘yicha yaxshi tajriba orttirayotgan tarjimon sifatida bilardik. O‘zi o‘zbekchadan nemischaga xech qanday asarni o‘girmagan bu hamkasbimiz qanday qilib mazkur o‘zbekcha-nemischa tarjimaga taqriz yozib, uni nashrga tavsiya qilib va hatto gazetalarda maqtashlari mumkinligi bizni ajablantiradi. Yoki tarjimadagi jiddiy kamchiliklarni bu kishi anglay olmaganmikin? Bundanda qizig‘i, tarjimaning Katarina Fray deb atalmish nemiszabon taqrizchisi borligida. G‘ij-g‘ij nemischa xatolar bilan to‘la matnga nemiszabon hech qanday shaxs, ayniqsa badiiy matnni tahrir qiluvchi korrektor yoki redaktor bunday matnni nashrga tavsiya qilishi mumkin emas. Qolaversa, uning asliyat tilini bilish-bilmasligi, buni tasdiqlovchi hujjati bor-yo‘qligi bizga noma’lum. Ayni bir paytda nemis va o‘zbek tillarini

baravar darajada biluvchi, o‘zlari shu tillardan tarjimalar qilgan, tarjimashunoslik bilan nazariy va amaliy jixatdan shug‘ullanuvchi , har qanday tarjimaga xolisona baho beruvchi nemis olimlari Ingeborg Baldauf, Jakob Taube, Siegrid Kleinmichel, Karl Reichl, tarjimachilik bilan shug‘ullanib kelayotgan vatandoshlarimiz Shavkat Karimov, Yanglish Egamova, Roviyajon Abdullaeva, Salim Jabborov, Poshali Usmon, Ravshan Sultonov, Shohista Sultonova, Zohidjon Sodiqov, O‘ktamali Nurmatov, Zohidjon Tursunov, Zohidjon Jumaniyozov, Xurram Raximov kabi o‘zbek tarjimashunos va tarjimon hamkasblarimiz juda ko‘p. Bunday tarjimaga ko‘zi tushgan bu mutaxassislar nima derkanlar? Oltinchidan, mazkur tarjimani o‘z gazetasi va saytlari sahifalarida targ‘ib va tashviq qilib, hatto maqtab maqola bildirgan jurnalistlar nemis tilini biladilarmi va ular tarjimaning sifatiga xolis baho bera oladilarmi?

Yettinchidan, barcha sohalar kabi ijodiy va ilmiy sohalarda ham ma’naviyatga e’tibor ortib bormoqda. Tarjimonlar ham ma’naviyat va madaniyat elchilari bo‘lganliklari tufayli N.Elchibekov kabi ayrim tarjimonlarning ma’naviyatini qanday baholasa bo‘larkin?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. I. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent.
2. Raximov X. Alisher Navoiy. Qaro ko‘zum. Alissher Navoiy. Meine Schwarzäugige. Adabiyot, 2021.
3. Rachimov Ch. Usbekische Volksmärchen. T.: O‘qituvchi, 1990.
4. Usbekische Volksmärchen. Übersetyung von V.Novak. Moskau: Progress,1984.
5. Elchibekov N. Usbekische Volksmärchen. “Cho‘lpon”, 2014.

BADIIY TARJIMA AMALIYOTIDA QAYTA TARJIMA TALABLARI

*PhD. **Feruza SAPAYEVA**, NukusDPI dotsenti*

Jahon so‘z san’ati durdonalarining bir necha tarjima nusxalari bo‘lishi tarjima amaliyotida ijobiy hodisa hisoblanadi. Bunday tarjimalar turli davrlarda emas, bir davrda ham amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun, taniqli Braziliya adibi Paulo Koelьening “Alkimyogar” asarini bir vaqtning o‘zida uch tarjimon – Ozod Sharafiddinov, Ahmad Otaboev, Aziz Saidlar tarjima qilishdi. Bu, bir

tomondan, jahon adabiyotida voqea bo‘lgan asarga davr talabi bo‘lsa, ikkinchidan, mohir adib “panjasiga panja urish”, o‘z qalami, iste’dod kuchini sinab ko‘rish edi. Maxtumquli she’rlari tarjimasi xususida ham shunday deyish mumkin. Chunki sho‘ro davrida shoir asarlari birgina J.Sharipov tomonidan tarjima qilinib, qayta-qayta chop etilgan bo‘lsa, mustaqillikdan keyin uning ijodiga bir necha tarjimonlar murojaat qildilar. Natijada bir davr ichida ko‘plab she’rlarning bir necha tarjima nusxalari paydo bo‘ldi.

Aslida “tarjima paydo bo‘lgan davrdan boshlab qayta tarjimaga ehtiyoj paydo bo‘lgan”. Mashhur asarlar davrlar osha qayta-qayta tarjima qilinib kelgan. Masalan, Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asari hozirga qadar besh marta turkiyga tarjima qilingan: XIV asr oxirida Sayfi Saroyi uni “Guliston bit-turkiy” nomi bilan o‘girgan bo‘lsa, XIX asrda Ogahiy, XX asr boshida Mullo Murodxo‘ja va Ahmad Jalil, keyinchalik G‘afur G‘ulom, Rustam Komilov va Shoislom Shomuhamedovlar o‘zbekchalashtirganlar.

“Tarjimashunoslikda shunday qoida mavjud: muayyan olingan asar yuzta tarjimon tomonidan tarjima qilinsa, yuz xil jaranglaydi! Har bir tarjima asarning yangi bir qirrasini ochadi, uning o‘zgacha talqinini vujudga keltiradi. Buyuk Gyotening o‘zi yozgan “Faust”dan ko‘ra uning frantsuzcha tarjimasini yoqtirgani bejiz emas. Bir asar bir necha tarjima nusxalarining mavjudligi mazkur asarni kashf etish yo‘lidagi urinishlar silsilasi bo‘libgina qolmay, u o‘quvchilar uchun ham qator imkoniyatlar yaratadi: o‘quvchi bu tarjimalar orasidan o‘ziga yoqqanini tanlab o‘qiydi. Bugina emas. O‘zaro qiyoslash asosida yaxshi va yomon tarjimalarni ajratish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlar xalqlari adabiyotida jahon so‘z san’ati durdonalarining bir necha tarjima nusxalari mavjud va bu narsaga tabiiy hol deb qaraladi. O‘zbek adabiyotida ham bu hodisaga bir necha misollar keltirish mumkin: Shekspir tragediyalarining bir necha tarjima nusxasi paydo bo‘lganligi, Pushkin qalamiga mansub “Evgeniy Onegin” she’riy romanining dastlab Oybek, so‘ng Mirzo Kenjabek tomonidan tarjima qilinishi, Bayron “Don Juan”ining bir paytda Abdulla Sher va Sulaymon Rahmon tomonidan o‘zbekchalashtirilishi va boshqalar shular jumlasidandir” (1).

Bizda bir qator asarlar qayta-qayta tarjima qilingan bo‘lsa-da, qayta tarjima masalasi o‘zbek tarjimashunosligida maxsus tadqiqot ob’ekti bo‘lgan emas. Ba’zi ishlarda bu borada yo‘l-yo‘lakay mulohaza bildirib

o‘tilgan, xolos. Jumladan, N.Vladimirova R.Hamzatov she’rlari tarjimasi atrofida boshlangan bahs sababli yozgan maqolasida mashhur avar shoiri she’rlarining bir necha tarjima nusxalari paydo bo‘lganligi munosabati bilan bu mavzuda ham fikr bildiradi (2). Lermontov she’rlarining o‘zbekcha tarjimalariga bag‘ishlangan risolasida S.Olimov va A.Matyoqubovlar ham qayta tarjima masalasining ayrim qirralariga to‘xtalib o‘tganlar (3). B.Ilyosov “Tarjima amaliyoti” o‘quv qo‘llanmasiga “Asliyatning turli tarjimalari tahlili” nomli alohida mavzu kiritib, A.S.Pushkin “Haykal” she’rining M.Shayxzoda, Mirtemir, R.Bobojonlar amalga oshirgan mavjud uch tarjimasidan tashqari ulug‘ rus shoiri tavalludining 150 yilligi munosabati bilan yana uch tarjima nusxasi paydo bo‘lganligi haqida xabar beradi va S.Rahmon, E.Samandar, M.Mirzaev tarjimalarini to‘la keltiradi. Shuningdek, A.Oripov “Tilla baliqcha” she’rining A.Naumov, S.Severtsev va A.Faynberglar tomonidan ruschaga o‘girilgan uch tarjimasi matnini ilova qiladi. Tarjimalar tahlilini esa talabalar e’tiboriga havola etadi (4). E.Ochilov ruboiy tarjimasi misolida bu masalani bir qadar o‘rgangan. Uning yozishicha, “qayta tarjimaga quyidagi omillar sabab bo‘ladi:

1. Yillar o‘tishi bilan har qanday tarjima lisoniy jihatdan eskiradi va yangi davr o‘quvchisi uni o‘qishga qiynaladi, tushunishi mushkullashadi...

2. Har qanday mutarjimning ham buyuk so‘z ustalari “panjasiga panja” urgisi, o‘z imkoniyati, iste’dod kuchini chamalab ko‘rgisi keladi va qayta tarjimaga qo‘l uradi...

3. Ilgari vositachi til orqali o‘girilgan asarlarni endilikda asliyatdan tarjima qilish keng quloch yozyapti...

4. Avvalgi tarjimalarning saviyasi pastligi, talabga javob bermasligi ham qayta tarjimalarni zarur qilib qo‘yadi” (5).

Maxtumquli she’rlarining J.Sharipov tomonidan amalga oshirilgan ilk tarjimasi hali lisoniy jihatdan eskirib ulgurmagan. Shuningdek, shoir asarlari vositachi til orqali emas, balki asliyatdan – turkmanchadan o‘girilgan. Demak, bu tarjimalarga keltirilgan tasnifning faqat ikkinchi va to‘rtinchisini tatbiq qilish mumkin: ya’ni ijodiy musobaqa, o‘z qalami kuchini sinab ko‘rish istagi hamda turkman so‘z san’atkori ijodiga mansub ko‘plab namunalar tarjimasining saviyasi pastligi va ancha-muncha xato-kamchiliklar bilan tarjima qilinganligi.

J.Sharipov tarjimalarining yutuq va kamchiliklari to‘g‘risida matbuotda chiqishlar qilingan, turli to‘plamlarda ayrim maqolalar e’lon qilingan bo‘lsa-da, ular maxsus tadqiqot ob’ekti bo‘lmagan. Ularda asosan tarjimonning soxta ekvivalentlar domiga tushib qolganligi, tillararo paronimlarni farqlamaganligi kabi yaqin tillardan tarjimaning eng asosiy muammosi bo‘lgan masalalarga e’tibor qaratilgan (6).

Albatta, mushtarak an’analar, yagona she’riy tizim asosida rivojlangani jihatidan o‘zbek va turkman she’riyatini bir-biriga o‘girishda qator qulayliklar mavjud: vazn bir – aruz yoki barmoq, baytu bandlar tuzilishi o‘xshash, qofiya, radif va badiiy san’atlarning ko‘pchiligi har ikkala she’riyatda ham mavjud. Binobarin, misra, baytu bandlar, ba’zida hatto butun-butun she’rlarni bir tildan ikkinchisiga aynan o‘tkazish imkoniyati bor ekan, nega bu tayyor imkoniyatdan foydalanmaslik kerak? Lekin hamisha ham so‘zlar, satrlar, qofiya va radiflar aynan tarjima tiliga o‘tavermaydi – goh sof turkmancha, goh arabcha-forscha so‘zlar, qofiyalar misrayu bandlarning qurilishini o‘zgartirishni taqozo qiladi. Haqiqiy mutarjimning mahorati ana shunda – asliyatga muvofiq so‘z va qofiyalar topa olishida ko‘rinadi. J.Sharipov esa, E.Ochilov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, xuddi shundan – yangi qofiyalar izlab topish, band qurilishini o‘zgartirishdan qochib, arxaik va turkmancha so‘zlarni o‘quvchiga tanish-notanish ekanligidan qat’i nazar, asosan, aynan qoldirib, matn osti havolasida ularga izoh berish yo‘lidan boradi.

Qaysi maqsad bilan bo‘lmasin, muayyan asarning yangi tarjimasiga qo‘l urilar ekan, uning avvalgi tarjimalardan nimasi bilandir ustunligini ta’minlashga harakat qilish kerak. Chunki o‘zidan oldingi tarjimaning biror nuqsoni, xatosini tuzatmasa, o‘zgacha talqinini vujudga keltirmasa, badiiy jihatdan bir pog‘ona baland ko‘tarmasa, yangi tarjimaga hojat yo‘q. Qayta tarjimaning eng asosiy sharti – shu. Maxtumquli tarjimonlari esa aksar hollarda badiiy jihatdan J.Sharipovdan o‘tib ham ketolmaganlar, u yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatishning ham uddasidan chiqmaganlar. Natijada ayni xato ikkinchi, uchinchi, hatto to‘rtinchi tarjimalarda ham aynan takrorlanib, yangi – beshinchi tarjimani kun tartibiga qo‘yayapti. Jumladan, keltirilgan she’r tarjimasiga yarim asr o‘tib qo‘l urgan M.Kenjabek ham, A.Jumaev va J.Zulpiev ham o‘zlarining yaqin salaflaridan bir qadam olg‘a keta olmaganlar, biror-bir ustunlikka erishmaganlar.

Maxtumquli she’rlarining yangi tarjimasiga birinchi bo‘lib Muzaffar Ahmad qo‘l urdi. U o‘zi tarjima qilgan shoir she’rlarini 1995 yili “Saylanma” nomi bilan e’lon qildi (67 ta she’r). O‘zi ta’kidlaganidek, u asosan yangi – ilgari tarjima qilinmagan diniy-tasavvufiy ruhdagi she’rlarini tanlab tarjima qilgan. Ulardan faqat 6 tasi qayta tarjima (“Turkmanning”, “Olama belgilidir”, “Ey do‘st”, “Karam istarman”, “Fosh etar seni”, “Bog‘lar, hey”) – avval J.Sharipov tomonidan tarjima qilingan. “Turkmanning” she’rini esa M.Ali ham o‘zbekchalashtirgan edi. Bu tarjimalarni o‘zaro qiyoslab ko‘rganda keyingi tarjimalarning oldingisidan afzal emasligi, aksincha xato-kamchiliklari ko‘pligi ma’lum bo‘ladi. Jumladan, “Fosh etar seni” – har ikki tarjimonning ham muvaffaqiyatli chiqqan tarjimalaridan hisoblanadi. Buning sababi she’rdagi deyarli barcha so‘zlar shundoqqina tarjima matniga ko‘chib o‘tganidir...

Tarjimon o‘zidan oldingi tarjimadan ta’sirlanmasligi, o‘rganmasligi mumkin emas. Bu jarayonda salaf tarjimonning ba’zi topilmalari xalaf tarjimon tarjimasiga ko‘chib o‘tadi. Bu badiiy tarjima amaliyotida ko‘p uchraydigan hodisa. Bundan atay qochishga urinish ham asl matnni soxtalashtirishga olib kelishi mumkin. Jumladan, Maxtumqulining mashhur “Ko‘ring” she’ri quyidagi misralari tarjimasida tarjimonlar J.Sharipovga ergashganlar:

Uzak yola gidip geler bolsaңyz,
Merdanalyk gylҗyn chalar bolsaңyz.

Ushbu misralarni aynan tarjima qilsangiz, quyidagicha bo‘ladi:

Uzoq yo‘lga ketib kelar bo‘lsangiz,
Mardonalik qilichin urar bo‘lsangiz.

J.Sharipov o‘zbek tili qoidalariga mos, ravon va ta’sirchan tarjima qilish maqsadida so‘zma-so‘z tarjimadan qochib, bu misralarni mana bunday jaranglatib tarjima qilgan edi:

Uzoq, yaqin yo‘lga borar bo‘lsangiz,
Mardlik qilichini solar bo‘lsangiz.

O‘zbek tilida mazkur misralarni bundan-da o‘tkazib tarjima qilish qiyin. Shuning uchun u A.Jumaev va J.Zulpiev tarjimasiga ham aynan ko‘chib o‘tgan:

Uzoq-yaqin yo‘lga borar bo‘lsangiz,
Mardlik qilichini solar bo‘lsangiz.

Yoki:

Bir nichəni kyldyң malы-bisyarы,

Bir nichəni kыldың bir puluң zarы,
Yagshы-yaman, barcha adamың barы
Nobat bile өtүp barыshыn gөruң!
J.Sharipov tarjimasi:
Bir nechani qilding moli bisyori,
Bir nechani qilding bir pulning zori,
Yaxshi-yomon, odam zotining bori –
Navbat bilan o‘tib borishin ko‘ring (10.190).

“Bisyor” forscha so‘zini o‘zbekchalashtirsa, butun boshli bandning qofiya tartibini qayta qurib chiqish kerakligi mashaqqatidan qochib, tarjimon bu so‘zni aynan qoldirib, matn ostida unga “ko‘p” deb izoh bergan edi. Mazkur she’rni qayta tarjima qilishga qo‘l urgan tarjimon esa bu zahmatni o‘z bo‘yniga olishi, avvalgi tarjimaning takrori bo‘lib qolmasligi uchun ham uni o‘zbekchalashtirib, bandning qofiya tizimini yangilashi lozim edi. Zotan, bu ham qayta tarjimaning talablaridan biri. “Aslida, bu o‘zi tabiiy hol: tarjimani ilk bor amalga oshirgan bir yaxshi shoir ayni she’rni keyinroq tarjima qilishga chog‘langan ikkinchi yaxshi shoirga qulaylik yaratadi, tarjimaning qaysi joylarini kuchaytirish, teranlashtirish va yaxshilash, qaysi joylarini ko‘proq jaranglatish yoxud mayinlashtirishga asos va turtki beradi” (2.74). A.Jumaev va J.Zulpievlar esa bu borada ham J.Sharipovga ergashib qo‘ya qoladilar:

Bir nechani aylab moli-bisyori,
Bir nechani qilib bir pulning zori,
Yaxshi-yomon odam zotining bari,
Navbat bilan o‘tib borishin ko‘ring!

Albatta, asliyatdagi so‘zlar tarjimaga deyarli o‘zgarishsiz ko‘chgan o‘rinlarda tarjimonlarni bir-biriga ergashganlik, bir-biridan ta’sirlanganlik, bir-biridan o‘zlashtirganlikda ayblab bo‘lmaydi. Lekin keltirilgan misollardagi kabi u yoki bu tarjimonga xos talqinlar, u topgan so‘z, ibora, misralar boshqa tarjimaga deyarli o‘zgarishsiz ko‘chib o‘tsa, o‘z-o‘zidan tarjimadagi vorisiylik haqida gapirish mumkin bo‘ladi.

“Vorisiylik – bir tarjimadan ikkinchisiga meros bo‘lib o‘tgan xususiyatlar. Unda an’analar ham meros bo‘lib o‘tadi-ku, degan savol tug‘iladi. Garchi tarjimada an’ana bilan vorisiylik o‘rtasida o‘xshashlik bo‘lsa-da, bizningcha, bu ikki tushuncha aynan bir narsa emas. An’ana – ancha keng, vorisiylik esa birmuncha muayyan hodisa. Keyin an’ana

bilvosita o‘tishi ham mumkin bo‘lgan xususiyat. Vorisiylik – bir tarjimadan ikkinchisiga bevosita o‘tadi. Demak, vorisiylik deganda, biz bir asarning muayyan tilga qilingan oldingi tarjimasidan keyingisiga bevosita meros tarzida o‘tgan jihatlarnigina ko‘zda tutamiz. Lekin buni adabiy o‘g‘rilikdan farqlash kerak. Aks holda tarjimada vorisiylikni adabiy o‘g‘rilikka, adabiy o‘g‘rilikni esa vorisiylikka yo‘yib yuborish hech gap emas. Binobarin, bir asarning dastlabki tarjimasida erishilgan yutuqlar, asliyat ruhini qayta tiklash uchun topilgan ayrim usullar keyingi, ta’bir joiz bo‘lsa, musobaqadosh tarjimon tarafidan ham istifoda etilishi mumkin. Chunki o‘sha narsaning shu tilda bundan ortiq muqobili bo‘lmasligi ham mumkin-da”(5.19-20).

Ma’lum bo‘ladiki, J.Sharipov tarjimalari o‘zbek madaniy-adabiy hayotida kuchli aks sado bergan. Yarim asrdan buyon o‘zbek o‘quvchilarining Maxtumquli she’rlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirib keldi va qondirishda davom etayapti. Bu tarjimalar xalqning ko‘nglidan chuqur joy oldi, shoiru adiblarga kuchli ta’sir ko‘rsatib, maxtumquliyona pand-nasihat ruhidagi she’rlarning ko‘payishiga turtki berdi, bastakorlarga ilhom berib, hofizlar repertuaridan mustahkam o‘rin egalladi. Tabiiyki, o‘zidan keyin atoqli turkman shoiri va mutafakkiri asarlari tarjimasiga qo‘l urgan barcha tarjimonlarga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatdi. J.Sharipov tarjimalaridan o‘rganmagan, undan ta’sirlanmagan, unga ergashmagan tarjimonning o‘zi yo‘q. Hatto uni tan olmagan, inkor etgan A.Jumaev va J.Zulpievlar ham bu ta’sirdan chetda emasliklarini ularning tarjimalaridagi vorisiylik namunalar yorqin ko‘rsatib turibdi.

Maxtumquli ijodidan amalga oshirilgan qayta tarjimalarning saviyasi har xil: ayrimlari o‘zidan avval amalga oshirilgan tarjimalarda sodir etilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etgan, turli sabablar bilan qisqartirib ketilgan o‘rinlarni to‘ldirgan bo‘lsa, ba’zilarida oldingi nuqsonu qusurlar aynan takrorlangani yetmaganday, yangilari qo‘shilib, saviya battar sayozlashgan, ko‘pchiligi esa badiiy jozibadan yiroq bo‘lib, yalpi olganda, J.Sharipov tarjimalaridan o‘tib ketolmagan. Eng yomoni, oldingi tarjimalardan biror-bir tomoni bilan ustun emasligi jihatidan ularning aksariyati jihatidan qayta tarjima talablariga javob bermaydi va shoir she’rlarining har xil nuqsonlardan xoli, shakl va mazmun jihatdan mukammal, badiiy barkamol tarjimalari yaratilishi kerak degan yakuniy xulosaga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ochilov E. Ruboiy sehri (So‘zboshi) // Muhabbat taronalari (Ruboiylar). – T.: Sharq, 2005. - B 20-21.
2. Vladimirova N. Illat qaerdan boshlanadi? // Tarjima san’ati (Maqolalar to‘plami). 6-k. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1985. - B. 74-75.
3. Olimov S., Matyoqubov A. Lermontovning o‘zbek tarjimonlari. – T.: Fan, 1989. - B. 21.
4. Ilyosov B.A. Praktika perevoda. – Termez: Jayxun, 1992. - S. 17-21.
5. Ochilov E.Z. Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi. Filol. fanlari nomzodi... diss. – T., 1994. - B 93-94.
6. Quramboev K. Maxtumquli she’riyati O‘zbekistonda. -B 52-61; Shu muallif. She’riy tarjimada milliylikni qayta yaratish va tarjimon mahorati // Tarjima va tarjimon mas’uliyati. – T.: Cho‘lpon, 2007.

O‘ZARO YAQIN TILLARDAN TARJIMANING DOLZARB MUAMMOLARIGA DOIR

*PhD. **Xayrulla HAMIDOV**, TDSHU dotsenti*

O‘zaro yaqin tillar orasida tarjimada asliyatga xos milliy-madaniy hamda badiiy xususiyatlarning adekvat talqini, asliyatni shakl va mazmun yaxlitligida qayta yaratish o‘ta muhim va dolzarb nazariy-amaliy muammolardan sanaladi. XX asr tarjimashunosligida bu masalalar doirasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, o‘zaro yaqin, qardosh tillar orasida tarjima sohasida o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzular hanuz yetarlidir. Milliylik va badiiylikni qayta yaratish, badiiy tarjimada lisoniy adekvatlikka erishish ana shunday mavzular sirasiga kiradi.

Tadqiqotlarda sanab o‘tilgan masalalar ayrim tillar materialida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, aynan o‘zbek tilidan turk tiliga romanlar tarjimasi nuqtai nazaridan yaxlit, kompleks tarzda o‘rganilgan emas. Shuni hisobga olib tayyorlangan mazkur maqolada mustaqillik yillarida o‘girilib, Turkiyada nashr etilgan o‘zbek adabiyotining bir necha yirik asari, jumladan atoqli o‘zbek adiblari A.Qodiriyning «O‘tkan kunlar»[13] (tarjimon – Ahsan Botur) va «Mehrobdan chayon»[14] (tarjimon – Aziz Merhan), Oybekning «Navoiy» [15] (tarjimonlar 1. Ahsan Botur; 2.

[13] Qodiriy A. O‘tkan kunlar. –Toshkent: Sharq, 2012. – 384 b.
Qodiriy A. Mehrobdan chayon (Xudoyorxon va munshiylari hayotidan tarixiy ro‘mon), 1933-yildagi ikkinchi nashr asosida tayyorlangan, Yangi asr avlodi. –Тошкент: 2012. – 316 b.
[15] Oybek. Navoiy. Tahrir hay'ati: Bobir Alimov va b. – Toshkent: “Sharq”, 2004. – 496 b

Shuayip Qoraqosh), O.Yoqubovning «Adolat manzili»[16] (tarjimon – Ahsan Botur), O‘.Hoshimovning «Dunyoning ishlari»[17] (tarjimon – Mohir Unli) asarlari xususida so‘z yuritiladi.

Dunyodagi hyech qaysi til alohida ajralgan holda taraqqiy etmagan. Kelib chiqish jihatdan bir oilaga mansub tillardan qilingan tarjimalarda bunday munosabatlar yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. O‘zbek va turk xalqlarining ko‘p jihatdan yaqinligi badiiy tarjima jarayonida ham yengillik tug‘diradi. Masalan, A.Qodiriy romanlarining deyarli har sahifasida hozirgi o‘zbek tilida faol qo‘llanilmayotgan, hatto bugungi o‘zbek kitobxoniga izohsiz tushunarli bo‘lmayotgan ayrim so‘z va terminlar uchraydiki, ular hozirgi turkchada faol ishlatilmoqda. Bular sirasiga sof turkiy yoki arab tilidan o‘zlashgan *siporish, tom, mushovir, mansha, tanmanno, azl, yag‘mo, yoziq, e'timod, xasm, baxshish, ofiyat, hadaf* kabi o‘nlab so‘zlar kiradi. Bunday vaziyat romanlarning turk tiliga tarjima ishini osonlashtiruvchi omil sifatida qaralishi kerak. Biroq, ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoitlari va ma'naviy qadriyatlardagi farqliliklar ayrim hollarda turkiy xalqlarning ayrim tasavvur, tushunchalarining adekvat qayta yaratilishida muammo keltirib chiqaradi. Ba'zida o‘zaro yaqin tillar orasida amalga oshirilgan tarjimalarda uzoq tillardan tarjimaga qaraganda ko‘proq muammolar yuzaga keladi.

Badiiy asarning milliyligini belgilaydigan asosiy vositalardan biri milliy xos so‘zlar, ya'ni realiyalar bo‘lib, ularning tarjimada to‘g‘ri berilishi original asarning milliy to‘qimasini o‘zga tilda beshikast qayta yaratilishini ta'minlaydi. Darhaqiqat, bir xalq turmush tarzi, dunyoqarashi, narsa va predmetlarni atashdagi o‘ziga xosligi boshqa xalqlarnikidan farq qiladi. Masalan, «O‘tkan kunlar» romani milliy xos so‘zlarga o‘ta boy va tarjimon bunday so‘zlarni berish masalasiga jiddiy yondashsa-da, ba'zi o‘rinlarda xatoliklarga yo‘l qo‘yadi: *«Yaqindagina Musulmon Cho‘loqning bazimi shu Aziz bachcha bilan qizir edi...»* [Q,2012, 14] jumlasidagi «cho‘loq» (laqab) xos so‘ziga e'tibor qaratilsa, turkcha tarjimada «çolak» so‘zi *Müsülman* ismidan oldin qo‘yiladi va personajning bir sifati (nuqsoni) o‘laroq talqin qilinadi: *«Şu yakınlara kadar çolak Müsülman’ın bezmi fitıl Aziz ile iyi uyuşuyordu…»* [K,2005, 20]. Holbuki, ushbu so‘z havolaga olinib izohlansa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki, turkchada «çolak» so‘zi «oyog‘i cho‘loq» emas, balki «qo‘li majruh» ma'nosida keladi.

[16] Yoqubov O. Adolat manzili, roman. – Toshkent: 1996. – 168 b
[17] Hoshimov O‘. “Dunyoning ishlari” – Тошкент: 2005. – 208 b.

Tahlilga tortilgan o‘zbek romanlarining har birida «chopon» so‘ziga o‘nlab marotaba duch kelinadi: *«Mahalla hazilmandlari maxdumning bu choponig‘a «moltopar» deb ism berganlar, guppi kiyilib chiqilg‘an kun maxdumga sezdirmay «moltopar» savdodan qaytibti… deb kulishadirlar»* [MCh,14]. Tarjimasi: *«Mahallenin şakacıları Mahdum’un bu kaftanına «maltapar» diye ad vermişler, kaftan giyilip dışarı çıkıldığı gün Mahdum’a sezdirmeden, «Maltapar ticaretten dönüyor... diyerek gülüşürler»* [MÇ,138]. Tarjimon *«moltopar»* so‘zini turkchada *«maltapar»* shaklida tarjimasiz beradi va havolada «Ushbu qo‘shma so‘z tijoratda miyasi yaxshi ishlaydigan kishi ma'nosiga ega. Biroq bu yerda choponning egasi tushuniladi» deya izohlaydi. Ammo «chopon» so‘zini «kaftan» deb o‘giradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda turk kitobxoni bu libos haqida o‘zida tasavvur hosil qilgan bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, «chopon»ni «çapan» shaklida berib, izohlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Ilmiy tadqiqotlarda realiyalarni tarjima tilida asliyatning tili, milliy ruhi, ma'lum millat vakillarining o‘ziga xosliklarini badiiy matnda berayotgan muallif uslubini chuqur o‘rganish orqali yetarli darajada ifodalash mumkinligi ko‘p ta'kidlanadi. Zero, realiya tarjima matniga shundayligicha olib o‘tkazilsa, kitobxon uni idrok etishi qiyin bo‘ladi.

Realiyalarning tarjimada berilishi tarjimonlarning turli yo‘llarga kirib ketishiga sabab bo‘ladi: biri bunday so‘zlarni tarjima qilsa, boshqasi – transliteratsiya yo‘li bilan berib, havolada izohlaydi. Demak, realiyalar tarjimasi nafaqat amaliy xarakterga ega bo‘lgan masala, balki nazariyaning ham «og‘riqli» muammosi hisoblanadi. Asliyat tilidagi realiyani tarjima tilidagi ma'no jihatidan yaqin bo‘lgan xos so‘z orqali berish amaliyoti ham ba'zan o‘zini oqlaydi. M: *«Uch katta ko‘chaning kesishgan joyidagi guzarda zar yoqa to‘n kiyib, bedov otlarni g‘ijinglatgan mag‘rur beklar, olifta bekzodalar, xitoyi shoyi to‘nli, guldor mahsili davlatmandlar, eshak mingan juldur kiyimli dehqonlar, tirikchilik mashaqqati bilan zir yugurishgan xarob kosib-hunarmadlar, qandaydir bir jinoyatkorni sazoyi qilib ko‘cha aylantirgan qahrli sipohiylar – navkarlar, dag‘al mallaboz to‘nli sokin, xayolchan, shovqin-suronga beparvo darveshlarni ko‘rish mumkin edi»* [N,16]. Oybekning “Navoiy” romanidan olingan ushbu parcha turkchaga quyidagicha o‘girilgan: *«Üç büyük sokağın kesiştiği yerdeki çarşıda sırmalı kaftan giyinmiş, bidevi atlarını oynatan mağrur beyler, süslü beyzadeler, Çin işi ipek kaftanlı, çizmeleri çiçek işlemeli devletliler,*

eşeğe binmiş eski giyimli köylüler, zorlu hayat şartları karşısında yaprak gibi titreşen perişan küçük esnaf, meçhul bir suçluyu cezalandırıp teşhir için sokaklarda dolaştıran öfkeli sipahiler, rengi açık çirkin, görünüşlü cübbeleriyle sakin, düşünceli, bütün olan bitene karşı pervasız dervişleri görmek mümkündü» [N,40]. Jumlada qatorasiga kelgan o‘ndan ziyod realiyaga tarjimon mos ekvivalent topishga harakat qilgan. Masalan, *bek – bey, bekzoda – beyzade, kosib-hunarmadlar – küçük esnaf* kabi. Shunga qaramay, ayrim so‘z va birikmalarni berishda yuzaki yondashish, ya'ni ularning tub ma'nosiga yetib bormaslik holatlari kuzatiladi. Misol uchun *guzar* so‘zi tarjimada «bozor», «savdo markazi» ma'nosidagi *«çarşı»* so‘zi vositasida berilgan. Yoki *«xitoyi shoyi to‘n»* birikmasi *«çin işi ipek kaftan»* deb berilgan, ya'ni bu birikmada tarkibidagi «to‘n» «kaftan»ga aylantirilgan. «*Dag‘al mallaboz to‘n*» birikmasi esa «*rengi açık çirkin, görünüşlü cübbe*» (rangi ochiq chirkin, ko‘rinishli jubba) deb berilgan. Bu birikma tarkibidagi «to‘n» esa tarjimada *«cübbe»* (mantiya) shaklini olgan. Ta'kidlash joizki, o‘zbek adabiyoti namunalarini tarjima qilish jara-yonida realiyalarning saqlab qolinishi turkchada qo‘llanilmay qo‘ygan ko‘pgina so‘zlarning qayta tiklanishini ham ta'minlab, zamonaviy til lug‘at boyligini yanada boyitadi.

Umuman, o‘zbek tilidan turk tiliga asarning mazmun va shakl jihatlarini to‘la saqlagan holda o‘girilgan va turkcha tarjimani o‘quvchi kitobxonga asliyat badiiy voqyeligi haqida ishonchli va mukammal badiiy taassurot bera oladigan matnni to‘laqonli tarjima deb hisoblash mumkin. Asliyatning nafaqat shakli va mazmuni, balki uning barcha lisoniy tovlanishlari, ohanglari, shakliy o‘ziga xosliklari, asosiysi, uning nafosati, ruhini aks ettira olgan tarjima to‘laqonli, ya'ni adekvat tarjima sifatida baholanishi mumkin.

O‘zbek romanlarida badiiy tasvir va ifoda vositalaridan keng foydalaniladi. Tasvir vositasi hisoblangan peyzaj kitobxonning biror narsa haqida tasavvur hosil qilishi, ko‘rish, eshitish mumkin bo‘lgan narsa va obrazlarni inson ongida hosil qiluvchi unsur hisoblanadi. Masalan, «O‘tkan kunlar» romani tarjimalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, adib tarixiy voqyea-hodisalar, o‘zbek xalqining maishiy turmushidagi ikir-chikirlarni badiiy aks ettirishda realistik bo‘yoqlardan keng foydalanadi. Ammo, tarjimonlar asliyatning romantik jihatiga har doim ham yetarlicha e'tibor beravermaydilar. Oqibatda muallif uslubi ayrim o‘rinlarda g‘alizlashadi: *«Hozir ko‘klam kunlari: qirlar, tog‘lar, soylar,*

ko‘k-qizil, qora-oq, sariq, zangor, pushti, go‘las va tag‘in allaqancha rangli chechaklar bilan ustlarini bejab, qishi bilan to‘ng‘ib arang yetishgan oshiqlariga yangi hayot, yangi umid beradilar» [K,1958, 145]. Tabiat tasviri metaforik xarakter kasb etadi va bahor go‘zal qizga o‘xshatiladi. Asliyatning romantik uslubi muallifning bayon uslubi bilan cheklanmaydi. Tarjimasi: *«Bahar günleri... Butun bir kış donup kalan aşıklara canlılık veren bozkırlar, dağlar, nehirler coşkuyla dal-galanıyor; mavi, kırmızı, sarı, yeşil, pembe, siyah kısacası rengarenk çiçekler toprak ananın bağrında birbiriyle dansediyorlardı*» [K, 2005,147]. Tarjimon manzarani ravon tasvirlab boradi, ammo oxirida bahor chechaklarini «bir-biri bilan raqsga tushirib qo‘yadi» («birbiriyle dansediyorlardı»)[18].

Badiiy asarda tabiat tasviri muhim bir voqyea yoki hodisaning ro‘y berishidan oldin beriladi. Bundan maqsad kitobxonning asardagi voqyeani oldindan o‘z tasavvurida jonlantirishga ko‘mak berishdir. Tarjimon esa har doim tarjimani o‘qiydigan kitobxon yashayotgan mamlakat tabiati tasvirini hisobga olgan holda ish tutishi, tarjima qilinayotgan asarning mazmuni va shakliga zarar yetkazmasdan o‘girishi kerak.

«Adolat manzili»da yulduzlarga quyidagicha ta'rif beriladi: *«Tun yarmidan oshgan bo‘lsa kerak, yiroq – yiroqlarda xo‘rozlar qichqirar, osmon to‘la yulduzlar orasida «temir qoziq» yaltirab turar, qoq peshonasida esa bir hovuchgina hulkar mitti tilla sirg‘alarday jimirlardi»* [OYo,129]. Ushbu jumla vositasida yozuvchi tinchlik-osoyishtalik, ezgulik, yorug‘ ertangi kundan darak beradi. Tarjimasi: *«Vakit gece yarısını aşmış olmalıydı ki, uzaklardan horoz sesleri işitiliyor, yıldızlarla dolu gökyűzűnde çobanyıldızı parlayıp duruyor, alın hizasında ise bir avuç kadar Űlker yıldızı saçılmış bileler gibi ışıldıyordu»* [A.Ya,160]. Gapning turkcha tarjimasida tabiat tasviri barcha ranglari bilan o‘z aksini topgan deb hisoblash mumkin. Faqat «temir qoziq»ni tarjimon «Çobanyıldızı» deb bergan. Holbuki, «temir qoziq»ning o‘zbekcha sinonimi «qutb yulduzi», ruschasi – «polyarnaya zvezda» bo‘ladi. «Polyarnaya zvezda» esa turk tilida «Kutup yıldızı» yoki «Demirkızak» bo‘ladi. Tarjimon tanlagan «*çobanyıldızı*» –

[18] Yuqoridagi jumla ruschaga quyidagicha o‘girilgan: *« «Дни стояли весенние: горы, холмы, долины были покрыты цветами – красными, белыми, желтыми, голубыми, розовыми»* [K,145]. Tarjimada faqat rangning o‘zi o‘girib qo‘yilganga o‘xshaydi. Bunday neytral ma'lumot kitobxon ruhiyatiga ta'sir eta olmaydi.

«Venera», ya'ni «Zuhra» yulduzidir[19]. Balki kontekstda bu unchalik ahamiyat kasb etmas, ammo tarjimon eng mayda tafsilotni ham e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak.

O‘zbek romanlari nafaqat mukammal uslubi, chuqur ijtimoiyligi, balki asarlarda qahramonlar o‘z nutqlarida qo‘llagan mashhur, qanotli so‘z va iboralari bilan ham xalqimiz e'tiborini o‘ziga tortib keladi. Masalan, «O‘tkan kunlar»da Kumushbibining «begona» qo‘ldan seskanib aytgan bir mashhur so‘zi bor: *« – Ushlamangiz, – dedi ham siquvchi qo‘ldan qutilish uchun orqaga tislandi»* [Q, 2012, 60]. Ushbu so‘z turk tiliga *« – Dokunmayınız! – dedi ve kolunu tutan elden kurtulmak için geriye çekildi.»* – shaklida juda ishonchli o‘girilgan. Aslida tarjimon ushbu so‘zni sodda buyruq mayli (2-shaxs ko‘plik) shaklida *(Dokunmayın!)* o‘girsa ham bo‘lardi, ammo u nutqda deyarli qo‘llanmaydigan hurmatni ifodalovchi ***-iz*** qo‘shimchasini qo‘shadi[20].

Badiiy asarda inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri portret tavsifi bo‘lib, uning tarjimada berilishi masalasiga kelinganda vaziyat ancha o‘zgaradi. Chunki bu yerda gap asliyatda muallif tomonidan tayyor «chizib qo‘yilgan» portretni boshqa til vositasida qayta yaratilishi xususida boradi. Portretning tarjimada to‘laqonli berish uchun ijodkor asar muallifining portret yaratishda qo‘llagan individual usullari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi, har bir portret tasvirining obraz, xarakterga aloqador nuqtalari, milliy o‘ziga xosliklariga e'tibor berishi, portretga xos har bir tafsilotning tub mohiyatini anglab olishi kerak. O‘zaro yaqin tillar orasida tarjima amalga oshirilayotganda bu ish osondek ko‘rinsa-da, amaliyot bunday faoliyatda bir talay murakkabliklar borligini ko‘rsatmoqda. Misol uchun, «O‘tkan kunlar» romanining ilk sahifalaridanoq qahramonlar portretlari berib boriladi:

«… o‘zga hujralarda yengil tabiatli serchaqchoq kishilar bo‘lganida, bu hujraning egasi ham boshqacha yaratilishda: og‘ir tabiatli, ulug‘ gavdali, ko‘rkam va oq yuzli, kelishgan qora ko‘zli, mutanosib qora qoshli va endigina murti sabz urgan bir yigit!» (Q,5). Adib Otabekni boshqa personajlardan ajratishga intilib, uning alohida muhit

[19] Qarang: Баскаков А.Н., Турецко-русский словарь, Türkçe-Rusça Sözlük, Москва “Русский язык” Yayınevi, 1977; Büyük Rusça-Türkçe Sözlük. –M.: «Russkiy yazik», Multilingual. –İstanbul, 1995; O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5 jildli: –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyot, 2006.

[20] Tarjimashunos G‘.Salomov o‘zining «Til va tarjima» monografiyasida Kumushbibiga ta'rif berar ekan, romanning nemischa tarjimasida ushbu sahnada aytilgan so‘z «Lasst mixt!» – «Ushlama!» deb berilgani, tarjimani tadqiq etgan R.Fayzullaevaning buni teran kuzatganini ta'kidlab o‘tad

insoni ekanligiga ishora qiladi. Otabek o‘zining salobati, o‘ychanligi bilan e'tiborni tortadi. Ammo ushbu portretning tarjimasini o‘qib, asliyat uslubini to‘la his qilish qiyin: *«Diğer odalarda kalanlar sıradan insanlar sayılırsa, burda kalan kişi dahi bir başkaydı: Ağır başlı, vakur, beyaz çehreli, siyah gozlü, kara kaşlı ve pala bıyıklı bir yiğitti» [K,11]*. Turkcha tarjimada *«yengil tabiatli serchaqchoq kishilar»* birikmasi *«sıradan insanlar»* (ma'nosi: oddiy kishilar), «*bu hujraning egasi ham boshqacha yaratilishda»* birikmasi *«burda kalan kişi dahi bir başkaydı»* (so‘zma-so‘z: bu yerda qolayotgan kishi hatto bir boshqa edi), *«og‘ir tabiatli, ulug‘ gavdali, ko‘rkam»* birikmasi *«agır başlı, vakur»* (ma'nosi: *og‘ir-vazmin, salobatli)* shaklida berilgan. Bu yerda nafaqat Otabekning portreti, balki Qodiriy uchun muhim bo‘lgan eng asosiy jihatlar xiralashganga o‘xshaydi. Darhaqiqat, Otabek oddiy odamlardan ajralib turgani bois tarjimada ham «ulug‘vor» uslubni qo‘llash kerak bo‘lar edi.

«Mehrobdan chayon» romaniga e'tibor qaratamiz. Adib har bir personajga ta'rif berar ekan, dastavval uning so‘zli portretini chizadi. M: *«Maxdum bo‘ychan, olago‘sht, siyrak mo‘y, oq tan, istarasi issig‘ bir domla edi. Yoshi ellidan oshqan, soch va soqolida bir muncha oqlar ko‘rinar edi. Kishi bilan so‘zlashkanda, ayniqsa, bir narsadan taajjublanganda siyrak va lekin to‘g‘ri, baquvvat o‘skan soqolini tutamlab o‘ng ko‘zini bir oz qisib qarar, odat qilg‘andan bo‘lsa kerak gap orasida «habba» degan so‘zni ko‘proq ishlatar edi»* [17]. Tarjimasi: *«Mahdum uzun, etine dolgun, seyrek sakallı, beyaz tenli, sempatik sıcakkanlı bir hoca idi. Yaşı elliyi aşmıştı, saç ve sakalında birçok aklar görünüyordu. Birisiyle konuşurken, özellikle bir şeye şaşırdığında, seyrek lâkin düz, kuvvetli büyüyen sakalını avuçlayıp sağ gözünü biraz kısarak bakar, âdet edindiğinden olsa gerek söz arasında «habbe» denen sözü çokça kullanırdı»* [141]. Tarjima ishonchli chiqqan, xususan, maxdumning gap orasida «habba» degan so‘zi turk tiliga aynan o‘girilib to‘g‘ri ish tutilgan. Biroq ayrim birikmalarning so‘zma-so‘z o‘girilishi natijasida turkcha jumlalar o‘zbekchaga o‘xshab qolgan. Masalan, *«baquvvat o‘skan soqolini tutamlab*» birikmasining *«kuvvetli büyüyen sakalını avuçlayıp»* shaklida berilishi to‘g‘ri emas. Shuningdek, «*istarasi issig‘*» iborasini ham *«sempatik sıcakkanlı»* deya «zamonaviy»lashtirmasdan, *«sıcak, cana yakın»* shaklida berilsa, uslub saqlangan bo‘lar edi.

Xuddi shu portret tavsifi turkiyalik qodiriyshunos, tarjimon Aziz Merxan tomonidan quyidagicha o‘girilgan: *«Uzun boylu, kilolu, seyrek bıyıklı, beyaz tenli bir adam olan Mahdum sıcakkanlı bir hocaydı. Yaşı elliyi aşmıştı, saç ve sakalında biraz aklar görünüyordu. Birisiyle konuştuğunda, özellikle, bir şeye şaşırdığında, seyrek ama düzgün çıkmış sakalını sıvazlayıp sağ gözünü biraz kısarak bakardı, Alışkanlığından olmalı ki, söz arasında da «helbet» sözünü çok kullanırdı»* [MÇ,2020, 21-22]. Ikkala tarjima ham ishonchli chiqqaniga qaramay, ayrim o‘rinlarda birinchi tarjima ikkinchi professional tarjimadan ko‘ra ustunroqqa o‘xshaydi. Buni asliyatdagi *«olago‘sht»* so‘zini birinchi darjimada «*etine dolgun*», ikkinchisida esa *«kilolu»* (so‘zma-so‘z: kilogrammli, ya'ni «semiz»), yoki *«siyrak mo‘y»* birikmasini ilk tarjimada *«seyrek sakallı»* deb, ikkinchi tarjimada esa «*seyrek bıyıklı*» (siyrak mo‘ylovli) deb, Maxdumning gap orasida «habba» degan so‘zini birinchi tarjimada aynan o‘zidek *(habbe)* o‘girib to‘g‘ri ish tutgani, ikkinchisida *«helbet»* deb o‘girilganidan ham anglash mumkin. Shu bilan birga ilk tarjimada ayrim birikmalar so‘zma-so‘z o‘girilishi oqibatida turkcha jumlalar “o‘zbekona” chiqqanini ham ta'kidlash joiz *(«baquvvat o‘skan soqolini tutamlab» – «kuvvetli büyüyen sakalını avuçlayıp»).* Chunki maxdumning ushbu harakati turk tili qoidalariga ko‘ra talqin qilinishi kerak edi. Shuningdek, «*istarasi issig‘*» iborasi ham *«sıcak, cana yakın»* deb berilsa, jumla asliyat uslubiga yaqin borilgan bo‘lar edi.

Umuman, portret tavsifini qayta yaratishda tarjimon mahorati personajlar tashqi ko‘rinishini asl nusxadagidek bera olish, maqbul so‘z va iboralar, badiiy tasvir vositalarini qo‘llash hamda ularning muqobil variantlarini topib jonli aks ettirishda namoyon bo‘ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Tarjimon asarni o‘z tiliga o‘girganda, uni yangidan ijod etadi, asl nusxadagi anglashilishi mushkul bo‘lgan so‘z va iboralarni tahlil qiladi va tarjima tilidagi ishonchli muqobillar bilan almashtiradi. M: *«U ko‘p yillik hayot tajribasidan jahl kelsa aql qochishini yaxshi bilar, agar hozir yuragini larzaga solayotgan g‘azabni jilovlay olmasa ishni buzib qo‘yishini sezib, vujudini qamrab olgan isyon bilan olishar edi»* [OYo,105]. Ushbu jumlada mashhur o‘zbekcha *Jahl kelsa aql qochadi* maqoli va bir necha turg‘un birikma *(yuragini larzaga solmoq, g‘azab-ni jilovlay olmaslik, ishni buzib qo‘ymoq, vujudini isyon qamrab olmoq)* qo‘llanilgan. Turkcha tarjimasi: *Bunca yıllık hayat tecrübesiyle öfkenin*

girdiği yerden aklın çıkıp gittiğini gayet iyi biliyor, bu yüzden yüreğini patlamaya hazır bir volkana döndüren öfkesini bastırmadığı takdirde bütün işi berbat edeceğini düşünerek, sinirlerine hakim olmaya çalışıyordu [AYa,133]. Tarjimada ba'zi o‘rinlarda so‘zma-so‘z, ba'zida esa erkin tarjima alomatlarini kuzatish, maqol yoki iboraning turkcha muqobili topilmasdan, uni so‘zma-so‘z berib qo‘yilganini ko‘rish mumkin. Chunonchi, yuqoridagi *Jahl chiqsa aql qochadi* maqoli turkchada *Öfkenin girdiği yerden akıl çıkıp gider* shaklida berilgan[21]. Maqolning turk tilida *«Öfkeyle kalkan zararla oturur»* («Jahl bilan o‘rnidan turgan zarar bilan o‘tirar») muqobili borligiga tarjimon e'tiboridan chetda qolgan.

Badiiy tarjimada aniqlikka olib keladigan talablardan biri sinonim so‘zlar ichidan eng munosibini topib ishlata bilish hisoblanadi. Zero, so‘z aniqligi, birinchi navbatda, uning ma'no va badiiylik hosil qilish jihatidan asl nusxaga qanchalik monand bo‘lishiga qarab belgilanadi. Bir tilda so‘z yoki frazeologik birlikni boshqasiga ekvivalent yordamida o‘girishning iloji bo‘lmaganda, tarjimon muqobil variantlarga murojaat qiladi. Chunki birliklarning aniq ekvivalenti bo‘lmagan taqdirda ham, biron-bir muqobil varianti topilishi shart. M: *«Bizda kuyovni payg‘ambar siylagan, degan gap bor, o‘rtoq Sharanovskiy»* [OYo,106]. Jumla tarkibidagi matal so‘zma-so‘z o‘girilgani tufayli «siylagan» so‘zi «siypalamoq», «uqalamoq» ma'nosida berilib xatoga yo‘l qo‘yilgan: *«Bizde «damadın sırtını Peygamber okşar» şeklinde bir söz var yoldaş Şaranavski»* [A.Ya,134]. Bu yerda tarjimon “tusmol muqobil”ga aldangan.

Yaqin tillar orasida tarjimada duch kelinadigan muammolardan biri «soxta ekvivalentlar»dir. Umumiy tilshunoslik va tarjimashunoslikda «soxta ekvivalentlar» turlicha nomlansa-da, ular deyarli bir xil yoki bir-biriga o‘xshash hodisalarni atash uchun xizmat qiladi. Yaqin tillardan tarjima amalga oshirilayotganda birinchi navbatda xos so‘zlar, ya'ni realiyalarning soxta ekvivalent bo‘lib chiqmasligiga alohida e'tibor berish kerak. Chunki bu bilan bog‘liq noqulayliklar, chalkashliklar asarning buzib tarjima qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunda «ayb shaklan bir xil, mazmunan farqlanuvchi so‘zlar, ya'ni «soxta

[21] *Jahl chiqsa aql qochadi* maqoli A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida *“Jaholat kelsa, aql qochadir”* [Q,1958, 264] shaklida uchraydi. Ushbu maqolni A.Botur *“Cehalet basınca akıl çıkar gidermiş”* [K, 2005, 279] shaklida o‘girgan (turkcha tarjima so‘zma-so‘z teskari o‘girilsa, “Jaholat bosib kelganda, aql chiqib ketar emish” bo‘ladi).

muqobillar»da bo‘lmay, boshqa yoqda ekanini sezish qiyin emas»[22]. Darhaqiqat, asl nusxadagi so‘zga muvofiq keladigan biron-bir so‘zning topilmasligi kam uchraydigan hodisadir, «soxta muqobillar» aslida qandaydir prinsipial muammo keltirib chiqarishi mumkin emas.

O‘zbek tilida «nor» so‘zi «bir o‘rkachli erkak tuya» (nop tuya) yoki erkak tuya, ko‘chma ma'noda esa «baquvvat, mard» (yigitlarga nisbatan) qo‘llaniladi. Ushbu so‘zga omonim sifatida «anor daraxti va mevasi» anglashiladi. Ammo turk tilida «nar» so‘zining faqat «anor» va unga omonim bo‘lgan «olov» ma'nolari bor, ya'ni «nar» so‘zi turk tilida «tuya» yoki ko‘chma ma'noda «baquvvat, mard yigit» ma'nolarida qo‘llanilmaydi. M: *«Nordek yigit bo‘pti, – dedi quvonib. – Istalovoyda sheppovar ekan* [HO‘,35]. O‘zbekcha jonli nutqdan olingan ushbu jumla turkchaga *Nar gibi delikanlı olmuş. Lokantalarda aşçılık yapıyormuş* [HÖ,14] shaklida o‘girilgani tarjimada ushbu so‘zning noto‘g‘ri talqin qilinganini ko‘rsatadi. Shuni hisobga olib o‘zbekcha jumlani turk tilida «Arslan gibi delikanlı olmuş, – dedi sevinçle, – Lokantada aşçıbaşıymış» shaklida berish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki bunday holatda turklar yigitlarga nisbatan «arslan», «tosun», «koç» sifatlarini qo‘llaydilar.

Tilning keng ifoda imkoniyatlarini namoyon qiluvchi frazeologizmlar nutq ta'sirini kuchaytiruvchi va insonlar tomonidan o‘zlashtirilib, ularning ongiga chuqur singib ketgan so‘zlar sifatida xalqning urf-odati, an'analari, madaniyati va tarixini o‘zida yaqqol aks ettiradi. Ularning badiiy tarjimada berilishi fanning dolzarb mavzularidan hisoblanadi.

Frazeologik birliklar obrazlilikni ta'minlovchi unsurlar sifatida voqyelikni aks ettirishning muhim vositalari hisoblanadi: « – Sen o‘z ishingni bilib qilsang, vazifangda sustlik ko‘rsatmasang, – dedi, – senga butun olam dushman bo‘lg‘anda ham *bir mo‘yingni xam qilolmas*» [MCh,43]. Tarjimasi: *«– Sen kendi işini bilerek yaparsan, vazifende uyuşukluk göstermezsen; bütün âlem sana düşman olduğunda bile onlar senin kılına dahi dokunamazlar, dedi»* [MÇ,160-161]. O‘zbekcha matndagi «boshidan bir tola sochini to‘ka olmaslik» iborasiga sinonim bo‘lgan «bir mo‘yini xam qilolmas» iborasi turkchaga *«kılına dahi dokunamamak»* (so‘zma-so‘z: «bir mo‘yiga ham tega olmaslik») shaklida muqobili bilan ishonchli o‘girilgan.

«Navoiy» romanidan olingan jumlaga e'tibor qaratamiz: *«Ilm igna bilan quduq qazish degan qadimgi fikrga hujralarining andozasi yorqin*

[22] Isomiddinov Z., “Aldoqchi so‘zlar” bilan bahs // “Tarjima san'ati“ (Maqolalar to‘plami). 5-kitob. –T.: 1980. –B. 158.

bir misol bo‘lsin...» [N,6] Tarjimasi: *«İlim iğneyle kuyu kazmaktır şeklindeki eski fikre hücrelerin ölçüsü parlak bir misâl olsun.…»* [N,30]. Gap va tarkibidagi ibora so‘zma-so‘z o‘girilgan va turk kitobxoni uni oson tushunadi. Ammo har doim ham bunday bo‘lavermaydi. O‘zbekcha-turkcha tarjimalar ustida olib borilgan tadqiqotlar asnosida aynan tarjima ko‘p hollarda kutilgan samarani bermasligi isbotlangan. Tarjima jarayonida ba'zan iboralarning aniq ekvivalenti yo‘qligi vaj qilinib, uning tarjima tilida mavjud, biroq ma'noni to‘la qoplay olmaydigan varianti ham qo‘llaniladi. Masalan, o‘zbek tilida *«Belida belbog‘i bor»* degani «mard», «so‘zida turadigan» ma'nolarida nutqda ko‘p qo‘llaniladigan idiomatik birlik hisoblanadi: *Belida belbog‘i bormi?* [HO‘,199]. «Erkakmi o‘zi?» ma'nosidagi qisqa, lekin zalvorli jumlani turk tarjimoni oddiygina qilib, so‘zma-so‘z *Belinde kuşağı var mı?* [HÖ,197] deb o‘girgan. Biroq, buning natijasida turk tilida o‘zbekcha ibora-jumla tagidagi ma'no o‘z ifodasini topmagan.

«Navoiy» romanida gap shaklidagi *«Til zindonga sudraydi, xat dorga eltadi»* [N,254] maqoli bor. U turkcha tarjimada so‘zma-so‘z beriladi: *«Dil insanı zindana sürükler, mektup ise darağacına»* [N,247]. Darhaqiqat, ba'zi frazeologizmlarning muqobillarini tarjimada aynan berish har doim ham ma'qul bo‘lavermaydi. Yoki *So‘fi so‘g‘on*[23] *yer, topilsa yo‘g‘on yer, deganday endi podshohdan bir nima yulmoqchi-misizlar!* [H,13] jumlasi tarjimada *Sofu soğan yemez; bulursa kabuğunu bile yer, dedikleri gibi şimdi Padişah’tan bir şey mi koparmak isti-yorsunuz* [N,30] deb beriladi. Bu yerda tarjimon o‘zbek tili shevalariga xos maqolning mag‘zini chaqa olmagan. Agar tusmol o‘girilgan maqol teskari o‘girilsa, quyidagi shaklni oladi: *So‘fi so‘g‘on yemas, topsa hatto (piyozning) po‘stini ham yer...* Demak, badiiy tarjimada maqol va ibo-ralar muqobillarining topib berilishi tarjimon mahoratiga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, bir oilaga mansubligi jihatidan o‘zbek va turk tillariaro leksik umumiyliklarning ko‘pligi, har ikki tilda gapning gram-matik va sintaktik qurilishidagi o‘zaro o‘xshashliklar, adabiy an'ana va uslublardagi mushtarakliklar, tarjimonlarning o‘zbek xalqi tarixi, madaniyati, turmush tarzidan xabardorliklari, tarjima talablarini yaxshi bilishlari turk tarjimonlari erishgan muvaffaqiyatlarning asosiy omili hisoblanadi.

O‘zbek romanlarining turk tiliga tarjimasiga oid masalalarning hal etilishi turk va o‘zbek xalqlari badiiy tafakkuri, hayot tajribasi asosan o‘xshash bo‘lishiga qaramay, ular orasida ayrim farqli jihatlarning ham

[23] So‘g‘on – shv. piyoz

borligi aksariyat hollarda millatning ruhi, mentaliteti, turmush-tarzini namoyon qiluvchi lisoniy unsurlarni talqin qilishda muammo keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun asl nusxa va tarjima tilidagi birliklarning o‘ziga xosliklarini qiyosiy o‘rganish, ular orasidagi uslubiy muvofiqlik holatlarini aniqlash, tarjima jarayonida ularni talqin qilish yo‘llari, imkoniyatlarini belgilash to‘laqonli tarjima yaratish uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[Q, 2012] – Qodiriy A., O‘tkan kunlar, roman, «Sharq» Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. – Toshkent: 2012. –384 b.

[K, 2005] – Kadiri A., Ötgen Künler (Geçmiş Günler), Roman, Türkiye Türkçesi A.Batur, Selenge Yayınları. –İstanbul, 2005. –403 s.

[MCh, 1959] – Qodiriy Abdulla. Mehrobdan chayon. Tarixiy roman. Izzat Sultonov tahriri ostida. – Toshkent: 1959. –250 b.

[MÇ] – Kadiri, Abdullah, Mehrabdan Çayan (Mihraptaki Akrep), roman, Yasin Karadeniz. – Ankara, 2013.

[MÇ,2020] – Kadiri, Abdullah, Mihraptaki Akrep (Hüdayar Han ve Kâtiplerinin Yaşamını anlatan Tarihi Roman), roman, Hazırlayan Aziz Merhan. Elfene Dünya Yayıncılık – İstanbul: Mayıs 2020. – 312 s.

[N] - Oybek, Navoiy, roman, / «Asr oshgan asarlar» turkumi // Tahrir hay’ati: Bobir Alimov va b. –Toshkent: Sharq, 2004. – 496 b.

[N] – Aybek. Nevâyi, Roman, Türkiye Türkçesine aktarma ve İnceleme Prof. Dr. Şuayip Karakaş, Ötüken Yayınevi. – İstanbul, 2019. – 461 s.

[HO‘] – Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. –Toshkent: 2005. – 208 b.

[HÖ] – Haşimov Ötkir, Dünyanın İşleri, Türkiye Türkçesine Çeviren: Mahir Ünlü. – İstanbul: Bilgeoğuz Yayınevi, Mart 2014. – 206 s.

[OYo,1996] – Yoqubov Odil, Adolat manzili. Qissalar, hikoyalar, esse. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti – «Xazina», 1996. – 320 b.

[AYa,2005] – Yakuboğlu Adil, Adalet Menzili, Tűrkçesi D. Ahsen Batur, Selenge Yayınları. – İstanbul, 2005. – 213 s.

FORS TILIDAGI OTLASHGAN SIFATDOSHLARNING O‘ZBEKCHA TARJIMASIGA DOIR

Filol.f.d. ***Xolida ALIMOVA****, TDSHU dotsenti*

Sifatdoshlar otlashganda o‘zlarining asl ma'nolarini to‘la yoki qisman yo‘qotib, predmet ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu jihatdan ular ot turkumiga ko‘chgan hisoblanadi. Otlashgan

sifatdoshlardagi bu umumiy grammatik ma'noning o‘zgarishi tufayli ularning gapdagi vazifasi − roli ham o‘zgaradi. Ular predmet nomi yoki shaxs nomini bildirib, xuddi otlar kabi gapda ega, kesim yoki to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi. Shuningdek, otlar singari sifat-aniqlovchiga ham ega bo‘lishi mumkin. Fors tilida har qanday fe'ldan ham sifatdosh shakllari yasalavermaydi. Bunda eng universal sifatdosh shakli rolini o‘tgan zamon sifatdoshi (O‘ZS) o‘taydi. Ular fe'llarning har qanday struktur va leksik-grammatik shakllaridan yasalishi mumkin[24].

O‘ZSning boshqa sifatdoshlardan ajralib turuvchi xususiyati shundaki, u fe'lning barcha struktur tiplaridan yasalishi mumkin. Hozirgi fors tili lug‘at tarkibining boyib borishida O‘ZSlarining sifat va ot turkumiga o‘tishi alohida e'tiborga ega. Ko‘p hollarda O‘ZSlari otlashuvi natijasida yangi leksik ma'no kasb etishi mumkin. Bunda mazkur yangi ma'no o‘zi yasalgan fe'l ma'nosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Misol sifatida quyidagi so‘zlarni keltiramiz (bu sifatdoshlarda fe'lning dastlabki ma'nosiga nisbatan semantik ajralish yuzaga kelgan): افتاده *oftāde* 1) ‘bechora’, ‘boyoqish’; xo‘rlangan (odam), 2) ‘tortinchoq’, ‘uyatchan’ (افتادن *oftādan* ‘tushmoq’, ‘yiqilmoq’); کنده*kande* 1) 1) ‘jarlik’, ‘jar’, 2) ‘o‘ra’ (کندن *kandan* ‘qazimoq’, ‘kovlamoq’); کارکرده *kârkardé* ‘eskirgan’, ‘iste'molda bo‘lgan’, ‘ishlatilgan’ (کار کردن *kâr kardan* ‘ishlamoq’) kabilar.

Fors tilida O‘ZSlarining otlashuvida asosan گفتن *goftan* ‘gapirmoq’, ‘so‘zlamoq’, نوشتن *naveštan* ‘yozmoq’, گذشتن *gozaštan* ‘o‘tmoq’, خواستن *xāstan* ‘xohlamoq’, ‘istamoq’, آموختن *āmuxtan* ‘o‘rganmoq’, ‘o‘rgatmoq’, مردن *mordan* ‘o‘lmoq’, بستن *bastan* ‘bog‘lamoq’, بافتن *bāftan* ‘to‘qimoq’, ساختن *sāxtan* ‘ishlab chiqarmoq’; ‘yaratmoq’; ‘qurmoq’; ‘soxtalashtirmoq’, یافتن *yāftan* ‘topmoq’ kabi fe'llar asos bo‘lganligi kuzatildi va ulardan quyidagi otlashgan O‘ZSlari yasalgan: خواسته *xāste* ‘talab’, ‘istak’, ‘xohish’ (istalgan); فرموده *farmude* ‘qaror’, ‘buyruq’ (buyurilgan); گذشته *gozašte* ‘o‘tmish’, ‘o‘tgan’; گفته *gofte* ‘so‘z’, ‘gap’ (aytgan, aytilgan); نوشته *navešte* ‘yozuv’, ‘xat’; ‘asar’ (yozilgan); آموخته *āmuxtye* ‘bilim’ (o‘rgangan); مرده *morde* ‘o‘lik’, ‘o‘lgan’; آمیخته *āmixtye* ‘aralashma’, ‘qorishma’ (aralashgan); بسته *baste* ‘bog‘lam’, ‘paket’, ‘tugun’ (bog‘langan, yopilgan, yopiq); کشیده *kešide* ‘shapaloq’ (tortilgan); شنیده *šenide* ‘mish-mish’ (eshitilgan); اندوخته *anduxte* ‘jamg‘arma (depozit)’, ‘zaxira’, ‘rezerv’ (to‘plangan); ساخته *sāxte* ‘asar’,

[24] Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: «Восточная литература» РАН, 2001. – С. 271.

‘mahsulot’ (qurilgan); بافته *bāfte* ‘mato’, ‘tasma’; ‘gilamcha’ (to‘qilgan) kabi.

Quyida bularning ayrimlarini o‘zbek tiliga tarjimada nutqiy matndan kelib chiqib berish imkoniyatlari misollarda tahlil qilindi. Shuni ta'kidlash kerakki, otlashgan sifatdoshlarning mavjud rus yoki o‘zbekcha tarjima lug‘atlarida ayrim ko‘rsatilgan ma'nolari qayd qilinmagan.

نوشته *navešte* ‘yozilgan’ → ‘yozuv’, ‘xat’; ‘asar’, ‘qalamiga mansub’:

(1) وقتی دکتر محمود هومی ...در نوشته های فلسفی خود بکار برد) ...همشهری، 67).دیپلوماتیک، 16، ص

… doktor Mahmud Humi o‘zining falsafiy asarlarida qo‘llaganida... .

(2) فقط کافی بود نوشته های روی دیواررا بخواند)کی پنیر مرا جابجا کرد، ص 43).

Devordagi yozuvlarni o‘qisa, shuning o‘zi yetarli edi.

(3) در باره رمان "ترس و لرز "نوشته آملی نوتومب،) ...همشهری، 3845، ص 7).

Ameli Notomb qalamiga mansub «Qo‘rquv va titroq» romani haqida … .

یافته *yāftye* ‘topilgan’ → ‘kashfiyot’, ‘yutuq’:

(1) یافته های آنان مبتنی بر بررسی وضیعت 187 بیمار با متوسط سن 67 سال است (قشم 16، ص 3).

Ularning kashfiyotlari o‘rtacha 67 yashar 187 bemorning ahvolini kuzatishga asoslangan.

(2) آنها بیشتر در دنبال آن هستند که از طریق یافته های جدید در باره موش ها، رازهای مغز انسان را کشف کنند)همشهری، 3845، ص 4).

Ular asosan sichqonlarda tajriba o‘tkazish orqali erishgan yangi yutuqlariga tayangan holda, inson bosh miyasi sirlarini ochishga harakat qilmoqdalar.

ساخه *sāxte* ‘tayyorlangan’; ‘yaratilgan’; ‘qurilgan’ → ‘film’, ‘mahsulot’:

(1) اکواریوم "آخرین ساخته ایرج قادری که سه هفته ای از اکرانش می گذرد، ..." (همشهری،3845، ص 7).

Uch haftadan beri katta ekranlarda ko‘rsatilayotgan Iraj Qodiriyning «Akvarium» filmi … .

(2)... براحتی ساخته ها و تولیدات آنهارا می ... سارقان خودرو که دزدند .. .همشهری،3845، ص).12

… ularning mahsulot va ishlab chiqarganlarini bemalol o‘g‘irlab ketadigan mashina o‘g‘rilari … .

Materiallar tahlili fors tilida ayrim otlashgan O‘ZSlarining asosan ko‘plik sonda qo‘llanilishini va bularni o‘zbek tilida quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi: بستگاه *bastegān* ‘qarindoshlar’, ‘yaqinlar’; مردگان *mordegān* ‘marhumlar’; زندگان *zendegān* ‘tiriklar’; رفتگان *raftegān* ‘marhumlar’; گذشتگان*gozaštegān* ‘marhumlar’; گردانندگان *gardānandegān* ‘mas'ullar’, ‘vakolatli shaxslar’; حادثه دیدگان *hādesedidegān* ‘jabrlanganlar’ kabi. Misollar:

(1) آئین بزرگداشت مردگان مکزیک، در خانه هنرمندان تهران برگزار شد (همشهری، 3845، ص 23.)

Tehron san'atshunoslari uyida Meksikalik marhumlarni xotirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

(2) روند بی توجهی به این توان فکری عظیم از سوی گردانندگان آموزش و پرورش ...ادامه دارد (همشهری دیپلوماتیک، ص 16.)

Ta'lim-tarbiya mas'ullari tomonidan bu buyuk fikrlarga e'tiborsizlik holati … davom etmoqda.

(3) دادگاه ...روز گذشته زنی را که با پنهان کردن جنازه دختر 7 ساله یکی از بستگان خود در ...پنج سال محکوم کرد (همشهری، 3845، ص 1.)

… prokuraturasi o‘tgan kuni o‘z yaqinlaridan birining 7 yashar qizi o‘limini yashirgan ayolni 5 yil qamoq jazosiga mahkum etdi.

(4) زن آتش نشان ...هنگام وقوع حادثه به کمک حادثه دیدگان به ویژه زنان بیاید (همشهری دیپلوماتیک، ص 16.)

… o‘t o‘chiruvchi ayol hodisa yuz berganda, jabrlanganlarga, ayniqsa ayollarga yordamga kelsin.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi fors tili lug‘at tarkibining boyib borishida O‘ZSlarining ot turkumiga o‘tishi alohida e'tiborga ega. Aksariyat hollarda O‘ZSlari otlashuvi natijasida yangi leksik ma'no kasb etadi. Yangi ma'nolarni aniqlash uchun esa, odatda, fors tilining izohli lug‘atlari yoki internet sahifalariga murojaat qilinadi. Yuqorida keltirilgan misollar tahlili fors tili tarjima lug‘atlarini qayta tuzishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rubinchik Yu.A. Grammatika sovremennogo persidskogo literaturnogo yazыka. – M.: «Vostochnaya literatura» RAN, 2001. – S. 271.

2. همشهری (№3845), 9 noyabr, 2005.

3. همشهری (№2748), 3 yanvar, 2003.

4. قشم (№16), iyul-avgust, 2004.

5. 1383/2004 .تهران .کی پنیر مرا جابجا کرد؟ دکتر اسپنسر جانسون برگردان لعیاعندلیب.

ТЕРМИНЫ ВОЕННОГО ДЕЛА В ДРЕВНЕМ КИТАЕ

***Саодат НАСИРОВА**, доктор филологических наук, доцент*

Успех социально-экономических реформ, осуществленных за последние 43 года, преобразовали Китай в одну из крупных и важных экономик мира. Как и в эпоху Танской империи (18 июня 618 — 4 июня 907, кит. 唐朝, Танчао), Китай вновь обрел статус «фабрики мира». В 2020г. ВВП КНР на душу населения достиг 10500 долл.40 центов долл. против 156 долл. 40 центов в 1978г. или вырос почти 67 раз. Мощное и поступательное развитие экономики позволило Китаю модернизировать Вооруженные Силы, создать прочный ядерный щит, сформировать военно-политическую стратегию, укрепить научную и теоретическую базу военной доктрины, качественно улучшить кадровый потенциал военных и укрепить систему управления войсками.

Современный Китай обладает развитой структурой Вооружённых Сил и системой органов военного управления. Вооруженные силы страны состоят из Народно-освободительной армии Китая (НОАК), народной вооруженной полиции и народного ополчения. В НОАК входят стратегические ракетные войска, сухопутные войска (СВ), ВВС и ВМС общей численностью более 2,3 млн чел., плюс резерв (СВ) — 800 тыс. На полицейские формирования (1,5 млн чел.) возложены функции по обеспечению внутренней безопасности и общественного порядка. Народное ополчение в мирное время выполняет задачи по поддержанию общественного порядка, а в военное — задачи оборонительного характера и различные обеспечивающие функции. Наиболее подготовленная в военном отношении часть народного ополчения является организованным резервом НОАК.

В соответствии с Конституцией КНР руководство ВС осуществляет государственный орган — Центральный военный совет (ЦВС) КНР. Свои функции ЦВС осуществляет через входящие в него структуры: Генеральный штаб НОАК, Главное политическое управление, Главное управление тыла и Главное управление вооружений. Министерства обороны реализует

установки военно-политического руководства страны по техническому обеспечению строительства вооруженных сил, их комплектованию, планированию, распределению и расходованию военного бюджета, поддерживает межгосударственные военные связи. Непосредственно вопросами оборонной науки, техники и промышленности занимается Министерство промышленности и информатизации, в котором создано соответствующее управление. Территория Китая разбита на семь военных округов (Шэньянский, Пекинский, Ланьчжоуский, Цзинаньский, Нанкинский, Гуанчжоуский и Чэндуский), 28 провинциальных военных округов и 4 отдельных гарнизона. НОАК обладает всеми компонентами, присущими современной армии, включая стратегические ядерные силы. Между тем, по уровню подготовки командного состава, информатизации, технической оснащенности и мобильности она пока продолжает отставать от вооруженных сил развитых в военном отношении стран.

Современную военную доктрину Китая, ее особенности и тенденции развития нельзя рассматривать без учета истории формирования военной мысли и стратегии, которые имеют глубокие исторические корни.

После того, как в 221 году до н.э. царство Цинь объединило шесть царств, в качестве необходимого элемента централизованного феодально-абсолютистского государства была создана централизованная система вооруженных сил, состоящая из находящейся в столице центральной армии и действующей на периферии внешней армии, взаимодействующих местных и пограничных войск, взаимосвязанных регулярной армии и местных вооружённых сил. Главнокомандующим вооружёнными силами был император, и полномочия центральных командиров были больше, чем у местных. Все династии феодального периода поддерживали и развивали эту систему.

Вооружённые силы династий Цинь и Хань можно разделить на три вида войск: 中央军 центральную армию, 地方军 местные войска и 边防军 пограничные войска. Династия Хань сохраняла порядок династии Цинь. При ней столичные войска 京师兵 (中央军 центральная армия) включали в себя Южную армию 南军 и Северную армию 北军. Телохранители в

покоях императора, стражники и караульные возглавлялись 郎中 ланчжуном (光禄勋 гуанлюсюнем). 卫尉 Вэйвэй и 中尉 чжунвэй раздельно руководили дворцовой и внешней ночными стражами 宫廷内外宿卫, дозорами 警型 и столичным гарнизоном 京师卫. При императоре У-ди 武帝 Северная армия была увеличена до восьми полков 校. При династии Восточная Хань она была снова реорганизована и сокращена до пяти батальонов 营. Местные войска 地方军 состояли из резервных войск 材管, кавалерии 奇土 и «лодок – крепостей» (水宾 флота). Они возглавлялись наместником округа 都尉 (военным наместником) и его помощниками - военными руководителями уездов 县尉. Проводились ежегодные учения по стрельбе из лука, скачкам на лошадях и боевому построению. Осенью проводились «большие манёвры 都试». В мирное время войска охраняли общественный порядок. В военному время они выступали в поход, получив от императора приказ в виде 兵符 бинфу.

При династиях Цинь и Хань основу формирования войска составлял набор по воинской повинности. Мужчины обычно регистрировались как военнообязанные в возрасте 17 лет, набирались на военную службу в возрасте от 23 до 60 лет. Срок службы оставлял около двух лет. Если набора по воинской повинности было недостаточно, в армию также отправляли осуждённых преступников. После упразднения военных округов и местных войск при династии Восточная Хань основу армии стали составлять завербованные по найму солдаты, а солдаты, набранные по воинской повинности, служили вспомогательной силой [1].

Династии Вэй, Цзинь, Южные и Северные династии продолжали использовать военную систему династии Восточная Хань. Так как государства в этот период существовали в условиях раздробленности, то вооружённые силы были востребованы и бурно развивались. Новыми явлениями в военной системе были:

1. Институт военных губернаторов 都师制. Для подавления сопротивления населения на местах мобилизации, поддержания весьма шаткой центральной власти, правители расширили

полномочия местный властей – наместников округов, цензоров – инспекторов, присвоив им дополнительно воинское звание 将军 цзяньцзюнь (генерал). Цзяньцзюни, назначенные на пост военного наместника, возглавляли войска одного или нескольких округов, или же командовали центральными или внешними войсками и обладали широкими полномочиями в военной, административной и финансовой сферах. Они подавляли сопротивление населения на местах, но при этом создавали угрозу ослабления центральной власти и роста сепаратизма.

2. Система наследственной военной службы 世兵制 . В процессе формирования местных вооружённых сил, из набранных из местного населения личных войск крупных феодалов постепенно сформировались официальные войска . Между солдатами и их командирами сохранялись отношения феодальной зависимости. Количество профессиональных солдат увеличилось. Для сохранения постоянного источника солдат, власти приписывали семьи военнослужащих к армии. Они образовали сословие 士家 шицзя (военных семей). Члены этого сословия из поколения в поколение становились военными. Шицзя не только составляли постоянную основу для набора войск, но также являлись своего рода заложниками, с помощью которых правящий класс контролировал вооружённые силы. Общественное положение военных при системе наследственной военной власти было низким, их подготовка была недостаточной, боеспособность – слабой.

3. Племенные военные системы приграничных народностей 沿边少数民族的部族兵制. Вместе с ослаблением центральной власти возросла военная сила некоторых приграничных народностей. Они стали наступать на богатые районы центральных равнин. В военном деле эти народности сохраняли свои особенности и при этом использовали китайскую военную систему, создав таким образом специфические племенные военные системы, такие как системы 兵户 бинху и чжэньшубин 镇戍兵 при династии Северная Вэй, система 府兵制 фубин при династиях Западная Вэй и Северная Чжоу. Система 府兵 фубин была введена при

династии Западная Вэй на шестнадцатом году правления под девизом 大统 Датун (550 г.). Были назначены восемь 柱国 чжуго («столпов государства» - высшее почётное звание), двенадцать 大将军 дацзянцзюней («главных генералов») и двадцать четыре 开府将军 кайфу цзянцзюня (генерала – кайфу), командовавших 24 армиями. В начальный период 府兵 фубин – территориальные войска были саморегулирующимися, использовали собственное оружие и не имели регистрационных списков. Командующим, вне зависимости от их этнического происхождения, давались фамилии, свойственнее племенам сяньби (основавшим династию Западная Вэй). Военнослужащим также давалась фамилия их командира. Это придавало войскам 府兵 фубин оттенок племенных вооружённых формирований.

Эпоха династий Юань, Мин, Цин была периодом позднефеодальной военной системы. Когда монголы, а потом маньчжуры захватывали центральные области Китая, их военные системы смешивались с китайской, что порождало новые особенности. В начальный период династии Юань общественная и военная организации были едины. Каждое монгольское племя состояло их сотен, тысяч или десятка тысяч семей. Монголы одновременно были воинами и скотоводами. Возвращаясь из военных походов, они становились пастухами. После завоевания династией Юань южного Китая были учреждены 枢密院 шумиюань (военный совет), 行密院 региональные шумиюани и военное министерство, что означало усиление центральной власти. Армия династии Юань включала в себя монгольское войско, войска тамачи (состоящие из представителей разных центральноазиатских племён), северокитайских войск и «новых подчинённых войск» (из бывших солдат армии династии Сун). Армия подразделялась на две группы - дворцовую гвардию и гарнизонные войска. Использовалась система военных домохозяйств и наследование воинских чинов. При династии Мин использовалась система военно-сельскохозяйственных поселений, которые были основой системы 卫所 вэйсо - территориальных воинских частей. 卫所

Вэйсо были организованы по всей территории страны и контролировали стратегически важные пункты. Существовали два вида войск - столичная армия и местные региональные войска. Были созданы пять региональных военных управлений, заведовавшие списками личного состава всех вэйсо страны, и военное министерство, руководившее военными экспедициями, гарнизонами и военным обучением. Во время войны войска выступали в поход, по окончании боевых действий они возвращались в свои вэйсо. Печати, дающие полномочия командующим, возвращались императору. Проводилась политика разделения полномочий по общему руководству армией, руководству перемещением войск и руководству во время боевых действий. Войска не служили личным интересам командующих, а командующие не могли использовать войска по своему усмотрению.

Династия Цин в начальный период своего правления использовала военные структуры 八旗兵 «восьми знамён» и 绿营兵«зелёных батальонов». «Восемь знамён» - это восемь формирований, имевших знамёна разных цветов в качестве опознавательных знаков, и выполнявших военную, политическую и производственную функции. Таким образом, маньчжурская армия была основана на принципе единства военного и гражданского населения. При императоре Тай-цзуне (Хунтайцзи) были дополнительно организованы по восемь монгольских и китайских «знамён». Всего стало 24 «знамени». После захвата маньчжурами Пекина войска восьми знамён отошли от производственной деятельности. Они были разделены на гвардейские восемь знамён (столичное войско) и гарнизонные восемь знамён. Войска непосредственно подчинялись государству, постоянно несли военную службу и не служили частным интересам командиров. Войска «зелёных батальонов» - это войска состоящие из китайцев, организованные по образцу вэйсо династии Мин. «Зелёные батальоны» были вооружёнными формированиями, состоящими из завербованных китайцев и зачисленных на военную службу китайских землевладельцев. Их эмблемой было зелёное знамя, а батальоны были структурными единицами этого войска. Войска «восьми знамён» и войска «зелёных батальонов»

получали довольствие. На ежегодной и ежемесячной основе им выдавались жалование серебром и продовольствие. При этом использовались приёмы, сходные с существовавшими при династии Юань, когда в войска, состоящие из немонголов, назначались специальные чиновники 达鲁花赤 даругачи, которые контролировали войска и их командиров. При династии Цин, чтобы войска «восьми знамён» могли контролировать войска «зелёных батальонов», жалование, вооружение и экипировка войск «восьми знамён» были лучше, чем у войск «зелёных батальонов». Это было отражением политики национальной дискриминации в военной сфере.

После Опиумной войны 1840 года началось крушение феодальной военной системы. Войска «восьми знамён» и войска «зелёных батальонов» династии Цин были заменены 勇营«батальонами храбрецов» (войска, созданные для подавления восстания тайпинов) и 新军 новой армией. Появление новых армии и флота означало переход от древнекитайской военной системы к новой военной системе.

Заключение. Основой феодальной военной системы было сочетание института военной власти с системой политической власти абсолютной монархии. Это выражалось в том, что:

1. Император являлся верховным главнокомандующим. Как правило, он лично руководил формированием войск, их перемещением, назначением командиров и командованием армией.

2. Полномочия по общему руководству армией, руководству перемещением войск и руководству во время боевых действий были разделены, что облегчало контроль над армией по принципу: разделяй и властвуй.

3. Родственники императора, его ближайшие приближённые сановники контролировали армию, надзирали за военными командирами и руководили войсками.

4. Поддерживались отборные гвардейские войска, составлявшие костяк центральной армии, охранявшей императорскую власть и действовавшей по принципу: «размещаться в центре и при необходимости выступать вовне».

5. Осуществлялась связь центра и периферии. Военная и гражданская системы управления сочетались для ограничения и контроля военной власти.

Использованная литература:

中国大百科书全书。- 540-545 页。

XITOY TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILINGAN ASARLARDA NASRIY BADIIY SAN’ATLARNING BERILIShI HAQIDA

DSc. ***Sabohat XASHIMOVA****, TDSHU dotsenti*

Hozirgi kunga qadar xitoy tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan adabiy asarlar sanog‘li. Bular M.Maxmudjodjaev va J.Ziyamuhammedov tomonidan tarjima qilingan “聊斋志异” (“Lyao Chjayning ajoyibot to‘g‘risidagi hikoyalari”) to‘plami, J.Ziyamuhamedov va Z.Shamsieva tomonidan tarjima qilingan “Lyao Jay Novellalari”, Sh. Komilova tomonidan tarjima qilingan Syao Xongning “O‘lim va Hayot maydoni” romani, “Kichik shahardagi bahor” qissasi, Siya Yanning “Shanxay tomlari ostida” pьesasi, Xun Shenning “U Guy ko‘prigi”, Syuy Di Shanning “Taqdir qushi” qissasi kabilarni aytib o‘tish mumkin. O‘zbek tilidan xitoy tiliga amalga oshirilgan tarjimalar ham yo‘q emas, xususan, O.Ochilov va Li Ya Mey tomonidan tuzilgan “Xitoycha-O‘zbekcha frazeologik lug‘ati”, N.Valieva tomonidan o‘zbek tilidan xitoy tiliga tarjima qilingan O‘.Xoshimovning “ Dunyoning ishlari” asari, S.Xashimova tomonidan xitoy tiliga tarjima qilingan Cho‘lponning “Xalq” she’ri kabilarni keltirish mumkin. Bulardan ko‘rinib turibdiki adabiyotga oid bo‘lgan asarlar o‘zbek tiliga tarjima qilinishi dolzarbligicha qolmoqda. Zero adabiyot millat ma’naviyatining ko‘zgusidir.

Tarjima qilingan asarlarning tahlilidan kelib chiqqan holda shunga voqiy bo‘ldikki, asarlarda badiiy san’atlardan ko‘proq metafora, metonimiya, allegoriya, metaforik antonomasiya, metonimik antonomasiya, jonlantirish, mubolag‘a, antiteza, anakoluf, asindeton, ellips, sinekdoxa, takror kabilar qo‘llangan. Xususan,

M.Maxmudjodjaev va J.Ziyamuhammedov tomonidan tarjima qilingan “聊斋志异” (“Lyao Chjayning ajoyibot to‘g‘risidagi hikoyalari”) da “hayotning kechgi shafag‘i” metaforasi 他觉得自己的夏天已经过去，生命的晚露早暗下来了 [1, 45]。– “U, uning yozi poyoniga yetganligini, hayotining kechgi shafag‘i allaqachon so‘nganligini anglab yetgan edi” gapda keltirilgan. Xitoy tilining metaforalari ko‘p hollarda obrazli asosga ega masalan aynan shu to‘plamda keltirilgan 海(海洋) “dengiz” so‘zi cheksiz g‘alla dalalarini 麦的海洋, shuningdek avjiga chiqqan olovni 火海 espressiv ifodalash uchun, 脸的海 “odamlar dengizi”, 手的波浪 “qo‘llarning to‘lqinlanishi, qo‘llarning havoda tebranishi” dengiz sathidagi to‘lqinlar kabi, shuningdek 思想感情的潮水 “fikrlar va hissiyotlarning jumbushlanishi” kabi metaforalar qo‘llangan. Cho‘lponning “Xalq” she’ri tarjimasida ham metaforadan keng qo‘llanilgan:

人民是海洋
人民是波浪
人民是力量
人民是火焰

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir , xalq kuchdir
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir...

Tarjimada perifrazalarni ham uchratamiz, masalan: 断线 “tor uzilib ketdi” iborasi xotinini dafn etdi, xotinining o‘limi iborasi o‘rnida, 风尘(so‘zma-so‘z) “shamoldagi chang zarrasi”, “shamol uchirib yurgan chang zarrasi” iborasi “buzuq ayol” ma’nosida qo‘llangan [2, 61].

Allegoriyada mavhum tushunchani konkret narsa yoki hodisaga xos belgilar yordami bilan aniq tasavvur etish ko‘zda tutiladi. Odatda, masal va ertaklarda tulki aldoqchi kishilarga, bo‘ri ochko‘zlarga, chayon zararli, ilon makkor, to‘ti gapdon odamlarga nisbatan kinoya qilinadi. Masalan: 我觉得立在大野边界，到处都是飞沙。– “Mening nazarimda men ulkan sahro chetida turgandekman, hamma yerda shamol uchirib yurgan qum ” [3, 55]. Bu yerda “ulkan sahro” – bu “odamlar olami”, “shamol uchirib yurgan qum” esa – bu “odamlarning nuqsonlari”demakdir. Bu yerda abstarkt tushunchalar konkret buyumlar orqali ifodalangan. Mazkur holat metaforik allegoriyadir.

Yozuvchi odamlarning nomlarini atamaydi balki har bir kimsani tashqi qiyofasining u yoki bu xislatiga mos ravishda ataydi, ya’ni

metonimiyadan foydalanadi, masalan: 花白胡子 – Oqsoqol, 红眼睛 – Qizilko‘z. Shuningdek, asarda qarama-qarshi tushunchalarga yoki binar oppozitsiyalarga asoslangan metonimiya ham mavjud, masalan: 唇舌 lablar, til 话头 so‘zlar, nutq ma’nosida ishlatiladi.

Mubolag‘a ham keng qo‘llangan. Masalan, Cho‘lponning “Xalq” she’ri tarjimasida: 革命浪潮风起云涌

革命热情汹涌澎湃

Bir qo‘zg‘alur, bir ko‘pirar, bir qaynar,

Bir intilur, bir xovliqar, bir o‘ynar.

Asarlarda jonlantirish ham keng qo‘llangan. Masalan, Syuy Di Shanning “Taqdir qushi” asarida 命运, Syao Xongning “Kichik shahardagi bahor” qissasida esa 春天, Xun Shenning “U Guy ko‘prigi” hikoyasida 天桥 aynan jonlantirish orqali ta’riflanadi.

Tarjimada sinekdoxadan ham foydalanilgan, masalan: 柴米 has-cho‘p va sholi, odatda, kundalik ehtiyoj predmetlari o‘rnida ishlatiladi (o‘zbek tilidagi non-tuz kabi), 三秋 uch kuz – uch yil o‘rniga.

Metaforik antonomasiya ham keng tarqalgan badiiy san’atlardan biri, masalan, 人多出韩信 – “Odamlar ko‘p – Хапь Sапь topiladi”[1, 67]. – Ya’ni “odamlar ko‘p bo‘lsa, dono va iqtidorli kishi albatta topiladi” deganidir.

Ellips og‘zaki uslubga xos bo‘lsa ham, asarlarda keng qo‘llanagan, masalan: 是个小几院 [1, 45]。Yoki 你想自立间的是什么东西？- 是剑。

Anakolufga misol tariqasida “有一个半晚，我因为饥饿和疲劳的象故，我走不动了。– Bir kun kechqurun men ocharchilik va charchoqdan, men harakatlana olmasdim” [1, 41] gapni keltirishimiz mumkin.

Quyidagi ko‘chimlarning barchasi Lyao Jay hikoyalarida qo‘llanilganligi aniqlandi. Metafora – (gr. metaphora – ko‘chim, istiora so‘zidan) asosiy ko‘chimlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ko‘chim ikki xil bo‘ladi: o‘xshashli ko‘chim – metafora, o‘xshashsiz ko‘chim – metonimiya [4, 110]. Masalan: 他觉得自己的夏天已经过去，生命的晚露早暗下来了。– “U, uning yozi poyoniga yetganligini, hayotining kechgi shafag‘i allaqachon so‘nganligini anglab yetgan edi.” “Hayotning kechgi shafag‘i” metaforasi an’anaviy tarzda qarilikni, inson kuchi va go‘zalligining asta-sekin so‘nib borishini obrazli

tavsiflash uchun qo‘llanadi. Bir hodisaning mohiyati va xususiyatlarini unga boshqa hodisaning belgi va xususiyatlarini ko‘chirgan holda ochib berib, metafora tasvirlashni boyitadi. So‘zlarning metaforik qo‘llanishi nutqni obrazli, ifodali qiladi. Xitoy tilida metafora obrazli nutqni yaratishda qo‘llanadigan eng ko‘p tarqalgan vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ayrim metaforalar maxsus tushuntirishni talab etadi, chunki xitoy borlig‘ining o‘ziga xos xususiyatlari va hodisalarini aks ettiradi. Masalan, partiya ishidagi dogmatizm, singib ketgan fikrlash, jonsiz shtamplar, shablonli sxemalarga salbiy tavsif berish uchun 党八股 iborasi qo‘llanadi. 八股 atamasi bilan eski Xitoyda imtihon inshosining arxitektonikasini belgilovchi sakkizta qat’iy belgilangan struktur qismlari nomlangan. Bu sxema bo‘yicha yozilgan insholar shablon xarakterga ega bo‘lib, har qanday fikr va hislardan mahrum bo‘lgan. Shu bilan birga xitoy tilining metaforalari ko‘p hollarda obrazli asosga ega. Xitoy tilida 海 (海洋) “dengiz” so‘zi cheksiz g‘alla dalalarini (麦的海洋 “don dengizi”), shuningdek avjiga chiqqan olovni (火海 “olov dengizni”) espressiv ifodalash uchun qo‘llanadi. Xususan, Lyao Jayning asarida 脸的海 shaxslar dengizi metaforasini uchratamiz. 手的波浪 “qo‘llarning to‘lqinlanishi, qo‘llarning havoda tebranishi” dengiz sathidagi to‘lqinlar kabi, shuningdek 思想感情的潮水 “fikrlar va hissiyotlarning jumbushlanishi” kabi metaforalarni ko‘rsatish mumkin. Ba’zan shunday metaforalar uchraydiki, ularning ma’noli strukturasiga jonli obraz orqali ifodalash elementi kiritiladi. Bular jonli obraz orqali ifodalash metaforalaridir. Masalan: 这不仅是号与叫，这还是生民的呼声。– “Bu nafaqat qayg‘u nidosi va aqlsizlik qichqirig‘i edi, balki bu shuningdek hayot chaqirig‘i ham edi.”

Xitoy badiiy adabiyoti tilida muayyan o‘rin perifrazga ham tegishli. Perifraza yoki perifraz (gr. – atrof, so‘zlayman so‘zlaridan) – majoziy ifodalardan biri bo‘lib, narsa va hodisaning nomini uning ma’nosini tasvirlovchi va ta’riflovchi boshqa so‘z yoki ibora bilan almashtirishdir [4, 165]. Tasvirlovchi-ifodalovchi vosita bo‘lgani holda, perifraz neytral leksikaga tegishli bo‘lgan oddiy so‘z o‘rnida qo‘llanadi. Shunday qilib u obrazli sinonim rolini o‘ynaydi. Masalan: 断线 “tor uzilib ketdi” iborasi xotinini dafn etdi, xotinining o‘limi iborasi o‘rnida qo‘llanadi. 风尘 (so‘zma-so‘z) “shamoldagi chang zarrasi”, “shamol uchirib yurgan chang zarrasi” iborasi “buzuq ayol” ma’nosida qo‘llanadi [7, 112]. Shuni ta’kidlash joizki, ushbu perifraz boshqa

ma’nolarda, aynan “sayohat qiyinchiliklari”, “urush musibatlari” (odamlar shamol uchirib yurgan chang zarrasi misoli, urush so‘qmoqlarida sarson-sargardon bo‘lib yuribdilar) kabi ma’nolarda ham ishlatiladi.

Allegoriya (lat. Allegoriya – kinoya, qochiriq, kesatish so‘zidan) – biror mavhum tushunchani konkret narsa yo hodisa orqali ifodalagan majoziy, ya’ni o‘z ma’nosidan boshqa ma’noga ko‘chirilgan so‘z va iboralarning bir turi [4, 23]. Kinoyada mavhum tushunchani konkret narsa yoki hodisaga xos belgilar yordami bilan aniq tasavvur etish ko‘zda tutiladi. Odatda, masal va ertaklarda tulki aldoqchi kishilarga, bo‘ri ochko‘zlarga, chayon zararli, ilon makkor, to‘ti gapdon odamlarga nisbatan kinoya qilinadi. Masalan: 所谓理想学校的芽儿未必不会再长而死。– “Ideal maktabning nihollari ehtimol qurib nobud bo‘lib qolar”. Bu yerda abstarkt tushunchalar konkret buyumlar orqali ifodalangan. Mazkur holat o‘zining semantik-stilistik mohiyatiga ko‘ra metaforik allegoriyadir. So‘nggisi aynan «abstrakt, umumlashtirilgan tushunchalarning konkret buyumlar va hodisalarga o‘xshatishga asoslangan» [9, 23]. Metaforik allegoriyaning barcha struktur elementlari ko‘chma ma’noda, metaforada esa uning komponetlaridan biri odatda to‘g‘ri ma’noda qo‘llanadi. Metafora allegoriyaga yondashadi, ba’zan esa u bilan birlashadi. Bu metaforik allegoriya kabi oraliq xodisa haqida so‘z yuritish imkonini beradi.

Metonimiya yoki majoz – ko‘chimlarning bir turi bo‘lib, ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan ko‘chma ifoda. Masalan: 见到他我当然希望也见到那位苦盟的象征 [10, 58] – “Uni ko‘rib kelib, men, shuningdek, dilgirlikning ramzini ham ko‘rish umidida edim.” Yozuvchi asardagi qahramonni shunday ta’riflab, bu qahramon shunchalar mayus va mijg‘ov ediki, har doim odamlarni zeriktirar edi. Bu yerda odamning ismi o‘rniga uning tabiatiga ko‘proq xos bo‘lgan xususiyati atalgan. Bunda “dilgirlik ramzi” so‘zi kinoyali, metaforikdir. Metonimiya – grekcha so‘z. U “nomni ko‘chirish yoki qayta nomlash” degani. Shunday qilib, metonimiyani nomni bir tushunchadan ikkinchisiga ko‘chirishni aks ettiruvchi ko‘chim sifatida ifodalash mumkin. Masalan: 花白胡子 – Oqsoqol, 红眼睛 – Qizilko‘z. Yozuvchi odamlarning nomlarini atamaydi balki har bir kimsani tashqi qiyofasining u yoki bu xislatiga mos ravishda ataydi. Shuningdek, qarama-qarshi tushunchalarga yoki binar oppozitsiyalarga asoslangan

metonimiya ham mavjud. Xususan, leksik tuzilma 唇舌 lablar, til 话头 so‘zlar, nutq ma’nosida ishlatiladi.

Sinekdoxa – metonimiyaning bir turi. Unda bir butun narsa, hodisa va inson haqida uning uzviy bir qismi, bo‘lagi orqali fikr yuritiladi. Xususan, leksik tuzilma 柴米 has-cho‘p va sholi, odatda, kundalik ehtiyoj predmetlari o‘rnida ishlatiladi (o‘zbek tilidagi non-tuz kabi). Leksik tuzilma 三秋 uch kuz – uch yil o‘rniga. Bu misollarda qism butunni ifodalaydi. Bu usul fikrni qisqa, lo‘nda ifodalash imkonini beradi, nutqni ifodaliroq qiladi.

Antonomasiya ham metonomiya kabi, bir tushunchaning nomini ikkinchisiga ko‘chirishni anglatadi, boshqacha qilib aytganda, qayta nomlashdir. Xitoy tilida ushbu ko‘chim metaforik antonomasiya yoki metonimik antonomasiyaga [11, 62] kiritiladi. Antonomasiyaning ikkala turi uchun umumiy bo‘lib turdosh otni atoqli otga almashtirish hisoblanadi. Antonomasiyaning ikki turi o‘rtasidagi farq quyidagidan iborat. Metonimik antonomasiyada asar (mahsulot) uning yaratuvchisining (yozuvchi, ustaning) nomi bilan ataladi. Metaforik antonomasiyada esa alohida individning (tarixiy shaxs, adabiy personajning) nomi inson tabiatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, 人多出韩信 – “Odamlar ko‘p – Хапь Sапь topiladi” [12, 67] – Ya’ni “odamlar ko‘p bo‘lsa, dono va iqtidorli kishi albatta topiladi” deganidir.

Mubolag‘a – narsa yoki hodisaga xos bo‘lgan xususiyatni oshirib, mahovat bilan tasvirlashdir. U ko‘p hollarda ekspressivlik darajasiga ega bo‘lib, badiiy ta’sir etishning ta’sirchan vositasi bo‘ladi. Masalan: 瘦成皮包骨了。– “Shunchalik ozib ketdiki, terisi suyagiga yopishib qolibdi.” 静的连一根针掉到地下都听得见向 [6, 34]– “Shunchalik jim-jit ediki, yerga igna tushsa eshitilar edi.”

Jonlantirish hikoyani obrazli va maftunkor qiladi, nutqning badiiy ta’sirini kuchaytirish imkonini beradi. Masalan: 那些创实行着呢，我看见他们在眨眼。– “Qayiqlar bedor edi, ular ko‘zlarini pirpiratganlarini ko‘rdim.”

Ellips og‘zaki uslubga, shuningdek baddiy-adabiy asarlarning dialogli nutqiga xos. U bayon etilayotganga lo‘ndalik va ekspressivlikni bag‘ishlaydi, “nutqni aniq, qisqa, ifodali qiladi”[11, 89]. Xitoy tilida ellips til vositalarini tejashdan kelib chiqqan. Masalan: 是个小几院 [6,

3]。Yoki 你想自立间的是什么东西？- 是剑 [6, 19]。Son-predmetli so‘zlarda yagonalikning leksik ko‘rsatkichi sifatida son ellipsi 一 yi birning ishlatilishga yo‘l qo‘yiladi: 是个小几院 [6, 3]。Sonning tushurib qoldirilishi, klassifikator kiruvchi sintagmani yanada ihchamlashtiradi va shuning uchun oson talaffuz etiladigan qiladi.

Taqqoslash obrazli solishtirishning struktur varianti bo‘lib hisoblanadi. Masalan: 巧言巧语比糖甜。- “Chiroyli nutq qanddan ham shirish.” Yoki 比秋水还清淡。– “Kuz suvidan ham tozaroq va shaffovroq (ayol ko‘zlari haqida)”.

Anakoluf personajlarining bevosita nutqiga tabiiy, zo‘riqmagan tus berish uchun, yozuvchi ba’zan ongli ravishda, atayin gapning normativ strukturasini buzadi, bu esa odatdagi sintaktik aloqaning uzilishiga olib keladi. Masalan: 有一个半晚，我因为饥饿和疲劳的象故，我走不动了。– Bir kun kechqurun men ocharchilik va charchoqdan, men harakatlana olmasdim. ” Gapning ikkinchi qismi boshidagi 我 men olmoshi bu turdagi sodda gaplarga xos bo‘lgan odatdagi sintaktik aloqani buzadi va och, charchagan, qiynalgan odamning nutqiga tabiiy tus berish imkonini beradi.

Antiteza – bu ikkita yonma-yon turgan sintaktik birliklarni o‘zaro qarama-qarshi qilib qo‘yish. Semantik borada voqelikning qarama-qarshi hodisalari yoki faktlarining nisbatini aks ettiradi. Antitezaning leksik tarkibi o‘zining mazmun tabiatiga ko‘ra ko‘pincha antonimlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Masalan: 胆如鼠兔小心比虎狼残 [6, 62]. - “Kalamush va quyon kabi qo‘rqoq, yo‘lbars va bo‘ri kabi beshavqat” (so‘zma-so‘z: yo‘lbars va bo‘ridan ham beshavqat). Antiteza nutqni kuchli va yorqin qilish imkonini beradi. V.M.Alekseev shunday deb yozgan: “Ikkita qarama-qarshi gaplarning biriktirilishi xitoy tilining go‘zalligini tashkil qiladi”.

Hikoyalarda paralellizm ham qo‘llangan: 为了万人的将来，你们忽献了现在。为了万人的安乐，你们放弃了个人的幸福 [6, 62] – “Barcha insonlarning kelajagi deb, siz o‘zingizning hozirgi kuningizga beparvo bo‘ldingiz. Barcha insonlarning farovonligi deb, siz o‘z baxtingizdan voz kechdingiz.” Bu misollarda miqdoriy, sintaktik va leksik parallelizm o‘rin olgan: gapning ikkala qismida bir xil sonli

morfemalar, gap bo‘laklarining bir xil tartibi, ketma-ket leksik mosliklar. Bunda shakl parallelizmi semantik parallelizm bilan bog‘lanadi, gap bo‘laklari mazmuni jihatidan bir-biriga yaqin. Hikoyalarda, shuningdek, asindeton ham qo‘llangan: 饭早就熟了，你们有什么话，谈这么半天？[6, 27].

Badiiy-adabiy nuqtda kuzatiladigan eng ko‘p tarqalgan sintaktik-kompozitsion usullardan biri deb 反复(takrorlash)ni hisoblash kerak. Aynan shu hodisa Lyao Jay hikoyalarida ham kuzatiladi: 车，车，车–什么时候才能感受生活呢？[6, 54] – “Arava, arava, arava – qachon ishdan rohatlana olaman!”

Olib borilgan tahlil natijasida shuni aytish mumkinki, Lyao Jay hikoyalarida turli xil tasviriy vositalar qo‘llanilgan. Bular perifraza, metaforik allegoriya, metonimiya, sinekdoxa, antonomasiya, mubolag‘a, jonlantirish, ellips, taqqoslash, anakoluf, antiteza, paralellizm, asindeton, takror qo‘llangan. Bularni esa, albatta, yozuvchining mahoratini yana bir tasdig‘i sifatida hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Maxmudxodjaev, J.Ziyamuhammedov. “聊斋志异” – T, 2003.
2. Ziyamuhamedov J. Pu Sungling Xitoy novellalari. // Jahon adabiyoti. – 2004. - №7.
3. Зиямухамедов Дж. Китайская волшебная повесть. - «Чуанци» // Актуальные проблемы китаеведения. - Т., 2004.
4. Homidiy H. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – T.: Fan, 1970 y.
5. Пу Сунлинь. Красавица Синфен // Пу Сунлин. Рассказы Ляо Чжая о необычайном / В пер. комплект. акад. В.М. Алексеева - М .: Бог. лит., 1983.
6. 聊斋志异。– 北京，2007 年。
7. Никитина Т.Н. Грамматика древних текстов. - М .: Восток - Запад, 2005.
8. 聊斋志异 // http://www.kitairu.net
9. Кузнецов М.Д. и Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка. - Л., 1960.
10. Гу Сюньфей. Лингвистические основы устного двустороннего перевода. - М .: Валент Р., 2002.
11. Горелов В.И. Пособие по переводу с китайского языка на русский. - М .: Наука, 1966.
12. Фишман О.Л. Три китайских новеллиста XVII - XVIII вв. (Пу Сунлинь, Си Юнь, Юань Мэй). - М .: Наука, 1980.

КОНФУЦИЙ ТАЪЛИМОТИДА “中庸” ФАЛСАФИЙ АТАМАСИНИНГ ТАРЖИМАДА БЕРИЛИШИ

PhD. ***Наргиза ИСМАТУЛЛАЕВА,*** *ТДШУ ўқитувчиси*

“中庸” zhongyong – “Олтин ўрталик”, “оқил мўътадиллик” конфуцийчилик таълимотининг ахлоқ мафкураси ва методологияси ҳисобланиб, “Лун юй”да ҳам мазкур маъно аниқ шу атама билан ифодаланмасада, унинг мазмун ва моҳияти бир қатор бандларда ўз аксини топган. Шу масалага ўтишдан аввал 中庸 zhongyong атамасининг қадимда ва ҳозирда англатган лексик маъноларига тўхталсак. Ушбу атама асосан 4 та маънога эга бўлиб, улар қуйидагилардан иборат:

1) ўртача, ўрта миёна; оддий, содда, чакана.

“才能不及中庸。” *Cai neng bu ji zhongyong.* （《过秦论》）[25]

“Қобилият ўрта миёна бўлмайди.”

2) Конфуцийчиликнинг “олтин ўрталик” ахлоқий мафкураси. Бунда “中” zhong – бетарафлик, холислик маънолари, “庸” yong эса оддий, одатий, қўлламоқ каби маъноларга эга.

“中庸之为德也，其至矣乎！民鲜久矣。”

Zhongyong zhi wei de ye, qi zhi yi hu! Min xian jiu yi.

“Олтин ўрталикни сақлаш яхши фазилатлардан ҳисобланиб, фазилатлар орасида энг олийси бўлиши керак! Афсус, кишиларда бу фазилатнинг етишмаслигига анча бўлган.”[26]

3) Конфуцийчиликнинг муқаддас китобларидан бири ҳисобланиб, аввалида 《礼记》Liji асарининг бир қисми бўлган. Анъанага кўра Зиси[27] қаламига мансуб деб билинади. Жанубий Сун сулоласи[28] ҳукмронлиги даврида эса мазкур асар 《礼记》дан ажралиб, 《大学》Daxue，《论语》Lunyu，《孟子》

[25] 《辞海》(“Сўзлар денгизи” луғати). – 上海：上海辞书出版社, 1999 年. – 页 3991.

[26] 《论语》(“Лунюй”). 山东曲阜，1985 年./ “雍也” (“Йонгга келсак.”). – Б 37, 29-банд.

[27] 子思 (Zisi) – Зиси (м.а. 483-402 йиллар) Конфуцийнинг невараси.

[28] 南宋 (Nan Song) – Жанубий Сун сулоласи ҳукмронлиги даври 1127-1279 йилларни қамраб олади.

Mengzi[29] фалсафий асарлари билан биргаликда 《四书》 Sishu (“Тўрт тўплам”) тўпламига киритилган. Асар тематик турлилик ва мураккаб композицияга эгалиги билан фарқланади.

4) Арасту[30] нинг илгари сурган “олтин ўрталик” ғояси ҳисобланади.

《说文解子》асарида “中 zhong – оқил, одилдир”, “庸 yong – қўлламоқдир” изоҳлари келтирилган. Бу одил (тўғри) принцип асосида ҳодисалар ривожидаги ўзаро алоқани бошқариш демакдир[31].

中庸 яна “中道” zhongdao, “中行” zhonghang ҳам дейилиб, “ўта юқорилаб кетмаслик” ҳамда “ўта тушиб ҳам кетмаслик”ни ва шунингдек, қарама-карши бўлган икки қутб орасидаги уйғунлик, муроса, мувозанатни англатади[32]. Конфуций таълимотидаги мазкур атаманинг мазмунини англаб олиш учун “Лунюй”да келтирилган бир неча бандларни мисол тариқасида кўрсатишни жоиз биламиз.

“吾有知乎哉？无知也。有鄙夫问于我，空空如也。我叩其两端而竭焉。”

Wu you zhi hu zai? Wu zhi ye. You bifu wenyu wo, kongkong ru ye. Wo kou qi liang duan er jie yan.

“Менинг билимим борми? Аслида йўқ. Агар бирор бир қишлоқлик менга савол берса, унинг саволи борасида ҳеч нарса билмасам ҳам мен саволни икки томонлама кўриб чиқа оламан ва унга жавобини айтиб бераман.”[33] Бу ерда “两端” liang duan – бу айнан ҳодисанинг икки қирраси бўлиб, яъни ибтидо ва якун, улар фарқли, зиддий ва акс маъноларга эга. Шунинг учун Конфуций “允执厥中”yun zhi jue zhong, яъни “самимият билан оқил мўътадилликни ушлаб туриш”[34] олтин ўрталик ғоясини илгари суради.

“尧曰：‘咨！尔舜！天之历数在尔躬。允执厥中。四海困穷，天禄永终。”

---

[29] Мазкур асарлар ҳақида маълумот учун иловага қаранг. – Б 117.

[30] Арасту (Аристотель м.а. 384-322) – қадимги юнон файласуфи, энциклопедик олими.

[31] 《中华儒学精华画集》·《中庸》(“Хитой конфуцийчилиги сара расмлар тўплами”, “Олтин ўрталик” китоби). –吉林：吉林文史出版社，1994 年. – 页 1.

[32]《哲学辞典》(“Фалсафа луғати”) . –吉林：吉林人民出版社，1985 年. – 页 99.

[33] 《论语》(“Лунюй”). 山东曲阜，1985 年./ “子罕” (“Устоз камдан-кам”). – Б 54, 8-банд.

[34] 《论语》(“Лунюй”). 山东曲阜，1985 年./ “尧曰” (“Яо дейдиким”). – Б 137, 1-банд.

Zi! Er Shun! Tian zhi lishu zai er gong. Yun zhi jue zhong. Sihai kunqiong, tian lu yong zhong.

“Яо деди: Т-т! Шун-а! Осмон белгилаган тартибига кўра император ўрни сенинг чекингга тушди. Самимият билан ана шу оқил мўътадилликни сақла. Дунё аҳли агар қашшоқликка тушиб қолса, само сенга тортиқ қилган мансабинг бир умрга бекор қилинади.”[35] Бу ердаги “中” zhong сўзи “过” guo – ошириб юбориш ва “不及”bu ji – етмасликнинг ўртасидир. “Ошириб юбориш” ва “етмаслик” борасида Конфуций “Лунюй”нинг 11-бўлимида ҳам гапириб ўтган.

“子贡问：‘师与商也孰贤？’子曰：‘师也过，商也不及。’曰：‘然则师愈与？’子曰：‘过犹不及。’”

Zigong wen: ‘Shi yu shang ye shu xian?’ Zi yue: ‘Shi ye guo, shang ye bu ji.’ Yue: ‘Ranze shi yu yu?’ Zi yue: ‘Guo you bu ji.’

“Зигонг[36] сўради: “Зижанг ва Зися[37] уларнинг қай бири яхшироқ?” Конфуций деди: “Зижанг иш бажарганда ошириб юборади. Зися эса амалга оширишга улгурмайди.” Зигонг деди: “Ундай бўлса Зижанг яхшироқ эканда?” Конфуций деди: “Ошириб юбориш ва улгурмаслик бирдай ёмондир””[38].

Конфуцийнинг шу мазмунга эга иборалари “Лунюй”да яна кўплаб ўринларда учрайди.

“君子惠而不费，劳而不怨，欲而不贪，泰而不骄，威而不猛。”

Junzi hui er bu fei, lao er bu yuan, yu er bu tan, tai er bu jiao, wei er bu meng.

“Комил инсон халқни манфаатга етиштириб ўзи эса харжланмаслиги керак. Халқни меҳнатга ундаб, лекин уларнинг ўзига нисбатан нафрат туйғусини ҳис қилдирмаслиги керак. Инсонпарварлик ва бурчга интилиб, лекин бойлик ва манфаатни кўзламаслиги керак. Табиати оғир-вазмин бўлиб, лекин мағрур бўлмаслиги керак. Қаттиққўл бўлиб, лекин золим бўлмаслиги керак”[39].

---

[35] Ўша манба, шу банд.

[36] 子贡 (Zigong) – Зигонг (м.а. 520-?) Конфуцийнинг Вэй князлигидан бўлмиш шогирди.

[37] 子夏 (Zixia)ёки 卜商 (Bu Shang) – Зися (м.а. 507-?) Конфуцийнинг Вэй князлигидан бўлмиш шогирди.

[38] 《论语》(“Лунюй”). 山东曲阜，1985 年./ “先进” (“Аввал ўрганиб”). – Б 69, 16-банд.

[39] 《论语》(“Лунюй”). 山东曲阜，1985 年./ “尧曰” (“Яо дейдиким”). – Б 139, 2-банд.

Юқоридаги бандлардан кўришимиз мумкинки, Конфуций ўзининг “олтин ўрталик” ғоясининг нафақат ҳукмрон синф, балки халқ манфаати учун ҳам катта аҳамиятга эгалиги, барча соҳаларда мувозанат йўлини тутиш, муроса қилиш тинчликка, фаровонликка етаклашини исботлаган.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. 辞海》(“So‘zlar dengizi” lug‘ati). – 上海：上海辞书出版社, 1999年. – 页3991.
2. 《论语》(“Лунюй”). 山东曲阜，1985年./ “雍也”
3. 《中华儒学精华画集》·–吉林：吉林文史出版社，1994年. – 页1.
4. 《哲学辞典》. –吉林：吉林人民出版社，1985年. – 页99.
5. 《论语》(“Лунюй”). 山东曲阜，1985年./ “子罕” .

ARAB TILSHUNOSLIGINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

***Jahongir ABDUPATTAXOV**, TDSHU o‘qituvchisi*

Arab tilshunosligining rivojlanish davri VII - XIII asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davrga kelib qator mamlakatlarda yashovchi hayot tarzi turli xalqlarni umumlashgan yagona mao‘rif, madaniyat va dunyoqarash atrofida birlashtirgan san’at, sanoat, ilm-fan va hazorada jahon sahnasida etakchiga aylangan Abbosiylar hukmronlik qilardi. Islom olamini chulg‘ab olgan birinchi renessans zaminida arab tilshunosligi eng yuqori taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Bu davrda qadimgi hind va grek tilshunoslarining asarlari arab tiliga o‘girildi. Tarjima jarayonida o‘sha paytgacha ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlardan, qo‘lga kiritilgan ilmiy uslublar va yo‘ndashuvlardan keng istefoda ettilar, ulardan ijodiy foydalaganlar. Natijada arab tilining fonetik, morfologik va leksik qatlamlari ilmiy ravishda aniq sharhlashga erishildi. Bu haqda, taniqli nazariyotchi olim, professor R.Rasulov quyidagilarni yozadi: “Arab xalifaligida tilshunoslikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, Hindistondagi kabi, amaliy ehtiyojlar bilan bog‘lanadi. Ya’ni, bu davrda ko‘hna yodgorliklar va Qur’on tili bilan jonli arab tili (lahjalari) orasida katta farqlanish yuzaga keladi. Bir tomondan musulmon dunyosining muqaddas diniy kitobi bo‘lgan “Qur’on” ifodasini tushunarli qilish, undagi so‘zlarni to‘g‘ri va aniq

talaffuz qilish, ikkinchi tomondan, klassik arab tilini mahalliy shevalar ta’siridan saqlash maqsadida arab olimlari til masalalari bilan jiddiy shug‘ullanishga kirishdilar” [*R.Rasulov, 2017: 31*]. Arablar, greklardan farqli ravishda, unli tovush bilan undosh tovushni aniq farqlaganlar. Tovushlarni, qadimgi Hind tilshunoslari kabi, fiziologik xususiyatlari asosida maxrajlarga ajratib tasvirlaganlar. Affiksatsiya va ichki fleksiya hodisalarini qayd qilganlar. XII-VIII asrlarda arab tilshunosligining markazi dastlab Basra va Kufa, keyinchalik Bag‘dod bo‘lgan. Bag‘doddagi “Baytul hikma” arab tilshunosligining ilmiy markaziga aylangan. Arab tilshunosligi o‘z taraqqiyoti davrida hind va yunon tilshunosligi yutuqlariga, o‘z an’analariga tanqidiy va ijobiy yondashgan. Arablar arab tillining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda undan foydalanganlar *[R.Rasulov, 2017:* 31*]*. Arab tilshunosligining asoschilaridan biri VIII asrda yashagan basralik Xalil al-Faraxidi hisoblanadi (718-791). Lug‘atshunos allomaning “Kitobu-l-ayn” kitobi islom olamida shuhrat qozongan. Olimning lug‘at kitobi arab leksikografiyasi taraqqiyotida samarali ta’siri kuzatiladi. Bu lug‘atda grammatikaga doir muhim fikrlar dalillar bayon qilingan. Xalil al-Faraxidining “Kitabu-l-avamil” (“Ko‘makchi so‘zlar haqida kitob”) asarida yoritilgan ilmiy nazariya XI asrda yashab ijod qilgan al-Jurjoniyning “Al-avamu-l-mi’a” (“Yuzta ko‘makchi so‘zlar”) nomli asarida rivojlantirilgan. Arab tilshunosligining nazariyasi ishlab chiqishda davom etarkan, arab bo‘lmagan xalqlar vakillari han salmodli hissa qo‘shib kelishgan. Tilshunoslar Sebavayhiy, Al-Zamaxshariy, Abu Rayhon al-Beruniy, As-Sakkokiy, At-Taftazoniy, Al-Qazviniy, Al-Qorabog‘iy, Feruzobodiy shular jumlasidandir.

Tilshunoslik alohida fan sifatida shakllanishiga turtki bo‘lgan amaliy ehtiyojlar.

Ko`pmillatli Umaviylar, Abbosiylar davlatida adabiyot, fan-ta’lim sohalarida, shunindek, devon, hukumat va idoralarda ish yuritish tili arab til bo‘lgani bois tilni o‘rganish, unda ish yuritishga amaliy ehtiyoj sezilib turardi. Ana shunday ehtiyojlarni qondirish zaruratidan yuzaga kelgan arab tilshunosligining dastlabki markazlari – Kufa va Basra grammatika maktablari hisoblanadi. Arab tilshunosligi o‘zini ko‘p kuttirmadi. Qisqa fursatda leksikografiya oid birin-ketin asarlar bitildi: Sebavayhiyning «Al - Kitob» asari[40], Ibn Munzirning “Lisanu-

[40] https://ar.m.wikipedia.org/wiki/%D9%83%D8%AA%D8%A7%D8%A8_%D8%B3%D9%8A%D8%A8%D9%88%D9%8A%D9%87#:

l-Arab” [41] qomusiy asari, «At-Tuhfatu-z-zakiyatu fi-l-lug`ati-t-turkiya»[42] («Turkiy til haqida noyob tuhfa») va Feruzobodiyning “Al-Qomus” lug‘at asarlari.

Umaviylar va Abbosiylar davrida tilshunoslikning paydo bo`lishi va rivojlanishi, Hindistondagi kabi, amaliy ehtiyojlar bilan bog`liq holda yuz bergani misollarda ko‘rildi. Og‘zaki adabiy yodgorliklar va Qur’on mumtoz tili bilan jonli arab tili (lahja va hududiy shevalari) orasidagi tafovutni silliqlash, Qur’oni karim so`zlarini to`g`ri va aniq talaffuz qilish, sharh bog‘lash, lug‘at kitoblarinin ta’lif qilishga va shu orqali klassik arab tilini shevalar ta`siridan asrash maqsadida arab olimlari til masalalari bilan jiddiy shug`ullanishga kirishdilar.[43]

Arab tili adabiyot, ilm-fan tiliga aylandi, jahon tillari orasida balog‘at va fasohat bobida yuqori maqomga ko‘tarildi, leksik zaxirasi boyib bordi. Ayniqsa, lug‘atshunoslik bobida ulkan izlanishlar olib borildi. Arab tili leksikasi tilshunoslik sohasida salmoqli yutuqlarga erishdi.

Leksika rivoji leksikografiyada aks etmay qolmaydi. Har qaysi lug‘atning paydo bo‘lishi til rivojlanishidagi muhim bosqich hisoblanadi. Lug‘at bevosita jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyotida namoyon bo‘ladi: madaniy tushunchalar, iqtisodiy atamalar, jonli so‘zlashuv til birliklarida yangilanish, boyish va qamrovi ortadi. Negaki, til inson tafakkuri mahsuli bo‘lgani bois madaniy hodisa, rivojlanib boruvchi qadriyatdir. Tilning yozuv shakli, fonetika, morfologiyasi, sintaksisi, stilistikasi, leksikasi – bor lisoniy qamrovi bilan madaniy hodisadir. O‘tmishdagi ilk arab xalqalari epos va rivoyatlari yozma emas, og‘zaki ko‘rinishda ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelgan. Arab qabila va urug‘lari lahja va shevalarining farqli shakllanishida mahalliy va mintaqaviy hayot tarzi, badaviy ko‘chma yoki madaniy o‘troq hayot kechirish bosh omil hisoblanadi. Shu tariqa arablarga xos etnik va madaniy – lug‘aviy faqlanishlarning ildizlari yuzaga keldi.

---

[41] https://ar.m.wikipedia.org/wiki/%D8%A7%D9%84%D9%84%D8%BA%D8%A9_%D8%A7%D9%84%D8%B9%D8%B1%D8%A8%D9%8A%D8%A9

[42] https://ar.m.wikipedia.org/wiki/%D8%A7%D9%84%D9%84%D8%BA%D8%A9_%D8%A7%D9%84%D8%AA%D8%B1%D9%83%D9%8A%D8%A9_%D8%A7%D9%84%D9%82%D8%AF%D9%8A%D9%85%D8%A9

[43] http://elib.buxdu.uz/i

Bu davr taxminan eramizdan avvalgi ikkinchi ming yilliklar boshi va eramizning V-VI asrlarini qamrab olgan. Bu borada arab tili leksikasi rang-barang va go‘zal darajada boyidi.[44]

Arab tilshunosligi rivojida kata hissa qo‘shgan yirik tilshunos olim - Ibn Malik Al-Andalusi - uning to‘liq ismi Abu Abdulloh Jamoluddin Muhammad ibn Abdulloh Ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Abdulloh ibn Malik at-Tayi Al-Jayaniy. Bibliografik manbalarda Ibn Molik qisqartma shakli ham uchraydi.[45]

Ko‘pgina bibliograflar ta'kidlaganidek, Ibn Malik h.600/m.1203 yilda Andalusiyada Al-Jayan mavzeda dunyoga kelgan. U hijriy yettinchi asrda buyuk tilshunos va nahv-sintaksis a’lambardori bo’lib yetishgan. Andalusiyada Ibn Molik ustozi Abu Ali ash-Shalubiyn kabi qator Andalusiyalik olimlardan ta’lim oldi.

Andalusiyada ichki ig‘vo va tashqi ta’sir – salibshilar xuruji ta’sirida yuzaga kelgan tartibsizliklar sababli ham ona yurtni tark etib, Marokashga ko‘chib o‘tdi. Bir muddat olimlardan saboq olgach, Shom o’lkasiga ko’chib o’tdi va Halabda qo’nim topdi. Tilshunos olimlar Ibn Al-Hojib va Ibn Al-Ya’iyshdan tahsil olgan. Til grammatikasi bilan bir qatorda arab she’riyatini puxta o’zlashtirdi, qator nazmiy asarlar ijod qildi. Olimning ilmiy asarlari orasidan o’tmishda va hozirda ko’pchilikning diqqatini tortib kelgani - arab tili grammatikasiga bag’ishlangan ming baytlik “Alfiya” manzumasidir.[46]

Damashqda olim zamona allomalari Abu Sodiq Al-Hasan As-Sabah, Abul-Hasan As-Saxaviy qatori yirik olimlarning ilmiy suhbatlaridan bahramand bo‘lishda davom etdi.

Ibn Molik arab tili va grammatikasi bo‘icha taniqli bilimdoni, morfologiya, sintaksis, leksikasi va arab she'riyati nuktalarini puxta egallagan tilshunos olim bo‘lib etishdi.

Olim Halabda Sulton madrasasiga rahbarlik qila boshladi. Ilm dargohida grammatikadan ham ma’ruzalar o‘qishda davom etdi, bir nechta durdona asarlar yozdi. Shu tariqa uch ming baytdan iborat "Al-kafiy ash-shafi" grammatik asar dunyo yuzini ko‘rdi.

---

[44] J.Sulaymonov, N.Karimov. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.

[45] J.M.Abdupattaxov. ““Alfiya”ga oid sharhlarda tilshunoslik masalalari”. “XXI acp: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №3, 2021 yil. ISSN: 2181-9874 SJIF 2021: 6.23 www.sharqjurnali.uz

[46] J.M.Abdupattaxov. ““Alfiya”ga oid sharhlarda tilshunoslik masalalari”. “XXI acp: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №3, 2021 yil. ISSN: 2181-9874 SJIF 2021: 6.23 www.sharqjurnali.uz

Bir ming ikki baytdan iborat ixchamlashtrilgan variant o‘laroq islom ojamida mashhur "Alfiya" grammatik asari ijodidan joy oldi. "Alfiya" arab tili grammatikasiga oid bitilgan asarning eng batafsil va ravon tilda yozilgan asarlarning biri hisoblanadi.

Damashqda Ibn Molik katta Damashq madrasasida dars berib, Imom tomonidan tayinlangan Umaviylar masjidida ham dars saboqlarini berib borgan. Ibn Molik Qur'on qiroatlari bilimdoni hisoblandi. Grammatika va arab tili masalalarida Ibn Molikning to‘lagan masal va matallari soha mutaxassislari qayta-qayta murojaat etidigan, asoslanadigan nufuzli manbaga aylanib ulgirgandi. Zamona olimlari uning g‘ayrioddiy xoirasiga tan berishar, grammatik qoidalarga isbotiga keltiradigan she’rlaridan to‘la hayratda manbalari ko‘pligidan lol qolishar edi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Ibn Malik al-Andalusiyning qadr-qimmati shu qadar yuksakki, olim arab tilshunosligi sohasida o‘z davrining darg‘asi, kamyob qomusuy bilimdoni qiyofasida asrlar osha xos va avomning zehnida muhrlanib qoldi.

Ibn Molik bir zum ilm olish va tahsil berishdan to‘xtamagan umri davomida ko‘plab taniqli shogirdlar etishtirdi. Bahouddin ibn an-Naxas, Imom An-Navaviy, Ash-Sham al-Ba’aliy, az-Zayn al-Maazzi shular jumlasidan.

Ibn Molik haqli ravishda Imom unvoni bilan ulug‘langan. Zero, zamona imomlari peshvosi hisoblangan Imom an-Navaviy uning taniqli shogirdlari qatoridan o‘rin olgan. “Alfiya” asarida olim birgina An-Navaviyga ishora qilib, shogirdiga lutf ko‘rsatgan: [47]

“Oliyjanob kishi bordir oramizda, o‘rnak bo‘lur bizga ko‘p ishda”.

Arab tilining shakllanish bosqichlari johiliyat va Islom davri she’riyati va rivoyatlarida arab maqollari va hikmatlariga salmoqli o‘rin berilgan. Mumtoz adabiyot matnlarinin anglah, chuqur tatqiq etishda arab tili grammatikasi, leksikologiyasining o‘rni beqiyos va ahamiyatli.

Ibn Molikning “Alfiya” grammatik asari tatqiq etilishi, lisoniy qonuniyatlari ochib borilishi tilshunoslar va soha tadqiqotchilari, talabalar tomonidan tilshunoslik masalalari yanada kengroq yoritilishida, arab filologiyasi yo‘nalishida tehsil olayotgan sharqshunos talabalar uchun darslik, o‘quv qo‘llanma, risola, ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlashda hamda O‘zbekiston Respublikasi

[47] https://dumsk.com/musulmanam/lichnosti-v-islame/6583-ibn-malik-al-andalusi.html

Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 16 apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4680-son Qarorida ko‘zda tutilgan sharqshunos olimlar va tadqiqotchilar oldiga qo‘yilgan aniq maqsadlarni amalga oshirish yo‘lida tashlanayotgan muhim qadamlarning biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salim Xalil Rizq (1943). Majallatul-kabiyra.
2. Abu Hilol al-Askariy.”Furuq al-lug‘aviya”
3. Hanna al-Fakhuriylar.
4. "Buyuk Islom Ensiklopediyasi". Turkiya, Istambul, 2010. (qayta nashr).
5. “Xalq so‘zi” gazetasi. 18.04.2020.
6. Sh.N.Po‘latov, Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020. 21-27 P.
7. J.Sulaymonov, N.Karimov Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.
8. J.B.Sulaymonov. Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar//Falsafa va huquq jurnali. 2019 yil 1-soni. 42-45 betlar.
9. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san’atiga qo‘shgan hissasi. // “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.
10. J.M.Abdupattaxov. ““Alfiya”ga oid sharhlarda tilshunoslik masalalari”. “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №3, 2021 yil. ISSN: 2181- 9874 SJIF 2021: 6.23

HINDIY TILIDAN O’ZBEK TILIGA MILLIY-MADANIY FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASI VA TAHLILI

Gulnoza NAZRULLAYEVA, *TDSHU o‘qituvchisi*

Tarjima jarayonida tarjimon ko‘plab amaliy qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday hollarda tarjimon muammoli holat yechimiga ijodiy yondashish talab qilinadi. Biroq mukammal adekvatlikka erishish uchun birgina iste’dod va mahorat bilan chegaralanishning o‘zi kifoya qilmaydi. Asliyatdagi mazmun-mohiyatni imkon qadar to‘g‘ri va ravon ifodalaydigan

tarjimani yaratish uchun tarjimon ham iste’dodli badiiy so‘z ustasi, ham iste’dodli tarjimashunos olim bo‘lishi kerak.

Hind madaniyatining o‘ziga xos milliy an’analari, urf-odatlari, liboslari, cholg‘u asboblari, shu bilan birga taqinchoqlari ham mavjud. Shunday buyum yoki narsa borki, u faqat hind madaniyatigagina xosdir. Shulardan biri **churi.** Churi hind ayollarining bilagini bezab turuvchi shoda-shoda taqinchoqdir. Churining turli xildagi turlari mavjud. Yosh qizlar va yosh juvonlar kiygan liboslariga moslab churilarni saralab oladilar. Qolaversa, hind jamiyatida turmush qurgan ayollar o‘zlariga alohida oro berib, turli-tuman taqinchoqlar bilan bezanib oladilar. Mana shu bezaklar ichida albatta churilar ham mavjud. Yana shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, eri vafot etgan hind ayoli hech qanday pardoz-andoz ham qilmaydi, taqinchoqlar ham taqmaydi. Hind madaniyatida eri vafot etgan ayolning taqinchoqlarini yechish marosimi ham bor. Shu boisdan ham hindlarda चूड़ियां तोड़ना ya’ni so‘zma-so‘z talqin qiladigan bo‘lsak, *churilarni sindirmoq*. Mazkur iboraning sharhi quyidagicha: पति के मर जाने पर स्त्री का अपनी चूड़ियां उतारना या तोड़ना – erining o‘limi tufayli ayol o‘z churilarini uloqtirdi yoki sindirdi.

गोविन्द की मृत्य हो जाने पर उसी स्त्री ने अपनी **चूड़ियां तोड़** लीं।[48]

So‘zma-so‘z tarjima: Govindning o‘lganiga uning ayoli o‘z churilarini sindirdi.

Tarjima: Govindning vafotidan so‘ng uning xotini aza ochdi[49].

Mazkur gapning tarjimasida hech qanday *churi* so‘zi mavjud emas. Biroq tarjimada asliyatdagi ma’no to‘liq yoritib berilgan. Boisi hind jamiyatida eri vafot etgan ayol aza ochsa pardoz-andozu, hatto sevimli taqinchoq va churilardan ham voz kechadi.

Jamiyatda ayrim erkaklar ham borki, ularning qiladigan ishi, aytadigan so‘zi umuman, fe’l-atvori ba’zida erish tuyulib, ayollarga xos hatti-harakatlarni eslatadi. Mana shunday vaziyatda hindlar yana *churi* bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklarni qo‘llaydilar. चूड़ियां

[48] प्रेमचंद. गृह-दाह. इलाहाबाद. 1968. 10. पृ.

[49] Премчанд. Бир келин ҳикояси // Хонадоннинг барбод бўлиши. (Амир Файзулла таржимаси) – Т.: Адабиёт ва санъат, 1973. – Б. 9.

पहनना ya’ni so‘zma-so‘z talqini *churi taqmoq*. Masalan: स्त्रियों का काम करना, स्त्री का वेश धारण करना।

जब तुम इतना भी नहीं कर सकते तो चूड़ियां पहन लो।[50]

So‘zma-so‘z tarjima: Sen shuni ham qilolmasang, unda churi taqib ol.

Tarjima: Bordiyu shuni ham qila olmasang, churi taqib ol[51].

Ushbu misoldagi iborani bir ishga qodir bo‘la olmay, *og‘zidagi oshini oldirib o‘tiradigan* ayrim jur’atsiz erkaklarga nisbatan qo‘llashadi.

यदि इत्तिफाक से सत्री के मस्तक का **सिंदूर धुल गया** तब तो उसके लिए संसार ही नष्ट हो गया।

Tarjima: Bordiyu kutilmaganda ayolning manglayidagi sindur yuvilsa, uning uchun dunyo tor bo‘lib ko‘rinadi.

Mazkur keltirilgan misolda hindularning milliy xos so‘zi सिंदूर – sindur ishtirokidagi frazeologizm aks etgan. Sindur – bu turmushga chiqqan hindu ayollarining manglayiga surtiladigan qizil upa. Hindu ayollari har tongda erining sog‘-omon yurishini niyat qilib, o‘z manglayiga sindur qo‘yadilar. Manglayiga sindur surish turmushga chiqqan har bir hindu ayoli amal qilishi zarur bo‘lgan vazifadir. Ushbu frazeologizmning mazmuni huddi shu xususida. सिंदूर धुल जाना frazeologizmi – tul, ya’ni beva bo‘lib qolish mazmunini ifodalaydi. Ushbu o‘rinda tarjima kalka usulida amalga oshirilgan.

Yegulik nomlari bilan bog‘liq frazeologizmlar

Dunyoda ko‘plab millat va elatlar borki, ularni bir-biridan farqlab turuvchi tashqi ko‘rinishi, tili, liboslari, cholg‘u asboblari, uy-ro‘zg‘or biyimlari, o‘lchov birliklari bilan bir qatorda taom nomlari ham mavjud. Tarjima jarayonida taom nomlarining ishtirok etishi tarjimon uchun yana bir yechimini topishi kerak bo‘lgan masala hisoblanadi. Ammo taom nomlarining frazeologizmlarda ifodalanishi esa tarjimonni ikki karra mashaqqat chekishiga undaydi.

Laddu – hindlarning yumaloq shakldagi mazali shirinligi hisoblanadi. Hindlar hayotida biron xursandchilik, shodiyona va

[50] प्रेमचंद. बड़े भाई साहब. इलाहाबाद. 1968. 73. पृ.

[51] Премчанд. Бир келин ҳикояси // Ўғиллари бор бева. (Амир Файзулла таржимаси) – Т.: Адабиёт ва санъат, 1973. – Б. 77.

marosimlarda sevimli yegulik sifatida dasturxonga tortiladi. Qolaversa, hindlar kundalik turmushda biron ko‘ngilga xush yoquvchi xushxabarni eshitganda yoki uzoq manzildan kelgan o‘z yaqinlarini qarshi olayotganlarida ham bir-birlarini laddu bilan siylashadi. Demak, *laddu* baxt, shodlik, quvonch va saodatning ramziy belgisidir.

विवाह का विचार आते ही उसके मन में लड्डू फूटने लगे। बेचारा तरह-तरह की कल्पनाएं करने लगा कि उसके घर में एक प्यारी-सी दुल्हन होगी, जो उसके लिए सुबह-शाम खाना बनाया करेगी।[52]

So‘zma-so‘z tarjima: Nikohning o‘yi keldiyu, uning qalbida laddu yorilishni boshladi. Bechora turli-tuman xayollar qila boshladi, uning uyida bir sevimli kelin bo‘lsa, uning uchun tunu kun taomlar tayyorlasa.

Tarjima: Uylanish fikri ko‘ngliga keldiyu, qalbida quvonch paydo bo‘ldi. U o‘z uyida bir sevimli yori bo‘lishini, ertayu kech lazzatli taomlar tayyorlab berishini xayol qila boshladi.

लड्डू फूटना iborasi milliylikni saqlagan holda tarjima qilinmagan. Asosiy e’tibor mazmunga qaratilgan. मन में लड्डू फूटने लगे jumlasi *qalbida quvonch paydo bo‘ldi* deb tarjima qilingan. Chunki kambag‘al asar qahramonining uylanish to‘g‘risidagi o‘y fikrlari unga oz bo‘lsa-da quvonch bag‘ishlab shodlik ulashadi.

Shodlik va quvonchdan ba’zida o‘zini bilmagan tarzda qo‘llarini yuqoriga ko‘tarib yuborgan holatda ushbu ibora qo‘llaniladi.

युद्ह में राजपूतों के **दोनों हाथों में लड्डू** रहते हैं। यदि शत्रुओं को मार भगाया, तो विजय श्री और यश की प्राप्ति हुई, और यदि वैरियों के हाथों मारे गए तो स्वर्ग मिला।[53]

So‘zma-so‘z tarjima: Urushda rajputlarning ikkala qo‘llarida laddu bor.

Tarjima: Rajputlar jangdagi g‘alabasidan shodlanishdi. Shatrularni quvib chiqarib, g‘alaba va buyuklikni qo‘lga kiritishdi.

Guvohi bo‘lganingizdek, tarjimada hech qanday *laddu* so‘zi yo‘q. **दोनों हाथों में लड्डू होना** iborasini so‘zma-so‘z tahlil qiladigan bo‘lsak, *ikki qo‘llarida laddu bo‘lmoq*. Ammo tarjimada ushbu

[52] जातक कथाएं. एक रूपये की करामात. नई दिल्ली. 2002. 34 पृ

[53] हरिवंश राय शर्मा. साहित्यिक मुहावरा-लोकोक्ति कोश. दिल्ली. 1981. 177 पृ.

iboraning mazmunigina aks etgan. Chunki o‘zbek kitobxoni uchun ikki qo‘lda laddularning bor yoki yoq bo‘lishi baxt yoki shodlik mazmunini ifodalamaydi. To‘g‘ri, tarjima qilish jarayonida iboraning hind milliy koloritini ifodalovchi hech bir jihat saqlanib qolingan emas, ammo mazmun va mohiyat e’tiborga olingan holda kompensatsiyadan foydalangan, xolos.

“Hindiycha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-hindiycha iboralar lug‘ati”[54]da *laddu* milliy realiyasi bilan लड्डू मिलना hamda मन के लड्डू फोड़ना iboralarini uchratishimiz mumkin. Unda लड्डू मिलना – foyda keltirmoq, मन के लड्डू फोड़ना – ich-ichidan quvonmoq, shodlanmoq deb keltirilgan. Demak, laddu bilan bog‘liq frazeologizmlar shodlik, quvonchni anglatib keladi.

घर में भूनी भांग नहीं, उसपर इतना घमंड।

Tarjima: Uyda yeyishga hech narsa yo‘q, shunga qaramay mag‘rur .

भूनी भांग नहीं - frazeologizmidagi भांग so‘zi ichimlik nomi bo‘lib, u Hindistonning o‘ziga xos ichimligi sanaladi. Bu ichimlik kayfni oshirib, mast qiladi. भांग past tabaqadan tortib to yuqori tabaqa vakillari ham iste’mol qiladigan va topilishi oson narsa. Shu boisdan ham, uyda hattoki भांग ichimligining bo‘lmasligi judda ham nochorlikni, kambag‘allikni bildiradi.

तुम्हारी व्यंग्यपूर्ण बातें सुनकर उसका **दिल कबाब हो गया**।

Tarjima: Istehzoli gaplaringni eshitaveib, uni ko‘ngli og‘ridi.

Hindlardagi कबाब o‘zbekcha kabobga juda o‘xshash. दिल कबाब होना frazeologizmida ko‘ngilni, qalbni huddi kabob singari qiyma-qiyma, ya’ni pora-pora bo‘lib ketishini aks ettiradi. Tarjimon ushbu gapni *ko‘ngli og‘ridi* deb o‘girgan. Boisi, doimo kimningdir mazaxli, istehzoli gaplarini eshitaverish odamning ko‘nglini birmuncha qayg‘uga solishi turgan gap.

Milliy xususiyatni o‘zida mujassamlashtirgan frazeologizmlarni doimo ekvivalent yoki muqobil variantini topishning imkoni yo‘q. Shu bois bunday hollarda tasviriy va kalka usullari qo‘l keladi. Tarjimon

[54] Xodjayeva N. Hindiycha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-hindiycha iboralar lug‘ati. T.: ToshDSHI, 2015. – B. 185.

kalka yoki tasviriy usuldan foydalanib, frazeologizmlarning ma’nosini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Usmanova Sh. Tarjimonlik faoliyatining lingvomadaniy aspektlari. – T.: ToshDSHI, 2014.
2. Xodjayeva N. Hindiycha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-hindiycha iboralar lug‘ati. T.: ToshDSHI, 2015.
3. Бархударов А.С., Бескровный В.М. Хинди-Русский словарь. – М., 1972.
4. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005.
5. Премчанд. Бир келин ҳикояси // Хонадоннинг барбод бўлиши. (Амир Файзулла таржимаси) – Т.: Адабиёт ва санъат, 1973.
6. प्रेमचंद. गृह-दाह. इलाहाबाद. 1968.
7. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1996.
8. जातक कथाएं. एक रूपये की करामात. नई दिल्ली. 2002.
9. हरिवंश राय शर्मा. साहित्यिक मुहावरा-लोकोक्ति कोश. दिल्ली. 1981.

IFODA USULIGA KO‘RA QIYOSLASH KONSTRUKSIYALARIDA LEKSIK VA SINTAKTIK GRADATSIYA

Adiba MAXAMADTOIROVA, *TDSHU o‘qituvchisi*

Ilmiy tadqiqot ishimiz leksik gradatsiyadan uzoq bo‘lsada, shu o‘rinda biroz ma’lumot berib o‘tamiz. Gradatsiya usulining ba’zi ko‘rinishlarida uni tashkil qiluvchi komponentlarning sintaktik jihati emas, balki leksik-semantik ahamiyati ortiqroq bo‘ladi. Shu sababli bu holatda shakllangan gradatsiya hodisasini leksik gradatsiya, deb atash maqsadga muvofiqdir.

Ifoda usuliga ko‘ra, gradatsiya usulini ikkiga ajratib o‘rganiladi: 1) Leksik gradatsiya; 2) Sintaktik gradatsiya.

Leksik gradatsiya hodisasi ularning o‘zaro sintajtik aloqasidan kelib chiqadigan natija emas, balki ularning har biri yakka-yakka holda ifodalanadigan ma’nolar o‘rtasidagi leksik-semantik munosabatlarning mavjudligini yuzaga chiqaradi. Leksik gradatsiyalarni ham o‘z ichida ikkiga bo‘lib o‘rganish mumkin. Ilmiy tadqiqot ishimiz sintaktik gradatsiya bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun va xitoy tili boshqa tillardan farqli o‘laroq iyerogliflardan tashkil topganligi sababli, ushbu ilmiy tadqiqot ishida sintaktik gradatsiya hodisasi, xitoy tilidagi qiyoslash

mazmunidagi grammatik konstruksiyalar asosida amalga oshirilishini tahlil qilib chiqamiz. Sintaktik gradatsiya koʻrinishida ifoda materiali sintaktik butunlikdan iborat boʻladi. Sintaktik gradatsiya usulini mazmuniy gradatsiya deb ham atash mumkin [3,123].

Shu ham ta’kidlab oʻtishimiz lozim-ki, ilmiy tadqiqot ishimizning obyekti qiyoslash mazmunidagi konstruksiyalar boʻlganligi sababli, biz ushbu sintaktik gradatsiya hodisasini, qiyoslash mazmunidagi grammatik konstruksiyalar orqali, ularning gapdagi oʻrni, sintaktik xususiyatlariga koʻra sintaktik tahlilga tortib koʻrib chiqamiz.

Qiyoslash mazmunidagi konstruksiyar oʻzining hilma xilligi bilan boshqa konstruksiyalardan ajralib turadi. Lekin ularning hammasi ham gradatsiya munosabatni ifodalovchi konstruksiyalar qatoriga kirmaydi. Chunki, yuqorida keltirib oʻtilgan bir qator gradatsiyaga keltirilgan ta’riflar, olimlarning yondoshuviga koʻra, gradatsiya lisoniy birliklarning ifodada ma’noni, ahamiyatlilikni yoki his-tuygʻu toʻlqinini “bosqichma-bosqich kuchaytirib yoki pasaytirib borishni ta’minlovchi tartibda joylashuvi” usulidir [1,89]. Bunga koʻra soʻzlovchi berayotgan bahonining darajama daraja oʻsib borishi yoki pasayib borishida leksik birliklarni joylashuvhi orqali yuzaga chiqadi. Darajalash ma’lum bir uslubiy maqsadda muayyan bir muallif tomonidan yuzaga tadrijiy ketma-ketlikka ega boʻlgan kuchayish va pasayish usulidi boʻgani uchun ham, qiyoslash mazmunidagi konstruksiyalarning xammasi ham gradatsiya munosabatini ifodalamaydi. Faqatgina ifodalayotgan ma’nosi avvalgi holatiga nisbatan bosqichma-bosqich, tadrijiy yoʻl bilan oʻzgarib borishini ifodalaydigan konstruksiyalarni tanlab olib, ularni tahlil qilib chiqdik. Bular quyidagi konstruksiyalar:

1. [一 yì + hisob soʻz + 比 bǐ + son 一 yì + hisob soʻz]. Ushbu konstruksiyaning ham oʻz navbatida quyidagi turlari mavjud:

- 一年比一年 yìnián bǐ yìnián yildan yilga;
- 一天比一天 yìtiān bǐ yìtiān kundan kunga;
- 一次比一次 har safar, borgan sari.

2. [Ega+ 越 来 越 yuèláiyuè+kesim (sifat yoki fe’l)]. Ushbu konstruksiyaning koʻlam doirasi ham keng boʻlib, unga quyidagi shakllarini ha, kiritishimiz mumin:

- [Ega+kesim(越 yuè+fe’l+越 yuè+sifat)];
- [Ega+kesim(越 yuè+sifat+越 yuè+sifat)];
- [Ega+kesim(越 yuè+sifat+越 yuè+fe’l)];

- [Ega+kesim(越 yuè+fe’l+越 yuè+fe’l)];

- [Ega+kesim(越 yuè+sifat+有 yǒu +越 yuè+ot)].

3. [Ega+kesim(越发 yuèfā+X)] ushbu konstruksiyaning ifoda usuli va grammatik xususiyatiga ko‘ra quyidagicha ko‘rinishi ham mavjud:

- [Ega+kesim(越 yuè (是 shì) …越发 yuèfā…)] konstruksiyalari o‘rganib tahlilga tordi. Chunki faqat ushbu konstruksiyaalrgina gradatsiyaga berilgan tariflarga mos keladi. Ya’ni yuqorida ko‘rsatilgan konstruksiyalar asosida tuzilgan gaplarda ifoda ma’nosiga ko‘ra, darajaning asta sekin, bosqichma-bosqich tadrijiy yo‘l bilan ko‘tarilib yoki tushib borayotganligi ifodalanadi [5,128].

Birinchi konstruksiya: [一 yì + hisob so‘z + 比 bǐ + son 一 yì + hisob so‘z] orqali darajaning asta sekinlik bilan o‘zgarishi. Gap tuzilishida:

1. 一年比一年 yìnián bǐ yìnián yildan yilga;

2. 一天比一天 yìtiān bǐ yìtiān kundan kunga;

3.一次比一次 har safar, borgan sari degan ma’nolarni anglatadi.

Ushbu konstruksiyalardan foydalanganimizda, ular gapda hol vazifasida kelib, darajadagi farqni asta sekinlik bilan o‘zgarib borayotganini bildiradi. Masalan:

1.他身体一天比一天好了。

Tā shēntǐ yìtiān bǐ yìtiān hǎole .

Uning sogligi kundan kunga yaxshilanmoqda.

2．发行数量一年比一年增加。

Fāxíng shùliàng yìnián bǐ yìnián zēngjiā.

Tarqatish miqdori yildan yilga ko‘paymoqda.

Daraja asta sekinlik bilan o‘zgarib borayotgan gaplarda, 比 bǐ old ko‘makchisining oldi va orqasidan bir vaqtda 一 yì hisob so‘z (yoki hisob so‘z harakteridagi ot) ni qo‘yish orqali foydalanamiz. Uning qabul qilingan ko‘rinishi quyidagicha bo‘lib, “一 yì + hisob so‘z + 比 bǐ + son 一 yì + hisob so‘z” gapda to‘liqlo‘vchi vazifasida keladi [6]. Unga quyidagilarni misol qila olamiz:

1. 他的病*一天比一天*厉害。

Tā de bìng yītiān bǐ yītiān lìhài.

Uning kasali kundan kunga kuchayib bormoqda.

2. 我们的生活*一天比一天*好。

Wǒmen de shēnghuó yītiān bǐ yītiān hǎo.

Bizning xayotimiz kundan kunga yaxshilashib bormoqda.

3. 尽管老师的身体一天比一天差, 却依然坚持为我们上课。

Jǐnguǎn lǎoshī de shēntǐ yītiān bǐ yītiān chā, què yīrán jiānchí wèi wǒmen shàngkè.

Garchand ustozning sog‘liklari kundan kunga yomonlashib borsa ham, hali xam bizlar uchun sabot bilan dars o‘tmoqdalar.

Lekin bunday formani egadan oldin qo‘yish mumkin emas. Masalan:

1. 天气一天比一天凉快了。

Tiānqì yìtiān bǐ yìtiān liángkuài le.

×一天比一天天气凉快了。

Yìtiān bǐ yìtiān tiānqì liángkuài le.

Havo kundan kunga sovib bormoqda.

2. 人民的生活一年比一年丰富.

Rénmín de shēnghuó yìnián bǐ yìnián fēngfù.

×一年比一年人民的生活丰富.

Yìnián bǐ yìnián rénmín de shēnghuó fēngfù.

Aholining hayoti yildan yilga boyib bormoqda.

3. 他的考试成绩一次比一次好。

Tāde kǎoshì chéngjì yícì bǐ yícì hǎo.

× 一次比一次他的考试成绩好。

Yícì bǐ yícì tāde kǎoshì chéngjì hǎo.

Uning imtixon natijalari har safar yaxshilanmoqda.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, bunday usul orqali biz natijadagi darajaning birdaniga emas, balki asta sekinlik bilan o‘zgarib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Bunda qiyoslanayotgan bir holat yoki vaziyat avvalgisiga nisbatan teng emas. Shu bilan birga ortiq yoki kamligi ham asta sekinlik bilan o‘zgarayotganini ifodalaydi.

Shuni ham ta’kidlab o‘tishimiz lozim-ki, xitoy tilida [一yì + hisob so‘z + 比bǐ + son 一yì + hisob so‘z] konstruksiyasi orqali gradatsiya hodisasining amalga oshishi boshqa konstruksiyalarga qaraganda boydir. Ya’ni, agarda konstruksiyada berilgan hisob so‘zni “kun 天 tiān” so‘zini qo‘yadigan bo‘lsak 一天比一天yìtiān bǐ yìtiān kundan kunga, “yil 年nián” so‘zini qo‘yadigan bo‘lsak 一年比一年yìnián bǐ yìnián yildan yilga, “martta 次” so‘zini qo‘yadigan bo‘lsak 一次比一次 har safar degan ma’noni anglatadi va biror bir voqea, hodisa darajasini

kundan-kunga, yildan-yilga, borgan sari o‘zgarib borayotganini bildiradi.

Ikkinchi konstruksiya: [Ega+ 越来越 yuèláiyuè+kesim (sifat yoki fe’l)]orqali darajaning asta sekinlik bilan o‘zgarishi. 越来越 yuèláiyuè shaxs yoki predmetning so‘nggi vaqtda to‘xtovsiz rivojlanishi va o‘zgarishlarini taqqoslab keladi. 越来越 yuèláiyuè o‘zbek tiliga borgan sari, tobora deb tarjima qilinib, biror holatning avvalgisiga nisbatan darajasini ko‘tarilgani yoki pasayganini ifodalaydi.Bunday gaplarning modeli quyidagicha ko‘rinishga ega: [Ega+越来越 yuèláiyuè+kesim (sifat yoki fe’l)]. Masalan:

1. 她越来越漂亮了。

Tā yuèláiyuè piàoliang le.

U borgan sari chiroyli bo‘lib bormoqda.

2. 他越来越想学中文了。

Tā yuèláiyuè xiǎng xué zhōngwén le.

U borgan sari xitoy tilini o‘rganishni hohlayapti.

Gaplarda 越来越 yuèláiyuè orqali qiyosni ifodalayotgan vaqtda,越来越 yuèláiyuè oddiy fe’llar oldidan qo‘llanilmaydi. Agarda fe’llar oldidan kelsa, quyidagicha ko‘rinishda bo‘lishi kerak [9,98]. Masalan:

风刮得越来越大了。

Fēng guādé yuèláiyuè dà le.

Shamol brogan sari kuchayib bormoqda.

越来越 yuèláiyuè ketidan keluvchi kesim o‘zgaruvchi tomonni ifodalashi kerak. Odatda sifat yoki ichki kechinmalarni ifodalovchi fe’l bilan to‘ldirilib keladi. Bunga yuqorida keltirilgan misoldagi 大 dàmisol bo‘la oladi.

越来越 yuèláiyuè so‘ngi vaqtlardagi darajaning o‘zgarishini ifodalash bilan birga, o‘zgarishning o‘zini ham ifodalab keladi, undan keyin yana daraja ravishlari 很 hen,非常 fēicháng, 比较 bǐjiào kabilarni qo‘llanilmaydi.

Shu bilan bir qatorda […越…越…] konstruksiya shaklida ham qo‘llaniladi. Buni batafsuli quyidagi konstruksiyalar va misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

Birinchi konstruksiya [Ega+kesim(越 yuè+fe’l+越 yuè+sifat)]. Masalan:

1.汉语越学越难了。

Hànyǔ yuè xué yuè nán le.

Xitoy tili o‘rgangan sari qiyinlashdi.

2. 雪越下越大了。

Xuě yuè xiàyuè dà le.

Qor yog‘gan sari kattalashdi.

Bu yerdagi misollardan ko‘rishimiz mumkin-ki, birinchi 越 yuè dan so‘ng fe’l. ikkinchi 越 yuè dan so‘ng sifat ishlatilgan va ushbu fe’lning sifatini borgan sari ko‘tarilib borayotgani ifodalanmoqda.

Ikkinchi konstruksiya [Ega+kesim(越 yuè+sifat+越 yuè+sifat)]. Masalan:

1. 苹果越大越甜。

Píngguǒ yuè dàyuè tián.

Olma kattalashgani sari shirinlashmoqda.

2. 挑战越大, 我越兴奋。

Tiǎozhàn yuè dà, wǒ yuè xīngfèn.

Qiyinchilik kattalashgani sari, tobora hayajonlanaman.

Ushbu misollarda sifatni borgan sari kuchaytirib qo‘llanilmoqda [10,99].

Uchinchi konstruksiya: [Ega+kesim(越 yuè+sifat+越 yuè+fe’l)]. Masalan:

1. 你越小气, 别人就越讨厌您。

Nǐ yuè xiǎo qì, biérén jiù yuè tǎoyàn nín.

Sen qanchalik qizg‘anchiq bo‘lsang, boshqa odamlarni shuncalik joniga tegasan.

2. 孩子越小越需要爱。

Háizi yuè xiǎo yuè xūyào ài.

Bolalar qanchalik kichkina bo‘lsa, shunchalik yaxshi ko‘riladi.

Yuqorida keltirilgan misolga ko‘ra, sifatning borgan sari fe’l orqali darajasi ko‘tarilishi keltirilmoqda.

To‘rtinchi konstruksiya: [Ega+kesim(越 yuè+fe’l+越 yuè+fe’l)]. Masalan:

1. 我越学中文, 越觉得中文很难。

Wǒ yuè xué zhōngwén, yuè juédé zhōngwén hěn nán.

Men xitoy tilini o‘rganganim sari, tobora qiyinlashib borayotganini his qilayapman.

2. 我越看, 越喜欢。

Wǒ yuè kàn, yuè xǐhuān.

Ko‘rganim sari, tobora yaxshi ko‘rib bormoqdaman.

Ushbu misollardan shu ko‘rinib turibdiki, bu yerda ikkita ish harakati bir biriga bog‘liq holda rivojlanib, ko‘tarilib bormoqda.

医生月老越有经验。

Yīshēng yuè lǎo yuè yǒu jīngyàn.

Doktor qanchalik qari bo‘lsa shunchalik tajribasi boy bo‘ladi.

Uchinchi konstruksiya: 越发 yuèfā orqali darajaning asta sekinlik bilan o‘zgarishi. 越发 yuèfā orqali qiyos ifodalanganda tobora, yanada degan ma’nolarni ifodalaydi va asosan hozirgi vaqt o‘tmish bilan qiyoslanadi. Ma’lum bir narsa, hodisaning avvalgiga nisbatan o‘zgarganini bildiradi. Masalan:

1. 这西门庆仔细端详那妇人, 比初见时越发标致[12,89]。

Zhè Xīmén Qìng zǐxì duānxiáng nà fù rén, bǐ chū jiàn shí yuèfā biāozhì.

Simen Ching diqqat bilan ayolga qaradi. U birinchi marta ko‘rganidan ham chiroyli edi.

Shu bilan birga 越发 yuèfā tobora, yanada degan ma’nolarni ifodalaydi va biror bir inson, narsa yoki hodisaning avvalgiga nisbatan o‘zarganini ifodalaydi. Shu bilan uning hozirga va avvalgi holati orasida qiyos amalga oshadi. Masalan:

1. 近两年来, 他越发显得瘦了。

Jìn liǎng niánlái, tā yuèfā xiǎndé shòule.

So‘ngi ikki yil ichida, u yanada ozib ketgandek ko‘rinadi.

2. 过了春节, 天气越发凉快了。

Guòle chūnjié, tiānqì yuèfā liángkuaile.

Bahor bayrami o‘tgandan so‘ng, havo xarorati yanada sovib ketdi.

越发 yuèfa qo‘llanilishi jihatidan “越”yoki “越是” bilan qo‘llanilib, “越…越…” konstruksiyasi kabi ma’noni ifodalaydi. [越(是)… 越发, 越…越…] ushbu shaklda, gapning birinchi qismida sodir bo‘gan holat tufayli, ikkinchi qismida u holatning yanada chuqurlashganini bildiradi. Masalan:

1.观众越多, 他们演得越发卖力气。

Guānzhòng yuè duō, tāmen yǎn dé yuèfā màilìqì.

Tomoshabinlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, ular shunchalik bor kuchi bilan ijro qilishadi.

2.越是性急, 越发容易出差错。

Yuè shì xìngjí, yuèfā róngyì chū chāi cuò.

Qanchalik shoshilsa, shunchalik xato qilish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.

Quyida yana bir necha misollar orqali 越发 yuèfa qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz:

1. 在小叔的努力下, 饭馆的生意蒸蒸日上，越发红火。

Zài xiǎo shū de nǔlì xià, fànguǎn de shēngyì zhēngzhēngrìshàng, yuè fà hónghuo.

Kichkina amakimning sa’y-harakatlari tufayli restoran biznesi tobora rivojlanib, gullab-yashnamoqda.

2. 她穿上这条裙子, 越发楚楚动人了。

Tā chuān shàng zhè tiáo qúnzi, yuèfā chǔchǔ dòngrénle.

U bu yubkani kiyib, yanada maftunkor bo‘lib qoldi.

3. 听到这一振奋人心的消息, 同学们越发有干劲了。

Tīng dào zhè yī zhènfèn rénxīn de xiāoxī, tóngxuémen yuèfā yǒu gànjìngle.

Ushbu hayajonli yangilikni eshitib, talabalarda g‘ayrat yanada kuchayib ketdi.

4. 黑暗中, 桌上的明珠越发熠熠生辉。

Hēi’àn zhōng, zhuō shàng de míngzhū yuèfā yìyì shēng huī.

Qorong‘ulikda, stol ustidagi marvarida yanada ko‘proq porlaydi.

Yuqoridagi gaplarda 越发 yuèfa+sifat shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, birinchi gapda restoran daromadi avvalgiga nisbatan yanada rivojlanganligi, ikkinchi gapda qiz shu yubkani kiygandan so‘ng avvalgidanda go‘zallashganini, uchinchi gapda yangilikni eshitgada so‘ng talabalar avvalgiga nisbatan g‘ayratli bo‘lishganini, to‘rtinchi gapda marvaridning qorong‘uda yanada ko‘proq porlashi yorug‘dagiga nisbatan taqqoslanmoqda [11,78].

越发 yuèfā+X konstruksiyasini ayrim tilshunoslarning fikriga ko‘ra qiyoslash tizimiga kiruvchi konstruksiyalar qatoriga kiritmaydilar. Chunki, 越发 yuèfā ma’noni yanada chuqurlashtirishda qo‘llanadi. Lekin biz ushbu ilmiy tadqiqot ishimizda Zhāng Linjiéfikriga qo‘shilgan holda, uni qiyos tizimiga kiruvchi konstruksiyalarga kiritdik.

Bunda hozirgi natija avvalgisiga nisbatan chuqurroq bo‘lganligi, uni avvalgi holati bilan solishtirilayotgani uchun.

Shunday qilib, 越来越 yuè lái yuè, 越发 yuèfā, 一天比一天 yītiān bǐ yītiān darajaning asta sekinlik bilan o‘zgarib borishini ifodalovchi sinonim qiyos konstruksiya hisoblanadi. Ushbu konstruksiyalar ishtirokida yasalgan gaplarning tarjimasini, semantik kategoriyasi xususiyatlaridan kelib chiqib va undagi mavjud omillarni hisobga olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ular anglatayotgan ma’no gapning ichki va tashqi omillari bilan bevosita bog‘liq.

Xulosa. Maqola tahlili natijalari quyidagi xulosalarni keltirib chiqardi:

1. Gradatsiya hodisasini ikkiga: obyektiv gradatsiya va subyektiv gradatsiya ajratish mumkin. Agar gradatsiyaning tarkibiy qismlari o‘z ma’no va mazmunlari darajasidan kelib chiqsa obyektiv gradatsiya, tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi til birliklarining darajaviy tengsizligi, bu tengsizlik so‘zlovchining bu tushuncha yoki fikrlar o‘rtasidagi kokontekstual nisbiy tengsizlikning ifodalanishi subyektiv gradatsiya ekanligi va bunda ma’no yoki mazmun darajasini baholashning aniq bir o‘lchovi, mezoni bo‘lmasligi aniqlandi.

2. Gradatsiya hodisasini ifoda usuliga ko‘ra, uch guruhga: mantiqiy gradatsiya, miqdoriy gradatsiya, emotsional gradatsiyaga bo‘linadi. Ifoda usuliga ko‘ra: leksik gradatsiya va sintaktik gradatsiyaga bo‘lib o‘rganilishi keltirildi.

3. Darajaning asta sekinlik bilan o‘zgarib borishini ifodalovchi konstruksiyalar 一天比一天+X vaqt o‘lcho‘vida asta seki o‘zgarib turadigan doimiy nuqta, 越来越+X konstruksiyasi vaqt o‘lcho‘vida cho‘zilgan dioganal chiziq, 越发+X vaqt o‘lchovining ikki nuqtasi ekanligi, bunda ushbu konstruksiyalar orqali darajaning avvalgiga nisbatan ko‘tarilib yoki pasayishini ifodalashi aniqlandi.

4. 越来越, 一天比一天, konstruksiyalari bilan birga darslik va o‘quv adabiyotlariga kiritilmagan 越发 yuèfā konstruksiyasi tahlil qilindi va ularning bir biridan farqli, o‘xshash tomonlari va qo‘llash usullari ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga o‘zbekzabon talabalarning ushbu konstruksiyalarni qo‘llashda kelib chiqadigan bir qator muammolar tahlil qilindi.

5. […越发+X] konstruksiyasi tadqiqot davomida tahlilga tortilgan darsliklarda uchramaganligi, faqatgina grammatikaga oid asl

manbalarda keltirilganligi aniqlandi. […越发+X] konstruksiyasi orqali gradatsiya munosabatini ifodalash anchayin faolligi, ifoda usuliga ko‘ra, mantiqiy, miqdoriy, emotsional gradatsiylarda yaqqol ko‘zga tashlanishi, shu bilan birga gradatsiyaning klimaks va antiklimaks ko‘rinishlari ham […越发+X] konstruksiyasi orqali faol qo‘llanilishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamaziyayev O.X. (2004). O’zbek poetik nutqida xiazm va gradaysiya. Fil.fan.nom. … diss. – Farg’ona, – 161 b.
2. Shomaqsudov I., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. (1983). O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent.: O‘qituvchi, – 362 b.
3. Steube A. (1968). “Graddation der Grammatikalitat”. In “problem det strukturellen Grammatik und Semantik”. Leipzig.
4. Шенсдель Е.И. (1970). «Граддация грамматичности». Ан.языке в школе. №1. – Москва. Просвещение, – 378 с.
5. Квятовский А. (1992). Поэтический словарь. – М.: Сов.энц., – 578 с.
6. Драгунов А.А. (1992). Грамматическая система современного китайского языка. – Лененград. – 250 с.
7. Задоенко Т.К., Хуан Шуин. (1996). Основи китайского языка. – М.: Наука. – 245 с.
8. Карцевский С. (1976). Сравнение. Вопросы языкознания. №1. – Москва: Муравей. – 180 с.
9. 刘月化等著. (2001). 实用现代汉语语法. – 北京: 商务印书馆. – 840 页.
10. 李德津, 程美珍. (2008). 外国人实用汉语语. – 北京: 北京语言大学出版社. – 652 页.
11. 戴雪梅, 张若莹. (1999). 实用汉语语法三百点. – 北京: 新世界出版社出版. – 240 页.
12. 故播刘. (2003). 实用现代汉语语法. – 北京: 新世界出版社出版. – 455 页.

ERTAKLAR TAJIMASIDA LEKSIK-SEMANTIK TRANSFORMATSIYANING O‘RNI

Muqaddasxon TAYLANOVA, *TDSHU tayanch doktoranti*

Ertak uydurma va to‘qimaga asoslangan sarguzashtlarga boy badiiy epik asar hisoblanib, unda xalq turmushi, orzusi, madaniyati, tarixi, urf-odati, kelib chiqishi, makoni, tili, dunyoqarashi va kechinmalari bayon etiladi. Ertaklar o‘zining turiga qarab yaxshilikka

yetaklovchi, yovuzlikning mag‘lub bo‘lishi va mehnatkash insonning rohatda yashashi talqin etiladi. Har bir xalqning ertaklari mana shunday xususiyatni o‘z ichiga oladi. Shu sababli bo‘lsa kerak ularning tarjimalarida ham yuqoridagi sifatlar e’tiborga olingan holda tarjima qilinadi va ulardagi o‘xshashliklarning ham ko‘p uchrashini guvohi bo‘lish mumkin.

Sehrli ertaklarning tadqiqoti bo‘yicha V.A. Suxomlinskiy, L.N. Tolstoy, S.Frene kabi olimlar o‘zlarining fikrlarini bildirganlar. Masalan, Suxomlinskiy “Ertak- bolalar ruhiy holati, ularning ongi, hissiyoti, tasavvurini o‘z ichiga olgan faol estetik ijod” [4], deb fikr bildirgan.

Ertaklar tarjimasiga oid tadqiqotlar talaygina. Ularni o‘rganib boshqa tilga o‘girishda tarjimondan o‘zga xalq madaniyatidan yaxshi boxabar bo‘lish talab etiladi. Har qanday asar asliga yaqin qilib tarjima qilinishi bu tarjimonning yutug‘idir. Bunday tarjimani amalga oshirish uchun tarjimon tarjima qilish usullaridan yaxshi xabardor bo‘lishi darkor. Shulardan biri transformatsiyadir. Transformasiyaga tegishli ma’lumotlarning ham nazariy ham amaliy jihatlari tilshunos va tarjimonlar tomonidan o‘rganilgan. Lekin hozirgacha tarjimashunoslikda aniq tarjima transformatsiyalariga tegishli muayyan tasnif shakllanmagan.

Ertaklar tarjimasida e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan nazariy bilimlardan biri bu transformatsiya hiosblanadi.

Transformatsiya tilshunoslik sohasida:

O.S. Axmanova muharrirligi ostida tuzilgan lingvistik atamalar lug‘atida transformatsiyani:

1) asosiy modellarni ma’lum qonuniyatlarga asoslangan holda o‘zgartirib, ikkilamchi til strukturalarini yaratish usullaridan biri;

2) berilgan til sathidagi o‘xshash gap va frazalar morfo-sintaktik mosligining ramziy ifodalanishi[9], deb ta’rif bergan.

V.N. Yarseva tahriri ostida chiqqan tilshunoslik lug‘atida transformatsiyaga sodda sintaktik qurilmalarning murakkablashuvi, deb ta’rif berilgan [5].

A.D.Shveytserning ishlarida transformatsiya rus va ingliz tillaridagi materiallar asosida “tarjima jarayonida bir shakldagi iboralarni boshqa biriga almashtirish” [11] sifatida o‘rganilgan.

V.N.Komissarov ham o‘z tadqiqotlarida transformatsiyani ularning yordamida tillarda ekvivalentlik munosabatlarini o‘rnatish mumkin

bo‘lgan qator tub o‘zgarishlar tarzida ko‘rib chiqqan. Muallif tomonidan transformatsiyani alohida so‘zlar ma’nolarini aniqlaydigan soddalashtiruvchi o‘zgarishlar sifatida ham tahlil qilish taklifi berilgan. Bunday o‘zgarishlar tillarda so‘zlarni taqqoslash jarayonida differensial ma’nolar bilan bir qatorda umumiy ma’nolarni ham aniqlashga yordam beradi[7,157]. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, yuqorida ko‘rsatilgan ishlarda tarjima transformatsiyalari umumiste’moldagi leksikada aniqlangan.

N.K. Garbovskiy transformatsiyani ijobiy tomondan namoyon bo‘ladigan shakl o‘zgartiruvchi, qayta o‘zgartiruvchi, almashtiruvchi va tarjimani takomillashtirish orqali ma’lum so‘zlarga boshqacha ko‘rinish yoki tuzilish beruvchi usul deya ta’kidlaydi[5]. J.P. Vine, I.J. Darbelne, o‘z navbatida, transformatsiyaning o‘zlashtirma, kalkalash, so‘zma-so‘z tarjima, transpozitsiya, modulyatsiya, ekvivalentlik va adaptatsiya singari yettita turini aniqlaganlar[2,30-42].

Mualliflarning fikriga ko‘ra mazkur turlar leksik birlik, sintaktik tuzilish va xabar berish (abzas, matn) darajasidagi uch aspektda turlicha qo‘llaniladi. Shuningdek, tarjima turlari borasida ular bitta so‘z bir necha turdagi o‘zgarishlarga uchrashi mumkinligini ham aniqlaganlar. Y.I. Reskerning transformatsiyalarning guruhlantirishi ham o‘ziga xos. U transformatsiyalarni ikki guruhga bo‘ladi:

1) leksik transformatsiyalar (konkretlashtirish, umumlashtirish, antonim tarjima, kompensatsiya);

2) grammatik transformatsiyalar (gap bo‘laklarining almashinuvi va so‘z turkumlarining almashinuvi)[10,72-84].

L.K. Latishevning fikriga ko‘ra tillararo transformatsiyalar olti turga bo‘linadi:

1) leksik transformatsiyalar (leksemalarning sinonimik almashinuvi);

2) stilistik transformatsiyalar (tarjima qilinayotgan birlikning stilistik bo‘yog‘ini o‘zgaritirish);

3) morfologik transformatsiyalar (bir so‘z turkumining boshqasi bilan almashtirilishi);

4) sintaktik transformatsiyalar (gaplardagi sintaktik qurilish va aloqalarning almashtirilishi);

5) semantik transformatsiyalar;

6) aralash transformatsiyalar (antonim tarjima, transformatsiya, konversiya) [8,248].

Umuman olganda, tarjimada transformatsiya uchta turga bo‘linadi:

1. Olib tashlash – asl matndagi ba’zi so‘zlarni tarjima jarayonida olib tashlash. Hech qanday ma’no bermaydigan ortiqcha so‘zlar tarjimada berilmaydi, balki ularning ma’nosi tarjima qilinadi.

2. Qo‘shish – kitobxonga aniq va to‘liq yetkazib berish uchun izohlar yordamida tushuntiriladi.

3. Almashtirish – asl matnni tarjima qilishda ekvivalent so‘zlarni berish usuli. Matn tarjimasining bunday turi kontekstli almashtirish deyiladi. Bunda bir qator tarjima texnikalari qo‘llaniladi: umumlashtirish, konkretlashtirish, antonimik tarjima, kompensatsiya, yaxlit transformatsiya[4].

Sehrli ertaklarda syujet takrorlanadi. Ayniqsa, badiiy ifodalar ko‘p uchraydi: (mehribon ot, mayin maysalar, ko‘m-ko‘k osmon, daryo), ya’ni o‘xshatishlar, metaforalar, qiyoslashlar sehrli ertaklarning asosiy qismidir.[14]

Misol uchun, sehrli ertaklarda uchraydigan o‘xshatishlarning berilishi va tarjima qilish jarayonlarini tadqiq qilganda koreyscha o‘xshatishlar xuddi xitoy, yapon, vyetnam xalqlarinikiga o‘xshab ketadi. Negaki mamlakat madaniyati, an’analari, dunyoqarashi, hatto geografik joylashuvi deyarli o‘xshashdir.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning aynan transformatsiya usuli va qo‘llash jarayonlarini ko‘rish mumkin. Tarjima jarayonida leksik-semantik transformatsiyaning muammoli vaziyatlari ham uchraydi:

1. Tildagi so‘zlarning polisemantik ma’nolarini to‘g‘ri ochib berish;
2. So‘z tanlash
3. Realiyalar

Misol uchun koreys tili semantik xususiyatiga ko‘ra onomotopeik so‘zlar (의성어- isongo), va fenomim so‘zlarga (의태어-iteo) bo‘linadi. Onomatopoeik so‘zlar koreys tilida ma’lum ohangni bildirib, ko‘pincha unli tovushlarning ishtirokida tuziladi.[1,16] Fenomimlar esa harakat yoki holatni ifodalovchi so‘zlar orqali beriladi. Koreys ertaklarida bu xususiyatlar ko‘p uchrashini kuzatish mumkin. Demak, koreys tilida onomatopoeik va fenomim so‘zlar 5 guruhga bo‘linadi:

1. Inson tovushiga oid: so‘zlashuv, kulgu, yig‘i, yo‘tal va b.q.
2. Hayvonlar va qushlar tovushiga oid;
3. Inson harakatiga oid;

4. Turli narsa-buyumlar tovushiga oid (musiqa asboblar, mashina, mexanik buyumlar, asboblar va h.z.);

5. Shovqin va tabiat hodisalariga oid;

6. Onomatopoeik so‘zlar[12,144].

Tabiat tovushiga aloqador momoqaldiroq tovushi ishtirok etgan koreys ertagi “우르르 꽝, 지구가 뿔났다[13] (uriri kkvang, chiguga pulnatta) – gumbur, yer yuzi g‘azabga to‘ldi”. Bu yerda 우르르 꽝(uriri kkvang)-gumbur degan tovushni beradi.

“갈매기가 엉엉 울어요[13] (kalmekiga ongong uroyo)-dengiz qushi ho‘ng-ho‘ng yig‘layapti” nomli ertakda ham “엉엉(ongong)-ho‘ng-ho‘ng” inson tovushiga oid taqlid so‘z sifatida keladi.

“꼬끼오, 음메에에![13] (ko‘kkio, immee)-quqaraququ, mo‘o‘ ”. Bu ertakning nomidan xo‘roz va sigirning tovushiga taqlidni ko‘rish mumkin.

Fenomim so‘zlar orasida tabiatga oid: Yorug‘lik (yulduz) 반짝반짝[banjjagbanjjag] ya’ni “milt-milt”, quyosh yorug‘ligi esa 쨍쨍[jjaengjjaeng], o‘zbek tiliga muqobil variant sifatida “yalt-yalt”, qorong‘ulik 깜깜[kkamkkam] so‘zi “zim-ziyo”(zimiston) tarzida berish mumkin. Hissiyotga oid: Hayajonlanish (yurak urishi) 두근두근[dugeundugeun] o‘zbek tiliga “duk-duk”, dard chekish 따흐흑, 또르륵[ttaheukttaheuk] tarjimada “oh”, deb qo‘llasa ham bo‘ladi, ammo inson harakatiga doir so‘zlarning o‘zbek tiliga tarjimasini har doim berish mushkul:

Shoshilib harakat qilish 부랴부랴 [buryaburya], sekin harakat qilish 비틀비틀 [biteulbiteul], juda tez harakat 슬쩍슬쩍[seuljjeogsseuljjeog], sekin yurish 엉금엉금[eonggeumeonggeum]. Shu bilan birga koreys ertaklarida qahramon holati va narsa-buyumlarning tasviri ham ko ‘p uchraydi. Lekin uni o‘zbek tiliga taqlid so‘z sifatida muqobillari mavjud emas. Misol uchun, dangasa bo‘lish 빈둥빈둥[bindungbindung], sog‘lom bo‘lish, mast holatda bo‘lish 곤드레만드레[gondeuremandeure], og‘riq 지끈지끈[jjikeunjikkeun]. Predmetlar holatidan kelib chiqib esa

qattiq 빡빡[ppagppag], 탱탱[taengtaeng], yumshoq 나슬나슬[naseulnaseul], silliq 미끈미끈[mikkeunmikkeun].

Yuqoridagi misollardan xulosa qilganda, “xorijiy” ishoralar tili ba’zan kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, ertaklar tarjimasi to‘g‘risida turli-xil tadqiqotlar va fikrlarni guvohi bo‘lish mumkin. Ertaklar tarjimasining muammolari turlicha. Ertaklarni tarjima qilishda tarjima nazariyasiga e’tibor berish lozim. Shuningdek, barcha tarjima usullaridan foydalanish ertak mazmunini to‘liqroq ochib beradi. Ayniqsa, tarjimon tarjima transformatsiyalari, interpretatsiya, qayta ifodalash jarayonlarini qo‘llash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G. Park, “Izobrazitelniye slova v koreiskom yazyke”, Figurative words in Korean language, synopsis of PhD, M., 16 p., 1962.
2. Vinay J., Darbalnet J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. –Amsterdam and Philadelphia: PA: John Benjamins, 1995. – P. 30-42.
3. Бархударов Л. С. Язык и перевод. Вопросыобщей и частной теории перевода. — М.: «Международные отношения», 1975. — С.240.
4. Сухомлинский А. И. Избранные педагогические сочинения. М. 1979
5. В.Н. Ярцева. Лингвистический энциклопедический словарь. Большая Российская Энциклопедия. 1990
6. Гарбовский Н.К. Теория перевода. –М.:Юрайт, 2017.–С. 225.
7. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). –М.: Высшая школа, 1990. – С. 147-157.
8. Латышев Л.К. Курс перевода: Эквивалентность перевода и способы ее достижения. – М.: Международные отношения, 1981 – 248с
9. О. С. Ахманова словарь лингвистических терминов. Издательство «Советская энциклопедия» М. 1966 (http://www.classes.ru.)
10. Рецкер Я.И. Что же такое лексические трансформации? "Тетради переводчика" №17, М.: Международные отношения, 1980, с.72-84
11. Швейцер А.Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. –М.: Наука, 1988. – С. 118.
12. 한국어교육연구소 ‘한국어 의성어 의태어’, 동양북스, 144 쪽, 2014.
13. http://www.kyobobook.co.kr/product/detailViewKor.laf?ejkGb=KOR&mallGb=KOR&barcode=9788991542655
14. icey.net/free/12-analiz_proizvedenii_literatury_do_20_veka_dlya_sochinenii/53-neissyakaemyi_istochnik_ustnoe_narodnoe_tvorchestvo/stages/2571-volshebnye_skazki.html

O‘ZBEK TILIDAGI ISTAK GAPLARNI XITOY TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Gulibanumu KEBAYTULI,
Xitoy Xalq Respublikasi Markaziy Millatlar Universiteti o‘qituvchisi

Har bir tilda istakni ifodalovchi maxsus birliklar mavjud. O‘zbek tilida ham istakni ifodalovchi maxsus vositalar mavjud. Bunday vositalar, asosan, leksik va grammatik vositalar bo‘lib, ular istak gaplarning sintaktik jihatdan shakllanishida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilida istak ma’nosi asosiy hollarda grammatik vositalar yordamida hosil qilinadi. Bu vositalar gapning kesimi tarkibida kelib, uni istak gapga aylantiradi. Xitoy tilida esa ko‘pincha leksik vositalarda istak gaplarini tashkil qiladi. Shu sabali o‘zbek tilidagi istak gaplarni xitoy tiliga tarjima qilganda shu tildagi istak gaplarninig tuzilish vositalarini o‘rganib olish kerak.

O‘zbek tilida istakni ifodalashda leksik vositalar sifatida *istamoq, xohlamoq, tusamoq* fe’l leksemalari eng ko‘p qo‘llaniladi. D.Ko‘lboeva [Ist.KSh] qolipida istakni ifodalovchi birliklar vazifasida ko‘pincha *istamoq, xohlamoq, umid qilmoq, tusamoq, qo‘msamoq* kabi leksik birliklar kelishini qayd etadi. Bu vositalarga qo‘shimcha tarzda nutqda *istak, xohish, ishtiyoq* kabi ot leksemalari ham gapda kesim vazifasida kelganda bevosita sub’ektning istak-xohishini ifodalashga xizmat qiladi. Bu turdagi istak gaplarni xitoy tiliga tarjima qilishda ularning farqini tushunib o‘z ma’nosini ko‘rsatishga xarakat qilish kerak. Masalan:

O‘qishga kirish uning istagi (xohishi) edi.

[tarjimasi]上学是他的愿望（期望）。

U o‘qishga kirishni istardi.

[tarjimasi]他一直期待上学。

U o‘qishga kirishni xohlardi.

[tarjimasi]他一直想上学。

U o‘qishga kirish ishtiyoqida edi.

[tarjimasi]他一直沉浸在对上学的期冀中。

Ushbu gaplar mazmunan bir-biriga muvofiq bo‘lib, ularni nutqda o‘zaro erkin almashtirib qo‘llash mumkin bo‘lsa ham, o‘zaro farqli jihatlari mavjud. Bu yerda fe’l leksemalarining tarjimasini quyidagicha tavsiya etamiz: *istamoq 期待, xohlamoq 想, umid qilmoq 希望, tusamoq 渴望, qo‘msamoq 想要.* Ot leksemalarining [Ist.KSh] tarjimasi esa: *istak 愿望, xohish 期望, ishtiyoq 期冀.*

O‘zbek tilida istakni ifodalovchi grammatik vositalar, asosan, fe’lning muayyan grammatik shakllaridan tashkil topadi. Fe’llarning *-sa, -sin, -ganda edi, -ganda ekan, -moqchi, -moqchi edi, -moqchi ekan* grammatik shakllari [Ist.KSh] sintaktik qolipida kesim vazifasida qo‘llangan fe’l tarkibida kelib, istak ma’nosini hosil qiladi. Bundan tashqari, istak gaplar tarkibida qo‘llaniluvchi *qani, qani edi (qaniydi), qani endi, koshki edi (koshkiydi), koshki endi, shoyad, zora* kabi modal munosabatni anglatuvchi birliklar istak mazmunini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Istak gaplardagi shu modal ma’no ifodalovchi birliklarning xitoy tilida to‘g‘ri tarjima qila olish yoki olmasligi xitoy kitobxonlarning o‘zbek tilidagi asli ma’nosini tushuna olish yoki olmasligiga sabab bo‘ladi.

So‘zlashuv nutqida qani *(qani endi, qani edi // qaniydi), koshki (koshki edi // koshkiydi, koshki ekan), zora, shoyad (shoyadki)* kabi modal ma’no ifodalovchi birliklarning istakni ifodalashda qo‘llanilishi faol. Bunday birliklar gap tarkibida ikki xil vazifa bajaradi: 1) istak mazmunini kuchaytiradi; 2) istak gapni hosil qiladi. Bu maqolada *qani* so‘zidan foydalangan istak gaplarning xitoy tilidagi tarjimasiga alohida e’tibor qaratmoqchimiz.

Qani birliklari gapda ifodalangan istakni kuchaytirishga xizmat qiladi va shu bilan birga, *qani* birligi *-sa* affiksli fe’l-kesimdan anglashilgan istakni yanada kuchaytiradi. E*di, endi, ekan* birliklari bilan birikib kelganda sub’yektiv munosabat yanada kuchayadi. Quyidagi misollarga e’tibor qaratamiz:

Qani endi Toshkentda ko‘cha chetida shovullab oqib turgan jo‘mrakka shundoq labingni bossangda, to‘yguncha, yorilib ketguncha ichsang! (O‘.Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar”)

[tarjimasi] 真想用嘴对着塔什干街边哗哗流着水的龙头，喝到饱，喝到撑。

Asli gapda *xohlamoq* kabi fe’l mavjud emas, lekin xitoy tiliga tarjima qilganda 想 fe’lini ishlatmasak, xohish-istak ma’nosini yo‘qotib

qo‘yamiz. Shu sababli bu turdagi istak gapni tarjima qilganda “so‘z qo‘shish” usulini inshlatishga to‘g‘ri keladi. Keyin *qani endi* birikmasini xitoy tilitagi ravish so‘zi 真 ga tarjima qilganda istakning kuchayganligini ifoda qiladi.

Qani edi burgut bo‘la olsak... (T.Malik. “Murdalar gapirmaydilar”)

[tarjimasi] 多么希望我们变成老鹰.....

Ushbu gapni tarjima qilganda ham aytib o‘tganimizday “so‘z qo‘shish” uslubi bilan, yani 希望 fe’lini qo‘shgan, *qani endi* birligini esa 多么 tarzida tarjima qilamiz. U holda *qani endi* birligini qaysi vaziyatlarda 真, qaysi vaziyatlarda 多么 deb tarjima qilsak bo‘ladi?

Ju Chen, Yuan Yulin xitoy tilidagi istak gaplarda ravish so‘zlarni ishlatishdagi farqlariga ko‘ra til testidan quiydagi natija ko‘rildi:

表 1 愿望实现可能性的调查结果 1 表[1]

1-jadval. Istakning amalga oshish imkoniyati haqidagi test natijasi

时间指向 Yo‘naltirilgan zamon	测试句 Test uchun jumla	实现可能性均分 Amalga oshish imkoniyati o‘rtacha ball
指向过去 O‘tgan zamonga	希望我当时没看错。 Shu paytda hatolashmagan bo‘lsam edi	4.62
	真希望我当时没看错。 Qani endi shu paytda hatolashmagan bo‘lsam.	2.63
指向当前 Ayni paytga	我希望我是第一个穿上这件衣服的人。 Men birinchi bo‘lib bu kiyimni kiysam.	4.29
	我多么希望我是第一个穿上这件衣服的人。 Qani endi men birinchi bo‘lib bu kiyimni kiysam.	2.53

Shundan anglash mumkinki, 真 ko‘pincha o‘tkan voqelikka ishlatiladi. 多么 esa ayni paytdagi hayol orzuni ifodalagan gapda ko‘p

ishlatiladi. Bundan tashqari, bu ravish so‘zlarni ishlatgan garlarda 1) so‘zlovchining o‘tgan zamonda bo‘lib o‘tgan, real holatda orqaga qaytmaydigan voqelik bo‘yicha xayoliy istagi aks etadi. 2) so‘zlovchining xayoliy orzusi aks etadi. Shu bilan birga 真、多么 kabi ravish so‘zlarini ishlatganda so‘zlovchining istagi amalga oshish imkoniyati past bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi istak gaplarni xitoy tiliga tarjima qilishda quyidagi masalalarga e’tibor berish kerak:

1. O‘zbek tilida istakni ifodalashda leksik vositalar sifatida *istamoq, xohlamoq, tusamoq* kabi fe’l leksemalari eng ko‘p qo‘llaniladi, ularning 期待、希望、想要 kabi tegishli tarjimasini berish kerak. Ot leksemalari *istak, xohish, ishtiyoq* kabilarni esa 愿望、期望、期冀 tarzida tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

1. O‘zbek tilida *istamoq, xohlamoq, tusamoq* kabi fe’l leksemalari qo‘llanmagan, gapning kesimi -*sa* affiksli fe’llardan tashkil topgan istak gaplarni xitoy tiliga tarjima qilishda “so‘z qo‘shish” usuli bilan, ya’ni 希望、想 kabi fe’llarni tarjimaga kiritish lozim.

2. So‘zlashuv nutqida *qani (qani endi, qani edi // qaniydi),* kabi modal ma’no ifodalovchi birliklarning istakni ifodalashda qo‘llanilishi faol, xitoy tiliga 真、多么 kabi ravish so‘zlari bilan tarjima qilish mumkin. Lekin 真 va 多么 ning ishilatish vaziyatini farqlash zarur bo‘lib, shunda xitoy tilining pragmatik xususiyatiga muvofiq holda tarjima ifodasiga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 鞠晨,袁毓林. 愿望句的事实性及其时间条件[J]. 华文教学与研究,2020,(03):70-79+95.

2. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5.

3. Агашина Н.А. Ирреальная модальность в современном русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ставрополь, 2003.

BADIIY ASARDA NUTQ ODOBI VA UNING ARAB TILIGA TARJIMASI XUSUSIDA

Mahmudaxon SAYDUMAROVA,
Amir Sulton Universiteti (Saudiya Arabistoni), Adabiyot va ijtimoiy fanlar fakulteti o‘qituvchisi,
ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi

Badiiy asarni mutolaa qilish muayyan xalq madaniyati, urf-odatlari va an’analarini o‘rganishga, ular bilan tanishishga imkoniyat yaratadi. O‘zbek adabiyotidan arab tiliga qilingan tarjimalar ham arab o‘quvchisida xalqimizning tarixi, madaniyati, jamiyatimizdagi munosabatlar haqida tasavvur hosil qilishga ko‘maklashadi.

O‘zbek adabiyotidan arab tiliga qilingan tarjimalar qatorida Sadriddin Ayniyning o‘tgan asrning 60-yillari boshida Bayrutda arab tilida nashr etilgan “Buxoro” asarini eslab o‘tishimiz mumkin. Muallifning uzoq va mashaqqatli hayotini o‘z ichiga olgan bu kitob o‘sha davrdagi hayotni, voqelikni haqqoniy va batafsil tasvirlab bergani uchun ham arab o‘quvchilarining diqqatiga sazovor bo‘lgan. Arab adiblarining yurtimiz tarixi va madaniyatiga bo‘lgan katta qiziqishi sifatida Jurjiy Zaydonning “Farg‘ona kelini“, Amin Ma’lufning “Samarqand” kabi asarlari qatorida hozirgi zamon saudiya adiblari Raja Olimning “Ipak yo‘li” (“Tariq al-harir”) Samarqand, Buxoro va Movarounnahrning boshqa shaharlari, Muhammad Alavonning “Kichik o‘lim” (“Mavtun sag‘iyr”) asarida Samarqanddagi hayot, u yerdagi ijtimoiy munosabatlar tasvirlanishini aytib o‘tish joizdir.

Biz bu maqolada o‘zbek tilidagi nutqiy etiket birliklarini hozirgi zamon o‘zbek hikoyalarida qo‘llanilishi va ularning arab tiliga qilingan tarjimalari haqida so‘z yuritar ekanmiz, tadqiqotimiz uchun manba’ sifatida arab tilida 2017 yili ar-Riyodda nashr etilgan “Hozirgi zamon o‘zbek adabiyotida hikoya janri. Adabiy tanqidiy tadqiqot va tanlangan hikoyalar” [1] va 2009 yili Kuvaytda nashr etilgan “Tanlangan o‘zbek hikoyalari” [2] hamda bu to‘plamdagi tarjimalarning asliyatdagi matnlari olingan “O‘zbek hikoyalari antologiyasi” [3] va boshqa asarlarni [4, 5] tanladik va maqolaning nazariy qismini tayyorlashda Ahmad Atavna [6], Abdulla Samara [7] va Hakimov M. [8] kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlar ishlariga asoslanganimizni aytib o‘tmoqchimiz.

Tohir Malikning “Ajab dunyo” hikoyasida kolxoz raisi va Ikkinchi Jahon Urushidan bir oyog‘ini yo‘qotib qaytgan va qishloqda cho‘ponlik

qilayotgan Yigitali o‘rtasida suhbatda qo‘llanilgan ba’zi iboralar haqida to‘xtalamiz. Kolxoz raisi hech kimni mensimaydi, adolatsizlik qiladi va kolxoz a’zolariga rahm-shafqat qilmaydi. Kattalarni ham hurmat qilmaydi, yoshi ulug‘larni ham sensiraydi.

Rais va Yigitali o‘rtasidagi bo‘lib o‘tgan quyidagi suhbat epizodini ko‘rib chiqamiz:

“ – Rais bo‘lging kelib qoldimi?

- Shu xayol uyqungni buzibdi-da? Chakki bezovta bo‘libsan. Raisliging o‘zingga buyursin. Men tuya emasmanki hammomni orzu qilsam. Oshi halol bilan tirikchiligim o‘tib tursa bas. Bunaqa gaplar bilan o‘zingni ham qiynama, mening ham qatig‘imni achitma. Bor bola, yo‘lingdan qolma.

Yigitali atayin “bola” dedi. Rais undan to‘rt-besh yosh kichik bo‘lsa ham gerdayib, sensirardi. Yigitaliga bu malol kelsa-da, aytishga mulohaza qilardi. Hozir o‘rni kelganida yoshini pesh qilib qo‘ydi. Bundan o‘zi huzur qildi”. [3, 192-193]

Badiiy matnning ushbu parchasi arab tiliga quyidagicha tarjima qilingan:

" – يا أنت! أأنت الذي يريد أن يكون رئيساً؟

- هل هذه الفكرة أفسدت عليك نومك؟ إن قلقك لا أساس له! ابق في وظيفتك؟! ولست جائعا كي أحلم بسوق الخبز! يكفيني أن أعيش بلقمة حلال، فلا تتعب نفسك بهذا الكلام، ولا تعكّر مزاجي! اذهب، يا ولد، ولا تتلفت في طريقك!

قال له (ييغيت علي) "يا ولد" عن عمد، لأن الرئيس لم يحترمه عندما خاطبه بعبارة "يا أنت!" رغم أنه يكبره بأربع أو خمسة سنوات، وقد أزعج هذا التصرف (ييغيت علي)، ولكنه سكت من باب الأدب، أما الآن عندما حان وقته، فقد ذكّره أنه أكبر منه سنًّا، وانبسط بعد أن قال له هذا الكلام." [1,165]

Mana shu qisqa epizodda badiiy tarjimadagi muqobillikka qanday erishish misolini ko‘rib chiqsak. Ushbu matnda “Rais undan to‘rt-besh yosh kichik bo‘lsa ham gerdayib, sensirardi” degan jumlani tarjima qilishda arab tilida va arab madaniyatida so‘zlovchi ikkinchi shaxsga murojaat qilganida yoshidan, ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar “sen” so‘zini qo‘llashini, u nafaqat o‘zidan kattalarga, balki ota-onasiga ham “sen” deb murojaat qilishini e’tiborga olsak, ushbu jumlaning to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimasi yozuvchininng maqsadini, o‘zbekcha matndagi ma’noni to‘liq yetkazib bera olmaydi. Shuning uchun tarjimon bu yerda mazkur jumladan oldin “Ey sen” iborasini qo‘shib,

matn mohiyatini yetkazib berishga harakat qilgan. Badiiy matn mazmunidan kelib chiqqan holda, “Men tuya emasmanki, hammomni orzu qilsam” jumlasi arab tiliga “Men och emasmanki, non bozorini orzu qilsam” deb tarjima qilingan. Chunki arab o‘quvchisi zehniyati uchun “Tuya hammomni orzu qilibdi” jumlasi so‘zma-so‘z tarjima qilinganida mavhumroq bo‘lib qolardi. “Qatig‘imni achitma” iborasi esa (لا تعكر مزاجي) “kayfiyatimni loyqalatma” deb tarjima qilingan.

Ushbu badiiy asar matnida rais va cho‘pon o‘rtasidagi munozaraning davomida qo‘llanilgan yana bir o‘zbek tili va madaniyatiga xos frazeologizm misoli mavjud:

" – Rais, yo‘lingdan qolma, xuddi enangni Uchqo‘rg‘onning qayqisidan ko‘rsatib qo‘yaman...” [1, 193]

Albatta, Uchqo‘rg‘on qaerdaligidan va “Uchqo‘rg‘onning qayqisi” nima ekanligidan xabardor bo‘lishi dargumon bo‘lgan arab o‘quvchisi uchun ushbu jumla ham tushunarsiz bo‘lishi aniq. Tarjimada esa bu jumla quyidagicha berilgan:

"" – يا رئيس! اذهب في طريقك، وإلا فسأريك النجوم وسط النهار... " [1, 165]

- Ey rais, yo‘lingdan qolma, bo‘lmasa senga kuppa kunduzi yulduzlarni ko‘rsatib qo‘yaman”.

Hikoya bayon etish uslubidan kelib chiqqan holda matndagi quyidagi parcha tarjimasini ham ko‘raylik:

“ – Hammomni orzu qilmaydigan tuya tuyakashning ishiga aralashmasligi kerak”. [1, 193]

" – على الجائع الذي لا يحلم بسوق الحبز ألا يتدخل في شئون الخبّازين – [1, 165]

ya’ni,”non bozorini orzu qilmaydigan och kishi nonvoylar ishiga aralashmasligi kerak”, deb tarjima qilingan.

Sa’dulla Siyoevning “Bir oy mister bo‘lganim” hikoyasida amerikalik Charli Stefford ismli sayohning o‘zbek urf-odatlari, madaniyati va hayotiga qiziqishi haqida va maqola qahramoni tilidan so‘zlangan xususiyatlar hamda “mulozamat”, “mehmondo‘st”, “mehmonnavoz”, “sertakalluf”, “seriltifot” kabi so‘zlar arab tiliga muqobil ravishda yetkazib berilgan.

O‘zbek madaniyatidagi nutqiy etiket xususiyatlari xos “o‘rgulay”, “aylanay”, “girgittoning bo‘lay” kabi maqtov va alqash so‘zlari bilan bir qatorda “o‘lgur”, “qurib ketkur” kabi ba’zan salbiy, ba’zan qahramonning abjirligi va ustamonligina ishora qiluvchi iboralarni arab tiliga tarjima qilish tarjimon oldidagi murakkab vazifadir.

Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” hikoyasidagi ba’zi nutqiy etiket namunalari va uning tarjimasini ko‘rib chiqaylik.

“Usta Mahkamning kichik qizi Inobat mahmadanagina chiqqan. Kelin ayalari ham, opalari ham undan zirillab turishadi. Shundoq gaplarni topib gapiradiki, naq jon-joningdak o‘tib ketadi. Tili chiqqandan beri biron gapni javobsiz qoldirmagan. O‘ziga o‘xshagan shaddodgina ammasi uning peshanasiga mushtlab turib gapirardi:

- Sen o‘lgurga bo‘shroq qaynana uchrasa, ajalidan besh kun oldin o‘ldirasan, senga Hoji ona bas kelmasa, mundog‘rog‘i til tortmay o‘ladi”. [3,42-43]

"أصبحت البنت الصغرى لأستى مَحْكَم واسمها "إنابت" فتاة ثرثارة، وتخاف منها أخواتها وزوجات إخوتها، وهي تقول كلاما يؤثر في اي أحد، وهي منذ بدأت الكلام لا تترك أي شيء بلا رد، وكانت تقول لها عمتها الشديدة التي تشبهها وهي تؤكد:

- إن كانت حماتك إمرأة حليمة هادئة الطباع، عندما تتزوجين، ستقتلها قبل أجلها، وإن كانت الأم الحاجة لا تستطيع أن تتعامل معك، فإن أية امرأة أضعف منها ستموت منك حتماً". [1, 89]

Ko‘rib turganimizdan “sen o‘lgur” iborasi so‘zma-so‘z tarjima qilinmagan, lekin matn kontekstida asliyatdagi ma’no yetkazib berilgan.

Ushbu hikoya matnida “Ikkinchisi parishtalikkina, har ikki gapning birida “o‘zim o‘rgilay” deb turadi” [3, 43] jumlasi arab tiliga quyidagicha o‘girilgan:

أما الثانية فكانت مثل الملك" فتقول بعد كل جملة: "أفديك بعمري، يا عزيزتي [1, 89]

Bu yerda “o‘rgulay” so‘zi arab tiliga “أفديك بعمري” iborasi bilan berilgan.

Quyidagi parchani ham ko‘raylik.

“Unashilgan kunining ertasiga ammasi Inobatning peshanasiga yana mushtlab dedi:

- Endi o‘lding! Qaynanang tiriklayin yeb qo‘yadi.

Inobat uni pisanda qilmadi:

- Menimi? Ovora bo‘ladi. Ignaning teshigidan o‘tkazvoraman”. [3, 43]

بعد يوم الخطبة قالت عمة إنابت لها، وى تؤكد":

- انتهى أمرك !وحماتك "ستأكلك حية".

- تأكلني "أنا؟ إنها ستحاول بلا فائدة، سأجعلها تمرّ عبر خرم الإبرة] ".1 ,89[-

Ushbu matn parchasidagi «Endi o‘lding» iborasi arab tiliga «انتهى أمرك» deb tarjima qilingan (ya’ni, “tamom bo‘lding”, “kuning bitdi”, “ishing tugadi” ma’nosida), shuningdek, «Menimi?»

tugallanmagan jumla arab tilidagi jumla tuzish xususiyatini e’tiborga olgan holda kontekstdan kelib chiqib "تأكلني أنا؟" (“meni yeb qo‘yadimi?”) iborasi bilan berilgan.

G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida kampir va o‘g‘ri o‘rtasidagi suhbatda yetim bolalar buvisi o‘g‘riga “aylanay”, “o‘g‘rigina bolam” deb murojaat qilish bilan bir qatorda “maxluqlari qurg‘ur” iboralarini qo‘llasa, o‘g‘ri kampirga nisbatan “buvijon” deb murojaat qiladi. Xuddi shu kabi Nargiza G‘ulomovaning “Shaharlik kelinchak” hikoyasida voqealar qaynona-kelin o‘rtasidagi munosabatlar, kelinning qaynonasiga “oyi” yoki “oyijon” deb murojaat qilishi asosiga qurilgan. Shuning uchun ham ushbu hikoya tarjimasida tarjimon tomonidan bunday murojaatning mohiyati haqida tushuntirish berilgan [1, 304-305]. Ushbu kitobga saudiyalik adiba Xayriya as-Saqqof tomonidan yozilgan “Ta’mi o‘zgarmas yetuklik” nomli muqaddimada ham tarjimaning ushbu jihatlariga e’tibor qaratilgan.[1, 9-12]

Badiiy asarlarlarda qo‘llanilgan o‘zbek tiliga xos bo‘lgan turli nutqiy etiket birliklarini chet tillariga o‘girilayotganda tarjima qilinayotgan tildagi munosib muqobillarni topish tarjimon oldidagi dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. فن القصة القصيرة في الأدب الأوزبكي الحديث .دراسة نقدية وقصص مختارة، مركز الإعلام والدراسات العربية الروسية، الرياض، 2017م .328 ص (“Hozirgi zamon o‘zbek adabiyotida hikoya janri. Adabiy tanqidiy tadqiqot va tanlangan hikoyalar”). Ar-Riyod, Axborot va arab-rus tadqiqotlari markazi. 2017 yil. 328 b.
2. المجلس الوطني للثقافة والآداب والفنون، الكويت، 2009م“.مختارات من القصص القصيرة ، الأوزبكية”. (“Tanlangan o‘zbek hikoyalari”). Kuvayt. Madaniyat, adabiyot va san’at Milli Kengashi. 2009 y. 222 b.
3. “O‘zbek hikoyalari antologiyasi. Mualliflar jamoasi. Toshkent. “Sharq” nashriyoti. 1997 y. 288 b.
4. G‘ulomova, Nargiza. “Shaharlik yelinchak”. Hikoya. “Yosh yuraklar to‘qini” kitobida. Toshkent. G‘afur G‘ulom nashriyot-matbaa uyi. 2003 yil, 73-79-betlar.
5. Siyoyev, Sa’dulla. “Bir oy mister bo‘lganim”. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/sadulla-siyoyev/sadulla-siyoyev-bir-oy-mister-bolganim-hikoya/
6. Ahmad Mahmoud Abdul-Hadi Atawneh. Politeness Theory and the Directive Speech Act in Arabic-English Bilinguals: An Empirical Study. State University of New York at Stony Brook. 1991.
7. Abdullah Yaqub Samarah. Politeness in Arabic Culture. University of Business and Technology. Jedda, Saudi Arabia, 2015

8. Hakimov M., O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent, Akademnashr, 2013.

O‘ZBEK TILIDAGI O‘XSHATISHLARNI KOREYS TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

JO MIN YOUNG, *TDSHU mustaqil izlanuvchisi*

O‘xshatish insonning ilk tafakkur tarzi va tasavvurlarini tamsil etadigan yaqqol namoyon etuvchi eng faol lingvomadaniy kod hisoblanadi. O‘xshatish-har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo‘lib. Ular milliy duyoqarash, dunyodagi predmet, xodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslash, qiyoslashdir.

Inson o‘zning fikrlari va hissiyotlarini bo‘ttirib tasvirlaganda ko‘proq o‘xshatish usulini foydalanib, ayniqsa, o‘xshatish etalonlarini tanlaganda azaldan o‘zning xalqi bilan yaqin munosabatda bo‘lgan hayvon yoki tabiatni eng ko‘p aks ettiradi.

Hayvon va mava olami, azaldan insoniyat moddiy turmushining ajralmas qismi bo‘lib kelib “chorvachilik” bilan shug‘ullangan turkiy xalqlar esa qo‘y, echki, tovuq, eshak kabi hayvonlar bilan bog‘liq atamalar, ularga xos xatti-harakatlar kundalik nutqda, xususan, o‘xshatishlarda ham o‘z aksini topgan.

Koreya esa “qishloq xo‘jaligi” bilan shug‘ullangan xalq bo‘lgani uchun ko‘proq sigir, cho‘chka kabi hayvonlarga solishtirib tasvirlanadigan frazemalar va o‘xshatishlar faol ishlatiladi.

Yuqorida qayd etilganidek har bir mamlakatning geografik sharoitlari va xalqning madaniyati boshqacha bo‘lgani uchun aynan bir xil manoni anglatadigan o‘xshatish bo‘lsa ham ushbu o‘xshatishda qo‘llanilgan o‘xshatish etalonlarida farq aniq mavjud.

Qollaversa, shu farq tufayili ma’no jihatdan ham o‘zaro umumman tushunmay qoladigan yoki noto‘g‘ri tushunadigan hodisa ham aniq paydo bo‘ladi.

Sigir o‘xshatish etaloni. O‘zbek linvomadaniyatida sigir o‘xshatish etalonidan, asosan, salbiy konnotachiyani ifodalash uchun foydalaniladi.

“semizlik”, “gavdalilik”, “dangasalik”, “ko‘p ovqat eyish” kabi salbiy baholashda keng qo‘llaniladi.

Koreys lingvomadaniyatida ham sigir o‘xshatish etaloni gavdali, semiz, ko‘p ovqat yeydigan kishilarni, tashqi ko‘rinishini qiyoslashda qo‘llansa ham salbiy ma’noni takid qilmaydi. Koreys tilida esa ushbu ma’nolarini salbiy ravishda yetkazish uchun *cho‘chqa* so‘zi ishtirokidagi o‘xshatishlar faol ishlatiladi.

Qo‘llaversa, Koreys *sigirdek* o‘xshatish ifodasini ko‘proq og‘ir mehnat qilish, mehnatsevar, oz‘ning jimmasiga olingan ishlarni shikoyatsiz bajaradigan odamni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Agar tashki ko‘rinishni tasvirlash uchun qo‘llanilsa sigir, deyarli erkak kishining xususiyatlarini bildiradigan predmetga egadir.

Shuning uchun quyidagi o‘zbek o‘xshatish ifodasi to‘g‘ridan to‘g‘ri koreys tiliga tarjima qilinsa o‘zbek o‘xshatishning ma’nosi mukammal yetkazila olmaydi.

Ya’ni *sigirdek xotin* degan ifodasini ‘소 같은 여자-sogatin yoja’ deb koreys tiliga to‘g‘rida to‘g‘ri tarjima qilinsa koreys xalqi ushbu o‘xshatish asil ma’nosini adashib ‘ shikoyatsiz jim ishlaydigan ayol’ deb anglash mumkin.

-Tug‘ishni bilgan, bola boqishniyam eplagin-da, sigirdek xotin! (O‘Hoshimov. Ikki eshik orasi)

O‘zbek tilida, keragidan ortiq ovqat yeb, qorni shishib, o‘zini ko‘tara olmaslik holatini ifodalash uchun *sigir* etaloni *bukmoq* fe’li bilan birga qo‘llanilib, salbiy munosabat ottenkasini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Aynan bir xil manoni bildiradigan koreys o‘xshatishda esa *yotmoq*-눕다(nuptta) 소처럼 눕다- sochorom nuptta / *sigirdek yotmoq*, fe’l qo‘llaniladi.

Masalan: 특히 밥을 먹고 소처럼 누워 있을 때 (한은경, 너구리 사냥) tiki babil mokko sochorom nuwo issiltte / *Ayniqsa ovqat yegandan keyin sigirdek yotib turganda.*

Lekin farq shundaki, ushbu koreys o‘xshatish, azaliy dangashlikdan ko‘ra qorni shishib turgan holati tufayili bir past dangasha va sust bo‘lib turganini manolaydi.

Shuning uchun quyidagi o‘zbek o‘xshatishni to‘g‘ridan to‘g‘iri tarjima qilinsa koreys xalqi , *dangasha* manosidan ko‘ra *yaralangan oyog‘i tufayili ishlay olmasligiga majburan bo‘lmoq* deb anglash mumkin.

-Oldimda tog‘-tog‘ ishlar tursin-u, men, bukib qolgan sigirdek, oyog‘imni uzatib yotaymi? (O‘ Umarbekov. Yurak so‘zlari)

Cho‘chqa o‘xshatish etaloni. Turkiy xalqlarning ananalarida salbiy o‘rin tutadi va uning goshti azaldan yeyilmay kelinadi. *Cho‘chqa* yomon ruhlarni chaqiruvchi hayvon hisoblangan va bunday qarash Islomdan keyin ham davom etgan. O‘zbek, qirg‘iz, qozoq, va boshqa turkiy xalqlarning lingvomadaniyatlarida *cho‘chqa* so‘zi haqoratni bildiradi.

O‘xshatish etalon sifatida ham faqat salbiy munosabt ifodalovchi o‘xshatishlarda namoyon bo‘ladi. Masalan: *cho‘chqadek semirmoq, cho‘chqadek ichmoq, cho‘chqadek ag‘anamoq*.

Ayniqsa, *ichmoq* fe’l bilan *cho‘chqa* qo‘llanilganda mast odamni tasvirlash uchun bo‘lib shu sababi me’yordan ko‘p spirtli ichimlik ichgan insonning cho‘chqaga o‘xshash holatga tushishidir.

Koreys lingvomadaniyatda ham *cho‘chqa,* o‘xshatish etalon sifatida salbiy konnotachiyani anglatib, semizlik, ifloslik, ochko’zlik, dangasalikni anglatadi.

Lekin koreys o‘xshatishda mast bo‘lgan odamni tasvirlaganda 개처럼 마시다-gechorom masida/ *itdek ichmoq* , 개 되다-ge deda/ *it bol‘moq* yoki 술 취한 개처럼-sul chihan gechorom/ *mast bo‘lgan itdek* degan o‘xshatish bilan ifodalagani uchun quyidagi o‘zbek o‘xshatish to‘g‘irdan to‘g‘ir koreys tiliga tarjima qilinsa *mast bo‘lgan* manosidan kora *ko‘p ichgan* manosini kuchaytirib bildiradi.

-Yotibdimi? Ichgandir-da?..Cho‘chqaday ichdi?! Uxlab qoldimi? (X.Do‘stmuhammad. Maskovlik yaxshi odam).

Aytilganlar bilan birga, koreys o‘xshatishda 아기 돼지-agideji/ *cho‘chqa bolasi* ishtirok etsa shirin va yoqimli to‘la yuzli bolani ifodalaydigan ijobiy ma’no ham bildiradi.

Masalan: 아이들을 하나씩 놓고 보면 그저 귀여운 아기 돼지 같은데(원스토리, 사랑수업) aidiril hanassik noko bomyon gijo giyo-un agi deji gatinde/ *Bolalarni bir kishi bir kishi alohida ajratib qaraganimda shunchaki yoqimli cho‘chqa bolasidek ekan.*

Olma o‘xshatish etaloni. Aksariyat madaniyatlarda *olma* go‘zallik va sog‘lik ramzini anglatadi.

Xalq og‘zaki ijodidagi ertak va rivoyatlarda mif va afsonalarda *olma* sevgi, muhabbat va abadiy navqironlik ramzi bo‘lgan. O‘zbek fo‘lklorining aksariyat janrlarida ham *olma* muhim badiiy detal’ bo‘lib keladi.

O‘xshatishlarda *olma* yoshlik, qizillik, go‘zallik timsoli sifatida qiyoslanib *olma* etalonli o‘xshatishlardan, asosan, ayolning yuzi, yonog‘ini tashvirlashda keng foydalaniladi.

Ba’zan ayollarning chiroyli, bejirim ko‘kraklarini ham *olma*ga qiyoslaydigan o‘zbek oxshatishni kuzatish mumkin.

Koreys lingvomadaniyatida ham *olma* etaloni chiroyli, go‘zal yuzlarni tasvirlashda qo‘llaniladi. Lekin ayollarning ko‘kraklarini bildirish maqsadida ishlatilganda bejirim ma’nosidan ko‘ra ortacha kattaligini anglatgani uchun quyidagi o‘zbek o‘xshatish to‘g‘ridan to‘g‘ri koreys tiliga tarjima qilinsa koreys xalqi shu o‘zbek o‘xshatishni begona va notanish deb his qilish mumkin.

Koreys o‘xshatishda ayolning kichik ko‘kraklarini ko‘proq mandarin yoki olxo‘riga qiyoslaydi.

그는 아담하고, 사과보단 작은 마치 자두같이 손에 쥐기 딱 좋은 그런 가슴을(스몰우먼, 환상전희).

Ginin adamago, sagwabodan jagin machi jadugachi sone jwigi ttak join giron gasimil.

U kichik, olmadan kichik huddi olxo‘ridek, qo‘li bilan ushlashga qulay bo‘ladigan shunaday ko‘kralarini.

Sababi shundaki, koreyada o‘zbek olmadek kichik kattaligi olma daraxti yetishtirilmaydi.

Gilos o‘xshatish etaloni. Ijobiy konnotachiya yaqqol ifodalangan *gilosday* o‘xshatishidan asosan, qip-qizil lablarni tasvirlashda keng foydalaniladi.

Xususan, meva so‘zlari ishtirokidagi o‘xshatishlarni hosil bo‘lishida har bir xalqning o‘ziga xos florasi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda gilosning turlari har xil bo‘lsa ham Koreyada uchramaydi.

Odatda gilos kontinental iqlim hududida yaxshi o‘sadigan meva bo‘lib gilos yetishtirish uchun quyoshning nuri miqdori ham juda katta ahmiyatiga egadir.

Koreya esa mo‘tadil iqlim ta’siridagi mamlakat bo‘lib yo‘mg‘ir ko‘p yog‘ib dengizdan shamol va to‘fon ham tez-tez esgani sabali gilos yetishtirish uchun sharoitlari yaxshi emas.

Lekin gilosdan ko‘ra maydaroq bo‘lgan, och qizil rangdagi koreys gilos-앵두 *engdu* yetishtiriladi va qizil lablari ana shu *engdu*ga qiyoslanadi.

Masalan: 앵두처럼 붉은 입술을 가진 사람은 말을 잘하고 (안종선, 10 초 안에 상대를 파악하라) engduchorom bulgin ipssuril gajin saramin maril jal hago / engdudek qizil lablarli odam yaxshi gapiradi.

Bunday farq borligi uchun agar quyidagi o‘zbek o‘xshatish koreys tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinsa, koreyslar gapining manosini tahmin qilib tushunish mumkin bo‘lsa ham shu o‘zbek o‘xshatish ifodasiga empachiya bildirishda cheklangan his qilish mumkin.

Gilosday qirmizi lablari ehtirosli qisilgan, <<mini>> yubka tirsillaydi, <<bosaymi-bosmaymi>> deb sollanadi (R.Ummatov.Hangomalar).

Xulosa qilib aytganda, o‘xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini namoyon etadigan eng taniqli ifoda usuli bo‘lib ularda ma’lum davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan bo‘ladi.

Shuning uchun ham o‘xshatish va qiyoslash falsafa va filologiya ilmida eng qadimgi davrlardan boshlab turli tadqiqotchilarning e’tiborida bo‘lgan.

Ayniqsa, o‘zbek lingvomadaniyatida *sigir* o‘xshatish etalon, asosan, salbiy konnotachiyani ifodalash uchun qo‘llanilsa, koreys lingvomadaniyatida esa ijobiy konnotachiyalarni ham ifodalab kelishi kuzatiladi.

Cho‘chqa ham o‘zbek millatida ham koreys millatida salbiy konnotachiyalarga ega bo‘lsa ham koreys tilida 아기 돼지-*cho‘chqa bolasi* so‘z ijobiy ma’noni anglatadi.

Qollaversa, koreys lingvomadaniyatida *mast bo‘lgan odam*ni *it*ga qiyoslab tasvirlash uchun *cho‘chqaday ichmoq* o‘zbek o‘xshatish koreys tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinsa koreyslar boshqacha anglash mumkin .

Flora guruhi ham hayvonot olami kabi azaldan insoniyat moddiy turmushining ajralmas qisimi bo‘lib kelganligi uchun flora guruhidagi o‘xshatishlar orqali muayyan bir xalqning atrof-muhitini ham bilib olish mumkin.

Gilosday qizil lablari o‘zbek o‘xshatishga to‘g‘ri keladigan koreys o‘xshatishda, 앵두-*engdu* degan meva so‘z qo‘llanilib shu sababini koreya iqlimi xususiyatlari orqali aniqlash mumkin.

Olma, o‘zbek o‘xshatish ifodasida ayollarning ko‘kraqlarini tasvirilash uchun ham foydalansa koreys o‘xshatishda esa bejirim va

kichik ko‘kraklarini ifodalash uchun 자두 jadu /*olxo‘ri* qo‘llaniladi. Koreys o‘xshatishda olma chiroyli, go‘zallik va ortacha kattaligi ayollarning ko‘kraklarini ma’nolaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966.

2. Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору) // Язык, сознание, коммуникация. – М.: МАКС пресс, 2001. – Вып. 19. – С. 5-19.

3. Лукацкий М.А., Остренкова М.Е. Психология: учебник. – 2-е и зд., испр. и доп. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2013.

4. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). I. – Тошкент: ЎзФА, 1963.

5. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.

6. Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. № 4.

7. Саломов Ғ. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. –Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961.

8. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дисс. – Андижон, 2019.

ХИТОЙЧА ҲАРБИЙ ТЕРМИНЛАРНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТАҲЛИЛИ

Наргиза ИМОМИДДИНОВА,

Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети мустақил изланувчиси

Илм-фан ва замонавий технологиялар шиддат билан ривожланаётган даврда тилшунослик соҳасида ҳам бир қатор янгиликлар кузатилмоқда. Бугунги кунда терминология замонавий лингвистик тадқиқотларнинг долзарб йўналишларидан бири бўлиб қолмоқда. Терминологияга доир изланишларнинг оммалашувига сабаб бу соҳанинг етарли даражада ўрганилмаганлиги, десак ҳато бўлмайди.

Термин қатъий чегарага эга лексик бирлик ҳисобланади. Термин деганда техника ва илм-фан тизимида аниқ бир тушунчани акс эттирувчи сўз ёки сўз бирикмаси тушунилади.

Ҳарбий терминологияга В.Н. Шевчук томонидан қуйидагича таъриф берилган: “Ҳарбий илмнинг, умуман олганда, ҳарбий ишнинг тушунча аппаратини акс эттирувчи ва уруш олиб бориш шакллари ҳамда усуллари, қуролли кучларни стратегик қўллаш масалалари ҳамда уюшмалар, бирлашмалар, қисм ва бўлинмаларни оператив-тактик жиҳатдан ишини ташкил этиш, уларни қуролланиши ҳамда техник таъминоти билан боғлиқ бўлган ҳарбий терминларининг тартибга солинган йиғиндисидир” [1, 14-с.].

Ҳарбий терминология ҳарбий соҳага оид ва ушбу соҳа вакиллари мулоқоти доирасида фойдаланиладиган тушунчани ифодаловчи лексик бирликлар тизимини акс эттиради. Илмий-техник ривожланишдан кейин пайдо бўлган терминларни ҳам ҳарбий лексикага киритиш мумкин, чунки улар ҳарбий тушунчалар билан чамбарчас боғлиқ [2, 178-с.].

Г.М. Стрелковский, В.Н. Шевчук, Л.Л. Нелюбин каби дунёга машхур тилшунос олимлар ҳарбий терминология масаласи билан шуғулланишган. Шунингдек, мавзу доирасида муҳим манбалар сифатида И.Д. Клениннинг “Военная лексика современного китайского языка. Теоритическое обоснование Китайско-русскому техническому и военному словарю”, “О некоторых особенностях китайской военной лексики”, И.Д. Кленин ва В.Ф. Шичколар томонидан ёзилган “Лексикология китайского языка” кабиларни алоҳида таъкидлаш жоиз.

Лексик-семантик жиҳатдан ҳарбий терминларни мавзуи гуруҳларга бўлиб ўрганиш мақсадга мувофиқ. Масалан, ***қўшин турларини ифодаловчи терминлар*** - бу қуролли кучлар, яъни қисм, бўлинма, бирлашма, муассаса, ташкилот ва бошқарув органлари тузилмалари тушунчаларини тавсифлаш учун ишлатиладиган терминлар. Қуйида қўшин турларини ифодаловчи терминларни хитой [3, С. 23-24.] ва ўзбек тилларидаги муқобилларини келтирамиз:

1. 战略核子导弹力量	zhànlüè hézǐ dǎodàn lìliāng	стратегик ядровий ракета кучлари
2. 陆军	lùjūn	қуруқлик қўшинлари
3. 海军	hǎijūn	ҳарбий-денгиз қўшинлари

4. 空军	kōngjūn	ҳарбий ҳаво қўшинлари
5. 防空军	fángkōngjūn	ҳарбий ҳаво мудофааси қўшинлари
6. 步兵	bùbīng	пиёда қўшин
7. 装甲坦克兵	zhuāngjiǎ tǎnkèbīng	зирҳли танк қўшинлари
8. 炮兵	pàobīng	артиллерия

Штаб таркибини билдирувчи терминлар – бу шахсий таркиб ҳарбий бошқарув органларида кенг қўлланиладиган терминлар. Уларга қуйидагилар [4, С. 21-23.] мисол бўлиши мумкин:

1. 总参谋部	zǒngcān móubù	генерал штаб
2. 总部货车	zǒngbù huòchē	штаб вагони
3. 后勤机关	hòuqín jīguān	қўшин орти бош бошқармаси
4. 人员	rényuán	шахсий таркиб

Оператив-тактик тушунчаларни ифодаловчи терминлар – оператив ва тактик вазифаларни ҳал қилиш, умумқўшин жанглари олиб бориш ва уни тайёрлашда ишлатиладиган терминлар. Масалан:

1. 装甲防护力	zhuāngjiǎ fánghùlì	зирҳли мудофаа
2. 空袭	Kōngxí	ҳаво ҳужуми
3. 扼守阵地	èshǒu zhèndì	позицияни ушлаб турмоқ
4. 确定军事战略	quèdìng jūnshì zhànlüè	ҳарбий стратегияни аниқламоқ
5. 机动力	Jīdònglì	манёврлилик

Ташкилий терминлар – қуролли кучларнинг турли қисм ва бўлинмаларини номлашда қўлланиладиган терминлар:

1. 军团	jūntuán	Бирлашма
2. 师	shī	Дивизия

3. 连	lián	Рота
4. 分队	fēnduì	Бўлинма
5. 部队	bùduì	Қисм

Ҳарбий-топографик терминлар – жойни ўрганиш, йўналишни аниқлаш, мақсадни белгилаш, жойда ўлчов ишларини амалга ошириш билан боғлиқ бўлган терминлар. Уларга қуйидагиларни мисол тарзида келтирсак бўлади:

1. 地形图	dìxíng tú	топографик харита
2. 制图学	zhìtúxué	Картография
3. 航空摄影	hángkōng shèyǐng	ҳаводан суратга олиш
4. 地面摄影	dìmiàn shèyǐng	ердан суратга олиш

Буйруқ-саф терминлари – ҳарбий хизматчиларнинг саф тайёргарлиги ва буйруқ нутқида ишлатиладиган терминлар:

1. 立正	Lìzhèng	Ростлан!
2. 稍息	Shāoxī	Эркин!
3. 看齐	Kànqí	Текислан!
4. 齐步走 (开步走)	qíbù zǒu (kāibù zǒu)	Қадам бос!
5. 停	Tíng	Қолдирилсин!
6. 出列	Chūliè	Сафдан чиқ!

Ҳарбий лавозим ва унвонларни билдирувчи терминлар – бу ҳарбий хизматчилар лавозимлари ва ҳарбий унвонларини ифодаловчи терминлар. Хитой миллий озодлик армиясида (中国人民解放军) қабул қилинган ҳарбий унвон ва лавозимларга қуйидагилар киради:

1. 参谋长	Cānmóuzhǎng	штаб бошлиғи
2. 列兵	Lièbīng	оддий аскар
3. 上等兵	shàngděngbīng	Ефрейтор
4. 军官	Jūnguān	Офицер
5. 中尉	Zhōngwèi	Лейтенант
6. 少校	Shàoxiào	Майор

7. 上将	Shàngjiàng	генерал-полковник
8. 连长	Liánzhǎng	рота командири
9. 政治教导员	zhèngzhì jiàodǎoyuán	батальон комиссари
10. 司令（总司令）	sīlìng (zǒng sīlìng)	(бош) қўмондон

Жанговар фаолият турлари ва мутахассисликларини билдирувчи терминлар – қурол-яроғ, тузилма, ҳарбий хизмат тури ва ҳарбий мутахассисликларга алоқадорликни билдирувчи терминлар:

1. 自动枪手	Zìdòngqiāngshǒu	Автоматчи
2. 扫雷兵	Sǎoléibīng	Сапер
3. 狙击兵	Jūjībīng	Снайпер
4. 通信兵	Tōngxìnbīng	Алоқачи
5. 坦克兵	Tǎnkèbīng	Танкчи

Жанговар қурол-яроғ ва техника номларини англатувчи терминлар – жанговар ҳаракатлар давомида фойдаланиладиган қурол-яроғ ва техника номларини билдирувчи терминлар. Масалан:

1. 自动步枪	Zìdòngqiāng	Автомат
2. 步枪	Bùqiāng	Винтовка
3. 卡宾枪	kǎbīng qiāng	Карабин
4. 狙击步枪	jūjī bùqiāng	снайпер винтовкаси
5. 手榴弹	Shǒuliúdàn	қўл гранатаси
6. 坦克	Tǎnkè	Танк
7. 强击机	Qiángjíjī	ҳаво танки

Фортификация қурилмаларини билдирувчи терминлар – мухандислик қўшинларида кенг қўлланиладиган терминлар:

1. 人工障碍物	réngōng zhàng’àiwù	сунъий тўсиқлар

2. 天然障碍物 tiānrán zhàng’àiwù табиий тўсиқлар
3. 支撑点 zhīcheng diǎn таянч пункт

Юқорида келтирилган лексик-мавзуий гуруҳлардан ташқари, хитойча ҳарбий терминларни оммавий қирғин қуролларини билдирувчи терминлар, ҳарбий кийим-кечакни билдирувчи терминлар ва ўқ отиш тайёргарлиги билан боғлиқ терминлар каби гуруҳларга тақсимлаш мумкин. Ҳарбий кийим-кечакни билдирувчи терминларни ўз ўрнида қуйидаги турларга ажратиш мумкин:

а) уст-бош номларини билдирувчи терминлар;

б) оёқ-кийим номларини ифодаловчи терминлар;

в) бош кийим номларини билдирувчи терминлар;

г) ҳарбий кийим атрибутларини билдирувчи терминлар.

Хулоса қилиб айтганда, хитойча ҳарбий терминлар лексик-семантик таҳлилида уларни мавзуий гуруҳларга тақсимлаган ҳолда ўрганишнинг ижобий томони – бу жараёнда таржима кўникмаларининг шаклланиши ва ривожланишини кузатишимиз мумкин. Сабаби ҳар бир терминни ўзбек тилидаги муқобили топиш ҳар доим ҳам осон кечмайди. Буни ташкилий терминларда яққол кўришимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Шевчук В.Н. Военно-терминологическая система в статике и динамике: дис. ... д-р. филол. наук. Москва, 1985

2. Стрелковский Г.М. Теория и практика военного перевода. Немецкий язык. М.: Воениздат, 1979. – С. 177-181.

3. Анкин А.В., Хрипунов И.Г. Учебник практического курса перевода (военного перевода). Китайский язык. – Н.: Изд-во НВВКУ, 2009. – С.

4. А.А. Хабаров Практический курс военного перевода китайского языка. Учебник. Ч. 1. – М.: Восточная книга, 2014. – С. 21-44.

5. Кленин И.Д., Шичко В.Ф. Лексикология китайского языка. – М.: Восточная книга, 2013. – С. 70-77.

6. Кленин И.Д. О некоторых особенностях китайской военной лексики. – М.: Воениздат, 1968. – С. 557-564.

Кленин И.Д. Военная лексика современного китайского языка. Теоритическое обоснование “Китайско-русскому техническому и военному словарю”. – М.:ВИИЯ, 1970. – С. 32-37.

MAHORATLI TARJIMON

Shohnigor HUSANOVA, Gulbonu ARIPOVA,
Toshkent shahar, Yunusobod tumani 17- Ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchilari

Tarjima ham ijodiy jarayon bo'lib, nihoyatda mashaqqatli mehnat talab qiladi. Tarjimashunos olimlarning fikriga ko'ra, mutarjim – sinchkov o'quvchi, ajoyib uslubchi, so'z ustasi, ruhshunos, har tomonlama bilimdon, ayni vaqtda go'zal san'at asarini yaratuvchi nozik didli san'atkor bo'lmog'i kerak, deyishadi. Tarjimashunos olimlar tarjimaning uch jihatiga alohida e'tibor berishni uqtiradi: o'zi tarjima qilayotgan xorijiy tilni, o'girilayotgan asarda gapning nima haqida borayotganligini bilishi va o'zining ona tilini mukammal bilishi lozim. Birinchi shartga ko'ra, tarjimon xorijiy tilni puxta egallagan bo'lishi kerak. Istisno tariqasida, agar u tilni bilmasa, unda asarni chuqur o'rganib, to'g'ri va malakali tahlil va tadqiq qila bilishi kerak. Olimlarning aytishicha yozuvchi ko'p narsani biladi, tarjimon esa undan ham ko'proq, yana nimanidir bilishi shart. Haqiqiy tarjimonni o'girilayotgan asarni ipidan ignasigacha biladigan sharhlovchi, hatto eng injiq tanqidchidan ham zo'r shorihdir, deb baholaydilar.

Turli xalqlar adabiyotlarining tarjima tarixida butun ongli hayotini "o'zgalar"ning asarlarini tarjima qilishdek ezgu ishga "qurbon qilgan" ko'plab iste'dodli kishilarni topsa bo'ladi. Bular: rus shoirlari V.A. Jukovskiy, B. Pasternak, o'zbek shoiri Muhammadrizo Ogahiy va boshqalar. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

G'arbiy Yevropada Toledo Tarjima maktabi (XII asr), Rossiyada Tarjima jamiyati (XVIII asr), Bog'dod tarjimonlar uyushmasi (VIII-XIX asr), al-Ma'mun Tarjima maktabi (813-833) tarjimashunoslik tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lganini yaxshi bilamiz.

Armanistonda V asrdan boshlab, to hozirgacha har yili "Tarjimon kuni" nishonlanadi. Bizning yurtimizda ham shunday kun belgilansa va u an'naga aylansa, ishonchimiz komilki, bu sohada ancha yaxshi rivojlanishga erishiladi.

Jahon adabiyotining eng sara kitoblarini o'zbek tilida qayta yaratishda deyarli barcha yozuvchi va shoirlarimiz ishtirok etishgan. Ayniqsa, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir,

M. Ismoiliy, A. Muxtor, Hamid Olimjon, Zulfiya, E. Vohidov, A. Oripov, Muhammad Ali kabi adiblar faoliyatida badiiy tarjima ularning ikkinchi ijodiy olami deb qaralmog‘i lozim. Bu ijodkorlardan har birining tarjimonlik mahorati maxsus ilmiy tadqiqotlarda yoritishga loyiq.

Tarjimon ish jarayonida kitobni mutolaa qilar ekan, u ijodiy vazifa bilan band - asarni ona tili vositasida qaytadan yaratish ishtiyoqi bilan yonadi. Tarjimon bo‘lish uchun tahsil olishdan tashqari ulkan sabr-toqat, fidoyilik kerak bo‘ladi.Tarjimonning kasbiy mahorati uning doimiy o‘qishi, o‘z ustida ishlashi, ijodiy izlanishi orqali ortib boradi, sayqallanadi, takomillashadi.O‘zbek adabiyotining eng sara namunalarini jahon tillariga o‘girib, dunyo o‘quvchilariga targ‘ib etib kelayotgan ijodkor Begoyim Xolbekova ana shunday mahoratli tarjimonlarimizdan biridir. Begoyim Xolbekova o‘zi ham she’rlar yozib, she’riy kitoblar muallifi bo‘lgani uchun she’riy tarjimaga qo‘l urgandir. Uning Alisher Navoiy g‘azallaridan ingliz tiliga tarjimalari xorijlik o‘quvchilarning Navoiy ijodiga qiziqishlarini orttirishga, uni yaqindan o‘rganishga imkon yaratdi. Endilikda ko‘plab dunyo tarjimonlari, shoirlari Navoiy g‘azallarini o‘z ona tillariga o‘girishda Begoyim Xolbekovaning ingliz tiliga tarjimalaridan asliyat sifatida keng foydalanishmoqda. Amerikalik ijodkor Denis Deli, Buyuk Britaniyalik shoir Endryu Stenilend, Bangladesh Xalq shoiri Mosud Mannon shular jumlasidandir.Mohir tarjimonimiz zamonaviy milliy she’riyatimizning eng sara namunalarini ham dunyoga targ‘ib etishga katta e’tibor qaratmoqda.Xususan uning O‘zbekiston Xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, taniqli shoirlar Minhojiddin Mirzo, Nodir Jonuzoq kabi Yurtimiz iste’dodlari ijodidan amalga oshirgan go‘zal tarjimalari Belgiya, Amerika kabi xorijiy davlatlarning “ATUNIS GALAXY”, “INTERNATIONAL WRITERS JOURNAL” singari nufuzli Xalqaro nashrlarida e’lon qilinib kelmoqda. O‘ylaymizki, bu kabi ezgu amallar chet ellik o‘quvchilarning o‘zbek she’riyati haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.Tarjima xususida gapirar ekanmiz, tadqiqotimiz doirasida tarjimonning ardoqli shoira Zulfiyaxonim ijodidan qilgan inglizcha tarjimalari tahliliga e’tibor qaratishni ham xohlardik. Shoiraning mashhur “Mushoira” she’rining (Bu asarni mazmunan doston ham deyish mumkin) bevosita tarjimasi diqqatimizni o‘ziga tordi:

Hearts are together, tunes clear, Yuraklar jo‘r ekan, ovoz hamohang,

There is no need for a splendid hall. Zarra ehtiyoj yo‘q muhtasham zalga.

To this poem garden from far, near Bu she’r bog‘ida go‘zal, rang-barang

The bards have brought their songs all. Qo‘shiq solib kelgan har shoir dilga.

Begoyim Xolbekova tarjimasi

E’tibor qarating-a, inglizcha tarjimada mazmun, shakl va ohang asliyatga to‘la ravishda muvofiq tushganligini his qilasiz.

Quyidagi misralar ingliz tiliga o‘ziga xos badiiy mahorat bilan o‘girilgan. Tarjimon ingliz o‘quvchisini o‘z ona tilidagi asarni o‘qib zavqlanganday zavqlantirish yo‘llarini qidirib topgan:

The evening has come with wondrous view, Go‘zal tuproq uzra quyiladi oqshom,

It extends wings oer beautiful land. Kunduz olar dam.

Now vivid mushoira will continue, Jo‘shqin mushoira etadi davom,

Come, come nearer, my friend! Do‘stim, kel sen ham!

Begoyim Xolbekova tarjimasi

Ma’nosi: (Go‘zal zamin uzra qanotlarin keng yoyib ajib manzarali oqshom tushdi.Jo‘shqin mushoira davom etajak, kel, yaqinroq kel, do‘stim!)

Quyidagi tarjimada kontekstdagi ma’noga monand go‘zal qofiyalar tarjimonning nozik didi va topqirligidan dalolat berib turibdi:

Chinas and Bagdads shoes wonderful, Xitoyning bejirim,Bog‘dodning puxta

They are standing side by side. Oyoq kiyimlari turar yonma- yon.

Irans Ceylons shoes colorful, Qarayman,Tseylon bor va boshqa juftda

They seem elegant, snug and tight. Eron kosibining san’ati ayon.

Mongolian boots bow to Punjab heel Mo‘g‘ulcha etiklar Panjob kashfiga

As if theyre going to tell story. Ertak so‘zlaganday egilib turar...

Eyes are radiant from human will, Ko‘zlar quvonadi inson ishiga,

Long live the arts unique glory! Shod etar tuprog‘u, mehnat va hunar.

Betakror shoira Zulfiyaning muhabbat va hijron mavzuidagi she’rlari inglizchada ham huddi asliyatdagidek g‘oyat ta’sirchan

yaratilgan.Har bir so‘z, har bir jumlada tarjimonning ichki intuittsiyasi sezilib turadi:

Suddenly, seeing you lifeless, Seni birdan jonsiz ko‘rdim,
My heart stopped beating too. Jonim chiqdi mening-da.
As if acting as mindless, Es-xushimdan ajrab turdim,
Emotions have left with you. Tuyg‘um ketdi sening-la.

Begoyim Xolbekova tarjimasi

Ma’nosi: (Seni birdan jonsiz ko‘rib, mening yuragim ham urishdan to‘xtadi.Xushsiz qoldim.Jamiki tuyg‘ular sen bilan ketdi)

Shuni ham aytib o‘tish joizki, asliyatdagi ”tuyg‘um ketdi sening-la” degan misraningemotions have left with you (tuyg‘ular ketdi sen-la)deya tarjimada ko‘plik shaklida berilishi ingliz o‘quvchisi ongu-shuurida shoira yorining bevaqt vafoti nafaqat shoira tuyg‘usini, balki dunyodagi jamiki tuyg‘ularni olib ketganday, dunyo usiz rangsiz qolganday kabi kuchli taassurot uyg‘otadi.

Biz bu kichik bir maqolada taniqli tarjimonning O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya she’rlaridan qilgan ayrim tarjimalarga to‘xtaldik xolos. Kelajakda Begoyim Xolbekovaning boshqa tarjimalari haqida ham fikr bildirish niyatimiz bor.

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И КРИТЕРИИ ВЫДЕЛЕНИЯ ОБСТОЯТЕЛЬСТВА ОБРАЗА ДЕЙСТВИЯ В ПАШТО И РУССКОМ ЯЗЫКЕ

***Элеонора ЗАМАЛЕЕВА**, исследователь ТГУВ*

1.1. Сопоставительный анализ обстоятельств образа действия в пашто и русском языке

Общеизвестно, что обстоятельство образа действия в пашто и русском языке выполняет функцию - второстепенного члена предложения, поясняющее слово со значением действия (состояния), которое обозначает качество, степень проявления, способ совершения действия, и отвечают на вопросы: как? каким образом?

Целью данного исследования является освещение истории сопоставительного изучения обстоятельств образа действия, а также наречий выраженных обстоятельствами образа действия в языке пашто и русском языке.

Аспекты изучения наречия в функции обстоятельства образа действия.

Говоря об изучении наречия в функции обстоятельств образа действия авторы зачастую подчёркивают особую роль наречия в этом плане, выделяют различные аспекты в изучении этого класса слов, а именно: исторический, семантико-синтаксический, функциональный, сопоставительный и стилеобразующий.

Семантико-синтаксический подход реализован в работах, (Г.Ш Аджимамбетовой и М.У Монраева).

Так в статье Г.Ш. Аджимамбетовой приводится семантико-синтаксическая классификация наречий в которые включены наречия образа и способа действия, характеризующие манеру, степень, интенсивность действия [55]. Сюда же входят наречия, отражающие качественную сторону процесса или признака, не зависимо от того, от какой части речи они образованы. Отмечается, что в предложении наречия могут обозначать самые различные оттенки действия. Вместе с тем следует отметить работу, М.У. Монраева, где исследуются наречия современного калмыцкого языка — одного из сложных вопросов не только монголоведения, но и языков схожей с ним системы, в данной работе описываются все типы наречий в подробном структурно-семантическом анализе. [56]

Статье, D.S. Saiidyrakhimovoy, и D.M. Zhakypovoy, посвящена истории изучения наречий в таджикском языке с точки зрения их формирования и функционирования, в частности в роли обстоятельств образа действия[57]. Диссертационное исследование, Е.Н. Гулидовой, рассматривает вопрос о функционально-коммуникативном анализе русских наречий на материале темпоральных и квантитативных лексем [58] .Настоящая работа посвящена функционально-коммуникативной грамматики (ФКГ), а также исследованию русских наречий в лингводидактическом аспекте.

---

[55] Аджимамбетова Г.Ш. Лексико семантическая классификация наречий в крымскотатарском языке // Вопросы духовной культуры –Филологические науки- 2011.- С.65-68

[56] Монраев М.У. «Наречия в современном калмыцком языке- Калмыцкая АССР: Элиста, 1980- С.137

[57] D.S. Saiidyrakhimova, D.M. Zhakypova, Adverb and its interpretation in tajik linguistics Наречие и его толкование в таджикском языкознании //International Scientific Journal Theoretical and Applied Science.USA. 2018-№ 05 (61) .С.53-55

[58] Гулидова Е.Н. Грамматика русских наречий: лингводидактический аспект (на материале работы во франкоязычной аудитории).Дис. на соиск. уч.степ. канд.пед.наук.-М.,2016.-С.277

Сопоставительный аспект в изучении обстоятельств образа действия наречий разработан в диссертационном исследовании, О.А Глущенко, данная работа представляет собой полномасштабное разноаспектное описания семантики всех наречий образа действия в литературном языке в сопоставлении с одной из существующих диалектных систем (в архангельских народных говорах.)[59]. Также можно отметить следующие работы (PhD и DSC) где рассматривался сопоставительный анализ на примере разно-структурных языков такие как (К.А.Рахматжонова - «Сопоставительное-типологическое исследование грамматических категорий числа и падежа в хинди и узбекском языках», З.Я.Садиков -«Сравнительно-сопоставительный анализ немецкого и английского переводов «Кутадгу Билиг» Юсуфа Хас-Хаджиба», Н.А.Турапова - «Сопоставительный анализ соматических фразеологизмов японского и узбекского языков (лингвокультурологический аспект)».

Проблемы сопоставительного анализа лингвистике представляются в диссертационном исследовании У.К. Юсупова «Проблемы сопоставительной лингвистики», данное диссертационное исследование представляет собой полную достаточно разработанную в теоретическом и практическом плане научную работу.

Как показывает приведенный краткий обзор работ, в настоящее время в лингвистике накопился большой материал по теоретическим вопросам сопоставительной лингвистики, однако этот материал все еще не достаточно обобщен и не сведен в единое целое. Можно отметить, что методика сравнения фонологических (фонетических) систем языков разработана вполне достаточно /см.: Васильев 1969; Абдуазизов 1974; Каспранский 1976; Федянина 1979; и др.

Большую роль в развитии теории сопоставительной фонологии сыграла система фонологических оппозиций Н.С.Трубецкого и установленные Р.Якобсоном, Г.М.Фантом, М.Халле 12 бинарных дистинктивных оппозиций: I) вокальность - невокальность; 2) консонантноеть - неконсонантность; 3) прерывность - непрерывность; 4) абруптивность - неабруптивность; 5) яркость -тусклость; 6) звонкость - глухость;

[59] Глущенко О.А Наречия образа действия в классификационном и сопоставительном аспектах Дис. на соиск. уч.степ. канд.филол.наук.- Петропавловск-Камчатский.,2006.-С.226

7) компактность - диффузное ть; 8) низкая тональность - высокая тональность; 9) бемольная тональность - простая тональность; 10) диезная тональность - простая тональность; II) напряженность - ненапряженность; 12) назальность - неназальность /Якобсон и др. 1962/. Эти различительные признаки могут служить эталонами при сравнении фонем различных языков.

Были выделены следующие основные принципы сопоставительной лингвистики для изучения языков в теоретических целях:

принцип сравнимости; 2) системности; 3) терминологической адекватности; 4) достаточной глубины сравнения; 5) учета степени родства и типологической близости сопоставляемых языков; 6) учета положительного и отрицательного переноса лингвистических знаний; 7) территориального неограничения; 8) учета функциональных стилей; 9) двусторонности сравнения. в) основные принципы сопоставительного изучения языков в лингводидактических целях, включающие все вышеназванные принципы, к которым присоединяются еще следующие: 10) принцип синхронности; II) простоты; 12) минимальной абстрактности; 13) сокращения; 14) учета территориальных диалектов родного языка; 15) учета фацилитации и межъязыковой интерференции.

Сопоставительный аспект также был выделен в следующей работе монография Г.Д.Басова, А.В.Качура, А.В.Кихно, В.П.Мусиенко, Н.Г.Озерова, Г.П.Олейник, Н.П.Романова, Е.С.Снитко, О.Е.Творонович «Сопоставительная грамматика русского и украинского языков». В монографии представлено системное описание русской и украинской грамматик на словообразовательном, морфологическом, синтаксическом уровнях в сопоставительном аспекте отмечены общие специфические их черты, семантическое своеобразие, грамматических средств каждого из анализируемых языков. Наряду с этой работой можно упомянуть работу «Проблемы сопоставительной грамматики славянских языков» данная работа содержит материалы советско-польской международной конференции «Синхронно-сопоставительное изучение грамматического строя славянских языков», стоит отметить учебные пособия по сопоставительному изучению языков где в

теоретическом плане раскрываются многие вопросы данного языкового явления это работа В.Б. Кашкина «Сопоставительная лингвистика», а также учебное пособие Э.С.Ветровой «Теория перевода и сопоставительное изучение языков».

В статье, А.Стасенко, рассматривается, парцелляция обстоятельств в современном русском языке (на материале художественных текстов). В научной литературе парцеллят это - речевая единица, присоединяемая при парцелляции к основной части высказывания[60]. В данной работе обстоятельством является второстепенный член предложения, характеризующийся разнородностью и разнообразностью и не являющийся структурно строго необходимой частью предложения [61] .По мнению автора оно выступает в предложении только в случае, когда говорящий хочет актуализировать, подчеркнуть тот или иной аспект ситуации. Обстоятельства образа действия, характеризуют способ протекания действия, названного сказуемым в базовой части предложения. Парцелляты обстоятельства образа действия могут выражаться наречиями.

В статье, Т.П. Ившиной, исследуется функционирование наречия в публицистическом тексте, его роль в реализации авторского намерения на материале воспоминаний и обвинительных речей А.Ф. Кони[62]. В данной работе проводится анализ особенностей наречия как признакового слова, его смысловое обогащение в контексте, экспрессивные возможности, также наречие рассматривается в риторических приемах, в частности в разных видах повтора, а также анализируется его роль в создании эмоционально-оценочного поля и значимость для коммуникативного успеха ритора.

1.2. Критерии выделения обстоятельства образа действия как части речи в пашто и русском языках

Функциональный аспект в изучении наречий разработан в работах (К.А. Лебедева «Грамматика языка пушту», А.Л. Грюнберга «Очерк грамматика афганского языка (пашто)», (پښتوګرامرپوهاند صدیقالله ربښتین) Сидикуло Ришгина «Грамматика языка

[60] Розенталь Д. Э., Теленкова М. А . Словарь-справочник лингвистических терминов. Изд. 2-е. — М.: Просвещение. 1976.

[61] Стасенко А. Парцелляция обстоятельств в современном русском языке (на материале художественных текстов) // Acta Universitatis Lodziensis Folia Linguistica Rossica Польша. 2015. № 11. С. 100-108

[62] Ившина Т.П. Риторический потенциал наречия в публицистическом тексте // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С. Пушкина.-2010.-№ 5 С.1-7

пашто», а также работа Anne Boyle David «Descriptive Grammar of Pashto and its Dialects», Herbert Penzl «A Grammar of Pashto A Descriptive Study of the Dialects of Kandahar Afghanistan», выполненных на материале пашто. Авторы подчёркивают, что важнейшей функции наречия в предложении является функция обстоятельство образа действия.

Так, К.А Лебедев, даёт описание наречию как самостоятельной части речи, которая выделяется в пушту на основе синтаксической функции и значения, также наречие в предложении обычно является обстоятельственным словом.

Наречие которое, относится к глаголу, выражает признаки действия или обстоятельства, при которых оно происходит, а также наречие, определяющее прилагательное или другое наречие, указывает на их признаки. В пушту некоторые наречия могут употребляться в качестве послелогов. [63]

В данной работе также отмечается, что обстоятельство образа действия могут быть выражены не только наречиями, но и именем существительными с инфинитивом глагола с предлогом (په)- (pe) и наречием (سره)- (sara) в функции послелога, повтором имён существительных с предлогом (په)- (pe) и без него, именем существительным с предлогом (د)- (de) в сочетании(له لاری)- (le lare) прилагательными с (غوندی)- (gundi), повтором имён прилагательных, определительно- обстоятельственными словосочетаниями наречного характера (په بنه ډول)- (pe sha daul), а также обстоятельство образа действия может быть выражено прилагательными в адвербиальной функцию . Он также отмечал, что при этом прилагательные не утрачивают своих признаков, а сохраняет их. Поэтому имеет место согласование их и в роде и в числе[64].

Научный подход к изучению наречий, а также обстоятельства образа действия применил в своей работе А.Л. Грюнберг, посвящённой исследованию фонетики, морфологии и синтаксису афганского языка (пашто). В данной работе были исследованы наречия, а также виды наречий и в качестве членов предложения они могут выступать в различных текстах.

В данной работе, А.Л. Грюнберг, поясняет то, что как и во многих других иранских языках, в афганском языке нет чёткой

[63] Лебедев К.А. Грамматика языка пушту – М., 1970- С. 360, С. 190-191
[64] Лебедев К.А. Грамматика языка пушту – М, С. 290-291

границы между наречиями и именными частями речи-прилагательными и существительными. Тем не менее, он выделяет значительную группу слов, которые всегда или преимущественно выступают в адвербиальной функции и могут быть названы собственно наречиями. В связи с этим, А.Л. Грюнберг, выделяет функционально-семантический признак этих собственно наречий, и разделяет их на следующие группы: наречия места, времени, меры и степени, вопросительные наречия, наречия образа действия, при это объясняя, что по морфологической структуре наречия могут быть простыми и сложными, а также образованными сложением слов или основ.[65]

В связи с выше изложенным, в научном исследовании, А.Л. Грюнберг, выделяет наречия образа действия, где особую группу составляют многочисленные заимствования из арабского языка через дари например наречия оканчивающиеся на -ān, например: tabān- естественно, mafassalān-подробно, qismatān-частично и другие[66].

Anne Boyle David в своей работе «Descriptive Grammar of Pashto and its Dialects, описывает наречия и типы наречий, функции наречий предложении[67].

Наряду с данными работами, имеет и большое значение работа профессора, (پښتوگرامرپوهاندصديقالله ربنتين) Сидикуло Риштина «Грамматика языка пашто», где подробно описывается наречия как самостоятельная часть речи, виды наречий, функции наречий в предложении.[68]

Выводы:

В последние десятилетия в мировой лингвистике значительно возрос интерес к сопоставительным исследованиям. Несмотря на это, сопоставительная лингвистика до сих пор не получила прав полного гражданства.

Для того, чтобы сопоставительная лингвистика заняла достойное место среди других отраслей языкознания, необходимо дальнейшее развитие теоретических основ этой дисциплины (расширение и четко обоснованная постановка задач сопоставительной лингвистики, разработка ее принципов,

[65] Грюнберг А.Л. Очерк грамматика афганского языка (пашто) – Ленинград, 1987.- С.237 С.193
[66] Грюнберг А.Л. Очерк грамматика афганского языка (пашто) –С.196
[67] Boyle A.D Descriptive Grammar of Pashto and its Dialects- USA, 2014. C.500
[68] Ришти С. Грамматика языка пашто, پښتوگرامرپوهاندصديقالله ربنتين ژبارنسيدمحيالدين هاشمي يونيورسټيپکايجنسي۱۱۹۴م ۱۳۷۲هش стр.491

совершенствование методики сопоставительного анализа, выделение параметров для сравнения).

Опираясь на достижения типологии и описательной лингвистики, сопоставительная лингвистика в настоящее время может решать комплекс теоретических и прикладных (лингводидактических) задач.

В данной статье решается следующий круг вопросов:

1) определяется сопоставительный характер обстоятельств образа действия пашто и русского языка.

2) выделяются сопоставительные семантические и структурные характеристики обстоятельств образа действия пашто и русского языка.

3) выявляются общие компоненты семантики обстоятельств образа действия на примере литературного дискурса.

4) выявляются своеобразные схожие черты обстоятельств образа действия при создании газетного дискурса в пашто и русского языка.

Список использованной литературы:

1. Аджимамбетова Г.Ш. Лексико семантическая классификация наречий в крымскотатарском языке // Вопросы духовной культуры – Филологические науки- 2011.С-65-68
2. Boyle A.D Descriptive Grammar of Pashto and its Dialects- USA, 2014. P.500
3. Глущенко О.А Наречия образа действия в классификационном и сопоставительном аспектах Дис. на соиск. уч.степ. канд.филол.наук.-Петропавловск-Камчатский.,2006.-С.226
4. Гулидова Е.Н. Грамматика русских наречий: лингводидактический аспект (на материале работы во франкоязычной аудитории).Дис. на соиск. уч.степ. канд.пед.наук.-М.,2016.-С.277
5. Грюнберг А.Л. Очерк грамматика афганского языка (пашто) – Ленинград, 1987.- С.237 С.196
6. Ившиной Т.П. Риторический потенциал наречия в публицистическом тексте // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С. Пушкина.-2010.-№ 5 С.1-7
7. Лебедев К.А. Грамматика языка пушту – М., 1970- С. 360, С. 292
8. Монраев М.У. «Наречия в современном калмыцком языке-Калмыцкая АССР: Элиста, 1980- С.137
9. Риштин С. Грамматика языка пашто, ربنتين پښتوګرامرپوهاندصديقالله هش١٣٧٢ يونيورستيپکايجنسي١١٩٤م هاشمي ژبارنسيدمحيالدين стр.491
10. D.S. Saiidyrakhimova, D.M. Zhakypova, Adverb and its interpretation in tajik linguistics Наречие и его толкование в таджикском

языкознании //International Scientific Journal Theoretical and Applied Science.USA. 2018-№ 05 (61) .C.53-55

11. D.S. Saiidyrakhimova, D.M. Zhakypova, Adverb and its interpretation in tajik linguistics Наречие и его толкование в таджикском языкознании //International Scientific Journal Theoretical and Applied Science.USA. 2018-№ 05 (61) .C.53-55

12. Penzl H, Sloan I. «A Grammar of Pashto: A Descriptive Study of the Dialect of Kandahar, Afghanistan»- Ishi Press, USA, 2009 P.210

13. Стасенко А. Парцелляция обстоятельств в современном русском языке (на материале художественных текстов) // Acta Universitatis Lodziensis Folia Linguistica Rossica Польша. 2015. № 11. С. 100-108

14. Арендс А. Краткий синтаксис современного персидского литературного языка. – М-Л.: Из-во АНСССР, 1941.

15. Ахманова О, Г.Б.Микаэлян. Современные синтаксические теории. – М.: Изд-во МГУ, 1963. – 155 б.

TA’LIMGA OID TERMINLARINI UYG‘UNLASHTIRISH XUSUSIDA

Sevara ISMOILOVA, *TDSHU magistranti*
Ilmiy rahbar: D.Sc. Hashimova S.A.

Hozirgi vaqtda ta’lim va tadqiqot markazlari jahon tizimi integratsiyalashuv jarayoniga yo‘naltirilgan, ayni paytda dunyo globallashuvga intilmoqda. Bu tendentsiya hayotning barcha sohalari va bilim sohalari terminologiyasini tizimlashtirish hamda uyg‘unlashtirish zarurligiga olib keladi. Maxsus leksikaning tartiblanishi orqali maxsus so‘zlar -terminlar paydo bo‘ladi. V. A. Tatarinov uyg‘unlashtirishni milliy va xalqaro darajada terminlarni uyg‘unlashtirishdan iborat bo‘lgan terminologik faoliyat turi deb tushunadi [1, 38].

Bilimning har bir ilmiy sohasiga terminlar xizmat qiladi. Har bir fan sohasining terminlari kasbiy bilimlarning konseptual aloqalari bilan birlashtirilgan o‘z tizimini tashkil qiladi. Ta’lim ham bundan mustasno emas. O‘zbek va xitoy tillarining ta’lim sohasi terminologiyasini birlashtirish muammosi bugungi kunda ustuvor vazifalardan biridir. Bu muammoning dolzarbligi ta’lim sohasidagi xalqaro aloqalarning o‘sishi, ikki tomonlama dasturlarning joriy etilishi, talabalarning akademik almashinuv dasturlarining rivojlanishi va boshqalar bilan bog‘liq.

Aynan shu jarayonlar tufayli oliy ta’lim sohasidagi o‘zbek va xitoy terminlaridagi farqlarga e’tibor qaratish zarur, chunki bugungi kunda bu sohada umumiy qabul qilingan standartlashtirilgan terminologik tizimlar mavjud emas.

Ta’lim sohasidagi terminologik tizimlarni uyg‘unlashtirish muammosiga o‘tishdan oldin, “termin” tushunchasini ajratib ko‘rsatamiz. Bugungi kunda, ushbu kontseptsiyaning ta'rifi bo‘yicha yakdillik yo‘q, buning natijasida terminlarni tanlashning bir xil bo‘lgan mezonlarini aniqlash qiyin. Axmanova O.S.ning “termin” ta'rifiga misol keltirsak, fikrimizcha, ushbu tushunchani aniq aks ettiradi: “Termin so‘z yoki maxsus (ilmiy, texnik va boshqalar) so‘z birikmasini bildiruvchi til bo‘lib, maxsus tushunchalar va maxsus predmetlarni aniq ifodalaydi” [2,474]. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, terminlar har bir ilmiy soha uchun alohida terminologik tizimni tashkil qiladi.

Ba'zi tadqiqotchilar terminologiya va terminologik tizim tushunchalari bir xilligini ta'kidlaydilar, boshqalari esa ular bir -biridan tubdan farq qiladi va bu tushunchalarni bir-biriga tenglashtirish mumkin emasligini ta'kidlaydilar. Mashhur terminolog V.M. Leichik, terminologik tizim ma’lum prinsiplarga muvofiq tanlangan leksik birliklarni o‘z ichiga oladi, degan fikrda. U ma’lum bir mantiqiy sxemaga asoslangan bo‘lib, uning markazida asosiy tushuncha bor va undan o‘xshash boshqa tushunchalar ajralib chiqadi. Shu bilan birga, to‘laqonli terminlar tizimini yaratish uchun berilgan terminga faqat bitta tushunchaga mos keladigan tarzda tartibga solish zarur. Binobarin, tizim atamasi sun'iy ravishda yaratilgan model bo‘lib, buning natijasida uning asosiy xususiyati izchillik va elementlar orasidagi qat'iy mantiqiy bog‘liqlik deb qaralishi kerak. O‘z navbatida, terminologiya tilda sodir bo‘ladigan tabiiy jarayonlar natijasida hosil bo‘lgan terminlar tizimi sifatida aniqlanadi, lekin to‘liq yakunlangan tizim emas [3,54]. Terminologiya tizimi tizimlashtirilgan va tartiblangan model bo‘lgani uchun, bir fan sohasiga mansub turli tillarning terminologik tizimlari ham uyg‘unlashtirilishi kerak.

V.A. Tatarinov uyg‘unlashni milliy va xalqaro darajadagi atamalarni uyg‘unlashtirishdan iborat bo‘lgan terminologik faoliyat turi deb tushunadi [4,38]. Shunday qilib, muayyan terminologik tizimlarni uyg‘unlashtirish uchun har bir termin va uning kontseptsiyasini boshqa tilga tarjima qilish zarur. Bunda tilning lingvistik va ekstalingvistik omillari hisobga olinishi kerak. Ya'ni, tanlangan birlikni tarjima

qilishda, semantik tarkibni saqlashdan tashqari, terminologik tizim tarjima qilinayotgan til mamlakatning madaniy xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. Bu ta’lim sohasining terminologik tizimlarini uyg‘unlashtirishning asosiy qiyinchiligidir.

Shu bilan birga, terminlarni uyg‘unlashtirish jarayoni boshlanishi uchun avval terminlarni tartiblash ishi olib borilishi kerak. Tartiblash - terminlarni bir xillikka, yagona shaklga yoki tizimga keltirish bilan bog‘liq terminologiyani birlashtirish bo‘yicha amaliy ishlarning asosiy komponentidir [5,1999]. Binobarin, ta’lim sohasidagi xitoy va o‘zbek tilidagi terminlarni uyg‘unlashtirish jarayoni haqida gapirish uchun avval o‘zbek tilidagi terminlarni tahlil qilish zarur. Tahlilimiz natijasida o‘zbek tilida ta’lim sohasi terminologiyasini tartibga solish darajasini aniqlash zarur.

Har bir mamlakat ta'lim tizimi samarali rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos terminologik apparat va boshqaruvga muhtoj . Shu bilan birga, ta'lim hamjamiyatining integratsiyalashuvi munosabati bilan terminologik tizimlarni uyg‘unlashtirish masalasi ayniqsa dolzarb bo‘lib qoladi.

Bilimning har bir ilmiy sohasiga terminlar xizmat qiladi. Har bir fan sohasining terminlari kasbiy bilimlarning konseptual aloqalari bilan birlashtirilgan o‘z tizimini tashkil qiladi. O‘zbek va xitoy tillarining ta’lim sohasi terminologiyasini birlashtirish muammosi bugungi kunda ustuvor vazifalardan biridir. Bu muammoning dolzarbligi ta’lim sohasidagi xalqaro aloqalarning o‘sishi, ikki tomonlama dasturlarning joriy etilishi, talabalarning akademik almashinuv dasturlarining rivojlanishi va boshqalar bilan bog‘liq.

O‘zbek tilining ta’lim sohasida yagona ishlatilish shakli bo‘lmagan atamalar mavjud, bu esa o‘z navbatida fan va ta’lim sohasidagi terminologiyani xitoy va o‘zbek tilida uyg‘unlashtirish jarayonini sekinlashtiradi. O‘zbekiston va XXRda ta’lim terminologiyasi tizimlarining yetarli darajada uyg‘unlashtirmaslik ushbu davlatlar o‘rtasidagi ta’lim sohasi bo‘yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

4. Татаринов, В. А. Общее терминоведение : энцикл. словарь. М. : Моск. Лицей, 2006.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов Изд. 2-е. М.:
6. «Советская энциклопедия», Москва, 1966.

7. Лейчик В.М. Проблема системности в отечественном терминоведении // Научно-техническая терминология (научно-реф. сборник). М., 2001. Вып. 2.
8. Татаринов В.А. Общее терминоведение: энцикл. Словарь. М.: Моск. Лицей, 2006 г.
9. Культура русской речи. Учебник для вузов. Под ред. проф. Л.К. Граудиной и проф. Е.Н. Ширяева. М.: Издательская группа НОРМА-ИНФРА М., 1999.

ATAMA VA TERMINLAR TARJIMASINING MURAKKABLIGI

Ruqiya ABDULLAEVA, *TDSHU magistranti*
Ilmiy rahbar: PhD. Mubarakova D.

Arab atamashunoslikning rivojlanish tarixi ikki bosqichga klassik va zamonaviy bosqiclardan iboratdir. Arab tilida rivoj topgan o'rta asr an'anaviy ishlar: shariat, arab tilshunosligi, tarix, sheriyat va boshqa tillar lug'atining mustaqil atamalar bilan to'liq tam'minlanganidan dalolat beradi. Shu bilan bir vaqtning o'zida o'sha davr yunon tilida o'z aksini topgan tabiiy fanlar- kimyo,matematika, geometriya, mexanika, astranomiya, hamda falsafa, mantiq, musiqaga oid atamalrning orasidan kelib chiqishiga ko'ra arabcha bo'lgan atamalar bilan bir qatorda yaxshi moslashtirilgan o'zlaahtirmalar ham mavjud bo'lganligi kuzatiladi.

Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo'lgan va, asosan, nominativ funktsiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi.

A.Reformatskiy terminga ta'rif berar ekan, "... terminlar – bu maxsus so'zlardir" degan xulosaga keladi. A.V.Kalinin muayyan fanlar va kasbkorlikda ishlatiladigan so'zlarni "maxsus leksika" deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi.

1. Maxsus leksikaga, birinchi navbatda, terminlar kiradi.
2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi.

U o‘z fikrini davom ettirib, “Termin bilan professionalizmlar o‘rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo‘jagi, texnikadagi tamomila rasmiy bo‘lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, ko‘pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qatiy, ilmiy tavsifiga ega bo‘lmagan yarim rasmiy so‘zdir”,-deydi.[1,44]

R.Doniyorov bu fikrga etirozan, “Bunday qatiy da’vo, aslini olganda, tilni sinfiy deb hisoblagan ayrim “olim”larning qarashlari davomidir demak, xatoga yo‘l qo‘ymasmiz” deya munosabat bildiradi. H.Jamolxonov terminga munosabatda bo‘lar ekan quyidagicha yozadi: “Terminlar fan-texnika, adabiyot, sanat va boshqa sohlarga oid ixtisoslashgan, qo‘llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: gulkosa, shona (botanikada); to‘rtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi”. H.Jamolxonov terminga munosabatda bo‘lar ekan quyidagicha yozadi: “Terminlar fan-texnika, adabiyot, sanat va boshqa sohlarga oid ixtisoslashgan, qo‘llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: gulkosa, shona (botanikada); to‘rtburchak, kvadrat (geometriyada); ega, kesim (tilshunoslikda); qofiya, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi ”.[2,35] Terminalogiyaning rivojlanishi, boyish yo‘llari har xil: boshqa tillardan so‘z olish, yangi so‘z yasash, ayrim fammatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so‘z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa bugungi kunda o‘zbek terminalogiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so‘z olish va ichki so‘z yasash hisobiga ro‘y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barkarorligini belgilovchi asosiy omili uning tartibga solinganligi va muntazamligidir.

Terminalogiyaning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va kup ma’nolilik tilning boyligi bo‘lsa, Terminalogiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o‘zbek tilida yarimo‘tkazgich — chalao‘tkazgich — nimo‘tkazgich terminlari qo‘llanmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘qisho‘qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminalogiyasi ma’lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma’lum terminologik me’yorlar asosida amalga

oshiriladi. Terminalogiyaning rivojida fan sohalariga oid maxsus lug‘atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, “Xalqning milliy madaniyati va o‘ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo‘lmish o‘zbek tili” da mavjud bo‘lgan so‘z va iboralarni, atamalar va leksik boyliklarni o‘rganish hamda insoniy meros sifatida ilmiy tahlilini olib borish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir.[3,1875] A.A.Potebnya “keyingi ma’no” deb atagan va “u tilshunoslikning o‘rganish obektiga kirmaydi, uni boshqa fanlar o‘rganadi” deb ko‘rsatilgan terminologik leksika uzoq davrlargachaaholida nominativ birlik, atama sifatida tilshunoslikda tadqiq qilinmadi. Tilshunoslik fani rivojlanib, o‘z tadqiqot doirasini kengaytirgan sayin terminlarni o‘rganish uning eng muhim va tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Hozirgi davrda terminlarni o‘rganish tilshunoslikning alohida sohasini – terminologiyani shakllantirdi.Ammo shuni ham aytish o‘rinliki, bu jarayonda ruscha va rus tili orqali kirib kelgan terminlarni o‘rinsiz, suniy ravishda yangi yasalmalar yoki arab va fors-tojikcha so‘zlar bilan almashtirish hollari ham kuzatiladi. Masalan, bankrot – sinish, buxgalter – hisobchi, gazeta – ro‘znoma, deputat – noib (xalq noibi), jurnal – majalla (jarida, oybitik, oynoma), institut – oliygoh, (ta’limgoh), klub - tomashagoh (tadbirgoh), kompensatsiya – tovon, medal – nishon, fakultet – kulliyot, kurs – bosqich, fonetika – tovushshunoslik, sinonim – ma’nodosh, omonim – shakldosh, antonim – zid ma’noli va hokazo.

Keng ma’noda til atamasi ostida biror muloqot tizimining tayinli qoidalari majmuasi tushuniladi. Barcha tillar semiozisga, ya’ni belgilarni tegishli manolarga bog’lash jarayoniga tayanadi. Og’zaki va imo-ishora tillari ramzlar ketma-ketligini soz yoki morfema qilib shakllantiruvchi fonologik tizim hamda soz va morfemalar ketma-ketligidan ibora va gaplarni hosil qiluvchi sintaktik tizimni o’z ichiga oladi.

Ba’zi tilshunoslar tarafidan zo‘r berib tavsiya qilinayotgan yangi tushunchalarni ifodalash uchun eski so‘zlarni izlab topish usuli samara bermayapti. Quyidagilar klassik so‘zlardan atamalar sifatida Foydalanishga misol bo‘la oladi.

ذرة-[zaratun] atom (fiz), نواة- [navatun]"yadro" (fiz) ushbu so‘zlar laxjada esa "mevaning danagi" manosidagi atama bila ishlatiladi.

Odatda umumiy horijiy atamalarga muvofiq keladigan aniq semantikli ekvavalentini atamalashtirish maqsadida til leksikasidan lotincha-yunoncha asosdagi xalqaro atamalar va zamonaviy tillarda keng qo‘llanishga ega bo‘lgan milliy atamalar tanlab olinadi.

Masalan: نظير-[naziirun] "izton"- grekcha " izofopos", طيف – [toyfun] "snektor" , فضاء-[fadooun] "kosmos"-(ochiq joy) inglizcha " spase". Quyidagilar ham xuddi o‘sha usulda yaratilgan. شحل-[shahlun] "zaryadka" (mex elektr), مقاومة-[maqovimatun] qarshilik (elektr), تدخل-[tadxul] " interferensiya (tovush yorug‘lik va h.k) to‘lqinlarni ustma-ust qilganda bir birini kuchaytirish yoki susaytirish (mexanik), اهتزاز-[ehtizaz] “vibratsya”- tebranish (siyo.iqt).

Boshqa tillarga mansub bo‘lgan atamalar uchun arabcha ekvavalentlni tanlab olish ko‘p hollarda qiyinchiliklar tug‘diradi. Xatto mavjud arabcha so‘zlarni atama sifatida qo‘llash paytida sinonimlar qatoridagi so‘zlardan birini atama uchun tanlab olishda ham muammolar yuzaga keladi. Shu boisdan ham arab tiliga tarjima qilish natijasida har bitta va ko‘pincha xatto xalqaro yunoncha- lotincha yoki boshqa atamaga turli leksima (so‘z) yoki turli leksik birikmalar to‘g‘ri keladi. Masalan fizika atamasi "quvvat" (energiya) Misrda طاقة، [tooqatun], Suriyada قدرة [qudratun] terminlari ishlatiladi. "tovar" tushunchasi ham yuqoridagi tarzda [bidooatun]-بضاعة, [salatun سلعة - so‘zlari bilan almashtiriladi. Morfologik uslubiyat jarayonida turli andozalardan foydalanish va so‘z yasovchi o‘zaklarni tanlab olishni o‘rtasidagi tafavvutlar natijasida ham dubitlar paydo bo‘ladi. Masalan: "miyatnik"-tebratgich lotincha "pendulum" so‘zi نواس[navaasun] [naasun]ناس)- tebratmoq. رقاص –[raqqosun], رقص –[raqosa] raqsga tushmoqdan, خطر[xatoro]خطار [xattoorun] tebranmoqdan derevatlari bilan tarjima qilinadi va بندول [banduulun] shaklida arablashtiriladi. Kimyo -كيميا [kiimyaa] va geografiya-جغرافيا [jo‘g’rofiyaa] va boshqa ba’zi bir atamalar allaqachon atablashtirib bo‘lingan fanlardan tashqari zamonaviy fanlarning nomlanishini o‘zi arab tili uchun sezilarli muammolar tug‘diradi. Ularni ko‘pi tarjima qilinmagan va bir necha ma’nolarni anglatishi ham mumkin.

Arab atamashunosligining vazifalaridan biri fan va texnika taraqqiyoti natijasida vujudga kelayotgan zamonaviy tushunchalarni to‘liq ifodalay oladigan atamalar yaratishdan iboratdir. Atamalar hosil qilish usullaridan hozirgi kunda keng tarqalganlaridan biri bu chet tildagi so‘zlarniaynan ko‘chirish, ya’ni arab grafikasiga o‘tkazishdir.

Ushbu jarayonni arab tilida ifodalash uchun maxsus تعريب [ta’arib] so‘zi (arablashtirmoq) atamasi qo‘llaniladi. So‘z boyligini kengaytirishning ilm- fan, adabiyotga oid zamonaviy tushunchalar va texnik atamalarni ifodalash zarurati tufayli paydo bo‘lgan ushbu usuli filalogiyasida har doim o‘z tarafdorlari va muxoliflariga ega bo‘lgan.

Arab tilidagi qadimgi manbalarning xabar berishicha, Suriya va Mesopotamiya Oromiy tillari, grek va lotin kabi qo‘shni tillardan ya’ni qo‘shni tillardan kirib kelgan juda ko‘p atamalar qatlami mavjuddir. Zamonaviy arab tili esa G‘arb Yevropa tillaridan texnik atamalarni o‘zlashtirganligi bilan haraktirlanadi [3,67]. Ya’ni klassik davr qatlami to‘liq o‘zlashib bo‘lgan va assimilyatsiyalangan til tizimidan muqim joy egallagan so‘zlardan iborat bo‘lsa,

Yevropa tillaridan hozirgi davrda o‘zlashtirilgan atamalar tilning leksik- simantik tizimini butkul o‘zlashtirgan va assimilyatsiyalangan deb bo‘lmaydi.

Yevropa tillariga oid atamalar esa XIX asr oxiri va XX asr boshlarida katta miqdorda o‘zlashtirila boshlandi. Bu jarayon aksariyat arab davlatlarining Yevropa mamlakatlari tomonidan bosib olinishlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular harbiy qo‘shin va ma’muriy boshqaruvdan tashqari Yevropa madaniyat ko‘rinishlarini ham olib keldilar[4,114-116]. Kalonial bosqinchilik davrining boshlanishi arab tilini boshqa tillar hisobiga boyishi hususiyatiga ham o‘zgartirish kiritdi. Suriya, Livan,Tunis, Jazoir,va Marokash fransuzlar, Iroq,va Sudan inglizlar, Liviya esa Italiyanlar hukumronligi ostida qoldi. Natijada har bir mamlakat yoki mintaqa o‘zlashgan so‘zlar bilan boyish uchun o‘zgacha alohida manbaga ega bo‘ldi. Shuning uchun sizlarning sohalariga ko‘ra farqlanishi ham qayd etiladi. Masalan Tunis aholisi tiliga Italiyan tilidan baliqchilik, savdo va moliya sohasiga, Liviya tiliga esa ma’muriy boshqaruv, xunarmandchilik va madaniy turmushga oid atamalar kirib boradi [5,48]. Yevropa tillaridan arab tiliga dastlab, Italiyan tili jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu tildan kirib kelgan atamalar quyidagi misollardan ko‘rinib turgandek, asosan savdo va dengiz ishi bilan bog‘liq.

قبطان [qabtoonun],قباطنة - [qbaatnatun]kapitan

قرصان [qarsoonun] قراصين [qaroosiin] - qaroqchi

بنك [bankun],بنوك [banuukun] - bank

Bunday atamalar orasida umumiy ma’noni anglatuvchi so‘zlar ham mavjud.

انقلونزا [inqiluunsaa]- gripp

بنطلون [bantaluun]بنطلونات [bantalunaat] - shim

برنيطة [baraniitotun] برانيط [barooniitun] -shlyapa

Arab tilidagi zamonaviy o‘zlashgan atamalarning katta qismi Fransuz tilidan kirib kelgan. Bunda xalqaro munosabatlar sohasiga fransuz tilining millatlararo muomala tili bo‘lganligi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Turli sohalarga oid mazkur misollar ham fransuz tilidan olingan.

برلمان [barlamaanun], برلمانات [barlamanaatun] Parlament

تلفون [talfunun] تلفونات [talfuunaat] - telefon

سينما [siinima] سينمات [siinimaat] - kino

فلم [filmun] افلام[aflamun] - film

راديو [raadiyuu] راديوات [raadiyuvat] - radio

Arab mamlakatlarida uzunlik vazn va elektr quvvati o‘lchovlariga ya’ni birliklariga oid atamalar ham o‘zlashtirilganligini guvohi bo‘lamiz masalan:

Metr- متر [matrun] اكتر [aktarun]

Kilometr – كيلومتر [kiilumetr] كيلومترات [kiiluumetroot]

Santimetr سنتيمتر [santimetr] سنتمترات [santimetroot]

Minimetr مليمتر[milimetr]مليمترات [milimetroot]

Klavatt. كيلووات [kluuvaat] كبلووتات [kluuvataat]

Elka.volt.bat ولط. [valt] واط [vaatun]

Arabshunos olim V.M.Belkinning ta’kidlashicha " zamonaviy arab adabiy tilini o‘rganish jarayonida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Yevropa tillaridan olingan o‘zlashma so‘zlarning umumiy miqdori unchalik ko‘p emas va lug‘at boyligining bir foiziga yaqin qisminigina tashkil qiladi [6,115].

Hozirda ham adabiy tilning leksik zahirasi o‘zlaahgan so‘zlar bilan boyishga davom etmoqda, chunki arab jamiyati boshqa davlatlarning madaniyati, ilm-fani, texnika yutuqlari bilan bog‘liq hodisani o‘rganib, aksar hollarda ularni atamalar sifatida qabul qilishgan va ushbu hol zamonaviy arab atamashunosligi shakllanishida aks etadi.

Internet. انترنت [internat] Teleks [teleks] تلكس

Printer. برينتر [barentr] Kompyuter [kambuyuutar] كمبيوتر

Xulosa qilib aytganda, boy merosga ega bo‘lgan arab tili lug‘aviy boyligida xorijiy tillardan o‘zlashgan so‘zlarning keng ko‘lamli mavjud

bo‘lib, bu o‘zlashtirish jarayoni hazirgi kunda ham davom etib kelmoqda. Shu o’rinda Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida aytgan quyidagi so‘zlari ham diqqatga sazovardir: *Afsuski, jamoat joylarida, ko‘chalarda, binolar peshtoqida toponimik belgilar, turli lavha va reklamalar ko‘pincha xorijiy tillarda, ma’naviyatimizga yot mazmun va shakllarda aks ettirilmoqda. Bu davlat tili talablariga, milliy madaniyat va qadriyatlarimizga bepisandlikdan, umumiy savodxonlik darajasi esa tushib ketayotganidan dalolat beradi.Shu munosabat bilan, Vazirlar Mahkamasi Atamalar komissiyasi bilan birgalikda ushbu masalalarni keng jamoatchilik ishtirokida jiddiy o‘rganib chiqishi va tartibga solishi zarur. Chunki ijtimoiy ob’ektlarga nom berish — bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma’naviy saviyamizni yaqqol ko‘rsatadigan o‘ziga xos mezondir. Buni hech kim hech qachon unutmasligi kerak [7, 2019].*

Murakkab tuzilgan terminlar yasashda quyidagi talablarga e’tibor berilishi lozim:

a) termin mumkin qadar ixcham, kam sonli so‘zlardan iborat bo‘lishi kerak. Terminlarning ixcham bo‘lishi ularni qo‘llashda qulaylik tug‘dirishdan tashqari, ulardan yangi terminlar yasash imkoniyatini beradi. Chunki, mavjud terminlardan so‘z yasovchi affiks yordamida yangi termin yasash (son-teskari son, yoy-yoyning gradusi) hodisalar, tushunchalar orasida mavjud bo‘lgan aloqani ham ko‘rsatib turadi;

b) murakkab termin tarkibidagi ba’zi so‘zni izohlaydigan yana boshqa so‘z bo‘lmasligi (qavs ichida berilmasligi) kerak. Aks holda termindan foydalanishda qiyinchilik bo‘ladi. Masalan, tuproqshunoslik sohasida yaratilgan degradasiyalangan (aynigan) qora tuproq, matematika sohasidagi erkin (bog‘liq) miqdor, o‘xshashlik (analogiya) metodi kabi terminlar muvaffaqiyatli chiqmagan bo‘lib, ularni ishlatish ancha noqulaylik tug‘diradi. Murakkab terminlar tarkibidagi har bir so‘z boshqasi bilan affikslar yordamida yoki sintaktik tartib orqali birikkan bo‘lishi kerak. Ularning ko‘makchilar va bog‘lovchilar vositasi bilan grammatik munosabatga kirishishlari ma’qul emas. Chunki yordamchi so‘zlar vositasi bilan birikkan so‘zlardan iborat bo‘lgan murakkab terminlarning terminlik xususiyati bilinmay qoladi, oddiy, erkin birikmaga o‘xshab ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

2. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari.O‘quv qo‘llanma. Toshkent:ToshTDSHI, 2014.Ilmiy monografiya, maqolalar va boshqalar

3. Жўраев К. Таржима санъати. – Тошкент: Фан, 1982. 505.

4. Очилов Э. Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ТДШИ, 2014. – 264 б.

5. Belkin V.M. " arabiskaya leksikalogiya"- 1975 g.

6. Qodirov.T.Sh, Aliev.D.I. "arab leksikalogiyasi"- T. 2010.

7. Akobirov S. Til va terminologiya. -T., 1968.

i. المغربى عبد ال. كتاب الاشتقاق و التعريب. مصر.١٩٩٠

ARAB VA O‘ZBEK TILIDAGI MUSHTARAK OTLARNING SEMANTIK TAHLILI

Nigora ISOJONOVA, *TDSHU magistranti*

Tarjima insonlarning eng qadimgi faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Tillar o‘rtasidagi farq insonlarni ushbu og‘ir, biroq zaruriy mehnat bilan shug‘ullanishiga sabab bo‘lgan. Zero, tarjima xalqlar o‘rtasidagi muloqot va ma’naviy qadriyatlar bilan almashinuv vositasi bo‘lib xizmat qilgan va bugungi kunda ham xizmat qilmoqda [1, 16].

Barcha san’atlarda bo‘lgani kabi tarjimada ham o‘ziga yarasha qiyinchiliklar va muammolar mavjud. Taniqli o‘zbek adibi Asqad Muxtor tili bilan aytganda, “tarjima - sermuammo san’at”[2, 20]dir. Bir tildan ikkinchisiga o‘girilayotgan matn doirasida turli xil murakkabliklarga uchrashimiz mumkin. Uning sabablaridan biri “soxta ekvivalentlik” yoki “aldoqchi so‘zlar”dir.

Bu muammo o‘zbek tarjimashunosligiga nisbatan rus va ingliz tarjimashunosligida chuqurroq tatbiq etilgan(Акуленко В.В. “О ложных друзей переводчика в книги Англо-русский и русско-английский словарь “ложных друзей” переводчика”, “Гарбовскй Н.К. Перевод – искусство”, Пахотин А.И. “Большой англо-русский, русско-английский словарь мнимых друзей переводчик”). Xususan, ingliz tarjimashunosligida soxta ekvivalentlar “yolg‘onchi do‘stlar” deb nomlanib, uchta asosiy katta guruh(leksik ma’nosi toraygan, leksik ma’nosi kengaygan va o‘z leksik ma’nosni butunlay o‘zgartirgan birliklar)ga bo‘linganini kuzatishimiz mumkin [3, 9].

“Bu xususda tadqiqot olib borgan taniqli tarjimashunos A.V.Fyodorov bo‘lsa, turli tillarda faqat ayrim so‘zlarninggina fonetik jihatdan o‘xshashligini soxta ekvivalent deb olgan bo‘lsa, G‘.Salomov bu terminni tuzilishi jihatidan bir-biriga o‘xshash, ammo ma’nosi jihatidan bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan, ba’zida bir-biriga zid bo‘lgan frazeologik iboralarga nisbatan qo‘llaydi” [4, 51].

Ammo, shuni ham unutmaslik kerakki, nafaqat frazeologik birliklar, balki leksik birliklar ham soxta ekvivalent bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, badiiy tarjimada so‘z tanlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, bu esa soxta ekvivalentlar muammosi bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki har bir so‘z tovush va ma’no nuqtayi nazaridan o‘z qimmatiga ega. Faqat bir xil so‘z ikki tilda uchraganda, ba’zan o‘zgarishsiz qolishi bilan bir paytda ma’no jihatidan ham farqlilik kasb etishi mumkin[5, 89].

Shaklan bir-biriga aynan o‘xshagani bilan mazmunan bir-biridan keskin farq qiladigan so‘zlar tarjimashunoslikda soxta ekvivalentlar deb yuritiladi. Bu til hodisasiga nisbatan “tillararo omonimlar”, “tarjimonning soxta do‘stlari”, “yolg‘onchi so‘zlar”, “aldoqchi so‘zlar”, “tillararo analogizmlar” kabi atamalar ham ishlatiladi. Ular asosan yaqin tillarda, ba’zan uzoq tillarda ham uchraydi[2, 50].

Milodiy VII – VIII asrlarda yurtimizga arablar bilan birgalikda ularning tili va yozuvi ham kirib kela boshladi. Ma’lum davrlar o‘tgach arab tilidan o‘zlashgan leksemalar o‘z leksik ma’nosini toraytirdi, kengaytirdi yoki butunlay boshqa ma’no anglata boshladi. Shunday qilib o‘zaro uzoq tillar bo‘lishiga qaramay arab va o‘zbek tillarida ham “tarjimonning soxta do‘stlari” paydo bo‘ldi.

Arabcha-o‘zbekcha nasriy tarjimalarda bunday yolg‘onchi do‘stlarga tez-tez duch kelamiz. Masalan, - “atrof” so‘zini olaylik. O‘zbek tilida bu so‘z “tevarakdagi fazo”, “joy”, “yer”, “biror narsaning gir aylanasi[8, 115]” degan ma’nolarni anglatadi. Arab tilida esa nutq vaziyatiga qarab turli ma’nolarda kelishi mumkin:

“Tomon” yoki “taraf”ning ko‘pligi, “tomonlar”, “taraflar” ma’nosida:

سطحها من وأشرفت املدينة وسط القائمة (القهندر) الكبرى القلعة إلى صعدت أنك ولو ملونة صورة أو ورق على مرسومة بخريطة أشبه لرأيتها فرغانة، أطراف على [6, 16]–

agar siz shahar o‘rtasidagi katta qo‘rg‘onga chiqib, undan Farg‘onaning atrofiga qarasangiz, u qog‘ozga chizilgan xarita yoki rangli suratdek ko‘rinadi [7, 1].

“Biror narsaning oxiri” yoki “chekkasi” manosida:

- بَيْنَنا الأَحادِيثِ **بِأَطْرافِ** أَخَذْنا الْمُحِبِّينَ بَيْنَ وَبالأَخَصِّ الشَّيِّقَةِ، الأَحاديثِ مِنَ يُتَبادَلُ ما

...Qiziqarli so‘zlardan suhbatimiz oxirida kelishuvga erishdik

“Tomonlar”(insonlarga nisbatan) في تَحَدَّثْنا : الحديثِ أَطْرافَ تَجاذَبْنا شَتَّى مَواضيعَ

Suhbatdagi tomonlar bizni o‘ziga tortdi: Biz turli mavzularda suhbatlashdik

Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida bu so‘zning ma’nosi torayib, faqatgina birinchi ma’nosida ishlatiladi. Agar tarjimon bu so‘zning ma’no mundarijasini to‘liq bilmasa, noto‘g‘ri tarjima qilishi mumkin.

“Farg‘ona kelini” asari tahlilida soxta ekvivalentlarni o‘rganish masalasi alohida ahamiyatga ega.. Xususan, muallif Farg‘onadagi binolarni quyidagicha ta’riflaydi:

فحول القلعة مبان متشابهة من الطين كلها من طبقة واحدة ما عدا بناءين: أولهما "بيت النار" وهو ا**لهيكل** الذي يتعبد فيه المجوس [6, 17]

Tarjimasi: *…qo‘rg‘on atrofidagi ikki binoni istisno qilganda, qolgan imoratlarning hammasi kesak devorli, bir-biriga o‘xshash pastqam uylar edi. O‘sha ikki binoning biri otashxona – majusiylar topinadigan katta bino [7, 4].*

Shu o‘rinda ustoz tarjimashunos E.Ochilovning ta’rifi yodimizga keladi: “Agar tarjimon asliyatning mazmunini tushunmasa, unga mutlaqo teskari tarjima yaratib qo‘yishi, bir yoqlama talqin qilsa, siyqa tarjima vujudga kelishi mumkin”[2, 34].

Yuqoridagi asliyat matnda keltirilgan *“haykal”* so‘zi *“bino”* tarzida tarjima qilingani ham fikrimiz dalilidir. *“Haykal”* so‘zining birinchi ma’nosi o‘zbek tilidagi “haykal(kishi yoki hayvon gavdasining gips, tosh, metal, yog‘och va shu kabi qattiq materiallardan yo‘nib, o‘yib yasalgan taviri[8, 485]” so‘ziga mos bo‘lsa-da, u ba’zida *“timsol”*, *“ramz”* degan ma’nolarni ham anglatadi. Agar matnda bu so‘z *“haykal”* deb tarjima qilinganda, majusiylik *“haykal yoki ma’budga sig‘inadigan din”* - degan yanglish tushuncha paydo bo‘lardi. Bu yerda majusiylik otashparaslik dini bo‘lgani bois tarjimon mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi uchun aynan shu so‘zni tanlagan.

Yana bir misol:

...وهو مؤلف من مركبة كبيرة أشبه بالغرفة منها با**لعربة**...

Daf’atan qaragan kishiga u arava emas, balki katta uyga o‘xshab ko‘rinardi…

(*Muallif yoki muallafa*) “مؤلف” arab tilida fe'l bo‘lib kelganda

qamrab olmoq, *o‘z ichiga olmoq*, degan ma'nolarni bildirsa, ism bo‘lib kelgandagina “biror bir kitob yoki asarning muallifi ya’ni egasi” degan ma’noni bildiradi. O‘zbek tilida esa bu so‘z “biror asar, loyiha, kashfiyot va shu kabilarni yaratgan shaxs” [8, 623] degan ma’nonigina anglatadi. Arab tilida fe’l bo‘lib kelganda “lam” harfi ikkilantirilib, ismdan boshqacha talaffuz qilinsada, yozilishi bir xil bo‘lgani bois o‘zga til vakilini chalg‘itishi mumkin. Murakkablik tomoni shundaki, har ikki holatda ham ma’no anglashiladi, faqat yanglish mazmun kelib chiqadi. Masalan, yuqoridagi jumlani *“daf’atan qaragan kishiga xonaga o‘xshagan katta aravaning egasi ekanligi bilinadi”* deb tarjima qilish ham mumkin edi. Ammo jumlaning mazmuni avvalgi matnga bog‘lanmas edi. Shuni inobatga olgan holda tarjjimon bu so‘zni “o‘xshab ko‘rinardi” mazmunida talqin qilgan va asliyatga mos mazmunni bera olgan.

“Tarjimon – asarni boshqa tilda, ya’ni ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o‘ziga singdirib oladi, keyin matn harakteriga qarab muqobil so‘z tanlaydi, bu so‘zlar ma’nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to‘laroq ifodalash tashvishida yonadi”[10, 32]. Shuning uchun badiiy tarjima jarayonida yuqoridagi kabi so‘zma-so‘z tarjimadan qochib, badiiylikni yuksaltirishga, o‘quvchiga estetik ta’sirni kuchaytirishga urinishlar uchrab turadi. Bu ijobiy hol, albatta. Chunki badiiy tarjimadan ko‘zlangan maqsad o‘quvchiga asliyatni so‘zma-so‘z yetkazish emas, balki originallikni saqlagan holda g‘oya va mazmunni, shuningdek, estetik ta’sirni ham yuqtirishdir.

Demak, mushtarak otlarni boshqa tilga o‘girishda tarjimondan yetarlicha mahorat talab qilinar ekan. Shuningdek, bu kabi so‘zlarda uchraydigan muammolardan lug‘at boyligimizni yanada rivojlantirib xalos bo‘lish mumkin. Shuning uchun tillar orasidagi aldoqchi so‘zlarni chuqurroq tatbiq etish va shu sohaga doir maxsus lug‘atlar yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xudaybergenova Z.N. Tarjimon mahorati va tarjima metodologiyasi, o‘quv qo‘llanma. – T.: 2015

2. Мухтор А. Мураккаб санъат, Исомиддинов З. Алдоқчи сўзлар билан баҳс // Таржима санъати (мақолалар тўплами). 5-kitob. T.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.

3. Hill R. A dictionary of false friends. London: Macmillan Press, 1982.

4. Ochilov E. Tarjima nazariyasi (o‘quv qo‘llanma) T.: – 2014.

5. Ҳамидов Х. Дунёнинг ишлари турк тилида, Очилов Э. Шеърий таржима мураккабликлари // Таржима масалалари (илмий мақолалар тўплами) 2-қисм. – Тошкент, 2014.
6. "عروس فرغانة" جرجي زيدان - 2012
7. Zaydon J. Farg‘ona kelini (Shoikrom Shoislomov tarjimasi) T.: 2008.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”
9. Жўраев К. Лев Пеньковский ижодхонасида // Таржима санъати (мақолалар тўплами) 4-қисм – Т.: Фан, 1982.

O‘ZBEK VA XITOY TILIDAGI RITMIK SINONIMIYADA SINTAKTIK OMILLAR

Dilshodjon KHIKMATOV, *TDSHU magistranti*

Sinonimiya bu keng ko‘lamli tushuncha bo‘lib uni nutq jarayonida qo‘llagan paytda insondan sinonimlarni mohirlik ila foydalanish talab etiladi. O‘zbek tilida sinonimlik hodisasi ikki xil so‘zning ayni bir ma’noni anglatilishi tushuniladi. Xitoy tilida ham shunga o‘xshash holat desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xitoy tilshunosligida ma’nosi bir-biriga yaqin, lekin turlicha talaffuz qilinadigan so‘zlar sinonimlar deb ataladi. Bunda juda ko‘p jihatlar e’tiborga olinadi.

“Hozirgi zamon xitoy tili” (现代汉语书) kitobini misol qilib oladigan bo‘lsak, uning mualliflar jamoasi: “Sinonim so‘zlar faqatgina turli xil talaffuz va ohangga ega bo‘lgan so‘zlardir” [1] deydilar. Lekin, ko‘p hollarda xatoliklarga ham yo‘l qo‘yilishi ta’kidlanadi. Umumiy tilshunoslikda “sinonim” tushunchasiga ta’rif berishda turli nuqtai nazarlar mavjud. Mazkur nuqtai nazarlardan bizga ma’lum bir-ikkitasini misol tariqasida keltiramiz.

Birinchisiga ko‘ra, sinonim so‘zlar – bu bir xil ma’noga ega, lekin shakli turli xil bo‘lgan so‘zlardir. Bu fikrni ko‘pchilik olimlar qo‘llab-quvvatlaydilar. Ikkinchisiga ko‘ra, sinonim so‘zlar – bu talaffuzi turlicha, ma’nosi esa bir xil bo’lmagan, ammo juda yaqin bo‘lgan so‘zlardir. Bunday nuqtai nazarni esa ko‘pchilik mashhur tilshunoslar himoya qiladilar [2].

“Sintaktika” termini esa, garchi ayni hozirgi ma’noda bo‘lmasada, dastlab mil. av. 3-asrda Yunonistonda stoiklar tomonidan qo‘llangan.

Sintaktikaning ilk prinsiplarini yunon grammatisti Apolloniy Diskol morfologik negizda, xususan, so‘z turkumlari Sintaktikasi tarzida asoslagan. Sintaktika tarixi Yevropa va rus tilshunosliklarida bo‘lganidek turkiy tillarda (o‘zbek tilida) ham o‘ziga xos rivojlanish bosqichlarini o‘tgan. Qomusiy alloma Mahmud Koshg‘ariyning 11-asrda “Javoxir un-nahvi fi lug‘otit-turk” (“Turkiy tillar sintaksisi kridalari”) asarini yaratganligi buning yaqqol isbotidir. 20-asrda o‘zbek tili sintaksisiga, qisman, sintaktik qurilishiga rus tilshunosligidagi nazariy tadqiqotlar ma’lum darajada ta’sir o‘tkazgan. O‘tgan asrda o‘zbek tili sintaksisi sohasida Fitrat, Ayub G‘ulomov, F. Abdullayev; G‘. Abdurahmonov, M. Asqarova, A. Nurmonov, N. Mahmudov va boshqa jiddiy tadqiqotlar olib bordilar.

Nutq birliklarini shakllantirishning muayyan tillar uchun xos bo‘lgan vositalari majmui sintaktika hisoblanadi. Sintaktik bo‘lim grammatikaning so‘zlarni so‘z birikmalari va gaplarga, sodda gaplarni esa qo‘shma gaplarga birikish usullarini o‘rganuvchi, so‘z birikmalari va gaplarning tuzilishi, ma’nosi, o‘zaro ta’sirlashuvi hamda vazifalarini tadqiq etuvchi bo‘limidir. Xitoy tilidan o‘zbek tilida so‘zlar va gaplar tarjima qilinayotganda sintaktik omillariga e’tibor katta e’tibor berish zarur. Masalan: 拜访(bàifǎng)/访问 (fǎngwèn) – tashrif buyurmoq. Ikkala fe‘l ham qayergadir tashrif buyurmoq yoki kimnidir ko‘rishga bormoq va u bilan suhbatdosh bo‘lmoq ma’nolarini ifodalaydi. Bu ikki fe‘lning farqli jihatlari quyidagilardir:

拜访 ko‘pincha ijtimoiy munosabatlar doirasida qo‘llaniladi va har doim hurmat-ehtirom ma’nosini ifodalaydi. Mehmonning mezbon huzuriga tashrif buyurgan holatidagi hurmatini ta’kidlab keladi. Masalan: 拜访了几位科学家 [Bàifǎngle jǐ wèi kēxuéjiā] - Bir nechta olim tashrif buyurdi. 拜访了市长先生。[Bàifǎngle shì zhǎng xiānshēng.] - Shahar hokimi tashrif buyurdi. 访问, shuningdek, ot so‘z turkumiga ham xos bo‘lib, muayyan maqsad asosida biror joy, tashkilotga yoki ma’lum bir shaxsni ko‘rishga bormoq ma’nosini ifodalaydi, o‘zida hurmat-ehtirom ma’nolarini mujassamlashtirmaydi. Masalan: 访问工厂 [fǎngwèn gōngchǎng] -zavodga tashrif buyurmoq, 访问足球运动员 [fǎngwèn zúqiú yùndòngyuán] - futbolchilarni ko‘rgani bormoq, 去中国访问. [qù zhōngguó fǎngwèn] – Xitoyga tashrif buyurmoq. Bundan tashqari xitoy tilida ham o‘zbek tilida ham “Sintaksis” termini so‘z birikmalari va gaplarni hamda ularning tilda

qo‘llanishini qamrab oluvchi grammatik qurilish ma’nosini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Tilning grammatik qurilishida sintaktika juda katta ahamiyatga ega, chunki uning tarkibiga bevosita kishilarning muomala muloqot jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi sodda gap va qo‘shma gap kabi til birliklari kiradi. Sodda gap muayyan voqea hodisani, qo‘shma gap voqea hodisalar orasidagi aloqa munosabatni, gap bo‘lagi esa voqea hodisa unsurlarining vazifalarini ifodalaydi. Masalan: 帮忙 (bāngmáng)/帮助 (bāngzhù) – yordam bermoq [3]. Ikkala fe‘l ham o‘z kuchini ishlatgan holda boshqalarga ko‘maklashish ma’nosini ifodalaydi. Ularning quyidagi farqli jihatlari mavjuddir: 帮忙 ko‘pincha insonlarning maishiy hayotda yoki ishda bir-birlariga yordamlashishini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Masalan: 小李要搬家，大家都来给他帮忙。[Xiǎo li yào bānjiā, dàjiā dōu lái gěi tā bāngmáng.] – Xiaoli ko‘chmoqchi, hamma unga yordam berish uchun kelibdi. 帮助 esa nafaqat insonlarning bir-biriga yordamini, balki ma’naviy yoki moddiy yordam ma’nosini ham ifodalashi mumkin. Masalan: 帮助贫困学生 [Bāngzhù pínkùn xuéshēng] - kam ta’minlangan talabalarga yordam bermoq, 帮助学习上有困难的同学 [bāngzhù xuéxí shàng yǒu kùnnán de tóngxué] – o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan talabalarga yordam bermoq. 帮忙 fe‘li 离合词 (líhé cí) [4] hisoblanib, mazkur so‘zning ikki bo‘g‘ini orasiga boshqa so‘z yoki so‘z birikmasi qo‘shilishi mumkin, 帮帮忙 [bāng bāngmáng] – yordam bering, 帮了我一个大忙 [bāngle wǒ yīgè dàmáng] - Menga juda katta yordam berd. 帮倒忙 [bāngdàománg] – Yordam berib yuboring kabi. Lekin 帮助 bunday ko‘rinishda ishlatila olmaydi.

Sintaktika morfologiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Sintaktikada, xuddi morfologiyada bo‘lgani singari, so‘z asosiy birlik hisoblanadi, lekin u shakl yasalishi jihatidan emas, balki so‘z shakllarining so‘z birikmasi va gaplarni tuzishdagi ishtiroki jihatidan o‘rganiladi. So‘z birikmalari va gaplar tilning asosiy sintaktik birliklari va ularning har biri o‘z ichki xususiyatlariga egadir. Masalan :保存 (bǎocún)/保留 (bǎoliú) – asramoq [5]. Ikkala fe‘l ham asramoq, saqlamoq kabi ma’nolarni ifodalaydi. Ba’zi hollarda bir-birini o‘rniga ishlatila oladi. Masalan: 过去的东西，他只保存/保留了几样. [Guòqù de dōngxi, tā zhǐ bǎocún/bǎoliúle jǐ yàng.] – Eski narsalardan u faqat bir nechtasini saqlab qo‘ygandi. Farq qiluvchi jihatlari esa quyidagilarda namoyon

bo‘ladi: 保存 ko‘pincha narsa-predmetlarga zarar yetkizmasdan, ularning mavjud bo‘lishini davom ettirish ma’nosini bildiradi. Ko‘pincha aniq otlar bilan qo‘llaniladi. Masalan: 他保存了不少文物 [Tā bǎocún liǎo bù shǎo wénwù] - U anchagina madaniy boylik asrab qo‘ygandi. 保存力量，下午还有一场比赛呢。[Bǎo cún lìliàng, xiàwǔ hái yǒuyī chǎng bǐsài ne.] – Kuchingni asra, tushdan so‘ng yana bir o‘yin bor-ku.

保留 esa biror narsani o‘zgartirmay aslicha saqlashni ta’kidlaydi. Bu fe‘l ham aniq otlar, ham mavhum otlar bilan qo‘llaniladi. Masalan: 城市的改造应该保留原貌 [Chéngshì de gǎizào yīnggāi bǎoliú yuánmào] - Shaharning qayta qurilishi uning asl ko‘rinishi saqlab qolishi lozim. 这所房子作为文物保留了下来。[Zhè suǒ fáng zǐ zuòwéi wénwù bǎoliúle xiàlái.] – Bu uy madaniy yodgorlik sifatida saqlanib kelmoqda. Boshqa hollarda esa 保留 qoldirmoq, qolmoq kabi ma’nolarni ham ifodalab keladi. Masalan: 对这件事, 我持保留意见. [Duì zhè jiàn shì, wǒ chí bǎoliú yìjiàn] – Bu ishga nisbatan, men o‘z fikrimda qolaman.

保护 (bǎohù)/维护 (wéihù) – g‘amxo‘rlik qilmoq [5]. Ikkala fe‘l ham g‘amxo‘rlik qilmoq, ziyon yetkazmaslikka harakat qilmoq kabi ma’nolarni anglatadi. Ba’zi hollarda o‘zaro almashilib ishlatila oladi. Masalan: 保护/维护公民合法权益。[Bǎohù/wéihù gōngmín héfǎ quányì] – Fuqarolarning huquq va manfaatlari haqida qayg‘urmoq. Boshqa hollarda esa mazkur fe‘llar quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi: 保护 ko‘pincha shaxs yoki narsa-predmetni ehtiyot qilmoq, muhofaza qilmoq kabi ma’nolarni ta’kidlab keladi, ko‘pincha aniq otlar bilan birga qo‘llaniladi. 保护 shaxs yoki narsa-predmetni bildirib keluvchi ot yoki olmosh so‘z turkumiga mansub so‘zlar bilan birikma hosil qiladi. Masalan: 保护环境 [bǎohù huánjìng] - atrof-muhitni muhofaza qilmoq, 保护牙齿 [bǎohù yáchǐ] - tishlarni asramoq, 保护资源 [bǎohù zīyuán] - resurslarni asramoq, 学会自我保护 [xuéhuì zìwǒ bǎohù] - o‘zini-o‘zi himoya qilishni o‘rganmoq, 他要保护自己的孩子。[Tā yào bǎohù zìjǐ de háizi.] – U o‘z farzandini ehtiyot qilishi kerak.

维护 esa narsa-predmetni himoya qilmoq, ziyon yetkazmasdan saqlamoq ma’nolarini ifodalaydi. Mazkur fe‘l ko‘pincha mavhum otlar bilan birikadi va ko‘pincha bu otlarning ma’no ko‘lami nisbatan keng bo‘ladi. Masalan: 维护国家主权 [wéihù guójiā zhǔquán] - mamlakat

suverenitetini himoya qilmoq, 维护世界和平 [wéihù shìjiè hépíng] – dunyoviy tinchlikni asramoq kabi.

变 (biàn)/变化 (biànhuà) – o‘zgarmoq. Ikkala fe‘l ham muayyan vaziyatning boshlang‘ich holatidan boshqa holatga o‘tishini bildiradi. Ularning farqli xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: 变 dan so‘ng ko‘pincha o‘zgargan natijani bildiruvchi to‘liqlovchi ishlatiladi. Masalan: 天气变暖和了. [Tiānqì biàn nuǎnhuole.] - Havo ilidi. 城市变得越来越漂亮了. [Chéngshì biàn de yuè lái yuè piàoliangle.] – Shahar tobora o‘zgarib go‘zallashib bormoqda. 变 fe‘li natijaviy to‘ldiruvchi bilan qo‘llanmagan hollarda uni 变化 bilan almashtirib ishlatsa bo‘ladi. Masalan: 社会在变/变化，我们的思想也要跟着变/变化。[Shèhuì zài biàn/biànhuà, wǒmen de sīxiǎng yě yào gēnzhe biàn/biànhuà.] – Jamiyat o‘zgarmoqda, bizning ongimiz ham mos ravishda o‘zgarishga yuz tutmoqda.

变, shuningdek, to‘ldiruvchi bilan ham qo‘llaniladi, bunday holda barcha narsa-predmetga tegishli xossa va holatlarning o‘zgarishi anglashiladi. Masalan: 这东西放在阳光下就变色。[Zhè dōngxi fàng zài yángguāng xià jiù biànsè.] - Bu narsa quyosh nuri tushadigan joyga qo‘yilsa darrov rangi o‘zgaradi. 这鞋穿了多年也不变形。[Zhè xié chuānle duōnián yě bù biànxíng.] – Bu oyoq kiyimni necha yil kiyilsa ham shaklini o‘zgartirmaydi. 变化 esa o‘zgarish jarayonini yoki uning natijasini ta’kidlab keladi. Masalan: 气候的变化对人们的生活影响很大。[Qìhòu de biànhuà duì rénmen de shēnghuó yǐngxiǎng hěn dà] – Iqlim o‘zgarishining insonlar hayotiga ta’siri kattadir. 变化 dan so‘ng, odatda, vositasiz to‘ldiruvchi ishlatilmaydi. Quyidagi so‘z birikmalari tarkibida qo‘llaniladi: 发生变化 [fāshēng biànhuà] - o‘zgarish sodir bo‘lmoq, 起变化 [qǐ biànhuà] - o‘zgarmoq, 有变化 [yǒu biànhuà] - o‘zgarmoq, 随 …… 而 变 化 [suí……ér biànhuà.] – … tufayli o‘zgarmoq. 变化, shuningdek, ot so‘z turkumiga ham xosdir: 这真是个可喜的变化。[Zhè zhēnshi gè kěxǐ de biànhuà] – Bu haqiqatda quvonchli o‘zgarishdir. Biroq 变 bunday xususiyatga ega emas.

Sintaktik gap, gap bo‘lagi, so‘z birikmasi sintaktikaning asosiy birliklaridir. Bularga keyingi paytlarda abzats, period, matn kabi birliklar ham kiritilmoqda. So‘z birikmasi tobe aloqa (bog‘lanish) vositalari — moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv yordamida ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zdan xosil bo‘ladi va faqat gap tarkibidagina

amal qiladi. Gap Sintaktikaning markaziy birligidir. U struktursemantik qolip va nutq birligi bo‘lmish fikr sifatida o‘rganiladi. Gap fikrni — tashqi olam bilan aloqa tufayli yuzaga keladigan histuyg‘ularni ifodalash vositasidir. Gap bir mustaqil so‘zdan (“qorong‘ilashmoqda”, “jimjitlik”), aksariyat hollarda esa bir necha so‘zdan hosil bo‘ladi. Asosan, sintetik tillar, shuningdek, analitik tillarning xususiyatlariga ega bo‘lgan o‘zbek tilida gapdagi so‘zlarning bog‘lanish vositalari sifatida yordamchi so‘zlar — ko‘makchilar va bog‘lovchilarni, so‘z tartibini, ohangni va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Sof analitik tillarda gapdagi so‘zlarning bog‘lanish vositalari, asosan, yordamchi so‘zlar bo‘lsa, agglyutinativ va amorf tillarda mazkur vazifani so‘z tartibi bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 贺国伟 “现代汉语同义词词典”，2005 年，550 页
2. 牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册”- 北京：北京大学出版社，2004，179 页
3. 牟淑媛，王硕　北京：北京大学出版社，2004，5 页
4. 牟淑媛，王硕 “语近义词学习手册”- 北京：北京大学出版社，2004，7 页
5. Xitoy tilida 离合词 *líhécí* (离 *lí*- ajratmoq; 词 *cí*– so‘z; 合 *hé*- qo‘shmoq) ajratib hamda qo‘shib qo‘llaniladigan so‘zlarga nisbatan aytiladi. (so‘zma-soz tarjima)
6. 牟淑媛，王硕　　北京：北京大学出版社，2004，8
7. 牟淑媛，王硕　　北京：北京大学出版社，2004，10
8. 牟淑媛，王硕　　北京：北京大学出版社，2004，17

XITOY TILIDA NEOLOGIZMLARNING 热 RE, 城 CHENG, 迷 MI YARIMSUFFIKSLAR YORDAMIDA YASALISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA

Iroda SAFAROVA, *TDSHU magistranti*

Xitoy tilidagi 热 morfemasi etimologik jihatdan o‘zbek tiliga “issiq” yoki “qaynoq” deb tarjima qilinadi: 热爱 re’ai “otashin sevgi”, 火热 huore “xuddi olovdek qaynoq” va shu kabilar. Masalan, 天气热吗 ? Tianqi re ma? “Ob-havo issiqmi?” So‘nggi yillarda mazkur

yarimsuffiks orqali bir qancha ot va fe’l so‘z turkumiga doir so‘zlar yasalmoqda, yasalgan so‘zlarning deyarli barchasida 热 re morfemasi o‘zining etimologik ma’nosini saqlab qolgan holda “zavq”, “ishtiyoq”, “qiziqish” kabi ma’nolarni kasb etadi hamda ma’lum ko‘ngilochar voqea-hodisalarni va ma’lum narsa-predmetlarga qiziqishi ortishini izohlaydi. Mazkur yarimsuffiks orqali yasalgan so‘zlarni xitoy tili leksikologiyasida minglab uchratish mumkin. Masalan, 古典题材热 gudian ticaire “qadimgi syujetlarga qiziqish” deb tarjima qilinadi, bunda 古典 gudian “qadimiy”, 题材 ticai esa “syujet” degan ma’nolarni anglatadi va 热 re so‘z yasovchi yarimsuffiksi qo‘shilishi natijasida yangi ma’noli so‘z yasaladi.

养花热 yang huare xitoy tilidan o‘zbek tiliga “gul parvarishiga qiziqish” deb tarjima qilinadi, bu holatda 养 yang fe‘l so`z turkumiga doir so‘z bo‘lib, u ‘“parvarish qilmoq” kabi ma’noni anglatadi, 花 hua so‘zi esa “gul” ma’nosini beradi. Ushbu komponentlarga 热 re so‘z yasovchi yarimsuffiks qo‘shilishi orqali yangi ma’noli so‘z hosil bo‘ladi. Masalan, 自行车热 zixingchere “veloishtiyoq” so‘zi ham boshqa so‘zlar qatori 热 re yarimsuffiksi orqali yasalgan hisoblanadi, bunda 自行车 zixingche so‘zi “velosiped” deb tarjima qilinadi.

彩电热 caidianre so‘zi xitoy tilidan o‘zbek tiliga “zangori oyna ishtiyoqi” sifatida tarjima qilinadi hamda 彩电 caidian so‘zi “rangli televizor(zangori oyna) ma’nosini anglatadi.

外语热 waiyure “chet tillariga qiziqish” deb tarjima qilinadi, ushbu so‘zda 外语 waiyu “chet tillar” ma’nosini beradi hamda 热 re yarimsuffiksi qo‘shilishi natijasida yasalgan yangi ma’noli so‘zlar misol bo‘la oladi.

So‘nggi yillarda esa quyidagi so‘zlar ayollar pardoz-andoz vositalariga ham o‘z tasirini ko‘rsatdi. Jumladan, 珍珠热 zhenzhure “marvarid shodalariga qiziqish”, 珍珠霜热 zhenzhushuangre “marvarid krem vositlariga qiziqish”, 珍珠液热 zhenzhuyere “marvarid duri nomli ichimliklarga mukkasidan ketish” kabi so‘zlar misol bo‘la oladi.

Yangi so‘zlarni yasashda sermahsul yarimsuffikslardan hisoblangan 热 re yarimsuffiksining grammatik xususiyatlarini quyidagi holatlarda uchratishimiz mumkin. Birinchi navbatda, 热 re yarimsuffiksi turg‘un suffiks hisoblanib, odatda yetakchi morfemadan, ya’ni asosdan so‘ng keladi hamda o‘zining leksik ma’nosini namoyon

etadi. Masalan, 外语热 waiyure “chet tillariga qiziqish” deb tarjima qilinadi va 热 re yarimsuffiksi asosdan so‘ng qo‘shiladi. Biroq, 热外语 rewaiyu tarzida ifodalab bo‘lmaydi. Xuddi shu tarzda 彩电热 caidianre “zangori oyna ishtiyoqmandi” kabi so‘zni ham teskari holatda, ya’ni 热彩电 recaidian shaklida ifodalab bo‘lmaydi. Quyidagi grammatik holatlarda esa 热 re yarimsuffiksi o‘zining leksik ma’nosini butunlay saqlab qoladi. 电热 dianre “elektrotermiya”, 热电 redian “termoelektr” , 热电厂 redianchang “issiqlik elektr stansiyasi” deb tarjima qilinadi. 热 re yarimsuffiksi, odatda, ikki va undan ortiq, ya’ni murakkab komponentlardan so‘ng qo‘shilib yangi so‘zlarni yasashda xizmat qiladi. Misol tariqasida quyidagi so‘zlarni keltiramiz: 中餐热 zhongcanre “xitoy oshxnasiga qiziqish”(中餐 zhongcan “xitoy oshxonasi”), 排球热 paiqiure “voleybol ishtiyoqi” (排球 paiqiu “voleybol”), 武术热 wushure “ushu ishtiyoqi” (武术 wushu “xitoy ushu jang san’ati”), 数学化热 shuxuehuare “ matematika fanlariga qiziqish” (数学 shuxue “matemtika fani”) kabi so‘zlarni keltirish mumkin.

城 cheng yarimsuffiksi ishlatilish doirasi juda keng hisoblanadi. Mazkur yarimsuffiks yordamida xitoy tili leksikasida “joy”, “shaharcha” , “do‘konlar kompleksi ” kabi ma’nolarni anglatuvchi qator yangi jumlalar madaniy hamda ijtimoiy sohalarda tobora ko‘paymoqda. Masalan: 鞋城 xiecheng “poyafzal shahri” (poyafzal sotiladigan joy): bu yerda 鞋 xie so‘zi “poyafzal” ma’nosini anglatadi hamda 城 cheng so‘z yasovchi yarimsuffiks bilan birgalikda yangi ma’no anglatadigan so‘z hosil qiladi.

服装城 fuzhuangcheng “kiyim-kechaklar do‘koni”: bu yerda 服装 fuzhuang “kiyim-kechak” so‘zi 城 cheng yarimsuffiksi bilan birgalikda yangi so‘z hosil qilgan.

娱乐场 yulechang “ko‘ngilochar shaharcha”: bu yerda 娱乐 yule so‘zi “ko‘ngilochar” deb tarjima qilinadi hamda 城 cheng yarimsuffiksi bilan birgalikda ot so‘z turkumiga oid so‘z hosil qilgan.

图书城 tushucheng “kitoblar dunyosi”: bu so‘z yasalishida esa 图书 tushu “kitoblar” hamda 城 cheng yarimsuffiksi birgalikda yangi ma’noli so‘z hosil qilgan.

装饰城 zhuangshicheng “taqinchoqlar shaharchasi”: bunda ham aynan 城 cheng yarimsuffiksi orqali 装饰 zhuangshi “taqinchoqlar” sotiladigan joy izohlangan.

美食城 meishicheng “lazzat taomlar shaharchasi”, 电影城 dianyingcheng “shahardagi kinoteatr saroylari joylashgan joy” , 火锅城 huoguocheng “shaharning restoran va tamaddixonalari joylashgan qismi” kabi so‘zlar shular jumlasidandir. Yuqorida keltirilgan misollardan xulosa qilish mumkinki, xitoy tili leksikasidagi mavjud so‘z yasovchi morfemlar orasida 城 so‘z yasovchi yarimsuffiksi yangi so‘zlarni hosil qilganda o‘zining etimologik ma’no-mohiyatini hamda tarjimasini saqlab qoladi. Bundan tashqari, bu yarimsuffiks orqali yasalgan so‘zlarda ham aynan shu ma’no o‘z ifodasini topadi.

Xitoy tilidagi 迷 mi morfema sermasul yarimsuffikslardan biri bo`lib, ushbu yarimsuffiksi orqali xitoy tilida bir qancha shaxs otlarini yasash mumkin. 迷 mi yarimsuffiksi ma’lum shaxsning qiziqishlari natijasida madaniy soha bilan bog‘liq bo‘lgan biron-bir musiqa, san’at yoki sport turi va boshqa sohalarga qizishni hamda ushbu sohlarda tashabbuskorlik ko‘rsatishni bildiradi. Shu bilan birga, “ishqiboz”, “havasmand”, “jonboz” kabi ma’nolarda tarjima qilinadi. Misol tariqasida quyidagi so‘zlarni keltirib o‘tamiz: 足球迷 zuqiumi so‘zi xitoy tilidan o‘zbek tiliga “futbol ishqizbozi” deb tarjima qilinadi, bunda 足 zu so‘zi “oyoq”, 球 qiu so‘zi esa “koptok” deb tarjima qilinadi. Ushbu so‘zlarga 迷 mi so‘z yasovchi yarimsuffiks qo‘shilib, yangi ma’noli so‘z birikmani hosil qiladi.

芭蕾舞米 baleiwumi so‘zi xitoy tilidan o‘zbek tiliga “balet havasmandi” degan ma’noni anglatadi, bu so‘z yasalishida 芭蕾舞 baleiwu “balet san’ati” so‘ziga 迷 mi so‘z yasovchi yarimsuffiks qo‘shilishi orqali yangi ma’no anglatuvchi so‘z hosil bo‘lgan; 网迷 wangmi so‘zi esa “internet ishqibozi” deb tajima qilinadi hamda 网 wang “internet tarmog‘i” so‘ziga 迷 mi so‘z yasovchi yarimsuffiks qo‘shilishi natijasida so‘z birikmasi yasalgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki: yangi kirib kelgan so‘zlarning ko‘pchiligi ko‘p ma’noli (ikki va undan ortiq); neologizmlarda, odatda, bir ma’noli so‘zlarga nisbatan turg‘un birikmalar ko‘plab uchraydi, bu esa yangi so‘z birikmalarini tashkil etadi; bir qator neologizmlar yozuvchi, jurnalist va jamoat arboblari

faoliyati davomida kelib chiqadi va keng ko‘lamda iste’molga yangi so’z sifatida foylanish boshlanadi; aksariyat yangi paydo bo‘lgan so‘zlar fonetik o‘zlashtirilgan so‘zlar ko‘rinishda bo‘ladi; zamonaviy xitoy tili leksikasida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishida suffiks, yarimsuffiks va preffikslarning ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Горелов В. Лексикология китайского языка. – М.: 1984. – 321 с.
2. Хашимова С. Хитой тилида сўз ясалиши. – Т., 2012. – 150 б.
3. Носирова С. Хитой тилининг ижтимоий–сиёсий ва дипломатик терминологияси. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 150 б.
4. Семенас А. Лексика современного китайского языка. – М.: Наука, 1992. – 277 с.
5. 任学良.汉语选词法.- 北京, 1981..
6. 故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012 年.
7. 刘月华。汉语语法论集。现代出版社，1992 年。
8. 朱德藩。现代汉语语法研究。商务印书馆，2007 年。

ARAB MAQOLLARINING O‘ZBEK TILIDAGI MUQOBILLARI VA SEMANTIK TAHLILI

Sabina ISLOMOVA, *TDSHU magistranti*
Ilmiy rahbar: PhD. Mubarakova D.

Asrlar davomida xalqning turmush tarzi, tarixi, urf-odatlari, qadriyatlari bilan aloqador barcha milliy o'ziga xoslik uning og'zaki ijodi bilan bog'liq asarlarda aksini topadi. Insoniyatning eng noyob ma'naviy yodgorliklaridan biri sanalgan maqol millat lisoniy tafakkurining hosilasi sanaladi. Har bir elning ma'naviy qadriyatlar tizimini anglatuvchi lisoniy birliklarda mazkur elatning dini, tili, millati kabi muqaddas tushunchalar mohiyati jamlangan bo'ladi. “Maqol — xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Nutqda keng qo'llanuvchi muayyan, barqaror ritmik shaklga ega bo'lib, ular xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan”. [5:312]

Maqollarda avlod ajdodlarimizning hayotiy kuzatishlari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, belgili xususiyatlari mujassamlashib, xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Maqol o'z tabiatiga ko'ra, og'zaki yoki

yozma nutqda ko'chma yoki o'z ma'nosida qo'llanilishi mumkin. Ayrim maqollar esa faqat ko'chma ma'noda («Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi», «Quruq qoshiq og'iz yirtar»), ba'zan o'z ma'nosida («Ona yurting omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas») ishlatiladi. Maqollar mavzu va mohiyatiga ko'ra nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do'stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy xislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p manolilik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar harakterli. Maqolda antiteza hodisasi ko'p uchraydi (masalan, «Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l» va boshqalar). Maqollar nasriy va she'riy shaklda bo'ladi. «Mehnat, mehnatning tagi rohat» kabi maqollar nasrda bo'lsada ularda ham poetik ohang sezilib turadi: «Elga bersang oshingni, Erlar silar boshingni. Itga bersang oshingni, itlar g'ajir boshingni», kabi she'riy maqollarda esa xuddi she'rdagi kabi ichki ohang, qofiyaga ega boladi.

Turkiy xalqlarning maqollaridan na'munalar dastlab Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir xam o'zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Masalan, Mahmud Qoshg'ariy asarida kelgan «Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin»maqoli bugungi kunda «Odam olasi ichida, mol olasi tashida» shaklida qo'llaniladi. [2:68]

Maqol ba'zan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, hikmatli maqol, donishmandlar so'zi, otalar sozi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g'oyat katta. Mazkur maqolada o'zbek va arab maqollarini qiyosiy aspektda o'rganishga harakat qilamiz. Muqoyasa qilishga sabab o'zbek va arab xalqlari o'rtasidagi o'xshash jihatlar borligi e'tiborimizni tortdi. Bu dastlab, diniy-e'tiqodiy, madaniy-ma'rifiy, irfoniy qarashlarda o'z aksini topadi. O'zbek xalqining ulug' yozuvchisi Abdulla Qodiriy ham ilk o'zbek romanini yaratishda "arab fuzalosi Jurji Zaydondan" ilhomlanganligini bejiz ta'kidlamagan.

Har bir maqolda o'sha xalqning milliy qiyofasi gavdalanadi. Tilning ko'rki va badiiyligi ifodasi sanalmish maqol, matal va frazeologik birliklar xalqning milliy madaniyati va mentaliteti, millatning turmush tarzi hamda qadriyatlarini ifoda etadi. Maqol muayyan bir millatning o'zligi, tarixi va kelajagi, estetik tafakkuri,

xalqona ohangini o'zida mujassamlaydi. Badiiy asar maydonidagi har bir maqol leksik-semantik mazmun bilan birga badiiy funksiyaga ega bo'ladi.

Sharqshunos olim Shorustam Shomusarov yirik monografik plandagi tadqiqotini “Arab va o'zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili”ga bag'ishlab, unda arab-o'zbek folklor aloqalarining eng qadimiy ildizlarigacha tadqiq etgan. Olim “O'zaro adabiy ta'sir va epik tafakkurning o'zaro aloqalari jahon xalqlari og'zaki badiiy ijodi an'analarining poetik rivojini ta'minlaydigan estetik omillar sirasiga kiradi. Hech bir xalq folklori qadimiy mifik tasavvurlarga asoslangan badiiy zamindan tashqarida shakllanmaydi va o'zga xalqlar folklorining epik ta'sirisiz rivojlanmaydi”, deb qayd etadi.[7:297]

Shunday ekan o'zbek-arab maqollarida ham ayni shu jihatlar ko'zga tashlanadi. O'zbek maqollarida o'zbek millatiga xos, arab maqollarida esa arablarga xos e'tiborli nuqtalar ko'zga tashlanadi. Maqol so'zi arab tilida "hikma"(حِكْمَةٌ " dono gap, ibratli so'z) deb yuritilib o'zbek tilidagi maqol so'zining ekvivalent shaklidir.

Arablarda zakiy, "nishondor" so'zi qadimdan qadrlangan. Mufaddal Dabbiy, Hamza Isfahoniy va az-Zamaxshariylarning to'plamlari islomga qadar yaratilgan minglab maqol va matnlar haqida tushuncha beradi. "Bu ishda menga na tuya va na bo'taloqchaga foydam bor" kabi maqollar, albatta, islomga qadar yashagan badaviylar tilidan aytilgandir. Qadimgi arab maqol va matallarini ikki guruhga bo'lish mumkin: sharqiy (Iroq, Bahrayn, Ummon, Hadramut, Naj) va g'arbiy (Hijoz va Yaman). Sharqiy arab maqollariga misol tariqasida Mufaddal Dabbiy to'plamida keltirib o'tilgan quyida mashhur maqollarni keltirib o'tish mumkin:

- كما تزرع تحصدNima eksang, shuni o'rasan.[1:91]
- راس الدين المغرفةmadaniyatning o'chog'i bilimdir.[1:23]

Sharqiy arab maqollarining barchasi badaviylarga xos bo'lsa, g'arbiy maqollarda qadim davrlardanoq shaharlarga xoslari ko'p uchraydi. Misol tariqasida Makka ahli orasida mashhur bo'lgan quyidagi maqolni keltirishimiz mumkin:

- امسك عليك نفقتكTejolining ishi bejoli.[1:14]

Keyinchalik, islom hududining jug'rofiy kengayishi oqibatida ushbu mintaqalarda yashaydigan xalqlarga xos bo'lgan yangidan yangi maqollari paydo bo'la boshladi. Bularning ko'pchilik qismi shahar maqollari edi. Bu davrda qator xalqlarning, asosan, Markaziy Osiyi

xalqlarining maqollari arab tiliga tarjima qilinib, ular qisqacha qilib "al-muvallad" (qo'shilgan, ko'chirilgan) deb nomlana boshlagan (hozirda ko'pgina Yevropa xalqlari qo'llayotgan "mulat" so'zi aslida "muvallad" so'zidan kelib chiqqan). Ko'chirilgan maqollarda hozirda ham mashhur bo'lgan quyidagi maqolni keltiramiz:

الْخَرْسُ سَمِنُ حَتَّى صَار كَانَّةُ- semizlikni qo'y ko'taradi.[1:6]

Vaqt o'tishi bilan har bir arab davlatining maqollari differensiyalasha boshladi. Bizgacha yetib kelgan maqollarning eng ko'p qismi Iroq va Misr xalqiga xos bo'lgan maqollardir. Quyida arab tilida mavjud bolgan maqollarning o'zbekcha variantlariga to'xtalib o'tamiz.

سَلامَةُ الاِنْسَانُ فِي حِفْظِ اللِّسانُ- inson salomatligi tilni tiyishdadir, o'zbek tilida esa "til bor bol keltirar, til bor balo keltirar", tarzida qo'llaniladi.[3:108]

الْحَسَدُ مُهْلِكُ الْجَسَدُ — hasad tanani yemiradi, o'zbek tilida "baxilning bog'i ko'karmas", tarzida.[3:108]

شَرْطُ الْأُلْفَةِ تَرْكُ الْكُلْفَةِ- - ulfatchilik sharti kulfatni tark etishdir. Bugungi kunda o'zbek tilida ulfatchilik degan so'z ko'proq salbiy ifodani anglatuvchi ma'noni bildiradi. Zero, bu o'rinda "do'st bilan obod uying, gar bolsa u vayrona ham, do'st qadam qo'ymas ekan vayronadir koshona ham" [4:160] ma'nosini anglatadi. [3:108]

الْمَوَدَّةُ شَجَرَةٌ وَ الزِّيَارَةُ ثَمَرَتُهَ- mehr bir daraxtdir, ziyorat esa uning mevasidir, o'zbekchada shunga yaqinroq: "obod qilgan, obod boladi" ma'nosida ishlatiladi. [3:108]

لِسَانُ الْمَرْءُ كَاتِبُ عَقْلِهِ- kishining tili aqlining ko'zgusidir, o'zbekchada: "til tafakkur belgisi" mazmunida qo'llaniladi. [3:109]

عِزُّ الدُّنْيَا بِالْمَالِ- foniy dunyo boylik bilan azizdir, "dunyo aldamchi matohdir" degan falsafiy mazmunni anglatadi. [3:109]

الْكُتُبُ بَسَاتِينُ الْعُلَمَاءِ- kitoblar olimlarning bo'stonidir, o'zbekchada "olim aytgani olam aytgani" tarzida ishlatiladi. [3:109]

الْعَجَلَةُ أُخْتُ النَّدَامَةِ- shoshqaloqlik nadomat keltiruvchidir, o'zbekchada esa "shoshgan qiz erga yolchimas" muqobilida qo'llaniladi. [3:109]

الْكَسَلُ بِنْتُ الْغِنَا وَ أُمُّ الْفَقِيرِ- dangasalik kambag'allik onasi, hursandchilikka oshnodir, o'zbekchada "dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas" tarzida ishlatiladi. [2:109]

عَيْنُ الْمَرْءِ عُنْوَانُ قَلْبِهِ تُخْبِرُ عَنْ اَسْرَارِهِ- kishining ko'zi qalb sirlarining xabarchisi, o'zbekchada bo'lsa, "koz qalb kozgusi" tarzida iste'moldadir. [3:109]

اَهِنْ دِرْهَمَكَ وَ لَا تُهِنْ نَفْسَكَ- dirhaming oz bo'lsa ham, o'zingni past tutma, ozbekchadagi muqobili "joningni fido qilsang ham, nomusingni fido qilma" deyish mumkin. [3:109]

O'rta asrlarga kelib maqol va matallar adabiyotga kirib keladi, umumiy filologik ta'limning ajralmas qismiga aylanadi. Hech bir adabiy va didaktik asar ular ishtirokisiz yaratilmaydi. Maqol va matallarning xalq hayotidagi, ahamiyati quyidagi maqolda to'laqonli aks ettirilgan:

السكوت اخو الرّضا-sukut alomati rizo.[1:72]

Shuningdek, maqollarning grammatik qurilishiga to'xtaladigan bo'lsak, arab tilidagi maqol aynan ismiy jumla shaklida tuzilganini ko'rishimiz mumkin, o'zbek tilidagi muqobili ham ismiy jumla shaklida tuzilgandir.

Ma'no jihatidan esa, arab tilidagi maqol ishning gapdan ulug'ligi, ko'p gapirib vaqtni behudaga sarflagandan ko'ra harakat qilgan ma'qulligini ta'kidlanadi.

لمن تشكو إذ كان خصمك القاضى-ikki qilich bir qinga sig'mas, o'zbekchada esa " Ikki qo'chqorning kallasi bir qozonda qaynamas".[3:110]

Yuqoridagi maqollarning ikkalasi ham ismiy jumla shaklida tuzilgan. Ma'no jihatidan ham bir xil, lekin so'zlar ma'no jihatidan bir biridan tubdan farq qiladi.

لاجل الورد استفيد يا عليق-gulni yonida begona o'tlar ham sug'orilib qoldi, o'zbek tilida: "Guruch bahona kurmak ham suv ichar".[3:110]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mazkur maqollarda o'zaro uyg'un jihatlar avvalambor, ularning mazmun va ohangida ekanligini ta'kidlash joizdir. Bugungi globallashuv jarayoni bo'lg'usi sharqshunos talabalar oldiga o'zbek-arab va shu qatori xalqlar orasidagi madaniy bog'liqliklarni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etishni dolzarb masala sifatida qo'ymoqda. Aslida, yashash va turmush tarzi, madaniy-ma'rifiy, e'tiqodiy tomonidan o'zaro yaqin, aloqador bo'lgan elatlarni etnolingvistika va lingvofolkloristika vositasida o'rganish sharqshunoslikda yangi ilm ufqlarini yuzaga kelishida bosh omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arab maqollari. الامثال العربية Toshkent, Fan, 2011.
2. Mahmud Qoshg‘ariy. “Devonu lug‘otit turk, Toshkent, G‘ofur G‘ulom, 2017
3. Usmonov N. Arab tili darsligi. Toshkent, O'qituvchi, 2014.

4. Vohidov E. Saylanma.Toshkent, Sharq, 2002.
5. “O'zbek tilining izohli lug'ati E-M. Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2000.
6. O'zbek xalq maqollari. Toshkent, Sharq, 2005.
7. Shomusarov Sh. Arab va o'zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili, Toshkent, Fan, 2002.

К ВОПРОСУ ПЕРЕВОДА УСТОЙЧИВЫХ ВЫРАЖЕНИЙ (НА МАТЕРИАЛЕ КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКА)

Гульжан ДЖУРАБЕКОВА, *магистрант ТДШУ*
Научный руководитель: PhD. Зикруллаева Х.Б.

В представленной статье делаются попытки поиска решений актуальных вопросов перевода, так называемых, устойчивых выражений в современном корейском языке. Обоснование того, что перевод устойчивых выражений с корейского языка на русский язык имеет разные представления и обладают вариантами вызывает большой круг вопросов. Поэтому такое разнообразие перевода предлагает практические подходы однозначного перевода.

По мнению М.В.Михайловой, особый интерес к фразеологии обуславливается тремя основными причинами: 1) фразеологические единицы (ФЕ) активно используются носителями языка как в устной, так и в письменной речи, о чем свидетельствуют древние памятники, литературные произведения нового времени и записи живой разговорной речи; 2) ФЕ уникальным образом отображают способ категоризации говорящих на данном языке; 3) они являются мощным средством языкового воздействия [1, 73]. Согласно Ю.П.Когай, при разговоре необходимо уметь не просто правильно произносить, вставлять знакомые слова и строить грамматически правильные предложения, но и придавать эмоциональную окраску, улавливать подтексты и оттенки речи [2, 1-85]. Как отмечается автором, у разных наций фразеологические единицы звучат по-разному. Это позволяет говорить о национально-культурной специфике каждого отдельного языка.

Под национально-культурной спецификой языка мы понимаем «совокупность особенностей средств одного национального языка по сравнению с другими языками, обусловленную своеобразным национально культурным бытием определенного национального социума» [1, 73]. И действительно, что есть на самом деле язык? Конечно же, его словарный состав. Именно он является «главным хранилищем национально-языкового фонда народов, основным источником выражения их культуры и самосознания». В подавляющем большинстве фразеологизмов мысль выражена в образах, а предметы здесь служат символами некоторых вещей, явлений и их качеств. Рассмотрим пример в форме изречения:

꽃이 고와야 나비 나라든다 [1, 73].

Когда цветок красив, на него и бабочка летит.

В данном изречении присутствуют часто употребляемые в средневековой поэзии образы: 꽃 (цветок) – девушки, 나비 (мотылек) – юноши. Следует отметить, что среди фразеологизмов корейского языка большое количество назидательной риторики, в которой запечатлены этические взгляды народа на семейные устои, брак, любовь, воспитание детей и т.д. Такого рода содержание фразеологизмов воспитывают молодое поколение относиться с уважением к старшим, родителям, любить родных и близких, быть верными друзьями и др. Наглядные примеры, которые приводит Ю.П.Когай тесно связаны с корейской культурой и повседневным этикетом. Рассмотрим слово 인사 [2, 1-85]. Корейские повседневные выражения, так называемые 사용어, не столько употребляются ежедневно, сколько составляют определенный этикет в общении, хотя и несколько формальный. Этого этикета желательно придерживаться и понимать смысл слов и выражений.

В корейском языке слово 인사, согласно словарю [2, 1-85], переводится как «приветствие». 인사하다 – приветствовать, здороваться, а 인사말 – это слова приветствия.

В русском языке слова приветствия и прощания имеют разное произношение. Например, фразы «до свидания», «спокойной ночи!» в русском языке никак нельзя отнести к приветствиям. Поэтому слово 인사 можно понимать еще как «пожелание». Например, известная фраза 안녕히 주무세요 (спокойной ночи)

является в прямом значении 인사 наряду с такой распространенной фразой как 안녕히 계십시오 (до свидания). В своем прямом значении 인사하다, следует понимать, как поведение согласно этикету вежливости, воспитанности, а 인사성, в свою очередь, означает вежливость, учтивость. Корейская традиция требует выражения почтительности не только в речи, но и в поведении, когда собеседником выступают старшие по возрасту и официальные лица, родственники, гости и т.д. Ярким примером служит приветствие ребенка к родителям:

엄마, 놀다가 오겠습니다 [2, 1-85].

Мама, немного поиграю и приду.

А когда он возвращается домой – он должен сказать:

다녀왔습니다. *Я вернулся.*

И эти фразы тоже относятся к 인사, потому что ребенок показывает свою воспитанность, не заставляя беспокоиться родителей.

В следующих предложениях приводятся три правила поведения для ребенка:

1. 아침에 일어나면 어른들께 «안녕히 주무셨어요» 하고 인사를 한다.

Проснувшись утром, скажите взрослым: «как вам спалось?».

2. 잠자기 전에 «안녕히 주무세요»하고 인사를 한다.

Перед сном скажите: «Спокойной ночи!».

3. 누구가 무엇을 가져다 주러 왔을 때에는 꼭 «감사합니다»라고 인사를 한다.

Когда кто-то приносит вам что-либо, всегда говорите: «Спасибо!».

Как следует из вышеприведенных примеров, слово 감사합니다 тоже относится к 인사, потому что выражает благодарность за услугу.

Следует заметить, что эти два мнения объединяет своеобразная фразеология, которая проявляется в национальной специфике видения мира, обусловленная своеобразием культуры, обычаев, религии и др.

В данной статье мы придерживаемся точки зрения М.В. Михайловой и считаем, что в корейском языке действительно

много назидательных фразеологизмов, в которых запечатлены этические взгляды народа на семейные и национальные традиции. Во фразеологизмах проявляется национальная специфика видения мира, обусловленная своеобразием культуры, обычаев, религии. Более того, фразеологизмы могут характеризовать человека со стороны его внешнего вида, умственных способностей, поступков, поведения, называть черты характера. Фразеологизмы являются неотъемлемой частью корейского языка и обладают высоким коннотативным потенциалом. Они помогают передать те чувства и эмоции говорящего, которые невозможно передать с помощью нейтральных средств языка.

Таким образом мы пришли к выводу, что во-первых, фразеологизм - это свойственное определённому языку устойчивое словосочетание, смысл которого не определяется значением отдельно взятых слов, входящих в его состав. Во-вторых, фразеологические единицы активно используются носителями языка как в устной, так и в письменной речи, а также являются мощным средством языкового воздействия. В-третьих, фразеологизмы по своему происхождению связаны с конкретными историческими событиями, обычаями и традициями, с бытом и укладом жизни народа.

Использованная литература:

1. Михайлова М.В. Лингвокультура во фразеологизмах корейского языка.-Владивосток, 2008.-с.73.-74

2. Когай.Ю.П. Фразеологизмы корейского языка. 한국 관용구. -Астана, 2014.-С.85

ОБЗОР НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ПЕРЕВОДУ ПОСЛОВИЦ И ПОСЛОВИЧНЫХ ИЗРЕЧЕНИЙ

Надежда ЦОЙ, *магистрант ТДШУ*

Научный руководитель: д.ф.н., профессор Ким Н.Д.

В данной статье представлена попытка рассмотреть возможность перевода корейских пословиц на русский язык. Актуальность настоящей темы исследования обусловлена тем, что

на перевод пословиц или пословичных изречений [6] оказывает влияние культурные особенности языка. Многообразие точек зрения подводит к тому, что перевод играет важную роль при передаче национального колорита. По мнению Г.Д.Сидорковой [4], наблюдается интерес к паремическим языковым формам: разговорным штампам, шаблонам, фразеологизмам, фольклорным образованиям и т.п. В свою очередь, в исследовании А.А.Слюсарева [3] отражен исторический опыт народа в пословицах, описывается правильное и уместное использование его в речи.

В исследовательской работе Л.П.Борисовой подчеркиваются различные подходы к изучению пословиц. Более того, рассматриваются произведения народного творчества малого жанра [7]. В диссертационном исследовании Е.Е.Бровкиной [1] пословицы представлены как продуктивные единицы языка и фольклора. Автором диссертации такой вывод дан на материале французского языка. В дополнении Е.Е.Бровкина считает, что «в самом широком смысле под продуктивностью следует понимать продуктивность пословиц как фольклорного жанра, отпечатки и проявления» [1]. Такие проявления находятся формах выражения современной повседневной культуры (рекламе, слоганах, пародиях и т.д.) [1]. В вышеперечисленных работах указывается, что узкая трактовка продуктивности включает возникновение новых единиц, полностью соответствующих канонам пословичного творчества и пополняющих пословичный фонд, порождение производных единиц на основе существующих структурно-лингвистических моделей, изучение фразеологии как огромного раздела языка. В целом изучение фразеологии в научном свете важно для исследования самого языка, что обоснованно тесной связью фразеологизмов и лексики. Изучение фразеологизмов помогает лучше познать их строение, образование и употребление в речи. Как известно, фразеологизмы состоят из слов и одновременно могут соотноситься по значению со словами. Другой особенностью фразеологии в языкознании является образность, выражение эмоционального состояния человека. Изучение речевой фразеологии вводит нас в культуру и самобытность народа, и не случайно с таким вниманием изучают ее писатели, которые видят во фразеологии яркие примеры: образного выражения явлений

действительности. Картинность и образность речи действует поэтическими фразеологизмами на воображение слушающего, заставляя его переживать сказанное сильнее и глубже.

Обзор научной литературы показал, что существуют разные взгляды и точка зрения на природу пословиц (или пословичных изречений [5]). По мнению Г.Д.Сидорковой [4], интерес к паремическим языковым формам никак не случаен - он обусловлен фундаментальными тенденциями развития культуры на современном этапе, причем это касается не только сферы лингвистических и филологических дисциплин. К примеру, Г.Д.Сидорковой приводятся мнения культурологов и философов, стремящихся увидеть в паремических формах отражение глубинных мифологем [10] и архетипов [9] человеческого сознания. Как нам известно семиологи и этнографы пытаются с помощью паремиологического материала показать особую специфику мировосприятия того или иного этноса [10], тот самый «народный дух», который, как правило, ускользает от последователей Штейнталя [11], Гумбольдта [12] или Уорфа [13], когда они имеют дело с обычными средствами языка. По мнению таких исследователей как В.Я.Пропп [14], Г.Л.Пермяков [15], обращаясь к паремическому фонду различных языков, решаются такие задачи как доказать сущностное единство выявления особо значимых смысловых фигур в языках разных народов, которые фиксируются паремическими выражениями.

Согласно изученной нами литературы, интерес к клишированным языковым формам собственно лингвистов и филологов также закономерен. Причин к тому можно указать множество, одной из которых, на взгляд Г.Д.Сидорковой, выражается в известной парадоксальности таких образований. Разные типы тяготеют к тому или иному полюсу: собственно фразеологизмы (типа единств, сращений, штампов) как единицы, синтаксически эквивалентные слову или члену предложения, тяготеют к языку (системе); паремии типа басен, сказок, песен и т.п. являются текстами (хотя и воспроизводимыми); срединное положение между теми и другими занимают по-словично-поговорочные изречения, которые, проявляя минимальную степень коммуникативной автономии, могут выступать уже как тексты (высказывания), однако их воспроизводимый характер и

неупотребительность в отрыве от контекста (в силу малоинформативности) сближают их с единицами языка. Указанная амбивалентность [16] в частности, позволяет исследователям рассматривать пословицы и поговорки под специфическим углом зрения: как поэтические произведения (А.А.Потебня [17]), как свод национальных ментальных установок, как источники данных о реалиях быта и др. Не в последнюю очередь данные фольклорные формы интересны также как проявление игрового регистра языка (В.Г.Борботько [18]), которое мало заметно на уровне лексики, но резко повышается при переходе к более крупным типовым единицам, структурно оформленным как высказывания (шире: к дискурсу), т.е. к паремическим средствам языка [3].

Таким образом следует отметить, что мудрость и дух народа проявляются в его пословицах и поговорках, а их знание способствует не только более глубокому знанию языка, но и пониманию образа мыслей и характера народа. Сравнение пословиц и поговорок разных народов показывает, как много общего имеют эти народы, что, в свою очередь, способствует их лучшему взаимопониманию и сближению. В пословицах и поговорках отражен богатый исторический опыт народа, представления, связанные с трудовой деятельностью, бытом и культурой людей. Правильное и уместное использование пословиц и поговорок придает речи неповторимое своеобразие и особую выразительность. Пословица – самый интересный жанр фольклора, изучаемый лингвистами, но во многом оставшийся непонятным и загадочным.

Использованная литература:

1. Бровкина Е.Е. Пословицы как продуктивные единицы языка и фольклора: На материале французского языка. Дисс… канд.филол.н., Курск: КГУ, 2006 . – 167 с.

2. Борисова Л.П. Лингвокогнитивный аспект исследования паремиологических единиц: На материале пословиц и поговорок якутского языка и их русских эквивалентов. Дисс… канд.филол.н., - М. 1999 . – 208 с.

3. Слюсарева А.А. Использование пословиц и поговорок в обучении иностранным языка. Автореф. дисс….канд.филол.н. – Воронеж: Воронежский государственный университет. 2004. – 32 с.

4. Сидоркова Г.Д. Прагматика паремий: Пословицы и поговорки как речевые действия. Дисс…канд.филол.н., Краснодар: КубанскийГУ, 1999 . – 322 с.

5. 한국어 속담/한자성어. –한국어교육연구소 지음. –동양북스. 2015.01.15.
6. https://mgimo.ru/upload/iblock/dc9/dc9771e1d5199dd24d529bac81c7e4e1.pdf
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Малые_жанры_фольклора
8. https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/587851
9. https://www.psychologies.ru/glossary/01/arhetip/
10. https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/13063
11. https://bigenc.ru/linguistics/text/4922217
12. https://biblioclub.ru/index.php?page=author_red&id=156
13. https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/lingvistika/UORF_BENDZHAMIN_LI.html
14. https://imwerden.de/pdf/propp_morfologiya_skazki_1969__ocr.pdf
15. https://www.twirpx.com/file/1317214/
16. https://theoryandpractice.ru/posts/15701-slovarnyy-zapas-chto-takoe-ambivalentnost-i-pochemu-trudno-uvolitsya-s-nelyubimoy-raboty
17. https://w.histrf.ru/articles/article/show/potiebnia_alieksandr_afanasievich
18. https://urss.ru/cgi-bin/db.pl?lang=Ru&blang=ru&page=Book&id=247169

К ВОПРОСУ О ПЕРЕВОДЕ ФОРМ ВЕЖЛИВОГО ОБРАЩЕНИЯ

Комола ИСМАИЛОВА, *магистрант ТДШУ*
Научный руководитель: PhD. Ходжаева Н.Б.

Последние годы развитие сотрудничества Республики Узбекистан и Республики Корея стало новым этапом в укреплении взаимоотношений между двумя странами во всех сферах экономической, социально-общественной, культурной деятельности, а также в сфере образования и науки. В Стратегиях действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан [1] наряду с другими задачами предприняты меры по созданию дополнительных условий и возможностей для расширения масштаба взаимодействия двух стран, что способствует широкому международному обмену опытом в решении проблем лингвистической теории и практики.

В настоящей статье рассматриваются вопросы перевода форм вежливого обращения. Актуальность данной темы обоснована тем, что в переводе с корейского на русский язык, имеются разные

варианты вежливых форм. Как известно, вежливость (в языке) – это термин, традиционно используемый для обозначения различных средств лингвистического выражения социальных отношений между говорящим, слушателем и людьми, о которых идет речь.

Согласно изученной литературе, вопрос перевода имеет некоторые нерешенные вопросы, в частности, имеются разные мнения. По мнению Квон Ён, есть мнение что специфической чертой корейского обращения является то, что имя собственное как обращение употребляется редко, оно запрещено культурной традицией [2, 304]. Поэтому по сравнению с обращением в других языках корейское обращение более сложное по составу, часто является «смешанным»: имя собственное + название должности или профессии, обращение, заимствованное из иностранного языка и т. д.

친애하는 국민 여러분, G20 정상회의 참석 등을 위해 문재인 대통령과 함께 유럽을 순방 중인 김정숙 여사는 31 일 오후(현지시각) 로마 한글학교를 방문, 한국인 2~3 세 학생들과 함께 세계문화유산 수업에 참여했습니다.

Дорогие люди, чтобы принять участие в G-20 президент Мун и первая леди Ким Чон Сук, во второй половине дня 31-го числа (по местному времени) посетила школу римского хангыля и приняла участие в уроке всемирного культурного наследия со студентами 2 и 3 курсов.

Из вышесказанного следует сделать вывод что, специфично корейское обращение и по своему выражению и структуре. В качестве обращения могут использоваться: имена существительные (면사), имя собственное (이름), по профессии (빅업) и должности (직위), по возрасту (낫살), местоимения (대명사) и междометия (감탄사), или, что очень важно на фоне русской культуры, обращения вообще могут не использоваться. Очень часто многие из названных лексических групп сопровождаются дополнительными конкретизаторами: частицами, суффиксами, а другие члены предложения еще содержат указание на социальный статус собеседника и показатель степени вежливости общения.

김선생님, 오늘은 오십니까?

Учитель Ким, вы сегодня придёте?

По мнению Кан Сон Кю, категория вежливости в корейском языке – это категория, передающая вежливое и уважительное отношение говорящего к собеседнику или к лицам, о которых идет речь [3, 176-177]. Категорию вежливости иначе ещё называют категорией обходительности и категорией скромности. Национальный институт корейского языка объясняет категорию вежливости как способ выражения вежливости, учтивости и скромности. «Выражение уважительности к субъекту посредством его возвышения, учтивости между говорящим и слушающим в зависимости от их взаимоотношений и скромности говорящего в отношении объекта и субъекта действия».

박선생님, 어디에서 식사하시길 워합니까?

Господин Пак, куда мы пойдём кушать

Известно, что в корейском языке сложная система форм вежливости. Эта система сложна тем, что помимо грамматической функциональности она включает в себя социальный аспект, а именно социальный контекст.

사장님, 지금 회의에 가셔야 합니다.

Директор, вам пора на собрание.

По этой причине использование форм вежливости может также представлять сложность для студентов, изучающих корейский язык. Играет свою роль и разница двух культур. В русской культуре широко распространено невежливое (нейтральное) обращение к членам семьи и другим членам общества, демонстрирующее близость взаимоотношений между собеседниками. Позволяется неуважительное обращение младшего по возрасту к старшему.

장모님, 새해 복 많이 받으십시오.

С новым годом, мама (свекровь)!

Таким образом, в данной статье предпринята попытка рассмотреть вопросы перевода выражений форм вежливого обращения со стороны практического применения. Следует выделить грамматический и лексический аспекты вежливости, которые тесно взаимосвязаны, и семантика слова может накладывать ограничения на использование грамматиеских форм, а грамматические категории, в свою очередь, влияют на актуальный выбор лексических средств. Мы можем прийти к

выводу, вежливость может определить специфику стилей в корейском языке поскольку это строго и четко выраженная количественно-качественная функционально-семантическая зависимость от тех, которые используются в конкретном языковом разнообразии. Кроме того, стилевые особенности в социально-общественной сфере достаточно ярко проявляются в корейском языке. Вежливость во многом зависит от стилевых особенностей, а также от лингвокультурологического аспекта изучения. Изучение вежливости в рамках грамматико-семантических особенностей, безусловно, требует глубинных исследований.

Использованная литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-4947 от 7 февраля 2017 года / Народное слово, 8 февраля 2017 г. № 28 (6722).

2. Квон Ён, Особенности корейского обращения – СПБГУ., 2007 – С. 304.

3. Сон Кю Кан, Использование форм вежливости в корейском языке – Национальный Томский политехнический университет, 2014 — с. 176-177. http://earchive.tpu.ru/bitstream/11683/18504/1/conference_tpu-2015-C77V2045.pdf&ved=2ahUKEwiN05Ot59HzAhXRlYsKHT3gDQUQFnoECC8QAQ&usg=AOvVaw2STgnWj_zOgR5E1gsG4WqS&cshid=1634490960214

К ВОПРОСУ ПЕРЕВОДА ПРЕДИКАТИВНЫХ ЧАСТЕЙ РЕЧИ КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКА

ШИН ЧИ СОН, *магистрант ТДШУ*
Научный руководитель: д.ф.н., проф. Ким Н.Д.

Тесное сотрудничество Узбекистана и Южной Кореи в политической, торгово-экономической, общественной, научно-технической и гуманитарных областях стало основным фактором для развития обучения корейскому языку в Узбекистане. На сегодняшний день комплексная система обучения иностранным языкам направлена на формирование гармонично развитого, высокообразованного, современно мыслящего подрастающего

поколения, а также дальнейшую интеграцию Узбекистана в мировое сообщество.

Известно, что предикативные части речи – это есть группа слов, повествующих о субъекте предложения. Такие предложения вызывают затруднения при переводе. В корейском языке сюда относятся глагол и прилагательное. Как принято считать, предикативные части речи определяются обстоятельством, а глагол – это группа слов, указывающие на движение или действие [1,3]. Глагол в корейском языке выражает либо нечто происходящее, то есть какое-либо событие или действие, субъектом которого является исполнитель действия либо то, что нечто является тем-то или таким-то, иначе говоря, суждение, тождество, высказанное относительно субъекта [4]. Интересен с точки зрения перевода, глагол действия с помощью функцией образовать повелительное и побудительное наклонение, к основе которого может присоединиться завершающее окончание –는다/ -ㄴ다, указывающее на настоящее время:

가라 (иди)

가자 (пойдем)

간다 (идет)

Для сравнения можно рассмотреть форму глагола с окончанием настоящего времени – 는다/ -ㄴ다:

바람이 분다 (дует ветер)

*바람이 불자 (*невозможное сочетание)

바람아 불어라 (ветер, дуй) исключение, так как данное предложение является персонифицированным предложением, поэтому допускается повелительное наклонение.

세종 대왕은 즉위한 지 처음 몇 해 동안은 비가 너무 많이 내려 각 지방에 물난리가 나서 많은 피해**를 입었습니다** [69]**.**

"С тех пор как на престол взошел король Седжонг, из-за проливных дождей в течение нескольких лет в каждой провинции образовалось половодье, которое ***принесло большой ущерб****".*

В данном предложении рассматривается пример употребления глагола действия [2] и его перевод. В корейском языке обычно при использовании глагола действия к зависимому слову прибавляется падежное окончание винительного падежа 을/를.

조선 전통민요를 선생님처럼 체계적으로 배운 분**이** 중국에는 아주 **드뭅니다** [70].[9,8,5]

"В Китае ***редко встретишь*** *человека, изучившего традиционные народные песни Чосона всеобъемлюще, т.е. как учитель".*

Как известно, в корейском языке в некоторых формах или временах обнаруживается разница между этими двумя классами глаголов: разница между ними грамматически явно выражается в некоторых формообразованиях настоящего времени и в причастиях. В корейском языке оба класса глаголов следуют одному и тому же спряжению. Парадигма спряжения корейского глагола обнаруживает исключительно большое число самых различных форм: однако ни одна из них не имеет специальных окончаний, которые указывали бы на то, одно или большее число лиц или вещей участвуют в действии или обладают тем или иным качеством: грамматические лица (я, ты, он, она, оно, мы, вы, они) не имеют грамматического выражения в языке; все глагольные формы безразличны к числу и лицу. Вместо этого выбор той или другой формы зависит от того, какую степень учтивости желает выразить говорящий.

래시는 문을 향하여 달렸읍니다. 그것을 보고, "래시는 그전 주인한테 **돌아가고 싶은가봐**." 하며 프리실러가 철문을 열어, 래시가 **달아나게 해 주었습니다** [71].

"Реси направилась к двери и убежала. Увидев это, она (девочка) проговорила: "Реси, ***видимо, хочет вернуться*** *к прежнему хозяину." – открыла ворота и* ***позволила*** *Реси* ***выбежать*** *со двора".* [8,5]

Данный пример показывает, что грамматические лица не могут влиять на изменение конечных сказуемых. Однако в этом предложении использован официально-вежливый и фамильярный стиль одновременно. Классификация всех глагольных образований, которые имеются в корейском языке: 1) такие

глагольные формы, которые указывают своими окончаниями, что предложение закончено; это формы законченной предикации 그 집의 할아버지와 할머니가 친절하게 **간호를 해주었습니다** [72]. [8,5] *"Дедушка и бабушка из того дома любезно **вылечили** ее (Реси)";* 2) такие глагольные формы, которые употребляются как указание на следующий, главный глагол; это формы незаконченной предикации 래시는 매우 **영리하여** 조를 마중하러 매일 학교에 왔습니다 [73]. *"Реси очень **сообразительная** и она каждый день ходила в школу, чтобы встретить группу детей";* 3) такие глагольные формы, которые более или менее соответствуют прилагательным и существительным и являются, следовательно, именными или адъективными формами глагола (подобно причастиям и отглагольным именам других языков): это так называемые глагольные имена. Такого рода формы сложно поддаются переводы на корейский язык, так как обладают несколькими значениями.

Как известно, различаются срединные и конечные грамматические формы предикативов. Конечные грамматические формы предикативов находятся в конце предложения и играют завершающую роль: 세종 대왕은 이 악기들을 다시 살펴보려고 몸소 음악 **공부를** 열심히 **하였습니다** [74]. *"Король Седжонг лично усердно **изучил** эти музыкальные инструменты, чтобы снова их рассмотреть"*. [8,5]

Срединные грамматические формы предикативов находятся внутри предложения и несут соединительную функцию: 조와 래시는 푸른 벌판을 마음껏 달리며 즐거워했습니다 [75]. *"Чо и Реси вдоволь набегались по зеленому полю и повеселились"* [8,5].

В данной статье сделана попытка проанализировать сходства и различия глаголов в словообразовании и переводе. Семантическая особенность корейских глаголов заключается в разнообразии значений. Кроме того, следует особо отметить, что перевод глаголов и глагольных форм в корейском языке часто вызывают разные споры, что может стать темой для дальнейших исследований.

---

[74] 범우 오뚜기 문고. 편찬위원회. 세종대왕: 책을 펴냄. - 서울, 1984 - 76 쪽.

Использованная литература:

1. Гируцкий А.А. Введение в языкознание. – Минск: ТетраСистемс, 2003. С.144.
2. 서정수. 국어문법. - 서울: 한양대학교 출판원, 1996. 1584 쪽.
3. 이익섭. 한국어 문법. - 서울: 서울대학교 출반부, 2006. 410 쪽.
4. 국제교육진흥원. 한국어 – 중급,2007. 303 쪽.
5. 이희승, 김철환. 국어사전. – 서울: 민중서림, 2002.
6. 러시아어문학사. 이상수. 한국어-러시아어 사전. - 서울, 2000. 806 쪽.
7. 도서출판 베델컴. 한국어 연구소. 한국어 러시아어 사전. 김춘식. – 서울, 2005. 461 쪽.
8. 도서출판 베델컴. 한국어 연구소. 러시아어 한국어 사전. 김춘식. – 서울, 2005. 466 쪽.
9. 이주홍. 명견래시. - 서울, 1986 - 12-13 쪽.

NASRIY VA SHE’RIY TARJIMA MUAMMOLARI

УЗБЕКСКАЯ ЛИТЕРАТУРА НА НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ НА ПРИМЕРАХ УЗБЕКСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ АБДУЛЛА КАДИРИ И АБДУЛЛА КАХХАРА

Шухратхон ИМЯМИНОВА, *профессор Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (г. Ташкент)*

Садиржан ЯКУБОВ, *доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (г. Ташкент), кандидат филологических наук*

Развитие национальных литератур, как известно, невозможно без взаимосвязей с другими литературами, взаимовлияния и взаимообогащения. В этом плане изучение взаимодействия литератур Узбекистана и Германии имеет несомненную ценность и представляет теоретический и практический интерес.

Литературные связи Узбекистана и Германии имеют свою историю и интересные грани современного взаимодействия. Важнейшим этапом представляется время, когда произведения

таких выдающихся узбекских писателей, как Навои, Бабур, А.Кадыри, А.Каххар, Айбек, Г.Гулям, Зульфия, У.Хашимов, Х.Тухтабаев и др. начали переводиться на многие языки мира, в том числе, и на немецкий.

В 60-е-70-е годы XX столетия в Германии усиливается интерес к изучению жизни и творчества видного представителя узбекской литературы, известного романиста **Абдуллы Кадыри.**

В 1968 году вышел в свет первый перевод на немецкой язык романа А. Кадыри «Минувшие дни», осуществленный немецкой переводчицей Ньотой Тун в издательстве «Kultur und Fortschritt» в Берлине. Следом было переведено второе произведение Абдуллы Кадыри «Скорпион из алтаря» (переводчик Арно Шпехт), что свидетельствует о возрастании популярности узбекского писателя. Этот перевод был осуществлен в берлинском издательстве «Volk und Welt» в 1969 г.

Романы Абдуллы Кадыри широко отразили жизнь самых разных слоев узбекского общества, коснулись самых животрепещущих проблем времени. Автор подвергает критике жестокость и бессмысленность социальных порядков, невыносимые условия жизни народа в период феодализма.

Немецкий литературовед и переводчик Ньота Тун о роли романов Абдуллы Кадыри пишет: «Оба его исторических романа - «Минувшие дни» и «Скорпион из алтаря» - существенно обогатили молодую узбекскую прозу». Так, немецкий литературовед определила место и роль творчества писателя в развитии узбекской литературы.

Главными героями являются Отабек и Кумуш, которые поневоле вступают в конфликт с правящей феодальной верхушкой – воплощением тёмных сил эпохи. Оба героя становятся жертвами деспотизма и коварства.

Немецкая переводчица сумела полноценно воссоздать на немецком языке содержание и форму художественного текста оригинала, глубину творческого замысла автора, психологию его героев, национальное своеобразие, стилистику и прочие художественные компоненты произведения.

В немецком переводе Ньоты Тун, как и в оригинале, чувствуется глубина суждений героя, правильное понимание социально-политической обстановки, и переводчица сумела

передать особенности психологии героя.

Перевод романа Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» на немецкий язык осуществлен через русский перевод-посредник, сделанный переводчиками Л. Бать и В. Смирновой. В русском переводе сохранены не только национальный колорит, но и специфика узбекского литературного письма, своеобразие стиля узбекского писателя. Именно блогадаря этому стал возможен адекватный перевод на немецкий язык. Особенно прослеживается это в передаче психологически мотивированных диалогов и монологов (что при переводе представляет особую сложность).

Достаточно сложной для переводчика задачей является адекватная передача диалектизмов, жаргонизмов, фразеологизмов, фольклорных элементов, языковых синтаксических фигур, национальных специфических языковых единиц и вокативов. Здесь не всегда оправдано стремление к точной передаче, необходима смысловая, а не абсолютная точность. Для этого используются либо адекватные единицы другого языка (языка перевода), либо просто передается смысл использованной лексической единицы.

Перевод, как всякий творческий процесс, всегда отмечен творческой индивидуальностью переводчика, однако главная задача перевода – сохранить творческую индивидуальность автора текста-оригинала. Именно такие переводы дают возможность полностью войти в «культурное поле» призведения, органически сосуществовать со временем и пространством оригинала, способствуют популяризации текста-оригинала и содействует включению национальной литературы в мировой литературный процесс. Необходимые и целесобразные условия изменения, к которым иногда прибегают переводчики, не умаляют качества перевода, если целью переводчика является создание аналогичного оригиналу структурно-содержательного единства.

Чтобы объективно оценить жизненный путь и творчество выдающегося узбекского писателя **Абдуллы Каххара**, необходимо прежде всего, хотя бы в самых общих чертах вспомнить современную ему общественно-политическую обстановку, обусловившую идеалы и устремления писателя, своеобразие его творческого почерка.

Разоблачая врагов новой жизни, узбекский писатель стремился

показать историческую обреченность реакционных сил, изображая разгром басмаческих банд, разоблачая продажность и духовную нищету сторонников старого мира.

Благодаря немецкой переводчице Э.Брюммер в 1961 г. стала известна в Германии его повесть «Птичка-невеличка», вышедшая в издательстве «Kultur und Fortschritt». Год спустя издательство «Volk und Welt» выпустило второе издание этого произведения, что является убедительным свидетельством интереса немецкого читателя к творчеству Абдуллы Каххара.

В основе сюжета – конфликт между председателем колхоза «Бустон» Каландаровым и молодым секретарем парторганизации Саидой.

Образ Саиды, обаятельной девушки, согретый сердечным теплом автора, его мягкой, иногда чуть иронической, но неизменно доброжелательной улыбкой – несомненная удача писателя.

Немецкий вариант повести убеждает в том, что Э.Брюммер, полностью доверяясь точности перевода повести на русский язык К.Симоновым, глубоко вникла, прочувствовала характер героини. Необходимо отметить, что перевод Э.Брюммер очень близок оригиналу, хоть и сделан с русского перевода-посредника.

Проблема положения женщины в обществе, в семье - в центре внимания писателя, талантливо изобразившего трагизм ситуации, и переводчику удалось передать это совершенно адекватно.

Очень точно и выразительно переданы в немецком переводе не только особенности характеров героев, но и утвердившаяся веками гендерная иерархия, не позволяющая женщине занять место рядом с мужчиной (только ступенью ниже)

Фактором, обусловившим успех перевода на немецкий язык повести «Птичка-невеличка» Абдуллы Каххара, является то обстоятельство, что немецкая переводчица Э.Брюммер сумела добиться глубинного постижения творческого замысла автора, его творческой манеры национального своеобразия, ритма, тональности, стилистики – всех художественных компонентов в целом.

Немецкая переводчица Э. Брюммер сумела создать художественно полноценный и качественный перевод, точно воспроизводящий творческий замысел автора. Это полноценное

отражение художественный действительности подлинника (органического единства его формы и содержания) средствами языка перевода (немецкого языка). Э.Брюммер своей переводческой интерпретацией внесла посильный вклад в развитие немецкой переводческой школы и популяризацию узбекской литературы, в укрепление ее авторитета в мировом литературном пространстве.

Использованная литература:

1. Die Literaturen der Völker der Sowietunion. VEB Biblio-graphisches Institut. Leipzig. 1967.
2. Handbuch der Sowietliteratur (1917-1972). Leipzig. 1965.
3. Die Nacht des Kosmonavten. Berlin. 1975. c. 528-529.
4. Aragon L. «Literature Sovietique». Raris. 1955.
5. Kurella A. Zwisehendurch 1934-1940. Aufbau Verlag. Berlin. 1961. c. 291.
6. Конрад Н.Н. Средневосточное возрождение и Алишер Навоий. - «Иностранная литература», №2, 1969, с. 217.
7. Алфред Курелла. Теория и практика перевода. Доклад на конференции переводчиков, членов, писателей Союза писателей ГДР, проходившей 12-13/XII-54 г.
8. Абдулла Қодирий А. Ўткан кунлар. Т., Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.
9. А. Кадыри. Минувшие дни. Гос. изд. «Худ. лит.», М., 1961.
10. Kodiri A. Die Liebenden von Taschkent. Berlin. 1968.
11. Қаҳҳор А. Асарлар. II том, Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 1967.
12. Каххар А. Птичка-невеличка. М., Изд. «Худож. лит.», 1965.
13. Kachar A. Sekretär Saida. Verlag Volk und Welt. Berlin. 1962.
14. Multinationale Sowietliteratur. Kulturrevolution. Menschenbild (1917-1972) Aufbau Verlag Berlin und Weimar. 1975. c.6-7.
15. Kisch E.E. Reportagen aus fünf Kontinenten. Verlag Filipp Reclam Jung. Leipzig. 1976.

“SHUM BOLA” QISSASINING INGLIZ TILIGA TARJIMASI XUSUSIDA

P.f.n. ***Abdumajid MAMADALIYEV,*** *dotsent,*
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti
Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri

Ma’lumki tarjima bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Demak, tarjima madaniyatlar va millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko‘ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko‘rinishlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Tarjima sifatiga bo‘lgan talablar yangilanib borishi ortidan uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san’ati ekanligi o‘zgarmaydi. Tarjimaning ko‘lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma’rifiy darajasiga bog‘liq va, o‘z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta’sir etadi.Yozuvchi va mohir tarjimon Korney Chukovskiy o‘zining “Искусство перевода” nomli mashhur asarida quyidagi rus maqolini epigraf qilib olgan edi: “Tarjima xuddi ayolga o‘xshaydi: to‘g‘ri bo‘lsa – chiroyli emas, chiroyli bo‘lsa – to‘g‘ri emas” **(**Перевод—что женщина: если она красива, она неверна; если верна, некрасива**)**. Bu maqol tarjima san’atining asosiy xususiyatini, uning zaminidagi mavjud ziddiyatni juda to‘g‘ri aks ettirgan. Zero, to‘g‘ri tarjima etishni maqsad qilib qo‘ygan kishi, ko‘proq, xijjalab tarjima qilishga, muddaosi chiroyli tarjima qilishdan iborat bo‘lgan kishi esa ko‘proq o‘zini avtorlashtirishga moyil bo‘ladi. Ham to‘g‘ri va ham chiroyli tarjimagina mukammal va ideal san’at asari bo‘la oladi, bunday tarjima yaratishning o‘zi esa chinakam san’atdir. Bunday san’at tarjimondan to‘g‘ri tarjima qilish doirasida chiroyli tarjima etishni va chiroyli tarjima etish doirasida to‘g‘ri tarjima qilish mahoratini egallashni talab etadi. (Гак В.Г. Григорьев Б.Б. Теория и практика перевода. Французский язык. М.: «Интердиалект», 2003, 9-бет.)

Men faoliyat yuritayotgan Alisher Navo‘iy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida “Tarjima tanqidi” fani bo‘lib, mashg‘ulotlar bakalavriyat 4-bosqich talabalari bilan olib boriladi. Amaliy darslar uchun material izlash asnosida G‘afur G‘ulomning O‘zbek adabiyoti oltin fondidan joy olgan “Shum Bola” qissasi inglizcha tarjimasiga duch keldik. Keyingi mulohazalarimiz shu asar tarjimasi sifati haqida bo‘ladi. Yo‘l-yo‘lakay qissaning rus tiliga qilingan tarjimasi haqida ham fikrlar bayon etdik.

Qissaning birinchi bo‘limi *Rastalar obod* degan gap bilan boshlanib, ingliz tiliga *The rows of the stalls are clean* (rastalar qatori toza/pokiza) deb tarjjima qilingan. Aleksandr Naumov tomonidan rus

tiliga qilingan tarjimada – Народу в торговых рядах уйма deyilgan. Gap modomiki bozor rastalari haqida borar ekan, ingliz tiliga *The stalls are crowded* (rastalar gavjum) deb o‘girish to‘g‘ri bo‘lar edi.

Keyingi gap tarjimasida jiddiy muammolar bor: *Qaymoq bozorining burilishida, mahkamaning boshida Ilhom samovarchining kattakon choyxonasi bo‘lib unda gramofon chalinadi.* Inglizchasi: *At the corner of the sour-milk market, next to the office, there is a big teahouse of Ilhom samovar-maker and a gramophone is playing there all the time.* Rus tarjimoni qaymoq bozorini – молочный ряд deb o‘girib mazmundan uzoqlashmagan; mahkama boshida jumlasini esa - к махалле Махкама deb xatoga yo‘l qo‘ygan. Ingliz tilidagi tarjimadan *qatiq bozorining burchagida Ilhom samovar yasovchining katta choyxonasi joylashgan bo‘lib, u yerda doim gramofon chalinadi*, degan ma’no o‘qiladi. *Qaymoq* ingliz tiliga *qatiq* (sour-milk), *samovarchi* esa samovar yasovchi ***(samovar-maker)*** deb tarjima qilingan. O‘quvchi bozor, choyxona, gramofon va samovar yasovchi o‘rtasida bog‘liqlikni tushunolmay hayron.

Mahkama so‘zini *market main office* deb tarjima qilish mazmun jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi. Demak, bu gap ingliz tilida On the turn to the dairy products’ stall, next to the market main office, Ilhom owns a big teahouse and a gramophone plays there ko‘rinishida bo‘lishi lozim edi. Samovarchi esa choyxona xo‘jayini ma’nosida kelganligi bois “*Ilhom samovarchining kattakon choyxonasi*”ni “*Ilhom owns a big teahouse*” deb o‘girish kifoya. Matndagi *Turli-tuman plastinkalar orqali To‘ychi hofiz, Hamroqul qori, Hoji Abdulaziz va Farg‘ona yallachi xotinlari ketma-ket maqomlar, yallalar, ashulalar aytadi* degan gapning ruscha tarjimasi mazmunan to‘g‘ri berilgan, inglizchasidan esa *Turli plastinkalar orqali To‘ychi hofizlar, Hamroqul, Hoji Abdulaziz va Farg‘onalik ayol xonandalar qo‘shiqlar kuylashadi* ma’nosi kelib chiqadi. (*On different disks, Tuychi singers, Hamrakul, Hoji Abdulaziz, and woman singers from Fergana sing their songs.*) *Hofiz* ko‘plikda ishlatilgan, *ketma-ket maqomlar, yallalar, ashulalar aytadi* tushirib qoldirilgan, *plastinka* ham *disk* deb o‘girilgan (balkim “tarjimonlar guruhi” birinchi jahon urushi davrida dunyoning hech qayerida bo‘lmagan *disk* o‘zbeklarda mavjud edi, deb ingliz o‘quvchisini lol qoldirmoqchi bo‘lgandir). Bu gapning adekvat tarjimasi quyidagicha: *The gramophone records contain classic songs performed by To‘ychi hofiz (singer), Hamroqul qori (qori is a person who can recite the*

Koran by heart), Hajji Abdulaziz and female singers from Fergana, and the records are played one after another.

*Uzun rasta, juhud rasta, attorlik va boshqa rastalarning boyvachchalari savdodan bo‘sh vaqtlarida bu choyxonaga yig‘ilib mehmonxonalardek o‘rtada katta barkashlardan qand-qurs, pista-bodom, murabbo-nisholda, obinon, shirmoy nonlar bilan shamaloq bezatilgan dasturxon atrofida chaqchaqlashib o‘tirishadi***.** Ruschasi – *Тут проводят свободное время байские сыновья из торговых рядов. Они собираются вокруг дастархана, посреди которого на большом медном подносе разложены сахар, миндаль, фисташки, разные сладости, стоит в посуде варенье, а зачастую красуется и коньяк в соломенных плетенках с изображением ласточки. Усаживаясь, они весело горланят, рассказывают анекдоты сопровождаемые громовым ржанием.* Asardagi “rastalarning boyvachchalari” “хозяева торговых рядов”ni o‘rniga nimagadir “байские сыновья из торговых рядов” deb o‘girilgan. Tarjimadan anglashiladiki, otalar rastalar xo‘jayini, choyxonadagi maishatda esa ularning o‘g‘illari. Nimadandir ilhomlangan tarjimon o‘tirganlarning konyakni miriqib simirishlari-yu choyxonani larzaga keltirib kulishlarini qo‘shib yuborgan.

Ingliz tiliga qilingan tarjimadan bundan-da qiziqarli hangoma chiqadi. “*juhud rasta ... savdodan bo‘sh vaqtlarida ... mehmonxonalardek o‘rtada katta barkashlardan … pista-bodom … bilan shamaloq bezatilgan dasturxon*” tushirib qoldirilgani yetmaganday, ingliz o‘quvchisi uchun dasturxonni asl matnda yo‘q stol ustiga bezatgan; *shirmoy non – oil-bread* deb noto‘g‘ri tarjima qilingan. Tarjimonlar bu gapni: *The rich of long rows, haberdashery rows and other rows gather there at the table served with lumps of sugar, nuts, jam, hot-bread and oil-bread, and they are having endless chattering* tarzida o‘girishgan. Ushbu manzarani ingliz o‘quvchisiga aniqroq yetkazish uchun, uni quyidagicha tarjima qilgan ma’qul edi: *The owners of long stalls, jewish stalls, haberdashery and other stalls spend their free time in this teahouse sitting in a circle around big dishes generously filled with candies, pistachio and almonds, jam and custard, ordinary hot bread and bread baked with milk and cooking oil and chat telling each other jokes.*

Qissadagi keyingi gap choyxonaga kimlar kira olmasligi haqida: *Bu choyxonaga bozor-o‘charga sang‘ib tushib qolgan dehqon, kambag‘al*

kosib, qozoq, qirg‘iz va boshqa oddiy fuqaro kirolmas edi. Rus tilidagi tarjimani to‘liq, deyish mumkin, biroq inglizchada yana muammo bor. Aslida choyxonaga kira olmaydiganlar *kosib, qozoq, qirg‘iz va boshqa oddiy fuqaro* bo‘lsa-da, ular tarjimada tushirib qoldirilgan: *But the poor people, peasants, and other poor citizens couldn’t afford to enter this teahouse*. Quyidagini adekvat tarjima, deb hisoblaymiz: *Those peasants, poor handicraftsmen, kazakh, kyrgyz and other people who have come to the market by chance could not afford visiting this teahouse.* Asar birinchi jahon urushi yillari davri haqidaligini hisobga olsak, *fuqaro* so‘zini *citizens* deb tarjima qilish noo‘rinligi ayon bo‘ladi. Bu yerda *faqir* ko‘plik shaklida ishlatilgan, desak xato bo‘lmaydi, zero u davrda O‘rta Osiyo xalqlarida grajdanlik statusi bo‘lmagan.

Tarjimada uchraydigan jiddiy muammolardan yana biri milliy koloritning berilishi masalasi. Adekvatlik ta’minlanmasligi oqibatida asliyat buziladi, tarjima matnida esa tushunarsiz obraz shakllanadi. E’tiboringizni quyidagi gap va uning tarjimasiga qaratmoqchimiz:

Samovarchi Asra kal degan xipchadan kelgan, qotma, epchil yigit edi. Asra, Ustida oldi ochiq yaktak, oyog‘ida qala kavush, zangori shohi qiyiq bog‘lagan, yelkasiga xolpa-rang ro‘mol tashlagan xushfe’l yigit edi. Rus tiliga qilingan tarjima to‘kis. Muammo ingliz tilidagisida: *The owner of the tea house, was a bald, thin, and prompt man. He wore a yaktak (oriental robe) on his shoulder, leather-shoes on his legs, and a glittering blue belt on his waist and covered his shoulders with a shawl. He was a kind man.*

Avvalroq aytilganidek, choyxona xo‘jayini Ilhom, tarjimada esa choyxona xizmatkori Asra xo‘jayinga aylangan; ***teahouse*** birga yoziladi, tarjimada esa ***tea house*** yozilib, choydan uy yasalgan; ***yaktak*** xos so‘z sifatida to‘g‘ri foydalanilgan, biroq izoh mos emas, axir yaktak qanday qilib *sharqona chopon* bo‘lishi mumkin; *zangori shohi qiyiq* esa yaltiroq havorang kamar deb tarjima qilingan; oyog‘idagi *qala kavush* teridan tikilgan tufli bo‘lib qolgan. Jiddiy yondashib qilingan tarjima bu kabi g‘alizliklarga nuqta qo‘yishi mumkin edi: *The servant of the teahouse Asra, nicknamed as baldy, was a fit, thin and energetic, kind young man. He wears yaktak (traditional light shirt with long sleeves, no collar and buttons), rubber sandals, blue silk piece of cloth around his waist and has another piece of silk cloth on his shoulders.* Noadekvat tarjima natijasida qanday noma’qul manzara yuzaga kelishi

mumkinligini aniqroq tasavvur qilish uchun asliyat va tarjima matnidan paydo bo‘ladigan suratlarni quyida keltirdik:

1. Asliyatdagi Asra kal surati.

2. Tarjimadagi Asra kal obrazi.

Tarjimonlar I.M.Tukhtasinov va U.R.Yoldoshev deb yozilgan, 2017 yil “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan “Shum bola” qissasining inglizcha tarjimasidan bir sahifasinigina tahlil qildik. Hamkasblarimiz shaxsiyatiga til tekkizmagan xolda holis fikrlar bayon etdik. Maqsadimiz sifatsiz tarjimaga barham berish, o‘zbek mumtoz asarlarini xorijiy tillarga professional tarjima qilish orqali madaniyatlar va millatlararo muloqot hamda hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlash, o‘zga til sohiblarining adabiyotimiz namunalariga qiziqishlarini orttirishdir.

Tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etishi, asliyatning san’at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjima nusxa ko‘chirish emas, aksincha u ijodiy jarayon,

tarjimon esa asliyatni tarjimada qayta yaratuvchi mohir yozuvchi bo‘lishi lozim.

PS Eshitishimcha Oybekning “Navoiy” romani ham shu tarzda ingliz tiliga tarjima qilingan ekan. Hozircha uni qo‘lga olishga yuragim betlamadi…

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘aful G‘ulom, Shum Bola. – Toshkent, Qaldirg‘och, 2018 yil.
2. Гафур Гулям, Озорник. – Ташкент, ТГЮУ, 2020 год. (перевод с узбекского Александра Наумова)
3. Gafur Gulom, A Naughty Boy. – Tashkent, Yangi asr avlodi, 2017 (Translators: I.M.Tukhtasinov, U.R.Yoldoshev)

G.E.LESSING DRAMALARI TARJIMASIDA ASLIYAT HAMDA VOSITACHI TILNING O‘RNI

*PhD. **Alisher MAHMUDOV,** Qarshi davlat universiteti*

Jahon xalqlarining o‘zaro hamdo‘stligida, olimlar o‘rtasidagi fikr almashishida, yozuvchi-shoirlar ijod mahsulida ham tarjimaning o‘rni beqiyos. Har qanday davr iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va badiiy asarlar tarjimasi orqali o‘sha davr ilm-fani, adabiyoti, san’ati va madaniyati yuksalgan. «Tarjima qilish, – deb yozadi G‘.Salomov, – muayyan til vositalari bilan bir karra ifoda etilgan narsani boshqa til bilan aniq va to‘la ifodalash demakdir» [1:96]. Tarjimaga qo‘yiladigan asosiy talab – o‘girilayotgan asar mazmunini to‘g‘ri aks ettirishdir. I.Levыy aytganidek, «Tarjimonning talqini to‘g‘ri bo‘lishi uchun, avvalo, asarning asosiy xususiyatlari va oxir-oqibatda uning ob’ektiv qimmati saqlanmog‘i lozim» [2:75]. Tarjimon asarning hayotiga ikkinchi hayot bag‘ishlaydi, qayta yaratadi. Aytaylik G‘arb tilidan ag‘darayotgan tarjimon, o‘sha tilning nozik qirralarini egallashi yetarli emas, o‘sha halqning urf - odati-yu, rasm – rusumlarini ham yaxshi bilishi talab etiladi.

Tarjimon o‘z ona tilini a’lo darajada bilishi kerak, zero tarjima jarayonida u boshqa til bilan doimiy va yaqin muloqotda bo‘lganidan, uni har qadamda asliyat shakllarini ko‘chirib olish xavfi kutib turadi [3:200].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, «ba’zi bir nemis yozuvchilarining saylanmalari uch va hatto to‘rt martadan juda yaxshi nashr qilingan, ba’zi mualliflarning asarlari bo‘lsa, faqat bir marta nashr qilingan, ayrim yozuvchilarning asarlari esa, afsuski, biron marta ham nashr etilgan emas» [4:8].

Tarjima tahlilini Lessing qalamiga mansub «Emiliya Galotti» tragediyasining nemischadan o‘zbek tiliga qilingan tarjimasida ko‘rib chiqamiz. Asar taniqli tarjimon Posho Ali Usmon tomonidan ilk bora o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Buni eslashimiz boisi, Gyotening qahramoni Verter ayni shu asarni mutolaa qilishni juda yoqtirgandi. Adib bu bilan 1770 yilda vafot etgan Lessing ijodi o‘quvchilar o‘rtasida qanchalar mashhur bo‘lganini ta’kidlamoqchi bo‘lgan. Muallif Verter o‘zini o‘zi otganidan so‘ng xonadagi holatni tasvirlar ekan, shunday so‘zlarni keltiradi: «Vinodan faqat bir stakangina ichilgan, stol ustida «Emiliya Galotti» ochiq yotardi…» [5:7].

Jumladan, Ekkermanning yozishicha, Gyote Lessing qarashlariga tanqidiy yondoshib quyidagi fikrni beradi: «Lessing pьesalarini, – dedi u (Gyote – A.M.), – qadimgi yozuvchilar asarlari bilan qiyoslab, ularni oddiy va sayozga chiqarishayotgan bo‘lishsa, bunga nima ham deya olasan. Faqat mana shunday g‘arib davrda yashab, pьesalariga bundan yaxshiroq mavzu topolmagan iste’dodli odamga achinish kerak, xolos. Uning bir umr boshqalar bilan bahslashgani, shunga majbur bo‘lgani ham davrning qusuridir. «Emiliya Galotti»da u nayzasini knyazlarga, «Natan»da esa poplarga qarshi to‘g‘riladi» [6:206].

«Emiliya Galotti» tragediyasi dramatik asar bo‘lib, besh parda, 43 ko‘rinishga ega. Tarjimon va munaqqid Posho Ali Usmon asarni o‘zbek tiliga o‘girar ekan, tarjimada so‘z tanlashda mohirlik bilan yondashgan. Tarjimashunos olim Ibrohim G‘afurov aytganidek, jumlasi yo‘q yozuvchi, shoir, dramaturg bo‘la olmaganidek, jumlasi yo‘q kimsa ham hech qachon tarjimon bo‘la olmaydi. Tarjimon mazkur asar tilini chuqur o‘rgangan. Buni biz asarda uchraydigan frazeologizmlarlarning asliyatga so‘zma-so‘z emas, balki mazmunan mos keluvchi o‘zbekcha variantlardan foydalanganligini ham kuzatamiz. Masalan:

–Dem Himmel ist beten wollen, auch beten [7:261].

–Parvardigori olamga ibodat qilish istagining o‘zi ibodatdir [8:31].

Posho Ali Usmon tarjimasining yutuqlari qatorida ayrim kamchiliklarini ham aytish lozim. Taniqli tarjimon Ibrohim G‘afurovning quyidagi fikrlarini esga olish maqsadga muvofiq: «Ha. Bizning mutaxassisligimizning oti tarjimon. Ixtisosi – tarjimachilik. Shu bilan barobar u yozuvchi bilan yozuvchi, shoir bilan birga shoir, olim bilan birga olim, jurnalist, siyosatchi bilan birga jurnalist, siyosatchidir. Shunday darajadagina u optimal mazmundor matn yaratadi, mag‘izdor, ma’nodor jumla tuzadi. Tarjimon xuddi yozuvchi kabi katta hayot tajribalariga ega bo‘lgandagina uning so‘zi yozuvchi so‘zidek tiniq shirali, aniq-ravshan chiqadi» [9:9]. Darhaqiqat, tarjimani tahlil qilar ekanmiz, nafaqat asliyat, shuningdek M.M.Bamdas tomonidan rus tiliga o‘girilgan variantiga ham murojaat qildik va tarjima matniga sezilarli salbiy ta’sir qilmaydigan quyidagi juz’iy kamchiliklarni uchratdik:

Asar tarjimasini o‘qish jarayonida o‘ndan ortiq qayta takrorlangan «jur’at», «taqsir», «muruvvat», «la’nati» so‘zlarini, hattoki 29 marta «iltifot» so‘zini takrorlanganiga guvoh bo‘lamiz. Tarjimon so‘zlarning ma’nosiga qarab sinonim variantlaridan foydalansa, tarjima yanada

yaxshi chiqardi. Masalan, «jur’at» so‘zi o‘rniga «hayiqmay», «yurak yutib», «qo‘rqmasdan harakat qildi» kabi so‘zlar, «muruvvat» o‘rnida matnga qarab «olijanobilik», «odamgarchilik», «saxovat», «himmat» kabi so‘zlar qo‘llanilsa, tarjima sifati oshar edi.

Bundan tashqari, arabcha, forscha, lotincha – «vassalom», «darkor», «vobasta», «muhataram», «qutqu», «daf’atan», «istiqbol» kabi so‘zlar ham qayta-qayta takrorlanganki, o‘quvchini birmuncha zeriktirib qo‘yadi.

Og‘zaki nutqda ishlatiladigan «koshkiydi», «erishajak», «undayda», «o‘tajak», «muncha» kabi so‘zlardan tashqari, o‘zbek tilida uchramaydigan «rohibxona», «tasarrufot», «xulosai kalom», «kohina» kabi so‘zlardan foydalanilgan. O‘zbek kitobxoni tarjimani o‘qish jarayonida bu so‘zlarni tushunish uchun biroz bosh qotirishga to‘g‘ri keladi.

Tarjima nashrida imlo xatolar ham uchraydi. Masalan, «haq» so‘zi «xaq» (14-betda), «dahlingiz» so‘zi «daxlingiz» (68-betda), «hirsingiz» so‘zi «xirsingiz» (91-betda) tarzida va aksincha «baxya» so‘zi «bahya» (37-betda) tarzida yozilgan. Shu kabi «rahnamo» so‘zi ham «rahnoma» (86-betda) deb yozilib ketgan.

Atoqli ismlarni o‘zbekchada berishda rus tilida qabul qilingan shakllardan hamon qutila olmayapmiz. Tarjima muqaddimasida ishtirok etuvchilar ruyxatidagi bosh qahramonlardan biri Guastalla shahzodasi ismi asliyatda «Hettore Gonzaga» ko‘rinishida bo‘lsada, u «Gettore Gonzaga» tarzida ruslardagidek berilgan. Tarjimaga so‘z boshi yozgan Samarqand davlat chet tillari instituti dotsentlari Salim Jabborov va Bahodir Primov bu ismni «Gettaro Gonzaga» deb berishgan. Vaholanki, olim Shavkat Karimovning «Nemis adabiyoti tarixi» nomli darsligining 62-betida bu nom «Hettore Gonzaga» qabilida asliga monand berilgan.

Tarjimaga so‘zboshi ham juda qisqa yozilgan. Unda Lessing ijodi va «Emiliya Galotti» dramasi mazmun-mohiyati to‘liq ochib berilmagan. Lessingdan ilk tarjima o‘zbek kitobxonini buyuk ma’rifatparvar ijodi bilan tanishtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Har holda nemis adabiyoti ixlosmandlari yana bir tarjima asar bilan tanishishga muyassar bo‘lganligini aytib o‘tish mumkin.

“Emiliya Galotti” tragediyasi va «Donishmand Natan» dramasining tarjimalari Lessing ijodi to‘g‘risidagi o‘zbek o‘quvchisining tasavvurlarini boyitdi. Uning eng buyuk asarlaridan, diniy va irqiy murosaasizlikka barham berish, kishilarda bag‘rikenglikni

shakllantirish g‘oyasidan bahramand etdi. “Emiliya Galotti” tragediyasi va «Donishmand Natan» dramasi bu insonparvarlik va toqatlilikka poetik da’vatdir.

Atoqli adabiyotshunos olim Naim Karimov «Donishmand Natan» o‘zbek tilida» maqolasida to‘g‘ri ko‘rsatganiday, «Lessing bu rivoyatni Bokkachchoning «Dekameron» asaridan olib, unga butunlay o‘zgacha talqin bergan va bu talqin zamirida insonning insonga bo‘lgan muhabbati g‘oyasi yotadi» [10:94].

Aslida bu rivoyat yanada qadimiy manbalarga, Ezop davriga borib taqaladi.

«Donishmand Natan» dramatik poema ekanligi, unda voqea, harakatga nisbatan teran fikrlar ko‘pligi sababli bo‘lsa kerak, asarning sahnaga qo‘yilishi qiyin kechgan. Shiller va Gyotening sa’y-harakati bilan Vaymar teatrida sahnalashtirilgan, shundan so‘ng bu asar va diniy bag‘rikenglik g‘oyalari keng shuhrat qozondi. Asar nemis dramaturglariga, umuman nemis adabiyotiga barakali ta’sir ko‘rsatdi. Dramaning o‘zbekcha tarjimasida tarjimon Mirpo‘lat Mirzo mahoratining serqirraligi, individualligi, fikrlarining teranligini alohida ta’kidlash lozim. Tarjimon matndagi har bir so‘z, detalni hijjalab o‘girishdan qochib, muayyan badiiy ma’noda berishga intilgan. Sof o‘zbekcha so‘zlardan yaratilgan jumlalar tarjima qiymatini yanada oshirgan. Xullas, Mirpo‘lat Mirzo har bir so‘z yoki jumlaga emas, butun asar kontekstiga e’tibor qaratgan:

Patriarch:
Das ist zu arg! [7:428].
Патриарх:
Уж это слишком! Признаюсь вам, рыцарь,
Я очень удивлен, что сами вы.. [11:226].
Бош роҳиб:
Қуюшқондан чиқиб кетиш бу! [11:56].

Tarjimon asliyat va rus tiliga tarjimadagi individual uslub, o‘ziga xos xususiyatlarni mayda-chuyda ishoralargacha bera olgan. Buni quyidagi parchada ko‘rish mumkin:

Tempelherr:
– ich bloβ nicht will zum Schurken warden;
Zum undankbaren Schurken? [7:352].
Храмовник:

Я не хочу лишь негодяем стать,
Неблагодарным негодяем! [11:144].
Роҳиб:
– Истамам мен мурдор кимса бўлмоқни –
Туз ичиб тузликка тупурган! [11:20].

O‘zbek tiliga o‘girishga tarjimon ijodiy yondashgan. Unga badiiy mantiqdan kelib chiqib qo‘shimcha jumlalar kiritgan. Qo‘shimcha jumlalarning ma’nosi asliyat va rus tilidagi tarjimaning mazmuniga mos keladi:

Saladin:
Und ich,
Ich muβ schon selbst sehn, wo Al-Hafi bleibt [7:439].
Саладин:
А я пойду искать, где ж Аль-Гафи [11:238].
Салоҳиддин:
Ал-Ғофий қай гўрга даф бўлди, топай [11:68].

Badiiy adabiyotning nazm janrida so‘z tanlash muammosi katta mahorat talab qilardi, Muallifning fikrini, matn xarakterini e’tiborga olish kerak. Ammo boshqa ma’noni beruvchi so‘zlardan ehtiyot bo‘lish har bir tarjimon uchun muhimdir. Har qanday holatda ham asliyat ruhi tarjimaga singdirilishi lozim. Ba’zi hollarda tarjimon lug‘atlar bilan sinchiklab ishlamaganligini, rus tilidagi tarjimani qunt bilan o‘rganmaganligini kuzatamiz:

Recha:
Ein wenig meines Vaters Hand! – Ich meinte,
Du sprächst von Büchern [7:467].
Рэха:
Отца я только руку
Пожалуй, понемножку разберу.
Я думала, ты говоришь про книги [11:268].

Реҳа:
Отамнинг кафтини ўқийман бироз.
Китобларни эмас, сен ўйлагандек [11:92].

Bu parchada nemis tilidagi «Hand» so‘zi rus tilida «ruka», o‘zbek tilida esa «kaft» tarzida, «sprechen» fe’li esa rus tilida «govorit», o‘zbek tilida «o‘ylamoq» deb tarjima qilingan. Nemis tilidagi «Hand»

va rus tilidagi «ruka» so‘zlari ko‘p ma’noli bo‘lib, o‘zbek tiliga «qo‘lyozma», «dastxat» tarjimalariga, «sprechen» fe’li rus tilida «govorit», o‘zbek tilida esa «gapirmoq», «aytmoq» fe’llariga mos keladi. Asl nusxaning mazmuni quyidagicha: «Sen aytgandek, kitoblarni emas. Otamning dastxatlarini biroz o‘qiyman». Mirpo‘lat Mirzo tarjimasida esa kaft chiziqlarini o‘qib fol ochish, ya’ni xiromantiya bo‘lib qolganligini guvohi bo‘lamiz.

Tarjimonning e’tiborsizligi tufayli o‘zbekcha matnning ayrim joylarida personajlarning bir-biriga nisbati almashib ketgan. E’tibor bering:

Daja:
Des Sultans Schwester,
Prinzessin Sittah… [7:450].
Дайя:
Сестра султана,
Принцесса Зитта.. [11:250].
Дайя:
Султон опаси
Малика Зита… [11:79].

Mazkur parchadan ko‘rinib turibdiki, nemischa matnida sulton Salohiddinning opasi Zita haqida so‘z bormoqda. Keyingi parchada esa uning aksi:

Nathan:
Bleibt! Ihr trefft sie nicht.
Sie ist bei Sittah, bei des Sultans Schwester [7:466].
Натан:
Постойте!
Она не здесь, а во дворце: за нею
Сестра султана Зитта присылала [11:267].
Натан:
Бу ерда эмас у, саройга кетган:
Чақиртирган султон синглиси Зита [11:91].

Sulton Salohiddin bilan Asad o‘rtasidagi aka-uka munosabati ifodalangan tarjima asarni o‘qigan kitobxon tarjimon tomonidan yo‘l qo‘yilgan chalkashlik tufayli biroz bosh qotirishga to‘g‘ri keladi:

Saladin: Mein Bruder! Ganz gewiss! Mein Asad! [7:481].

Саладин: Мой брат! Наверно!
Наверно, мой Ассад! [11:284].

Салоҳиддин: Менинг укам!
Албатта, у – укам! Менинг Асадим [11:107].

Bu parchaning aksi bo‘lgan quyidagi parcha mazmuniga e’tibor qarating:

Saladin: Sie sind’s! sie sind es, Sittah, sind! Sie sind’s!
Sind beide meines…deines Bruders Kinder! [7:481].
Саладин: Они! Они! Ты слышишь, Зитта? Оба -
И тот и эта - оба... дети брата! [11:285].

Салоҳиддин: Улар! Зита, эшитяпсанми? Улар –
У ҳам, бу ҳам акам зурёди эрур! [11:108].

Xalqlarda qavm-qarindoshlikning turli darajalari va xillarini farqlashda tafovutlar borligi haqida tarjimon olim G‘.Salomov o‘zining «Tarjima nazariyasiga kirish» nomli qo‘llanmasida ta’kidlab o‘tar ekan, quyidagi jadval bilan izohlaydi: [12:49].

O‘zbek tilida	Rus Tilida	Venger tilida	Ingliz tilida	Nemis tilida	Indoneziya tilida
aka uka opa singil	брат сестра	bätua öccs nene nug	brother sister	Bruder Schwester	sudara

Dramada qon-qardoshlik haqida asarning boshlanishida hech bir izoh berilmaganini kuzatamiz. Bular drama rivoji davomida (Rehani asrab olinishi, rohibning afv etilishi, Rehaning rohib tomonidan qutqarib qolinishi) turli sahna ko‘rinishlarida o‘z aksini topgan. Dramada voqealar tizimi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va rivoj topishi asosan Natan uyida, Sulton Salohiddin saroyida va nasroniylar dafn etilgan joydagi xurmo daraxti ostida sodir bo‘ladi. Voqealar aks etgan joy uch din (yahudiy, islom va nasroniy) vakillari uchun juda qulay sharoit yaratadi.

Muallif «Donishmand Natan» dramasi va «Emiliya Galotti» tragediyasida vaqt va voqea birligiga ham katta e’tibor qaratadi. U dramada aniq sanani keltirmaydi. Voqea-hodisalar taxminlar asosida

emas, balki tarixiy mantiqqa asoslangan holda yoritiladi, tarbiyaviy ahamiyat jihatidan bir-biriga mos tushadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish, – T.: «O‘qituvchi» nashriyoti. 1978. – 220 b.
2. Levy I. Iskusstvo perevoda. – M.: Progress, 1974. – 394 s.
3. Gachechiladze G. Problemы realisticheskogo perevoda. Avtoreferat dokt. diss. – Tbilisi: 1961. – 67 s.
4. Jahon adiblari adabiyot haqida. – T.: «Ma’naviyat» nashriyoti. 2010. – 392 b.
5. Gyote Y.V. Muhabbatnoma. (Nemis tilidan Yanglish Egamova tarjimasi). – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2013. – 512 b.
6. Egamova Ya. Asl nusxadagi qahramonlar obrazini badiiy tarjimalarda qayta yaratish masalalari: Filol. fanlari nomzodi ... diss. – T.: 1974. – 202 b.
7. Lessing G.E. Gesammelte Werke. Zweiter Band. «Nathan der Weise». Aufbau-Verlag Berlin, 1954. –S 579
8. Lessing G.E. «Emiliya Galotti» . –T.: «Yangi nashr» nashriyoti, 2011. – 92 b.
9. G‘afurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. – T.: «Mehridaryo» nashriyoti. 2008. –B.
10. Lessing G.E. «Donishmand Natan»: Dramatik poema//Jahon adabiyoti. – 2004. –Boshi: №4. -B. 3–60. –Oxiri -№5. –B. 52–92. (M.Mirzo tarjimasi)
11. Lessing G.E. «Donishmand Natan». Dramatik poema. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. – 288 b. (M.Mirzo tarjimasi)
12. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish, – T.: «O‘qituvchi» nashriyoti. 1978. – 220 b.

AFANASIY FET SHE’RLARINING O‘ZBEK TILIDAGI TARJIMASIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Farida HUSAINOVA,

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, Turon FAsining faxriy akademigi, shoira

Hozirgi rivojlanib borayotgan globallashuv sharoitida til bilish, boshqa tillardagi badiiy asarlarni tarjima qilib adabiyot ixlosmandlariga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun D. Dyurshin: ...tarjima xalqaro adabiy jarayon taraqqiyotida muhim o‘rin

egallovchi adabiyotlararo kommunakativ vositadir", -deb bejiz ta’kidlamagan.

Badiiy asarni tarjima qilish uchun tarjimon ma’lum shoir va uning o‘ziga xos individual usul va uslublarini yaxshi bilishi, u his qilgan kechinmalarni o‘zida his qila bilmog‘i lozim.

"Tarjimashunoslik-ikki tildagi matnni chog‘ishtirish yoki bir tildagi ma’nolarni ikki tilda aks ettishini aniqlashgina emas, balki o‘zbek tilining salohiyati, boyligini ko‘rsatish..., o‘zgalar orqali o‘zini va o‘zi orqali o‘zgalarni nomoyon etish" san’atidir. ..." tarjimada inson dunyoqarashi, uning shakllanishi, u yoki bu darajada aks etadi. Tarjimon o‘ta mahoratli bo‘lsa ham uning ovozi bir ovoz, yetarli emas. Tarjimada odam o‘zini, so‘zga va dunyoga munosabatini yashirishi mumkin emas.

Tabiat va muhabbat, nozik kechinmalar kuychisi Afanasiy Afanasyevich Fet-Shunshinning o‘zbek tiliga tarjima qilingan she’rlarini nazardan kechirganimizda yuqoridagi fikrlar qanchalik to‘g‘riligiga yana bir karra amin bo‘lamiz. Fetning qaysi she’rini o‘qimaylik, satrlar zaminidan muallifning o‘z yurti tabiatini naqadar sevishini, nozik his-tuyg‘ularini, o‘z kechinmalarini tabiat manzaralariga uyg‘unlashtira olishini, ulardan falsafiy xulosalar chiqara olishini guvohi bo‘lamiz, his qila olamiz. Mashhur munaqqid V. Belinskiy o‘z vaqtida Afanasiy Fet timsolida rus she’riyatiga yangi shoir kirib kelayotganini e’tirof etgan edi.

Uning "Kuz naqadar sovuq..." deb boshlanuvchi she’rini o‘zbek tiliga Shuhrat va Aziz Abdurazzoq tarjima qilishgan. Shuhrat tarjimasiga e’tibor bering:

Kuz naqadar sovuq va qurg‘oq,
Shol ro‘moling boshingga o‘ra,
Olov yonar ufqda, mudroq-
Qarag‘aylar osha bir qara.

Shimol tuni -ko‘zing porlashi
Xayolimdan uzilmas bu chog‘.
Yongan bilan ko‘zing otashi
Isitmaydi qalbimni biroq.

Shu she’rni endi A. Abdurazzoq tarjimasida o‘qiymiz:

Kuz naqadar sovuqdir, ammo,
Mumkin qadar issiqroq kiyin.
Qarag‘aylar ustida go‘yo
Yong‘in yonar o‘chirmoq qiyin.

Shamoo tuning yog‘dusi, jonon,
Har qachon ham senga yaqinroq.
Nur sochmoqda ko‘zlar nurafshon
Ular meni isitmas biroq.

She’rning asl varianti quyidagicha:

Какая холодная осень, д.
Наден свою шаль и капюшон.
Посмотрите: из-за дремлющих сосен
Как будто возникнет восстает.

Сияние северной ночи.
Я помню всегда близко тебя.
Я свет фосфорные очи,
Да только не греют меня.

1854 г.

Bir qarashda ikkala tarjima ham silliq, vazn va qofiyalari joyidadek ko‘rinadi. Lekin olovning kuchli his-hayajon, isyon ifodasini e’tiborga olsak, Shuhratning tarjimasi Fetning fikriga yaqinroq. Shuhratning tarjimasida qofiya talabiga ko‘ra qurg‘oq so‘zi ishlatilgan. Lekin o‘zbek tilidagi "quruq sovuq" iborasi borligini, kuzning yomg‘irlarga boy fasl ekanligini e’tiborga olsak, "qurg‘oq" so‘zini quruqqa almashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Tarjima sohasida ko‘p yillik izlanishlar olib borgan, filol. fanlari doktori, prof. G‘. Salomov "Tarjimon xalqning tili, tarixi, etnografiyasi, madaniyatidan yaxshi xabardor bo‘lishidan tashqari so‘z tanlashda o‘ziga xos didga ega bo‘lishi zarur" deb tarjimon oldiga qo‘yilgan shartlarni, badiiy tarjimaning sifati haqida haq fikrlarni aytgan edi.

Bizningcha, Fetning A.Abdurazzoq tarjimasidagi birorta ham fe’l ishtirok etmagan " Qalb urishi" deb boshlanuvchi quyidagi she’ri muvoffaqiyatli chiqqan:

Qalb urishi, lablar nafasi,
Bulbul navosi,
Kumush rangli suv hafsalasi,
Jilg‘a jilosi.
Tun yorug‘i, tungi sharpalar,

Uzluksiz soya.
O‘zgarishlar sehri qanchalar,
Poyama poya.
Atirgulning yarqirashlari,
So‘zsiz imolar.
Bo‘sa va ko‘z yoshlari
Tungi ibolar.

"Badiiy tarjimada bitta so‘z kam yoki ko‘p bo‘lmasligi kerak", - degan edi mashhur adabiyotshunos F. M. Dostoevskiy. O‘zbek tili sinonimlarga, frazeologik birliklarga boy til. Shunday ekan, tarjimon bu imkoniyatlardan to‘laqonli foydalana bilishi, sinonimlarning nozik ma’no qirralariga diqqat-e’tiborini qaratishi, mantiqqa rioya eta bilishi kerak deb o‘ylaymiz.

A. Fetning Sherzod Komil tarjimasidagi "Tutqun" she’riga diqqatimizni qaratamiz:

Qichitqi o‘t shovqini,
Derazam ostida.
Yashil tollar chodiri
Egilgan bo‘y-bastiga.

Tokay bu qayg‘u izni
O, qani uxlab qolsang:
Erkinlik va dengizni
Tushlaringda ko‘rolsang.

Ma’lumki, inson uchun eng aziz ne’mat bu- erk, ozodlik. Dengiz, daryolar she’riyatda erkinlik ramzi. Bu jihatdan olib qaraganimizda tarjimon erkinlik va dengiz so‘zlarini bir-biriga to‘g‘ri uyg‘unlashtirgan.

Lekin "Qichitqi o‘t shovqini" bir oz mantiqqa mos kelmaydi. Bizningcha, "qichitqi o‘t shovqini" so‘zi o‘rniga "qichitqi o‘t shildiri" qo‘yilganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bundan tashqari, "shildiri" so‘zi "chodiri" so‘ziga mos qofiya bo‘lar edi.

O‘zbek xalq qahramoni, adabiyotshunos olim O. Sharafiddinov "Tarjima originalni g‘oyaviy va badiiy aks etish formasidir. U o‘quvchiga originalni mumkin qadar to‘la va chuqur bilish imkoniyatini bera oladigan bo‘lishi kerak. O‘quvchi tarjimani o‘qib original haqida tarixiy jihatdan to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘la olsin. Buning uchun tarjimon asarning umumiy mazmuni va umuman, badiiylikni to‘g‘ri berib qo‘yishgina kifoya qilmaydi. Tarjimon tarjima qilayotgan asarning o‘ziga xosligini, avtorning individual uslubini ham bera olishi kerak" ,-deganida naqadar haq ekanligini sezamiz.

"Muazzam istiqlol davrining tarjimalari shu ulug‘vor davrning talabi va vazifalariga mos va munosib bo‘lishi lozim" Demak, tarjimon qaysi tildan tarjima qilmasin muallifning o‘ziga xos usul va uslubini chuqur o‘rganishi, uning his-tuyg‘ularini tushuna olishi, o‘sha tarjima qilayotgan shoirning vatani tarixi, etnografiyasi, leksik qatlamidagi so‘zlarni o‘rganishi, fauna va floralarini yaxshi bilishi, frazeologik birliklarning, sinonimlarning o‘sha tildagi maqbul variantini topa bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. V. Belinskiy. 1841 yildagi rus poeziyasi.
2. Salomov G‘. "Adabiy an’ana va badiiy tarjima"
3. G‘. Salomov. / O‘zbek adabiyoti va san’ati" gazetasi. 2012, 50-son.
4. G. Starekovskiy bilan muloqot. Suhbatdosh Kalashnikova Inostrannaya literatura. 2016, 3-son.
5. O. Sharafiddinov. Badiiy tarjimaning ba’zi printsiplari".
6. https://ru.m.wikipediya.org
7.https://ziyouz

HALDUN TANER ASARLARINING BADIIY TARJIMADAGI TALQINI

Mehriniso KAYUMOVA, *TDSHU katta o‘qituvchisi*

Haldun Taner, XX asr turk adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri bo‘lib,u turk dramaturgiyasining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan va

dunyoga tanitgan yorqin siymolardan biri hisoblanadi.Maqolada dramaturgning asarlari tarjimasining umumiy tahlili o‘rin olgan.

Haldun Taner turk adabiyotida mashhur yozuvchi va dramaturg sifatida tan olingan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Xususan, Haldun Taner dramatik asarlarida turk insonining ichki olaminiturli aspektlarda yoritishga harakat qiladi, inson va insoniyatga bo‘lgan chuqur sevgisini ifodalaydi. Shuningdek, jamiyat, tabiat va o‘z ichki olamida o‘ralashib qolgan inson fojeasini ham ko‘rsatib beradi. Tez o‘zgaruvchan va shaxs sifatida shakllanayotgan xarakterlar, keksa insonlar, ayollar, aldangan erkaklar, kichik insonlar, turli kasb vakillari... asarlarning tipik xarakterlaridir.

Haldun Taner asarlarida ijtimoiy o‘zgarishlarga ham katta ahamiyat qaratgan. Ijodkor ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy qonunlarga parallel tarzda o‘zgargan turk jamiyatining holatini aks ettiradi. Yozuvchi bu o‘zgarishning turk jamiyatida yuzaga keltirgan turli salbiy holatlari haqida ma’lumot beradi. G‘arb madaniyati va san’atining bunday o‘zgarishi qanday kechgan degan savolga javob qidiradi va bu o‘zgarish asnosida oqsagan jihatlarni hajviy yo‘l bilan tanqid qiladi. Dramalarida ijtimoiy o‘zgarishning ma’naviy tomonini og‘riqli nuqta sifatida aks ettiradi. Haldun Tanerning asarlarida tanqidiy qarash muhim ahamiyat kasb etadi.

1950 yillar Turkiyada siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar og‘ir kechgani, bunga parallel ravishda adabiyotda ham o‘tmish bilan hisoblashish, G‘arb ta’siri ostida yangilanish jarayoni kuzatiladi. Haldun Taner asarlarida ijtimoiy o‘zgarishlarga ham katta ahamiyat qaratgan. Ijodkor ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy qonunlarga parallel tarzda o‘zgargan turk jamiyatining holatini aks ettiradi. Yozuvchi bu o‘zgarishning turk jamiyatida yuzaga keltirgan turli salbiy holatlari haqida ma’lumot beradi. G‘arb madaniyati va san’atining bunday o‘zgarishi qanday kechgan degan savolga javob qidiradi va bu o‘zgarish asnosida oqsagan jihatlarni hajviy yo‘l bilan tanqid qiladi. Dramalarida ijtimoiy o‘zgarishning ma’naviy tomonini og‘riqli nuqta sifatida aks ettiradi.

Haldun Tanerning ijoddagi yutug‘i g‘ayritabiiy vaziyatlarni, voqealarni va insonlarni tasvirlashda emas, balki kichik insonlar hayotini aks ettirishdadir. U hikoya qilmoqchi bo‘lgan mavzuni insonga ahamiyat qaratmagandek holatda hikoya jarayonida shunday o‘zgarish yasaydiki, xuddi kitobxon yozuvchi shaxsiyatini unutib voqealar ichiga

sho‘ng‘ib ketadi. Yozuvchi bermoqchi bo‘lgan istagini, fikrini, qarorini, tanqidini hikoya qahra-monlariga yuklaydi. Shu tarzda hikoya qahramonlari yozuvchining so‘zlovchisi vazifasini bajaradi. Asarga ba’zan jonivorlar, ba’zan ramz, ba’zan esa ashyolar g‘oya beradi va ular yozuvchi shaxsiyatini aks ettiradi.

Haldun Tanerning asarlarida tanqidiy qarash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga qaramay, uning asarlarida pessimistik ruh sezilmaydi. Yozuvchi faqatgina tasvirlaydi va achchiq haqiqatni yumor bilan yumshatadi. “Haldun Taner Turkiyada epik dramalarning asoschisi deb baholanadi”,-deb ta’kidlaydi M.Karabulut [2; 56].

Tanerning tabiat va tabiiylik haqida to‘xtalishining boisi ham sevgini tabiiylik va to‘g‘rilikdan topganligidadir. Yozuvchi kichik insonlar va kichik hayotni tanlashi asosida faqat sevgi yotadi. O‘tmishga nazar solishida ham sevgi muhim ahamiyatga ega. Chunki go‘zalliklarni va sevgini hamisha o‘tmishdan oladi.

Yozuvchining asarlarida makon sifatida, asosan, Istanbul va Olmoniya tilga olinadi. Shuningdek, Istanbul eski va yangi qiyofasi bilan tasvirlanib unga ta’riflar keltiriladi. Olmoniya esa boshqacha madaniyat tarzini ko‘rsatish uchun qalamga olinadi. Yozuvchi insonga va jamiyatga madaniy nazar orqali yondashadi. Bu uchun yozuvchi juda yaxshi bilgan ikkita madaniyatni qiyoslaydi. Olmonlar va turklar o‘rtasidagi ijod, adabiyot, qiymatlar, begona ishchi, begonalashish muammolarini hamisha makonlar vositasida tasvirlaydi.

Haldun Taner ijodiy faoliyati davomida hech qachon turli oqim yoki guruh vakili bo‘lmagan. U ijodga biron-bir yangilik kiritish, nom qoldirish, taniqli bo‘lish istagida yoki turli ideologik fikrlarga sig‘inib qalam tebratgan yozuvchilardan emas.

Haldun Taner yashagan davrdagi ijod oqimi va fikrlari doirasi chegarasidan o‘tib mahalliy yozuvchi bo‘lishga harakat qiladi. Globallashishga ham shu yo‘l orqali erishish mumkinligini biladi. O‘zidan oldingi ifodaga urg‘u bergan va xalq og‘zaki ijodidan ta’sirlangan yozuvchilardan o‘rnak oladi. Ahmad Mithat afandi, Emin Nihat an’analariga bog‘liqdek ko‘rinsa-da, hikoyalarida so‘zlashuv va askiya an’analaridan ta’sirlanish jihatidan ulardan ham yuqori darajaga erishganligi seziladi. Ahmad Rasim va Husayn Rahmi Gurpinar kabi yozuvchilarning Istanbul shevasini hikoyaga kiritish amaliyotiga u yana ham mahorat bilan yondashishga harakat qiladi. Iboralardan keng

ko‘lamda foydalanadi, xususan, monolog va dialog vositasida yozgan hikoyalarida muvaffaqiyatga erishadi.

Asar tili va mazmuniga o‘ta talabchan, mushohadalarga usta yozuvchi Haldun Taner insonning shaxsiy dunyosi bilan falsafa asoslarini uyg‘unlashtirib, voqealar va qahramonlarga shunga ko‘ra ruh berishni hech qachon e’tibordan soqit qilmagan ijodkordir. U o‘z fikriga va yuksak ma’naviyatga ega yozuvchilardan biri sanaladi

Yozuvchining “Yashasin demokratiya” (1949), “Tush” (1951), “Shishxonaga yomg‘ir yog‘ardi” (1953), “Oy nuridagi shovqin” (1954), “O‘n ikkiga bir daqiqa qoldi” (1954), “Ko‘nchinalar” (1967), “Sanchoning tonggi sayrlari” (1969), “Qizil sochli amazonka” (1970), “Sohilda tong” (1983) singari hikoya to‘plamlari bor. Bu to‘plamlarning barchasi tarjima qilingan. Haldun Taner asarlari rus, ingliz, nemis, chex, yugoslav, qozoq, ozarbayjon va gruzin tillariga tarjima qilingan. Adibning qator hikoyalari P.Kenjaeva tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan.

Haldun Taner hikoyalari rus tiliga eng ko‘p uni yaqindan tanigan rus adibi L.N.Starostov tomonidan tarjima qilingan bo‘lib, ular yakka ko‘rinishda ilmiy jurnallarda hamda alohida to‘plamlar sifatida e’lon qilingan: Taner Xaldun “Po vecheram v apteke” (1963) [7;90], “Mech i pero”(1964) [7;25], “Bez odnoy minuты dvenadtsat(1965) , “Made in USA”-Lyubovnые pisma. Turetskaya satira i yumor(1966), “Dojd na ulitse Shishxane” (1969) [7;54], “Nedotepa” (1969) [7;97], “Rasskazi” (1971), “Sancho na utrenney progulke” (1976) [7;185], “Izbrannoe. Novelli” (1984).

Taner asarlari rus tiliga quyidagi mualliflar tomonidan ham tarjima qilingan:

L.Alkaeva tomonidan “Allegro ma non troppo” [7;38] (asar ayni sarlavha bilan tarjima qilingan), “S vosmi do devyati” [7;46]; A.Baskakov tomonidan “Statuya” [7;31], “Bez odnoy minuti dvenadtsat”[7;113]; “Auktsion” [7;147], “Noga” [7;123], “Ases” [7;221]; N.Golubeva tomonidan “Chetvero na katere” [7;35]; L.N.Starostov tahriri ostida N.Pirverdyan tomonidan “Iznikskiy aist” [7;142] tarjima qilingan.

Haldun Tanerning o‘nlab ocherklari rus tiliga L.Starostov tomonidan tarjima qilingan. Lekin adibning dramalari rus tiliga tarjima qilinmagan.

Taner jami 12ta drama va 13ta kabare uchun pьesa yozgan boʻlib, ularning barchasi sahnalashtirilgan. Eng koʻp tilga tarjima qilingan sahna asari “Keshanlik Ali dostoni” hisoblanadi. U ingliz,nemis, chex, yugoslav, qozoq, ozarbayjon va gruzin tillariga tarjima qilingan. Haldun Tanerning ulkan muvaffaqiyat qozongan bu sahna asari yigirmaga yaqin davlatlarda sahna yuzini koʻrib, Turkiyaning oʻzida 1425 marta ijro etilgan. Bu pьesa zamonaviy epik teatr va xalq teatri oʻzaro uygʻunlashgan yangi uslubdagi dramatik asardir. Haldun Tanerning asarlari “Keshanlik Ali dostoni”dan boshlab tashviqot mazmunini kasb eta boshladi [1;177].

Asar oʻzbek tiliga 2021 yilda M.Kayumova tomonidan tarjima qilingan.

Haldun Tanerning mashhur “İznikli Leylek”(“Izniklik laylak”) asari oʻzbek tiliga adabiyotshunos olim P.Kenjaeva tomonidan tarjima qilingan boʻlib, maqolamizda uni N.Pirverdyanning rus tiliga tarjimasi bilan qiyoslab tahlil qilishni oʻz oldimizga vazifa qilib qoʻydik.

“Izniklik laylak” asari syujetiga koʻra, yangi tuxumdan yorib chiqqan laylak bolasi oʻz onasi tomonidan qasddan (uchta polaponi boʻlgani uchun otiqcha sifatida) inidan tushirib yuborilgach, baxtli tasodif tufayli simga ilinib tirik qoladi. Afsuski, laylak bolasi qanoti lat yegani tufayli ucholmaydi. U Iznikda odamlar orasida yashab oʻrganib qoladi, lekin har safar boshqa laylaklar yoniga uchib kelib, uni chorlaganlarida parvoz qilishga qancha urinmasin, ucha olmay qolib ketaveradi. Buni kuzatayotgan Iznikka turist sifatida kelgan odamlar unga achinish va turli mulohazalar bilan qaraydilar.

Asarda keltirilgan frazeologizmlarning rus va oʻzbek tiliga qilingan tarjimasini koʻrib chiqamiz. Asliyatda shunday berilgan:

Dili biraz kesilip törpülenecek *olsa,* ***saksağanın papağandan çok daha güzel konuşacağı*** *rivayet olunur.[3;47]*

Ruscha tarjimada yuqoridagi gap mazmuniga mos ravishda quyidagi iboradan foydalanilgan:

Говорят, если сороке ***немного подрезать язык****, то в искусстве красноречия* ***она заткнет за пояс и попугая****.[7;142]*

Oʻzbek tiliga qilingan tarjima esa quyidagicha:

Tili jindekkina kesilib ravonlashgan boʻlsa, zagʻizgʻon toʻtidan ham biyron gapiradigan boʻladi degan gaplar yurardi.[4;254]

Laylakning tashqi koʻrinishini taʼriflar ekan, Taner shunday iboralarni qoʻllaydi:

Zaten hali, tavrı, yürüyüşü, iki üç adımda bir durup düşünüşü, dini bütün bir Müslümandan çok, şüpheci ve kötümser bir filozofu andırıyordu. Bu leyleğin ermişlerle değil, herhalde ***Voltaire'ler, Schopenhaure'lerle bir akrabalığı olacaktı****. .[3;48]*

N.Pirverdyan bu ta'rifni rus tiliga quyidagicha o'girgan:

Его вид, манера ходить и, размышляя, останавливаться через два-три шага скорее напоминали во всем сомневающегося философа-пессимиста, нежели мусульманина. Этот ***аист был похож*** *не на святого, а, пожалуй* ***на последователей Вольтера или Шопенгуэра.*** *[7;143]*

P.Kenjaeva ushbu ta'rifni quyidagi shaklda tarjima qilgan:

Uning holati, xatti-harakati, yurishi, har ikki-uch qadamda bir to'xtab o'ylanib qolishi mukammal musulmondan ko'ra ko'proq shubhachi va badbin faylasufni eslatadi. Bu laylakning avliyolar bilan emas, nari borsa Volterlar , Shopengauerlar bilan qarindoshligi bo'lgan bo'lsa, ajab emas. [4;255]

Tarjimon N.Pirverdyan laylakning o'zini tutishi, yurish-turishini "Volter yoki Shopenguer izdoshlariga o'xshaydi" deb tarjima qilgan bo'lsa, P.Kenjaeva uni asliga muvofiq ravishda "Volterlar, Shopengauerlar bilan qarindoshligi bo'lgan" deya tarjima qiladi.

(Şoför:) "Kanadı kırık da ondan uçamaz fakir. Yavru iken anası yuvadan atmış buncağızı."[3;49] Jumlasining ruscha tarjimasida laylakka achinish hissini yanada kuchaytirish uchun berilgan "buncağız"so'zining tarjimasi keltirilmagan:

"Крыло сломано, вот ***бедняга*** *и не может подняться в воздух. Давненько, когда птенцом еще был, мать выбросила его из гнезда." [7;145]*

O'zbek tilida ham bu so'z jumlada takrorlanish bo'lmasligi uchun tushirib qoldirilgan. Sababi, bundan oldingi jumladagi "fakir" so'zi ham "buncağız"so'ziga ma'nodosh hisoblanadi:

"Qanoti singan, shu sababdan bechora ucholmayapti. Polaponligida uni onasi uyasidan pastga irg'itib yuborgan." [4;257]

Ya'ni asliyatda keltirilgan ikki so'z o'rniga tarjimonlar bir so'zni berishni afzal ko'rdilar.

Badiiy tarjimaning qoidasi bitta tarjima qilinayotgan asarning ruhini berish. Asar shunday tarjima qilinishi kerakki, o'quvchi uni asliyat muallifi qanday yozgan bo'lsa, tarjimasi ham xuddi shunday o'qilishi kerak. Har bir tarjima o'z o'quvchisiga asliyatni o'qigan

kitobxonda qoldirganchalik taassurot qoldirishi kerak. Haldun Tanerning “Izniklik laylak” asari o‘zbek va rus tiliga yuqori saviyada tarjima qilingan bo‘lib, tarjimonlar asliyat ruhini to‘liq bera olgan.

Badiiy tarjima o‘z murakkabligi va mushkulligiga ko‘ra badiiy ijod bilan qariyb bir mavqeda turadi. Sababi, muallif iste’dodi va mahorati mahsuli bo‘lgan badiiy asarni mutarjim boshqa til vositalari bi-lan asliga muvofiq qayta yaratishi talab qilinadi. Buning uchun badiiy san’atlar, tasvir vositalari, muallif uslubi, milliy kolorit, personajlar nutqi, asarning grammatik-uslubiy qurilishi, frazeologizm, shakl va mazmun birligi kabi ko‘pdan-ko‘p muammolarni hal qilishga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, har qanday tarjima muayyan darajada ijodiy ish hisob-lanadi. Badiiy asarlar tarjimasi esa alohida yondashuvni talab etishi, mahorat va san’atkorlikni taqozo qilishi jihatidan san’at iqlimidir. Bu masalani o‘zbek tarjimashunoslik fanining darg‘asi G‘aybulla Salo-mov shunday asoslaydi:

“Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun bo‘lak tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari, asl nusxa mazmu-nini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ana shu muqobil til vositalari-ni qidirib topish va muvofiq variant tanlash ijodiy xarakterga ega bo‘-lib, tarjima qiluvchi kishi, ya’ni tarjimondan ongli mehnatni talab eta-di. Tilning ifodaviyligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-si-yosiy adabiyotlar tarjimasida ham muayyan badiiy-ijodiy masalalarni yechishga to‘g‘ri keladi. Bu tarjimondan adabiy mahoratni talab qiladi. Bunday tarjima san’at jumlasiga kiradi”[5;149].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Haldun Tanerning “Izniklik laylak” asari o‘zbek tiliga P.Kenjaeva va rus tiliga N.Pirverdyan tomonidan ulkan mahorat bilan tarjima qilingan bo‘lib, tarjimalarda Tanerga xos badiiy joziba, ta’siranlik kabi xususiyatlar to‘la saqlangan holda o‘zbek va rus kitobxoniga yetkazib berilgan. Tarjimonlar asliyatdagi sifatlash, o‘xshatish, tasviriy ifoda hamda iboralarni o‘z o‘rniga qo‘ya olgan; so‘zlarning badiiy, uslubiy, milliy va estetik vazifasini hisobga olganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibrohimova Sh. Turk dramaturgiyasi. TDSHI, 2016.

2. Karabulut M. Edebiyatın Sosyolojik İmkanı Açısından Keşanlı Ali Destanının İncelenmesi, Adıyaman Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 2012, Ocak, Sayı 8.
3. Taner, Haldun, On İkiye Bir Var.Ankara: Bilgi Yayınevi, 3.basım, 1988.
4. Elo‘q S., Kenjaeva P. Kutilmagan mehmon. Akademnashr, 2011.
5. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. − Toshkent: “O‘qituvchi”, 1978.
6. Taner Xaldun. Rasskazы.M.,1971.
7. Xaldun Taner. Izbrannoe. Novelli i publitsistika. Per. s tur. L.N.Starostova. M., Glavnaya redaktsiya vostochnoy literature izdatelstva «Nauka», 1984.

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TGAN KUNLAR” ROMANIDA ARABIY SO‘ZLARNING SALMOG‘I

Shirin ZAYNUTDINOVA, *TDSHU katta o‘qituvchisi*

Ona tili – bu millatning ruhidir. Millatning o‘ziga xosligi uning dunyoni anglashiga qarab, o‘z navbatida bu o‘ziga xoslik ana shu millatning tili orqali namoyon bo‘lishni e’tiborga oladigan bo‘lsak, tilning millat taqdirida naqadar yuksak ahamiyat kasb etishni ilg‘ab olsa bo‘ladi.

XX asrni zamonaviy o‘zbek tili shakllanishidagi muhim burilish davri deydigan bo‘lsak, bu davrni zabardast yozuvchi Abdulla Qodiriy ijodisiz tasavvur qilish mumkin emas. Dunyoning tan olingan besh romanchilik maktabi qatorida oltinchi o‘zbek romanchilik maktabini yaratgan adib kelajak avlodlarga milliy adabiyot qanday bo‘lishi kerak ekanligi namoyon qila oldi. Qolaversa ta’bir joiz bo‘lsa, shu kunga qadar Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida ijtimoiy mohiyati kuchli, yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan asarlari hali hanuz kitobxonlar orasida sevib mutolaa qilib kelinmoqda.

“O‘tkan kunlar” romanida Abdulla Qodiriy til ustida katta mahorat ko‘rsatdi. Romanning tili haqiqatan boy, badiiy bo‘yoqli, sodda, iroda kuchi zo‘r, ommaga anglashilarli bir tildir. O‘zbek adabiy tilining shakllanishda bu asarning roli shubhasiz katta.

Adib o‘z kasbi va so‘z san’atining ahamiyati haqida shunday degan edi:

“Yozuvchilikda bir qonun bor: hammadan ilgari ma’no, undan so‘ng shu ma’noni ifoda qilish uchun qurish so‘z bilan emas,

san’atkorona, ya’ni shunday so‘zni aytmoqchi bo‘lgan fikringizning ifodasi uchungina maxsus yaratilgan bo‘lib, yasama bo‘lmasin”.

“O‘tkan kunlar” romanida millat taqdiri, birlik, el-yurt qayg‘usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash kabi g‘oyalar ilgari surilgan. Abdulla Qodiriy asarlari so‘z san’atining go‘zal namunasi sifatida milliy kitobxonlikning didi, saviyasi, ruhiyatini tarbiyalab kelmoqda. Bu asar nafaqat o‘zbek kitobxonlari orasida, balki rus, tojik, qozoq, uyg‘ur, ozorbayjon, ingliz, nemis va boshqa tillarda nashr etilib kitobxonlaga keng taqdim etilgan.

Mustaqilligimiz toboro mustahkamlanib, o‘zining samaralarini bera boshlagan bugungi kunda, xalqimizning ma’naviy yuksalish jarayonida milliy adabiyotimizni chuqur bilish, uning yorqin namoyondalari asarlaridan bahramand bo‘lish, ularning ilgari surgan umuminsoniy qadriyatlarini anglash hozirgi yoshlar kelajagi uchun ayniqsa, ahamiyatlidir. Har qanday millatning ichki, ma’naviy ruhiyatini aynan ana shu millatning tiligina ravon ifoda eta oladi. Til millat ma’naviyatining moddiy ifodasi sifatida u millatning eng ulug‘ qadriyati maqomiga ega bo‘lgan ma’naviy merosimiz durdonalarini yanada chuqurroq o‘rganish bugungi kun ilm-fanning dolzarb vazifasidir.

A.Qodiriyning adabiyot dunyosida salmoqli adib ekanligi uning romanlarida xususan “O‘tkan kunlar” romanida namoyon bo‘ldi. “O‘tkan kunlar” romanining bu qadar e’tirof etilishining sababi uning hayotiyligi va g‘oyasining baquvvat ekanligidadir.

Ana shu yo‘ldagi foydali ishlardan biri o‘zbek adiblarining asarlarini mutolaa qilish, undan ma’naviy ozuqa olishdir. Shu maqsadda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llanilgan arabiy o‘zlashmalarning tahlili mavzusi tadqiq etishni lozim topdik.

Mazkur mavzu ustida ishlash jarayonida asardagi arabiy so‘zlarning barcha qirralarini ochib berish dolzarbdir, chunki bu asarni o‘qiyotgan kitobxon uchun unda ishtirok etgan arabiy so‘zlarning asl va ko‘chma ma’nolarini bilishlari zarurdir. Bu esa biz arabshunoslarning zimmasida turgan muhim vazifalardan biridir.

“O‘tkan kunlar” romanining ma’no-mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi.

Barchamizga ma’lumki, qadimdan xalqlar millat va elatlar o‘zaro iqtisodiy siyosiy, madaniy aloqa va munosabatda bo‘lganlar. Ularning munosabatidagi rivojlanish va taraqqiyot zamonaviy ana shu xalqlarning tillari leksikasida ham o‘z ifodasini topadi.

Hech qanday xalq o‘z taraqqiyoti yo‘lida boshqa xalqlar bilan aloqa qilmasdan, ayri xo‘jalik yaratish bo‘lmaganidek, bironta xalqning tili yakka holda taraqqiy etishi mumkin emas.

Shunga ko‘ra har bir tilning leksikasida etimologik jihatdan shu tilning o‘ziniki bo‘lgan so‘zlardan tashqari, boshqa tillardan kirgan leksik elementlarning bo‘lishi ham tabiiydir.

Arabiy so‘zlar o‘zbek tilida o‘zlashtirilganda, faqat mazmun tomonidan emas, balki fonetik va grammatik jihatdan ham ma’lum o‘zgarishlarga uchraydi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarini o‘qish va tahlil qilish jarayonida mening e’tiborimni o‘ziga tortgan narsa, bu yozuvchining asardagi har bir so‘zdan mohirona foydalanganidir.

Yozuvchi o‘zi yashagan ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, o‘sha paytda fors-tojik tili qatori bemalol ishlatilgan arab tili imkoniyatlaridan to‘liq foydalangan. Asardagi har bir adabiy so‘z o‘z o‘rnida ishlatilib ular asar ma’nosini, mazmunini to‘la ochib berishga yo‘naltirilgan. To‘g‘ri, asarda juda ko‘p arabcha so‘zlar qo‘llanilgan shu holatdagisini o‘sha paytdagi kitobxon hech qiyinchiliklarsiz o‘qiy olgan, lekin hozirgi paytdagi kitobxonga asarni mutolaa qilishda biroz qiyinchiliklar tug‘ilishi mumkin. Bu qiyinchilik arab so‘zlarining ishlatilishi bilan bog‘liq. Bunday muammoni bartaraf etishning bir qismini yozuvchining o‘zi zimmasiga olgan. Yana Abdulla Kodiriy asaridagi ba’zi arabcha so‘zlarga izoh bergan. Ishimizning asosiy va muhim vazifasi “O‘tkan kunlar” asaridagi arabcha so‘zlarning semantik va leksik qirralarini ochib berish bilan asosiy maqsad - bu asarni o‘qiyotgan kitobxonga amaliy yordam berish, ya’ni har bir arabcha so‘zning birlamchi va o‘zbek tilidagi ko‘chma ma’nolarini bayon etish edi. Arabcha so‘zlarning arabcha varianti bilan o‘zbekcha ma’nolari o‘rtasidagi ma’no bir xilligiga, ma’noning torayishiga, kengayishiga alohida e’tibor berish edi. Shunday ekan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida arabiy so‘zlarning juda keng qo‘llanilganligini misollar orqali ko‘rib chiqsak.Masalan:

“Meni Toshkent hokimligida azl etmoqchi va hatto o‘ldirmoqchi bo‘ldilar” , jumlasidagi “عَزْلٌ” so‘zi arabcha-o‘zbekcha lug‘atda

uzoqlashtirmoq, ajratmoq, mansabdan uzoqlashtirmoq, bo‘shatmoq, yolg‘iz qolmoq, o‘zini xilvatga olmoq kabi ma’nolarda kelgan. Ana shu so‘zning o‘zbek tilida asl ma’nosini bilish uchun “O‘zbek tili izohli lug‘ati”ni ko‘zdan kechirganimizda “azl” so‘zining bekor qilmoq, chetlatmoq, bo‘shatmoq (ishdan, mansabdan) kabi ma’nolari borligiga guvoh bo‘ldik.

“Bu kishi Azizbekning amiri lashkari va o‘ng qo‘li bo‘lgan Raimbek dodxoh edi” .

“أَمَرٌ” so‘zi lug‘atda “amr”, buyruq beruvchi, boshliq, gubernator, ma’nolariga ega. O‘zbek tili izohli lug‘atida esa tarixdan Buxoroda va ba’zi musulmon mamlakatlarida: xonlik, podsholik, unvoni hamda shu unvon egasi. Shu bilan birga erkaklar ismini anglatadi.

“Ertasi kun butun Marg‘ilon deyarli Malik boyning maydonida voqeʼ bo‘lgan ishga juda hayron edi” . Bu jumlada uchragan “voqeʼ” so‘zi o‘zbek tili izohli lug‘atida sodir bo‘lmoq, ro‘y bermoq, yuz bermoq, kabi ma’nolarini uchratishimiz mumkin.

Arabcha-o‘zbekcha lug‘atda esa "وَاقِعٌ" so‘zini pastga tushib ketayotgan, ag‘darilayotgan, voqeʼ bo‘layotgan, bo‘lib o‘tayotgan, amaldagi, joriy, joylashgan, qunib turgan (qush haqida) ma’nolari keltirilgan.

Hozir inodning o‘rni emasligini harchand uqdirmoqchi bo‘ldim, ko‘nmadi . “Inod” bu so‘zning o‘zbek tilidagi lug‘aviy ma’nolari bo‘yin tovlash, o‘jarlik, qiyiqlik “عِنَادٌ” arab tilidagi ma’nolari sabotlilik, qaysarlik, sobitlik, qarshilikdir. Otabek dadasining bu keyingi so‘ziga qarshi xech narsa demadi go‘yo hamma alamini yuqoridagi ikki jumla bilan chiqarib yuborgandek somelik darajasiga tushdi” .

“Some” – ko‘proq tarixiy kitoblarda uchraydi o‘zbek tili izohli lug‘atida eshituvchi, tinglovchi, shu bilan birga, Qurʼon o‘qiyotgan qori yanglishganda yoki unutib to‘xtab qolganda luqma solib turuvchi ikkinchi qori nomi ma’nolarida keltirilgan. Arabcha-o‘zbekcha lug‘atda “سَامِعٌ” so‘zining eshituvchi, quloqsoluvchi, tinglovchi kabi tarjimalari keltirilgan.

“U seskandi, ko‘z o‘ngidan kechagi mazlum gavdalar birma-bir o‘tib, xatni bukladi va ulardan yashirgandek cho‘ntagiga tiqdi” , “Mazlum” so‘zi izohli lug‘atda zulm ostida qolgan, ezilgan ma’nolarini ko‘ramiz. “مَظْلُومٌ” “An-Naʼim” lug‘atida ezilgan, tahqirlangan, adolatsizlik, chekuvchi ma’nolari keltirilgan.

Shu yo‘sinda makkor Hamidning iblisona dasisasi bir oilani tamali ishdan chiqara yozgankim bu to‘g‘rida, ayniqsa, sizga so‘zlash ortiqchadir” . دَسِيسَة - arabcha-o‘zbekcha lug‘atda fitna, yomonlik, firib, pand kabi tarjimalari uchraydi. o‘zbek tili izohli lug‘atida hiyla, nayrangdek ma’nolariga ega.

“Siz hurmatlilarga ma’lumdir, bizning shul Otabekdan o‘zga farzandimiz bo‘lmay, dunyoda o‘zimizdan keyin qoldiradigan tuyoqimiz va ko‘z tikkan orzu havasimiz, umid hadafimiz faqat shul Otabekdir” . Bu jumlada kelgan “hadaf” so‘zining o‘zbekcha lug‘aviy ma’nosi biror narsa yoki zarb berish uchun mo‘ljalga olingan narsa, nishon, ko‘chma ma’noda erishish, qo‘lga kiritish, ko‘zda tutilgan, harakat yunaltirilgan narsa, maqsad. arabcha-o‘zbekcha lug‘atda nishon, ob’ekt, mo‘ljal kabi ma’nolari keltirilgan. “Hadaf” so‘zi hozir o‘zbek tilida ishlatilmasa-da, tildagi ma’nolari bir- biriga yaqinligining guvohi bo‘ldik.

“Yo‘lakdagi majhul kimsa o‘zini maydon ichiga oldi” .

مَجْهُولٌ – so‘zining arabcha-o‘zbekcha lug‘atda, noma’lum, notanish, kelib chiqishi noma’lum, yashirindek ma’nolari mavjud. O‘zbek tili izohli lug‘atida noma’lum, noaniq ma’nolari bor.

“Kumushbibi bint Mirzakarimboyga - zavji toshkentlik Otabek Yusufbek hoji o‘g‘lidan” .

Asarda keltirilgan bu jumlada ikkita arab tilidan kirib kelgan so‘zlar mavjud. “Bint” so‘zi avvallari xotin-qizlar ismidan keyin “qizi” ma’nosini bildirish uchun qo‘llanilgan, Bu “بِنْتٌ” so‘zi arab tilida qiz bola ma’nosini beradi. “Zavj” so‘zi esa “er”, qaylik ma’nolarida qo‘llanilgan. Lug‘atda “زَوْجٌ” so‘zining juft, er, xotin, rafiqa kabi tarjimalari keltirilgan.

“To‘rt yil chamasi qilgan xizmatimdan so‘ng haligi ustakorga xalfa bo‘lib ishlay boshladim” . Bu so‘zning o‘zbek tili izohli lug‘atida quyidagi ma’nolari berilgan:

Sharoit aqidalarini yaxshi biladigan odam, o‘qimishli odam, maktabda o‘quvchilar orasidan boshliq qilib tayinlangan, domlaga ko‘maklashadigan o‘quvchi, biror kishining qo‘l ostida qaram bo‘lgan holda ishlaydigan, mustaqil ish yuritishga huquqi yoki imkoni bo‘lmagan usta, xunarmand, shogird.

“Ammo musohaba shuning bilan to‘xtalib oraga yana boyagi jimjitlik kirdi” .

“Musohaba” so‘zi imlo lug‘atida suhbatlashish, hamsuhbatlilik, suhbat, davlat, jamoat, fan, madaniyat arboblarining muxbir bilan ommani qiziqtiradigan biror masala yuzasidan matbuot uchun o‘tkazgan suhbati, intervьyu.

Arabcha-o‘zbekcha lug‘atda مُصَاحَبَةٌ so‘zining yo‘ldosh, hamrox bo‘lish, va bu

so‘z صَاحِبٌ so‘zining ma’no jihatdan ma’nolari keltirilgan.

“Usta Olim uzoq tin olishgandan so‘ng davom etdi, -“.... yaqinlashdi lekin abadiy baxtsizlik kunlarim, manhus soatlarim ham yaqinlashdi” .

“Manhus” so‘zi arab tilidan tarjima qilinganda baxtsiz, badbaxt ma’nolariga ega.

O‘zbek tili izohli lug‘atida ishi yurishmagan, baxtsizlik keltiruvchi, shum, shumoyok, manfur, jirkanch ma’nolari berilgan.

“Bu maqtullar kimlar bo‘lsa bo‘lsin, bizning iyimiz orqasiga yaxshi niyat bilan keluvchi kishilar emas va bularning tuproqqa qorishtiruvchi ham bizga xayrixoh bo‘lgan kotil yo kotillardir.” .

“Maqtul” so‘zining lug‘aviy ma’nosi qatl etilgan, o‘ldirilgandir. Lug‘atda “مَقتُولٌ” - qatl qilingan, o‘ldirilgan, qurbon singari tarjimalarini ko‘rishimiz mumkin.

XX asr yangi o‘zbek adabiyotining ulkan namoyondasi, o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarinining nashr etilganiga ancha yil bo‘lgan bo‘lsa-da, bu roman yaratilgan kunidan e’tiboran yoshlarni zamon ruhida tarbiya qilishga asqotib kelyapti. Ayniqsa, mustaqillik davrida uning tarbiyaviy ahamiyati mavqei yanada ko‘tarildi. Bu asarga adabiyotdagilar ziyolilar, ayniqsa, yoshlar qayta-qayta murojaat etib o‘zlariga zarur ma’naviy ozuqa olyaptilar. “O‘tkan kunlar romani betakror mazmunga ega bo‘lganligidan u asosida kinofilьm yaratilgan. Bu asar rus, ingliz, nemis va O‘rta Osiyo xalqlari tillariga tarjima qilingan.

Maktabda o‘qib yurgan kezlarimizda bu asarni o‘qib, uning mazmun mohiyatini tushunmagan bo‘lishimiz tabiiy. Lekin ayni paytda arab tilini bila turib bu asarni mutoalaa qilganimizda, asarda darhaqiqat arabiy so‘zlarning ishlatilish ko‘lami kengligini va bu so‘zlarning qo‘llanilishi asarga jozibalik bag‘ishlaganining guvohi bo‘lib turibmiz. Bu esa yozuvchining iste’dodi, hamda, so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay bilish mahoratidan dalolat berib turibdi.

Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida xususan, “O‘tgan kunlar” romanida arabiy so‘zlardan juda keng foydalanganligi borasida fikr-mulohazalarimizni aytib o‘tishni joiz deb topdik. Eng avvalo asar yozilgan davrda arab tilining mavqei, ta’siri kuchli bo‘lgan. Yozuvchi xalq uchun yozganligi sabab asarda xalq muomalasida bo‘lgan so‘zlar, iboralar o‘z aksini topgan.Yozuvchi asardagi g‘oyalarni ochib berishi uchun arabiy so‘zlarni ishlatishi kerak bo‘lgan. Yozuvchi arabiy so‘zlar orqali o‘z fikrini ifodalashda foydalangan va eng asosiysi yozuvchi asarda arabiy so‘zlarni ishlatish bilan bir qatorda o‘zbek tili lug‘at boyligiga ham o‘z hissasini qo‘sha olgan.

ABAY SHERIYATINI TARJIMA QILISHNING AYRIM QIYINCHILIKLARI VA XUSUSIYATLARI

Klara FAZILOVA, *Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi*

Nasr yoki nazmni badiiy tarjimasi – bu haqiqiy ijod, san’atdir. U rasmiy jumlalar orqali axborotni o‘tkazadigan ishga aloqador tarjimaga o‘xshamaydi. U sinxron tarjimaga ham o‘xshamaydi. Badiiy tarjimada muallifning uslubi, asarning syujeti saqlanib qolishi kerak. Matnni qiziqarli, o‘qish uchun maroqli qilish, stilistikasini saqlab qolish, muallif niyatini ko‘rsata olish ma’lum iste’dodni talab qiladi.

Badiiy tarjimaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – matnni maksimal ochib berish uchun qo‘llaniladigan vositalardan, ya’ni nutqning turli-tuman figuralaridan doimiy foydalanishdir. Har bir tilga so‘z o‘yini mavjud bo‘lib, tarjima qilinayotgan matnda nutqning barcha figuralarini saqlab qolish qiyin bo‘ladi. Shuning uchun tarjimondan tilni yaxshi bilishi, zehni o‘tkir bo‘lishi, ziyraklik talab qilinadi. Badiiy tarjimada dialektizmlar, o‘xshatishlar, kinoya, metafora, so‘z o‘yini qo‘llaniladi. Dialektizmlar so‘zlashuv tiliga oid so‘zlarni, jargonizmlarni, haqorat so‘zlarini tarjima qilishda qo‘llaniladi va ularning stilistik bo‘yog‘i, nozik ma’nosi saqlanadi. O‘xshatishlar yordamida jumlalarni ularning stilistik va struktur xususiyatlari hisobga olib tarjima qilish mumkin. Kinoya nutq xususiyatlarini kontrastli ifodalashga va qiyoslab bo‘lmaydiganni qiyoslashga imkon beradi. Metaforalar strukturali ta’riflarni ifodalash uchun qo‘llaniladi. So‘z

o‘yini asl asar tilidagi nutqning ko‘pma’noliligini yetkazishga imkon beradi. Originaldagi matnning sintaktik o‘ziga xosligi uzun va qisqa gaplar, aniq vazn va boshqalarning kontrastidan iboratdir [5, 96].

Fikrni, g‘oyani va obrazlarni ifodalashning sanab o‘tilgan elementlari Abayning she’riyatida mavjud bo‘lib, uning asarlarini tarjima qilishdagi xususiyatlar va qiyinchilarni yuzaga keltiradi. Tarjimon Abayning tilidagi qo‘shimcha bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Chunki Abay qozoq adabiy tilining asoschisi bo‘lib, yangi, optimistik ruh ko‘taradigan, ijtimoiy jihatdan o‘tkir bo‘lgan she’riyatni yaratdi. N.Sauranbaevning ta’kidlaganidek: “Tilni barcha yot va zotan bo‘lmagan narsalardan sinchiklab tozalab, rus badiiy so‘z ustalarining eng yaxshi klassik usullarini anglab, Abay qozoq badiiy adabiyotining mantiqli, stilistik ishlov berilgan tilini yaratdi. Abay she’riyatining tili o‘zining soddaligi, sofligi, jarangdorligi bilan lol qoldiradi. Aynan ana shunda uning jozibadorligi namoyon bo‘lib, ayni vaqtda Abay she’riyati nafaqat chiroyli so‘zlar va original so‘z birikmalarining yig‘indisi, balki shu bilan birga u chuqur ijtimoiy mazmunga ham egadir” [6].

Abay she’riyatida hazil-mutoyiba, kinoya va istehzoalohida o‘rin egallaydi. Ovuldagi boylarni fosh qilish va qoralash shoir xalq kinoyasi va hazilidan foydalandi.

1894 yilda Abayni ko‘rish uchun Korjovboy keladi. U boshdan oyoq eskicha kiyngan edi. Bu Abay uchun “Ескі киім” (“Eski kiyim”) hajviy she’rini yozishga turtki berdi. Bu she’rida Abay eskilik oldida sajda qilishni, zodagonlarning vakili bo‘lgan Korjovboyning mag‘rurligini allegorik tarzda, ya’ni kinoyali mazax qiladi [7, 283]. Bu she’rning hajviy tub ma’nosi, allegoriyaliligi shundaki, muallif eski kiyim-boshlar va yarog‘-aslalar nomlarini (*тон, шидем шекпен, жейде, дамбал, ақсан, жарғақ шалбар жырым балақ, әдіп, мықшыйма етік, киіз байпақ, кісе, шақпақ, дәндәку, күләпәрә, пушпақ, тұмақ, құрысқақ, қалмақ үзеңгі, биік қасты ер, қанжыға, шідер, жарғақ, көпиік, жезді пыстан* va h.k.) sanab o‘tib, kitobxonga Korjovboyning ma’naviy qashshoqligini ko‘rsatadi.

Bu yerda ta’kidlash kerakki, hazil-mutoyibani,yumorni tarjima qilish murakkab ishdir, chunki muallifning so‘z o‘yinini faqat professionallar saqlab qolishi mumkin. Tarjimon nafaqat tilni a’lo darajada bilishi kerak, balki mahorat egasi am bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, tarjimondan qo‘shimcha fonga oid bilimlar, realiyalarni talqin

qilish usullarini bilish talab qilinadi. Ayrim hollarda u yoki bu iborani tushirib, boshqa so‘zlarga tus berish, ya’ni tushirilgan iborani kompensatsiya qilish kerak bo‘ladi.

Xalq so‘zlashuv tilidagi alohida so‘zlar va iboralardan keng va mohirona foydalanish bilan bir qatorda Abay o‘z she’rlariga xalq maqol va matallarini, qanotli so‘zlarni ham kiritgan. Xalq tilida odatda *үйірімен үш тоғыз, аузымен орақ орған, түлкінің айласы алпыс екі, әрбір сөзін мыңға балау, сүтін ақтау, поговорки: қарағайды талға жалғап (амалдау)’; қайтып кірер есікті қатты серіппе, ел бұзылса шайтан жол табады; кедейдің бір тойғаны шала байығаны* [2, 378] kabi frazeologik birikmalar uchraydi. Abay qozoq folьklorini yaxshi bilgan va yoqtirgan. U xalq ijodiyoti mavzulari va syujetlariga asoslanib bir qator asarlarini ham yozgan. Abayning “Masg‘ұt”, “Eskendir”, “Әzim” va “Vadim” dostonlarida xalq ashulachilik hikoyasi uslubi saqlangan. Bu dostonlarida shoir xalq dostonidagi she’riy vaznidan hamda folьklordagi an’anaviy ifodali vositalaridan, o‘ziga xos iboralardan, o‘xshatmalardan, doimiy vasflardan (epitetlardan) foydalangan.

Abayning leksikasida boshqa tillardan, xususan, arab, eron va rus tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar uchraydi. Bu so‘zlar Abay yashagan davrda xalq so‘zlashuv tilida muomalada bo‘lganmi yoki bo‘lmaganmi aniq emas. A.E.Alpisbaevaning fikricha, ularning ayrimlari, masalan: *сыяз, закөншік* (ruscha съезд, закон so‘zlaridan), *паруардегар, ләззәт* (arab tilidan), *перизат, сабаз* (fors tilidan) kabilar og‘zaki tilgan kirgan bo‘lishi mumkin, chunki ular deformatsiyalangan, ya’ni Abay asarlarida o‘zgartirilgan shaklda yozilgan. Abay asarlarida rus so‘zlaridan ko‘ra, arab so‘zlari ko‘proq va forscha so‘zlar arabcha so‘zlardan kamroqdir. Buning sababi shuki, Abay madrasada o‘qigan paytda Sharq adabiyotiga qiziqqan va eron, chig‘atoy (hozirgi terminologiyada eski o‘zbek, yoki O‘rta Osiyo – turkiy) adabiyotini o‘rgangan. 1858-1864 yillarda Abay bir nechta taqlidiy (o‘xshatmalardan iborat) she’rlarni yozadi. Bularga “Иран, шағатай ақындарынша а” – eron, chig‘atoy oqinlari asarlarining mavzulariga oid (1858 y.), «Fizuliy, Shamsiy, Saykaliy» (1858-1859 yy.), «Әлифби өлені» – alifbo she’ri (1864 y.) va b. Masalan:

Йузи – рәушан, кезі – гәухәр
Лағылдек беті уші әхмәр,
Тамағи кардан һәм бинтар

Қашың құдрет қоли шигә [8, 105].

Mazkur to‘rtlikdan ko‘rinib turibdiki, bu davrda Abay nafaqat alohida arab so‘zlarini o‘zlashtiradi, balki qozoq so‘zlarini ham arabcha yo‘sinda yozadi va ularga xos bo‘lmagan eroncha ma’noni bag‘ishlaydi.

A.Isqaqov Abay asarlarida 3 turdagi arabizm va farsizmlar mavjudligini ta’kidlaydi. Bularga Abaydan oldingi davrda qozoq tilida mustahkam o‘zlashtirilgan so‘zlashma so‘zlar, keng iste’moldagi kitob so‘zlari, faqat arab va fors tilini yaxshi bilgan odamlar tomonidan qo‘llaniladigan leksemalar (*ағламланған, фарияд, ядкар* va b.) kiradi [4, 10].

J.J.Esenalieva Abay asarlarida foydalanilgan arab va fors so‘zlarini tadqiq qilib, bu so‘zlar semantik o‘zgarishlarga uchraganligini va leksik xususiyatlarga ega ekanligini ta’kidlaydi [3]. R.Sizdikova Abayning so‘zlar ijodini tahlil qilib, shoir arabizm va farsizmlarga qozoq suffikslarini qo‘shish yo‘li bilan yaratilgan yangi so‘zlarni (асықтық ғашықтық va b.), turg‘un so‘z birikmalarida va idiomalarda arabcha va forscha so‘zlarning o‘ziga xos tarzda qo‘llanilishini (ғашықтық жарасы, қалын қайрат табу va b.), arabizm va farsizmlar polisemiyasidan mohirona foydalanishni (қызмет, сурет, хат va b.) ko‘rsatib o‘tadi [7].

Abay tomonidan o‘zlashtirilgan arab va fors so‘zlari “Abay tilining lug‘ati”da [9] keltirilgan. Mazkur lug‘at M.Auezov tahriri ostida 1957 yilda chop etilgan Abay asarlarining ikki tomlik to‘plami asosida tuzilgan. Bu lug‘atda 6000ta so‘zlarga izoh berilgan bo‘lib, ular orasida hozirgi kunda muomaladan chiqarilgan so‘zlar ham bor. Ushbu 6000ta so‘zlardan faqat 341tasi arab va fors so‘zlari. Biroq, J.Esenalievaning fikricha, Abayning mazkur 2-jildlik asarlari to‘plamida arab va fors so‘zlari ko‘proqdir. Ular qozoqlarning kundalik so‘zlashma tilida uchrashi tufayli, azalgi qozoq so‘zlariga kiritilgan bo‘lishi mumkin (masalan: *амал, береке, заман, қызмет, талап* va b.). Og‘zaki muloqotda kam iste’mol qilinadigan adamzat, beyxabar, beyg‘am kabi so‘zlar bo‘lib, ularning kelib chiqishi ham arab va fors so‘zlariga borib taqaladi. Shuningdek, Abay asarlarida arab-fors so‘zlari ham uchraydiki, ular ikkikomponentli bo‘lib, bir komponenti arab so‘zidan, boshqasi fors so‘zidan iborat (masalan: *әсемпаз, әуесқой, құмарпаз* va b.). Bundan tashqari, lug‘atda Abay asarlarida bir qator arab va fors so‘zlariga umuman izoh berilmagan.

Arab va fors so‘zlarining qo‘llanilishi Abay asarlarining janriga qarab ham farqlanadi. Masalan, “Qora so‘zlar”da bunday o‘zlashtirmalar asosan o‘zlarining asosiy, tub ma’nosida, she’rlarda esa ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Umuman olganda, Abay so‘zning buyuk ustasi bo‘lib, so‘zlardan turli shakl va birikmalar yasab mohirona foydalangan va ular orqali chuqur fikrlarni ifodalab, yorqin obrazlarni yarata olgan. Tabiat haqida so‘zlaganda *ауа, аддуния, набатат* kabi so‘zlardan, inson haqida gapirganda *аброй, адам, адамзат, әлинсан* so‘zlaridan, jamiyat haqida yozganida *заман, тарих, хукум, хакім-әкім*, islom haqida yozganida *биллаһи, қағидат ул ахир, мағрифат улла* kabi so‘zlardan foydalangan. Abay tilini tushungan tarjimonlargina uning fikrlarini kitobxonga yetkaza olgan.

Shoir stilizatsiyadan voz kechib, original ijod yo‘liga kirganida, u Sharq adabiyotidan faqat zarur bo‘lgan so‘zlarni ishlatadi. Arabcha elementlar eron va chig‘atoy adabiyotida katta miqdorda qo‘llanilgani tufayli, Abay ham ko‘proq arabcha so‘zlarni o‘zlashtiradi. Tahlilning ko‘rsatishicha, bu so‘zlardan u o‘z asarlarini “bezatish” uchun yoki asarlariga “original” tus berish uchun foydalanmagan. O‘zlashtirmalardan faqat tilni boyitish maqsadida foydalangan va ona tilida kerakli so‘zlarni - tushunchalarni topmaganida, Abay o‘zlashgtirmalardan foydalanadi. Shuning uchun ham Abay asarlarida ushbu o‘zlashtirmalar butun leksikasining uzviy qismi bo‘lib qoladi.

Abay asarlarining leksikasi haqida gapirganda, shoir tomonidan bir qator yangi so‘zlarni yaratganligi to‘g‘risida eslatib o‘tish joizdir. Uning asarlarida tez-tez neologizmlar uchrab turadi, masalan: *бұлбұл қағу, көсем жүру, жеңісқойлық, малға бөгу*, *аларман болу, төменшектеу, өршілдену, мақтанкөйлеу, сымпас* va b.

Abayning asarlari XX asrda rus va o‘zbek tillariga hamda boshqa tillarga ham tarjima qilingan. Shoirning ijtimoiy yo‘naltirilgan va hajviy lirikasida obrazlarning metaforik ma’nosi, kompozitsiyaning semantik tuzilishi tarjimada janr xususiyatlarini ifodalashda qiyinchiliklarni tug‘diradi. Abayning lirikasidagi ilk asarlar so‘fiylik an’anasida yozilgan bo‘lsa, keyingi asarlarida xalq og‘zaki ijodi, qozoq she’riy tilining usullari namoyon bo‘ladi. Abayning “Qora so‘zlar” asarini tarjima qilish yaxshi tayyorgarlikni tarjima qiladi, chunki bu asardagi 45ta “so‘z”ning har biri o‘ziga xos bir miniatyura bo‘lib, o‘z ichiga maksimalarni, sententsiyalarni, aforizmlarni, hikoyatlarni, dialogni kiritgan. Ayrim olimlar bu asarni nasihatlar emas, balki

mulohazalar, o‘y-fikrlar, esselardan iborat deyishadi. Abay ijodini shoir yashagan zamon kontekstidan ko‘rib chiqish kerakdir.

Abay she’riyatidagi leksikaning barcha sanab o‘tilgan xususiyatlari, ya’ni stilistik figuralar turlari (ayrimlari shoir tomonidan yaratilib, birinchi marta ishlatilgan), turg‘un so‘z birikmalari, maqollar va matallar, qanotli so‘zlar, mualliflik kontseptlari, o‘zlashtirma so‘zlar va neologizmlar tarjimondan serdiqqat ishni, baland didni, ehtiyotkorlikni talab qiladi. Xulosa tariqasida aytish mumkinki, Abay umumxalq tili pozitsiyasida turib, uning boyligidan ustalik va mahorat bilan foydalana oldi, qozoq badiiy adabiyoti tilini yangi leksik-semantik ma’no va mazmun bilan boyitdi, unga xalq tilini, xalq nazmini yangicha stilizatsiya qilish usullarini, yangicha so‘z birikmalari turlarini kiritdi. Abay asarlarini tarjima qilish qiyin bo‘lsa-da, bugungi kunga kelib uning asarlari 10ta tilga tarjima qilingan. Shu jumladan, o‘zbek tilida Abayning “O‘lanlar” (qozoqchadan Mirtemir, Uyg‘un tarj. T.:O‘zdavnashr,1945) va “Abay Qo‘nonboev” degan nom ostida ayrim asarlari tarjima qilib bosilgan. “Abay. Tanlangan asarlar” 1995 yilda chop etilgan va hk. O‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlar originalga yaqinligi bilan ajralib turadi.

O‘zbek va qozoq qadimdan qo‘shni, do‘st-birodar bo‘lib, tinch-totuv yashab kelmoqda. Hozirgi davrga kelib, do‘stlik va hamkorlik munosabatlari ishonch asosida yangi bosqichga ko‘tarilib borayapti. Mutafakkir ijodini keng o‘rganish xalqimiz ma’naviti rivojlanishiga yangi bir kuch bo‘lib xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 13 martdagi “Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo‘nonboev ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish to‘g‘risida”gi qarori ham qardosh qozoq xalqiga hurmat va ehtirom ramzi sifatida shoir ijodini, ezgulikka yo‘g‘rilgan g‘oyalarini o‘rganishga va targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega [1].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М., Буюк қозоқ шоири ва мутафаккири Абай Қўнонбоев ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш тўғрисида.// Халқ сўзи. 2018. №51.

Ахметова Ш., Жанузаков Т., Словарь по языку Абая. – Алматы, 2011.- 614 с.

2. Есеналиева Ж.Ж., Особенности употребления арабизмов и фарсизмов в произведениях Абая. Автореф.дисс… к.филол.н. - Алматы, 1993. – 23 с.

3. Исқақов А. Абай жане қазақтың әдеби тілі. //Абай тілі сөздігі. – Алматы:Ғылым, 1968.

4. Попович А., Проблемы художественного перевода. - М., 2000. - 198 с.
5. Сауранбаев Н., Роль Абая в развитии казахского литературного языка. - URL: [электронный ресурс] www.abai-inst.kz
6. Сауранбаев Н.Т., Проблемы казахского языкознания. Избранные труды. - Алма-Ата, 1982. – С.280-293.
7. Сейсенбаев Р., Абай. ҚАРА СӨЗ. КНИГА СЛОВ. – Семей: Международный клуб Абая, 2001. - 186 с.
Словарь языка Абая. - Алматы: Гылым, 1957.
8. Сыздықова Р., Абай шығармалары тілі. Т.III. - Алматы: Гылым, 1968.

“BASANTIY” ROMANI TARJIMASIDA MILLIY XOS SO’ZLARNING TARJIMADA EKVIVALENTINI BERISH USULI

Iroda FATXUTDINOVA, *TDSHU o‘qituvchisi*

Tarjima muammosi ikki tillilikni emas, balki, ikki madaniyatlilik muammosi hamdir. Tarjima aralash aloqa turi bo‘lib, joy, vaqt, qadriyatlar, maqsad ko‘lamlari doirasida amalga oshiriladi. Ammo tarjima jarayonida har ikki til hyech qachon o‘zaro aloqada bo‘lolmaydi.

Tarjima lingvistik amalgina emas, madaniyatlar o‘rtasidagi amalga oshirilgan o‘ziga xos qiyosiy tahlil hamdir. Uning murakkabligi madaniyat va ijtimoiy vaziyat unsurlarini tushunish va tushuntirish ehtiyojini amalga oshirish bilan bog‘liq. Bu o‘z–o‘zidan notanish madaniyat shakllari yoki tushunchalari guruhiga xos so‘z–atamalarni (masalan, *chopon, chakmon; ariq, anhor, jilg‘a* kabilar) tarjimada berishning eng maqbul usuli va vositasini tanlashni taqozo etadi. Chunonchi atama mazmunini lug‘aviy ta’riflash yoki umumiy tasavvurni ifodalovchi so‘z bilan almashtirish yohud batafsil ma’noviy izoh berish, shuningdek, yaqin madaniy muqobilini tanlash, zarurat tug‘ilganda asliyatdagi terminni aynan takrorlash usullaridan foydalanish mumkin.

Milliy madaniyati urf – odatlari bilan farq qiluvchi o‘ziga xos so‘zlarni tarjimada berish tarjimonni jiddiy o‘ylantiradigan jarayondir. Negaki, tarjimon buning uchun o‘sha xalq milliy madaniyati va

odatlaridan xabardor bo‘lishi darkor. Bunday xos so‘zlarni tarjima qilishning oson yo‘li bu-so‘zlarni transliterasiya qilish, ya’ni so‘z talaffuzini berish, saqlash maqsadga muvofiq. Bu usuldan kishi ismlarini, joy nomlarini, geografik nomlarni, lavozimlarni, tabaqalar nomlarini va shunga o‘xshash atamalar transliterasiya qilishda keng qo‘llaniladi.

Tarjima qilinayotgan tilda xos so‘zlarni tarjima qilishning keyingi yo‘li ma’noni yaqinlashtirib tarjima qilish, buni so‘z anologiyasi bo‘yicha tarjima qilish deb ham yuritish mumkin. Agar tarjima qilinayotgan tilda asliyatda qo‘llangan so‘zning muqobili bo‘lmasa, tarjimada o‘sha so‘z ma’nosiga o‘xshash va yaqin so‘z tanlanadi. Masalan, Bhisham Sahniyning “Basantiy” asarida hind jamiyatiga tegishli bo‘lgan tabaqalanish, ya’ni kastachilik tizimiga oid so‘zlar qo‘llaniladiki, tarjimon bu o‘rinda to‘g‘ri yo‘l tutib, ularni **transliterasiya** orqali beradi.

Transliterasiya-xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan xos so‘zlarni tarjimada talqin etishning eng samarali usullari sifatida uning yordamchi asliyatining milliy xususiyati qisqa holda talqin etiladi.

1. Tabaqa kastaga oid so‘zlar.

“Basantiy” romanida *आहीर* (*ahiir), राजस्थानी* (*rajasthani*), *राजपूत* (Rajput) *पन्चयात* “panchayat”*,/obI* (dhobii)kabi tabaka vakillari ko‘p uchraydi. Ushbu so‘zlar tarjimon tomonidan transliterasiya yo‘li bilan asliyatdagidek o‘qilishi bilan tarjima qilgan holda matnda izoh berib o‘tiladi. Shu o‘rinda aytish joyizki, *आहीर* (ahiir) ya’ni “*Ahiyr*” Hindistondagi quyi kasta vakillari hisoblanib, *ot boqarlar* deb yuritiladi [1,165]. Tarjimon bu so‘zga “*podachilar toifasi”* deb matn ostida izohini berib o‘tadi. *आहीर* (*ahiir)* lar ot boqish–boqmasligidan qat’iy nazar ularning avlod–ajdodlariga tegishli tabaqa vakillari nazarda tutiladi. *राजपूत* (*Rajput*) tabaqasini esa “*rojput*” deya transliterasiyada bergan. Ushbu jumlalarni ham tarjimon matn izohida “*Rojput*” larni *imoratsoz* va *g‘isht teruvchilar toifasi* deb izoh berib o‘tgan. Asarda yana *पन्चयात* “*panchayat*” so‘zi ham ko‘p qo‘llanilgan. *पन्चयात* (*panchayat*) so‘zi *“jamiyat, kengash”* ma’nosini bildiradi [1,11]. Asarda bu so‘z mahalliy kengash ma’nosida kelganligiga qaramay, tarjimon buni transliterasiya orqali **“***panchayat”*deb tarjima qilgan. */obI (dhobii)* kir yuvuchilar toifasi (tabaqasi). *raj – imSt[I* (Raj mastrii) yoki sinonimi (*rajgIr* - *raajgiir*) uy quruvchi, g‘isht teruvchilar

toifasi.*srdar* (*Sardaar*) Sikx mazxabi vakillari ularni Hindistonda “*Sardor”* deyishadi.

2. **Diniy istiloh tushunchalarga oid so‘zlar.**

Tarjima jarayonida asarda hindlarning bir nechta tangri xudolarining nomlari ham ko‘p uchraydi: *“Shiva”, “Durga”, “Hanuman”, “Devi”[2,97],* atamalari izoh talab qiladi. Ushbu tushunchalarni anglamay turib, o‘sha davr hind jamiyati haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish mumkin emas. Asarni tahlil qilish jarayonida quyidagi jumlalarni ko‘rib chiqamiz.*..gvan tuMhara .la kre (170)* ***(Tarjimasi:*** *Hudoyo sizlarni hech narsadan kam qilmasin* [2, 137]. Quyidagi misolda *.gvan (bhagvaan)* so‘zi umumiy ma’noda “Hudo” deb berilgan. Hindistonda turli din vakillari tilida bu so‘z *ram (Raam)* yoki hindlarning boshqa ko‘p xudo nomlari bilan ham beriladi:*koj l@ka bahr gata huAa bramde me' jarha qa- “mW' Kya kå\ ramú mu&e bu@(!a iml gya !” (65)* ***(Tarjimasi****: Ayvonda bir yigit “Sangam” kinofilmidagi qizning hazil qo‘shig‘ini hirgoyi qilgancha o‘tib borardi. [2,49]* **So‘zma–so‘z:** Kimdir tashqarida qo‘shiq hirgoyi qilib o‘tib borardi:*“Men nima qilay Ram, menga chol uchragan axir!”* Yana bir jumlada*mW' Kya kå\ ramú mu&e bu@(!a iml gya!* shaklda berilgan *ram* so‘zi tushunarli, lekin tarjimon buni so‘zma–so‘z tarjima qilsa kitobxonga gap qo‘shiq haqida borayotganligini yetkaza olmagan bo‘lardi. SHuning uchun tarjimon buni **transformasiya** usulida bergan. Negaki, bir so‘z ikki xil guruh vakillari tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Misol uchun: diniy istiloh-tushunchalarda *“Parvardigor”* tushunchasi o‘zbek xalqi ongida yagona *“Alloh”* ma’nosi nazarda tutilsa, hindlarda esa ko‘p xudolilik bo‘lganligi sababli bu tushuncha ular ongida turlicha tasavvur uyg‘otadi. Tarjimon shu o‘rinda diniy istiloh-tushunchalarning o‘rnini topib, har bir dinga tegishli so‘zlarni qo‘yib tarjima qilishiga katta mahorat talab etiladi.

3.**Hindlarning milliy liboslari**ni anglatuvchi bir qator so‘zlar tarjimasi ham transliterasiyada berilgan. *sa‚Ø* ***(saariy)***, so‘zi barchaga ma’lumki, hind ayollarining milliy libosi sanaladi. Tarjimada bu “*soriy*” deb beriladi. *Ao¢nl (aorahni)* **–** lug‘atda “*ayollar yengsiz nimchasi*” deb berilgan [1, 285]. Muallif tasvirlagan har bir libosning detallarigacha berilishining asosiy sababi asarni mutoola qilgan kitobxonga kengroq ma’lumot berilganligi seziladi. Bunda tikuvchining rang-barang liboslarni o‘z qo‘li bilan tayyorlaganligi, muallif tomonidan asar

qahramoni bo‘lajak to‘yiga hozirlik ko‘rayotganligini nazarda tutadi. Ma’lumki, hind xalqi to‘ylarida sariq libos va rang baranglikning aks etishi ular uchun o‘ziga xos marosimdir. asarda yana *ib'dI* so‘zi ham keltirilgan. Bu so‘zining bir nechta ma’nolari mavjud bo‘lib, lug‘atda berilgan birinchi ma’nosi “*manglayga surtiladigan xol*” dir, matoga nisbatan ishlatilgani bois, tarjimon ushbu so‘zni kalkalash yo‘li bilan muallif ishora qilgan fikrga ***xol-xol*** so‘zini qo‘llagan va muallif fikrini to‘liq yetkazib bera olgan. Asarda yana *p'i@t* ***(pandit***) so‘zi keltirilgan, tarjimon tomonidan transliterasiya usulida “*hindularning mullasi*”, matnda izohi berib o‘tilgan. *A\gr%a* ***(angrakha)*** ushbu libos o‘zbeklarning yaktagiga o‘xshagan, rang–barang shoyi matodan tikilgan *chakmon* bo‘lib, asosan hindlarning to‘ylarda kiyib yuradigan nikoh libosi hisoblanadi. *pGg;* ***(paggar)*** salla bo‘lib, uni asosan Rajasthan aholisi boshlariga salla shaklida o‘rab oladigan bosh kiyimidir. Tarjimon ushbu salla sikh (bir umr soch–soqolini o‘stirib yuradiganlar) erkaklari uzun sochlarining kokillarini berkitish maqsadida kiyib yurishlari haqida izohlab o‘tgan. *$opI* ***(topii)*** “do‘ppi” bo‘lib, bu ham o‘zbeklarning do‘ppisidan keskin farq qiladigan bosh kiyimi hisoblanadi. Buni asosan hind musulmonlari, yosh bolalar kiyishadi. *buXx$R* ***(bushshart)*** *erkaklarning yengi kalta ko‘ylagidir./otI* (***dhotiy)*** erkaklarning belidan pastga qarab o‘raladigan milliy kiyimi. [4, 836] *kutaR* ***(kurta)*** ham erkaklarning ko‘ylagi hisoblanadi. [2,15] *pajama* (***pajamaa***) shim, ishton. *Aa\igya* ***(anghiya)*** ayollar sariy kiyimlarini ichidan kiyib yuradigan yengi kalta kofta. *`a`ra* ***(ghaaghra)*** ayollar yubkasi.*gaढ़a* ***(gaarha)***ning lug‘atdagi ma’nosi “*ip gazlamali mato”* (xlopchata–bumajnaya tkan) bo‘lib, tarjimada “*bo‘z mato*” deb to‘g‘ri o‘girilgan. Bo‘z mato–paxta mato bo‘lib, qalin va pishiq gazlama turi hisoblanadi. *slvar* ***(salvar)*** keng shalvar turi bo‘lib, xuddi o‘zbek ayollarining lozimiga o‘xshash bo‘ladi. Asar qahramonining bunday matodan shalvar kiyishiga sabab, asardagi qahramon tog‘lik qishloqdan shaxarga ana shunday libos kiyib kelganligi haqida gap ketmoqda. Bilamizki tog‘li rayonlar sovuq bo‘lganligi sababli faqat qishloq ayollari ana shunday qalin matodan shalvar kiyib yuradilar. Asarda bundan tashqari milliy taqinchoqlari ham aks ettirilgan. *Pajeb* ***(pazeb)*** oyoqqa taqib yuradigan ayollar taqinchog‘ining bir turi bo‘lib, ushbu so‘zni leksik ma’nosiga e’tibor beradigan bo‘lsak, fors tojik tilidan o‘zlashma so‘z hisoblanib, “oyoqqa bezak” ma’nosini bildiradi. Bu har ikki tilda ham shakl va ma’no jihatdan ekvivalent milliy xos so‘z deya olamiz. Yana asarda *चायकीदूकान*

(chay ki dukan) ya’ni tarjimon tomonidan “*choyxona*” jumlasi ham ko‘p qo‘llanilgan. Hindlarda ham choyxona so‘ziga mos jumla *चाय-घर, चायखाना (chay ghar, chaykhana)* sinonimlari bo‘lib, bu o‘rinda hindlardagi choyxona bilan o‘zbeklarning choyxonasi o‘rtasida farq bor. O‘zbeklarning choyxonasida choy bilan birga yeguliklarni ham uchratish mumkin. Hindlar choyxonasida esa faqat choy yoki sut tortiq etiladi. Ulardagi yengil tamaddi, ovqatlanish joyi ya’ni *चाय पानी (chay pani)* o‘zbeklarning choyxonasiga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari asarda *तंदूर (tanduur)* ya’ni “*tandirxona*” jumlasiyam kelgan bo‘lib, buni o‘zbek tandiri yoki nonvoyxonasi bilan Hindistondagi tandirlarining o‘rtasida farqi katta ekanligini izohlab ketish muhim. Ularda ham yer tandiri bo‘lishiga qaramay, nonlarining shakli va xajmiga ko‘ra o‘zbeklarnikidan katta farq qiladi.

Demak, yuqorida keltirib o‘tilgan milliy o‘ziga xos so‘zlarning qiziqarli dalili shundaki, tarjimada keng tarqalgan aloqa nuqtalari mavjud ikki xalqning ikki tildagi tahlili turli xalqlar hayotning ko‘plab sohalarida tez-tez yaqinlashishi va milliy urf-odatlar, milliy ma’naviyat, madaniy va ma’rifiy, an’analarni xalq ijodining yagona tuzilishiga, birlashtirishiga ham xizmat qilar ekan.

Hulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, tarjimada ekvivalentlikka erishish uchun elementar ma’nolarning yarmi berilishi ham maqsadga muvofiqdir. Tarjimada o‘zak ma’nolar ko‘payishi kuzatiladi. Agar tarjimada dastlabki matnning xolati o‘zgarsa yoki boshqasiga o‘zgartirilsa ma’noviy yig‘indi ham predmetning dastlabki matnli holatiga qarab o‘zgaradi. Ma’lumot mazmuni va tuzilmasiga tegishli bo‘lgan semantik va sintaktik darajalarga, ya’ni matn kategoriyalariga kelsak, biz aynan ular nutqiy asarlarning ekvivalentligini belgilab berishini misollar orqali keltirib o‘tdik. Milliy xos so‘zlar tarjimon tomonidan transliterasiya usuli orqali matn ostida izohlab berilgan. Transliterasiya usulining sharti, asliyatdan ko‘chirilgan so‘zlarga izoh berishni unutmaslik kerak, aks holda kitobxonda tushunmovchilik tug‘dirishi mumkin.

Tarjimada mutarjim mazmun va ma’noga aynan mos tushuvchi so‘zlarni qo‘yib o‘girish bilan tarjima ekvivalentligiga erishgan. Tarjimonning ma’naviy bilimlari qanchalik chuqur va keng bo‘lsa, badiiy tarjima matnining ekvivalentlik darajasi shunchalik yuqori bo‘lishi mumkinligiga amin bo‘ldik.

Albatta, har bir tarjima muayyan kamchiliklardan xoli emas, ammo har bir tarjima tagida og‘ir mehnat evaziga bajarilganini esdan chiqarmagan holda tarjimonning amalga oshirgan mehnati tahsinga loyiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хинди-русский словарь, Издательство Советская энциклопедия, Москва, 1972.
2. Basantiy romani. Amir Fayzulla. – T: “Turon-Iqbol”, 2010.
3. Бархударов А.С., Бескровный В.М., Хинди-русский словарь – М: Изд-во Советская энциклопедия, 1972.
4. IZm sahnI . bs'tI.– nvIn xahdraún¡ idLlIú1983.–184

XITOY TILIDA FE’L FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING TAHLILI

Shahzoda HASANOVA, *TDSHU o‘qituvchi-stajori*

Frazeologizm tilning boshqa odatiy so‘zlardan farq qilishi va alohida adabiy til meyorlariga ega yaxlit, shuningdek o‘zinig kelib chiqish tarixiga ega, bo‘linmas turg‘un birikmadir. Xitoy va o‘zbek tillari turli til oilalariga tegishli bo‘lgani bois undagi leksik-frazeologik birliklar kelib chiqish nuqtai nazaridan farqlilik kasb etadi va bu ikki til orasida badiiy asarlarni tarjima qilishda tarjimondan o‘ta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Shunga qaramay frazeologik birliklar juda ko‘p o‘xshash xususiyatlarga ham ega. Shu bilan birga maqolada jahon tilshunosligida tadqiqot ishlari tarixiy-qiyosiy, sistem-struktur hamda antroposentrik yo‘nalishlarda keng ko‘lamda olib borilayotganligi til taraqqiyoti, unda yuz beradigan o‘zgarishlarni tadqiq qilish imkoniyatiga ega ekanligi, har bir milliy tilda uchraydigan leksik-stilistik, frazeologik va grammatik birliklarni qiyosiy aspektda o‘rganish orqali qiyoslanayotgan tillarning o‘ziga xos ravishda tizimlashtirish, har ikkisi uchun umumiy va farqli jihatlarni aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etishiga e’tibor qaratilgan.

Nutqiy jarayonda fikrini bayon qilish uchun so‘zlar yordamidagina emas, balki bir necha so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan hosil bo‘lgan birikmalardan foydalaniladi. Quyida bir qancha fe’l frazeologizmlarini ko‘rib chiqishimiz mumkin. Shuningdek biz tadqiqotimiz obyekti

sifatida MoYannning “Musallaslar mamlakatida” nomli asarini tanladik va bir qancha misollarni keltirib o‘tamiz.

禁不住看了一下她**[1, 1]**。***(Jīnbuzhù kànle yīxià tā.)***

Beixtiyor unga (qizga) tikilib qoldi. Deb so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin. Ya’ni 禁不住看了 ***Jīnbuzhù kànle*** **tikilib qolmoq matnda aynan hayratlanmoq ma’nosida kelgan.** *Tikilib qolmoq* nutq jarayoniga qadar ham tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud va mazmunan bir so‘z hayratlanmoq so‘zi ifodalagan ma’noga teng keladi. Ikki va undan ortiq so‘larning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi[2, 112]. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.

2. Ma’no butunligi.

3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. Asar yozilganda va tarjima qilinganda barqaror birikmalardan o‘rinli foydalanish nutq go‘zalligini oshiradi, shuning uchun ular nutqimiz ko‘rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko‘ra tor va keng ma’noda tushunish mumkindir. Shunga ko‘ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) Tasviriy ifodalar.

2) Iboralar (frazeolagizmlar)

3) Maqol va ma’tallar.

4) Hikmatli so‘zlar (aforizmlar).

Iboralardan nutqda unumli foydalanish jarayonida tafakkur, hayol, xotira va so‘z, bilish qobiliyati rivojlantiriladi, chunki aytilgan fikrni chuqur tushunish imkoniyatini beradi.

Frazeologiya atamasi orqali, bir tomondan, so‘z birikmalarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi, boshqa tomondan esa, ma‘lum tilning barcha barqaror birikmalari majmui tushuniladi[3, 116]. Tilning lug‘at tarkibini nafaqat boshqa so‘zlar, balki barqaror so‘z birikmalari ham tashkil qiladi. Barqaror so‘z birikmalari boshqa so‘zlar bilan ibora tushunchasi vositasi vazifasida xizmat qiladi. Barqaror so‘z birikmalari o‘zida tobe munosabatda birikkan so‘zlarni namoyon etadi. Erkin birikkan so‘z birikmasi ma’lum fikrlarni ifodalash uchun har bir

ma’lum nutq vaziyatlarining vazifasiga asosan tildagi muloqotlar davridagi mazkur tilning grammatik qoidalariga asoslanib yaratiladi. Erkin birikmaning umumiy ma’nosi qo‘llanilgan termin birikmani tashkil etgan har bir so‘z mazmunidan anglashiladi. Erkin birikma tarkibiga hokim so‘z va gapning mustaqil a‘zosi vazifasini bajaradigan tobe so‘z kiritilgan. Shunday qilib, erkin birikma o‘zida sintaktik bog‘lanishni namoyon etadi. Birikmadagi har bir bog‘lanishlarning tobelik munosabati birikmaning semantik mustaqilligini anglatadi va ular birlashgan holda turg‘un birikmalarni hosil qiladi. Barqaror so‘z birikmasi birikma tarkibidagi biror so‘zni birikma ma’nosini buzmasdan o‘zgartirish mumkin bo‘lmagan qat’iy muayyan so‘zlardan tashkil topgan bo‘ladi.

Turg‘un birikma – bu barqaror so‘z birikmasi, ya’ni butun birikma uyg‘unlashgan ma’noda va birikma ma’nosi ayrim birikma tarkibidagi so‘zlar ma’nosidan yaratiladi. Turg‘un birikmaning umumiy ma’nosi asosida oson anglashiladigan so‘z yotadi. Uning tarkibidagi ayrim so‘zlar - mazmunan tobe va birikma tarkibidagi so‘zlarning har-birining ma’nosi umumiy ravishda birlikka bo‘ysundiriladi. Turg‘un birikmalar o‘z nomidan ko‘rinib turganidek o‘zaro bog‘lanishning eng yuqori bosqichini namoyon etadi. Tarkibiy qismlarning ma’nosi butun ifodaning ta’sirchan xususiyatlari va ifodalilik ma’nosini qamrab oladi. Turg‘un birikmalar har bir tilda aniq shakllangan bo‘ladi va boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida aynan so‘zma-so‘z tarjimani bermaydi. Turg‘un birikmaning o‘ziga xos misoli, ta’sirchan so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan ifoda ekanligidir[4, 71]. Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarning barqarorligi belgisiga ko‘ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma’no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko‘ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) Frazeologizmlar.
2) Maqol va matallar.
3) Aforizmlar

Odatda, frazeologizmlar tildagi erkin so‘z birikmalari asosida hosil bo‘ladi. Biroq ular ko‘chma ma’no kasb etib, komponentlari o‘zaro birikib yaxlit holda qo‘llanilishi natijasida singib ketadi. **Masalan:** joyiga keltirmoq, o‘rniga qo‘ymoq iboralari erkin birikmalarni eslatadi. Lekin ular ko‘chma ma’noda qo‘llanib, “丁钩儿用鸡巴破案。”, *(Dīng gōu er yòng jībā pò'àn)* ma’nolariga ega bo‘lgan.

Frazeologizmlarning ko‘chma ma’nolari nutq situatsiyasi yoki kontekst yordamida oydinlashadi. Frazeologizmlar turli tillarda o‘sha xalqning ba’zi urf-odatlarini aks ettiradi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda iboraning komponentlarini so‘zma-so‘z ag‘darmay, to‘g‘ri keluvchi iboralardan foydalaniladi.

Frazeologizm (frazeologik birlik) – bu semantik jihatdan bog‘langan so‘z birikmalar va gaplarning umumiy nomlanishi bo‘lib, shaklan o‘xshash bo‘lgan sintaktik strukturalardan farqli ular fikrni tashkil etishda so‘zlar tanlanishi va ularning kombinatsiyasining umumiy qonuniyatlariga muvofiq amalga oshirilmaydi, balki nutqda belgilangan semantik struktura va muayyan leksik-grammatik tarkibning o‘zaro munosabati bilan aks ettiriladi[5, 559].

Syuy Zongcai, Ying Jyunling, tarjima nuqtai nazaridan qiziqish tug‘diruvchi xitoy tilida quyidagi frazeologizm turlarini ajratib ko‘rsatadi:

惯用语 guanyongyu – “qo‘llanilishga odatlangan so‘zlar” ko‘p hollarda uchta iyeroglifdan iborat bo‘ladi.

党委书记或是矿长说，“对付着吃点，咱都是干部，要响应市委的号召：勒紧腰带过日子，请您理解和原谅。”[1, 38]

(Dǎngwěi shūjì huò shì kuàng zhǎng shuō,“duìfùzhe chī diǎn, zán dōu shì gànbù, yào xiǎngyìng shìwěi de hàozhào: Lèi jǐn yāodài guòrìzi, qǐng nín lǐjiě hé yuánliàng)

过日子 *guòrìzi* –so‘zi 惯用语 bo‘lib kelgan *hayot kechirmoq* ma’nosini ifodalab kelgan. , kuni o‘tmoq degan ma’noga ega 打光棍 [da guanggun] – bo‘ydoq bo‘lmoq. Maskur iborani agar mavzu doirasida tahlil qiladigan bo‘lsak 打光棍 iyeroglifi tarkibida inson tana azolariga doir 打 *da* qo‘l kaliti mavjud. Bundan tashqri 炒鱿鱼 *chao you yu* kimnidir xaydash, yo‘qotish degan ma’noni anglatadi. So‘zma so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak kalimarni qovurish degan manoni beradi[6].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki mazkur maqolada biz o‘zbek va xitoy tillarida inson tana a’zolari bilan bog‘liq iboralarning uslubiy xususiyatlarini kontekstlar yordamida uning muqobil versiyalarini ko‘rib chiqdik va mos sinonim so‘zlarni ishlatgan holda uni to‘g‘ri tarjima jarayoniga olib kirishni o‘rgandik. Bunda biz iboralarni kontekstdan ajratib olib uning tarjimasini o‘zbek tilidagi ekvivalentliklari va sinonimlari bilan yoritib berishga harakat qildik.

Bundan tashqari gapda nimani va qaysi jarayonni ifodalab kelishi va qay uslubda talqin qilinishiga e’tibor berdik. Ta’bir joiz bo‘lsa shuni ta’kidlab o‘tish joizkiy frazeologizmlar inson hayotida, nutq madaniyatining yuzaga kelishida va uni jozibador qilishda juda katta ro‘l o‘ynaydi. Frazeologik birliklarning asosiy qismini esa inson tana a’zolari bilan bog‘liq birliklar tashkil etadi. Mazkur birliklarni o‘zaro sinonimik hossalarini o‘rganib uni tarjima jarayoniga tadbiq qilish, tarjima jarayonini yanada yengillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 莫言。酒国 一页。
2. Rahmatullayev Sh. “O‘zbek tili frazeologik iboralarning izohli lug‘ati” Toshkent – 1978, 112 – bet
3. Borovkov A.K. “O‘zbek tilining adabiy talafuz lug‘ati” Toshkent – 1984, 116 – bet
4. Primov A., Qodirova X. “Tilshunoslikning dolzarb muammolari” Urganch – 2019, 71 – bet
5. Большой энциклопедический словарь. Языкознание. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. С. 559.
6. 百科全书 www.baike.cn

A.NAVOIY IJODINING SHARQ OLIMLARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI

Nigora XUDOYBERDIEVA, *O‘zMU tayanch doktoranti*

A.Navoiy ijodi sharqda XVasrdan boshlab o‘rganildi. Ogoh Serri Levend[1], Ca’diddin Nushat Ergun[2], Alaiddin Guvsa[3], Ahmed Jafero‘g‘lu[4], Yusuf Chetindag‘[5], Olmos Uvliy[6], Jannat Nagieva[7] kabi olimlarning tadqiqotlari fikrimizni tasdiqlaydi. A.Navoiy o‘z asarlarida butun insoniyatga dahldor bunyodkor g‘oyalarni ilgari surgani, shoirning g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagani bunday yirik tadqiqotlarga sabab bo‘lmoqda.

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmonlig‘,

Yor o‘ling bir biringizga, erur yorlig‘ ish... degan misralarini har birimiz yoddan bilamiz. Ya’ni Hazrat odamlar o‘rtasida tinchlik va osoyishtalik hukm surishi uchun ular dushmanlik yo‘lidan voz kechishi

darkor, dushmanlik ish emas, buning o‘rniga ular bir-biriga do‘st tutinishi lozim. Chin do‘stlik haqiqiy ish hisoblanadi, deya lutf qiladilar[8]. VI asr avval bitilgan ushbu misralar Alisher Navoiy sheriyati va falsafasining vaqt bilan sinalganligi va dunyo xalqlariga birdek taalluqli ekanligining yorqin isbotidir.

Shoir asarlarining turli tillarga tarjimasi dastlab fors tilidan boshlandi. Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi XV asrda fors-tojik tiliga tarjima qilindi. Keyingi asrlarda ham bu jarayon uzluksiz davom etib, unda hindistonlik forsiygo‘y shoir va olimlar peshqadamlik qildi. Shunday olimlardan biri sifatida shoir, tarixchi va tilshunos Mirza Ali Baxt Azfariy (1750-1819)ni misol qilib keltirish mumkin. U Navoiyning “Mahbub-ul qulub” asarini fors tiliga mahorat bilan o‘girib, unga bag‘ishlab g‘azallar bitgan va nazm bobida Navoiyga bo‘lgan yuksak ixlosini namoyon etgan. Shoir ijodi dastlab fors tiliga tarjima qilinishining asosiy sababi hududiy va madaniy yaqinlikdir.

Navoiy ijodiga Eronda ham qiziqish kuchli bo‘lib, “Xamsa” Muhammad Naxchevaoniy, “Majolis un-nafois”ni Ali Asqar Hikmat 1944-yilda, “Muhokamat ul-lug‘atayn”ni esa Torxon 1948-yilda fors tiliga tarjima qilib, Tehronda nashr ettirdi. 1963-yilda Navoiyning “Devoni Foniy”si ham Tehronda chop etiladi[9].

2018-yili yurtimizda Navoiy ijodiga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro konferentsiya qatnashchisi eronlik adabiyotshunos, matnshunos olim Husayn Muhammadzoda Siddiqning quyidagi fikrlari ham e’tiborga molik:

“...Hozar shohi Nosiriddinning E’timod us-saltana nomli bosh vaziri bo‘lgan. O‘sha vazir aytar ekanki, har kech shoh Navoiydan bir g‘azal o‘qilib, sharh etilmaguncha uyquga yotmasdi. Navoiy saltanatda shu qadar tanilgan va ixlos etilgan. Tabrizda Fatalishohning vaziri Abbos Mirzo o‘z zamonida Navoiydan saboqlar berishni ta’sis etgan. Navoiyga oid izohlar, talqinlarni jamlab, xulosalab kitob yozishga buyurgan va shuning samarasi o‘laroq “Xulosai Abbosiy ”nomli kitob yaratilgan. Navoiy Eronda yashab turkiyda, forsiyda yozgan shoirlarning hammasiga namuna bo‘lgan. Ularning bari Navoiydan mutaassir bo‘lgan. Ma’lumingizkim, forsiy she’riyat Sanoiydan boshlanadi. Sanoiy, Anvoriy, Attor, Hofiz, Abdurahmon Jomiy silsilasida davom etadi. Fors she’riyatida A.Jomiyga qadar bir uslub mavjud va bu uslub Jomiyda tugaydi. Nazm shevasi, nazm yo‘li Jomiydan o‘tilgach o‘zgaradi. Bu jarayon Navoiy ta’sirida yuz bergan,

bu yangi uslub. Eronda buni “hindiy uslubi” deydilar. Chunki bu sheva, ya’ni bu uslubda yozgan shoirlar keyinchalik Hindistonga ketganlar. Ammo menimcha buni Navoiy uslubi deyish lozim. Bu she’riyatda Navoiyga xos talay xususiyatlar mavjud. Navoiyning har bir baytida muodala (tenglik, muvofiqlik) mavjud. Ya’ni baytning birinchi misrasida xayoliy, zehniy bir tasvir bor, u savol tarzida bo‘lib, so‘ng uning javobi ikkinchi misrada ayni tasvirda keladi (sub’ektiv tasvir ob’ektiv tasvirga ko‘chadi). Bu usulni Fuzuliy Navoiydan olgan. Fors tilida o‘n ikki ming bayt she’r yozgan Sohib Tabriziy bu yo‘lni Fuzuliy orqali o‘rgandi va fors she’riyatiga olib kirdi. Sohib Tabriziydan keyingi avlod shoirlar eski, ya’ni Sanoiydan to Jomiyga qadar amalda bo‘lgan uslubni qo‘llamadi, hammalari Navoiy yo‘lida yozadi. Navoiyning fors she’riyatiga ta’siri bu qadar bo‘lmishdir. Bularni tushunib yetgach, Navoiy asarlariga qattiq berildim. “Badoe ul-lug‘at”, “Sangloh ” kabi Navoiy asarlariga yozilgan izohlar bilan chuqur tanisha boshladim. “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Me’zon ul-avzon”, “Munshaot” shuningdek forsiydagi maktublarini Eronda nashr ettirdim”.

Olimning ushbu fikrlaridan ham bilish mumkinki, A.Navoiy ijodini o‘rganish va tadqiq etish adabiyot ixlosmandlarining ma’naviy ehtiyojlarini qondirish bilan birga, yangi ijod namunalari va yangi uslublar uchun zamin ham hozirlagan. A.Navoiy asari Eron va Rossiyani muqarrar urushdan saqlab qolgan. “Ilk devon” XIX asr boshlarida Erondagi Kojarlar sulolasi vakili Fathalishoh kutubxonasi fondida edi. 1828-yili Tehrondagi qo‘zg‘olon oqibatida Rossiyaning Erondagi elchisi Aleksandr Griboedov o‘ldirilgach, ikki davlat orasidagi munosabat buzilib, vaziyat g‘oyat taranglashadi. Eron shohi urushning oldini olish maqsadida Rossiya imperatoriga elchining xuni sifatida ko‘plab qimmatbaho sovg‘alar qatori “Ilk devon”ni ham yuboradi. Imperator Nikolay Birinchi bu sovg‘alardan mamnun bo‘lib, urush ochish fikridan voz kechadi, shu tarzda Navoiyning asari o‘zining ma’rifati bilan minglab insonlar hayoti saqlab qoladi. [10].

Navoiy ijodini o‘rganishda afg‘on olimlari hissasi ham katta bo‘lib, ular Navoiyni nafaqat buyuk shoir, balki mohir siyosatchi va bunyodkor shaxs sifatida ham tadqiq qilishgan. Afg‘on olimlaridan Ravon Farhodiy qancha davrlar o‘tmasin, Navoiy siymosi Xuroson va O‘rta Osiyo tarixida tobora yuksak bo‘y ko‘rsatayotganini ta’kidlaganida haq edi.

Shoirning “Farhod va Shirin” dostoni afg‘on tiliga tarjima qilingan, 2018 yili Navoiy asarlarining ko‘p jildligi to‘plami arab yozuvida chop etildi. Afg‘onistonlik olim va shoirlar shoir ijodiga bag‘ishlangan simpozium va konferentsiyalarda muntazam qatnashib keladi. Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universitetida tashkil etilgan, “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi konferentsiyada ham Balh davlat universiteti o‘qituvchisi Muhammad Yaqub Qarash A.Navoiyga ehtiromini quyidagicha ifodaladi:

“–O‘n yildan buyon talabalarga navoiyshunoslik, aruz va jadid adabiyotidan dars beraman. Saboqlarda Alisher Navoiy asarlariga alohida e’tibor beramiz. Navoiyga bo‘lgan hurmatimiz cheksiz. Hozir shoirning Afg‘onistondagi qabri obod etilgan. Butun dunyodan Navoiy qabrini ziyorat qilgani kelishadi.”

Alisher Navoiy va Sulton Husayn Bayqaro munosabatlariga hind olimi Sulton Muhammad Abdullo va afg‘on olimi Mas’ud Rijoiylar oydinlik kiritdi. Zero bu masala uzoq vaqt mobaynida turli bahs-munozaralarga sabab bo‘lib, ba’zi olimlar shoh va shoir o‘rtasida adovat mavjud bo‘lganligini e’tirof etadilar. Olimlar maqolalarida sulton Husayn Boyqaro va Navoiyning har bir ishda hamfikr va qiyomatli do‘st bo‘lganini ishonchli dalillar yordamida isbotlab berishdi.

Afg‘onistonda yashagan o‘zbek olimi Muhammad Yoqub Vohidiy (Juzjoniy) Navoiyning “Devoni Foniy”sini 1967 yili Qobulda nashr ettirdi va shoir haqida ko‘plab maqolalar yozdi. 1968 yili Navoiyning yaqin do‘sti Husayn Boyqaro devonini ham chop ettirdi, o‘zbek navoiyshunoslarining asarlari Afg‘onistonda nashr etilishida ko‘maklashadi. Abdulg‘affor Bayoniy Xondamirning Navoiyga bag‘ishlangan “Makorim ul-axloq” asarini dariy tiliga tarjima qilib 1981 yilda nashr ettirdi. Juzjoniyning o‘zi Navoiyning turk va fors tilidagi asarlari uchun qisqacha lug‘at tuzdi va bu lug‘atni afg‘on olimi Ravon Farhodiy ingliz tiliga o‘girib, 1981 yili Qobulda chop ettirdi.

Afg‘on olimlarining ilmiy tadqiqotlarida A.Navoiy insonparvar va bunyodkor shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Xalq shoir qurdirgan inshoatlardan hozirga qadar foydalanadi. Afg‘on va o‘zbek navoiyshunos olimlari shoir ijodini tadqiq qilishda doimo hamkor va hamfikr. Birgalikda o‘tkazilayotgan konferentsiya va simpoziumlar fikrimizning yorqin isboti. Afg‘onistonda A.Navoiy nomidagi orden ta’sis etilishi, shoir ijodini keng targ‘ib qilish maqsadida o‘zbek tiliga e’tibor kuchayishi natijasida ta’lim muassasalarida o‘zbek tilining

o‘qitilishi va o‘zbekcha darsliklar chop etilishi yo‘lga qo‘yildi. A.Navoiy ijodi tadqiqoti va targ‘iboti bo‘yicha Afg‘onistonda amalga oshirilayotgan bunday say-harakatlar xalqlarimiz orasidagi do‘stlik aloqalarining bardavomligini ta’minlaydi.

Turkiyada A.Navoiy ijodiga qiziqish shoir hayotligi davridan boshlangan. Turk sultonlari shoir asarlarini sevib mutolaa qilgan. XV asrda yashagan turk shoiri Bashariy bergan ma’lumotlariga ko‘ra, Oshiq Chelibiy tomonidan tuzilgan “Mesho‘irush shuaro” tazkirasiga turk shoirlari bilan bir qatorda Alisher Navoiy ham kiritilgan bo‘lib, uning hayoti va ijodiga oid qaydlar uchraydi. 1538 yili Sahiy Bek turk shoirlariga bag‘ishlab yozgan “Hasht Behisht” tazkirasida bu asarni A.Jomiyning “Bahoriston”i va A.Navoiyning “Majolis un-nafois”i usulida bitganini qayd etadi. A.Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari esa XIX asr boshlarida turk va tatar tillariga tarjima qilingan. Shoirning ijodining xotimasi bo‘lgan “Mahbub ul-qulub” asari ham turk tiliga tarjima qilinib, Istanbulda chop etilgan. “Nasoyim ul-muhabbat” asarining ilmiy-tanqidiy matnini Kamol Eraslan 1996 yili Anqarada nashr ettiradi[11]. 1985 yilda Istanbulda “Chig‘atoy adabiyoti va Alisher Navoiy” nomli to‘plam nashr etiladi va unda: “Navoiy O‘rta Osiyo mintaqasi turk-chig‘atoy adabiyotining ulug‘ shoirlaridan biridir. Shoir, olim, buyuk davlat arbobi o‘laroq, butun turk adabiyoti va madaniyatining ham muhim siymolaridan biridir”,—deya ta’riflanadi.

Adabiyotshunos olima Rohila Ro‘zmonova Navoiy ijodining turk adabiyotiga kirib borishi, Ahmad Posho va Saydi Ali Rais Kitobiy kabi mashhur turk shoirlari ijodiga ta’siri to‘g‘risida chuqur ilmiy izlanish olib borib, Turkiyada Navoiy ijodini o‘rganish jarayonini davriy ravishda bir necha bosqichlarga bo‘ladi:

Birinchi bosqich XV-XVI asrlar bo‘lib, turk adabiyotshunoslari Navoiy ijodi XV asrning so‘nggi choragidanoq turk adabiyotiga ta’sir eta boshlaganini ta’kidlashadi. Navoiy asarlari tarjimasi va tadqiqoti esa XVI asrdan boshlangan bo‘lib, turk olimi Mustafo Binni Sodiq tuzgan chig‘atoycha-turkcha lug‘at “Abushqa” hamda Hakim Shoh Muhammad Qavziniy amalga oshirgan “Majolis un-nafois ” tarjimasi bu boradagi izlanishlar debochasidir.

Navoiy ijodini tarjima va tadqiq etish borasidagi say-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida Mehmet bin Mehmetning “Nuhbat ut-tavorix val-axbor”, Gelibolulu Mustafo Alining “Manoqibi hunarvaron”, Kotib

Chalabiyning “Kashf uz-zunun”, va “Sullam ul-vusul”, Mustaqimzoda Sulaymon Sa’diddin “Majallat un-nisob” va “Tuhfai xattotin”, Sulaymon Fahmning “Safinat ush-shuaro”, Labibning “Javohiri Multikata” va muallifi noma’lum bo‘lgan “Jaridai talikiyon” hamda Fanoiy 1782-yil Venada nashr ettirgan “Tarixi muluki Ajam”ning turkcha tarjimasi “Tarixi Fanoiy”ni tilga olish mumkin.

Turk shoiri Lomiy “Xamsa”ning “Farhod va Shirin”dostonini usmonli turk tiliga tarjima qilgan, adabiyotshunos Ogoh Sirri Levend mazkur asarni 1965-yil Turkiyada nashr ettirgan. Ogoh Sirri Levend shoir haqida “Alisher Navoiy” nomli to‘rt jildli asar yozadi. [12]. Turk shiorlaridan biri Dukakinzoda Yahyo Bey Navoiyga atab “Gulshani Anvor” nomli masnaviy yozib, uni so‘zlari dur, tengi yo‘q shoir deya ta’riflaydi[13].

Professor M.Artikovning ta’kidlashicha: “Сулейман Великолепный высоко ценил творчество Навои и имел в своей библиотеке манускрипты с его произведениями «Сокровищница мыслей», «Пятерица» и «Спор двух языков».”[14]. Olimning ushbu fikrlari esa A.Navoiy ijodining davlat ahamiyatiga molik ekanligini ko‘rsatib turibdi. Shoirning Onado‘li mumtoz turk adabiyotiga ta’siri Turkiyaga yuborgan 33 ta tanlangan g‘azali va devonida mavjud boshqa she’riy janrlarga turk shoirlari tomonidan naziralar bitish hodisasidan boshlanadi. [15]. Bir so‘z bilan aytganda, Turkiya A.Navoiy ijodini o‘rganishda asosiy ilmiy markazlardan sanaladi. Bu mamlakatda turk navoiyshunosligi davrlarga bo‘lib tavsiflanishi ham bejiz emas.

XVII asrda yashagan gurji shoiri Sittsivili Navoiyning “Sab’ai Sayyor” dostonini ijodiy tarjima qilib, “Yetti go‘zal” yoki “Bahrom guriani” ya’ni “Bahrom go‘r” dostonini yaratadi. O‘sha asrda ijod yetgan yana bir gurji shoiri Nodar Persodaniadze esa: “Navoiy bu qissasini (“Sab’ai sayyor” nazarda tutilmoqda) chig‘atoy qadimgi o‘zbek tilida yozgan, biz shoirlikda biron kishini u bilan tenglashtirib tasavvur qila olmaymiz”,— deb ta’riflaydi. [16]. Bunday e’tirof Navoiy ijodining gruzin adabiyoti uchun ham g‘oyat ahamiyatli ekaniga yorqin dalildir.

Navoiy davrida Hirotda madaniyat va san’at markazi hisoblangan va turli millatga mansub ijodkorlar uning suhbatiga oshiqqan. Shunday shoirlardan Xulqiy, Ollohiy, Kishvariy Tabreziy va Ziyoyiylar Tabrizda ozarbayjon she’riyati ravnaq topishiga zamin hozirlagan. XVII asrda

yashab, ijod qilgan ozarbayjon shoiri Sodiqbey Afshor “Majmaal havos” nomli asarini Navoiyning “Majolus un-nafois”dan ta’sirlanib yaratgan bo‘lsa, XVIII asr ozarbayjon shoiri Gavsiy Tabriziy esa Navoiyga bag‘ishlab g‘azallar bitgan. [17].

A.Navoiy hayoti va ijodining sharq olimlari tomonidan tadqiq va talqin etilishi masalasini atroflicha tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Sharq navoiyshunos olimlari tadqiqotining zarurati shundan iboratki, dunyo olimlari A.Navoiy ijodini aynan sharq navoiyshunoslarining tadqiqotlariga asoslanib o‘rganadi. Shoirning ijodiy merosi Afg‘oniston, Tojikiston, Yeron, Ozarbayjon, Turkiya kabi sharq mamlakatlarida keng o‘rganilmoqdi. A.Navoiy asarlarining dunyo tillariga tarjima qilinish jarayoni dastlab fors tilidan boshlangan. Eronda A.Navoiy ijodini o‘rganish va tadqiq etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. A.Navoiy asarlari ta’sirida Eron she’riyatida “hindiy uslubi” nomli yangi she’riy uslub va jahon adabiyotida yangi asarlar paydo bo‘ldi. Shoir ijodi nafaqat madaniy, balki siyosiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qildi.

2. Afg‘on olimlari ilmiy izlanishlarida A.Navoiy asosan insonparvar va bunyodkor shaxs sifatida talqin qilingan. Afg‘onistonda A.Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlariga doir ilmiy tadqiqotlar keng ko‘lamni tashkil etsa, usmonli turk adabiyotida A.Navoiy ijodining badiiy ta’siri, shoir asarlariga bag‘ishlab yozilgan asarlar keng ko‘lamni tashkil etadi. Turkiya A.Navoiy ijodini o‘rganishda O‘zbekistondan keyingi ikkinchi ilmiy markaz sanaladi. Shu jihatdan turk navoiyshunosligini davrlarga bo‘lib tadqiq etish bejiz emas. Turk shoir va olimlari A.Navoiy ijodiga XV asrdanoq qiziqish bildirishi Turkiyaning dunyo navoiyshunosligining yirik markazlaridan biriga aylanishiga zamin yaratdi.

3. A.Navoiy sharq va dunyo she’riyatida boshqa shoirlarning asarlariga nazira va tazkiralar yozish an’anasini boshlab bergan. Turk va ozarbayjon shoirlari A.Navoiydan so‘ng ushbu an’anani davom ettirgan. Atoqli ozarbayjon shoiri Fuzuliyning A.Navoiy g‘azallariga bag‘ishlagan naziralari, XVII asrda gurji adabiyotida A.Navoiyning badiiy ta’sirida yozilgan yangi ijod namunalari ham shoir ijodining sharq olimlari uchun o‘ziga xos maktab vazifasini o‘taganligini tasdiqlaydi.

4. A.Navoiy xotirasini abadiylashtirish uchun dunyoning turli shaharlariga o‘rnatilgan shoir haykallari qatoriga Yaponiyaning Soka universitetida qad rostlagan A.Navoiy haykalining qo‘shilishi, koinotdagi Merkuriy kraterlaridan biriga shoir nomining berilishi ham A.Navoiyning dunyo sivilizatsiyasidagi tutgan o‘rni va mavqeining yuksakligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Caferoglu A. Mir Ali Sir Nevai (Nevayinin Dogumunun 500. Yil Donumu Dolayisiyla)// Turk Amaci. –Istanbul, 1976.
2. Cənnət Nağıyeva. Azərbaycanda Nəvai. Bakı, ―Tural-Ə‖ NPM. 2001.
3. Govsa, I.A. Ali Sir Nevayi. Meshur Adamlar.-Istanbul, 1935.
4. https://daryo.uz/k/2018/06/07/alisher-navoiy-asari-rossiya-imperatori-va-eron-shohi-ortasidagi-urushning-oldini-olgan.
5. Levend A.S. Ali Sir Nevayi// Divanlar, II.-Ankara, 1966.
6. Sedettin N.E. Turk Sairlerinin Cagatayca Siileri// Cilt, I. –Istanbul, 1936.
7. Abduazizov A. Alisher Navoiy merosining chet ellarda o‘rganilishi.-Toshkent,1991.
8. Setindag Y. Ali Sir Navaining Osmanli Siirine Etkisi. –Ankara: Kultur ve Turizm Bakanligi, 2006.
9. Uvliy O. Alisher Navoiy Ozorbayjon adabiyotshunosligida. (Maqolalar to‘plami) -Boku, 2009.
10. Hamdamov Yu. G‘azal bo‘stonining gultoji.–Toshkent.: Tong yulduzi. 2016. №6.
11. Ali Sir N. Nesayimel-Mahabbe Min Semayimul-Futuvve. Hazirlayan: Kemal Eraslan. –Ankara, 1996.
12. Isen M. Anadolu Türk Edebî Dili Üzerine Nevâî Etkisi// Uluğ Bey Sempozyumu. ―Çorum, 30 Mayis-1 Haziran 1994. ―B.298.
13. Artikov M.A. Tvorchestvo Alishera Navoi: pochemu tak dorogo serdtsu yapontsev. Tashkent.: Navruz. 2021.-B.116.
14. Ismatullaev H. Navoiy ijodini xorijiy mamlakatlarda o‘rganishga doir. O‘zbek tili va adabiyoti. 1968. -№5. B-16.
15. Ro‘zmonova R. Alisher Navoiy an’analarining usmonli turk she’riyatiga ta’siri. Toshkent, 2011.-B.19.
16. Abduazizov. A.A. Alisher Navoiy merosining chet ellarda o‘rganilishi.Toshkent,1991.
17. Abdullaev V.A. Saylanma (adabiy-tanqidiy maqolalar).-Toshkent: G‘. G‘ulom, 1982.-B.440.

MANZAR SALIM – MASHHUR URDU TILI TARJIMONI

Mohira UMAROVA, *TDSHU doktoranti*

Dunyoda tillar koʻp, millatlar talay. Mana shu millatlar va elatlar bir-birini tanishi, oʻzaro fikr almashishi uchun xizmat qiluvchi unsur til sanaladi. Dunyodagi barcha tilni bilishni imkoni yoʻq, ammo inson oʻzi istagan millat vakili yaratgan yoki shu millat haqida u yoki bu asarni oʻqimoqchi boʻlsa, mana shu asarning oʻz ona tilida yatarilgan tarjimasiga yuzlanadi. Tarjima - ikki millat oʻrtasidagi koʻprik sanaladi. Biron-bir millat haqidagi tasavvur uygʻotish uchun xizmat qiluvchi insondir tarjimon.

Oʻzbek yozuvchilari tomonidan yaratilgan bebaho asarlar – gʻazal, roman, she'r, ruboiy va boshqalar juda koʻp sharq va gʻarb tillariga tarjima qilingan. Bu borada oʻzbek tarjimashunosligi asoschisi Gʻaybulla Salomov shunday yozgan edi: "Ma'lumki, badiiy adabiyot har bir xalqning ma'naviy dunyosi, hayoti, urf-odatlari, an'analari bilan, uning madaniyatidagi jamiki yaxshi, ilgʻor narsalar bilan tanishish imkoniyatini beradi". [1. 122.] Bu jarayonda tarjimonlarni oʻrni beqiyos. Ana shunday tarjimonlardan biri - Manzar Salimdir. U turli millatlar san'at durdonalarini– urdu tiliga tarjima qilgan. Manzar Salim haqida internet manbalarida ham, kitoblarda ham ma'lumot u qadar koʻp emas. Deyarli yoʻq ham. Faqatgina qayerda va qachon tugʻilgani-yu, qachon vafot etgani yozilgan. Ammo, u tarjima qilgan, yaratgan asar va ruboiy, gʻazallari haqida ma'lumotlar mavjud. Ushbu tarjima asarlar urdu tili kitobxonlarida juda katta qiziqish uygʻotgan va hali hanuz zoʻr zavq bilan oʻqib kelinmoqda.

M.Salim 1925- yilda Hindiston (Laknau) da dunyoga kelgan. 1996-yilda vafot etgan. Tarjimon hayoti haqida boshqa hech qanday ma'lumot: qayerda oʻqigan, ota-onasi, yoshlik davrlari, umuman, uning asarlari, gʻazallari, tarjimalaridan boshqa hech qanday ma'lumot hozircha mavjud emas.

Manzar Salim urdu tilida kitob mutolaa qiluvchilar uchun oʻzbek, rus, qozoq, gruzin, qirgʻiz millati vakillari yaratgan bebaho durdonalarni urdu tiliga tarjima qilgan.

Hindiston internet sayti boʻlmish "Rekhta"da [3] Manzar Salimning ijod namunalari joylashtirilgan boʻlib, unda: 7 ta gʻazal, 3 ta she'r, 24 ta kitob (elektron) va ikkita audio joylashtirilgan.

M.Salimning "Chashm-e-naam" nomli romani 1959-yilda Lakhnauda yozilgan va kitobda yozilishicha, bu uning ikkinchi romani

sanalari. M.Salimning birinchi romani haqida esa ma’lumot mavjud emas.

1967-yilda Laknauda yozilgan “Majaz: hayat aur shayari” nomli kitob yozuvchi tomonidan yozilgan bibliografik kitob sanaladi va aynan ushbu kitob 1983-yilda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan holda qayta nashrdan chiqarildan.

“Numaish” nomli kitob esa tahminan 1983-yildan keyin nashr etilgan, ammo aniq yili va sanasi ma’lum emas.

“Sarmaya-e-sukhan” nomli kitob 2011-yilda nashrdan chiqdi hamda hajmi 324 sahifani tashkil etadi. Yuqorida zikr etilgan bu kitoblar Manzar Salim tomonidan yozilgan kitoblar sanaladi.

Bundan tashqari bir nechta gazeta va jurnallarda ham Manzar Salim haqida maqolalar e’lon qilingan. Ulardan bizga ma’lum bo‘lgani – “Naya daur” jurnalidir. Mazkur jurnalning 1988-yil, dekabr oyida, jurnalning 009-sonida Manzar Salim haqida maqola e’lon qilingan. “Naya Manzar nama” nomli kichik-kichik hikoyalardan tashkil topgan jurnalda ham Manzar Salimning hikoyalari haqida yozilgan va namunalar berilgan. 2007-yilda mazkur jurnal Mumbayda nashrdan chiqqan.

Yuqorida zikr qilinganidek, Manzar Salim mohir tarjimon ham sanaladi. U juda ko‘plab o‘zbek,rus, qozoq, qirg‘iz, gruzin yozuvchilarining asarlarini urdu tiliga o‘girgan. Masalan, 1982-yilda mashhur o‘zbek yozuvchisi G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asarini urdu tiliga "سرگزشت ایک لڑکے کی" (“Sarguzasht ek larke ki”) [2. 172] nomi bilan tarjima qilgan. Manzar Salimga Sharof Mirzabekov yordam berganliklari kitobda qayd etilgan. Asar 172 betdan iborat . Ba’zi urdu kitobxonlari uchun notanish bo‘lgan so‘zlar sahifa so‘ngida qayd etilgan va uning izohi keltirib o‘tilgan. Bu izohlar muharrir tomonidan yozib qoldirilgan. Asar fikrimizcha, rus tilidan bilvosita tarjima qilingan. Shu sababdan rus tilida qanday bo‘lsa, urdu tilida ham xuddi shunday tarjima bo‘lgan. Ba’zi joylarida g‘alizliklar, bo‘limlarni, jumlalarni tushurib qoldirib ketish holatlari ham kuzatiladi. Ammo kiyim-kechak, o‘zbek milliy taom nomlarining deyarli barchasi sahifa so‘ngida izoh orqali tushuntirilib ketgan. Bu, fikrimizcha, tarjima yanaqa yaxshiroq va tushunarliroq chiqishiga xizmat qilgan. Urdu tilida kitob o‘quvchilar uchun mazkur asar o‘zbek xalqi, urf-odatlari. kundalik turmush tarzi, milliyliklari, murojaat usullari, xalq o‘yinlari va

umuman, o‘zbek millati haqida tasavvur hosil qilishi uchun juda katta xizmat qilgan deb ayta olamiz.

“Shum bola” asari bilan bir qatorda, zabardast o‘zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirovning o‘zbek millatining buyuk sarkardasi, olimi, shoiri va davlat arbobi bo‘lmish Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiga bag‘ishlangan “Yulduzli tunlar. Bobur ” asarini ham Manzar Salim 1986-yilda tarjima qilgan. Ushbu tarjimasi orqali u buyuk shaxs Zahiriddin Muhammad Bobur, uning hayoti, ijodi va umuman turmush tarzi bilan pokistonlik hamda urdu tilida kitob mutolaa qiluvchilarni tanishtirdi.ushbu asar orqali kitobxonlar bizning tariximiz, o‘tmishimiz, buyuk bobokalonimiz haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Mutarjim Boburning naqadar buyuk va olijanob shaxs ekanligini asarda kitobxonlarga juda chiroyli tarzda yetkazib bera olgan. Mazkur tarjima rus tilidan bilvosita tarjima qilingan. Xuddi “Shum bola”dek ba’zi joylari tushurib qoldirilgan, ba’zi bir tushunarsizliklar ham ko‘zga tashlanadi. Lekin bu kitobning yutuqlari oldida arzimasdek tuyuladi. Sababi, umumiy ma’no to‘g‘ri yetkazib berilgan. Asar “Raduga” matbaa uyida nashrdan chiqqan va umumiy hajmi 316 betdan iborat.

Manzar Salim mashhur qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning ham asarlarini tarjima qilgan. Mutarjim Chingiz Aytmatovning “Тоо жана баяндары” – «Повести гор и степей» nomli asarini urdu tiliga “Ek tasweer kai khake” nomi ostida rus tilidan bilvosita tarjima qilgan va 1981-yilda Toshkentda nashrdan chiqqan ushbu asar 396 betdan iborat.

Rus yozuvchisi Vasiliy Shukshinning saralangan hikoyalaridan iborat Охота жить” kitobi “Main jeena chahta hun” “nomi ostida Manzar Salim tomonidan tarjima qilingan va u 1977-yilda Toshkentda nashrdan chiqarilgan. Kitobning birinchi betida yozilishicha, tarjima jarayonida Manzar Salimga Boris Markevich yordam bergan. Mazkur kitobning umumiy hajmi 298 betni tashkil etadi.

Rossiyaning (Dog‘iston Respublikasi) mashhur shoiri, publitsisti, siyosiy arbobi va tarjimoni Rasul Hamzatovning ham saralangan she’rlarini “Muntakhab nazmein” nomi bilan tarjima qilgan va to‘plam sifatida 1979-yilda, Toshkentda nashrdan chiqargan. Ushbu to‘plam 226 betdan iborat.

Tarjimon yuqorida aytilganidek juda ko‘p millatlar yozuvchilarining asarlarini tarjima qilgan mohir tarjimondir. Bunga yana bir misol tariqasida mashhur gruzin yozuvchisi Konstantin

Aleksandrovich Lordkipanidzening “Зоря Колхидзы” asarini ham urduchaga “Ghaza-e-rukhsar-e-Sahar” nomi bilan tarjima qilganligini keltirish mumkin. Mazkur asar ham Toshkentda, 1978-yilda nashrdan chiqqan. Asarning hajmi 400 betdan iborat.

Mutarjim asli Buxorolik, rus tilida ijod qiluvchi mashhur yozuvchi Temur Po‘latovning “G‘oyibning ikkinchi safari” – “Второе путешествие Каипа” asarini urdu tiliga “Dusra safar” deb tarjima qilgan. Asar 1979-yilda Toshkentda nashrdan chiqqan hamda 259 sahifadan iborat. Asarni nashrga tayyorlashda Li Aleksandr ko‘maklashgani ta’kidlanadi.

Manzar Salim o‘z ijodida Qozog‘istonlik yozuvchi ijodidan ham namuna tarjima qilgan. Masalan, Muxtor Auezovning “Abay” nomli asarini urdu tiliga qisqartirilgan holda tarjima qilgan va “Ubharti hui aawazein” nomi ostida 1979-yilda Toshkentda nashrdan chiqqan va 712 sahifadan iborat.

Tarjimon o‘z ijodi davomida ocherklar tarjimasi bilan ham shug‘ullangan. Jumladan, “Uzbek Mumtaz khawateen” nomli to‘plam 1979-yilda nashrdan chiqqan. Unda o‘zbek va rus ijodkorlari tomonidan yozilgan ocherklar urdu tiliga tarjima qilingan. Mazkur to‘plam 227 betdan iborat va Toshkentda nashr etilgan. Unda Zulfiya vas hu kabi mashhur o‘zbek ayollari haqida yozilgan.

Mutarjim ijodi uchun 979-yil juda semahsul yil bo‘lganligi aniq. Sababi, aynan shu yili uning bir emas, bir nechta asarlari, hikoya va she’riy to‘plamlari nashr etildi. Zulfiya ijodidan namunalar saralangan to‘plam ham buning isboti bo‘la oladi. M.Salim Zulfiyaning “Xotira satrlari (Tanlangan she’rlar)” nomli she’riy to‘plamini “Yadoon ki sutoor” nomi bilan urdu tiliga tarjima qiladi. To‘plam 179 sahifani tashkil etadi va “Progress” matbaa uyida nashr etiladi. Ushbu to‘plamga Zulfiyaning mashhur she’rlari kiritilgan bo‘lib, urdu tiliga qilingan tarjimalari juda chiroyli bo‘lgan. To‘plamning ilk sahifalarida Zulfiyaning hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Uning umumiy hajmi 179 betdan iborat.

Tarjimon tarafidan qilingan navbatdagi tarjima asar ozarbayjon xalqiga tegishli kichik hikoyalar to‘plami sanaladi. U 1983-yilda Toshkentda, “Raduga” matbaa uyida nashr etilgan. “Yaadon ke jazeere: Azerbajani afsane” deb nomlanadi. Hikoyalar to‘plamida ozarbayjonlik mashhur yozuvchilarning hikoyalari tarjima qilingan bo‘lib, uning umumiy hajmi 280 betdan iborat.

Shu bilan bir qatorda u 1986-yilda Maqsud Ibrohimbekovning «И не было лучше брата» nomidagi asarini urdu tiliga "رشتے نیےپرانے" (“Rishte naye purane”) tarjima qilgan. Ushbu asar rus mumtoz nasri namunasi sanaladi. Tarjima asarning umumiy hajmi 329 betdan iborat. “Raduga” matbaa uyida nashr etilgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan asar, to‘plam va she’rlar Manzar Salim tomonidan tarjima qilinganlarning bizga ma’lum bo‘lganlarigina, xolos. Shoyad, uning bizga ma’lum bo‘lmagan yana ijod namunalari mavjuddir.

Ijodkorning sermashaqqat mehnati davlatimiz tomonidan munosib ravishda rag‘batlantirilgan. Ya’ni, O‘zbekiston mustaqillikka erishganining ilk kunlarida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning 25.09.1991-sanada qabul qilgan “PQ-264” sonli - adabiyot, san’at va arxitektura sohasida Alisher Navoiy davlat mukofotlarini taqdim etish haqidagi qarorlariga muvofiq bir nechta mashhur yozuvchi, tarjimon, umuman, san’at vakillari mukofotlandi. Jumladan, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat (vafotidan keyin), Sherali Jo‘rayev va shu kabi mashhur insonlar bilan bir qatorda Manzar Salim ham ushbu yuksak e’tirofga loyiq ko‘rildi. Mazkur qarorda Manzar Salimga “Mnzar Salim - Hindiston fuqarosi, yozuvchi va shoir, o‘zbek yozuvchilari (Hamza, Oybek, Abdulla Qahhor, G‘ofur G‘ulom, Zulfiya va boshqalar)ning asarlarini urdu tiliga mohirona tarjima qilgani uchun” deb ta’rif berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salomov G‘. Til va tarjima. –Toshkent: Fan, 1966. – 156 b.
2. https://www.rekhta.org/
3. غفور غلام . سرگزشت ایک لڑکے کی.- تاشقند شاخ محفوظ. ۱۹۸۲
4. ظہیرالدین بابر . قادروفپ –۶۴۴ص– تاشقند : رادوگا ۱۹۸۶ ۶
5. Kholmirzaev T. Urducha-o‘zbekcha lug‘at – Pokiston: Muqtadira Qaumi Zaban, 2003 – 438 b.

KOBO ABENING “QUMDAGI XOTIN” ASARI TARJIMASIDAGI AYRIM O‘XSHATISHLAR BADIIYATI

Muslimaxon (YULDASHEVA) RUSTAMOVA, *TDSHU tayanch doktoranti*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng Yaponiya davlati bilan turli sohalarda muhim aloqalarni o‘rnatdi. Iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi adabiy aloqalarning faollashuviga ham turtki berdi. Estetik jihatdan yuksak badiiy asarlarni topish va tarjima qilishga ehtiyoj kuchaydi. Bu esa o‘z navbatida tarjima asaralar tilini ilmiy tadqiq qilish zaruratini kun tartibiga chiqardi.

Ma’lumki, tarjimaning tarixi, mohiyati va ahmiyati haqida juda ko‘p fikr aytilgan, turli darajadagi tadqiqotlarda ham muntazam ta’kidlanib kelinadi. Tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri hisoblanib, u tufayli biz insoniyat taraqqiyoti tarixini barcha tafsilotlari bilan tasavvur etamiz. Tarjima xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir. Shuningdek, tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta’siri jarayonini tezlashtiradi.

Mutaxassislar fikricha, “mamlakatimizda tarjima tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarning ko‘pchiligi dastlab adabiy-tarixiy, ayrimlari lingvistik yo‘nalishlarda olib borilgan. Birinchi yo‘nalish tarafdorlari asosiy e’tiborni o‘girilayotgan asarning badiiy-estetik qiymatigagina qaratib, badiiy yodgorlikning birlamchi asosi bo‘lmish lisoniy jihatini nazardan soqit qilgan bo‘lsalar, ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari qiyoslanayotgan ikki til vositalarining ko‘proq lug‘aviy muvofiqliklaridan kelib chikib, asarning badiiy-estetik jihatiga kam e’tibor berganlar. Mazkur yo‘nalishlarni hamda asliyat mansub bo‘lgan xalq moddiy, ma’naviy, siyosiy va iqtisodiy hayoti bilan bog‘liq rango-rang g‘ayrilisoniy omillarni o‘zida aks ettiradigan lisoniy-uslubiy vositalar vazifalarining tarjimada qayta ijodiy yaratilishi masalasi esa tarjimashunoslikning maxsus tadqiqot mavzui sifatida mamlakatimiz ilmiy-adabiy jamoatchiligi e’tiborini keyingi yillardagina o‘ziga torta boshladi.”

Tarjima asarlarning lingvopoetik xususiyatlarini muntazam tadqiq qilib borish, milliy til imkoniyatlaridan tarjimonning qay darajada foydalanayotganligini ilmiy yondashuvlar asosida tekshirish hamda muayyan tamoyillar asosida baholab borish orqali milliy tarjima tilining takomillashuv tarzini aniqlash imkoniga, qiyosiy tilshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik sohasi ilmiy tadqiqot ob’ekti doirasining kengayib borishiga erishish mumkin. Shuningdek, bunday tadqiqotlar natijasida

kitobxonlar uchun tanlash imkoniyati ortadi va bu tabiiy tarzda ularning estetik tafakkurini boyitishga xizmat qiladi.

Yapon adibi Kobo Abening “Qumdagi xotin” romani o‘zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qilingan. Bu asar juda ko‘p tillarga tarjima qilingan va yapon adabiyotining durdona asarlari safiga kiritilgan. “Yaponiyaning zamonaviy adabiyotida Kobo Abe alohida o‘rin tutishi shu bilan izohlanadi. Uning adabiy ijodi, eng avvalo, badiiy tasavvurining o‘ziga xosligi, rivoyatlar va xayolotning bugungi kun voqeligi bilan noyob shakllarda chirmashib ketganligidadir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda yapon avangardi yetakchilaridan biri hisoblangan bu muallifning insonning hali tadqiq etilmagan hayot qirralari betakror usulda kashf etilgan har bir asari faqat Yaponiya adabiy doiralari va kitobxonlari o‘rtasida juda katta qiziqish bilan qarshi olinmasdan, balki jahonning juda ko‘p mamlakatlari o‘quvchilarining e’tiborini jalb qilgan.”

Kobo Abening tadqiqotchilar tomonidan murakkab asar sifatida talqin etiladigan «Qumdagi xotin» romanida inson va olam, shaxsa va jamiyat, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi abadiy ziddiyat hayot-mamot nuqtai nazaridan chuqur tahlil etiladi. Muallif ta’sirchan tasvirlar orqali bu yorug‘ olamda insonning yashashdan asl maqsadi – jamiyatning o‘zi kabi a’zolariga beminnat va beta’ma xizmat qilish, muntazam ezgulikka intilish bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.

Kobo Abening mahorati haqida ba’zi olimlar ham fikr bildirganlar. Jumladan, mashhur rus filologi, sharqshunos olimi N.T.Fedorenko yozuvchi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Abening o‘ziga xos badiiy tasavvurining siri shundaki, yozuvchi noyob shaklda gavdalanish qobiliyatiga ega: u dam Niki Dzyumpey («Qumdagi xotin» romani), dam niqob- odam («Begonaning yuzi» romani), dam qochoqni izlayotgan agent («Yoqib yuborilgan xarita» romani) sifatida, dam yashik-odam («Yashik-odam» romani) sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif badiiy obrazlarda soxta bo‘lmagan chaqqonlik va tabiiylik bilan yo‘g‘irilgan irodani gavdalantirishning uddasidan chiqadi. Bu albatta, muallif pozitsiyasi uning qaxramonlarini g‘oyaviy intilishlari bilan mos tushishini anglatmaydi. Personajlarni jonli va to‘lqqonli qilib gavdalantirish uchun ijodkor ularning xis-tuyg‘ularini boshidan kechirishi, ularning o‘y-hayollariga kirib borishi va atrofdigilar hamda o‘zida chaqiriq topishi lozim. Aynan shu tufayli ijodkor hikoya predmetini o‘z-o‘zining manzarasiga aylantiradi. Kobo Abening

o‘quvchilar orasidagi, jumladan bizning mamlakatda ham mashhurligi shundaki, u nafaqat yuqori malakali yozuvchi, balki o‘z romanlarida insoniyat oldida turgan juda dolzarb muammolarni dadillik va katta jasorat bilan ko‘tarib chiqadi. Uning romanlaridagi asosiy g‘oya bu – insonning yujamiyatdagi jiddiy salbiy illatlar bilan keskin to‘qnashuvi hodisasidir va u holatlarni badiiy qaxramonlarning portretlarini chizish orqali, juda jonli tarzda ifodalab bera olgan»

O‘xshatishlar muayyan bir millatning dunyoga qarash tarzi, tabiat va jamiyatga munosabati, dunyoni anglashdagi o‘zigagina xos tafakkur bichimi va qiyoslash usuli bilan uzviy bog‘liq hodisa hisoblanadi. “Xalqning muayyan predmet, belgi, harakat-holatga munosabati, assotsiativ fikrlash tarzi o‘xshatishlarda namoyon bo‘ladi.”

Tarjima asarlarda har qanday o‘xshatishning asosiy maqsadi asliyatdagi tasavvur qilinishi qiyin bo‘lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini tarjima kitobxon ko‘zi o‘ngida go‘zal bo‘yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Buni asar tarjimasidan olingan quyidagi parchadan ham ko‘rishimiz mumkin: U yer bu yerda qovjiragan giyohlar orolchadek qorayib turar, xuddi bu yerga yanglishib kelib qolgandek mo‘’jazgina majmag‘il baqlajon paykalchalari ko‘rinib qolar edi. (28-b)

Mazkur gapdagi o‘xshatish konstruktsiyada qahramon nigohidagi manzaraning kitobxon ko‘zi o‘ngida ham aniq va ta’sirchan gavdalantirish maqsad qilingani seziladi. Xususan, qovjiragan giyohlarning uzoqdan qaraganda qorayib ko‘rinadigan orolchaga o‘xshatilishi, baqlajon paykalchalarining “bu yerga yanglishib kelib qolgandek” beo‘xshov va omonat ko‘rinishi yozuvchining manzarani usta rassomlardek tasvirlash mahoratidan darak beradi. Tarjimon ham yozuvchining nigohida aks etgan manzarani behad aniq va huzurli ifodalay olgan. Zero “Tarjimondan nafaqat til bilimdoni, balki adabiyotshunos va elshunos bo‘lish ham talab etiladi. Chunki muayyan xalqning madaniyati, assotsiativ tafakkurini chuqur bilmay, til boyligini yaxshi egallamay turib tarjimon badiiy til vositalarini to‘g‘ri tanlay olmaydi, tilning poetik jihatlarini his etmay, oqibatda tarjima to‘g‘ri va ta’sirchan chiqmaydi.”

Ma’lumki, mavjud ko‘pgina tadqiqotlarda qiyoslash bir predmetni boshqasiga o‘xshatishdan iborat stilistik vosita, degan fikr qaror topgan. Ammo bu tadqiqotlarda bunday o‘xshatishlar qaysi maqsadda

qilinayotgani koʻrsatilmaydi. Fikrimizcha, oʻxshatish, eng avvalo, qandaydir belgini hodisaga nisbatlashning muhim vositasidir. Bir predmet yoki hodisani boshqasiga oʻxshatish birdan-bir maqsad boʻlmasdan, shu belgini, yaʼni obrazni taqdim etish vositasidir.

Deyarli koʻpchilik lingvomadaniyatlarda quyosh nuri tigʻ, nayza, nashtar shamshir, xanjar kabi tigʻdor predmetlar asosida konkretlashtiriladi. Bunday oʻxshatishlarda quyosh nurlari oʻxshatiluvchilari "dagʻal" predmetlardir. Yuqoridagi parchada esa quyosh nurlari nisbatan "nozik", "ingichka" predmetga – dasta-dasta oʻtkir ignalarga oʻxshatiladi. Bu ham muallif kuzatishining badiiy jihatdan balogʻatga dahldor ekanligini koʻrsatadi.

Odam, shamol xuddi mashina bilan yasagandek puxta naqsh qilgan jimjimador qumdan yurib ilgarilab ketdi. Birdan koʻz oʻngidagi hamma narsa gʻoyib boʻlib, u oʻzini chuqur oʻra labida koʻrdi. (35-b) Tasvirdagi tiniqlikni koʻryapsizmi? Odamning qum ustida ilgarilab borayotganligini ifodalar ekan, muallif kitobxon eʼtiborini qumdagi estetik shakllarga qaratadi. Qum shunchaki qum emas xuddi mashina bilan yasagandek puxta naqsh qilgan jimjimador qum ekanligini tasavvur qilish kitobxonga ham huzur bagʻishlashi aniq.

Kobo Abening tasvir yaratishdagi muvaffaqiyati shundaki, tasvir obʼektining eng mayda detallarini ham eʼtibordan chetda qoldirmaydi. Masalan bir oʻrinda qumdagi chuqurning chetlarini kosa chetidek silliq va sirgʻanchiq deya detallashtirsa, qahramon ovozini priyomnikdan chiqayotgan shirasiz tovushga oʻxshatadi. Chuqurning xuddi chinni kosa chetidek silliq va sirgʻanchiq, doʻppaygan labida oyoq sirgʻanardi. (36-b) Ovozini yel uchirib ketdi, ovozi xuddi koʻchirma priyomnikdan chiqayotgandek shirasiz, gʻoʻngʻillab eshitilar edi. Ammo soʻzlari dona-dona, tushunib olish qiyin emas edi.(36-b) Hatto soʻlakni ham oʻxshatish qurilma orqali faollashtiradi. Shamolda soʻlak xuddi uzun ipdek choʻzilib ketdi. (37-b) Yoki muomalaning ham turiga koʻra taqsimlab tasvirlaydi. Endi koʻngillari joyiga tushdi shekilli, oddiy baliqchilardek muomala qila boshlashdi. (38-b) Xoʻsh, bunda oddiy baliqchilardek muomala ijobiymi yoki salbiy baho ifodalayaptimi? "Koʻngillari joyiga tushdi shekilli" birikmasi bunday muomalaning ijobiy holat ekanligini taʼkidlab turadi. Yerga toʻshalgan poxol boʻyralar toʻkilay-toʻkilay deb turibdi, oyogʻing tegishi bilan xuddi hoʻl narsani bosgandagidek tovush chiqadi. (41-b) Uy interьeri tasvirida ham datallashtirishga katta eʼtibor qaratgan yozuvchi yerga toʻshalgan

va eskirib to‘kilay-to‘kilay deb turgan bo‘yralardan chiqadigan tovushni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Shuningdek, burgalar chiqarayotgan ovozni ham shu qadar aniq tasvirlaydiki, qaysi millat bo‘lishidan qat’i nazar kitobxon ayni tasvirni o‘qiganda holatni ko‘z oldiga keltira oladi va burgalar ovozini aniq-tiniq eshita oladi: Xotinning taklifi bilan yer o‘choqning oldiga endi o‘tirgan ham ediki, atrofida xuddi yomg‘ir tomchilayotgandek sas eshitildi. Bu g‘ujg‘on o‘ynayotgan burgalar edi. (41-b)

Yapon lingvomadaniyatida sholi va umuman guruch bilan bog‘liq so‘zlar, tushunchalar, o‘xshatishlar talaygina. Yapon oshxonasida guruch non o‘rnini bosadigan yegulik hisoblanadi. Nonushtadan kechgi ovqatgacha har vaqt har dasturxonda albatta guruchli yegulik qo‘yiladi. Bu tabiiy o‘laroq badiiy asarlarga ham kirib borgan. Kobo Abening asarlarida ham guruch va sholi bilan bog‘liq so‘z va tushunchalar ko‘p kuzatiladi. Yo‘q, yo‘q, bular xuddi sholi donasidek keladi, tuslari ham qo‘ng‘ir. – E, shunaqa degin. Bo‘lmasa u kamalak qo‘ng‘iz ekan. (43-b)

Romanning o‘zbekcha tarjimasi so‘z boshisini yozgan professor A.Saidov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Kobo Abeni tushunib yetish uchun u tomonidan tasvirlangan zamin va tabiatga, u o‘sib ulg‘aygan madaniy muhitga murojaat qilish darkor. Yozuvchining vatani – Yaponiya eng qadimiy an’analar, ayni paytda G‘arb madaniyatini o‘ziga faol singdirayotgan davlatdir. Shuning uchun yapon yozuvchisining asarlari ham o‘tmish va zamonaviylikning, Sharq va G‘arbning chorrahasida, savollar va ularga yangi-yangi savollar tug‘diradigan javoblarni taqqoslashda dunyoga kelgan. Yaponiyaning zamonaviy adabiyotida Kobo Abe alohida o‘rin tutishi shu bilan izohlanadi.” Uning asarlaridagi o‘xshatish qurilmalarning mohiyatiga yetib bormoq uchun ham ba’zan yapon lingvomadaniyatidan xabardor bo‘lmoq talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atxamdjanov Q. Yapon tilidan badiiy tarjimada portret yaratish mahorati. Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent, 2014. -B. 33.

2. Kobo Abe “Qumdagi xotin”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 352 b. Tarjimonlar: Vahob Ro‘zimatov, Erkin Ernazarov. So‘zboshi muallifi va mas’ul muharrir: A.X.Saidov.

3. Mahmudov N. O‘xshatishlar va milliy nigoh // Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent:Mumtoz so‘z, 2017.

4. Mahmudov N., Xudoyberganova D., O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: Ma’naviyat, 2013.

5. Saidov A. Kobo Abe: Adabiyot cho‘lquvari. // Kobo Abe “Qumdagi xotin”. – Toshkent:Yangi asr avlodi, 2016.
6. Xudoyberganova D. Matnning antopotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.
7. Yuldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 278.
8. Ashurov D O‘xshatishlar – lingvomadaniy vosita sifatida. – Namangan, 2019. http://library.ziyonet.uz/ru/book/108014
9. Mustaeva G. Lingvistik obraz til va nutq munosabati talqinida. Xorijiy filologiya. No4, 2017. -B.92.
10. Rixsieva G. Tarjima nazariyasi va tanqidi muammolari. Davra suhbati. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2014. 10-son. https://ziyouz.uz/suhbatlar/tarjima-nazariyasi-va- tanqidi-muammolari-davra-suhbati/

INGLIZ SHERIYATI TARJIMASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Mohira OTABOEVA, *O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti*

“Tilning barcha nozik xususiyatlari, fonetikasi, musiqaviy imkoniyatlari, ritmi, tovush va asrlar mobaynida shakllangan lug‘at xazinasi, talaffuz qonuniyatlari – bularning hammasi she’rda bor bo‘yi bilan namoyon bo‘ladi”[1, 32]. Ana shu tilga xos shirani, shoir orqali xalq madaniyatining bir bo‘lagini butunligicha o‘zga tilga o‘girish mumkinmi? Albatta, prozadagi singari poeziyada asliyatga juda yaqin kelish va so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin bo‘lmagan holat. Buni inkor etmagan holda, tarjimaning tub mohiyatini ham unutmaslik kerak. Badiiy tarjima asliyatdan matnni o‘girishdan iborat texnik jarayon emas, bu ijodiy protses.

Jahon adabiyotida o‘z o‘rniga ega ingliz she’riyati ham shu paytga qadar zahmatkash mutartojimlarimiz tomonidan bevosita yoki bilvosita tarjima orqali o‘zbek kitobxoniga havola etilayotir. Ularning asosiy qismi alohida she’riy asar, biroq ingliz adabiyotida asarlar ichida keladigan she’rlar ham borki, ularni ona tilimizga o‘girish o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Bu o‘ziga xoslikni she’rlarning nasr ichida kelishi bilangina izohlash birmuncha yuzaki bo‘ladi, ulardagi vazn,

qofiya hamda she’rlar yozilgan yo‘nalish ham tarjimada muhim ahamiyatga ega. Taniqli angliyalik yozuvchisi Lyuis Kerrollning “Alisa Mo‘jizalar mamlakatida” va “Alisa Ko‘zguorti o‘lkasida” ertaklari ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Zero, “Kerrol prozasi uning she’rlari bilan chambarchas bog‘langan”. [2, 328]

Kerroll yashagan Angliyada she’riyatning sentamentalizm, klassitsizm oqimlari ommalashgan, romantizm esa o‘zining yangi qirralarini namoyon qilib tilga tushayotgan davrda adib she’rlarida ularga murojaat qilmaydi. Uning she’riyatidagi ilk o‘ziga xoslik ham mana shunda. Kerroll she’rlarini o‘qib his-hayajonga berilmaysiz, ta’sirlanmaysiz, hattoki, pand-nasihat ham olmaysiz, ammo kulishingiz, kulganda ham achchiq kulishingiz turgan gap. Adib hayoti va ijodini tadqiq qilgan olima Demurova Kerroll ertaklaridagi she’rlarini tarjima qilishni “o‘ziga xos topshiriq” deya baholab, “ular ba’zan ochiqchasiga, ba’zan to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtibos shaklida, parodiya yoki pardaga o‘rab keltiriladi, allyuziyalar, mug‘obirona hazillar, sezilar-sezilmas qaytariq va chaqiruvlar shaklida ham berilishini” qayd etadi. Adibning ikkala ertaklariga kirgan she’rlarining aksariyati parodiya yo‘lida yozilgan. Parodiyani tarjima qilish doim mushkul ish bo‘lib qaralgan nazariyotchilar tomonidan, negaki har qanday parodiya bir tilda ma’lumu mashhur matnga asoslanadi, tarjima tilida bu matn ko‘pchilikka notanish bo‘lishi mumkin. Taniqli adabiyotshunos, yozuvchi Uorren Uiver o‘zining “Alisa Mo‘’jizalar mamlakatida” tarjimalari haqidagi kitobida Kerrollning bu ertagida she’rlarning katta qismi parodiya ekaniga e’tibor qaratadi. Bu parodiyalarning asliyatlari, deya izohlaydi olim, Kerrolldan avval yoki u bilan bir davrda yashab o‘tgan mualliflarga tegishli. She’rlar asliyatlari o‘rganilganda ular orasida Sauti yoki Jeyn Teylor kabi mashhurlar ham borki, bular “Alisa”ning tengdoshlariga boshqacha aytganda, ingliz bolalariga va kattalarga ham birday tanish edi. Uiver o‘z tadqiqotida parodiyalarni o‘girish metodlarni ham keltirib o‘tadi. “Ingliz tilida hammaga ma’lum matnni parodiya qiluvchi she’rni boshqa tilga o‘girishning uchta yo‘li bor” [3,80] deydi u o‘z tadqiqotida. Ular ichida birinchisi – tarjima tilida mashhur shunga yaqin yo‘sindagi she’rni tanlab, ingliz tilida yozilmagan shu she’rga ingliz muallifiga o‘xshatib parodiya qilish. Rus tarjimonlaridan P.Solovyeva, T.Shepkina-Kupernik ayni shu yo‘ldan borishgan.

Ikkinchi yo‘l esa parodiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘girish. Uiver bu usulni ertakdagi she’r mashhur asliyatga parodiya ekanidan bexabar, bu she’rni shunchaki kulguli va bir oz g‘alati deb bilgan va so‘zma-so‘z o‘giradigan tarjimon tanlasa kerak, deb hisoblaydi. Ma’lumki, Kerrollning ikkala ertagi ham ona tilimizga uch tarjimon – M.Otaboeva (2015, 2020 yillar), M.Zohidova (nisbatan qisqartirilgan shakli, 2016 yili), Sh.Dolimov (“Alisa Mo‘’jizalar yurtida”, 2021) tomonidan o‘girilgan. Mazkur uchchala tarjima ichida M.Zohidovaning varianti ertakning ancha qisqartirilgan shakli bo‘lgani bois unda she’rlar tushirib qoldirilgan. Qolgan ikki tarjimada she’rlar yuqorida Uiver taklif qilgan ikkinchi usul orqali o‘girilgan.

Uchinchi yo‘lni tanlagan tarjimon shunday deydi: “Bu nonsens she’r. Men nonsensni o‘z tilimga o‘girolmayman, ammo o‘z tilimda boshqa nonsens-she’r yozib, asliyatning o‘rniga matnga qo‘sha olaman”. S.Ya. Marshak 1967 yiliyoq ertaklardagi she’rlarni ayni yo‘sinda o‘girgan. Ta’kidlash joizki, Marshakning bu she’rlari allaqachonoq rus kitobxoni uchun o‘zlashib ketgan.

Kerroll she’rlarida milliy folklordan nafaqat obrazlar olishda foydalangan, balki talay she’rlarning ritmi, vazni ham aynan folklor uslubini eslatadi. Masalan, Adi-Badi tilidan aytilgan mazkur she’rdan bir parcha keltirsak:

‘I sent a message to the fish:
I told them, «This is what I wish.»
The little fishes of the sea,
They sent an answer back to me.
The little fishes answer was
«We cannot do it, Sir, because – »
‘I sent to them again to say
«It will be better to obey.»
The fishes answered with a grin,
«Why, what a temper you are in!»
I told them once, I told them twice:
They would not listen to advice.
I took a kettle large and new,
Fit for the deed I had to do.
My heart went hop, my heart went thump;
I filled the kettle at the pump.

Bu parchadan ma’lumki, she’rda ortiqcha mubolag‘a, bezaklarsiz voqea bayoni sodda tarzda berilgan va u quyidagicha o‘girildi:

Men xat yozdim baliqqa,
Bitdim istagim haqda.
Dengizdagi baliqlar
Menga javob yozdilar.
Shunday edi bu javob:
“Bajarolmaymiz, janob...”.
Xat yozdim yana bir bor,
Dedim: “Bo‘ysunmoq darkor”.
Mayna qildi baliqlar:
“Qahr neni hal qilar?”
Yozdim tag‘in, ikki bor,
Maslahat qilmadi kor.
Toqat bo‘ldi asti toq,
Oldim chovgum, qo‘lga boq.
Yurak o‘ynardi shu dam,
Chovgumga to‘ldirdim dam. [4, 66]

Asliyatdagi so‘nggi ikki qator qolganlaridan uzun esada, o‘zbekchalashtirayotib ma’nodan qochmagan holda ritmni bir xil bo‘lishini ta’minlangan. Ingliz tilida “thump” “pump” so‘zlari bilan qofiya keltirilgan, birinchi so‘z yurakning gursillab beqaror urishini anglatsa, ikkinchisi, dam, puflab nafas berib to‘ldirishni anglatadi. O‘zbek tilidagi “dam”omonim so‘zi bilan qofiyalar saqlanib, ritmga ham putur yetmagan. She’riy tarjimalargagina xos yana bir hodisa borki, uni qo‘llash orqali tarjimon ayrim leksik va grammatik o‘zgarish, to‘g‘rirog‘i tushirib qoldirishlar qilishi mumkin. Bu metod transformatsiya deb nomlanib, Sh.Dolimov tarjimasidagi “Alisa Mo‘’jizalar yurtida” ertagining 12 bobidagi quyidagi she’r tarjimasida buni ko‘rish mumkin:

Chillaklaru qarg‘alardan kelmadi yordam,
Men bilan bo‘lmassan nechundir, hardam.
Dam u bilansan sen, qiziq, dam bu bilan.
Tuturig‘ing bormi o‘zi? Shu haqda o‘ylan.
Ko‘z yoshi ko‘liga sho‘ng‘ib chuqurroq
Ketaman suzib, sendan uzoqroq
Baqirib-chaqirib aytan gapimni
So‘ng o‘ynab-kulay sensiz tuzukroq.

Hoʻngrab sen ortimdan tentakday goʻyo

Qolaver qalbing qotib, boʻlib moʻmiyo.[5, 91]

Avvalo, mutarjim ertakni bilvosita rus tilidan (A.Dantonov tarjimasi) oʻgirganini eʼtiborga olish lozim. Solishtirish uchun Dantonov tarjimasini koʻramiz :

Не могла мне трефы, ни пики.

Завтра ты с тем, а сегодня ты с этим.

Как мне сказать, не совравшись до крика

Зная, что слишком уж я неприметен?

Ну, а потом? Где возможность для бегства?

На берегу я назначу тебе рандеву.

Озеро слёз – подходящее место.

Выскажу всё, да и прочь уплыву.

Лягу на дно, как подводная лодка,

Там ты уж точно не станешь искать.

Будешь рыдать и страдать, сумасбродка!

Только б придумать мне, как там дышать…

Dolimov tarjimasida ikki misrani “qurbon” bergan. Ingliz sheʼriyatida transformatsiyani qoʻllashning ikki xil usuli mavjud. Birinchisida, “Mexanik tarzda tushirib yuborish”, bu holatda asliyatdagi unsurni tarjimada berishning iloji boʻlmasa, bunga vazn va oʻlchov yoʻl qoʻymaydi. Ikkinchi usul, Dolimov qoʻllagani “ijodiy tushirib qodirish” deb ataladi. Bunda sheʼrning umumiy maʼno kontekstiga zarar yetmagani, ritmi buzilmagani esa mutarjimning yutugʻi deyish mumkin.

Poeziyadagi – alliteratsiya hodisasidan Kerroll asarlaridagi sheʼrlarda unumli foydalanilgan. Alliteratsiya ohangdorlikni taʼminlab, his-hayajonni kuchaytirishga xizmat qiladi. U oʻquvchi diqqatini oshirib, misralarni oson yodda saqlashga yordam ham beradi.

I took a corkscrew from the shelf:

I went to wake them up myself.

And when I found the door was locked,

I pulled and pushed and kicked and knocked.

And when I found the door was shut,

I tried to turn the handle, but– [6, 63]

Adibning “Alisa Koʻzgu orti oʻlkasida” ertagidagi Adi-Badi tilidan aytilgan bu sheʼriy parchadagi toʻrtinchi qatorda pulled, pushed, kicked, knocked va tried to turn soʻzlari bilan alliteratsiya hosil qiladi. Tarjima jarayonida doim ham alliteratsiyani saqlab oʻgirib boʻlmaydi, shuning

uchun alliteratsiyani sun’iy hosil qilish asliyatga putur yetkazishini unutmaslik lozim:

Qalamtaroshni olib,
Uyg‘otishga bordim men.
Eshik berkligin ko‘rib,
Tepdim darg‘azab bo‘lib.
Qulflangan ekan u,
Tutqichidan tortdimu...

Tarjimada aynan asliyatdagi so‘zlardan alliteratsiya hosil qilinmasada, boshqa mavjud so‘zlar bunga imkon berishi mumkin. Keltirilgan muqobil tarjimada ham shunday yo‘l tutilgan, ya’ni “Tutqichidan tortdimu...” bu so‘zlar asliyatda alliteratsiya qilinmagan biroq o‘zbekchalashtirayotib bunday yondashuv she’rning jozibali chiqishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida, ingliz tilidan Shekspir sonetlarini rus tiliga mohirona o‘girgan olim A.M. Kapulenkoning quyidagi poeziya tarjimasining eng muhim vazifasi asliyatdagi ohangni tarjimada qayta yaratish ekanini [7,22] ta’kidlashni istardik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Саломов Ғ, Комилов С., Дўстлик кўприклари. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
2. Демурова Н., Оперевода сказок Кэрролла. – М.: Наука, 1991.
3. W. Weaver. Alice in Many Tongues. – Mansfield Centre: Martino publishing, 2006.
4. Lyuis Kerroll. Alisa Mo’jizalar mamlakatida. M.Otaboyeva tar. – T:. Yangi asr avlodi, 2020.
5. Kerroll L., Alisa mo’jizalar yurtida. (Tarjimon Sh.Dolimov) – Art Nation, 2021.
6. Carroll L., Through the Looking-Glass and what Alice found there. – M.: Айрис пресс.
7. Капуленко А.М. Некоторые проблемы репродукции поэтический интонации при переводе с английского на русский. Вопросы теории и практики перевода. – Иркутск.; сбр. Науч. Трудов-вып. 2. 1999.

XITOY TILI HARAKAT YO‘NALISHI FE’LLARINING MODIFIKATORLIK XUSUSIYATLARI

Shahbora MUXAMEDJANOVA, *TDSHU tayanch doktoranti*

Xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe’llari gapda mustaqil ma’noga ega fe’l-kesim vazifasida keladi. Bu mustaqil fe’llar harakatni ifodalovchi yetakchi fe’lga birikib ko‘makchi fe’l vazifasida ham qo‘llana oladi. Bunday leksik birliklarni xitoy tilida ikki bo‘g‘inli fe’llar deyiladi.

Harakat yo‘nalishi fe’llari ko‘makchi fe’l bo‘lib kelganda, 补语 *bǔ yǔ* yo‘naltiruvchi morfema vazifasini bajaradi. Xitoy tili grammatikasida bu morfema *yo‘naltiruvchi qo‘shimcha bo‘lak*, *modifikator* [1], *oriyentatsion modifikator* yoki *yo‘naltiruvchi morfema* [3], *qo‘shimcha element* [4] deb ataladi. Qayd qilingan terminlar orasida keskin farq yo‘q. Ushbu ishimizda *modifikator* terminidan foydalanildi va harakat yo‘nalishi fe’llarining modifikator vazifasidagi xususiyatlari tadqiq qilindi.

Xitoyshunos olim A.A. Dragunov xitoy tilidagi fe’llarni ikki guruhga bo‘lib, ularni harakatni ifodalovchi fe’llar va harakatni ifodalamaydigan fe’llarga ajratib, harakatni ifodalamaydigan fe’llar harakat hisob so‘zlar, shuningdek, fe’l affiksi 了 *le* bilan birga qo‘llanilmaslgi bilan harakatni ifodalovchi fe’llardan ajralib turishini qayd etib o‘tgan. Shuningdek, harakatni ifodalovchi fe’llar o‘z ichida bir qancha guruhlarga bo‘linib, ulardan biri harakat yo‘nalishi fe’llari guruhidir. A.A. Dragunov fikricha, harakat yo‘nalishi fe’llarining o‘ziga xos grammatik jihati shundaki, ular gapda harakat fe’llari bilan birga kelib *morfem-modifikator* vazifasini bajara oladi. A.A. Dragunov o‘z ishlarida tarkibida harakat yo‘nalishi fe’llari modifikator vazifasida kelgan qo‘shma fe’llar fonetik jihatdan, ya’ni birinchi bo‘g‘inga, asosiy morfemaga urg‘u tushishi bilan ajralib turishiga alohida e’tibor qaratib o‘tgan.

Tarkibida harakat yo‘nalishi fe’llari modifikator vazifasida kelgan qo‘shma fe’llar fonetik jihatdan, ya’ni birinchi bo‘g‘inga, so‘zning asosiy morfemasiga urg‘u tushishi bilan ajralib turadi, masalan, 拿来 [‘ná lái] “olib kelmoq”, 跑出去 [‘pǎo chūqù] “yugurib chiqib ketmoq” va sh.k. Natija fe’llarida esa aksincha, masalan, 念完 [niàn wán] “o‘qib tugatmoq” kabilarda urg‘u morfem-modifikatorga tushadi [1, 121].

T.P. Zadoyenko va Xuan Shuinlarning yozishicha, xitoy tilida harakat mazmunini ifodalovchi va harakat yo‘nalishini ko‘rsatuvchi fe’llar mavjud [5, 246]. Mualliflar bu turdagi fe’llarni ikki guruhga ajratishadi. Birinchi guruhga makondagi harakatni ifodalovchi 7 ta fe’l kiritilgan: 进 “kirmoq”, 出 “chiqmoq”, 下 “tushmoq”,

上 “ko‘tarilmoq”, 回 “qaytmoq”, 过 “kesib o‘tmoq”, 起 “ko‘tarilmoq”. Ikkinchi guruhda so‘zlovchiga qaratilgan harakatni ifodalovchi 2 ta fe’l – 来 “kelmoq” va 去 “ketmoq” qayd qilinadi [5, 246]. Yuqorida qayd etilgan 9 ta fe’lning barchasi ikki vazifada qo‘llanilishi mumkin:

1) mustaqil fe’l vazifasida;

2) modifikator vazifasida, ya’ni boshqa bir fe’lga bog‘lanib, harakat yo‘nalishini aniqlashtirib keladi.

Misol uchun:

他来了。[Tā láile] *U keldi*. (Bu yerda 来 mustaqil fe’l vazifasida kelmoqda.)

他跑来了。[Tā pǎo láile] *U yugurib keldi. (*Bu yerda yetakchi fe’l 跑, 来 esa modifikator, u harakatning so‘zlovchi tomon qaratilganligiga ishora qilib, ko‘makchi fe’l vazifasida kelmoqda.)

Mualliflar birinchi guruh fe’llarini shartli ravishda *jin* guruhi deb nomlaganlar. Shuningdek, modifikator bir bo‘g‘in yoki ikki bo‘g‘indan tashkil topishiga ko‘ra harakat yo‘nalishini ifodalovchi sodda va murakkab vositalarga bo‘linishini ta’kidlab o‘tishgan. Harakat yo‘nalishini ifodalovchi murakkab vositalar ikki modifikatorga ega bo‘lib, uning tartibi quyidagicha: avval *jin* guruhi modifikatori, keyin esa 来 va 去 qo‘llaniladi. Bu ko‘rinishdagi ikki bo‘g‘inli modifikator harakatning yo‘nalishini ham joyga, ham so‘zlovchiga nisbatan yanada aniqroq ifodalab kelishga xizmat qiladi [5, 321-322]. Masalan:

走进来 *[zǒu jìnlái] yurib kirib keldi (bu yerga);*

走进去 *[zǒu jìnqù] yurib kirib ketdi (u yerga);*

拿回来 *[ná huílái] qaytarib olib keldi (bu yerga);*

拿回去 *[ná huíqù] qaytarib olib ketdi (u yerga).*

Demak, harakat yo‘nalishini ifodalovchi modifikatorlar sodda va murakkab shaklga ega. Gapda sodda yoki murakkab modifikatorlardan birini tanlash zarurati bo‘lganda, gapning sintaktik qurilishiga va ohangiga e’tibor qaratish lozim. Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, harakat yo‘nalishini ifodalovchi modifikatorlar bilan to‘ldiruvchi yoki boshqa bir so‘z, iboraning qo‘llanilishi ba’zida gapda sodda yoki murakkab modifikatordan qay birini qo‘llash lozimligini ko‘rsatadi [6, 571].

Du Xunszyunning tadqiqotida xitoy va rus tilshunoslarining gapda harakat yo‘nalishi fe’llarining qo‘llanilishiga oid nazariy qarashlari o‘rganilgan [2, 199]. Uning ko‘rsatishicha, xitoy tili grammatikasining

barcha mualliflari harakat yo‘nalishi fe’llarining boshqa fe’lga nisbatan prepozitiv yoki postpozitiv joylashuviga ko‘ra mustaqil va ko‘makchi fe’l vazifalarini ajratadilar. Ko‘makchi fe’l boshqa fe’l yo‘nalishini aniqlashtirish yoki ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shuning uchun bularga gapdagi sintaktik vazifasidan kelib chiqib, mustaqil fe’l yoki ko‘makchi fe’l sifatida qarash lozim [2, 42]. Agar harakat yo‘nalishi fe’li gapda modifikator vazifasini bajarsa, to‘ldiruvchi yetakchi fe’l va modifikatorning o‘rtasida keladi. Masalan:

小孩儿来了 *[xiǎo hái’ér láile] Bola keldi.*

小孩儿跑来了 *[xiǎo hái'ér pǎo láile] Bola yugurib keldi.*

小孩儿跑进来了 *[xiǎo hái'ér pǎo jìnláile] Bola yugurib kirib keldi.*

Birinchi gapda harakat yo‘nalishi fe’li 来 [lái] oriyentirga tomon harakatni bildirib, mustaqil fe’l sifatida kesim vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi gapda esa 来 [lái] oriyentirga tomon harakatni ifodalab, modifikator sifatida murakkab fe’l tarkibida qo‘llanilgan: 跑来 [pǎo lái] – mustaqil ma’noga ega harakat fe’li 跑 [pǎo] “yugurmoq” va modifikator 来 [lái] dan tashkil topgan; bunda 跑 pǎo “yugurmoq” fe’lidan keyin kelayotgan 来 [lái] uning yo‘nalishini ifodalamoqda. Uchinchi misolda 进来 [jìnlái] harakat yo‘nalishini ifodalovchi murakkab vosita – modifikator sifatida oriyentirning ichiga tomon harakatni bildirib, 跑 [pǎo] “yugurmoq” harakat fe’li bilan birikkan holda uch bo‘g‘inli “yugurib kirib kelmoq” fe’lini hosil qilgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, A.A. Dragunov harakatni ifodalovchi fe’llarni to‘ldiruvchi bilan birika olish va birika olmaslik xususiyatiga ko‘ra, shartli ravishda o‘timli va o‘timsiz fe’llarga ajratgan [1, 113-127].

O‘timsiz fe’llar tarkibida harakat yo‘nalishi fe’llaridan iborat fe’l guruhi ajratiladi. Bular 出 [chū], 进 [jìn], 上 [shàng], 下 [xià], 到 [dào], 来 [lái], 去 [qù] va boshqalar. Bunday fe’llar fe’l suffiksi 着 [zhe] bilan yasalmaydi, boshqa fe’llar bilan birga kelib, modifikator vazifasini bajaradi va h. Harakat yo‘nalishi fe’llarining o‘ziga xos grammatik jihati shundaki, ular gapda harakat fe’llari bilan birga kelib morfem-modifikator vazifasini bajara oladi (拿来 [ná lái] “olib kelmoq”, 跑出去 [pǎo chūqù] “yugurib chiqib ketmoq”, 走到 [zǒu dào] “yurib bormoq”), shuningdek, boshqa semantikaga oid fe’llar bilan ham

qo‘llanila oladi (想起来 [xiǎng qǐlái] “eslamoq”, 关上 [guānshàng] “yopmoq” [1, 121]).

Modifikatorlar yo‘nalish va natija ma’nolarini ifodalab kelganda semantik jihatdan gapning muayyan elementi bilan semantik munosabatda bo‘ladi. Modifikatorlarning semantik yo‘nalishi nisbatan sodda. Ularda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. O‘timli fe’ldan keyin modifikatorlarning semantikasi harakatni qabul qiluvchi bo‘ladi. Masalan:

(1) 小明从图书馆借来一本书 [6, 570]。 （小明-借， 一本书-来）

[Xiǎomíng cóng túshū guǎn jiè lái yī běn shū]

Siaomin kutubxonadan bitta kitobni ijaraga olib keldi.

(小明 [Xiǎomíng] – bu yerda 借 [jiè] jie bilan munosabatga kirishmoqda, 一本书 [yī běn shū] esa [来] bilan.)

(2) 我从商店买去了两斤苹果 [6, 571]。（我-买，苹果-去）

[Wǒ cóng shāngdiàn mǎi qùle liǎng jīn píngguǒ]

Men do‘kondan ikki qadoq (1 kg) olma sotib oldim.

Demak, yuqoridagi misollarda *kitobni ijaraga oldim* va *olma sotib oldim* harkatni qabul qilinayotganini ifodalamoqda.

2. O‘timsiz fe’ldan keyin kelgan modifikator semantikasi harakatni bajaruvchi bo‘ladi. Masalan:

(1) 气球慢慢地升起来了 [6, 571]。 （气球-升，气球-起来）

[Qìqiú màn man de shēng qǐláile. (Qìqiú-shēng, qìqiú-qǐlái)]

Havo shari sekin-asta ko‘tarila boshladi. (Havo shari – ko‘tarildi, havo shari – ko‘tarila boshladi).

(2) 前面走过来一个人 [6, 571]。 （人-走，人-过来）

[Qiánmiàn zǒu guòlái yīgè rén. (Rén-zǒu, rén-guòlái)]

Old tomondan bir kishi yurib keldi. (Kishi – yurdi, kishi – keldi).

Xitoy tilida modifikatorlar tarkibi jihatdan sodda va murakkab ko‘rinishda bo‘lib, harakat yo‘nalishini ifodalovchi sodda va murakkab modifikatorlarning ma’nolari, ayniqsa, ulardagi yo‘nalish hamda asosiy natija ma’nolari o‘zaro o‘xshash. Gapda sodda yoki murakkab modifikatorlardan birini tanlash zarurati bo‘lganda, gapning sintaktik qurilishiga va ohangiga e’tibor qaratish lozim. Harakat yo‘nalishini ifodalovchi modifikatordan so‘ng to‘ldiruvchi kelmasa yoki harakat yo‘nalishini ifodalovchi modifikator gap oxirida kelsa, murakkab modifikator qo‘llaniladi (“上”, “开” dan tashqari). Biroq harakat

yo‘nalishini ifodalovchi modifikatordan so‘ng to‘ldiruvchi yoki boshqa bir so‘z, ibora keladigan bo‘lsa, ham sodda, ham murakkab modifikatordan foydalanish mumkin. Masalan:

(1) 办法我**想出来**了 [6, 572]。 [Bànfǎ wǒ xiǎng chūláile]

*办法我**想出**了。 [Bànfǎ wǒ xiǎng chūle]

Men yechim o‘ylab topdim.

(2) 我们要团结起来 [6, 573]。 [Wǒmen yào tuánjié qǐlái]

*我们要**团结起**。 [Wǒmen yào tuánjié qǐ]

Biz birlashmog‘imiz lozim.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, gapda harakat yo‘nalishini ifodalovchi modifikatordan so‘ng to‘ldiruvchi qo‘llanilmagan va ko‘makchi fe’l gap oxirida kelmoqda, shuning uchun murakkab modifikatordan foydalanilgan.

(3) 上课了，学生们从外面**走进来**了[6, 573]。

[Shàngkèle, xuéshēngmen cóng wàimiàn zǒu jìnláile]

Dars boshlandi, o‘quvchilar tashqaridan kirib kelishdi.

上课了，学生们从外面**走进**了教室。

[Shàngkèle, xuéshēngmen cóng wàimiàn zǒu jìnle jiàoshì]

Dars boshlandi, o‘quvchilar tashqaridan sinf xonasiga kirib kelishdi.

Birinchi misolda harakat yo‘nalishini ifodalovchi murakkab modifikator qo‘llanilgan bo‘lsa, ikkinchi gapda sodda modifikatordan foydalanilgan. Chunki ko‘makchi fe’ldan so‘ng o‘rin-joy holi bo‘lib 教室 *jiàoshì sinf-xona* so‘zi kelgan.

(4) 听到这个消息，大家都高兴地**唱起来**了 [6, 573]。

[Tīng dào zhège xiāoxī, dàjiā dōu gāoxìng de chàng qǐláile]

Bu xabarni eshitgach, barcha xursand bo‘lib (bo‘lgancha) kuylay boshlashdi.

他一高兴，**唱起**歌（来）就没完。

[Tā yī gāoxìng, chàng qǐ gē (lái) jiù méiwán]

U xursandligidan (xursand bo‘lishi bilanoq) qo‘shiq kuylashni boshlab hech to‘xtamadi.

Yuqoridagi misolda esa 唱起 [chàng qǐ] “kuylashni boshlamoq” fe’lidan so‘ng 歌[gē] “qo‘shiq” so‘zi to‘ldiruvchi vazifasida kelmoqda. Shuning uchun ko‘makchi fe’l qavs ichida ko‘rsatilgan, ya’ni bu

o‘rinda harakat yo‘nalishini ifodalashda ham sodda, ham murakkab modifikatordan foydalanish mumkin.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagilarni xulosa sifatida keltirish mumkin.

1. Harakat yo‘nalishini ifodalovchi ko‘makchi fe’llar xitoy tili grammatikasida *yo‘naltiruvchi qo‘shimcha bo‘lak, modifikator, oriyentatsion modifikator, yo‘naltiruvchi morfema, qo‘shimcha element* terminlari bilan yuritiladi. Materiallar tahlili *modifikator* terminidan foydalanish o‘rinli ekanligini ko‘rsatadi. Zero, yetakchi fe’llar o‘z leksik ma’nosini saqlaydi, ko‘makchi fe’llar esa ularga qo‘shimcha ma’nolar beradi, bu ma’nolar harakat ma’nosining modifikatsiyasi bo‘lib, uning makonga yo‘naltirilganligini ifodalaydi.

2. Xitoy tilida harakat yo‘nalishi qo‘shma fe’llarida yetakchi fe’l makondagi harakatlanishni ifodalaydi, harakat yo‘nalishi esa modifikator vazifasidagi ko‘makchi fe’llar orqali amalga oshiriladi. Bu modifikatorlar struktur jihatdan sodda va murakkab bo‘ladi.

3. Modifikator bir bo‘g‘in yoki ikki bo‘g‘indan tashkil topishiga ko‘ra harakat yo‘nalishini ifodalovchi sodda va murakkab vositalarga bo‘linadi Harakat yo‘nalishini ifodalovchi sodda va murakkab modifikatorlarning ma’nolari o‘xshash. Gapda ulardan qay birini qo‘llash gapning sintaktik qurilishi, ohangi va modifikatorning gapdagi o‘rniga bog‘liq;

4. Harakatni ifodalovchi fe’llar to‘ldiruvchi bilan birika olish va birika olmaslik xususiyatiga ko‘ra, shartli ravishda o‘timli va o‘timsiz fe’llarga ajratiladi. O‘timli fe’ldan keyin modifikatorlarning semantikasi harakatni qabul qiluvchi, o‘timsiz fe’ldan keyin kelgan modifikator semantikasi harakatni bajaruvchi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Драгунов А.А. Исследования по грамматике современного китайского языка. Ч.1. – М.: Ленинград, 1952.

2. Ду Хунцзюнь. Система приставочных глаголов движения в русском языке в сопоставлении с китайским языком: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2010.

3. Тань Аошуан. Проблемы скрытой грамматики: синтаксис, семантика и прагматика языка изолирующего строя (на примере китайского языка) / Тань Аошуан. – Москва: Языки славянской культуры, 2002.

4. Хаматова А.А. Словообразование современного китайского языка. – Москва: Муравей, 2003.

5. Задоенко Т.П., Хуан Шуин. Начальный курс китайского языка. Ч.2. Изд. 2-е, стер. − М.: Муравей, 2004.

6. 《实用现代汉语语法(增订本)》刘月华，潘文娱，故桦. 北京 2013.
7. 刘月华，潘文娱，故桦 Liu Yuehua, Pan Wenyu, Gu Hua. 《实用现代汉语语法 (Amaliy zamonaviy xitoy tili grammatikasi)》. 北京: 商务印书馆, 2013.
8. 吕叔湘 Lu Shuxian. 现代汉语八百词 (Hozirgi xitoy tilining 800 ta so‘zi),. -北京: 商务印书馆, 1997.
9. 马烧莹 Ma Shaoin. 现代汉语趋向动词语义研究. Hozirgi xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe’llari semantikasi tadqiqi. Magistrlik ishi. – Fudan universiteti, 2004.
10.散文佳作 108 篇 108 шедевральных саньвэней /乔萍等编著 под редакцией Цзяо Пин. – 南京:译林出版社, Нанкин: Илинь, 2009.
11.张发明 Zhang Faming. 趋向动词“来”“去”新义 (“来” va “去” harakat yo‘nalishi fe’llari haqida yangi tushunchalar”)// 1983.

OYBEKINING “A.NAVOIY” ROMANI ARABCHA TARJIMADA PORTRET TASVIRINING BERILISHI MASALASIGA DOIR

Nuriddin ZABIXULLAYEV, *TDSHU tadqiqotchisi*

Portret – adabiy asarda qahramon tashqi ko‘rinishining tasviri: uning yuzi, qad-qomati, kiyimi, xatti-harakati tasviridir. Adabiyotda ko‘p uchraydigan psixologik portret orqali adib qahramonning tashqi ko‘rinishi orqali uning ichki dunyosi va xarakterini yashirishga harakat qiladi [1,325]. Adabiyotshunoslik atamalari lug‘atida portretga quyidagicha ta’rif beriladi: “Portret (fr. portraire – tasvirlamoq) personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozision unsuri bo‘lmish tavsifning bir ko‘rinishidir [2, 226].

Badiiy asarda inson obrazi yaratishning muhim vositasi hisoblangan portretni tarjimada to‘laqonli qayta yaratish uchun “tarjimon asar muallifi qo‘llaydigan individual usullar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi, har bir portret tasvirining xarakterga aloqador nuqtalari, milliy xususiyatlariga diqqat qaratishi, portretdagi har bir detalning mazmun-mohiyati va vazifalarini aniqlashi kerak bo‘ladi”

[3,96]. Tarjimashu-noslar portret xarakteristikasini shartli ravishda bir necha guruhga ajratadilar. Ulardan biri personajning tashqi qiyofasi, egnidagi libos, unga tegishli bo‘lgan ashyolar tafsilotini o‘z ichiga olgan ko‘rinishli portret xarakteristikalaridir. Yana biri – personajning holati tasviri bo‘lib, bunda uning tashqi ko‘rinishidagi o‘zgarishlar vositasida ichki dunyosiga kirib boriladi. Bu yerda personajga beriladigan ma’naviy-axloqiy ta’rif muhim ahamiyat kasb etadi.

Oybekning “Navoiy” romani olinadigan bo‘lsa, unda portret xarakteristikasi asar personajlarining ijtimoiy holatlarini ta’kidlash uchun ham xizmat qilgan. Romanda personajlarning ijtimoiylik kasb etuvchi tashqi qiyofalari tasviriy-ifodaviy vositalar yordamida aks ettirilgan. Asar tuzilishining ajralmas qismi bo‘lgan portret tavsifi qahramonlarning ichki dunyosi, qay toifaga mansubligini ko‘rsatuvchi muhim vosita, ichki madaniyati o‘lchovi bo‘lib xizmat qilgan.

Tarjimon ijodiy ishga kirishishdan oldin badiiy asar matnini to‘la tahlil qiladi, barcha “ikir-chikir”larini tushunish, til xususiyatlarini keng badiiy mushohada va mulohaza etishga harakat qiladi, keyin hal qiluvchi vaziyat: tarjima tilining zarur ifoda vositalari, adabiy mezonini tanlaydi.

Portret, so‘zsiz, insonlar obrazini yaratishning muhim vositasi hisoblanadi. Biroq, unda adabiy qahramon muallif “ko‘zi bilan” ko‘rib, qabul qilinadi. Qahramon xarakteri esa uning nutqi, hatti-harakatlari, amallari, shuningdek, o‘sha qahramonning o‘ziga xos ruhiyati va tafakkurida yanada kengroq ochiladi va namoyon etiladi. Agar portretning qayta yaratilishi tarjimondan asliyat uslubi, mumtoz so‘z san’ati an’analari, tashqi ifodaviy vositalarni bilishdan tashqari har bir ikir-chikirning ichiga kirib borgan holda uni tushunish anglash, boshqacha aytganda, adabiy qahramonning ruhiy olamiga, tafakkuriga chuqur kirib borishni ham talab etadi. Bu demak, tarjimon inson xarakterining shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy turmush sharoitlari, urf-odat va an’analar, odob-axloq me’yorlari, e’tiqod xususiyatlarini hisobga olish demakdir.

Epizodik personajlar haddan tashqari ko‘p ishtirok etgan “Navoiy” romanida liboslar tasviri personajlarni tavsiflashning yagona vositasi hisoblanadi. Bunda yozuvchi mahorati hammani lol qoldiradi. Asarni o‘qiyotib voqealar manzarasi xuddi film singari o‘quvchining ko‘z oldidan birin-ketin o‘tadi. So‘z bilan portret chizish san’atida

Oybekning oldiga tushadigan adib kamligini yozuvchi ijodi bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar qayta-qayta ta’kidlashgan.

“Navoiy” romanida shunday bir jumla bor: “*Uchinchi talaba ikki yil burun Shahrsabzdan tahsil uchun kelgan do‘ng peshonali, miqti gavdali, o‘tkir, yirik ko‘zli o‘n sakkiz yashar Sultonmurod edi”[4, 8]*. Ushbu jumla arab tiliga quyidagicha o’girilgan: و الطالب الثالث هو سلطان مراد و كان في الثامنة عشرة قوي البنيان و عريض الجبين عيناه واسعتان معبرتان . و قد جاء إلي المدرسة قبل عامين قادما من شهرسبز. [5, 15]

Arab tarjimoni “*Shahrsabzdan tahsil uchun kelgan do‘ng peshonali, miqti gavdali, o‘tkir, yirik ko‘zli o‘n sakkiz yashar Sultonmurod*” portretini arab tilida ham ishonchli, ham asliyat jumlasining biron bir tafsilotini e’tibordan chetda qoldirmasdan maromiga yetkazib bera olgan.

“Navoiy”dagi portretlarda shohona kiyingan aslzodalar va odmi, yupun kiyingan mehnatkashlar qarama-qarshi qo‘yiladi. Libos tasvirida turli tabaqaga oid kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy kontrast yaqqol namoyon bo‘ladi. Romanda personajlarlarning ijtimoiy holati ularning ustidagi kiyimlar tasviri orqali beriladi.

Tarjima, bir qarashda, oddiy ish jarayoniga o‘xshasada, asar boshqa tilda qayta yaratilar ekan, tarjimon ijodiy vazifa bilan band bo‘lib, muallif singari har bir so‘z, birikma, jumla uchun barcha mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Demak, tarjimon asliyatni yozuvchi yoki shoir sifatida o‘qib, idrok eta olsagina, uni muvaffaqiyat kutadi. Agar tarjimon so‘z zamiridagi muallif ko‘rgan narsani ko‘rmas, u his qilgan narsani tuymas ekan, tarjimada so‘z qanchalik maqbul o’xshashi tanlangan bo‘lmasin, ma’no anglashilmay qolaveradi.

Tarjimon ikki tilni mukammal biluvchi mutaxassis bo‘lishdan tashqari ikki tilda so‘zlashuvchi millat kishilarining psixologiyasini biluvchi mutaxassis ham bo‘lishi lozim. Bu o‘rinda tadqiqotchi G.Odilovaning quyidagi fikri o‘rinli: “Tarjimon nafaqat so‘z ustasi, balki kuchli psixolog sifatida ikki tildagi millat kishilarining psixologiyasini o‘rganishi shart... Zarurat tug‘ilganda asliyat tilida normal hisoblangan, ammo tarjima tilida kitobxon “hazm qila olmaydigan” so‘zu jumlalardan qochish, ularni asar mazmunidan uzoqlashmagan holda muqobilari bilan almashtirish ma’qul yechim sanaladi” [6, 21].

“Navoiy” romanida portret tasviri alohida ahamiyat kasb etadi. Adib har bir personaj portretini batafsil tasvirlab, uning qanday

tabaqaga mansubligi, shaxsiyati, xarakterini portret orqali ifodalaydi, har biriga alohida urg‘u beradi: “*Uning orqasida beklar, sardorlar, sulton xonadonining yaqin aqrabolari Xurosonning yuksak oilalariga mansub bo‘lgan, saroyning husni, podshohning ziyofat va majlislari uchun hashamat, dabdaba berishgagina xizmat qiladigan duxoba qalpoqli, movut chakmonli, nozik ishlangan qimmatbaho kamarlar taqqan yosh nozanin yigitchalar to‘p-to‘p bo‘lib, otlarini gijinglatib turardilar” [7,* 63*].* Ushbu parchada beklar, sardorlar, sulton xonadoniga xizmat qiladigan yigitlarning tashqi ko‘rinish tasvirlangan. Asliyat matnidagi ushbu muallif jumlasi arabcha tarjimada quyidagicha beriladi: وتأتي أيضًا فصائل الشبان الرشيقين في قبعات مخملية وقفطانات من الجوخ مشدودة بأحزمة من لأحجار الكريمة، هم أنجال أسر خراسان الكريمة استدعوا الي الخدمة زينة للقصر، واضفاء للمزيد من اللمعان والأبهة علي استقبالاته . بعض الضباط ينطلقون الي هنا وهناك نلوحين بالسياط، و يعلنون عن خروج السلطان في حملة، و يلزمون راكبي الخيول والحمير بأن يترجلوا، والمشاة بالالتصاق بالجدرأن علي جانبي الشارع. [5, 17].

Tarjimada parchaning asosiy mazmuni aks etgan. Lekin undagi barcha tafsilotlarning to‘laqonli o‘girilganini aytish mushkul. Chunki adib Oybek yozgan har bir so‘z, hatto har bir ohang tarjimada berilishi shart. Bu tarjimaning to‘laqonli bo‘lishini ta’minlovchi shartdir. Berilgan parcha tarjimasiga nisbatan buni aytish qiyin. Adib bejizga to‘p-to‘p bo‘lib, otlarini gijinglatib turgan yigitchalarga nozanin sifatini berib, ularga duxoba qalpoq, movut chakmon, nozik ishlangan qimmatbaho kamarlar taqtirib tasvirlamagan. Asardagi har bir mayda tafsilot tarjimonning nazaridan chetda qolmasligi lozim.

Romanda tasvirlangan Abdulahad portreti buning misolidir: *“Bu kimyogar Abdulahad edi. Uning katta, yumaloq boshida kir taqya, egnida har joyi kuygan, turli dog‘lar bilan yiltiragan eski jomakor; uning ko‘zlari namli, qizargan, sabotli yuzida olov yallug‘i jilvalanadi, ko‘rkam soqolining oqi kir sarg‘ish tus olgan”*. Kimyogarning *“katta, yumaloq boshi”* aqlli, bilimdonligidan darak berayotgan bo‘lsa, boshidagi *“kir taqya”*, egnidagi *“har joyi kuygan, turli dog‘lar bilan yiltiragan eski jomakor”* kimyogarning o‘ziga qarashga vaqti yo‘qligi, qolaversa, haqiqiy olimligini ta’kidlash uchun berilgan. Shu bilan birga, kimyogarning *ko‘zlari “namli, qizargan”* bo‘lsa-da, *“sabotli yuzida olov yallug‘i jilvalanadi”, “soqolining oqi kir sarg‘ish tus olgan”* bo‘lsa-da,unga *“ko‘rkam”*lik baxsh etgan.

Adib asar qahramonining xatti-harakati, holatini tasvirlar ekan, o‘z fikri, his-tuyg‘ularini aniq obrazlarda aks ettirishga harakat qiladi. Bu

intilish uni shunchaki aniq predmetli ifoda vositalari, balki intonasion-ritmik ifoda vositalarini tanlab olish, beixtiyor, hatto ongli ravishda har bir so‘zning tovush va tus-bo‘yog‘i, so‘zning emotsional xossalarini hisobga olishga majbur qiladi. Xuddi shu his, yana intonatsiya (ohang) va ritm orqali ifodalanib, jumlalar, abzaslar, boblar tuzishda rahnamolik qiladi. Xuddi shu his tufayli jumlada, jumlalar orasida – abzasda, abzaslar orasida – bobda, va, nihoyat, boblar orasida – butun asarda bir qarashda ko‘zga chalinmas hamohanglik yaraladi. Badiiy asar tarjimoni ham san’atkor sifatida bu hamohanglikni ijod jarayonida takrorlashi, original asarni tarjima tilida qayta yaratishi lozim. Chunki, “...badiiy tarjimadan asliyat muallifining obraz va ifodalarini syujet chizig‘inigina emas, uning adabiy manerasi, ijodiy shaxsiyati, uslubini qayta yaratish talab etiladi. Garchi shu talab hal etilmas ekan, bunday tarjima hech nimaga yaramaydi”, – deb yozgan edi K. Chukovskiy.

Libos tasviri vositasida yaratilgan ijtimoiy holatlar orqali asarda mavjud tuzum aks ettiriladi. Personajlarning kiyimlari, tashqi ko‘rinishlari orqali adibning mavjud tuzumga bo‘lgan munosabati yaqqol seziladi: *“U yo‘g‘on, chorpaxil gavdali, dakkam-dukkam qizg‘ish mo‘ylabli; keng, qoramtir yuzining yonoqlari bo‘rtgan; qisiq ko‘zlari ayyorcha beqaror; kunlar isib ketgan bo‘lsa ham, uning egnida qo‘pol eski po‘stin, boshida qunduzi qalin katta bo‘rk…” [4, 9]*. Ushbu parchani o‘qir ekan kitobxon ko‘z o‘ngiga personajning qaddi-basti, yuz tuzilishi aniq yorqin gavdalanadi. Bu adibning so‘z bilan portret chizish san’ati, mahoratini yaqqol ko‘rsatib turadi. Agar jumlaning arabcha tarjimasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak ham mohirona tarjimaga guvoh bo‘lish mumkin: و كان رجلا بدينا ضخما. له عينان ضيقتان مكارتان تتقلبان بلهفة في وجه أسمر عالي الوجنتين و شاربان أصهبان نحيفان و رغم أن أيام الحر كانت قد بدأت فقد كان يضع علي كتفيه معطفا مدعوكا ثقيلا من الفرو و يعتمر بقلنوسة ضخمة من فراء القندس. [5,18]. Tarjimon personaj ustidagi *“qo‘pol eski po‘stin”* va *“boshidagi qunduzi qalin katta bo‘rk”*ni ham, uning *“yo‘g‘on, chorpaxil gavdasi”*yu, *“dakkam-dukkam qizg‘ish mo‘ylabi, keng, qoramtir yuzi, bo‘rtgan yonoqlari, ayyorcha beqaror qarab turgan qisiq ko‘zlari”*ni diqqatdan chetda qoldirmagan.

Mas’uliyatni his etib, tabarruk ishga qo‘l urgan ijodkor, avvalo, butun asarni o‘z ongiga singdirib oladi, so‘ngra uni tarjima tilida qayta yaratadi. Bu zinhor tarjimonga qo‘yiladigan umumiy talab emas, balki amaliy zaruratdir.

Portret-xarakteristikalar kitobxon idrokida qahramon siymosini gavdalantiradi hamda uning keying holat va xatti-harakatini tushunishi uchun ilk tasavvurlar paydo qiladi. Mazkur ilk tasavvurlar esa qahramonlar holat va xatti-harakatlarining asliyatga badiiy-uslubiy jihatdan muqobil tarjima qilinishiga qarab yanada kengayadi.

Qahramonlar portret-xarakteristikalari tasvirining tarjimada talqini tarjimashu-noslikning muhim masalalaridan hisoblanadi. Badiiy asarlarda yaratilgan portret-xarakteristikalarda personajlarning birgina tashqi ko‘rinishi, kiyinishi orqali uning qaysi millatga, tabaqaga, jinsga mansubligi ifodalanishi bilan birga qahramonning asarda tasvirlanayotgan voqelikka munsabati, kayfiyati botiniy olamida kechayotgan sokinlik yoki qarama-qarshiliklar tug‘yoni, kurashi o‘z aksini topadi. Oybekning “Navoiy” romanida asarning badiiy-spesifik xususiyatlari talablaridan kelib chiqilgan holda portret-xarakteristikalariga keng o‘rin berilgan. Yozuvchi rang-barang portretlar galereyasini yaratgan. Asardagi qahramonlar turli tabaqaga, turli xarakterga ega bo‘lishlari bilan birga o‘zlarida ma’lum darajada XV asr o‘zbek xalqi milliy qiyofasini namoyon etganlar. Masalan: *“Ulardan biri – sersoqol, rangpar va oriq – o‘z mantiqining kuchini ko‘rsatishga va “haqiqat mezoni”ni o‘zicha ta’rif etishga astoydil tirishar, sheriklarining dalillarini rad etardi” [4, 6]*. Mazkur jumla tarjimada asl nusxaga monand qayta yaratishga harakat qilingan: (أحدهم و هو اكبرهم سنا نحيف شاحب يسعى جاهدا و بدقة متناهية لإظهار كل ما في المنطق من قوة لتحيل «كافة الميزان»). Asliyatdagi “ulardan biri” birikmasi so’zma-so’z “kelajakda olim bo‘ladigan kishi” tarzida tarjima qilingan. Vaholanki, uni “ هذا رجل منهم”deya berish kifoya edi. Asl nusxada bo’lmagan “yosh jihatdan katta” ma’nosidagi birikma tarjima jumlasiga kiritilgan (أكبرهم سنا).

Ma’lumki, badiiy asarda qahramonlarning botiniy olamdagi kechinmalari, his-tuyg‘ulari ularning tashqi ko‘rinishlarida zuhur etadi. Uni o‘z tiliga o‘girayotgan tarjimon personajlarning o‘sha holatdagi portret-xarakteristikalarini qayta yaratish jarayonida tarjima tilida mavjud turli leksik qatlamlar, serjilo tasvir vositalarini qo‘llash bilan cheklanib qolmasdan, qahramonlarning voqelikka munosabati, voqelikka munosabatini ilg‘ashi, maqsad va niyatlarini ko‘ra bilishni, asliyatga mos muqobil portret tasvirini chiza olishi lozim.

Xulosa. “Navoiy” romanining arabcha tarjimasida portert tavsifining berilishi mavzusini o‘rganishga bag‘ishlangan mazkur

maqolada XV asrning ikkinchi yarmida o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlari, milliy mentalitetining portret vositasida berilishi masalasi tahlil qilinib, tarjimon mahorati qirralariga e’tibor qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Словарь литературоведческих терминов. – Москва: “Мысль”, 1974.
2. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: “Akademnashr”, 2013.
3. Иброҳимова Ш. Бадиий асарлар таржимасида қаҳрамон портретининг берилиши // “Таржима масалалари”. Илмий мақолалар тўплами. – Т.: “Муҳаррир”, 2012.
4. Ойбек. Навои. Таҳрир ҳайъати: Бобир Алимов ва б.–Т.: “Шарқ”, 2004.
آيبيك، نوائي رواية، دار التقدم، فرع طشقند1979
6. Odilova G. Badiiy tarjimada dunyoqarash va milliy mentalitet masalasi // “Yer yuzi” jurnali. – T., 2013 mart soni.
7. Ойбек. Навоий. – Т.: “Ўздавнашр”, 1944.

ODIL YOQUBOVNING “ULUG‘BEK XAZINASI” ASARINING HINDCHA TARJIMASIDA ARXAIZMLAR XUSUSIDA

Zuhra TURSUNBAYEVA, *TDSHU tadqiqotchisi,*
Ilmiy rahbar: PhD. Xodjayeva N.

Tarixiy asarlarni tarjima qilish zamonaviy asarlarga nisbatan bir muncha mushkuldir.Chunki, tarixiy asarlar davr ehtiyojiga muvofiq tarzda tarixiy va arxaik lisoniy vositalar bilan to‘lib-toshgan bo‘ladiki, bunda asliyat ruhini to‘la-to‘kis qayta yaratish mas’uliyati tarjimondan zaruriy lisoniy vositalarni to‘g‘ri tanlash yo‘li bilan asliyat vujudga kelgan davr xususiyatini qayta yaratishni talab etadi.

Tarixiy-milliy so‘zlarni badiiy tarjimada adekvat talqin etish tarjima amalyotining o‘ta murakkab va shu bilan birga, juda mas’uliyatli masalalaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham tarjimon oldida bevosita o‘zi yaratayotgan kitobning matni ustida ishlash qiyinchiligidan tashqari, xorijiy adib ijodi, u yashagan tarixiy davr kabilarga doir barcha ilmiy va adabiiy manbalardan xabardor bo‘lish talab qilinadi. Tarjimon har ikkala tilni chuqur bilishi lozim. Zamondosh adiblarning zamonaviy mavzularda yozilgan asarlarini o‘girish tarixiy asarlarni tarjima qilishga qaraganda bir muncha yengil.

Zero, tarixiy asarni boshqa tilga o‘girish yanada ko‘proq mehnat talab qiladi.Asarlarda aks etgan tarixiy voqea hodisalar tarjimonga hamisha ham tushunarli bo‘lmasligi mumkin.Bu esa o‘z navbatida tarjimonga bir muncha qiyinchiliklarni tug‘dirishi mumkin.

Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” asarida obrazlar xarakterini, diolog, monolog, ichki kechinmalarda o‘zbek tilining so‘z boyligi xazinasidan samarali foydalanib, sharqona tasvirlagan. Zamonaviy asarlari bilan tanilgan yozuvchi uchun uzoq o‘tmishni badiiy ifodalash, o‘sha davr ruhini bera oladigan uslub kalitini topa olish oson kechmaydi. Asar tilini yaratishda yozuvchining mahorati, yutug‘i shundaki, voqealar tavsiloti hozirgi adabiy til qoidalari asosida yoritilib, qahramonlar nutqida XV asr kishisining so‘zlashuv manerasi, muomala madaniyati hisobga olingan holda arxaik so‘z va iboralar qo‘llanilgan personajlar nutqiga xos milliy, madaniy xususiyatlarni yorqinroq ifoda etish uchun qo‘llanilgan arxaik so‘z va iboralarning aksariyati hozirgi kundagi mavjud jonli tilda ishlatilishi bilan xarakterlidir. Shu boisdan tarixiy davr ruhi tasavirlangan asarlar tarjimasining murakkabliklaridan biri undagi arxaik so‘z va iboralar ishtirokida tuzilgan qahramonlar nutqini, ularning ritmini, ohangini nechog‘lik qayta tiklash bilan bog‘liqdir. Zotan adabiyotshunos olim, tarjimon Yu.Surovtsev ta’kidlaganidek, “Tarix inson xarakterida, shuningdek, qahramonlar nutqida o‘z ifodasini topadi”. [1,b.100].

Quyida biz romanda keltirilgan ba’zi tarixiy-arxaik so‘zlarning hindiy tili tarjimasida berilishini ko‘rib o‘tamiz.

Shahzoda maxfiyxonaga o‘tdi va marmar ***obrez*** yoniga cho‘nqayib taxorat oldi, keyin huddi jang-jadal paytidagiday zarbof to‘nini qibla tomonidagi burchakka yozib, sajdaga bosh qo‘ydi [4,b.160].

उस कमरे में जाकर शाहज़ादे ने संगमरमर की फ़र्शवाले ***आबरेज़*** के पास उकड़ूं बैठकर वज़ू किया। फिर अपना चोग़ा उतारा, और जैसा कि युद्ध के आरम्भ होने से पूर्व किया करता था, उसे कोने में बिछाकर मक्का की ओर मुंह करके उस ज़री के जानमाज पर घुटनों के बल बैठ गया।[10,b.174]

“Obrez-uyning poygagi yoki dahlizga yuvinish, yuz-qo‘l yuvish uchun maxsus yasalgan usti berk o‘ra, xandaq”. [7,b.79]. Mutarjim tarjimada “obrez” so‘zini transliteratsiya qilib, matn ostida quyidagicha izoh bergan. ***आबरेज़-वजू व ग़ुस्ल के लिये गड्ढानुमा खास जगह.*** So‘zma so‘z tarjima. Obrez yuvinish va g‘usl qilish uchun ajratilgan maxsus joy. Izoh o‘rinli va to‘g‘ri keltirilgan.

Bir daqiqa fursat bergaysiz. ***Olatlarni*** yig‘ishtiray, – dedi Ali Qushchi [4,b.3].

थोड़ी देर इन्तज़ार करने की कृपा कीजियेगा, आली क़ुश्ची ने अनुरोध किया। मुझे *यंत्रों* को बंद करके रखना है। [10,b.4].

Bu jumlada olat so‘zi arxaik so‘z hisoblanib, asbob degan ma’noni anglatadi. Tarjimada keltirilgan *यंत्र* [3,b.422]. so‘zi hindiy tilida *asbob* ma’nosini anglatadi. Ushbu so‘z to‘g‘ri tanlangan deb o‘ylaymiz. Demak *यंत्र* so‘zi *olat* so‘ziga ekvivalentdir.

Suvi ko‘klamdayoq qurib qolgan **xandaq** yonida Mirzo Ulug‘bekni yana bir guruh navkarlar qarshi oldi”. [4,b.81].

क़िले के चारों ओर की गहरी **खाई** के पास, जिसका पानी वसन्त में ही सूख चुका था, उलूग़ बेक को सिपाहियों का एक दल मिला।[10,b.91].

Asliyatdagi xandaq so‘zi arxaik so‘zdir. *Xandaq* [8,b.406]. *dushmanlar o‘tolmasligi uchun qazilgan katta chuqurlik, biror narsani saqlash, asrash maqsadida kovlangan chuqurlikdir* tarjimada *xandaq* *खाई* tarzida tarjima qilingan. *खाई* [2,b.418]. hindiy tilida *chuqurlik, o‘ram* ma’nosini beradi. Bu so‘z hindiy tilida tarixiy so‘z deb ajratib ko‘rsatilmagan bo‘lsada asliyatdagi *xandaq* so‘ziga aynan mos tushgan.

–Rasadxonada tashqa chiqadurgan ***lahim*** bormi?-deb so‘radi. [4,b.86].

“क्या वेधशाला में *चोर-रास्ता* है?” [10,b.97].

Ushbu misoldagii *lahim* so‘zi asliyatda matn ostida *yashirin yo‘l* deb izohlangan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *lahim* [6,b.575].so‘zi ye*r ostidan uy yoki qal’a ostidan qazib o‘tkazilgan tor yo‘l* deb berilgan. Asliyatdagi izohga nisbatan

चोर रास्ता so‘zi aynan mos tushgan. Ya’ni *चोर-रास्ता* [2,b.551]. *bilinmas yashirin yo‘l* degan ma’noni anglatadi.

Endi quyidagi jumlaga e’tibor qaratamiz.

Tuynukka kirib, yer ostidagi tor, ilon izi ***lahimdan*** o‘tilsa…. Ko‘hak tomondagi soyga chiqilar edi. [4,b.87].

उस मोखा में जाने पर वहां से तंग, सांप की तरह बल खाता *भूमिगत रास्ता* जाता दिखाई देता। [10,b.97].

Bu jumlada *lahim* so‘zi *भूमिगत रास्ता* ya’ni ye*r osti yo‘li* deb tarjima qilingan. Bu ikkala jumladagi *चोर-रास्ता* va *भूमिगत रास्ता* ayni lahim so‘ziga nisbatan qo‘llanilgan. Matndagi ayni o‘sha vaziyatga e’tibor qaratadigan bo‘lsak bu yerda aynan *yashirin yer osti yo‘li*

nazarda tutilmoqda. Shuning uchun *चोर-रास्ता* so‘zi asliyatdagi matn ostida berilgan *lahim* so‘ziga nisbatan muqobil bo‘lishi mumkin. Chunki *चोर-रास्ता* so‘zi faqat *yashirin yo‘l* ma’nosini anglatmoqda, ammo yashirin ye*r osti yo‘li* ma’nosini izohlamayapti. *Yashirin yo‘l* esa yer ustida ham bo‘lishi mumkin. Shuningdek muallif asliyatda *lahim* so‘ziga matn ostida “yashirin yo‘l” deb izoh bergan. Shuning uchun tarjimon uni *चोर-रास्ता* tarzida tarjima qilgan. “Lahim” deyilganda asosan yer osti yo‘li tushuniladi. *भूमिगत रास्ता* [3,b.30]. hindiy tilida ye*r osti yo‘li, tunnel* ma’nosini anglatadi. Shuning uchun ikkinchi jumladagi *भूमिगत रास्ता* so‘zi tarjimada o‘rinli qo‘llanilgan deb hisoblaymiz.

Uning ***riyoziyotini*** o‘qib varaqlab, uzoq turdi,keyin bo‘ynini ham qilganicha lom-lim demay bir bir bosib chiqib ketdi. [4,b.5].

उन्होने उनके *गणित* के पृष्ठ उलटे-पलटे थे और उसके बाद सिर लटकाये, वैसे ही मौन व शान्त दरवाज़े की ओर चल दिये थे। [10,b.9].

Bu jumlada riyoziyot-*गणित* ya’ni *matematika* tarzida tarjima qilingan. *Riyoziyot* [7,b.411]. *a*rxaik so‘z bo‘lib, u *matematika* degan ma’noni anglatadi.

Mirzo Ulug‘bek ilmi ***riyoziyot*** **va** ***handasa*** borasida ust-ustiga savollar berdi. [4,b.32].

मिर्जा उलूग़ बेक ने अली क़ुश्ची की पूरी परिक्षा ही ले डाली थी, विशेष रूप से *रेखागणित* की। [10,b.42].

Bu jumlada *riyoziyot* so‘zi tushib qoldirilgan. *Handasa* -रेखागणित ya’ni geometriya tarzida ifodalangan. *Handasa* [9,b.538] . arxaik so‘z bo‘lib , geometriya deganidir.

Bu jumladagi गणित **va** रेखागणित so‘zlari hindcha-ruscha lug‘atda arxaik leksika deb belgilanmagan bo‘lsada, *riyoziyot* va *xandasa* so‘zlariga ayni ekvivalentdir.

Biz ushbu maqolada obrez, lahim, xandaq, handasa, riyoziyot kabi arxaizmlarning tarjimada berilishini ko‘rib o‘tdik.Mutarjim XV asr o‘zbek xalqi hayotiga xos bo‘lgan tarixiy davr koloritining asosiy komponentlari, arxaizmlarni hindiy tiliga muqobil variantlari bilan o‘girib, o‘sha davr voqeligini o‘z tilida aks ettirishga harakat qilgan. Tarjimon romandagi voqealar rivojini tasvirlashda, qahramonlarning botiniy olamini yoritishda, g‘oyalar kurashi hamda xarakterlar to‘qnashuvini ochib berishda keng kitobxon ommasiga tushunarli,

o‘tmish nafasi ufurib turgan arxaik so‘zlardan sezgirlik bilan foydalangan. Kerakli o‘rinlarda ayrim arxaizmlar izohlab berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Isoqova Sh.Badiiy tarjimada milliylik va tarixiylikning aks ettirilishi (Oybekning “Navoiy” romanining fransuzcha tarjimasi misolida): filol. fan. nomz.diss... – Toshkent: O‘zMU, 2004. – B. 100.
2. Hindi-ruskiy slovar.V dvux tomax, 1-tom/A,S. Barxudarov, V.M.Beskrovniy I dr. Pod red. V.M Beskrovniy.-M.:Sovetskaya ensiklopediya,1972.-912 s.
3. Hindi-ruskiy slovar.V dvux tomax, 2-tom/A,S. Barxudarov, V.M.Beskrovniy I dr. Pod red. V.M Beskrovniy.-M.:Sovetskaya ensiklopediya,1972.-912 s.
4. Yoqubov O. Ulug‘bekxazinasi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
5. O‘zbek tilining izohli lugati, 5-jildlik.1-jild – Toshkent: O‘zb.Mil.Ens,2006.-3611 b.
6. O‘zbek tilining izohli lugati, 5-jildlik.2-jild. – Toshkent: O‘zb.Mil.Ens,2006.-3611 b.
7. O‘zbek tilining izohli lugati, 5-jildlik. 3-jild– Toshkent: O‘zb.Mil.Ens,2006.-3611 b.
8. O‘zbek tilining izohli lugati, 5-jildlik 4-jild. – Toshkent: O‘zb.Mil.Ens,2006.-3611 b.
9. O‘zbek tilining izohli lugati, 5-jildlik.5-jild – Toshkent: O‘zb.Mil.Ens,2006.-3611 b.
10. सुधीरकुमारमाथुर, उलूग़बेककीधरोहर, रादुगाप्रकाशन, ताशक़न्द१९८३. (Sudhir Kumar Mathur. Ulug‘bekkiDharo’hr.RadugaPrakashn, Tashknd. 1983. – 366 b.)

UMAR SAYFIDDINNING “ONT” HIKOYASI O’ZBEK TILIDA

Malohat YOQUBJONOVA, *TDSHU o‘qituvchisi*

Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv tilshunoslik tilni tushuncha nuqtai nazaridan o‘rganadigan sohasi hisoblanadi. Bu tushunchalar aniq bir tilda ba’zan universal, ba’zan maxsus holda bo‘ladi. Shu xususiyati bilan semantikaga o‘xshab ketadi, lekin psixolingvistikadan farq qiladi. Kognitiv tilshunoslik uchta asosiy holatni kuzatish bilan xarakterlanadi. Olimlarning aniqlashlaricha, kognitiv tilshunoslik ma’lumotlarni transformatsiyalash va kodlashda asosiy rol o‘ynaydigan kognitiv mexanizm sifatida o‘rganiladi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning va lingvomadaniyatning asosiy atamalaridan

biri bu - *konseptdir*. U insonning tafakkur xususiyatlari va qurilishiga bog‘liq bo‘lgan muammolar bilan qiziquvchilarning diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda. Kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi fandir. Konsept esa kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, madaniyat va inson o‘rtasidagi aloqa o‘rnatuvchi elementdir. Kognitiv tilshunoslikda konsept hayotiy obraz, til birligini anglatuvchidir. Konsept orqali aniq tilni semantik oralig‘i tuziladi. Konsept tabiatini tushuntirish va anglash til orqali kechadi. Konseptning o‘zi tahlilsiz sistema, ammo boshqa konseptlar ostida harakat qiladi.

Umar Sayfiddin turk hikoyachiligining eng yorqin namoyondalaridan hisoblanadi. U o’z asarlarida eng sodda biroq, eng aniq so’zlar tanlovidan foydalangan holda o’zining o’quvchilariga badiiy zavq berishga va undagi mazmunni mana shunday tushunish oson bo’lgan uslubda yetkazib berishga intilgan. Uning asarlari adabiyot olamida yuksak baholanib kelinmoqda va ko’plab tillarga tarjima qilinib, dunyo bo’ylab o’z ixlosmandlarini boyitib bormoqda. Muallifning juda ko’plab hikoyalari o’zbek tiliga tarjima qilingan. Quyida biz siz bilan Umar Sayfiddinning “Ont” hikoyasi va uning o’zbek tilidagi tarjimasini tahlil qilamiz.

“Ont” hikoyasi birinch matra 2013-yil Zamira Hamidova tromonidan tarjima qilingan. Keyinchalik esa, ya’ni, 2020- yil bu hikoyani Anora Olimjonova tarjiima qilgan. Tarjimalar bilan tanishar ekanmiz, afsuski biz har ikkala tarjimani muvafaqqiyatli chiqqan deya olmaymiz. Asosan ikkinchi tarjimada tarjimon bir qancha tarjima xatolariga yo’l qo’ygan. Hikoyaning ilk jumlasidanoq tarjimon muallif usluubidan chetga chiqa boshlagan bu esa asarning muallif ko’zlagan natijaga erishishiga ma’lum miqdrda ta’sir ko’rsatishi ham mumkin. Hikoyaning turk tilidagi ilk jumlasidan misol keltiramiz:

Ben Gönen’de doğdum. [76]

Endi biz sizga aytgan o’sha ikkinchi tarjimada bu jumlaning berilishini kuzatamiz:

Men Go‘nanda dunyoga kelganman.

Yuqorida aytib o’tganimizdek Umar Sayfiddin imkon qaadar o’z asarlarining sodda, xalqchil va eng asosiysi badiiy bo’lishiga intilgan. Ammo tarjimadagi ushbu jumla hikoyani huddi badiiy uslubdan olib

[76] https://www.nadirkitap.com/yemin-omer-seyfettin-kitap3968186.html

rasmiy uslubga joylamoqchi bo’lgandek. Bujumlani o’sha birinchi tarjimon tog’ri tarjima qilgan edi. Va buning uchun hech qanday ortiqcha mashaqqatning ham keragi yoq edi.

Men Go’nanda tug’ildim.[77]

Hikoyaning davomini o’qir ekanmiz, ikkinchi tarjimadagi yana bir holatni ko’ramiz. Bu yerda hikoyadagi tasviriy ifodani aks etgan qism umuman tushurib qoldirilgan. Mana o’sha qism:

O zaman genç bir yüzbaşı olan babamla her zaman önünden geçtiğimiz Çarşı Camii’ni, karşısındaki küçük, harap şadırvanı, içinde binlerce kereste tomruğu yüzen nehirciği, bazen yıkanmaya gittiğimiz sıcak sulu hamamın derin havuzunu şimdi hatırlamaya çalışıyorum. Ama beyaz bir unutuş dumanı önüme yığılır. Renkleri siler, şekilleri kaybeder. Pek uzun gurbetlerden sonra vatanına dönen bir adam, doğduğu yerin ufkunu koyu bir sis altında bulup da, sevdiği şeyleri uzaktan bir an önce göremediği için nasıl hüzünlenirse, ben de tıpkı böyle meraka, sabırsızlığa benzer bir acı duyarım. O, her akşam sürülerle mandaların, ineklerin geçtiği tozlu, taşsız yollar, yosunlu, siyah kiremitli çatılar, yıkılacakmış gibi duran büyük duvarlar, küçük, ahşap köprüler, uçsuz bucaksız tarlalar, alçak çitler hep bu duman içinde erir.[78]

Muallif ifodalashga uringan shuncha tasviriy bezakning tarjimada tushurib qoldirilishi unga hech qanday ta’sir ko’rsatmaydi deya olmaymiz. Birinchi tarjimada esa bu holatga yo’l qo’yilmagan, ya’ni bu qism to’laligicha tarjima qilungan.

O’sha paytlar yuzboshi* bo’lgan dadam bilan birga har doim yonidan o’tgan bozor oldidagi masjidni, uning qarshisidagi kichkina, harob shodirvonni,* ichida minglab yog’och bo’laklari suzadigan daryochani, bazan yuvinishga borgan issiq suvli xammomning chuqur hovuzini eslashga harakat qilyapman. Faqat ko’p narsalarni aniq eslay olmasdim, oppoq tuman ko’z oldimga yig’ilardi. Bu tuman yodimdagi ranglarni o’chirar, shakllarni yo’q qilardi. Uzoq davom etgan g’urbatdan so’ng, Vataniga qaytgan kishi tug’ilgan yerining ufqini quyuq tuman ostida topib, sevgan narsalarini uzoqdan ko’rolmagani uchun qanday mahzun bo’layotgan bo’lsa men ham xuddi shunday qiziqishga, sabrsizlikka o’xshash alamni his qilardim. Har oqshom sigir va

[77] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/umar-sayfiddin-1884-1920-turkiya
[78] https://www.nadirkitap.com/yemin-omer-seyfettin-kitap3968186.html

qo’toslardan iborat podaning o’tgan changli, toshsiz yo’llar, yo’sinli, qora keramitli tomlar, yiqiladiganday turgan buyuk devorlar, kichkina taxta ko’priklaru oxiri bo’lmagan dalalar, pastak taxta devorlar, hamma hammasi afsuski doimo bu tuman ichida erib ketardi.[79]

Lekin bu tarjimada ham bir kamchilik bor. O’zaro yaqin tillar tarjimasi xususida so’z yurutilganda tarjimon eng ko’p yo’l qo’yadigan xatolardan biri bu – “aldamchi so’zlardir”. Bular – shakli bir xil va ma’nosi turlicha so’zlardir. Hikoyadagi **yıkılacakmış gibi duran büyük duvarlar** jumlasi o’zbek tiliga **yiqiladiganday turgan buyuk devorlar** tarzida tarjima qilingan. Biz aytib o’tganimizdek tarjimon **buyuk** so’ziga aldangan. Turk tilidagi bu so’z katta ma’nosida qo’llangan. O’zbek tilidagi bu so’zning izohi esa odatdagidan ancha katta narsalar uchun bo’rttirish ma’nosida qo’llaniladi. Masalan; buyuk davlat, buyuk tog’. Tarjimon ayni xatoni **Buyuk bir hovli** jumlasida yana takrorlaydi

Bundan tashqari hikoyaning aslidagi **çok kocaman aptes fıçısı** ikkinchi tarjimada **eski obdasta** deb tarjima qilingan. Svvalo asl nusxadagi **kocaman** so’zi negadir **eski** deb tarjima qilingan. uning maa’nosi esa **kattakon** bo’lishi kerak edi.**Aptes** soz’zida tarjimon bu safar ham “aldoqchi so’zlar”ga aldanyapti. Turk tilidagi bu so’z yuz qo’llarni yuvish (tahorat) ma’nosini beradi. O’zbek tilida esa obdasta – yuz, qo’l yuvish (tahorat olish) uchun ishlatiladigan uzun va ingichka jumrakli, qora, keng, bo’g’zi tor idishdir. Buni birinchi tarjima asosida to’girlashimiz mumkin.

tahorat olish uchun kattakon suv to’ldirilgan, jo’mrakli bochka turardi.

Hikoyaning davomida esa ikkinchi tarjimon **pencere** so’zini **tuynuk** deb tarjima qilgan.

kapaksız tek bir penceresi vardı.[80]

romsiz katta bir tuynugi bo‘lardi.

Birinchi tarjimada esa bu yerda hech qanday muammo yo’q.

romsiz bir dona derazasi bor edi.

Hikoyani tahlil qilishda davom etar ekanmiz, ikkinchi tarjima badiiy asar saviyasiga zarar berishda davom etib borayotgani va tarjimonning juda ko’p xatolarga yo’l qo’yayotgani ketma-ket yuzaga qalqib chiqib turganini ko’raveramiz.

[79] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/umar-sayfiddin-1884-1920-turkiya
[80] https://www.nadirkitap.com/yemin-omer-seyfettin-kitap3968186.html

“Büyük Hoca” dediğimiz, kınalı, az saçlı, kambur, uzun boylu, yaşlı, bunak bir kadındı.

Turk tilidagi keksa muallimaga berilgan ta’rif ham juda qo’pol tarzda tarjima qilingan.

“Katta domla” deb chaqiradigan xinali sochi siyrak, bo‘yi uzun, bukri, keksa, aqli zaifroq ayol edi.

Ushbu jumladagi xatolani ko’rsatishning eng yaxshi yo’li so’zlarni isrof qilib o’tirmay, birimchi tarjimadan foydalanib qo’ya qolishdir.

“Katta muallima” deb ataganimiz o’qituvchimiz esa qo’llariga xina surilgan, sochi to’kilgan, bukri, bo’yi uzun, qari va telbanamo xotin edi.

Bundan tashqari ttarjimada yana bir joy tushurib qoldirilgan. Bu – qizlarning o’zaro to’rtlik she’r to’qib aytishlari edi.

Kızlar bu güzel ada uydurulmuş kafiyeleri, Mıstık’ı bahçede, sokakta görünce bir ağızdan söylerlerdi; hâlâ hatırımda.

Mustafa Mıstık,
Arabaya kıstık,
Üç mum yaktık,
Seyrine Baktık!

Birinchi tarjimada bu to’rtlik tushurib qoldirilmagan.

Qizlar bu go’zal ismga to’qigan qofiyalarni Mistiqni bog’da, ko’chada ko’rishlari bilan birvarakayiga aytishar edi, haliyam esimda:

Mustafo Mistiq
Arobaya qistik,
Uch mum yoqtik,
Sayriga boqtik!,

Bundan tashqari tarjimada bir qancha realiyalar e’tibordan chetda qolgan. Go'nan - Turkiyadagi Balikesir viloyatining nohiyalarindan biri.

Shodirvon - masjidlarda tahorat olinadigan, atrofidagi jo’mraklardan su oqadigan usti ochiq, kichik hovuz.

Bayramich - Umar Sayfuddin yashagan joydagi yo’lning nomi.

Fesim - qizil duxobadan tikilgan, tepasida popuklari bo’lgan, silindr shaklidagi shapka.

Bandirma - Turkiyadagi Balikesir viloyatinig nohiyasi.

Umuman olganda qayta tarjima avvalgi tarjimadan bir qadar mukammallashgan shaklda yaratilishi kutiladi. Lekin biz tahlil qilgan

bu tarjima buning aksi bo’lgan. Avvalgi Zamira Hamidova tomonidan qilingan tarjimada ham ma’lum kichik kamchiliklar bor albatta. Shunday holatda ham u keying Anora Olimjonova tomonidan qilingan tarjimadan ancha yaxshi, nisbatan badiiylikka uyg’unlikda tarjima qilingan. Keying tarjima haqida esa afsuski bunday fikr bildirolmaymiz.

DARIYZABON XALQ OG‘ZAKI IJODIDA OBRAZLAR TALQINI

Botir MAMARAJABOV
Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil izlanuvchisi

Badiiylik – san’atning ham joni, ham ruhi ekan, uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri badiiy obrazdir va u adabiyotshunoslik fanining markaziy muammosi sanaladi [1]. Chunki adabiyotshunoslik ilmida *obraz* deganda inson ongida in’ikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so‘z vositasida ijodkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan va tasvirlangan hayot tushuniladi. “. . . Unda hech bir tasodifiy va ortiqcha narsa yo‘q. Hamma qismlar butunga bo‘ysungan, hammasi bitta maqsadga yo‘naltirilgan, hammasi birlikda bir go‘zallik, yaxlitlik, individuallikni maydonga keltiradi”[3]. Badiiy obraz xususiyatlarini o‘rganishni atamaning mazmunidan boshlagan ma’qulroq. *Obraz* atamasi “raz” (*chiziq*) so‘zidan olingan bo‘lib, “raz” so‘zidan “razit” (*chizmoq, yo‘nmoq, o‘ymoq*) va undan “obrazit” (*chizb, o‘yib, yo‘nib shakl yasamoq*) so‘zi yasalgan. “Obrazit”dan “obraz” (*umuman olingan tasvir*) vujudga kelgan[1]. Umuman olganda “obraz” slavyan tillariga xos so‘z bo‘lib, u voqea-hodisalarning hayolda namoyon bo‘ladigan manzarasini bildiradi[2].

Yuqoridagi barcha fikrlarni jamlasak, bitta xulosa kelib chiqadi: adabiyotga hayotning hamma unsurlari (inson, narsa, hayvon, hodisa) kirishini hisobga oladigan bo‘lsak, ijodkor yaratmoqchi bo‘lgan obraz uning ongi va qalbida jilolanib, boyib, mukammal holatga kelish qonuniyati obrazdir. Quyida biz adabiy tur va janrlar, uslub va tasviriy vositalarga ko‘ra obrazlarni ertaklar bo‘yicha turlarini ko‘rib chiqamiz:

1. **Epik obrazlar** hayot voqea-hodisalari keng va atroflicha tasvirlanadi. Voqeabandlik, obyektiv tasvir ustunlik qiladi. Epik turlarning hamma janrlarida yaratilgan obrazlar epiklik xususiyatiga ega bo‘ladi. Ertak janri ham epik turga kiradigan janrlardan biri bo‘lganligi uchun ham biz tahlilga tanlab olgan ertaklarning deyarli barchasida epik obrazlar yaratilgan.

2. Hayoliy-fantastik obrazlar haddan tashqari bo‘rttirilgan, ilohiylashtirilgan, mo‘jizaviy harakterga ega bo‘lgan qiyofalardir. Dariyzabon xalq og‘zaki ijodidagi uchar gilamlar, sehrli qalpoq, zanjir, to‘qmoq, yaxshi niyatli farishtalar, uchar devlar va jinlar obrazlari kishilarning tasavvurlarini kengaytiradigan, ruhiyat dunyo sirlari bilan oshno etadigan timsollardir. Bunday obrazlarni “زبزانه شاپری” (“Zebzebona shoperey”) ertagida uchratishimiz mumkin.

3. Afsonaviy obrazlar butunlay hayolning mevasidir, ular bitmas-tuganmas qudratga, yuksak fazilatlarga, mo‘jizaga ega bo‘ladilar. “جلادخان و شمایله” (“Jalodxon va Shamoyila”) ertagida Jalodning ko‘rsatgan mislsiz qahramoliklari aqlga sig‘maydigan darajada edi. Bunday qudratga ega bo‘lgan inson faqatgina hayol mevasi bo‘lishi mumkin.

4. Majoziy (simvolik) obrazlar predmetlar, o‘simliklar, jonivorlar, ranglar orqali ijtimoiy hodisalarni umumlashtirib ifodalash demakdir. Majoziy obrazlarda ifodalangan tasvirdan bevosita insonlarning munosabatini, ruhiy olamini anglaymiz. “گاو پوشیدن عینک” (“Ko‘zoynak taqqan buzoq”) ertagida Odamxonning ko‘zoynak borasida aytgan fikrlari ya’ni o‘zini buzoqqa o‘xshatishi majozga misol bo‘loladi.

5. Kinoyaviy (allegorik) obrazlarda hayvonlar, hasharotlar, turli jonivorlar insoniylashtiriladi, ayrim odamlarning fe’l-atvoridagi kamchilik, illatlar achchiq kulgu, yengil hazil bilan fosh qilinadi. O‘git va nasihatlar beriladi, lekin ba’zi holatlarda kerakli xulosani chiqarib olish kitobxonning o‘ziga havola qilinishi ham mumkin. Masalan, “Ayyor mushuk va aqlli sichqon” ertagida mushuk va sichqon obrazi vositasida inson obrazi tasvirlangan. Mushuk sichqonni qo‘lga kiritish maqsadida qo‘lidan kelgan barcha nayranglarni amalga oshiradi, lekin aqlli sichqon bu nayranglarning hech biriga uchmay mushukning changalidan qutilib qoladi. Mana shu ikki hayvon obrazi vositasida, mushuk orqali o‘z maqsadi yo‘lida hech bir razillikdan tap tortmaydigan va bu maqsad yo‘lida turli nayranglar bilan sodda

insonlarni aldashga urinadigan ayyor va ustamon inson gavdalangan bo‘lsa, sichqon orqali har bir ishni qilishdan avval yetti o‘lchab keyin kesadigan, har bir ishini chuqur mulohazadan keyin amalga oshiradigan tadbirli, aqlli inson obrazi tasvirlangan.

Dariyzabon xalq og‘zaki ertaklarida bunga o‘xshash ya’ni kinoyaviy obrazlar yaratilgan ertaklarni bir necha keltirish mumkin. Jumladan, “Mirzoyi yurish” ertagi ham ana shunday ertaklar sirasidandir. Yaylovda o‘tlab yurib-yurib uzoq-uzoqlarga ketib qolgan eshak bo‘rining changaliga tushib qoladi. O‘z egasidan anchagina uzoqlashib ketgan eshak taqdirga tan berib, bo‘riga yem bo‘lishini fahmlab, bo‘rini xiyla bilan aldashga urinadi. Eshakka uning otasidan bir hunar meros bo‘lib qolganligini, shu kunga qadar u hunarni hech qayerda ishlatmaganligini, agar bo‘ri eshakning shu hunarini bir ko‘rmasdan yeyib qo‘ysa, shunday hunar zoye’ bo‘lishini va eshak u hunarini o‘zi bilan go‘rga olib ketishini aytib kuyinadi va bo‘rida uni yeyishdan avval shu hunarini bir ko‘rishini iltimos qiladi. Eshakning yolg‘oniga osongina ishongan bo‘rivoy unga hunarini bir ko‘rsatishini keyin esa uni yeyishini aytadi.Bu *mirzoyi yurish* hunari edi.Eshak bo‘rini yelkasiga o‘tkazib, asta sekin mirzoyi yurish qila boshlaydi. Eshakning bu “mirzoyi yurish”i bo‘riga ma’qul kelib qoladi va eshak haqiqatan unga yolg‘on gapirmaganligiga va eshakning bu mirzoyi yurishini ko‘rmasdan yeb qo‘yganida qattiq afsusda qolishiga amin bo‘libdi. Eshak esa turli xil latifalarni aytib, yurishini tezlatib qal’a tomon kamon o‘qi kabi ucha boshlabdi.Jon talvasasida mahkam yopishib olgan bo‘ri eshakdan necha bor to‘xtashini iltimos qilinsa ham, eshak bo‘rini qal’aning ichiga olib kirib ketibdi. Qal’a ichidagi odamlar bo‘rini eshakdan ajratib olib, o‘lasi qilib urishibdi vao‘ldi deb gumon qilib qal’a tashqarisiga olib chiqib tashlashibdi. Bir necha kundan so‘ng o‘ziga kelgan bo‘ri nola chekkancha o‘ziga o‘zi (matnni asl holida keltiramiz):

ای بی عقل! آخرپدرت میرزائی رفتار را دیده بود، بابویت میرزائی رفتار را دیده بود؟ - آدم غریب، ترا به میرزائی رفتار چکار؟! یک لقمهء چرب و لذیز گیرت آمده بود، از روی هوس خود را از حال پر کال انداختی!

-Ey, aqli past, sening otang ko‘ribmidi mirzoyi yurishni yoki bobong ko‘rganmidi?! O‘zing bir g‘arib-u bechora bo‘lsang, seni mirzoyi yurish bilan qanchalik ishing bor?! Bir yog‘lik, lazzatli luqma

qo‘lingga tushib turuvdi-ya, havas qilasan deb o‘zingni to‘rdan go‘rga tashlading! – debdi[4].

Yuqorida ko‘rib o‘tgan ertagimizda ham ikki hayvon vositasida insonlarning harakteri ochib berilgan. Ya’ni, eshak obrazi orqali har qanday qiyin holatlardan ham o‘zining ayyorligi va tadbirkorligi bilan chiqib keta oladigan inson va bo‘ri obrazi orqali esa har qanday yolg‘on-u rost gapga osongina laqqa tushadigan sodda inson obrazi tasvirlangan. Bu ertakda ham insonlarga xos bo‘lgan kamchiliklar ochiq tanqid ostiga olingan.

Adabiyot hayotni ikki xil yo‘l bilan tadqiq etadi: biri – tasdiqlash, ikkinchisi – inkor etish. Shunga ko‘ra obrazlar quyidagicha turlarga bo‘linadi:

1. Xatti-harakati, xarakter xususiyati bilan, asosan, ijobiy xislatlarni o‘zida mujassam etganva kitobxon uchun o‘rnak bo‘la olsa, jamiyatni ezgulik va komillikka yetaklay olsa, u **ijobiy obrazdir**[1]**.** Dariyzabon xalq og‘zaki ertaklarida bu xususiyatga ega bo‘lgan qahramonlar Mahmud (“Tengi yo‘q zotli tulpor”), bobo dehqon (“Arslon va bobo dehqon”), Ali Muhammad (“Ko‘zoynak taqqan buzoq”), Fotima va uning onasi (“Targ‘il sigir yoki oltin kavush”) – ijobiy obrazlar sanaladi.

2. Xatti-harakati, xarakter xususiyati bilan, asosan, salbiy xislatlarni o‘zida mujassam etgan va kitobxonning nafratini uyg‘otsa, jamiyatni tanazzulga olib borsa, u **salbiy obraz** hisoblanadi. Dehqon (“Dehqonning yaxshi ko‘rgan echkisi va mulla”), Atiq (“Tengi yo‘q zotli tulpor”), Oysha va uning onasi (“Targ‘il sigir yoki oltin kavush”), Quliboy (“Eshagim dumsiz edi”) kabilar bu xil obrazlarning tipik vakillaridir.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etamizki, adabiyot – insonshunoslik ekan, adabiy asardagi obrazlar hayotdagi kishilarning fe’l-atvorlariga – harakterlariga muvofiq kelishi, eng asosiysi, hayotiy bo‘lishi talab qilinadi. Badiiy adabiyot bilan xususan ertak janri bilan tanishib chiqar ekanmiz shunga amin bo‘ldikki,asar yaratish jarayonida yozuvchining ongi ikkiga bo‘linadi: u asar yaratuvchi va u baholovchidir. Ana shu yaratuvchanlik va baholovchilik holatlarining mutanosibligi asarning ta’sir kuchini ta’minlaydi. Agar birinchi holat – ijodkorning (xalq og‘zaki ertaklarida ijodkor xalqning o‘zi hisoblanadi) ijod jarayonida o‘zganing (obrazning) “tanasiga kira olishi”ga, uning ruhi bilan yashay olishiga va voqeaning ishtirokchisiga aylanishiga olib kelsa, ikkinchi

holat – obrazni o‘zidan ajratishga, unga sal uzoqroqdan razm solishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umurov H., Adabiyot qoidalari. – Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU, 2010.
2. Belinskiy V. G., Adabiy orzular. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1977.
3. Ulug‘ov A., Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: “Universitet”, 2000.
4. Mannonov A. Afg‘on xalq ertak va hikoyatlari. – Toshkent.: TDSHI. 2017.

OYBEKNING “NAVOIY” ROMANI TARJIMALARIGA DOIR

Kamola RASULOVA, *TDSHU magistranti*

XX asr o‘zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan ulug‘ adib, shoir, olim, jamoat arbobi, yetuk romannavis, «Qutlug‘ qon», «Ulug‘ yo‘l», «Oltin vodiydan shabadalar», «Quyosh qoraymas» kabi epik polotnolar muallifi bo‘lgan Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning «Navoiy»[1] romani o‘zbek romanchiligining ajoyib namunasi va katta yutug‘idir. 1942 yilning qahraton qishida tugallangan “Navoiy” romani 1944 yilda nashr etilib, oradan o‘tgan 75 yil mobaynida jahonning o‘nlab tillari, jumladan, rus (1945), frantsuz (1948), latish (1947), litva, eston, chex, qozoq (1949), ukrain (1950), uyg‘ur (1952), turkman (1955), xitoy (2002), ingliz (2016) tillariga tarjima qilindi.

Oybek urush yillarida uzoq o‘tmish mavzusida «Navoiy» romanini yaratish bilan o‘sha jangovar davr talablaridan uzoqlashganday ko‘rinsa-da, o‘tmish voqeligini aks ettirish, buyuk tarixiy shaxs Alisher Navoiy obrazini yaratish, uning Vatanga va xalqqa bo‘lgan cheksiz muhabbatini tasvirlash asosida vatanparvarlik, insonparvarlik, qahramonlik va yovuzlikka nisbatan nafratni targ‘ib qilganki, bu o‘sha mash’um urush davri talablariga to‘la mos kelar edi.

Romanning 1945 yildagi muhokamasida yozuvchi M.Shayxzoda, I.Sulton, E.Bertelьslar “Navoiy” romanining o‘lmas badiiy asar bo‘lishi bilan bir qatorda yirik siyosiy hujjat ekanligini ham ta’kidlaganlar.

Rus tarjimoni M.Salьe tomonidan P.Slyotov tahriri ostida 1946 yilda [2] ilk bor, 1984 yilda esa qayta nashr etilgan ruscha tarjimadagi

she’riy misralar tarjimon V.A.Lipko (Lipkin) (1912-1980) tomonidan ruschalashtirilgan. Taniqli sharqshunos olim Mixail Aleksandrovich Salье tomonidan rus tiliga o‘girilgan roman annotatsiyasida “Navoiy” romani Oybekning eng buyuk asari bo‘lib, unda buyuk shoir, mutafakkir, gumanist – Alisher Navoiy haqida hikoya qilingani, ushbu roman uchun Oybek 1946 yilda Davlat mukofotini olganligi aytiladi.

“Navoiy” romani frantsuz tiliga P.Slyotovning rus tiliga tarjimasi asosida Alis Oran tomonidan 1948 yilda (bilvosita) o‘girilgan bo‘lib, Moskva shahrida nashr etilgan [4]. Tarjimon va kitob haqida o‘zbek, rus, frantsuz, ingliz tillarida internetda ma’lumot juda kam. Alis Oran – bu uning taxallusi, asli ismi Aleksandra Petrovna Oranovskaya (dugonalari uni Shuretta deb chaqirishgan) asli Rossiyada tug‘ilgan, juda yoshligida Frantsiyaga ko‘chib ketgan va 15 yoshiga qadar Parijda yashagan. 1914 yili Alis oilasi bilan Rossiyaga qaytib keladi, harbiy muhandisga turmushga chiqadi, urushdan so‘ng esa Moskvadagi “Inostrannыy rabochiy” (hozirgi nomi “Progress”) nashriyotiga ishga kiradi, frantsuz tili klubi ochadi. Juda ko‘p rus va sovet yozuvchilarining kitoblarini, jumladan, “Navoiy” romanini ruschadan frantsuzchaga o‘girgan. Alis Oran 1939 yilda Moskvada frantsuz tilida pьesalar qo‘yiladigan teatr (TLF) ochgan. Bu teatr hozir ham bor, uni Alis Oranning qizi Yelena Georgievna Oranovskaya boshqarib kelmoqda. Alis Oran 1965 yil 20 oktyabrda vafot etgan [5].

XV asr o‘zbek xalqi hayoti, urf-odati va tabiati milliy zaminda berilgan tarixiy asarning frantsuzcha tarjimasi o‘zbek-frantsuz tarjimachiligi taraqqiyotidagi muhim bosqich hisoblanadi. Xususan, o‘zbek-rus-frantsuz tillari doirasidagi tarixiy asarlar tarjimachiligi silsilasida ushbu asar o‘girmasi katta tarixiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

“Navoiy” romani O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligi yillarida (1995) Ahsen Batur tomonidan ilk bor turkchaga o‘girildi [6]. Biroq, so‘nggi yillarda romanni taniqli turk olimi, iste’dodli tarjimon Shuayip Qoraqosh turk tiliga qayta tarjima qildi va “O‘tukan” nashriyotida chop ettirib, Turkiyadagi o‘zbek adabiyoti ixlosmandlariga armug‘on etdi [7]. Asarning qayta tarjima qilinishi sababini Shuayip Qoraqoshning o‘zi shunday izohlaydi: “Navoiy” romani 1995 yilda D.Ahsen Batur tomonidan turkchaga o‘girilib, “O‘tukan” nashriyotida chop etildi. Biroq ushbu tarjima nashri asliyat bilan solishtirilganda ayrim o‘rinlarda jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligi aniqlandi. Bundan

tashqari, Oybek kabi buyuk siymo, o‘zbek adabiyotining buyuk namoyandasi haqida bugungacha Turkiyada jiddiy nashrning yo‘qligi ham buning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi”. Tarjimon Sh.Qoraqoshning quyidagi so‘zlari ham e’tiborni tortadi: “Bu kitob tarjimasi amalga oshirilayotganda uning imlosi va ifoda shakllari turk olimlari: fan doktori, prof. Belqis Gursoy va fan doktori, dots. Vali Savash Yelo‘q tomonidan, romanda uchraydigan ayrim forscha baytlarning imlosi va turkcha tarjimasi fan doktori, prof. Metin Oqar va fan doktori, dots. O‘zan Yilmaz tomonidan tekshirib chiqildi... Turk kitobxonlarini buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy va atoqli o‘zbek adibi Oybek bilan tanishtirish maqsadida tayyorlangan ushbu kitob foydali bo‘ladi, deb umid qilaman. 2018 yil 25 sentyabrь. Istanbul Oydin universiteti professori Shuayip Qoraqosh” [9, 50]. Shu tarzda turk kitobxonlari Oybekning “Navoiy” romani bilan tanishish baxtiga muyassar bo‘ldilar.

Turkcha tarjima nashrining o‘ziga xosligi shundaki, unda olim, tarjimon Shuayip Qoraqosh o‘zining 2 sahifadan iborat “So‘zboshi”sidan keyin 18 sahifalik “Aybek ve Nevâyi Romanı” nomli muqaddima ham yozgan. Bundan tashqari, tarjimon asar tarjimasidan keyin “So‘nggi so‘z” o‘rnida kitobning oxirida taniqli o‘zbek adabiyotshunosi, filol.f.d., prof. Naim Karimovning 9 sahifadan iborat “Aybekin Şaheseri” deb nomlangan maqolasini ham turk tiliga tarjima qilib berganki, bu mazkur tarjimaning yuksak saviyaga ega ekanligidan dalolatdir. Ushbu maqola atoqli o‘zbek adibi Oybek qalamiga mansub “Navoiy” romanining turkcha tarjimasi ustida olib borilishi rejalashtirilgan yirik tadqiqotning debochasi hisoblanadi.

“Navoiy” romani yozilgandan keyin oradan 70 yil vaqt o‘tib, Omon Mo‘minov va Ilhom To‘xtasinovlar tomonidan 2016 yilda ingliz tiliga tarjima qilinib, “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etildi [10]. Asar tarjimasini nashrga tayyorlashda xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlik olib borilgan (romanning inglizcha matniga amerikalik Kristin Smart muharrirlik qilgan). Buyuk Britaniyaning O‘zbekiston Respublikasidagi Favqulodda muxtor elchisi Kristofer Allan “UzReport” telekanaliga bergan intervьyusida inglizcha tarjima haqida gapirib, kitobxon sifatida o‘zini Navoiy asriga tushib qolgandek xis etganligini ta’kidlaydi. Bu esa “Navoiy” romanining ingliz tiliga qilingan tarjimasi nechog‘lik asliyatga yaqin tarjima ekanligini ko‘rsatadi.

Badiiy asar tarjimasi murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanib,

tarjimondan mahorat va katta tajribani talab qiladi, negaki badiiy asar faqat voqealar bayoni bo‘lmasdan, balki o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlashi, uni asarda tasvirlangan xayolot olamiga boshlab borishi va insonda turli ezgu, ijobiy taassurotlar uyg‘otishi bilan ajralib turadi.

Romanning inglizchaga tarjimasi xususida ta’kidlash joizki, sodda uslubda qayta yaratilgan tarjima matni ingliz tili so‘zlashuvchilarga Alisher Navoiy siymosi, uning ezgu g‘oyalari, amalga oshirgan ulkan bunyodkorlik ishlari va yaxshilik yo‘lida xalq uchun qilgan xizmatlari, shuningdek, O‘rta asrlardagi sharq muhiti, turmush sharoitlari va turli ijtimoiy-siyosiy voqealar qiziqarli usulda yetkazilgan. Asar tarjimasida bir qaraganda ko‘p hollarda kompressiya (matnning qisqarishi) [11,106] usulidan foydalanilganligi asliyat matnidagi yuksak mahorat va go‘zallikka putur yetkazgandek tuyuladi. Lekin, ikkinchi tomondan, ma’lumki tarjimada har doim ham yuz foiz muqobillikka erishib bo‘lmaydi va asliyatdagi ba’zi jihatlar yo‘qotiladi. Shu tufayli bu kabi kamchiliklar barcha tarjima asarlari uchun xos deyish mumkin. Asar tarjimasining o‘ziga xos jihati shundaki, bu yerda atoqli otlar va joy nomlari, o‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan realiyalar asliyatda qanday bo‘lsa, ingliz tilida ham xuddi shu tarzda o‘zgarishsiz, transliteratsiya usulida berilgan bo‘lib, bu so‘zlarning bilvosita emas, bevosita o‘zbekcha talaffuz va grafikada ingliz tiliga kirib borishiga zamin yaratadi. Bu holat o‘zbek tilini jahonga tanitish va o‘zbek tiliga oid bo‘lgan so‘zlarning ingliz tiliga kirib borishi, shu bilan birga o‘zbek tilining jahon tillari integratsiyasida mavqeining oshishiga xizmat qiladi [12].

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Oybekning “Navoiy” romanining turkcha tarjimasi ustida ilmiy tadqiqotlar boshlab yuborilgan [8]. Dunyo xalqlarining sara asarlari qatoridan mustahkam o‘rin olgan romanning boshqa tillarga tarjimalari ustida ham ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ойбек. Навоий. Таҳрир ҳайъати: Бобир Алимов ва б. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 480 б.

Айбек. Навои. Роман. Перевод с узбекского под ред. П.Слетова. –Л.: Советский писатель. 1946. – 376 с.

2. Айбек. Навои. Роман. Перевод с узбекского М. А. Салье, стихи в переводе В.А.Липко. Худож. А.Гуламов. –Ташкент: Ёш гвардия, 1984. –376 с.

3. Ташмухамедов Муса (пс. Айбек). Навои, Роман. Перевод с французкого Орановская Александра (Оран, Алис), Изд-во Литературы на

иностранных языках. – Россия, 1948.
4. A.Abidov. “Навоий” романининг французча таржимони, 23.11.2020. Guest authors, Адабиёт янгиликлари. Ижодкорлар учун ресурслар, Халқаро алоқалар http://azamabidov.uz/?p=3308
5. Aybek, Nevai. (Aktaran D.Ahsen Batur), Ötüken yay., İst. 1995, 447 s.
6. Aybek. Nevâyi, Roman, Türkiye Türkçesine aktarma ve İnceleme Prof. Dr. Şuayip Karakaş, Ötüken Yayınevi. –İstanbul, 2019. – 461 S.
7. Х.Ҳамидов. Ойбекнинг “Навоий” романи фразеологиясининг туркча таржимада берилиши. Ўзбек тили ва адабиёти. Ўзбекистон Республикаси ФА. –Тошкент, 2021, №3. Б. 56-60.; Ойбекнинг “Навоий” романи туркча таржимасида хос сўз (реалия)ларнинг берилиши; “Ўзбекистонда хорижий тиллар” электрон журнали, Scientific-methodological electronic Journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2021, No3 (38), 167-174, ISSN: 2181-8215, Б.167-174.
8. Х.Ҳамидов. Ойбекнинг “Навоий” романида лексик-фразеологик бирликлар турк тилига таржимасининг хусусиятлари. ТДШУ, Sharqshunoslik / Востоковедение / Oriental Studies /, 2020. № 4.
9. Ойбек. “Навоий”. Роман. Ўзбек тилидан инглиз тилига таржима. О.Мўминов, И.Тўхтасинов. 2016 йил, Тошкент. “Янги аср авлоди” нашриёти.
10. Нурбаева Ш.К. Ойбекнинг “Навоий” асари таржимаси хусусида. СамДЧТИ. Хорижий филология. №4, 2016 йил.
11. Кенджаева Г.Ф. Ойбекнинг “Навоий” романи таржимасида стилистик воситаларнинг берилиши. НамДУ Илмий ахборотномаси, - Научный вестник НамГУ. 2019 йил 1-сон.

YASHAR KAMOL ASARLARINING TARJIMALARI XUSUSIDA

Dilfuza SHODMONOVA, *TDSHU magistranti*

Yuksak iste’dodi, inson qalbining tub-tubida yotgan kechinmalarini san’atkorona ifodalash qobilyati, nasriy nazmi bilan XX asr ikkinchi yarmi turk adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan atoqli adib – Yashar Kamolning jahon adabiyotining sara asarlari sirasiga kirgan “Sevgi afsonasi” [2] romani (“Ağrıdağı Efsanası”[81]) [1] va “Ilonni o‘dirsalar” [4] (“Yılanı Öldürseler”) [3] qissasi o‘zbek adabiyoti xazinasidan ham

munosib o‘rin olgan. Shu o‘rinda “Ilonni o‘ldirsalar” qissasi haqida ikki og‘iz so‘z: ushbu asar o‘zbek tiliga Lola Aminova tomonidan tarjima qilinib, 2001-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop qilingan. Bu tarjima o‘zbek kitobxonlari orasida katta qiziqishlarga sabab bo‘ldi. Qahramoning kechinmalari katta mahorat bilan yoritilgan asarni o‘qigan kitobxon o‘z onasini o‘ldirgan Hasandan nafratlanmaydi, uni ayblamaydi. Chunki haqiqiy qotil Hasan emas, qishloqning johil odamlaridir. Qissada ushbu ziddiyatli haqiqatning mahorat bilan yoritilishi Yashar Kamolnıng o‘ziga xos uslubga ega yozuvchi ekanligidan dalolat beradi.

1955-yilda nashr etilgan “Sevgi afsonasi” romani adibning qisqa davrda dunyoning qirqdan ortiq tiliga tarjima qilinib, adib nomini dunyoga tanitgan “Inja Mamad” [4] romanidan keyingi mashhur asaridir. Asar o‘z muhabbatini Mahmudxondan himoya qilgan Ahmad va Gulbahorning achchiq qismatidan so‘zlaydi. Afsonalar va xalq og‘zaki ijodiga chin yurakdan bog‘langan Yashar Kamolning ushbu asari inson psixologiyasining eng teran torlarini chertib o‘tadi.

Haqiqiy so‘z ustasi, o‘z ijodini Onado‘lu xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan omixta asarlar yozish bilan boshlagan Yashar Kamol turk tilining badiiy ifoda qudrati, nafosati, xalq og‘zaki ijodining yagona qahramoni bo‘lgan turk xalqining boy madaniyatidan ilhomlanadi. Yevropada Yashar Kamolning ushbu asarlaridan Shahrizoda hikoyalari, Tolstoy romanlari kabi keng miqyosli, Dikkens romanlari kabi jonli ekani, kitobning go‘zallikka boy nazm uslubi, afsona tuyg‘usiga tayanishi ta‘kidlanadi [2,5].

Yashar Kamol o‘z ijodini xalq og‘zaki ijodi – folklor namunalarini to‘plash va nashr qilish, she’rlar yozish bilan boshladi. Yigirma yetti yoshigacha xalq ichida yurib, xalq dardini tingladi va ularni qog‘ozga tushirishga ahd qildi. Uning asarlarida hamisha ham yaxshilik yomonlik ustidan g‘alaba qozonavermaydi, adolat razolarni yengib, qahramonlar xuddi ertaklardagidek g‘alabalarini tantana qilavermaydilar. Biroq yozuvchi qalamiga mansub har bir asar kitobxon qalbiga xitob, unda insoniylikni uyg‘otishga da’vat, mehr-oqibatga chorlov ekanligi aniq.

Ma’lumki har qanday tarjima muayyan darajada ijodiy ish hisoblanadi. Badiiy asarlar tarjimasi esa alohida yondashuvni talab etishi, mahorat va san’atkorlikni taqazo qilishi jihatidan san’at iqlimidir. Bu masalani o‘zbek olimi G‘.Salomov shunday asoslaydi: “Tarjima jarayoning mohiyatini asl nusxada aks etgan shakl bilan

mazmuning birligini, yaxlitligini saqlash uchun boʻlak tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari, asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ana shu muqobil til vositalarini qidirib topish va muvofiq variant tanlash ijodiy xarakterga ega boʻlib, tarjima qiluvchi kishi, ya'ni tarjimondan ongli mehnatni talab etadi. Tilning ifodaviyligi bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasida ham muayyan badiiy-ijodiy masalalarini yechishga toʻgʻri keladi. Bu tarjimadan adabiy mahoratni talab qildi. Bunday tarjima san'at jumlasiga kiradi" [5,21].

Yashar Kamol "Sevgi afsonasi" romanida Ogʻritogʻ (Ararat togʻi) etaklarida yashagan xalqlarning hayot tarzi, mahalliy aholining tarixiy qadriyatlari, urf-odatalari, xalqlarga oid afsonalardan ustalik bilan foydalangan. Asarda hikoya qilingan voqea-hodisalarning baʼzilari afsona emas, balki tarixda yuz bergan voqealar boʻlib, adib ularni oʻz asariga mohirona singdira olgan.

Adibning ushbu romani mustaqillik yillarida oʻzbek tiliga ham, rus tiliga ham tarjima qilingan. "Sevgi afsonasi" romani rus tiliga Alev Ibragimov tomonidan oʻgirilgan va 1982-yil "Иностранная литература" nashriyotida "Легенда горы" nomi bilan nashr etilgan. Ushbu roman oʻzbek tiliga Xayrulla Hamidov tomonidan tarjima qilinib, 2021-yil "Yangi asr avlodi" nashriyotida "Sevgi afsonasi" nomi bilan nashr qilindi [1]. Tarjimonning kitobga bergan "Agʻritogʻ nolasi" sarlavhasi nashriyot tomonidan "Sevgi afsonasi" deb oʻzgartirilgan. Rus tiliga qilingan tarjima ham "Легенда горы" ("Togʻ afsonasi") deb oʻzgartirilgan. Buning sababini kitobxonlar diqqatini jalb qilish va kitobni sotish bilan bogʻliq marketing masalasi deb faraz qilish mumkin.

Aslida, har bir ijodkor asar tarjimasi ishiga kirishganda eng nozik, eng murakkab nuqtada toʻxtaydi. Bu – sarlavhalar tarjimasidir. Asarning asliyatdagi nomi koʻp hollarda tarjimonga yoki muharrirga yoqmasligi mumkin. Ammo sarlavha asar mazmuni, uning mavzusini aks ettirgani sabab unga tarjimon alohida e'tibor qaratmogʻi kerak.

"Agʻridagʻi afsonasi" 1972-yilda Rahim Raisniya tomonidan fors tiliga agʻdarilib, "Efsonayi Agʻridagʻi" nomi bilan 1985-yilda "Dunyo" nashriyotida ketma-ket 2 marta nashr ettirdi[82].

Turk millatiga xos or-nomus, qat’iyatlilik, jo‘shqinlik asarda o‘z ifodasini topgan “Ag‘ritog‘ afsonasi” romanining rus tiliga tarjimasi (“Легенда горы”) sodda tilda, so‘zma-so‘z tarjima usulida yaratilgan. Bu tarjima rusiyzabon qatlam ongida turk xalqining milliyligi, uzoq o‘tmishi, folklor san’atini to‘laligicha shakllantiradi. Zero, badiiy tarjimaning asosiy maqsadi, bir xalq, millatga xos qadriyatlar, urf-odatlar, umuman, o‘sha xalq haqidagi tasavvurlarni boshqa til vakillariga yetkazishdan iborat.

Asarning ruscha tarjimasi haqida gap ketganda shuni ta’kidlash joizki, rus tarjimoni ba’zi o‘rinlarda jumlalarni tashlab yuborgan. Bu esa, mazmun zanjirining ayrim o‘rinlarda uzilib qolishi, ba’zan tushunmovchiliklarga sabab bo‘lgan.

Asarning o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi ravon o‘qilishi, garchi asliyatda mavjud bo‘lmasa-da, badiiy bo‘yoqlarning naqadar ko‘p qo‘llanganligi bilan kitobxonni o‘ziga tortadi. Yashar Kamol asliyatda frazeologik birliklardan keng ko‘lamda foydalanmagan, faqat zarur o‘rinlarda ibora va tasviriy ifodalarni qo‘llagan. O‘zbekcha tarjimani o‘qigan o‘quvchi unga uni o‘zbek tilida yozilgandek qabul qiladi.

Xulosa. Yashar Kamol asarlarining dunyo tillariga tarjima qilinishi turk adabiyotining dunyo xalqlari orasida keng targ‘ib qilinishini ta’minlab kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, avvalo yuqorida nomlari zikr etilgan ikki yirik asarning o‘zbek adabiyoti xazinasining bebaho mulkiga aylanganini e’tirof etgan holda, asarlarning o‘zbekcha tarjimalari va ularning milliy o‘ziga xosliklari, badiiy xususiyatlarini qayta yaratish masalalari ustida kelajakda jiddiy tarjimashunoslik tadqiqotlari olib borilishi zarurligi, uhbu maqolaning esa bu yo‘lda amalga oshirilgan ilk ishlardan hisoblanishini ta’kidlash o‘rinli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yaşar Kemal. Ağrıdağı Efsanesi, roman. www.cizgiliforum.com.
2. Яшар Камол. Севги афсонаси: роман. Таржимон: Х.Ҳамидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021 йил. – 128 б.
3. Yaşar Kemal. Yılanı öldürseler, roman. Yapı Kredi Yayınları, 1969.
4. Yashar Kamol. Ilonni o‘ldirsalar, qissa. Tarjimon L.Aminova. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001-yil. – 75 bet.
5. Aminova L., Turk yozuvchisi Ya.Kamol asarlarida badiiy mahorat masalalari. Filol. f. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. – Toshkent, 2003.
6. Salomov G’. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: “Ўқитувчи”1978. 149-bet.

7. Yaşar Kemal, Efsaney-i Ağrıdağı, Çev. Rahim Raiesnia, Tehran, Donya Yayınları, 1985.

UMAR XAYYOM RUBOIYLARINING O’ZBEKCHA TARJIMALARI

Madinaxon ISMOILOVA, *TDSHU magistranti*

Umar Xayyom asosan o’zining ruboiylari bilan dunyoga mashhurdir. Aynan Umar Xayyom tufayli ruboiy jahon so‘z san’atining mashhur janrlaridan biriga aylangan. U o‘zining falsafiy jihatdan teran va sermazmun ruboiylari bilan Sharq she’riyatida falsafiylikning chuqurlashuviga katta hissa qo‘shgan.

Uning ruboiylari sharqda sevib o’qishadi va uning ruboiylari hali hanuz kitobxonlar qo’lidan tushmaydi. Ularda shoir dunyo, odam haqida, hayot mazmuni haqida fikr yuritadi.. Umuman, ishq va hayot, inson tafakkurining qudrati, umrning ma’nosi, insoniy fazilat va qusurlar, ma’rifat va jaholat kabi mavzular shoir ruboiylarining asosini tashkil etadi. Tez-tez uchrab turadigan may obrazi esa ilohiy muhabbat, hayot lazzatlarini ulug‘lash vositasidir.

Umar Xayyom ruboiylari dunyoning deyarli barcha asosiy tillariga tarjima qilingan. Jumladan, o‘zbek tiliga ham ular bir nech marta tarjima qilingan.

Xayyom ruboiylarini XX asr boshlaridan o‘zbek tiliga tarjima qilishga kirishilgan. 1914-yil **“Sho‘ro”** jurnalining bir necha sonlarida shoirning ruboiylari ilmiy sharhi bilan nasriy tarjimada e’lon qilingan. Fitrat **“Fors shoiri Umar Xayyom”** nomli risolasida (1929) uning 35 ta ruboiysini nasriy tarjimada keltirgan. Keyinchalik Fattoh Abdullayev shoirning 14 ta ruboiysini she’riy tarjima qilgan. Shu bilan birga Nusrat Karim ham ruboiylar tarjimasiga o’z hissasini qo’shgan. Xayyom ruboiylari tarjimasida Shoislom Shomuhamedovning o’rni beqiyos. U Umar Xayyom ruboiylarining deyarli barchasini adabiyotning barmoq vaznida tarjima qilib, Xayyom ruboiylari tarjimasiga katta hissa qo’shgan. Jumladan sharqshunos va tarjimonlar Ergash Ochilov va Jamol Kamol Xayyom ruboiylarini aruz vaznida tarjima qilishgan. Tarjimalarni ko’zdan kechiradigan bo’lsak, Shoislom

Shomuhammedov va Jamol Kamol tarjimalarida qofiya buzilmasligi uchun forsiy so’zlardan ba’zi joylarda ko’p qo’llanilgan. Ergash Ochilov tarjimalarida esa ko’proq zamonaviy va hozirgi zamon o’quvchilariga mos ravishda o’zbekcha so’zlardan mohirona foydalanilgan. Har bir tarjimonning o’ziga yarasha uslub va so’z qo’llash vositalari bo’lib, ruboiylar mahorat bilan o’zbek tiliga tarjima qilingan. Ularni o’qib, musiqiy ohangni va qalblarni jo’mbushga keltiruvchi ma’nolarni anglash mumkin, bu esa albatta tarjimonlarning qanchalik kuchli so’z boyligi va tarjima mahoratiga ega ekanligini bildiradi:

یک دست به مصحفیم و یک دست به جام گه مرد حلالیم و گهی مرد حرام ماییم در این گنبد فیروزه رخام نه کافر مطلق نه مسلمان تمام	Yek dast be mosxafim va yek dast be jom, Gah marde halolim, gah marde harom, Moyim dar in gonbade firuze raxom, Na kofar motlaq, na mosalmone tamom.

Ushbu ruboiyda insonlar islom diniga e’tiqod qilishlariga qaramay, gunoh amallarni bila turib, ba’zida ularga qo’l urishi, olloh taolo harom deb belgilab qo’ygan ishlarni bajarib qo’yishlari haqida so’z boradi. Insoniyat ba’zan may ichib, musulmonlikka amal qilmay qolishi ammo, nima bo’lganda ham barcha oddiy banda, gunohlardan tiyilish kerakligi haqida, kuyunib yozadi. Quyida ushbu ruboiyni uchta tarjimon tarafidan qilingan tarjimalarini keltirib o’tamiz:

Bir qo’lda Qur’onu bittasida jom,
Ba’zida halolmiz, ba’zida harom.
Feruza gumbazli osmon ostida
Na chin musulmonmiz, na kofir tamom.

Birinchi tarjima Shoislom Shomuhamedovga tegishli hisoblanadi, u adabiyotning barmoq vaznida bo’lib, barmoq tizimining erkin 6+5 tartibida tarjima qilgan. Bunda 6-bo’g’indan so’ng pauza ya’ni bir oz to’xtab, so’ng keingi qism o’qiladi. Shunda ruboiyni ohangi musiqiy va o’qishda hech qanday qiyinchilik tug’dirmaydi.Shuning uchun uning tarjimalari oson o’qiladi.

Ruboiyning so’zlariga ahamiyat beradigan bo’lsak, unda birorta notanish so’zni ko’rmaymiz, ma’no xuddi originalidek saqlanib qolingan va ma’no buzilishiga yo’l qo’yilmagan. Tarjimon ruboiyni mahorat bilan o’zbek tiliga tarjima qilgan.

Bir qo’lda tutib Qur’on-u, bir qo’ldachi jom,
Gohida haloldirmiz-u gohida xarom,
Shu feruza osmon tagida bizmiz o’shal-
Na kofiri mutlaq, na musilmoni tamom!

Ushbu tarjima ustoz Ergash Ochilovga tegishli bo’lib, ruboiy aruz vaznida tarjima qilingan. To’rtlik adabiyotning eng murakkab vazni bo’lgan aruzda tarjima qilingan bo’lsa-da, barcha so’zlari tushunarli va bir nafasda ravon o’qiladi, oxirgi baytdagi “mutlaq” (asli arabiy termin) so’zi “chin”, ”shak-shubhasiz” degan ma’nolarni bildiradi. Ruboiyning originali aruz vaznida bo’ganligi uchun ham, ushbu tarjimada ruboiydagi original ohang ham saqlanib qolgan, tarjimada birorta notanish so’z bo’lmaganligi va shu bilan birga aaruz vazni ham saqlanib ma’no ifodalanganligi tahsinga sazovordir.

Bir qo’lda tutib Mus’hafu bir qo’lda-chi jom,
Gah mardi halolmizu, gah mardi harom,
Bizdirmiz o’sha gumbazi niliy tagida,
Na kofiri mutlaq, na musilmoni tamom.

Ushbu tarjima Jamol Kamolga tegishli bo’lib, aruz vaznida tarjima qilingan. Tarjimada ko’proq forsiy jumlalardan foydalanilgan. “Mardi halol”, “Mardi harom”, Gumbazi niliy”, kabi birikmalar forsiy hisoblanib, fors tilini bilmaydigan o’quvchilarga biroz notanishdek tuyulishi mumkin, ammo tarjima musiqiy ohangga ega bo’lib, bir nafasda qiynalmay o’qiladi. Tarjimadagi original ohang saqlanib qolgan bo’lsa-da, o’quvchi o’zbekona ma’no topishga biroz qiynalishi mumkin. Ammo Jamol Kamol tarjimalarida ham ayni Xayyomning aslida nima demoqchi ekanligidagi ma’noni ko’ramiz,

Xulosa qilib aytganda, Umar Xayyom ruboiylarining original matni ham fors tilini bilgan o’quvchilar uchun o’qishga qiyinchilik tug’dirmaydi.

Shoislom Shomuhamedov ruboiylarni barmoq vaznida tarjima qilib, o’zining uslubi va ohangini yarata olgan

Xayyom ruboiylarining o’zbekcha tarjimalarini bugungi kitobxonga taqdim etgan ustoz tarjimon Ergash Ochilov esa boshqa tarjimonlardan o’zining ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Ularda asl matndagi g’oyaviy mazmun va shoir ko’zlagan maqsad maksimal darajada saqlanib qolgan va aruz vazni ayni Umar Xayyom yo’nalishini ko’rsatib bergan.

Keyingi tadqiqotlarimizda ularni kengroq yo’sinda ko’rib, tahlil qilishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’ydik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Эргаш Очилов. Жаҳон Шеърияти Дурдоналари, (Умар Хайём, Тириклик тилсими).–Т.:Ўзбекистон, 2012.
2. Э.Очилов \ Умар Хайём (Рисола); лойиҳа муаллифи ва масъул муҳаррир Қ.К.Ражабов. − Т.: “Abu matbuot-konsalt ” нашриёти, 2014. − 32 б.
3. Таржима санъати: Мақолалар тўплами /[Тўпловчи Т. Жўраев; Таҳрир ҳайъати:. Ғ. Саломон (масъул Му-ҳаррир) ва бошқ.].—К. 6.—Т.: Адабиёт ва санъат нашри-ёти, 1985.—264 б.
4. Шоислом Шомуҳамедов. Умар Хайём. Рубоийлар.–Т.: Шарқ, 2008.–128 б.

SA’DIY “ GULISTON” INING O‘ZBEKChA TARJIMALARI

Nodira SUNNATOVA, *TDSHU magistranti*

Sa’diy Sheroziy nomi bilan dunyoga mashxur bo‘lgan Muslihiddin Abu Muhammad Abdullox ibn Mushrifiddin “Guliston” va “Bo‘ston” nomli ikki pandnoma asari orqali butun dunyoga tanilgan. Bu asarlar ko‘p yillar davomida maktab va madrasalarda ham darslik sifatida o‘qitilib kelingan. Xususan, uning bu asarlarining o‘zbek tiliga tarjimalari ham o‘zbek xalqi orasida ham juda mashhur.

“Guliston” bu pandnoma asar bo‘lib, unda o‘quvchi uchun pand nasihat ma’nosidagi xikoyalar, she’rlar keltirilgan. Asar 1258-yilda yozilgan bo‘lib, “Guliston”ning bizgacha 4 tarjimasi yetib kelgani ma’lum. Asarini birinchi marta 1390-1391-yillarda XIV asrda o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Sayfi Saroyi “Guliston bit-turkiy” nomi bilan Misrda tarjima qilgan. Sayfi Saroyi bu asarni o‘z do‘stlarining xohishlariga, talablariga binoan o‘zbek tilining qipchoq shevasiga o‘giradi.

Ikkinchi tarjima Muhammad Rizo Ogaxiy qalamiga mansub bo‘lib, bu asarni Xiva xoni Muxammad Raximxon II Feruzning xoxishi bilan o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Bu pandnoma asarning yana bir taniqli va to‘liq shakli toshkentlik mudarris Mullo Murodxo‘ja Solixxo‘ja o‘g‘liga tegishli. U 1909-yilda tarjima qilingan asarni “Shavqi Guliston” deb nomlagan.

Asarning so‘ngi zamonaviy tarjimasi esa 1968-yili nashr etilgan bo‘lib, asardagi she’riy qismlarni G‘afur G‘ulom va Shoislom

Shomuxammedovlar, asarning nasriy qismlarini esa Rustam Komilov o‘zbek tiliga tarjima qilishgan. Bu tarjimalar orasida faqat Mullo Murodxo‘janing tarjimasigina to‘liq tarjima qilingan.

Sayfi Saroyi o‘z tarjimasida ko‘proq turkiy so‘zlardan foydalangan va asardagi ayrim joylarini qisqartirib tarjima qilgan. Xattoki asarga o‘z qalamiga mansub bo‘lgan ba’zi she’rlarni xam kiritadi. Ogaxiyga tegishli tarjimada esa forsiy va arabiy so‘zlardan foydalangan va uning tarjimasida xam ko‘p qisqartirishlar kuzatiladi. Mullo Murodxo‘ja tarjimasini oladigan bo‘lsak, u madrasa toliblarining tushunish darajasini hisobga olgan holda o‘z tarjimasida qiyin so‘z va iboralarni sharhlab tarjima qilgan. Uning tarjimasida xam arabiy va forsiy so‘zlarning ishlatilganligi sababli omma uchun murakkablik qiladi. Zamonaviy 1968-yilda qilingan tarjimada xozirga zamon o‘quvchisi uchun ancha yengilliklar yaratilgan va asar o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun juda tanlangan so‘zlar bilan tarjima qilingan bo‘lib, ancha qisqa tarjima xisoblanadi.

Xar bir tarjima o‘z davrining talab va ehtiyojlariga javob sifatida amalga oshirilgan va ularning har biri maxorat bilan o‘zbek tiliga o‘girilgan hamda o‘z o‘quvchilariga ega bo‘lgan. Asardagi bir bayt tarjimasi misolida tarjimonlarning mahorat darajasini muayyan ma’noda baholash mumkin:

Oqebat go‘rgzode go‘rg shavad,
Garche bo odamiy bo‘zo‘rg shavad.

Bu baytning ma’nosi shundan iboratki, bo‘ri bolasi insonlar orasida katta bo‘lgani bilan, alaloqibat asliga, ya’ni bo‘riligiga tortadi. Bu o‘rinda olma tagiga olma tushadi, yoki Gulxaniy qalamiga mansub “Zarbulmasal”dagi chayon va toshbaqa matalida toshbaqa chayonga yaxshilik qilsa-da, oxiri chayon baribir chayonligini qilib toshbaqani chaqmoqchi bo‘ladi. Quyida bu baytning to‘rt tarjimon tomonidan amalga oshirilgan to‘rt xil tarjimasini ko‘rib chiqamiz:

Bo‘rining bolasi bo‘lur oqibat
Otasi kabi ul haromiy bo‘ri.
Necha ko‘b yedursang, senga bir kun ul,
Urur zaxm, andan saqina yuzi [1, 177].

Sayfi Saroyi baytga ijodiy yondashgan va uni kengaytirib tarjima qilgan – ikki misra tarjimada to‘rt misraga cho‘zilgan, boshqacha aytganda, fard to‘rtlikka aylangan. Lekin tarjima shakl jihatidan tafovutli bo‘lsa-da, mazmun jihatidan asliyatga muvofiq. Til jihatidan

bu tarjima hozirgi o‘quvchiga bir qadar tushunarsiz bo‘lishi tabiiy, lekin u o‘z davrida eng sodda va tunarli tarjima bo‘lgan. Tarjimada “zaxm” so‘zi forscha bo‘lib, yara, jarohat ma’nosini bildiradi.

Bo‘ri farzandi bo‘ri bo‘lgusidur,

Nechakim odam ichra ulg‘aysun [2, 22].

Bu tarjima Ogaxiy qalamiga mansub bo‘lib, bayt so‘zma-so‘z asliyatga mos tarzda tarjima qilingan. Ma’no jixatidan xam o‘quvchiga tushunarli.

Oqibat bo‘ri nasli bo‘ri o‘lur,

Garchi inson ichida katta bo‘lur [3, 39].

Mullo Murodxo‘ja tarjimasida xam tarjima aynan asliyatga muvofiq tarjima qilingan, xamda tarjima omma uchun xam tushunarlidir.

Odamlar nechog‘lik qilsa tarbiyat:

Bo‘rining bolasi bo‘ri oqibat [4, 29].

Zamonaviy tarjimada bayt ma’no jihatidan juda tushunarli va jaranglab chiqqan. Asliyatga ham muvofiq. Tarjimadagi so‘zlar mahorat bilan tanlanganligi uchun o‘quvchiga uni tushunish xech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Ko‘rinib turibdiki, har bir tarjimon baytni mahorat bilan tarjima qilgan va xar birining o‘z davrida xam, xozirgi kunda xam o‘quvchilari bo‘lgan va bor.

Xulosa qilib aytganda Sa’diyning “Guliston” asari tarjimalarining barchasi maxorat bilan tarjima qilingan va o‘z davri talab-ehtiyojlarini qondirgan. Bu tarjimalardan xozirgi kunda ham mutaxasislar foydalanishlari mumkin, ammo hozirgi o‘quvchining o‘qishi uchun asar biroz qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu sababli asarning bugungi o‘quvchiga, bugungi tilga moslab, tushunarli sodda va to‘liq tarjimasini amalga oshirishga extiyoj bor. Bu hozirgi tarjimachilikning kun tartibida turgan muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sayfi Saroyi. Guliston bit-turkiy \\ Uch bulbul gulshani. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986, 177-bet

2. Ogaxiy, Asarlar, Ogaxiy tarjimasidagi “Guliston” va “Xaft paykar”. T., 2019-y., 22-bet

3. Sa’diy, “Guliston”, Mullo Murodxo‘ja tarjimasi. T., 2005-y., 39-bet

4. Sa’diy, “Guliston”, tarjima G‘afur G‘ulom, Sh, Shomuxammedov nazm va nasr Rustam Komilov.T., 1968-y.. 29-bet

YAPON TILIDAN O‘ZBEK TILIGA BILVOSITA TARJIMANING AYRIM MUAMMOLARI

Dildoraxon SHUKUROVA, *TDSHU talabasi*

Ilmiy rahbar: PhD. Xodjayeva N.

“O‘zbek va yapon xalqlarini o‘xshash milliy va axloqiy qadriyatlar bilan birga ilm-fan va tafakkurga, kamolotga doimo intilib yashash kabi fazilatlar birlashtirib turadi” [1].

Shavkat Mirziyoyev

Hozirgi kunda yurtimizda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlar va ularning bilim saviyasini ko‘tarish, yosh avlodni rag‘batlantirish kabi ishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini kengaytirish, yosh avlodni barkamol, har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash kabi ishlar hozirgi kuning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda adabiyot, san’at sohasi rivojlanib borar ekan, ayniqsa Sharq adabiyoti durdonalariga talab kuchaymoqda. Negaki, o‘tgan asrda asosan Yevropa adabiyotidan tarjimalar ko‘p amalga oshirilgan va hozirda o‘zbek adabiyotida g‘arb asarlari namunalari ko‘plab uchraydi. Shu jumladan, sharq adabiyotiga ham qiziqish katta. Lekin sharq yozuvchilari hayoti va ijodi, asarlari tarjimasi haqida o‘zbek tilida ma’lumotlar kam bo‘lgan. Ayniqsa yapon yozuvchilarini asarlari tarjimalarini amalga oshirish hozirgi yapon tarjimonlari uchun eng katta maqsad desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Yapon adabiyoti, yozuvchilari hayoti, durdona asarlarini o‘rganish va tarjimalarni amalga oshirish har bir shu tilni o‘rganuvchi talaba uchun muhim hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yaponiyadagi Nagoya universitetiga qilgan tashriflarida: “Ma’lumki, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p asrlik tarixga ega. Shu o‘rinda o‘zbek va yapon xalqlarini o‘xshash milliy va axloqiy qadriyatlar bilan birga ilm-fan va tafakkurga, kamolotga doimo intilib yashash kabi ezgu fazilatlar birlashtirib turishini e’tirof etmoqchiman”- deganlar [1]. Bunda Prezidentimiz yapon xalqi va o‘zbek xalqi o‘rtasida aloqalarni mustahkamlash, ularni yanada rivojlantirish, yoshlarning Yaponiya

universitetlarida ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash kabi masalalarni ham ilgari surganlar. Hozirgi kunda qabul qilingan harakatlar strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri jahonga chiqish, O‘zbekiston nomini butun dunyoga tanitishdan iborat. Buning uchun albatta, biz yoshlar, ayniqa, tarjimonlarning o‘rni beqiyos. Biz amalga oshirayotgan tarjimalar, ilmiy izlanishlar Yaponiya va O‘zbekiston aloqalarini yanada mustahkamlashga hissa qo‘shadi degan umiddamiz. Ushbu mavzu juda kam o‘rganilgan bo‘lib, umumiy tarzda tarjima muammolari haqida ma’lumotlar mavjud. Lekin yapon tilidan tarjima bilvosita jarayonidagi muammolar haqida ma’lumotlar yo‘q. Tarjima nafaqat matnni bir tildan boshqasiga o‘tkazish, balki fikrlarni til vositalari orqali ya’ni so‘zlar, gaplar yordamida ifodalash deganidir. Shunday ekan, tarjima har bir xalq adabiyotini boyitadi, unga yangi yo‘nalishlar, uslullar olib kiradi. Hozirgi kunga kelib, davlatlararo munosabatlar mustaxkamlanganligi, yapon, xitoy tili o‘rganuvchilar soni oshgani tufayli ushbu tillardan qilingan tarjima adabiyotlarimiz ham boyib bormoqda. Avvalari yapon, xitoy adiblari, asarlari haqida o‘zbek tilida ma’lumotlar topish biroz mushkul edi, hozirgi kunda esa bunday ma’lumotlar ham o‘zbek adabiyotida ko‘plab uchraydi. Quyida esa yapon tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan mashhur yapon asarlari haqida ma’lumot berib o‘taman.

Natsume Sosekining「こころ」(“Kokoro”, 1914) nomli romani butun dunyoga mashhur hisoblanadi. Yozuvchining “Qalb” romani o‘zbek tiliga 2013-yil, yapon tilidan Nodira Aminova tomonidan tarjima qilingan va “Jahon adabiyoti” jurnalida bosib chiqarilgan. Ushbu asar ustoz va shogird o‘rtasidagi vorislik munosabatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, XX asr yapon yoshlari uchun bir umrlik dasturilamal bo‘lib qolgani sir emas.

Keyingi mashhur asarlardan Kobo Abening「砂の女」(Sunano onna “Qumdagi ayol”, 1962) va「はこおとこ」(Hako otoko “Yashik odam”, 1963) kabilarni tarjima asarlarga misol qilib keltirishimiz mumkin. “Qumdagi ayol” romani 2016-yilda Vahob Ro‘zimatov va Erkin Ernazarov tomonidan o‘zbek tiliga rus tilidan bilvosita tarjima qilingan va “Yangi asr avlodi” nashriyotida nashr qilingan. “Yashik odam” romani esa 1986-yilda S.Rahmon tomonidan rus tili orqali o‘zbek tiliga tarjima qilingan, “Adabiyot va san’at” nashriyotida nashr

qilingan. Kobo Abe ijodining asosiy mavzusi — zamonaviy dunyoda komil insonni qidirishdir. Uning “Qumdagi xotin”, “Begonaning yuzi” va “Yoqilgan karta” asarlari asosida 1960-yillardayoq rejissyor Xirosi Tesigaxara filmlar suratga olgan. Kobo Abening “Yashik odam” romani nafaqat butun dunyoda, balki, o‘zbek kitobxonlari tomonidan ham sevib o‘qiladi.

Xaruki Murakami “Shamol qo‘shig‘ini tingla”. Keyingi tarjima asar Xaruki Murakamining “Shamol qo‘shig‘ini tingla” nomli asaridir. “Shamol qo‘shig‘ini tingla” romani 1979-yilda yozilgan bo‘lib, yapon tilidan rus tiliga 2006-yilda Vadim Vyacheslavovich Smolenskiy tomonidan tarjima qilingan. Rus tilidan o‘zbek tiliga esa 2008-yilda Alisher Otaboyev tarjimani amalga oshirgan va “Jahon adabiyoti” jurnalida nashr qilindi. Ushbu asar o‘zbek kitobxonlari orasida yetarlicha mashhurlikka erishdi deya olaman. Xaruki Murakami zamonaviy yapon adabiyotining yirik namoyandalaridan biri. Adib asarlari dunyo xalqlarining ellikdan ziyod tillariga tarjima qilingan, o‘nga yaqin milliy va xalqaro adabiy mukofotga sazovor bo‘lgan yozuvchi jahon adabiyoti rivojiga ta’sir ko‘rsatgan zabardast so‘z san’atkorlari qatorida o‘z o‘rniga ega. Mashhur yapon adibining sir-sinoatga to‘la, g‘aroyib ijod olami bilan tanishishda bu asar o‘zbek kitobxoni uchun o‘ziga xos mutolaa bosqichini o‘taydi deb o‘ylayman.

Ushbu maqolada “Shamol qo‘shig‘ini tingla” romanining bilvosita tarjimadagi leksik-stilistik xususiyatlaridagi ustunlik tomonlari va qusurlarini quyida asardan berilgan parchalar orqali aniqlaymiz.

Asliyatda mantiqiy-erkin ma’nodagi so‘zlar yordamida bayon etilgan fikr tarjima tilida har xil lug‘aviy ma’noga ega til vositalari – asliyatdagi vositaga shakliy jihatdan yaqin hamda undan leksik tarkibi bilan farq qiladigan til birliklari yordamida ifoda etiladi [2, 17]. Ushbu fikrlar isbotini quyidagi parchaning tarjimasida ko‘rishimiz mumkin.

Asliyat: “翌日の朝、僕はその**真新しいチクチクするTシャツを着て**しばらく港の辺りをあてもなく散歩してから、目についた小さなレコード店のドアを開けた。 店には**客の姿はなく**、店の女の子が一人でカウンターに座り、うんざりした顔で伝票をチェックしながら缶コーラを飲んでいるだけだった” [3, 63-64].

Rus tilidagi tarjimasi: “На следующее утро я **напялил обновку** – она приятно покалывала тело – и пошел бродить по

окрестностям порта. Мне встретился маленький магазин грампластинок, и я зашел. В магазине **не было ни души** – лишь девушка-продавщица сидела за стойкой и со скучающим видом проверяла чеки, отхлебывая из банки колу” [4].

O‘zbek tilidagi tarjimasi: “Эртаси куни эрталаб **янги сарпони** кийдим, у баданимга ёқимли санчиларди, ва бандаргоҳ атрофида тентирагани кетдим. Йўлимда грампластинкалар сотиладиган кичкина дўконча учради, ичкарига кирдим. Дўконда **зоғ ҳам йўқ** эди — фақат сотувчи қиз пештахта ортида банкадан кола ҳўплаб зериккан қиёфада чекларни текшираётир” [5].

Yapon tilida berilgan **真新しいチクチクする T シャツ** (yangi tanaga yoqimli sanchilayotgan futbolka) so‘zi o‘zbek tilida “yangi sarpo” so‘z birikmasi bilan berilgan, rus tiliga esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilingan. Lekin ushbu tarjima biroz milliylashtirish bo‘lib, yapon madaniyati haqida ma’lumotga ega bo‘lmagan kitobxonda noto‘g‘ri tushuncha paydo qilishi mumkin. Shu sababli, *tanamga yoqimli sanchilayotgan yangi futbolka* deb berilsa lisoniy jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

Quyidagi jumlada ham leksik tarkibi bilan farq qiladigan so‘zlardan foydalanib muvaffaqiyatli tarjima amalga oshirilgan. **[客の姿はなく]** so‘z birikmasi tarjimasi: mijoz yo‘q, **[не было ни души]** tarjimasi: jon yo‘q so‘zi o‘zbek tiliga “zog‘ yo‘q” tarzida muqobili tanlangan. Iboralar tarjimasida tarjimon turli prinsiplarni qo‘llaydi. Ekvivalent va muqobil iboralarni topib tarjima qilishdan tashqari, ko‘p holatlarda asliyatda berilgan oddiy so‘zlarni ham o‘zbek tiliga ibora bilan o‘giradi [2, 14]. Quyida berilgan parchada esa maqollar tarjimasida muqobili tanlanib tarjima qilinganini ko‘rishimiz mumkin.

Asliyat:「何故わかる？」「匂いよ。金持ちが金持ちを嗅ぎわけられるように、貧乏な人間には貧乏な人間を嗅ぎわけることができるのよ [3, 79] 。」

Rus tilidagi tarjimasi: – Откуда ты знаешь, кто беднее?

– По запаху. Богатый чует богатого, а бедный – бедного.

Джей принес бутылку пива, и я налил себе [4].

O‘zbek tilidagi tarjimasi: — Сен қаердан биласан ким кўпроқ камбағаллигини?

— Ҳидидан. Бой бойга боқади, сув сойга оқади [5].

「匂いよ。金持ちが金持ちを嗅ぎわけられるように、貧乏な人間には貧乏な人間を嗅ぎわけることができるのよ。」Tarjimasi: “Hididan. Boy boyni hididan sezganidek, kambag‘al kambag‘alni hididan sezadi”. Ushbu maqoldan bilishimiz mumkinki, yapon madaniyatida boylarning boyligini sezishda hid omiliga e’tibor qaratishar ekan. Endi xuddi shu maqolni rus tilidagisini ko‘ramiz. **“По запаху. Богатый чует богатого, а бедный – бедного”.** Rus tilida ham muqobili tanlanib tarjima qilingan. O‘zbek tilida esa aynan shu so‘zlar ishtirok etgan maqol bo‘lmasa-da, uning ma’nosini ochib beruvchi qisman ekvivalenti mavjud. Tarjimon maqolning tarjimasiga ijodiy yondashib, “boy boyga boqar, suv soyga oqar” maqolini to‘g‘ri tanlagan deb o‘ylayman. Chunki, agarda so‘zma-so‘z tarjima qilib qo‘yilganda umuman g‘aliz jumlalar paydo bo‘lgan bo‘lardi.

Quydagi misolda o‘lchov birliklari tarjimasidagi kamchilikni ko‘rib chiqamiz.

Asliyat:「腹を裂いてみると、胃の中には **ひとつかみの草**しか入ってはいなかった [3, 134]. **O‘zbek tilidagi tarjimasi:** — Қорнини ёрдим. Ошқозонида **бир лўнда ўт** бор экан [5].

Yuqorida keltirilgan parchada quyidagi so‘z birikmasi keladi: **ひとつかみの草.** So‘zma-so‘z tarjimasi: “bir chimdim o‘t” bo‘ladi. *Bir to‘p* yoki *bir siqim* so‘zlarini qo‘llansa, matnga yanada ijodiy yondashilgan bo‘lardi deb o‘ylayman. Bilamiz, o‘zbek tilidagi tarjima rus tilidan amalga oshirilgan va shu yerda bilvosita tarjimaning qusurlarini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni vositachi til orqali qilingan tarjimada ma’nolar va so‘zlar o‘zgarishi kuzatiladi. Rus tilidagi tarjimasida “**ком травы**” deb berilgan, shu jihatdan bu ma’no o‘zbek tiliga ham ko‘chgan. **Rus tilidagi tarjimasi:** – Вскрыл ей живот. В желудке **оказался ком травы [4].**

Tarjima jarayonida diniy yoki bayramga doir so‘zlarni tarjimasida ham qiyinchilikga duch kelamiz. Ularni to‘g‘ri tarjima qilish uchun esa madaniyatlar haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lish talab etiladi. Agarda bunday so‘zlarni milliylashtirgan holda tarjima qilinsa, kitobxonda noto‘g‘ri tushunchalarni paydo qiladi.

Milliy-madaniy leksikani, dinga tegishli tushunchalarni tarjima qilishning o‘ziga yarasha ba’zi bir murakkabliklari bor. Shuning uchun, milliy-madaniy tushunchalar tarjimasida so‘zning ekvivalenti topiladi yoki transliteratsiya usulidan foydalaniladi [2, 110-111]. Shundan kelib chiqib quyidagi parchani ko‘rib chiqamiz.

Asliyat:「冬にはまた帰ってくるさ。**クリスマス**のころまでにはね。12 月 24 日が誕生日なんだ」[3, 137]。**Rus tilidagi tarjimasi:** – Зимой я приеду снова. **На Рождество.** У меня день рождения 24 декабря [4]. Ushbu gapda [**クリスマス**] so‘zi tarjimasi: Krismas(rojdestvo). **O‘zbek tilidagi tarjimasi:** — Қишда яна келаман. **Мавлуд байрамига**. Туғилган куним 24-декабрда [5]. Yuqorida keltirilgan, “rojdestvo” hamda “mavlud” so‘zlarining lug‘aviy ma’nosi quyidagicha:

Rojdestvo har yili Iso Masihning tug‘ilgan kunini nishonlash bayrami bo‘lib , asosan 25-dekabrda butun dunyo bo‘ylab milliardlab odamlar orasida diniy va madaniy bayram sifatida nishonlanadi [6].

Mavlud, mavlid annabiy (arab. — tug‘ilish, payg‘ambarning tug‘ilgan kuni) — Muhammad (s.a.v) payg‘ambarning tug‘ilgan kuni bilan bog‘liq bayram hisoblanadi. Rabiulavval oyining 12-kuni nishonlanadi [7].

Lug‘aviy ma’nolarida ko‘rganimizdek, krismas ya’ni rojdestvo hamda mavlud so‘zlari boshqa-boshqa din va payg‘ambarlar uchun qo‘llanilar ekan. Shundan kelib chiqib, yuqoridagi tarjimada noo‘rin ishlatilgan. Yapon tilidan rus tiliga ekvivalent tarjima amalga oshirilgan. Lekin o‘zbek tilidagi tarjima xato hisoblanadi, chunki bu tarjima orqali kitobxon yaponlar ham mavlud bayramini nishonlar ekan degan tushunchaga kelib qolishi mumkin. Chunki yaponlarning ko‘p qismi xristian diniga e’tiqod qiladi va taxmiman 99% aholi Rojdestvo bayramini nishonlaydi. Rojdestvo so‘zi o‘zbek kitobxoniga ham notanish emas, shuning uchun tarjimada ham “mavlud” so‘zining o‘rniga “rojdestvo” qo‘llanilsa yanada tushunarli bo‘lgan bo‘lardi deb o‘ylayman.

Tarjima murakkab jarayon bo‘lib, unda tarjimonning mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarjima faoliyati bilan shug‘ullanish uchun faqatgina asliyat tilini bilish yetarli emas. Tarjimonda har sohadan ma’lumotlar va ijodkorlik qobiliyati bo‘lishi lozim. Ushbu maqolamda yapon tilidan o‘zbek tiliga amalga oshirilgan tarjimalarda uchraydigan

muammolar, qiyinchiliklarni o‘rganib chiqdim va ular yana juda ko‘plab ekanligini tushundim. Tarjima qilavergani sari tarjimonda mahorat va tajriba oshib boraveradi. Chunki, bir asarda tarjima qila olmagan so‘zini keyingi asar tarjimasida topishi mumkin. Tarjimadagi so‘z tanlash muammosi, realiyalar, frazeologizmlar tarjimasi kabi ko‘plab qiyinchiliklarni maqolamda ko‘rib chiqdim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.xabar.uz/uz/talim/shavkat-mirziyoyevning-nagoya
2. Xodjayeva N.B. Premchand asarlari o‘zbekcha tarjimalarining leksik-stilistik xususiyatlari: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TDSHU, 2019. 51 b.
3. 村上春樹. 風の歌を聴け. – Y.: 講談社文庫, 2004.
4. https://knijky.ru/books/slushay-pesnyu-vetra
5. https://ziyouz.uz/jahon-nasri/xaruki-murakami-1949-yaponiya/xaruki-murakami-shamol-qushigini-tingla-roman/
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Christmas

MADANIYATLARARO MULOQOT VA BADIIY TARJIMANING LINGVOMADANIY ASPEKTLARI

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОЭТИЧЕСКОГО И ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА

Г.Х. МАНСУРОВА, *д.ф.н., проф., ТГПУ им.Низами*

В настоящее время теория перевода имеет много исследователей и преподается во многих вузах. Без него немыслимо изучение второго языка. Перевод применяется, главным образом из тех соображений, что он может оказаться полезным в процессе изучения иностранных языков.

Однако ученые, переводчики- профессионалы, с полным правом утверждают, что основное внимание в теории перевода отводится общим проблемам процесса перевода, характеристикам переведенных текстов и любым аспектам, которые способствуют пониманию чужих языков и культур.

Переводческая деятельность имеет огромное значение потому что люди веками переводили целые литературы, и здесь можно сказать, что переводы не способ ознакомления с отдельными произведениями, а средство векового общения культур и народов.

Перевод – сложное многогранное понятие, требующее от специалиста не только безупречного знания языка, но и умения различать смысловые и стилевые оттенки письменной и устной речи; знания истории языка и знания самой истории и развития культуры общества. [1.С 54]

Вопрос связи языка и культуры имеет практическую пользу. Без знания соответствующих коннотаций, имеющихся в другом языке, невозможно понять весь смысл в том, или ином тексте.

По моему мнению, перевод это – синтез науки и искусства. Чтобы понять и перенести смысл сказанного на одном языке в другой язык нужно не только хорошо знать оба языка, но и чувствовать. Только тогда читатель перевода может испытать схожие эмоции и эстетические чувства, что и читатель оригинала. Потому искусный перевод – это умение перенести мысли автора между языками и культурами. Это значит переводимое произведение написать на своем языке. Здесь переводчик должен вникнуть не только в значение слов, но и иметь дело с отдельными конструкциями, со смыслами, знаниями и ощущениями. И еще разбираться в истории, развитии культуры, традициях, общества.

Профессия переводчика служит сближению культур, литератур, нравственному воспитанию, солидарности и дружбе между народами.

Но быть переводчиком нелегко. Талант переводчика – это нелегкий труд, это совокупность знаний и умение применять эти знания на практике.

Теоретические науки помогают увидеть внутреннюю логику языка, понять его структуру, законы, по которым он функционирует. Сравнивая эти законы для разных языков, необходимо найти способы компенсировать различия, чтобы сделать перевод как можно более точным.

В основном, переводчиками часто становятся писатели и поэты, люди, которые виртуозно владеют не только иностранным, но и родным языком.

И, конечно, чтобы перевести стихи, нужно еще быть и поэтом.

Известные узбекские народные поэты А.Арипов и Э.Вахидов перевели на узбекский язык произведения многих известных поэтов. Так, А.Арипов перевел «Божественную комедию» Данте Алигьери, произведения Н.Некрасова, Л.Украинки, Т.Шевченко, К.Кулиева и многих других.

Э.Вахидов перевел «Фауста» Гёте, стихотворения С.Есенина, А.Твардовского, М.Икбала, Р.Гамзатова, Г.Эминс и других поэтов.

Предлагаю вашему вниманию свои переводы стихов наших любимых поэтов А.Арипова и Эркина Вахидова

«Муножот»ни тинглаб

А.Арипов

Қани айт, мақсадинг нимадир сенинг,
Нега тилкалайсан бағримни, оҳанг,
Нечун керак бўлди сенга кўз ёшим,
Нечун керак, рубоб, сенга шунча ғам!
Эшилиб, тўлғаниб ингранади куй,
Қайлардан келмоқда бу оҳу фарёд.
Ким у йиғлаётган, Навоиймикин,
Ва ё май куйчиси Ҳайёммикин, дод!
Бас, етар, чолғучи, бас қил созингни,
Бас, етар, кўксимга урмагил ханжар,
Наҳотки дунёда шунча ғам бордир…
Агар шу «Муножот» рост бўлса агар.
Агар алдамаса шу совуқ симлар,
Гар шул эшитганим бўлмаса рўё.
Сен бешик эмассан, дорсан, табиат,
Сен она эмассан, жаллодсан, дунё!
Эшилиб, тўлғаниб ингранади куй,
Асрлар ғамини сўйлар «Муножот».
Куйи шундай бўлса, ғамнинг ўзига
Қандай чидай олган экан одамзод!

Само по себе это стихотворение очень эмоциональное. Талант А.Арипова в том, что подобрав самые действенные эпитеты, он словом воздействует на души людей. Это стихотворение никого не оставит равнодушным. Есть такая узбекская народная мелодия «Муножот». Вот как искусно поэт описал её воздействие на человеческую душу.

Слушая «Муножот»

(перевод Г.Мансуровой)
Ну, скажи, твоя цель какова,
И зачем так терзаешь мне душу,
Звук мелодии – слёзы в глазах,
Звон струны – словно горе наружу!
Льётся музыка, словно, рыданье,
Струны сердце пронзили насквозь,
Если в музыке столько страданий
Сколько ж горя в ней, сколько слёз!
Стон из сердца доносится грустный
И прозрачна сейчас глубь веков,
Навои, может плачет так чувственно,
Иль Хайям, все поёт про любовь.
Стой, уймись, музыкант, стой, уймись!
Струны жалобно сердце пронзили
Если музыкой выразить жизнь,
Сколько ж слёз, люди с горя пролили?!
Если струны не лгут наперёд,
И так жалок сей горестный плач,
Не бешик, нам земля – эшафот,
И природа не мать, а палач!
Льётся музыка, словно, рыданье,
Струны сердце пронзили насквозь,
Если в музыке столько страданий
Сколько горя и мук род людской перенёс!

Камтарлик ҳақида
Эркин Вахидов
Гарчи шунча мағрур турса ҳам
Пиёлага эгилар чойнак
Шундай экан манманлик нечун
Кибру ҳаво нимага керак
Камтарин бўл, хатто бир қадам
Ўтма ғурур остонасидан
Пиёлани инсон шунинг-чун
Ўпар доим пешонасидан.

О скромности

(перевод Г.Мансуровой)
Как бы чайник ни кичился
Пиале он поклонился
Если всё продумать и понять
Ни к чему и нос вверх задирать.
Скромнее будь, запомни, что нельзя
Так приближать гордыню, похвалу
Вот почему и человек не зря
Пьёт чай, целую нежно пиалу.

У каждого стихотворения есть своя история. В конце восьмидесятых годов прошлого столетия Э.Вахидов побывал в одном из университетов Америки. Там ученый-педагог Ильзе Ханум преподавала узбекский язык. Её студентами были молодые люди самых разных национальностей. Эркин Вахидова до глубины души тронуло то, что в далёкой Америке есть преподаватель, обучающий студентов узбекскому языку. Все свое восхищение поэт выразил в строчках, в которых хорошо описаны обычаи и традиции узбекского народа.



(*қисқартирилган*)
Она тилим! Меҳринг бу қадар
Ўртагувчи экан жонимга.
Асир бўлиб лолу мусаххар
Термуламан Ильза хонимга.
Термуламан Ильза хонимга,
Кўзларимга ишонмай ҳайрон.
Амриқолик хушрўй олима
Сўзлар эди ўзбекча равон.
«Сиаттлга хуш келибсизлар,
Олис юртдан йўл босиб йироқ.
Танишинглар, бу йигит, қизлар
Ўзбекчадан олмоқда сабоқ...»
Дастурхонда парварда, пашмак,
Хандон писта, қип-қизил ширмой.
Атлас кийган сулув келинчак

Одоб билан узатар кўк чой.
Мен эс-ҳушим йиғмасдан ҳали
Қулоғимга дилбар куй етди.
Накамури — япон гўзали
«Тановар»га чарх уриб кетди.

Ильзе Ханум *(сокращенно)*
Родной язык…Любовь к тебе лелея
Я пронесу через всю жизнь свою
Сейчас узбекский слышу, столбенея,
В Америке из уст Ильзы ханум.
Слышу ясно, сердцем замирая
Ни глазам не веря, ни ушам,
Ильза ханум, милая, родная!
Как поверить мне вашим речам?!
Вы сказали: « Хуш келибсиз!
Сиэтлга, ассалом!
И студенты ваши дружно
Приглашают нас в свой дом.
Дастархон накрыт прекрасно:
Парварда и ширмой нон
В платьях ярких хан атласа
Нам протягивают чой.
Я не мог в себя прийти сначала
Очарованный красою дивных чар
Японка Накамури исполняла
Узбекский танец «Тановар»

В строчках этого стихотворения можно наблюдать традиции и элементы узбекской культуры. Вот это и есть взаимосвязь культур разных народов.

На занятиях по лингвокультурологии, рекомендую применять стихи наших узбекских поэтов и в оригинале для узбекских групп, и в переводе на русский язык. Хорошим примером будут стихотворения «Узбекистон» А. Арипова (в переводе В.Пеньковского), Э.Вахидова «Дарддошлик» «Сострадание» (в переводе А.Файнберга) и другие.

Использованная литература:

1. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. –М., ИОСО РАО. 2001.224

2. Комиссаров В.Н. Общая теория перевода. –М.: ЧеРо. 1999.134
3. Федоров А.Б. Основы общей теории перевода. –М.: Высш.шк. 1983.

TURKCHA KINOFILMLARDAGI QARG‘ISHLARNI O‘ZBEK TILIGA O‘GIRISH MUAMMOLARIGA DOIR

*PhD. **Xayrulla HAMIDOV**, TDSHU dotsenti,*
***Nilufar ESHNAZAROVA**, TDSHU magistranti*

So‘nggi yillarda turkshunoslikda adabiy jarayonlar, til hodisalari qatorida turkcha tilak va duolar, hatto qarg‘ishlar mavzusini o‘rganishga ham kirishildi. Turkcha tilak, duo, duoyibad va qarg‘ishlarning yuzaga kelishi, shakllanishi, ularning semantikasi, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan va formal-sintaktik tahlili bilan bog‘liq bir qator masalalar maqola uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Tilak, duo va qarg‘ishlar mavzusining chuqur o‘rganilishi nafaqat turk adabiyoti, folklori, falsafasi, milliy o‘ziga xosligi, psixologiyasi, mentalitetini, balki o‘zbekchadan turkchaga va turkchadan o‘zbekchaga tarjima muammolarini o‘rganishga ham ko‘mak beradi. Mavzuning o‘zgachaligi yana shundaki, unda turkcha tilak va duolarning o‘zaro o‘xshash narsadek ko‘rinsa-da, sinchiklab kuzatilsa, ular orasida farqli jihatlar ham mavjudligi aniqlandi.

Hozirgi zamon turkshunosligida qarg‘ishlar eng qiziqarli va dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bu borada Turkiyada bir qator tadqiqotlar olib borilgan [1]. Shuningdek, mazkur ishni o‘rganish jarayonida o‘zbek va turk tillarining izohli lug‘ati, ikki tilli (turkcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-turkcha, turkcha-ruscha va ruscha-turkcha) va turli ensiklopedik lug‘atlardan foydalanildi [2].

Olqish va qarg‘ishlar turk folklori janrlari orasida so‘z sehriga asoslanuvchi maxsus mustaqil janr hisoblanadi. Mazmunan bir-biriga zid bo‘lgan olqish va qarg‘ishlar turk folklorining qadimiy, an’anaviy va ommaviy janrlaridandir.

Onadolu’ning turli viloyatlarida “qarg‘ish” (“kargiş”)dan tashqari ah, bedat, beddua, ileng, inkisar, karış va lanet kabi nomlar bilan atab kelinadi (Kaya 2001:22). Turk tili lahjalarida duo bilan bir qatorda *“doğa, duğa, duba, bata”* so‘zlari ma’nodosh so‘zlar sifatida qo‘llanilib keladi.

Duo (olqish) so‘zi “kargış” va “beddua” so‘zlarining antonimi bo‘lib, u inson yashayotgan jamiyatining moddiy farovonligi va ma’naviy saodatini tilab, Yaratganga xitobi, iltijosidir. Ushbu so‘zning lug‘aviy ma’nosi duo (arabcha “dua”) “iltijo”dir. Turk tilida *“dua”*, *“hayırdua”.* Uning sınonımi “niyaz, yakarış”dir. Umumiy qilib aytganda, duo Yaratganga yolvorib, o‘zi yoki boshqalar uchun ezgu tilaklar tilash demakdir.

Hozirgi turk tilida “kargış” so‘zi bir ilmiy atama sifatida qo‘llanilsa, faol og‘zaki nutqda ushbu tushunchaning “beddua” shakli ko‘proq ishlatiladi. “Yomon niyat” ma’nosini beruvchi “beddua” (duoyibad) so‘zi forschadan o‘zlashgan “bad” (turkchada – ‘bed’) old qo‘shimchasi va arabcha “duo” so‘zlarining birikishidan hosil bo‘lgan. Lug‘aviy ma’nosi: “yomon”, “yomon tilak’ bo‘lib, la’nat, g‘azab ifoda etgan so‘zlardir. Uning sinonimlari sof turkiy so‘zlar hisoblangan “kargış”, “ilenç” yoki “ilenme”dir [3,253]. Bularning ma’nolari deyarli bir xil. “Beddua etmek”, “ilenmek”, “intizar etmek”: *“Şaban da elinde olmaksızın çocuktan so‘z ederken kendi karısına beddua ediyordu”* (H.E.Adıvar). “Beddua sinmek” – qarg‘ish tutganda ishning teskari ketishi.

Turk tilining izohli lug‘atida “Kargış” so‘ziga quyidagicha izoh beriladi: “qarg‘ash maqsadida aytilgan so‘z”. “Lanet”, “telin”, “beddua” so‘zlarining sinonimi. “Kargımak” (qarg‘amoq), “kargışlamak” (qarg‘ish yog‘dirmoq) va “lanet etmek” (la’nat o‘qimoq) [83] ”. “Kargışlı” - Tangrining yoki insonlarning nafrati, la’natiga duchor bo‘lgan, la’nati.

Badiiy adabiyotlarda qarg‘ishlarni ham uchratish mumkin. Ularning ko‘pi nutqda keng qo‘llanilgan shakllari hisoblanadi, ammo ba`zan asarda yuz berayotgan voqea hodisaga qarab ham o‘z-o‘zidan qarg‘ish shakllari yuzaga chiqishi mumkin: “Şeytan görsün yüzünü pis çolağın” [4,77], “Allah kahretsin şu akıl dediklari naneyi” [4,304].

Olqish va qarg‘ishlar so‘z magiyasiga asoslangan marosim folklori namunalari bo‘lib, ular tarixan maxsus marosimlar aytimlari sifatida shakllangan va taraqqiy topgan. Lekin bora-bora ular marosim bilan aloqadorligini yo‘qotib borgan. Biroq hozir ham olqish va qarg‘ishlarning ayrim namunalari marosimlar paytida ijro etilishi kuzatiladi. Olqishlar va qarg‘ishlar o‘ziga xos ixcham badiiy shaklda yaratilgan.

Qarg‘ishlar – xalq og‘zaki ijodining mustaqil, qadimiy, an’anaviy janri bo‘lib, insonga yomonlik, o‘lim tilash motivlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. “Qarg‘ish” atamasi qadimgi turk tilida “Qirqar” fe’li o‘zagidan yasalgan. M.Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida shu so‘z bilan o‘zakdosh “Qirg‘a” so‘zining g‘azab ma’nosida qo‘llanilganiga izoh berilgan. “Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati”da esa “Qarg‘amoq” fe’lining “la’natlamoq”, “haqoratlamoq” ma’nolarida, “Qirg‘amoq” fe’lining esa “koyimoq, so‘kmoq, urishmoq” ma’nolarida qo‘llanilganligi aytilgan. Hozirgi tilimizda “Qir” fe’li uchraydi va u “yo‘qotmoq”, “yo‘q qilib yubormoq” degan ma’nolarni ifoda etadi. Shuningdek, u yana lug‘at boyligimizda mavjud “Qirg‘in” so‘zi bilan ham o‘zakdosh hisoblanadi.

Ma’lumki, “Qirg‘in” so‘zi “urush, yo‘q qilib yuborish, boshiga o‘lim solish” kabi tushunchalarni ifoda etadi. O‘g‘uz lahjasida so‘zlovchi aholi o‘rtasida uchraydigan “Qirg‘in tegsin”, “Qirg‘iningni beray” kabi qarg‘ishdagi “g‘in” so‘zi “Qarg‘ish” so‘ziga mohiyatan yaqin bo‘lib, yo‘q qilish, o‘limga mahkum etish tilagini ifoda etadi. Shunisi aniqki, qarg‘ishlarning mazmun-mohiyati, maqsadini insonga o‘lim, yomonlik, kulfat, baxtsizlik tilash tashkil etadi. Ayniqsa, qarg‘ishlarning kattagina qismi insonga o‘lim tilash uchun aytilishi jihatidan ajralib turadi. Qarg‘ish barcha xalqlar folklorida mavjud. Shu bois turli xalqlar og‘zaki ijodida uchraydigan qarg‘ishlar mazmuni, shakli va poetik tabiatiga ko‘ra bir-biriga yaqin va hamohangdir. Chunki qarg‘ishlarning kelib chiqish asoslari bir ildizga – so‘z magiyasi bilan bog‘liq tasavvur – tushunchalarga borib taqaladi. Qarg‘ishlar hajman qisqa, ixcham, mazmunan lo‘nda bo‘ladi. Ularning o ‘ziga xos kelib chiqish tarixi, poetikasi, badiiy shakli, ifoda usuli mavjud.

Qarg‘ishlarning kelib chiqishiga qadimgi insonlaming so‘zning sehr-jodu qudratidan qo‘rqish hissi yetarli asos bo‘lgan. Qarg‘ishlarning aytilishiga biron-bir ijtimoiy voqelik sabab bo‘ladi. Ular hech qachon besabab yuzaga kelmaydi va xalq nutqida keng qo‘llanilmaydi. Aytaylik, qarg‘ishlar birovdan qattiq ranjiganda, g‘azablanganda, moddiy yoki ma’naviy zarar, ruhiy ozor ko‘rganda, jabrdiyda tomonidan jabr yetkazuvchilarga qarata aytiladi. Qarg‘ish, ko‘pincha ayollar nutqida uchraydi.

Binobarin, qarg‘ish, so‘kish va olqish janrlari so‘z magiyasiga aloqador hodisa sifatida qaralmog‘i folklorda muayyan aniqlikka erishuv imkoniyatini tug‘diradi. Turk xalq og‘zaki ijodida qarg‘ishlar

(beddualar)ning o‘rni nihoyatda katta. Insoniyat jamoa bo‘lib yashashni boshlagan davrlardan beri atrofdagi kishilardan kelgan yaxshilik yoxud yomonlikka javoban duo yoki aksincha, duoyibad qilish adabiyotning boshqa janrlaridan ko‘ra folklore, ya’ni xalq og‘zaki ijodida ko‘proq o‘z aksini topgan.

E’tibor beradigan bo‘lsak, duolarda ham, qarg‘ishlarda ham asrlar, hatto ming yillar avvalgi udumlar, urf-odatlar va o‘sha davrga xos so‘z, leksik birliklar mavjud ekanligini ko‘ramiz. Turk tasavvuf adabiyotida, pand-nasihatlarda, hayotiy voqealarda, lirikada, asosan, duolarga e’tibor berilsa, chorasiz qolgan, dard chekkan, alamli insonning taskin topish, dildagi sitamlarini oz bo‘lsa-da unutish maqsadida qarg‘ishga murojaat qilganiga guvoh bolamiz. Bu narsa asrlar davomida adabiyotga ham ko‘chib kelgan.

Salbiy ma’nodagi bo‘yoqdor so‘zlar qatorini egallagan qarg‘ishlar inson hayotiga bog‘liq holda turli vaziyatlarda ishlatilib kelingan.

Tilak, duo hamda qargish (duoyibad)larning yozma adabiyotlarda qo‘llanilishi, qaysilari ko‘proq va yana qaysilari umuman yozma adabiyotlarda ishlatilmasligini asarlardan misol qilib olsa bo‘ladi. Tilak hamda duolarga taalluqli misollarni qadimgi turk adabiyoti asarlaridan hamda hozirgi zamonaviy turk kinofilmlari qahramonlari nutqida ham ko’rish mumkin bo‘ladi. Masalan, “Yig’lama, ona!” (“Ağlama, Anne”), “Asrandi” (“Çocuk”), “Qanotsiz qushlar” (“Kanatsız kuşlar”) seriallarida qadimgi duolar, qarg‘ishlar ham keng o‘rinni egallagan bo’lsa, “Chuqur” (“Çukur”), “Qizim”(“Kızım”), “Hovli” (“Havlu”) serıallarıda so’kinish so’zlarini ko’plab uchratishimiz mumkin.

O‘zbek tilida ham, turk tilida bo‘lgani kabi qarg‘ishlar kishining yoshiga qarab aytiladi. Masalan, yoshlar ayb xatti-harakat qilganda, ularga qarata: *“Yigit o‘lgur”, “Qiz o‘lgur”, “Yigit boshing (yoki yosh boshing) go‘rda chirisin”. «Juvonmarg bo‘lgur», «Juvon o‘lgur», «Qirchiningni qiyay», «Qora soching taxtada taralsin»* kabi qarg‘ishlar aytilsa, keksa chollarga qarata *Soqoling go‘rda chirisin»,* kampirlarga qarata esa *«lachaging loyga qorilsin»* deb qarg‘aladi.

“Yig’lama, ona!” (“Ağlama, Anne”) seriali 20-qismida keksa qahramonlar nutqida ko’plab qarg’ishlarni uchratish mumkin. Masalan: serial qahramoni Nejmiye buvining “Ellerin kırılsın senin Vallahi” qarg’ishini tarjimon xuddi o‘zbek xalqi nutqida mavjud bo‘lgan “Qo‘llaring sinsin, ilohim” deb beradi. Yana Hasan boboning “Allah kemiklerini kırsın senin” jumlasi “Oyoqlaringni urib sindiraman”

tarzida vaziyatga ko’ra o’girilgan. So‘zma so‘z tarjima qilinganda “Alloh suyaklaringni qirsin” jumlasi hosil bo’lardi. Ammo tarjimon kinofilmdagi vaziyatga monand tarzda boboning jahlini ochiqlash maqsadida qarg’ishni tahdid ma’nosini beruvchi gapga aylantirgan.

Kinofilmlarda “Allah cezani versin”, “Allah kahretsin”, “Allah belani versin”, “Yazıklar olsun sana” qarg’ishlari har qanday yoshdagi qahramonlar nutqida uchraydigan qarg’ishlardir. Buni kinotarjimonlar “Xudo jazoyingni bersin”, “Baloga uchragur, iloyim” “Allohim o‘zi jazolasin” “Hayf senga”, “Uyat emasmi” tarzida tarjima qilishadi. Qarg’ishlar tarjimasida kinofilm ssenariysidagi vaziyat hamda o’zbek millati urf-odatu dunyoqarashiga xos so‘zlar tanlovi eng maqbul tarjima hisoblanadi. Chunki bugungi kunda yoshu qari turk kino, seriallarini sevib tomosha qiladi, bu esa millat dunyoqarashiga ta’sir etmay qolmaydi. Qahramonlar nutqidagi har bir so‘z tomoshabin ruhiyatida, tafakkurida chuqur iz qoldirishi mumkin. Qarg’ishlarning ko‘plab qo‘llanilishi esa xalq nutqiga kirib borishiga bu bilan madaniyatimizning salbiy tomonga og’ishiga sabab bo‘lib qolishi mumkin. Shuning uchun kinofilmlar tarjimasida uchraydigan qarg’ish va so’kinishni ifodalovchi so‘zlarni yumshatgan holda salbiy bo‘yoqdor so‘zlarga almashtirib tarjima qilinishi maqsadga muvofiqdir. Zero kinofilmlar va serial ishlab chiqaruvchilarning keng xalq ommasiga namoyish etishdan maqsadi ham xalq ma’naviy dunyoqarashini o‘stirish, ruhiyatiga ozuqa berishdir.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy kinofilmlarda qarg’ishlar anchayin kam ishlatilgan. Ammo so‘kinishni ifodalovchi so‘zlarning ko‘plab uchrashi tarjimonlarni o‘ylantiradigan va masalaga noziklik bilan yondoshishni talab qiladigan vaziyatdir. Qarg‘ish haqida gapirganda. uning so‘kish va haqoratlashdan farq qilishini anglab yetmoq lozim. Qarg‘ishda kishiga ravo ko‘rilayotgan yomonlik istak-xohish shaklida bayon etilsa, so‘kishda bu keskin hukm tarzida bayon qilinadi va kishi haqoratlanadi. Ba’zan qarg‘ish va so‘kish teng kelishi mumkin.

Hozir qarg‘ish janri keng ommaviy tarzda qo‘llaniladi. Xalq qarg‘ishlarida ibtidoiy insonlaming animistik, totemistik, fetishistik tasavvur - tushunchalari saqlanib qolgan. Aksariyat qarg‘ishlarda mifik tushunchalar va obrazlar uchraydi. «Arvoh ursine-e”, «Alvastiga yo‘luqqur», «Jin urgur» kabi qarg‘ishlar shular jumlasidandir. Bu qarg‘ishlar kishini telba, shol, gung qiladi, deb tasavvur qilinadi.

Oddiy, adabiyotdan xabari bo‘lmagan xalq o‘z nutqida, odatda, jonli, sodda, barchaga tushunarli, ma’lum bo‘lgan qarg‘ishlardan foydalanadi. Bunday qarg‘ish so‘zlar faqat yon-atrofdagi ahvol, voqeaning holati va so‘zlaguvchining ruhiy ahvoliga qarab turlicha maqsadlarda aytiladi.

Xulosa. Turkcha seriallarda uchraydigan tilak va duolar, duyibad va qarg‘ishlarning tarjimashunoslikning ilmiy mavzusi sifatida o‘rganilishi yangilik hisoblanadi va ushbu leksik-frazeologik, sintaktik birliklarning yuzaga kelishi, shakllanishi va formal-sintaktik tahlili, o‘zbek tiliga tarjimasi bilan bog‘liq masalalar kelajakda davom ettiriladigan tadqiqotlar uchun ham yirik materialni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akalin L.Sami, “Alkışlar kargışlar”, Kültür bakanlığı, Ankara- 1990; Boratav P.N. “100 soruda türk halk edebiyatı”, Gerçek Yayinevi, İstanbul, 1982; Kaşgarlı Mahmud, “Divan-ı lüğat-itTürk”, çev. Abdurahman Güzel, “Dede Korkut hikayeleri bağlamında dua”; Cilacı Osman, “Dua maddesi, TDV, İslam Ansiklopedisi, 9. C, İstanbul, 1994; Ergin Muharrem, Dede Korkut kitabı, 1. C., Ankara, 1997. Besim Atalay; Marınler, “Dua üzerine düşünceler” (Psikofizyolojik sebepleri ve sonuçlari), İzmir, 1991; Abdurahman Güzel, “Dede Korkut hikayeleri bağlamında dua”.

2. Рыбалченко Т.Е. “Турецко - русский и русско-турецкий словарь”, Русский язык медиа, Москва, 2006. Mehmet Çevik, Bedduanin Estetlk İfadesi: Manilerde Kargılar, Türkbilig, 2015/30: 1-21. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: Рус тили, 1981; Büyük Rusça-Türkçe Sözlük. –Moskva: Russkiy yazik, Multilingual. – İstanbul, 1995; Büyük Türkçe-Rusça Sözlük. -Moskva, Russkiy yazik, 1977, Multilingual. – İstanbul, 1994; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б., Адабиётшунослик терминларининг русча - ўзбекча изоҳли луғати. - Тошкент, 1983.

3. Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9. Baskı. –Ankara, 1998.

4. Tarık Buğra, “Küçük ağa” roman, İstanbul, 1992.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK ASPEKT SIFATIDA O‘XSHATISHLARNING TARJIMASI

*PhD. **Dilshoda MUBARAKOVA,** TDSHU katta o’qituvchisi*

Jahon tilshunosligida til va tafakkur, til va madaniyat aloqalari antik davrdan boshlab faylasuf va tilshunos olimlar diqqatini o‘ziga jalb

etib kelgan. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik davri bo‘lgan XIX asr tilshunosligida e’tibor tillarning qarindoshligi masalasiga qadaldi. XX asr oxiri va XXI asr tilshunosligida til antropologik hodisa sifatida qarala boshladi va asosiy e’tibor lisoniy hodisalarni insonning kognitiv tabiati hamda milliy-madaniy xususiyatlari bilan birgalikda tadqiq etishga qaratildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Til bu ma’lum xalqning o‘ziga xos saviyasi, milliy mentaliteti, madaniyati, ma’naviyati, ruxiyati, tafakkur tarzi kabi juda muxim xususiyatlarini bevosita mujassam etgan oynadir. Zero marifatparvar Abdulla Avloniy ta’kidlaganlaridek, til va adabiyot har bir millat, har bir xalqning dunyoda borligini ko‘rsatadigan ko‘zgusi, oyinai hayotidir. Darxaqiqat, inson til orqali uni o‘rab turgan dunyoni ko‘radi, eshitadi hamda idrok etadi. Tilni juda ko‘p olimlar o‘rganganlar va haligacha o‘rganib kelmoqdalar. O‘xshatishlar esa olamni idrok etish jarayonida o‘ta muhim aqliy faoliyatdir.

O‘tmishda she’riy nutq san’ati sifatida tanilgan ***o‘xshatish*** (arab. *Tashbih*., ing. *Simile*) hozirgi vaqtda umuman tilda (kundalik so‘zlashuvda, adabiy asarlarda, yangiliklar va xatto reklama matnlarida ham keng qo‘llanilmoqda. Aslida bir xalqning olamni til vositasida ko‘rishi va tanishi, o‘sha xalqning o‘zigagina xos tarixiy-madaniy, etnik-ma’naviy tajribalari orqali shakllanadi va ajdodlardan keyingi avlodga o‘tib keladi. Badiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega o‘xshatishlar nutqda sezilarli darajada muhim yerni egallagan shakllardandir. Shu bois o‘xshatishlar dunyo filologiya ilmida eng qadimgi davrlardan boshlab nutq ta’sirchanligini ta’minlaydigan alohida vosita sifatida nafaqat tilshunoslarning balki til bilan qiziquvchi izlanuvchilarning ham dikkat markazida bo‘lib kelgan va bo‘lib kelmoqda.

Tilshunoslar o‘xshatishlar ikki guruhga: ***real*** (İng. *realistic similes*) va ***metafor o‘xshatishlar*** (İng. *metaphorical similes*) bo‘lishadi. Real o‘xshatishlar adabiyotlarda ***shakl o‘xshatishlar*** (İng. *objective similes*), ***tog‘ridan o‘xshatishlar*** (İng. literary similarity) yoki ***o‘xshatish ifodalari*** deb ham nomlangan.

N. Mahmudov [1, 20] o‘xshatishlarning ikki turga ajratadi: 1) individual-muallif o‘xshatishlar yoki erkin o‘xshatishlar; 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar.

Ma’lum bir xalq tilida o‘xshatishlarning eng ko‘p ucharydigan shakli bu iboralar xisoblanadi. Avvalo tarjima jarayonida usta

tarjimmonga ham iboralarning tarjimasi oson bo‘lmaydi. Chunki o‘sha xalqning o‘zagi iboralarga ma’lum bir muqdorda bog‘langandir. Tarjimon ma’lum iboralarni to‘g‘ri tarjima qila olsagina xalq madaniyatini, butun shakl va mazmunini bergan xisoblanadi. Aksincha bo‘lsa, tarjimon iboralarni so‘zma so‘z tarjima qilishi juda g‘aliz va mazmunsiz jumla paydo bo‘ladi. Masal, turk tilida “At hırsızı gibi” iborasini so‘zma so‘z tarjimasi “ot o‘g‘risi kabi” degan ma’no chiqadi lekin bu noto‘g‘ridir. To‘g‘risi “gavdali” degan ma’noni beradi. Metaforik va metonimik ko‘chimlar, o‘xshatishlar, ibora hamda maqollarda etnomadaniy konnotatsiyasi ko‘rinadi [2, 327]. Avvalo metafora nima degan savolga kelsak, narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik metafora deyiladi. Shu bilan birga nutqqa obrazlilik, emotsiya berish maqsadida narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, so‘zlar va iboralarning ko‘chma maʼnoda ishlatilishi ham metaforadir. Metafora xalqlar madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va sivilizatsiya merosining ajralmas qismiga aylangan eng muhim til hodisalaridan biri hisoblanadi. Metafora ham lingvistik, ham adabiy tushunchadir. Shu bois lingvistik metafora va adabiy metafora kabi turlarga ajratiladi. Ikkala holatda ham metafora bir obyektning xususiyatlarini ularning o‘xshashligi printsipiga ko‘ra boshqa obyektga o‘tkazilishini anglatadi. Ammo, til nuqtai nazaridan, metafora bu nutqning tayyor elementidir, adabiyot nuqtai nazaridan, metafora trope, ya’ni so‘zni majoziy ma’noda ishlatishga asoslangan tasvirdir. Shu o‘rinda lingvistik birlik sifatida metaforaning ma’nosi obyekt, hodisa, belgi, majoziy ma’noda sifatida nomlash - nutqning hissiy ekspressivligini kuchaytirishdan iboratdir. Metafora tarjimasi bir qator tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, falsafiy va hatto psixologik muammolarni hal qilish bilan bog‘liq masalalarni o‘zida qamrab oladi. Metaforani tarjima qilish usullarini o‘rganishga to‘g‘ri yondashish majoziy ma’lumotni yetarli darajada kitobxonga yetkazib berish bilan birga tarjima jarayonida asl manba matnining stilistik ta’sirini ham tiklash muhimligini ko‘rsatadi. O‘z navbatida Y.I. Retsker ham metaforaning tarjimasida to‘rtta usulini aniqlaydi: 1) Ekvivalentlik . Agar manba tilining va tarjima qilinadigan tilining metaforik tizimlari o‘xshash bo'lsa, mos keladigan ekvavilentni topishga harakat qilish kerak. Masalan, o‘chirilgan ingliz metaforalarining aksariyati leksikografiyada qayd etilgan ruscha ekvivalentlariga ega. 2) o‘zgaruvchan yozishmalar bo‘lib ularning har biri alohida holatda

lug‘atda qayd etilgan. Bir nechta metaforik ifoda tarjima usullari mavjud bo‘lganda ishlatiladi. 3) Transformatsiya. Transformatsiya usuli asl metaforani to‘liq almashtirishni talab qiladi. 4) Kalkalash. Tarjimada asl metaforaning to‘liq o‘xshashligini tiklash [3, 117] Shu o‘rinda ta’kidlash zarurki, metaforani tom ma’noda tarjima qilish juda ahamiyatli rolga ega. Chunki tarjima natijasida tarjima qilinadigan tilga mutlaqo begona bo‘lgan obraz paydo bo‘lishi mumkin. Shu bois tarjimada metaforik bo‘lmagan tarjimaga murojaat qilish to‘g'ri bo‘ladi Ya’ni, aslida "metafora saqlanish qonuni" qonun emas tendensiya yoki tarjimonlar uchun tavsiyalardir. Tarjimon uchun eng katta qiyinchilik bu tayyor ekvivalenti bo‘lmagan muallif metaforalaridir.

J. Lakoff va M. Jonson, Kontseptual metafora nazariyasida odatiy va muallifga hos metaforalardan tashqari, tarkibiy metaforalarni, yo'naltirilgan metaforalarni va ontologik metaforalarni ajratadi. [4, 93]. Shu nazardan qaralganda har bir metafora guruhi farqli tarjima usuliga mos keladi. Piter Newmark esa metaforalarni tarjima qilishda quyidagi standart jarayonlarni ajratadi: 1) analog metafora tasvirni saqlab qolish, ya‘ni. so‘zma-so‘z tarjima; 2) taqqoslash orqali metafora tarjimasi; 3) tarjima qilinayotgan tilning ekvivalent metaforasiga almashtirish); 4) o‘xshash metaforik tasvirni tushuntirish bilan birga saqlab qolish; 5) iboralarga aylantirish [1, 11]. Metafora tarjimasida tarjimon turli kombinatsiyalarni qo‘llashni o‘zi hal qiladi. Newmark fikriga ko'ra tarjimon metaforaning tarjima qilishi yoki qilinmasiligini matnga va muallif uslubiga qarab belgilashi mumkin. Darhaqiqat, lingvokulturologiya tilda asosan maqol, ibora, metafora va turg‘un o‘xshatishlar orqali aniqlanishi mumkin. Ommaviy axborot vositalarining tili juda xilma-xil realiyalar (ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayot), tashbehlar (adabiyot, tarix, kino va h.k.) va iqtiboslar bilan to‘ladir. Masalan: Toshkent aholisini ro‘yxatga olish; Namangan aholisi; panel uylar; Xrushchev; O‘zbekiston Fanlar akademiyasi; marshrut taksisi; Kommunal kvartira; Murodov loyihalari va hokazo. “Tarjima qilish uchun so‘zlarning asosiy lug‘aviy mazmuniyu, tilning grammatik qoidalarini bilishning o‘zi kifoya emas. Buning uchun tilni his etish lozim” [3, 17].

So‘nggi yillarda xatto ommaviy axborot vositalarining tili material muallifining ma’lum munosabatini (masalan, kinoyali) ifodalash, ma’lum obraz va uslubiy (masalan, hazil) effekt yaratish, shuningdek tinglovchilarni hayratda qoldirish uchun ishlatiladigan og‘zaki,

qisqartirilgan, jargon so‘zlardan ham foydalanilmoqda. Shu tarzda o‘quvchilarni jalb qilishni va xabarning ko‘proq o‘qilishini ta’minlashga erishish maqsad qilinadi.

Frazeologizm va qochirma so‘zlar (ham adabiy, ham og‘zaki, xalq tilida) shu jumladan ‘shakli o‘zgartirilgan’ iboralar, jumboqlar, maqollar (ko‘pincha ‘buzilgan’ shaklda ham), keng qo‘llanilganligini ham uchratish mumkin. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining tili o‘z navbatida giperbola, litotika, majoziy taqqoslash, metafora, metonimiya kabi uslubiy vositalardan foydalanishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining maxsuli sifatida turg‘unlashgan, qoliplashgan obrazlar milliy idrokni aks ettiradi va xalqning dunyoni o‘ziga xos idrok etishining ifodachisi alohida muhim o‘rin tutadi hamda lingvokulturologik, ya’ni til, milliy madaniyat va mentalitet munosabatlarini belgilash jihatidan dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salomov G‘., Tarjima tashvishlari. – T.: Adabiyot va san’at, 1963.

2. Ivanova S.V., Chenisheva Z. Z. Lingvokulturologiya: problemi, poiski, resheniya: Monografiya. – Ufa: RITs BashGU, 2010. – S. 327-328.

3. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lugati / N. Mahmudov, D.

4. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. М.: Международные отношения, 1974. 237 с.

5. Телия В.Н. Метафора как модель смыслопроизводства и ее экспрессивнооценочная функция. Метафора в языке и тексте. Москва, «Наука», 1988. 174 с.

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDA GASTRONOMIK KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING O‘RNI

*PhD. **Saodat SAIDAKBAROVA**, TDSHU katta o‘qituvchisi*

Frazeologizmlarni lingvomadaniy jihatdan o‘rganish g‘oyasi ham V.N.Teliyaga tegishlidir. V.N.Teliya maktabi Rossiyada va xorijda frazeologizmlarni lingvomadaniy tahlil qilish bilan tanilgan. V.N.Teliya va uning shogirdlari lisoniy mohiyatlarni jonli til egasining refleksi nuqtai nazaridan o‘rganishadi. Ya’ni, bu madaniyat semantikasini bevosita til va madaniyat sub’ekti orqali egallashga qaratilgan yo‘nalishdir[1, 288].

F.F.Usmanovga ko‘ra til to‘lig‘icha sub’ektiv antropotsentrik xarakterga ega, zamonaviy tilshunoslikda insonga til hamda madaniyat sub’ekti sifatida qaraladi. Olamning kognitiv, lisoniy hamda milliy lisoniy manzarasini tavsiflashda lingvomadaniyatshunoslikning o‘rni ahamiyatli [2, 11].

Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri til birliklarining madaniy konnotatsiyasidir. Madaniy konnotatsiya til belgisidagi madaniyat darajasining ko‘rsatkichini ifodalaydi. Milliy-madaniy konnotatsiyaning tilda ifodalanishini “xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma’lumotlar manbai bo‘lgan frazeologizmlar” vositasida o‘rganish mumkin [3, 90].

Frazeologizmlardagi milliy-madaniy xususiyatlarni yoritishda uning madaniy kodlardan tarkib topgan komponent so‘zlari asos vazifasini o‘taydi. Aynan mana shu madaniy kodlar muayyan xalqning o‘ziga xos milliy madaniyatini namoyon etadi. Binobarin, gastronomik frazeologizmlarni hosil qilishda gastronimlar (oziq-ovqat nomlari) madaniy kod bo‘lib xizmat qiladi. Til birliklari orasida aynan fraezologizmlarda madaniyat o‘zining to‘laqonli ifodasini topgan bo‘ladi. Shuning uchun ham tilning frazeologik tizimi lingvomadaniyatshunoslik o‘rganadigan ob’ektlardan biri sanaladi.

Milliy-madaniy konnotatsiya lisoniy ma’nolarni u yoki bu madaniy fon bilan muvofiqlashtiradi va nafaqat frazeologizmlar yoki so‘zlar, balki matn mazmuniga ham madaniy qiymat beradi.

V.A.Maslovaning qayd etishicha,“frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma’naviy-madaniy me’yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an’ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o‘z aksini topgan bo‘lib, ular avlodan-avlodga uzatiladi [4, 80].

Gastronomik frazeologizmlarda muayyan xalqning udumlari, urf-odatlari va taomillari haqida ko‘plab ma’lumotlar mujassamlashgan bo‘ladi. Oziq-ovqat hayotning eng oddiy va muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ovqat pishirish va ovqatlanish jarayoni nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy me’yorlar bilan belgilanadigan an’anaviy harakatdir. Uni din, xalq va adabiyot kabi madaniyatning bir necha kategoriyalarida ko‘rish mumkin.

Ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatlarida tarkibida ichimliklar nomlari kelgan, xususan, choy, qahva va suv komponentli gastronomik frazeologizmlar ham mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Binobarin, o‘zbek tilida “suv” komponentining faolligi kuzatiladi: suv tekin, suv quygandek, suvdan quruq chiqmoq. Shuningdek, choychaqa, shirin choy, qadah ko‘tarmoq kabi iboralarni ham kuzatish mumkin.

Choy tushunchasining har ikki madaniyatda ham o‘zaro muvofiqligini kuzatish mumkin. Xususan, o‘zbek madaniyatida ham, ingliz madaniyatida ham choy kundalik hayotning muhim qismiga aylangan bo‘lib, eng ko‘p iste’mol qilinadigan ichimliklar sirasiga kiradi. Har ikki madaniyatda choy og‘riq qoldiruvchi ichimlik hisoblanadi. Choy o‘zaro muloqotni muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi. Choyning oila davrasida iste’mol qilinishi, kelgan mehmonga choy taklif qilinishi ham ingliz va o‘zbek madaniyatida muayyan o‘xshashliklar mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

“Macmillan English Dictionary”da tea (choy) so‘zining ikkinchi ma’nosidan (tamaddi, tushdan keyingi choy bilan birga iste’mol qilinadigan sandvich (pishloq yoki sariyog‘ surilgan non) inglizlarda choy ichishning muayyan vaqti anglashiladi. Odatda, Buyuk Britaniyada choy tushunchasi ikki xil: “ichimlik” va “ovqat” ma’nosida tushuniladi. Choyning “ovqat” deb tushunilishi aynan madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib, bunday yondashuv 1800-yillardan boshlangan. Choyga bunday yondashish bedfordlik gertsoginyalar tomonidan boshlangan. Britanlar odatiga ko‘ra, kechki ovqat kechki soat sakkiz va to‘qqiz oralig‘ida tanovul qilingan. Bedford gertsoginyalarini kechki soat sakkizgacha ochlik hissi chulg‘ab olgan. Shu tariqa tushdan keyin soat uch va besh oralig‘ida choy va bir bo‘lak shirinlik tanovul qilish odat tusiga kirgan. Choy vaqtida gertsoginyalar to‘planishib, qiziqarli suhbatlar uyushtirganlar. Bunday holat tez orada Britaniya ayollari o‘rtasida odat tusiga kirdi va bu vaqt “afternoon tea” (tushlikdan keyingi choy) deb atala boshlandi. Buyuk Britaniyada “afternoon tea” o‘rnida “low tea” ifodasi ham qo‘llanadi. “Low tea” kichik choy vaqtini bildirib, odatda, ovqatlanish uchun mo‘ljallangan stol bezatilmaydi, balki kichikkina choy ichib olish uchun qulay bo‘lgan stol bezatiladi [5, 328]. Dastlab “afternoon tea”ga ayollar yig‘ilib, choy ichadigan vaqt deb qaralgan bo‘lsa, keyinchalik bu erkaklar davrasiga ham ko‘chgan. Bugungi kunda Buyuk Britaniya mehmonxonalarida va “tea shop” (choyxona)larda tushdan keyingi choy ichishga kundalik ijtimoiy

marosim sifatida qaraladi va choy bilan birga bir bo‘lak tort yoki shokolad taklif qilinadi.

“Afternoon tea” odati ko‘pincha ayollar davrasi bilan bog‘liq bo‘lsa, “high tea” odati erkaklar davrasi bilan bog‘liq. “High tea” erkaklar kechki soat beshdan so‘ng ishdan uyga qaytgach, oila davrasida kechki ovqat tayyor bo‘lgunga qadar ovqatlanib olishni bildiradi. “High tea” tamaddi hisoblanmaydi, aksincha, dasturxonga choy bilan birgalikda, pishirilgan go‘sht, baliq, tuxum, pishloqlardan biri tortiladi. Choy ichish vaqtining bunday nomlanishi dasturxonning ovqat tanovvul qilinadigan stolga bezatilishi bilan ham bog‘liq. “Afternoon tea” choy ichish vaqtida kichik stol bezatiladi, “high tea” vaqtida esa ovqatlaniladigan katta stol bezatiladi. Shuning uchun ham bu choy ichish vaqti high, ya’ni «baland (asosiy) stolda ichilgan choy» ma’nosini bildiradi. Ayniqsa, “high tea” Buyuk Britaniya qishloqlari uchun juda ahamiyatli bo‘lib, dala va chorva ishlaridan qaytgan mehnatkashlar bir yerga jam bo‘lib, birgalikda choy ichganlar. Hozirda bu vaqt hatto evening meal (kechki ovqatlanish) vaqti bilan ham tenglashtiriladi.

Umuman, ingliz va o‘zbek madaniyatida choy muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u muayyan marosimlar va an’analarni yuzaga kelishiga vosita bo‘lgan. Choy ingliz xalqining tarixi bilan bog‘liq jarayonlarni aks ettiradi. Ingliz lingvomadaniyatida “choy” tushunchasi ikki xil: “ichimlik” va “ovqat” ma’nosini ifodalab, u sevimli mashg‘ulot, suhbatni jonlantiruvchi vosita, mehribonlik va iliqlik timsoli bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek madaniyatida choy milliy marosimlarning o‘ziga xos atributi, dasturxonning ko‘rki, axloq-odobning ifodasi, muloqot vositasi hisoblanadi. Shuningdek, o‘zbek lingvomadaniyatida choy o‘ziga xos ichimlik bilan birga, nonushta vazifasini ham o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Телия В.Н. Русская фразеология: смысловой, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М .: Школа «Языки русской культуры», 1996.

2. Usmanov F.F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fanl. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2020.

3. Usmanova Sh. Lingvokulturoligiya. Darslik. – Toshkent: TDO‘TAU, 2019.

4. Маслова В.А. Лингвокультурология. - М .: Издательский центр «Академия», 2001.

5. english-magazine.org/english-reading/english-for-culture/328-tea-high-tea-and-afternoon-tea-novembers-culture-article

TIL LEKSIKASIGA OID LINGVOMADANIY MADANIY XUSUSIYATLARNI TARJIMA VOSITASIDA QIYOSLASH

G‘ulomjon RAXMANOV, *O‘zDJTU katta o‘qituvchisi*

Tilshunoslikda til leksikasining tadqiqi masalasi har doim ham dolzarb mavzu sanaladi. Chunki leksikani o‘rganish muammolari barcha fundamental fanlarning tadqiqot ob’ektiga kiradi. So‘nggi yillarda leksikani muayyan sistema sifatida yangi ilmiy yo‘nalishlar, metodlar va yondashuvlar asosida tadqiq etilishi tilshunoslik ilmida leksikaning hali o‘rganilmagan jihatlarini belgilab berdi. Chunonchi, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, amaliy tilshunoslik va tarjimashunoslik aspektlarida leksika tilning lug‘aviy birligi va boyligi sifatida yangi ilmiy talqinda o‘rganilmoqda.

Lingvomadaniy madaniy unsurlarni tarjima vositasida qiyoslashning asosiy maqsadi ingliz va o‘zbek halqlarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’naviy qarashlariga oid tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarning o‘ziga xos jihatlarini ijtimoiy-madaniy va lingvomadaniy aspektlarda yoritib berishga qaratilgan.

Tarjimada til birliklarining lingvomadaniy va ijtimoiy - madaniy aspektlarda qiyosiy tadqiq etish orqali ular semantikasidagi milliylik xususiyatlar aniqlanadi va shu tariqa “o‘zniki” va “o‘zganiki (begona)” degan tushunchalar namoyon bo‘ladi. Masalan, ingliz madaniyatiga xos biror tushunchani til birliklari vositasida o‘zbek o‘quvchisining tasavvurida paydo bo‘lishida ushbu idrok etilayotgan tushunchaga nisbatan qiyoslash jarayoni kechadi (cross-culture influence) va pirovardida o‘zga tildagi tushunchaga oid umumiy va farqli bo‘lgan xususiyatlar tasnifi sodir bo‘ladi.

Ushbu jarayonda tilning kumulyativ funktsiyasi muhim rol o‘ynaydi. Til kumulyativ funktsiyasiga ko‘ra xalq madaniyati xazinasini ifodalovchi vosita. Shuningdek, til avlodlar o‘rtasidagi munosabatlarni bog‘lovchi xalqa sifatida ular qoldirgan boy tarjibalarni saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishdagi asosiy omil. Uning ko‘magida nafaqat hozirgi davr madaniyati aks ettirish, balkim madaniyatning o‘tmishidagi holatini ham belgilash mumkin.

Kumulyativ funktsiya til birliklarining barchasiga xos bo‘lsada, lekin leksika sohasida yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bu

koʻpincha frazologizmlar va aforizmlarni qoʻllanilishida kuzatiladi. Modomiki, til leksikasi vositasida turli madaniyatlarga xos tushunchalarni anglab olar ekanmiz, u holda tilning kumulyativ funktsiyasini yanada chuqurroq tasavvur etish imkoniga ega boʻlamiz.

Tilning kumulyativ (atov) birliklarining semantik strukturasida muayyan til jamoasi ijtimoiy qarashlaridagi milliy madaniyatni ifodalovchi voqelik namoyon boʻladi. Soʻzning ushbu maʼnoni anglatuvchi qismi esa mamlakatning tarixi, geografiyasi, anʼanalari, xalq ogʻzaki ijodi (folьklor)ga yaʼni boshqacharoq qilib aytganda, xalq madaniyatiga taalluqli madaniy komponent madaniyatning ajralmas qismi sifatida maʼlum chegara doirasida, madaniyat va til mushtarakligidagi madaniy komponenti deb ataladi. [4, 64-69.]:

Demak, milliy-madaniy xususiyatni oʻzida ravshan ifoda eta oladigan leksik birliklar qatori quyidagicha belgilanadi: 1) realiyalar-faqat bir madaniyatga xos boʻlgan va oʻzga madaniyatda uchramaydigan narsalar yoki hodisalarning nomlarini atovchi soʻzlar; 2) konnotativ leksika-asosiy maʼno jihatlari mos keluvchi, biroq madaniy-tarixiy tasavvurda farqlanuvchi soʻzlar; 3) milliylikka xos leksika qiyoslanayotgan madaniyatda oʻz anologlariga ega boʻlgan narsa va predmetlarni anglatuvchi, biroq funktsiyasi, shakli va narsa, predmet va hodisalarni atab qoʻyishda farqlanuvchi soʻzlar [5, 22.]:

Koʻrinib turibdiki, realiyalarga xos tushunchalarni anglatuvchi lugʻaviy birliklar ijtimoiy-madaniy turmushning barcha jabhalarini qamrab olgan. Realiyalar tildagi boshqa soʻzlar bilan qiyoslaganda, bir tomondan, uning predmetga xos mazmun jihati hamdau anglatgan predmet, tushuncha va hodisaning mamlakat va halq hayoti bilan uzviy aloqadorligi bilan farq qilsa, boshqa tomondan esa, tarixan davrning bir boʻlagi sifatida namoyon boʻlishi bilan farqlanadi. Shunga koʻra realiya – bu oʻziga xos milliy kolorit(boʻyoq)dir [2, 98-100.]:

Kolorit degan muayyan davrda, shaxsga oid yoxud biror narsaning oʻziga xos belgi va xususiyatlari majmuasi tushuniladi. Aynan kolorit orqali milliy boʻyoqqa ega boʻlgan realiya hosil qilinadi. Kolorit – bu soʻzning alohida boʻyogʻi boʻlib, unga xos referent vositasida anglashilgan predmet maʼlum bir halqqa, aniq bir mamlakatga, hududga yoxud muayyan tarixiy davrga taalluqli ekanligi bilan koʻzga tashlanadi.

Realiyalarni tarjimada berishdagi qiyinchiliklar asosan autentik matnlarni chuqur va toʻliq tushunmaslikdagi holatlar hamda

realiyalarga xos bilimlarni yetishmasligi oqibatida vujudga keladi. Shu boisdan ham bu kabi matnlarni o‘qib tushunishda va tarjima qilishda xatolar miqdori oshib boraveradi. [1, 16.]:

Tarjimada realiyalarni qiyoslash jarayonida nisbatini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Realiyalarni faqat bir til jamoasiga xosligi, boshqasida esa mavjud bo‘lmaslik holati: drugstore n a store where medical presriptions are filled and drugs and medicals are sold: most now also sell a wide variety of merchandise [7, 418.]: Ko‘rinib turibdiki, drugstore- dorixona (apteka) ingliz madaniyatida nafaqat dori-darmonlar sotiladigan joy, balkim turli tovarlarni oldi-sotdisi bilan shug‘ullanuvchi savdo shaxobchasi ham hisoblanadi. Biroq bu o‘zbek madaniyatiga xos emas. Chunonchi, o‘zbek madaniyatidagi hashar inglizlar yoxud amerikaliklar uchun mutloq yot tushuncha. Hashar orqali o‘zbek xalqining milliy an’analari ko‘z oldimizda gavdalanadi, va quyidagicha izohlanadi: hashar – biror ishni bajarishda ko‘pchilikning ixtiyoriy beg‘araz ishtiroki, ixtiyoriy ko‘magi. Xalq tamoyiliga ko‘ra, choyxonalar hashar yo‘li bilan quriladi. [6, 517.]:

Asrlar mobaynida xalqimizda “chinor” daraxtiga nisbatan uzoq umr ko‘rish tushunchasi shakillangan . Shu bois, “chinordek yashamoq” iborasi uzoq umrli sersoya katta daraxt timsolida paydo bo‘lgan. suyanchiq, qo‘llab –quvatlaydigan kimsa yoki o‘g‘il farzand ma’nolarida ham qo‘llaniladi. Chinor leksemasida ayolga nisbatan mazmunan xos fazilatlar, ya’ni kolorit namoyon bo‘ladi. Bunda “Chiroying borida chinoringni top” maqoli majoziy ma’noda turmushga chiqmagan ayolga nisbatan o‘ziga mos hamda yoshiga monand kuyov topish va oila qurish ma’nosini anglatadi. Biroq, ingliz tilidagi plane (chinor) leksemasining semantik strukturasida o‘zbek xalqining tasavvuridagidek uzoq umr kechirish, tayanchiq, suyanchiq, qo‘llab – quvvatlovchi kabi ma’nolarni ifadolvchi referentlar shakllanmagan . Demak, muayyantushunchani muayyan bir millatga hosligi mazkur til jamoasining tarixi, madaniyati va ijtimoiy–madaniy qarashlaridagi o‘ziga xoslik aks etishi, ya’ni o‘zligini teran anglash va his etish jarayonidir.

2.Realiyalar har ikki tilda mavjud bo‘lib, lekin ulardan biri qo‘shimcha ma’no anglatishi bilan ajralib turadi: cloverleaf – beda yaprog‘i (bargi) ingliz madaniyatida avtomobilь yo‘llari kesishuvida hosil bo‘lgan beda yaprog‘i ko‘rinishidagi chorroha va quyidagicha

izohlanadi: an interchange which, by means of an overpass with curving ramps that from the outline of a four-leaf clover and other connecting roads, permits traffic to move or turn in any or four directions with little interference-adj.in the shape or pattern of a leaf clover [7, 285.]:

3.Realiyalarning ma’no noziklariga ko‘ra farqlanishi. Bunda aynan turli jamiyatlardagi o‘xshash realiyalarda tafovutlar namoyon bo‘ladi. Masalan, Saturday (Cronusday) the seventh and last day of the week). Shanba haftaning yettinchi va oxirgi kuni. Yakshanba esa haftaning boshlanish kuni. Islom dini va madaniyatida juma ibodat va dam olish kuni deb qabul qilingach, shanba yangi haftaning boshlanishi kuni bo‘lib qolgan [7, 543]:

Frazeologik birliklarni lingvomadaniy aspektdan kelib chiqqan holda talqin etar ekanmiz, ulardagi milliy-madaniy semani aniqlashda an’anaviy va ijtimoiy-tarixiy assotsiatsiyalarga tayanishimizga to‘g‘ri keladi. Mazkur assotsiatsiyalar orqali ayrim yondosh tushunchalarni bilish orqali milliy o‘ziga xoslikni his etish va shu asnoda til sohibi “o‘zligini” teran anglab olishi mumkin. Masalan, ingliz tilida: horse - ot leksemasi bilan quyidagi frazeologik birliklarni uchratish mumkin:

a dead horse – hal etilgan masala yuzasidan behudaga bahslashmoq; from the horses mouth – ma’lumotni ishonchli manbadan olinganligini tasdiqlamoq; hold ones horse – bo‘ysundirmoq, jilovini tortib qo‘ymoq; horse round – vaqtni bekorga o‘tkazmoq; horse of another (or a different) coloir – butunlay boshqa masala, ish yoxud mavzu haqida; on ones high horse – o‘zgalarga past nazar bilan qaramoq, takabburlik qilmoq; o‘zbek tilida: ot mindirmoq - ot sovg‘a qilmoq; ot solmoq - otning jilovini bo‘sh qo‘yib yeldirmoq; ot qo‘ymoq - mingan otini biror kimsa tomon yo‘naltirib hujum qilmoq; otday bo‘lib ketmoq – sog‘aymoq, kasalllikni unutib yubormoq; otdan tushsa ham, egardan tushmaydi – ilgargi mavqe yoki martabasidan tushgandan keyin ham takabburligini qo‘ymaydigan odam haqida; otni qamchilamoq – zudlik bilan, fursatni qo‘ldan bermay harakat qilmoq, ot talab, tuya qumlab – katta qiyinchiliklar bilan, zo‘rg‘a, arang; otliqqa (ham) yo‘q – hech qayorda yo‘q, sira topib bo‘lmaydi va hokazo. Shuningdek, otlanmoq fe’li bilan jini (yoki ajinasi) otlanmoq, jini qo‘zg‘amoq, ya’ni ta’biga, ko‘ngliga yoqmagan ish yoki gapdan jahli chiqmoq; jig‘ibiron bo‘lmoq [6, 156]:

Inglizlar madaniyatida “sheep” zoosemizimi bilan qo‘laniladigan frazeologik birliklar ko‘pincha salbiy konnotatsiyaga ega ekanligini ko‘ramiz. Masalan: She black sheep of a family – zoti aynigan odam, zoti buzuq; black sheep – iborasi omadsiz va hurmatga noloyiq odamga nisbatan qo‘llaniladi. Biroq o‘zbek tilida “qo‘y og‘zidan cho‘p omagan” “o‘ta ishonuvchan”, “o‘ta sodda”, “go‘l”, “og‘zidan nonini boshqalarga oldirib qo‘yadigan darajada no‘noq” kabi salbiy ma’nolarni anglatadi.

Ko‘rinib turibdiki, madaniyat kesishuvida zoosemizmiga oid frazeologik birliklar ingliz tiliga nisbatan o‘zbek tilida miqdor jihatidan ko‘proq va turli kontekstlarda qo‘llanilishi bilan farq qiladi. Xususan, frazeologizmlar milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalovchi til birliklari sifatida lingvomadaniyatshunoslik fanining tadqiqot ob’ekti deb e’tirof etilishi bejizga emas. Mazkur soha doirasida frazeologizmlarni o‘rganish tili o‘rganilayotgan xalqning tarixi, madaniyati va turmush tarzi haqidagi faktik ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi.

Voqelikni idrok etish va uni bilishning milliy-madaniy xususiyatlari muammosi aslida tadqiqotchilarni uzoq yillardan beri qiziqtirib kelmoqda. Ushbu muammo haqida bildirilgan fikrlar har xil, ba’zan esa ziddiyatlidir. Ularning ayrimlarida hatto turli xalqlarning borliqni idrok etish bir-biriga batamom mos kelmasligini ta’kidlashga harakat qilinadi. Barcha xalqlar yagona voqelikni turlicha tasavvur qilishadi. Inson faoliyati ma’lum milliy madaniyat ijtimoiy muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagi bilim jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit bo‘lishi tabiydir. [3, 90.]:

Tilshunoslikda realiyalarning leksik-semantik xususiyatlarini muhim ahamitga ega. Realiyalar lingvomadaniyatshunoslikda keng iste’molda bo‘lishiga qaramay realiya tushunchasi tarjimasining nazariy va amaliy jihati, realiyalarni ifodalovchi leksik birliklarning lingvistik va leksikografik tasnifi har tomonlama bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Realiya tushunchasini madaniyatning moddiy ashyolari sifatida keng tarqalishini faqat jug‘rofiy, madaniy-genetik, biror xalq madaniyatiga xoslik va milliylik nuqtai nazaridan chegaralangan holda tasniflash orqali o‘rganish to‘liq asosga ega emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Боданкина Р.М. Обучение пониманию реальности при чтении экономической литературы на английском языке в техническом вузе: Автореф.дис. ... канд..пед.наук.- М., 1984.-16с.

2. Вайцбурд М.Р. Реалии как стихия страноведение // Русский язык за рубежом.- 1972.-№ 3.-98-100с.
3. Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik.- Jizzax: Sangzor,2006.-90b.
4. Томаксин Г.Д. Реалии в культуре и языке // Иностр. записывать. в школе.-1981.-№ 1.- 64-69с.
5. Ястребова О.И. Методика работы над лексикой, обозначающей советские реалии, в процессе чтения общественно- политической литературы: Автореф. дис. … Канд. пед.наук.-М., 1990.-22 с.
6. O‘zbek Tilining Izohli Lug‘ati, 2008. -517b.
7.Websters New World Dictionary, 1989.- 285b.

TURK TILIDA ZOONIMLAR VOSITASIDA INSON OBRAZINI YARATISH VA TARJIMA QILISH MASALALARI

Zebo SALIMOVA, *TDSHU o‘qituvchisi*

Olamda hamma narsa bir-biriga bog‘liq yaratilganidek, Insoniyat ham tabiat bilan chambarchas yashaydi. Kishining xatti-harakatlari, xarakteri va tashqi ko‘rinishini hayvon yoki o‘simlik nomlari bilan atash yoki o‘xshatish buning yaqqol isbotidir. Tarixdan hozirgi kunga qadar yomon xulqli odamlar yovvoyi yirtqich hayvonlarga, yaxshi fazilatli insonlar uy hayvonlariga, sezgir, harakatchanlar ba’zi qushlarga o‘xshatilishi an’anaga aylanib qolgan.

Hayvonot dunyosi haqiqatining nomlari bo‘lgan zoonimlar ko‘pgina tillarning leksik tarkibidagieng qadimgi semantik guruhlardan birini tashkil qiladi. Ma’joziy ma’nolarning rivojlanishi tufayli zooleksemalar insonning fazilatlari va harakatlarini tavsiflash uchun faol ishlatiladi.

Muayyan madaniyatga tegishli bo‘lish ma’lum bir jamiyatda shaxsni sotsializatsiya jarayonida takrorlanadigan bilimlarning asosiy stereotipik yadrosining mavjudligi bilan belgilanadi, shuning uchun stereotiplar madaniyatdagi nomuvofiq nomlar hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, stereotip turli xil lisoniy shakllarda ifodalanishi mumkin– bular so‘zning leksik-semantik variantlari, boshqa so‘zlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, ramz sifatida xizmat qilishi va boshqalar.

Har ikki tilning izohli lug‘ati vositasida zoonimlar ifodalagan qiyofalar orqali o‘zbek va turk tillari orasidagi o‘xshash va farqli tomonlar ham ko‘rib chiqiladi.

Zoonimlar tillarning leksik fondi shakllangan etnik-madaniy sharoitlarning bevosita aksidir. O‘zbek va turk tillarining leksikografik manbalari materiallarini chog‘ishtirma tahlil qilish zoonimni idrok etishda umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarning mavjudligi haqida gapirishga imkon beradi. Umumiy bo‘lgan narsa bu – zoonimning ikkala til tizimida mavjudligi, shu jumladan hayvonning biologik xususiyatlari va zoomorfizm. Har ikki tilda ham odamni salbiy va ijobiy tomondan tavsiflash uchun zoometaforalardan foydalaniladi.

Insoniyat azal-azaldan borliqdagi hayvonlar va jonivorlar bilan juda yaqin munosabatda bo‘lgan. Buning muayyan sabablari bor: birinchidan, hayvonot olami insonlar uchun asosiy ozuqa manbaidan biri bo‘lsa, ikkinchidan, ular kundalik hayotda yordamchi ish kuchi vazifasini bajargan va uchinchidan, ov qilishda asosiy vosita hisoblangan. Ayni holat insonlarning hayvonot olami sir-asrorlarini azaldan yaxshi bilib olishga, uy hayvonlarini o‘zlariga yaqin tutishiga, ularning ko‘magidan samarali foydalanishga yoki yovvoyi hayvonlarga nisbatan jiddiy mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishga, umuman, ularga alohida e’tibor bilan qarashga olib kelgan. Shu bois xalq baxshisi dostonlarning badiiyatini yanada kuchaytirish, syujet bayonini qiziqarli va tinglovchilar diqqatini jalb etish maqsadida sher, tuya, bo‘ri, bo‘ta, ilon, lochin, kaptar, tarlon, qarchig‘ay, tulki, to‘rg‘ay, uloq, ot, qarg‘a, bulbul, tozi, jonivor kabi uy va yovvoyi hayvonlar, har xil qushlar va jonivorlar nomlaridan badiiy-tasviriy ifoda vositasi sifatida foydalangan. Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ularning har biri matnda muayyan uslubiy vosita vazifasini bajargan. Ma’lumki, insonlarning o‘xshatish va qiyoslashga asoslangan obrazli fikrlash jarayonining vujudga kelishi badiiy tafakkurning o‘sishi, izchil rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mushohadalarning vujudga kelishida avlodlar va ajdodlarning tabiat va koinot olamini bilishga, bunda mavjud sirlarni yechishga intilishlari, biroq izohlashdagi ojizliklar tufayli ularga nisbatan sirli va ilohiy kuch sifatida baho berish, shuningdek, mifik obraz sifatida tasavvur etish hollari vujudga kelgan. Xususan, ibtidoiy dunyoqarash va diniy e’tiqod xilma-xilliklari hayvonot, nabotot va koinot olamidagi mavjud

narsalarga, jonzotlarga nisbatan totemistik munosabatlar tufayli sher, arslon, yo‘lbars, qoplon va burgut, lochin, qirg‘iylarni - mard, jasur, botir, dovyurak kishilarga; qarg‘a, quzg‘unlarni - qonxo‘r, toshyurak kishilarga; tovus, bulbullarni - go‘zal, chiroyli xulqli kishilarga; gul, g‘uncha va oy, yulduz, quyosh singarilarini go‘zal va suluv qizlarga; yantoq, saksovul kabilarni xunuk kishilarga nisbatat tashbeh etilishi og‘zaki va badiiy ijodda keng tarqalgan eng qadimgi tasavvurlar mahsulidir. [84] Bularning barchasi insoniyat o‘zini tabiatning sehrli olami bilan yoki aksincha, tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarni insoniyatning xulq-atvori, ichki dunyosi bilan bog‘lashi, ya’ni, qiyoslashi, o‘xshatishi, sifatlashi kabilar bilan bog‘liq bo‘lib, ular tilimizdagi ko‘plab badiiy ifoda vositalarning vujudga kelishida asos bo‘ladi.

Turk tilida ijobiy ma’nodagi stereotiplar sifatida “kurt gibi” zoonimini misol qilishimiz mumkin. Ham och qolgan odamga o‘xshatilib ham o‘z ishini yaxshi bilgan, kirishuvchan kishilarga nisbatan ishlatiluvchi bu zoomorfema o‘zbek tilida salbiy ma’noda “ochko‘z” kishini tasvirlash uchun qo‘llaniladi. Ish ko‘zini biladigan, kirishuvchan ma’nosida “kurt gibi” birikmasi o‘zbek tilida esa kurt ya’ni bo‘ri orqali bunday xarakter ifodalanmaydi, o‘zbek tilida “bo‘riday”, “och bo‘riday” o‘xshatmasi juda ochiqqan kishini ta’riflash uchun ishlatiladi. Bu o‘rinda har ikki til o‘rtasida ba’zi farqli jihatlar ko‘rinadi.

Inson portretini ifodalashda ham bir qancha turkcha zoonimlarni ko‘rish mumkin. Kuchli, navqiron, yelkador, vazndor erkaklar uchun “tay gibi” birikmasi qo‘llanilsa, durkun ko‘rinishdagi ayollarni ta’riflash uchun “at gibi” o‘xshatishidan foydalaniladi.

Juda sabrli, so‘zsiz har yuklatilgan vazifani bajaradigan insonga nisbatan “karınca sabırlı” beriladi. O‘zbek tilida ham bu o‘xshatma mehnatkash odamga ko‘ra ishlatiladi. Ma’lum bir ma’noda har ikkala tilda ham bir-biriga yaqin ma’nolarda qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida chiroyli qora ko‘zlarni tasvirlash uchun ohu, quralay ko‘zlariga o‘xshatishdan foydalanilsa, turk tilida katta va chiroyli ko‘zlarni ifodalashda “eşek gözlü” birikmasi qo‘llaniladi. O‘zbek tilida jayron ko‘z, ohu ko‘z, tuya bolasining tim qora ko‘zlariga o‘xshasa quralay ko‘z birikmalari orqali beriladi.

[84] 1. Jumanazarova G.Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari tilining lingvopoetikasi (leksik-semantik, lingvostilistik va lingvostatistik tahlil). – Toshkent, 2012. – B.15-16.

Uyqusevar, shuningdek, yalqov ham beo‘xshov tana tuzilishiga ega bo‘lganlarga nisbatan “ayı gibi” birikmasi ishlatiladi.

Salbiy xarakterlardan biri bo‘lgan qaysar ta’rifini berishda har ikkala tilda ham biroz o‘xshashlik mavjud. O‘zbek tilida “qaysar eshshak” ta’rifi qo‘llansa, turk tilida undan ham qaysarroq bo‘lgan xachir hayvoniga o‘xshatish bilan aks ettiradi. Ya’ni “Katır gibi” birikmasi yordamida ifodalanadi. Shuningdek, qaysar ma’nolarida “inatçı keçi”, “eşek gibi” o‘xshatmalari ham qo‘llaniladi. “Eşek gibi” birikmasi, o‘z navbatida, qo‘pol, tushunchasiz, aqlsiz kabi obraz ifodalaydi. “Eşek kafalı” birikmasi esa anqov, hech nimani tushunmaydigan kabi ma’nolarda keladi. “Eşekbaşı” esa o‘zining kuchiga ishonmaydigan, boshqalar tomonidan hech e’tiborga olinmaydigan kishilarga ko‘ra, “eşek derisi gibi”- avvalo, terisi qalin, shuningdek, hissiz, tuyg‘usiz kimsa, “eşek kadar” deyilganda tana tuzilishi yirik, gavdali va qo‘pol kishini ta’riflash uchun xizmat qiladi. Birgina eshak zoonimi orqali inson salbiy taraflarini ko‘pgina usullarda ifodalash mumkin.

Salbiy stereotiplarni ifodalash uchun yoqimsiz ko‘rinishga ega to‘ng‘iz- manda hayvoniga qiyoslanadi va qo‘pol, juda ham semiz, mehnatga tobi yo‘q tanbal kishilarni tasvirlash uchun o‘zbek tilida “to‘nkaday”, “cho‘chqaday”, “buqaday” so‘zlari qo‘llanilsa, turk tilida “manda gibi” birikmasi ishlatiladi. Manda yovvoyi buqa ma’nosini beradi. Kurnaz, ya’ni ayyor, xiylakor kimsalar uchun esa tulki obrazi qo‘llaniladi, “tilki gibi” frazasi qo‘llaniladi. Ayyor, laganbardor kishilarga nisbatan har ikkala tilda ham bir xil o‘xshatish “tulkidek ayyor”, “tilki gibi” tarzida beriladi.

“Domuz gibi”, ya’ni cho‘chqaday ma’nosida qo‘pol kishiga nisbatan ishlatilsa, birovning ishidan foydalanuvchi, xoin kimsalar “çakal”, ya’ni shoqol deyiladi. Hayvonlar ichida hid taratgani uchun sassiqko‘zan, badbo‘y nomi bilan atalgan turk tilida esa kokarca nomi berilgan hayvon misolida esa tozalikka amal qilmaydigan, yuvinmaganidan yoqimsiz hid anqaydigan nopok kimsalar gavdalantiriladi.

O‘zbek tilida kaltafahm, befarosat odamni “tovuq miya” ga o‘xshatilsa, “tavuk gibi” birikmasi turk tilida barvaqt uxlab qoluvchi kishilarga nisbatan ishlatiladi. “Horoz gibi” esa kalandimog‘, o‘z haqqini bilgan, har ishda bosh bo‘lgan kishi ma’nosida qo‘llaniladi. Erta turgan “horoz”, ya’ni xo‘rozga, erta uxlaydiganlar “tavuk”, ya’ni

tovuqqa qiyos qilinadi. O‘zbek tilida, ayniqsa xalq tilida kekkaygan, qo‘lidan bir ish kelmasa-da o‘zini osmonda deb biladigan yosh yigitlar uchun “jo‘jaxo‘roz” o‘xshatmasi qo‘llaniladi.

Taniqli turk yozuvchisi Umar Sayfiddinning “Horoz” hikoyasida ushbu parchaga e’tibor qaratsak:

“Ah bu tavuklar! Dünyada bunlar kadar sevimli, bunlar kadar kendi hallerinde, bunlar kadar saf, bunlar kadar masum bir mahluk var midir. Hayatları bütün bir vezife bütün bir fedakarlık destanıdır. Bizi beslemek için muntazam yumurtlarlar. Civciv çıkarmak için haftalarca karanlıkta aç, susuz, uykusuz, güneşsiz, eğlencesiz, yumurtaların üstünde yatarlar. Kendi hararetiyle yavrularını canlandırırlar. Sonra onları büyütünceye kadar yerlerde buldukları tanelerden – obur oldukları halde- nefislerini mahrum ederler. Onları korumak için en müthiş hücumlara karşı kanat açarlar. Kendilerinin yüz misli büyük bir düşmanın üstüne atılırlar. ” [85] (Ömer Seyfettin. Horoz. S.13). Tarjimasi: “Eh bechora tovuqlar! Dunyoda bularchalik yoqimli, bulardek sof, ma’sum bir jonzot bormikan… Hayotlari boshdan oxir xizmat va fidokorlikdir. Bizni boqish uchun har kun tuxum qo‘yishadi. Jo‘ja ochish uchun haftalab qorong‘ulikda och, suvsiz, uyqusiz, nursiz holatda tuxumlarini poylab yotishadi. O‘z issiqliklari bilan jo‘jalar haroratini ta’minlaydilar. Keyin jo‘jalari ulg‘aygunga qadar nimaiki topsa ilinishadi. Ularni har qanday balodan himoya qilishga harakat qilishadi. Dushmani o‘zlaridan ming chandon kuchli bo‘lsa-da kurashadilar”. Mazkur hikoyada qahramon tovuqlar orqali onalar obrazini ifodalaydi. Onalarning fidokorona mehnatlarini ko‘z oldiga keltiradi.

Yana bir örinda “Yavaş yavaş her vakit sebepsiz bir hiddetten köpüren babamı da bu horoza benzetmeye başladım. Onun da tipinde bir horozluk vardı. Gözleri dikti, yuvarlaktı. Kalıpsız kırmızı büyük fesi tıpkı bir ibik gibi duruyordu. Öfkesiyle evi tir tir titretirdi. Annem otuz senelik karısı olduğu halde daha yanında sigara bile içemiyordu. Kardeşlerim, ağabeyim, bahçedeki yavru horozlar gibi ağız açamazlar, ona cevap veremezlerdi. Dikkat ettim, babam horoza benzediği gibi şale tarzında yapılmış evimiz de büyük bir kümese benziyordu. En iyi tünek, yani yukarıdaki balkonlu salon babamın yatak odasıydı. Biz. bütün ev halkı bir sürü tavuk… Nazarında hiç ama hiç ehemmiyetimiz yoktu. Hizmetçileri döver, uşakları kovar, mutfağa karışır,

[85] **Ömer Seyfettin. Yüksek ökçeler.Ocak 2006.**

kardeşlerimi azarlar, anneme gık dedirtmez, bana göz açtırmazdı. Evde münhasıran yalnız o vardı. Kümeste horozun olması gibi…”[86](Ömer Seyfettin. Horoz. S.15). Tarjimasi: “Asta-sekin har soatda qoni ko‘pirgan otamni bu xo‘rozga o‘xshata boshladim. Otamning xarakterida ham xo‘rozlik bor edi. Ko‘zlari yonib turardi. Qip-qizil bosh kiyimi tojday turardi. G‘azabi bilan butun uyni titratadilar. Onam o‘ttiz yillik hasmi-haloli bo‘la turib yonida erkin yura olmaydi. Ukalarim, akam ham hovlidagi jo‘ja xo‘rozlar kabi og‘iz ochisholmaydi, bir so‘z deyishmaydi. Yaxshilab qarasam, dadam xo‘rozga o‘xshagani kabi uyimiz ham tovuq fermasiga o‘xsharkan. Eng yaxshi xona yuqorida dadamning xonasi edi. Uydagilar barchasi fermadagi tovuqlar kabiydik, bizning hech qanday ahamiyatimiz, o‘rnimiz yo‘q edi. Ishchilarni urar, xizmatkorlarni haydab-solar, oshxona ishlariga aralashar, ukalarimni urishar, onamga “hiq” ettirmas, meni ko‘zimni ochtirmasdi. Uyda faqat o‘zi bor edi. Fermadagi xo‘roz kabi yolg‘iz o‘ziydi.” Hikoyada mag‘rur, o‘z nafsi va huzurini o‘ylaydigan otalar xo‘rozga, nima bo‘lganda ham tish-tirnog‘igacha sabr qilib yashaydigan onalar tovuqlarga, xizmatchi va farzandlar esa jo‘jalarga o‘xshatilgan.

Laganbardor, sertakalluf, kattalarga tilyoqlamalik qilib yaltoqlanadigan odamga nisbatan “köpek gibi” birikmasi ishlatiladi.

Akrep so‘zi turk tilida chayon ma’nosini beradi, lekin insonlarga nisbatan “ciyan gibi” ifodasi ishlatiladi va “tili zahar”, shuningdek xoin kishini ta’riflash uchun qo‘llaniladi. Tili zahar kishini ta’riflash uchun “yilan gibi” metaforasidan ham foydalanish mumkin.

Salbiy stereotiplarga yana bir misol qilib yebto‘ymas, semiz ma’nolarida keluvchi “fil gibi” birikmasini berish mumkin. Jirafa o‘txo‘r hayvon hisoblanib, uzun bo‘yni yordamida daraxtning uchidagi barglarni ham yeya oladi. Bu nuqtai nazardan o‘zbek tilida jirafa uzun bo‘yli va ingichka qad-qomatli kishilarga o‘xshatiladi. Turk tilida esa anqov, bitta gapni tushunmaydigan ma’noda “zürafa gibi” birikmasi keladi. Qo‘rqoq, yuragida o‘ti yo‘q, “chumchuq pir etsa yuragi ‘shir’ etadi” gan insonlarga nisbatan “devekuşu” zoonimi qo‘llaniladi. Uyquchi, uyqusevar kishilar esa koala ga qiyos qilinadi.

Bo‘y basti kelishgan, kuchli, sog‘lom erkaklarga nisbatan “aslan gibi” birikmasi badiiyatda juda keng qo‘llaniladi. Hech bir narsadan

[86] **Ömer Seyfettin. Yüksek ökçeler.Ocak 2006.**

qo‘rqmaydigan jasur ma’nosida esa “aslan yürekli” birikmasi ishlatiladi.

“Eşek gibi” ifodasi turk tilida aqlsiz, qo‘pol, o‘ylamay ish qiladigan, qiyinchilikda ish qilgan kabi ma’nolarda keladi. Tuyg‘usiz, hissiz odamga nisbatan esa “eşek derisi gibi” birikmasi qo‘llaniladi. O‘zbek tilida esa bu birikmalar juda mehnat qilib yuzaga chiqmagan odam yoki o‘ta qaysar ma’nolarida keladi. Shu bilan birga, ko‘zlari katta-katta insonga nisbatan “eşek gözlü” ifodasi ishlatiladi.

Qarashlari o‘tkir yoki uzoqni yaxshi ko‘ra oladigan, sezgir insonlarga nisbatan o‘zbek tilida “burgut ko‘z”, “lochin ko‘z” o‘xshatmalari bilan ifodalansa, turk tilida ham “şahin bakışlı” (lochin ko‘z) birikmasi ishlatiladi.

Qirra burunli kishilarni tilda ifodalash uchun “karga burun” birikmasidan foydalaniladi. Aslida qarg‘aning burni biroz egri bo‘lgani uchun ham shunga qiyoslangan.Juda ozg‘in va qorachadan kelgan kishilar uchun ham “karga gibi” ifodasi beriladi. Shuningdek, xipcha bel va nozik qomatli ayollarga nisbatan “ceylan gibi” deyiladi, ya’ni ohuga o‘xshatiladi. “Ceylan bakışlı” birikmasi suzilib qaragan xumor ko‘zlarni gavdalantiradi.

Ayyor, yolg‘onchi, yomonli xulqli kishilar “çakal”, ya’ni shoqol, chiyabo‘riga qiyos qilinadi.Ko‘p ovqat yeydigan ham beso‘naqay gavdalilarga nisbatan “fil gibi” deyiladi. Xipcha belli nozik ayollar esa “kelebek” kapalak deyiladi.

Koyun- qo‘y o‘zbek tilida ham, turk tilida ham buyruqlarni so‘zsiz bajaradigan, o‘z “men” iga ega bo‘lmagan odamga qiyos qilinadi. Hayron qolib, dovdirab qaraydigan ma’nosida “koyun bakisli” birikmasi ishlatiladi. “Kedi gibi” –mushuk kabi o‘xshatishi ham bo‘sinuvchan ma’nosida keladi. Shu o‘rinda “Kedi gibi dört ayak üstüne düşmek” iborasi juda qiyin vaziyatlardan ham oson chiqa olgan odamga nisbatan ishlatilishi, “kedi ile harara (veya çuvala) girmek”-chorasiz qolgan kishi bilan hamkorlik qilgan kishiga, “kedi ile köpek gibi” iborasi bir-biri bilan kelisha olmagan kishilarga nisbatan qo‘llanilishi, “kedi cig‘ere bakar gibi” iborasi esa havas bilan, ishtaha bilan, qo‘lga kiritishni istab qaragan ko‘zlarni ifodalashini ta’kidlash joizdir.

“Chumolidek mehnatkash” metaforasi o‘zbek tilida juda ko‘p qo‘llanilgani kabi turk tilida ham ishlatiladi, “karinca yuvasi gibi” tarzida, ya’ni tiqilinch, odam gavjum joy ma’nosida qo‘llaniladi.

Birovning ortidan qolmaydigan kimsalarni “kanadek yopishqoq” iborasi bilan ta’riflaymiz. Turk tilida ham aynan “kene gibi yapışmak” birikmasi shu ma’noda keladi.

Ilon zoonimi o‘zbek tilida ayollarga nisbatan “jilvali, ayyor, kezi kelganda zaharli” ma’nolarida kelsa, turk tilida “xoin,sovuq, yoqimsiz” ma’nosida yilan gibi birikmasi ishlatiladi.

Mehnatsevar, ko‘p kitob o‘qiydigan odamga nisbatan sigirga o‘xshatish kuzatiladi, İnek gibi çalişkan. Angut-o‘rdaksimonlar oilasiga mansub bu qush axmoq, qo‘pol, beo‘xshov ma’nolarida keladi. Eşek sıpası-ya’ni xo‘tik yaramaz çocuk-sho‘x bolakayga qiyos qilinadi. Gapga kiradigan, tarbiyali, odobli bolalar esa kuzu-qo‘zichoqqa qiyos qilinadi.

Maymun esa g‘alati xatti-harakatlar qiladigan, qisman komık bo‘lgan yoki taqlidchiga nisbatdir. Xalq orasida tishlari oldiga chiqqan kishini ta’riflashda esa “sincap gibi” zoonimi qo‘llaniladi

Yana bir misolda har ikki tilda ham “takrorlamoq, qaytarmoq, bir gapni hadeb aytavermoq” ma’nosini ifodalash uchun to‘tiday o‘xshatish etalonidan keng foydalaniladi: Babam, ağzı alışmış, her sözün başında -Ulan, Ulan be..., -Vay anasını! diye konuşur. Yani dili biraz argoya kaçar. Fatoşda, kimden ne duyarsa papağan gibi tekrarlıyor, ne görürse öyle yapıyor, Fatoş'un babamı taklit ederek peltek peltek -Ulan be... -Vay anasını! gibisözler söylemesine bizim evde herkes bayılıyor[87] Tarjimasi: Dadamning qiziq odati bor – har ikki gapning birida “ho‘v”, “voy zang‘aryey!” degan bo‘lmag‘ur so‘zlarni ishlatib turadi. Fatosh bo‘lsa naq to‘tining o‘zi, kimdan nimani eshitsa, darrov shuni qaytaradi. U “ho‘v falonchi”, “voy zang‘aryey!” deb chuldirib qolsa, uydagilar o‘zlarida yo‘q suyunib ketishadi (M. Hakimov tarjimasi. G‘aroyib bolalar,157).

Xulosa qilib aytganda o‘zbek va turk tillarining leksikografik manbalari materiallarini chog‘ishtirma tahlil qilish zoonimni idrok etishda umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarning mavjudligi haqida gapirishga imkon beradi. Umumiy bo‘lgan narsa bu – zoonimning ikkala til tizimida mavjudligi, shu jumladan hayvonning biologik xususiyatlari va zoomorfizm. Har ikki tilda ham odamni salbiy va ijobiy tomondan tavsiflash uchun zoometaforalardan foydalaniladi.

Mazkur tillar tarkibidagi zoonimlarning “xulq-atvori” tahlili bizga quyidagilarni aytishga imkon beradi:

[87] **Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika, 74. 2005**.

Ko‘rib chiqilgan zooleksemalar har ikkala tilning matnlarida faol ishlatiladi va turli xil insoniy illatlarning timsoli sifatida xizmat qiladi;

Ikkala tilning zoonimlari odamning fe’l-atvorini, holatini, xatti-harakatlarini va xulq-atvorini salbiy ham ijobiy baholash uchun ishlatiladi, bu hayvonot dunyosi vakili idrokining o‘ziga xosligi bilan izohlanadi, bunda xuddi shu hayvon o‘xshash belgilar bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исмоилов Ғ. Зоокомпонентли фразеологик бирликларнинг этномаданий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. №7. –Тошкент: 2013.
2. Шабанов Ж., Ҳамидов Х. Уй ҳайвонлари номига асосланган мақол ва ибораларнинг таржимада берилиши // Таржима масалалари. № 2. –Тошкент: ТошДШИ, 2014.
3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.
4. Jumanazarova G.U. «Shirin bilan Shakar» dostonining lug‘aviy va lingvopoetik xususiyatlari (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varinti asosida):Filol. fan. nomz. …dis. avtoref. – T., 2008. -26 b.
5. Zohidov T.Z. Zoologiya ensiklopediyasi. Qushlar. – Toshkent, 1957.
6. Ibrat. «Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodining ma’naviy qadriyatlarni yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyati» ilmiy-amaliy anjumanining materiallari. – Samarqand: SamDU nashri, 2006. – 84 b.
7. Ishoqov F. «Zarbulmasal»dagi qush nomlariga doir // «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1973, №1. -B.46-50.
8. Ömer Seyfettin. Yüksek ökçeler.Ocak 2006.
9. Aziz Nesin. Şimdiki Çocuklar Harika, 74. 2005

Internet saytlari

1. http://www.ziyonet.com
2. http://tdk.gov.tr
3. http://kitob.uz
4. http://www.biblus.ru

КОРЕЙС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА МУРОЖААТ БИРЛИКЛАРИНИНГ АЙРИМ ФУНКЦИОНАЛ ХУСУСИЯТЛАРИГА ДОИР

Дилором АШИРБАЕВА, *ТДШУ таянч докторанти*

Мурожаат бирликлари функцияларининг ўзаро таъсир тизимидаги таҳлили шуни кўрсатдики, мурожаат бирликлари нутқ жараёнини тартибга солувчи дискурс оператори сифатида намоён бўлиши мумкин.

Кўпгина муаллифлар мурожаат бирликларини нутқда бажарадиган қуйидаги функцияларини ажратиб кўрсатишади:

- номинатив функция;

-адресантнинг адресатга бўлган шахсий муносабатини ифодаловчи характеристик (тавсифловчи) функция [Рязанова 1983];

-аҳлоқ одоб меъёрларига амал қилувчи [Гольдин 1987] ёки ижтимоий-регулятив функция. [3]

Мурожаат бирликларининг функционал структураси нутқ иштирокчилари ижтимоий мавқеининг тенглиги ёки тенгсизлиги, уларнинг ёши, жинси, танишлилик даражаси ифодаланиши коммуникантларнинг нутқ соҳасига оид бўлган қатъий расмий шаклдан таниш ёки самимий муносабатларни ўзида акс этган мурожаатларда намоён бўлади.

Мулоқотчи бир қанча ижтимоий гуруҳлардаги муқаррар ҳаракат иштирокчиси бўлиб, турли вазият ва холатларда турли ижтимоий ролларни (оила, дўстлар давраси, иш жойи) бажарувчи ҳисобланади. Шунга кўра, адресатга йўналтирилган мурожаат турлари ҳам ҳар хил бўлади. Бир кишига нисбатан вазиятга қараб турлича мурожаат қилиш мумкинлигини кўриш мумкин. Масалан, кишининг иш жойида унга нисбатан эгаллаган лавозими (김부장님 Kim pujangnim-ўринбосар Ким (жаноб Ким)) , исм–шарифи билан (Дониёр Комилович), дўстлар, танишлар даврасида эркалаш–кичрайтириш номлари билан (корейс тилида : 장호 - Jang Xo, 장호씨 – Jang Xo shi жаноб Жанг Хо, ўзбек тилида: Дони, Доник), оилада исми ёки қариндошлик мурожаат бирлаклари билан (корейс тилида: 장호 - Jang Xo, 아빠 арра дада, 수미의 아빠 Sumie арра (Сумининг) дадаси, ўзбек тилида: Дониёржон, дадажон, дадаси) мурожаат қилиш кузатилади.

Нутқда у ёки бу мурожаат бирликларини танлаш нутқ иштирокчиларининг маълум бир позицияда бўлиши ва шундан келиб чиқган холда расмий, норасмий, нейтрал ёки фамиляр мулоқот услуби танланиши мумкин.

Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра инсонларнинг ўзаро алоқага кириши, ахборот алмашинувида тил мухим ўринни эгаллагани учун унинг воситасида ҳис -туйғуларни ифодалаш, шу жумладан мурожаат бирликлари ёрдамида сухбатдоши билан нутқий фаолиятга киришиши натижасида мурожаат бириликларининг экспрессив функцияси бирламчи деб ҳисоблаганлар.

Айнан шу вазиятда мурожаатларнинг салмоқли функцияси, яъни адресатни тавсифловчи функцияси намоён бўлади. Тилшуносларнинг тадқиқотига асосан мурожаат бирликларининг қуйидаги турлари мавжуд:

1) Нутқ адресатини аташ функцияси (номинатив функция):

А) -*김 현우, 이 쪽으로 공을 차줘!* [9, 12.] *Kim Hyeon U, i jjog-eulo gong-eul chajwo!* ***Ким Хён У****, тўпни бу томонга ошир!*

Б) - ***Холида****, келасизми, ростдан келасизми? - дедим севиниб.* [6, 2.] Ҳар иккала мисолда адресатга нисбатан исми билан мурожаат қилиш орқали мурожаат бирлигининг номинатив функцияси амалга оширилган.

2) адресатни эътиборини қаратиш, тинглашга чорлаш функцияси:

Юқорида келтирилган *Ким Хён* У ва *Холида* мурожаатларида нафақат адресатга қаратилган мурожаат, балки уни тинглашга ҳам ундашини кўришимиз мумкин.

3) Адресатни тавсифловчи функция:

А) - *우리 아들! 한번 안아보자.* [9, 15.] *Uli adeul! hanbeon an-aboja.* ***Болажоним!*** *Кел бир қучоқлай.*

Б) - *Искандаржон,* ***жон болам****, - Баҳри хола унинг елкасига қоқди. — Чиқа қолинг, қоқиндиқ.* [6, 18.]

Юқорида келтирилган А ва Б банддаги мисолларда *болажоним* ҳамда *жон болам* мурожаатлари ўзида ижобий оттенкани мужассамлаштирган бўлиб, адресатни тавсифлаб келмоқда.

В) - *넌 개보다도 못한 놈이야!* [7, 23] *Neon gaebodado motxan nom-iya! Сен* ***итдан*** *ҳам* ***баттарсан****!*

Г)- *Сен,* ***ярамас «Пўнчик»*** *кафега судрамасанг, телпагим йўқолмасди... Телпагим йўқолмаса...* [6, 31.]

В ва Г бандларда келтирилган мисолларнинг ҳар иккисида адресатга қаратилган мурожаат бирликларида салбийлик оттенкаси ўз ифодасини топган.

Қуйидаги мисолларда мурожаат бирликларининг яна бир ахамиятли жихатини, яъни адресант ва адресат ўртасидаги ўзаро ижобий, салбий ёки нейтрал муносабатларни кўриш мумкин бўлади.

1. *А)-**교수님,** 걱정마세요!* [7,184]- *Gyosunim, geogjeongmaseyo! -**Профессор,** хавотир олманг!*

*Б)-**최 교수님,** 감사합니다. 우리 모두가 더욱 넓은 마음으로 서로 이해하고 사랑하는 친구들이 되겠습니다.* [7, 253.] *Choe gyosunim, gamsahabnida. Uli moduga deoug neolb-eun ma-eum-eulo seolo ihaehago salanghaneun chingudeul-i doegessseubnida.* ***Профессор Чой****, катта раҳмат. Биз ўзаро бир биримизни тушунадиган ва ҳурмат қиладиган дўстлар бўламиз.*

В) — Гапиринг, ***Эркин ака****! — деди у қизариб кетган кўзларини менга тикиб.* [6, 6.]

Г) — ***Ҳаяжонланманг, жоним****, ҳаяжонланманг, - деди хотин. Эр ҳайрон бўлди.*

— Ҳаяжонланаётганим йўқ. Ишхонада мажлис бўлди. Мажлисда...

[6, 32.]

Д) - **Хафа бўлма, ўртоқ,** - деди Ботир ғарч-ғурч қор кечиб бораркан. — Бошинг совқотган бўлса, менинг телпагимни кийиб кетақол... [6, 30.]

Юқорида келтирилган мисолларда *профессор, профессор Чой, Эркин ака, жоним, ўртоқ* мурожаат бирликлари адресатга нисбатан нейтрал муносабатни ифодалайди.

2. *А) 버릇없는 가시네년 누구에게 네가 감히 이따위 버르장을 하니...* [8, 140.] *Beoleus-eobsneun gasinenyeon nuguege nega gamhi ittawi beoleujang-eul hani...* ***Тарбия кўрмаган қиз,*** *мен билан ўзингни бундай тутишга қандай ҳаддинг сиғди?!*

Б) - ***Малчите пажалиста, гражданин****! - Старшина жўвадек бармоғини кўтариб, пўписа қилди.* [6, 30.]

Мисолларда адресатга нисбатан салбий муносабат *тарбия кўрмаган қиз, малчите гражданин* мурожаат бирликларида акс этганини кўришимиз мумкин бўлади.

3. *А) “아무렴, 기특한 생각이야. 가을이렷다”* [10, 85] *Amulyeom, giteughan saeng-gag-iya. ga-eul-ilyeosda” **Балли, йигит.** Яхши ўйлабсан. Онангга ҳурматинг бор экан. Кузга ҳам оз қолди.*

*Б) Довучча тукканидан бошлаб туршак бўлгунча маҳалланинг қора-қура болалари шохдан-шохга тармашади. Отинойи ўрикни қизғанганидан эмас, болаларга ачинганидан чирқиллайди: «**Ҳой, уйингга буғдой тўлгур такалар,** туш, йиқилиб кетасан!» «Такалар» парво қилмайди. Биладики, Отинойининг тути ҳам, ўриги ҳам уларники! Умуман, бу ҳовли ҳамманики.* [6, 14.]

Юқоридаги бандларда келган *балли йигит, такалар* каби мурожаат бирликлари адресатга қаратилган нутқнинг ижобий оттенкасини ифодалайди.

4) Перлокутив функция (мақсадга эришиш учун адресатга таъсир функцияси):

А) ***나와, 이 년아!*** *밝은 곳으로 나오란 말이야! 나와서 떳떳이 말 해 봐. 빨리 나와 보란 말이야.* [7, 172.] *Nawa, i nyeon-a! Balg-eun gos-eulo naolan mal-iya! Nawaseo tteostteos-i mal hae bwa. Ppalli nawa bolan mal-iya. **Бу ерга чиқ ярамас!** Ёруғга чиқ! Чиқиб ҳаммасини тушунтир. Чиқ дедим.*

Б) *– **Минуточку, гражданин!** - деди старшина анчайин кескин оҳангда. – Пастрадавшийнинг ўзи гапирсин!* [6, 26.]

Адресант томонидан адресатга қарата айтилган ижобий ёки салбий нутқ фаолияти мақсадни амалга ошириш воситаси бўла олади. Мазкур мисолда салбий нутқ фаолиятини кузатишимиз мумкин.

5) Эмотив функция (хис туйғуларни намойиш этиш функцияси):

*– **우리 아다다**. 수롱이는 아다다의 등에 손을 얹으며 빙그레 웃었다.* [8, 170.] *Uli Adada. Sulong-ineun Adadaui deung-e son-eul eonj-eumyeo bing-geule us-eossda. –Менинг **ширин Ададам**! – Сурон Ададанинг елкасига қўлини қўйиб жилмайганча кулди.*

*– Оғзингга қараб гапир, **ўв братан**! - деди қўлини пахса қилиб. - Мен сувини ичдим, билдингми? Макруҳи тагида қолди, билдингми?! Аввал ўрганиб олгин-да, кейин виступат қил, билдингми?!* [6, 25.]

Юқоридаги мисолларда *ширин Ададам* ҳамда *ўв братан* мурожаат бирликлари нутқда эмотив функцияни бажармоқда.

7) Регулятив функция.

Маълумки у ёки бу мурожаат бирликларидан фойдаланиш бир қанча ижтимоий факторларга, хусусан, ёши, жинси, лавозими, танишлилик даражаси ва х.к.ларга боғлиқ. Бу дегани мурожаат бирликлари нутқ жараёнида коммуникантлар орасидаги муносабатларни тартибга солиб турувчи воситадир. Масалан, ходим ўз бошлиғига нисбатан буйруқ шаклида ёки буйруқ оҳангида мурожаат қила олмайди.

1. *가: 어서 오세요,* ***박 여사님!*** *Eoseo oseyo,* ***Park yeosanim!*** *– Хуш келибсиз* ***Пак хоним!***

나: 초대해 주셔서 감사해요, ***강 교수님.*** [7, 157.] *Chodaehae jusyeoseo gamsahaeyo,* ***Kang gyosunim.*** *–Таклиф учун раҳмат,* ***профессор Канг.***

2. *팀장은 기다렸다는 듯이 “****서 과장,*** *좋은 의견이야, 내일 8 시까지 준비해 줘” 한 마디 하고 회의를 마친다.* [11, 173]

*Timjang-eun gidalyeossdaneun deus-i “****Seo gwajang****, joh-eun uigyeon-iya, naeil 8sikkaji junbihae jwo” han madi hago hoeuileul machinda. Жамоа раҳбари кутилганидек “****Менеджер Со,*** *яхши фикр, эртага соат 8 гача тайёрлаб беринг” дея мажлисни якунлади.*

3. *– Раҳмат* ***Азизжон!*** *Тугишганим қилмаган яхшиликларни қиляпсан. Мендан қайтмаса, Худодан қайтсин.*

– Бунақа гапларни қўйинг, ***Гулбаҳор хола.*** *Ҳаммамиз бир ота-онанинг фарзандларимиз-ку, ахир?!* [2, 9.]

4. ***– Азизжон ака****, мана икки юз минг сўм. Етмаса яна топиб бераман.*

– Етади, раҳмат ***Нодиржон ука!*** *- деган сўз Азизжоннинг оғзидан эшитилар-эшитилмас чиқди.* [2, 13.]

Корейс тилида берилган мисолларимизда коммуникантларнинг ўзаро танишлиги, бир жойда ишлашини англаш мумкин. Биринчи мисолда икки ходим ҳам устоз эканлиги ва уларнинг нутқида ўрта ҳурмат шаклининг қўлланилиши кўзга ташланса, иккинчи мисолда эса раҳбар ва ходим муносабати кузатилади. Раҳбар ходимга нисбатан буйруқ шаклида мурожаат қилиши мумкин эканлигини ҳисобга олсак, 내일 8시까지 준비해

줘 naeil 8 sikkaji junbihae jwo – яъни, “эртага соат 8 гача тайёрлаб қўй” буйруқ шакли қўлланилганини кўриш мумкин.

Ўзбек тилидаги учинчи ва тўртинчи мисолларда коммуникантларнинг ўзаро таниш эканлигини сезиш мумкин. *Раҳмат Азизжон* мурожаатида Гулбаҳор исмли аёл Азиз исмли кишига –жон ҳурмат аффикси ёрдамида ўз миннатдорчилигини ва ҳурматини билдиряпти. Кейинги мисолда эса *Азизжон ака* ва *Нодиржон ука* каби мурожаат бирликлари ҳам адресант ва адресатнинг ўзаро таниш ва яқин эканлигини кўрсатади.

Мурожаат кўп функцияларга эга бўлган синтактик ходисадир. Аммо, шуни таъкидлаш жоизки, мазкур функциялар бир-биридан қатъий ажратилмаган. Одатда бир вақтнинг ўзида бир нечта функциялар бажарилиб, синкретизм функцияси юзага келиши кузатилади [5]. Масалан, *«Хўп бўлади устоз»* жумласида *устоз* мурожаати икки хил функцияга эгадир: адресантга қаратилган мурожаат ҳамда ҳурматни ифодалаш функцияларидир

Тилнинг асосий функцияси дейилганда одатда коммуникатив ва когнитив функциялар тушунилади. Коммуникатив функция лисоннинг нутқ жараёнидаги функцияси бўлиб, у сухбатдош билан нутқ жараёнида контактга киришиш (фатик), волюнтатив (таъсир ўтказиш кучи) ҳамда кумулятив (халқнинг маданияти, тарихи, анъаналарини сақлаш ва етказиш) каби турли функцияларни ҳам ўз ичига олади. Когнитив функция эса ўзида ижимоий тарихий билим ва тажриба, аксиологик ва номинатив функцияларни мужассамлаштиради.

К.Бюллер сўзловчи, адресат ва ташқи омилга мулоқот жараёни асосини ташкил этувчи асосий таркиб сифатида қараган. Ва бу уч асосий таркиб ўз функцияларига эга эканлигини қайд этган. Улар хусусан, экспрессив, вокатив ва (описательная) тасвирлаш функцияларидир [4, 60.].

Мурожаат бирликларидан нутқда тингловчи эътиборини тортиш, хитоб қилиш, ундаш каби мақсадларда фойдаланилади. Бундай бирликларда сўзловчи ва тингловчи ўртасидаги яқинлик, ҳурмат, ишонч; масофа (субординация), ҳурматсизлик, ишончсизлик каби коммуникатив муносабатлар ҳам ифодаланган бўлади. «Шунга кўра доимийлик белгисига эга бўлган мурожаат бирликлари нутқда аппелятив (хитоб ва мурожаат орқали мулоқотни бошлаш), коннотатив (субъектив муносабат – салбий

ва ижобий муносабатларни ифодалаш), эмотив (ҳиссий муносабат) функцияларни бажаради.» Мисоллар: - ***Маликам,***- *дебди жаҳл отига миниб. – Сизга рухсат! Салтанат хазинасидан ўзингиз учун энг қимматли нарсани олинг-да юртингизга жўнанг!* (Ў.Ҳошимов) *Ҳой,* ***овсар!*** *Босар-тусарингни билмай қолдинг-ку!* (С.Аҳмад). ***Ойиша, Ойиша, Ойиша*** *она, Нечун кўзларингдан оқар маржон ёш* (А.Орипов)

Келтирилган биринчи мисолдаги «маликам» мурожаат бирлиги аппелятив-хитоб, мурожаат қилиш орқали ўзаро мулоқотни бошлаш вазифасини бажармоқда. Иккинчи гап таркибидаги «овсар» мурожаат бирлиги камситиш, ҳақорат каби шахсий муносабатни ифодалаш орқали коннотатив вазифани бажарган. Учинчи гапда сўзловчининг эмоционал муносабати такрор қўлланувчи «Ойиша она» мурожаат бирлиги орқали яна-да аниқ ифодаланган. Мурожаат бирликларининг бадиий матндаги қўлланилишини ўрганишда ким, кимга, нимага, қандай ҳолатда, қандай нутқий вазиятда мурожаат қилинаётганлигига эътиборни қаратиш керак бўлади [1].

Корейс ва ўзбек тилларида мурожаат бирликларининг функционал структуралари деярли бир хил бўлиб, уларда коммуникантларнинг ўзаро ижобий ёки салбий муносабатини, самимийликни, яқинлилик, таниш ёки нотанишлилик нуқтаи назаридан суҳбат чоғида керакли бўлган у ёки бу мурожаат бирликлари танланиши мумкин деган хулосага келиш мумкин. Шу билан биргаликда ҳар икки тилда мурожаат бирликларининг бирламчи ва энг асосий функцияси бу —сухбатдошнинг эътиборини қаратиш, чақиришдан иборатдир. Мурожаат бирликлари нутқда қўлланилганда коммуникантларнинг ўзаро муносабатлари, ижтимоий мавқеи, мулоқотнинг расмий ёки норасмий эканлиги ва х.к. каби қўшимча маълумот беришда ҳам муҳим рол ўйнайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Аҳмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи. Филол.фан.номз...дис. -Тошкент, 2008.

2. Худойбердиев Б. Лафз. «Шарқ». Тошкент. 2007.

3. Голикова В.В. Функции обращения в семейном дискурсе. УДК: 801.6.

4. Дорофеева И.В. Английское обращение в системе языка и в дискурсе. Дисс…канд.филол.наук. Тверь.2005. С.60.

5. Сейтжанов Ж.Е. Обращение как многофункциональное и разностатусное синтаксическое явление. // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2010. № 3 (7). С. 140-142. ISSN 1997-2911.

6. Ҳошимов Ў. Ҳикоялар. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,Тошкент. 2002

7. 권택조. 흑광. 역락. 2002.

8. 계용묵. 백치 아다다. 서울. 2005.

9. 박승현. 엄마의 나무. 역락. 2015.

10. 이효석.메밀꽃 필 무렵. 서울. 2004.

11.홍석한. 신입사원은 무엇으로 성장하는가. 역락. 2016.

BADIIY TARJIMADA MADANIYAT TRANSFERINI NAMOYON BO‘LISHIDA LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKNING AHAMIYATI

Barnoxon SHAMSIEVA, *TDSHU tayanch doktoranti*

XX asrning oxirlarida olimlarning til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar masalasiga bo‘lgan qiziqishi yangi – lingvomadaniyatshunoslik fanining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ushbu fanning diqqat mavzusi til va madaniyatning o‘zaro ta’siri, ularning bir-biriga bog‘liqligini o‘rganish bo‘lib, inson hayotidagi madaniyat belgilarining tilda aks etishini o‘rganadi. “Til nafaqat muloqot va dunyoni bilish quroli, balki, millat madaniyatining kaliti(kodi)”[4, 3] sifatida olimlarni qiziqtira boshladi. Va til ham, madaniyat ham bir-birisiz mavjud emas degan g‘oya tadqiqotchilarni lingvomadaniyatshunoslik fani markazida jamladi.

Badiiy tarjimada madaniyatning transfer bo‘lishini til egalari xalqlarining madaniyati, olamga nisbatan qadr-qimmatidagi tafovutlarni tarjima matniga ko‘chgan lingvomadaniy birliklar, madaniyatga oid moddiy va ma’naviy birliklar orqali tahlil qilinadi. Ya’ni, madaniy fonga ega til birliklarining tarjima matniga ko‘chgandagi holatini va u bilan bog‘liq assotsiatsiyalarni o‘rganish madaniyatning transfer bo‘lish jarayonini yanada ochib beradi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o‘ziga xos jihatlarini tilda aks etishini o‘rganish lingvomadaniyatshunoslikning asosiy maqsadidir. Til va madaniyat ushbu yo‘nalishning ob’ekti

hisoblanib, predmeti esa o‘zida madaniy semantikani ifoda etuvchi til birliklari hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslikda madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq qilinar ekan, bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. Jumladan, ramz, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, realiyalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy kontseptlari majmui bo‘lgan kontseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, nutqiy muloqotga xos bo‘lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifalari hisoblanadi. V.N.Teliya lingvomadaniyatshunoslikni jonli milliy tilda moddiy madaniyat va mentalitetning mujassamlashuvini o‘rganadigan fan sifatida ta’riflaydi [6]. V.V.Vorobьevaning lingvomadaniyatshunoslik uchun bergan ta’rifiga ko‘ra, lingvomadaniyatshunoslik fani tanlangan madaniy qadriyatlarning majmuini, insonning nutqni yetkazish va idrok etishning kommunikativ jarayonlarini, lisoniy shaxs tajribasi hamda milliy mentalitetni o‘rganadi [1]. Tilda namoyon bo‘lgan va unda mustahkamlangan madaniy ifodalar bilan shug‘ullanadigan yo‘nalish sifatida lingvomadaniyatshunoslik fani tilni nafaqat aloqa va bilish vositasi, balki millatning madaniy kodi sifatida o‘rganadigan sotsiolingvistika va etnolingvistika bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ulardan farqli ravishda lingvomadaniyatshunoslik fani jonli aloqa jarayonida qo‘llaniladigan lingvistik iboralar bilan inson mentaliteti bog‘liqligini o‘rganadi[2, 11].

Lingvomadaniyatshunoslik fani tadqiqot markazida til va madaniyat bo‘lib, ularga berilgan ta’riflar ko‘pchilikni tashkil qiladi. D.Xudoyberganova berilgan ta’riflarni umumlashtirgan holda shunday deydi: “til va madaniyat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni saqlash, avloddan avlodga uzatish, madaniyatlararo muloqotni yuzaga keltirish va uni rivojlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan noyob hodisadir. Bunda til ham madaniyat mahsuli, ham uning mavjudligining asosiy sharti sifatida madaniyat qiyofasini belgilovchi, uning vorisiyligini ta’minlovchi omil vazifasini bajaradi.”[7] Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvomadaniyatshunoslik, xususan, antropotsentrik paradigmaning mohiyati chuqur yoritilgan bo‘lib, D.Xudayberganova o‘zbek

tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslik haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholaydi[7, 45]. Olim bu asarda lingvomadaniyatshunoslik fanining ob'ekti bo‘lgan madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "lingvokulьturologiyadagi madaniyatning ma'nosi, aqliy ma'naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati) emas, balki kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati) demakdir"[3,4]. Umumlashtirib aytishimiz mumkinki, millat madaniyatining moddiy va ma'naviy belgilari inson ongida va tilida aks etadi. Til esa o‘z navbatida og‘zaki nutqda, matnlarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Demak, matn va tarjimalar millat madaniyatini o‘rganish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Til matn va tarjimalarda aks etar ekan, ular millat madaniyatini o‘rganish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bir tildan boshqasiga tarjima qilganda, ikki til o‘rtasidagi jiddiy leksik-grammatik farqlar bilan birgalikda, o‘sha tillarda so‘zlashuvchi xalqlar yashayotgan tabiiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar hamda kishilar ongida shu omillar taqozosi bilan tug‘ilgan tasavvur, tushuncha, e'tiqodlar o‘rtasidagi katta tafovutlarga duch kelinishi kuzatiladi. Tarjimon ushbu so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilganda, madaniyatga xos bo‘lgan so‘zlarning ekvivalenti asl matndagi so‘z ma'nosini berkitishi yoki umuman tushurib qoldirishi mumkin. Zero, turli til, madaniyatlar o‘zaro aloqaga kirishganda ma'nolar assimitriyasi yuzaga kelib bo‘shliq ko‘zga tashlanadi. Tarjima deganda faqatgina bir tildan boshqasiga ko‘chirish emas, balki madaniyatlar to‘qnashuvini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik darkor. Lingvomadaniyatshunoslik ana shunday tilda aks etgan madaniyatga oid tushunchalarni o‘rganishga yordam beradi.

Badiiy matn o‘zida madaniy belgilarni saqlashi, ifoda qilishi nuqtai nazaridan shuni aytish mumkinki, badiiy matn lingvomadaniyatshunoslikning tadqiq ob'ektlaridan hisoblanadi. V.A.Maslova matn haqida quyidagicha yozadi: "Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, matn til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir. Lingvomadaniyatshunoslik esa tilni madaniy qadriyatlar tajassumi sifatida tadqiq etadi" [4,5]

V.A.Maslova badiiy matnni lingvomadaniyatshunoslikning ob’ekti sifatida uch shaklini ko‘rsatadi:

1) milliy madaniyat prizmasidan kelib chiqqan holda dunyo haqidagi ma’lumotlarning tashuvchisi va manbai sifatida (matn - madaniyat yig‘indisi)

2) estetik ma’lumot tashuvchisi sifatida (matn - san’at asari, milliy madaniyat asosi)

3) til ma’lumoti manbai sifatida (matn - bu til birliklarining sifatini o‘rganish uchun manba, milliy madaniyatni qayd qilish shakli) [5,23].

Demak, badiiy matnni yaratish ham, uni idrok qilish, uning tarjimasi ham estetik madaniy faoliyat sirasiga kirar ekan.

Lingvomadaniyatshunoslik til hamda madaniyatning doimiy o‘zaro ta’sirini o‘rganar ekan, asosan ramziy, obrazli, metaforik ma’noga ega bo‘lgan va inson ongi faoliyati natijalarini umumlashtirgan madaniyatga oid til birliklarini tanlaydi. Madaniyatning tilda namoyon bo‘lishini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan ushbu yo‘nalish nafaqat aloqa va bilish vositasi sifatida emas, balki millatning madaniy kodi sifatida ham o‘rganadi.

Bir millat ongida madaniyatga oid kontseptning shakllanishi bir qancha faktorlarga bog‘liq bo‘lib, bunda asosan til egalarining madaniyati, urf-odati, dunyoqarashi muhim vazifani bajaradi. Ya’ni birgina matn turli xalqlar, millat nuqtai nazaridan turlicha o‘zlashtirilishi va talqin qilinishi mumkin. Chunki, inson yashab turgan tabiati, madaniyati, urf-odati, dini kabi faktorlar uning fikrlar, tushuncha va tasavvurlar dunyosini shakllantiradi. G.Odilova “Badiiy tarjima asoslari” kitobida retseptor bilan matn muallifining tasavvuri har doim ham mos tushmasligi haqida o‘rinli misol keltiradi. Masalan, “Daraxt” deganda o‘zbek kitobxoni ko‘z oldida asosan mevali daraxt gavdalansa, rus o‘quvchisida esa oq qayin, eman daraxtini, yaponlar sakura, issiq o‘lkalarda yashovchi xalqlar esa palьma, banan kabi sitrus mevalari daraxtlarini ko‘z oldiga keltiradi [8,58]. Demak, kitobxon predmetga oid tasavvuri uning yashab turgan tabiati, atrof-muhitiga ham bog‘liq bo‘lib, daraxt deganda umumiy bir predmetni emas, eshitgan predmetlariga yaqin, ammo shakl, hajmiga nisbatan iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda tasavvur qiladi. A.D.Shveytser ham e’tiborni mana shu masalaga qaratib shunday deydi: “bir matnni turli xil madaniyat, turli kommunikativ vaziyatlari ishtirokchilari xar hil qabul qiladilar. Bunda xulq-atvor normalaridagi dastlabki bilimlar katta

roly o‘ynaydi.”[9] Shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, qabul qilayotgan millatning etnik lingvistik ongi asl matndagi madaniy o‘ziga xos ma’lumotlarni, stereotiplarni oddiy so‘zlar kabi qabul qilishi mumkin. Yoki aksincha, asl matn tili uchun oddiy hisoblangan so‘z tarjima tili uchun kontsept hisoblanishi mumkin. Shu o‘rinda Baxtin yozgan edi: “Biz begona madaniyatga ular o‘z-o‘ziga bermagan yangi savollarni qo‘yamiz va ularga javob izlaymiz. Shunda begona madaniyat bizga yangi ma’noga to‘la qirralarini ochib beradi”[10, 20]. Bu madaniyatlararo muloqot uchun xos xususiyat bo‘lib, qabul qiluvchi madaniyat begona madaniyat elementlarini o‘z dunyoqarashidan, olamga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqib kashf qiladi.

Tildagi tafovutlar haqida gapirar ekanmiz, Ter-Minasovaning fikriga ko‘ra, “tildagi tafovutlar bir tushunchani ifoda etish shakllarining ko‘p yoki yetishmasligi sezilganida namoyon bo‘ladi”[11,49]. Turli tillarda gaplashadigan odamlar atrofdagi olamni turlicha "ko‘radilar". Ushbu "ko‘rish"dagi farqlar bilim va tushunchalarning turliligi, ma’lum bir so‘zni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki obrazli ishlatilishida kuzatishimiz mumkin. V.A.Maslova asarlarni boshqa tilga tarjima qilganda “o‘quvchining matnni talqin qilishi asar muallifi nazarda tutgan ta’rifga mutlaqo to‘g‘ri kelmasligi mumkin, chunki ular nafaqat boshqa-boshqa shaxslar yoki turli xil kontseptual tizimlarga egalar, balki madaniy kontekstlari ham turlichadir”, deb fikr bildirgan. Demak, yangi madaniy kontekstga ko‘chgan matn, asliyati bilan solishtirganda yangi ma’nolar bilan to‘ldirilgan bo‘ladi deb ayta olamiz.

Badiiy tarjimada millatning tashqi olamga bo‘lgan munosabatini, unga nisbatan qimmatini transfer bo‘lishini lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish muhim deb hisoblaymiz. Chunki, madaniyatga oid tushunchalar til birliklarida saqlanadi va tilda mustahkamlanib boradi. Milliy-madaniy kontseptlarni tahlil qilish asl matn millati va tarjima tili millati o‘rtasidagi madaniy tafovutlar, har ikkala til o‘quvchilarining olamga bo‘lgan munosabati farqini o‘rganishda samarali usul sanaladi. Bu esa o‘z navbatida badiiy asar tarjimasida madaniyat transferining namoyon bo‘lishini isbotlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Воробьев В.В. Лингвокультурологическая парадигма личности. - М., 1996.

2. Гуревич Т.М. Концептосфера "человек" в японской языковой картине мира. Дис. на sois. ученой степени доктора культурологии. - М., 2006. - 11 с.

3. Maxmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…// O‘zbek tili va adabiyoti, - Toshkent, 2012.№5. 3-16 b.
4. Maslova V. A. Lingvokulturologiya: Ucheb. posobie dlya stud. vissh. ucheb.zavedeniy. – M: Izdatelьskiy sentr «Akademiya», 2001. – S. 208.
5. Maslova V. A. Poet i kultura: kontseptosfera Marinы Svetaevoy: Uchebnoe posobie / V. A. Maslova. -M.: Flinta: Nauka, 2004. –23 s.
6. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekti. - M., 1996. – 216 s.
7. Xudoyberganova D. Matnning antropotsenrik tadqiqi. – Toshkent, Fan, 2013. – 136 b.
8. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – T.: «Mumtoz so‘z», 2011. – 58 b.
9. Швейцер А.Д. Теория перевода: состояние, проблемы, аспекты. - М .: Кн. Дом «ЛИБРОКОМ», 2009. 152 с.
10. Бакстин М.М. Эстетика словесного творчества. –М .: 1979. - С. 20.
11. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. - М., 2000. - 49 с.

FEMINIZM TUSHUNCHASINING TARIXIY-FALSAFIY ASOSLARI

Aziza ZOIROVA, *Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi*

Badiiy asar o‘zidagi turli g‘oyalar va falsafiy mulohazalar-ning murakkab tarjimasi bilan ajralib turadi. Ma’lum ideo-logiyaga asoslangan asar tarjimasi o‘ziga xos bilim va tafakkurni talab etadi. Bugungi kunda xalqaro miqiyosida muhokamalarga sabab bo‘lib kelayotgan feminizm tushunchasi ham ana shunday o‘ziga xos badiiy uslub va tamoyillar asosida yuzaga kelgan. Mazkur fenomenning adekvat tarjimasiga erishishda uning asl mohiyatini tushunish muhim ahamiyatga ega. Turli sohalarda ijobiy va salbiy tavsiflarga ega bo‘lib kelayotgan feminizm g‘oyasining tarixi, uning maqsad va vazifalari qanday hamda ushbu tushuncha tamoyillariga nimalar kiradi kabi tabiiy savollar tilshunos olimlar oldida turgan asosiy masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Mishel Rio Sarsining ilmiy tadqiqotlariga ko‘ra, dastlab 1872 yil Aleksandr Dyuma o‘g‘li ilk bor “fémmelin” va “féministe” so‘zlarini asarlarida qo‘llagan bo‘lib, ayollar bilan muammoga uchragan,

boshqalardan farq qiluvchi erkaklarga nisbatan haqorat ma’nosida foydalanilgan. Keyinchalik Hubertine Auclart mazkur so‘zdan ayollar huquqlarini ifodalovchi tushuncha sifatida o‘z tadqiqotlarida foydalangan. Demak, frantsuz tilidan “femme”, ya’ni “ayol” o‘zak so‘zi orqali hosil bo‘lgan feminizm “ayollik, ayollarga xoslik” ma’nosini anglatib, dastlabki manbalari sifatida badiiy asarlar ko‘rsatilgan. Jumladan, Simon de Bovuar, Afra Benn va Meri Estell kabi ayollar o‘z asarlarini yashirin nom orqali chop ettirishgan. Mazkur asarlar orqali ayollar muammosi, ularning erkaklar bilan teng imkoniyatlar asosida yashash fikrlari keng targ‘ib etilib, o‘ziga g‘oyaviy poydevor shakllantirib borgan .

Manbalarda feminizmning tushuncha sifatida shakllanishi emas, balki g‘oya sifatida paydo bo‘lish bosqichlari ko‘proq o‘rganilgan va uning asl mohiyatini ochib berishga e’tibor qaratilgan. Har bir mamlakat vakili feminizmni o‘z hududi ayollarining jamiyatdagi mavqei o‘zgarib borish tarixi bilan bog‘lagan holda tadqiq etgan. Jumladan, Valeri Brayson tadqiqotlarida feminizm tarixini o‘rganishga ideologik, falsafiy va lingvistik nuqtai nazaridan yondashilgan. U feminizm shakllanish sabablarini ko‘rsatar ekan, mazkur tushuncha ayollarning shunchaki maishiy muammolari natijasi emas, siyosiy darajadagi jiddiy oqibatlar keltirishi mumkin bo‘lgan masalalarni ifodalovchi g‘oya deya ta’kidlaydi. Feminizm fanga tushuncha sifatida kirib kelishidan avval shakllangan g‘oyaviy asoslarini keltirib o‘tishda quyidagi manbalarga tayanadi: “*Термин «феминист (ка)» впервые стал использоваться в английском языке в 80-х гг. XIX в., обозначая тех, кто поддерживал равные юридические и политические права женщин с мужчинами. Его значение с тех пор развивалось и до сих пор горячо дебатируется*”. V.Braysonning tadqiqotlarida kedtirilishicha, AQSh va Angliya hududlarida dastlabki ayollar huquqlari borasida ko‘plab natijalarga erishilgan. Feminist ayollarning bunday yutuqlari butun Yevropa bo‘ylab, XX asrga kelib esa dunyo bo‘ylab keng tarqala boshlagan. V.Brayson feminizm taraqqiyotida frantsuz ayollarining ham muhim ta’sirlarini e’tibordan chetda qoldirmagan: “*Насколько нам известно, первые публичные обсуждения темы представлены исключительно мужчинами, но начиная с XV в. стали раздаваться и женские голоса, и первой женщиной, писавшей о правах и обязанностях своего-пола, является, вероятней всего, француженка Кристина де Пизан*

(Christine de Pisan, 1364-1430)..” Biroq Frantsiyaning ma’rifatparvarlari J.J.Russo, D.Didro, Monteskьe ayollarning siyosiy ishlarga aralashuvini keskin qoralab, yozma manbalarda ularni ojizlik va hissiyotga beriluvchanlikda ayblashgan.

Shimoliy Amerikada feminizm g‘oyalarining kirib kelish tarixi va uning maqsadlarini o‘rgangan olimlar Louise Toupin va Marie Letellier lar feminizm g‘oyasi ijtimoiy tengsizlikni o‘zida aks ettrishini ta’kidlashadi. Ularning fikriga ko‘ra, feminizm ayollarning ta’limda, mehnat munosabatlarida, ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy hayotda erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo‘lishlikni ilgari suruvchi g‘oyalar majmuasi sifatida shakllangan. Shuningdek, feminizm orqali salbiy g‘oyalar va munosabatlarning yuzaga kelish sabablari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbek tilshunoslaridan Sh.K. Gulyamova gender tushunchasi va uning lingvistikada tutgan o‘rniga bag‘ishlagan tadqiqotida ham feminizm hamda gender tushunchalari o‘rtasidagi tafovut xususida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Tilshunos olima mazkur jarayonda feminizm tushunchasini gender tushunchasi bilan bog‘laydi. Uning tadqiqiga ko‘ra, tibbiyot fani orqali kirib kelgan gender tushunchasi ijtimoiy fanlarda fenomen sifatida o‘rganilishdan avval feministlar nutqida qo‘llanilgan. Shu jihatdan feminizm va gender tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini to‘ldirib borishi to‘g‘risida ma’lumotlar berib o‘tilgan. “Gender – bu ijtimoiy jins, insonning jamiyatdagi xulq-atvori. Bu ayol va erkak jihatlarini o‘rganadigan ijtimoiy normativdir. Ba’zida gender “erkak” va “ayol” tushunchalari sinonimi sifatida ham qo‘llaniladi.” Antropologlar, etnograflar va tarixchilar ancha oldin “erkaklarga xos” va “ayollarga xos” tasavvurlarning nisbiyligini aniqlab berganlar, ya’ni bir jamiyatda erkaklar mashg‘uloti deb sanalgan hodisa, boshqasida ayollarga xos deb belgilangan. Hozirgi kunda genderning har qanday ijtimoiy-psixologik tekshiruvi siyosiylashgan bo‘lib, bunda fanning roli nafaqat dunyoni o‘rganish, balki jinslar teng huquqqa egaligi printsipini ilgari surishdan iborat. Buning qonuniy muvofiqligi shundaki, genderning ijtimoiy psixologiyasi feministik harakatning maqsadlariga mos kelishidadir. Shinuningdek, olimaning ta’kidlashicha, feministik lingvistika tilni insonga emas, faqat erkakka yo‘naltirilganligi sababli tanqid qilinadi. Shuning uchun feministik lingvistika tilni reformatsiya qilishni ko‘p marotaba tavsiya qilgan. Tilda ayollar diskriptsiyasini o‘rganish bilan

birga tadqiqotlarning boshqa yo‘nalishlari ham paydo bo‘ldi. Bunga genderning sotsiolingvistik, psixolingvistik va lingvokulьturologik o‘rganilishini misol qilib keltirish mumkin.

Yuqoridagi tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, gender tushunchasi jamiyatda ikki jins munosabatlarining umumiylikda shakllanishi va o‘rganilishini bildirsa, feminizm mazkur birlikdagi faqat ayollarga xos bo‘lgan muammolarni o‘zida ifodalab keladi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, feminizm g‘oyasi asosida gender muammolar turadi.

Aziza Shomahmudova hurmat tamoyillarining muloqot matnida voqelanishiga gender omilining ta’sirini o‘rganish jarayonida ispan olimi Lopes Morales fikrini iqtibos etarkan, feminizm tushunchasiga qisman to‘xtalib o‘tadi. Uning tahlillari feminizm barcha sohada tenglikni talab etuvchi g‘oya kabi taassurot uyg‘otadi. A.Shomahmudovaning ta’kidlashicha, erkak va ayol muloqotida doimo farq bor, buni inkor etib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham tenglik amalga oshmaydigan talab bo‘lib qolaveradi.

Tarixiy manbalarda va badiiy asarlarda g‘oyaviy aksini topgan feminizm ilm-fanda tadqiqot ob’ekti sifatida turlicha tavsif etilib kelinmoqda. Dastlab ayollar huquqlari va tengligini tasvirlovchi asarlar, keyinchalik turli tanqidlarga uchrab, feminizmga “ayollar hukmronligi”ni ifodalovchi g‘oya sifatida tavsif berilishiga sabab bo‘ldi. Mazkur qarma-qarshi fikrlar feminist adibalar tomonidan yozilgan asarlar tarjimasiga va tarjimonga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi, albatta. Tanqidiy yondashuvlar asarning asl mohiyatiga ta’sir etmasligi, xususan tarjimada o‘zgarmasligida feminizm g‘oyasi va uning badiiy adabiyotdagi talqinini anglab yetish muhimdir. Feminizm g‘oyasining asl mohiyatini tushunish uchun mazkur yo‘nalishdagi badiiy asarlarning ayollar haqida so‘zlovchi boshqa asarlardan farqi va o‘ziga xos badiiy-stilistik xususiyati nimalardan iborat ekanligini aniqlash kerak bo‘ladi. Badiiy asarning asl ma’nosi va feminist adiba maqsadini anglab yetish tarjima adekvatligini ta’minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Michèle Riot-Sarcey, Histoire du féminisme, Paris, 2008. – R. 5.

2. Брейсон В. Политическая теория феминизма. Пер. S Angl. О. Линовской I Т. Линовской. М .: Идея-Пресс, 2001. - 304 с.

3. Louise Toupin, Marie Letellier. Quest-ce que cest le féminisme ? Québec, –1997, 119 p.

4. Gulyamova Sh.K. Gender tushunchasi va uning lingvistikada tutgan o‘rni. BuxDU ilmiy axboroti, – 2019, 296 b.

5. Shamaxmudova A. Hurmat tamoyillarining muloqot matnida voqelanishiga gender omilining ta’siri. Xorijiy Filologiya, №1, Samarqand, 2020 y. –B. 39.

PU SUNGLING ASARLARI TARJIMASIDA GEOGRAFIK JOY NOMLARINING BERILISHI

***Nafisa IZZATULLAEVA**, TDSHU magistranti*

Pu Sunglingning yuzdan ortiq novellasi boshqa tillarga tarjima qilingan. G.Djaylz yozuvchining novellalarini “Ming bir kecha” ertaklari bilan tenglashtiradi. Italyan yozuvchisi Di Giura esa Pu Sungling asarlarini tarjima qilib, “Lyaojay jeyi” asarini Xitoyning “Dekameron”i deb ataydi.”[88] O‘zbek tiliga yozuvchining asarlari ilk bor M.Mahmudxo‘jayev va J.Ziyamuhamedovlar tomonidan tarjima qilingan. Mazkur kitobning birinchi va ikkinchi qismlarida berilayotgan Pu Sunglingning 112 betdan tashkil topgan 19 ta rivoyati 1984 yili Pekin tillar instituti tomonidan tayyorlanib, chop etilgan “Lyao Jay rivoyatlari” kitobidan tarjima qilingan.

Pu Sungling novellalarida voqealar rivoji xitoyning turli hududlarida va turli davrlarda ro‘y beradi. “八哥儿” (“To‘tiqush rivoyati”)da Shanshi o‘lkasining Jangju viloyatida bo‘lib o‘tgan voqealar rivoji o‘zining aksini topgan. Unda bayon etilishicha, biro dam uzoq yillar davomida to‘tiqush boqadi va kun kelib uzoq safarga otlanasi, shunda o‘ziga qadrdon bo‘lgan to‘tiqushni ham birga olib ketishga qaror qiladi va shu tariqa asosiy voqealar rivoji boshlanadi. Masalan, xitoy tilida:

一次,这人外出办事,快到山西绛洲的时候,发现路费用完了.他很发愁,什么办法也想不出来,这时八哥说:….

(*yi ci, zhe ren wai chu ban shi , kuai dao shan xi jiangzhou de shihou, faxian lu fei yong wan le. Ta hen fachou, shenme banfa ye xiang bu chu lai, zhe shi ba ge shuo…)*

So‘zma-so‘z tarjimasi: “… bir safar, bu odam (davlatidan) tashqariga safarga chiqadigan bo‘libdi, Shanshining Jangjusiga yetib

[88] Dots. M.X.Mahmudxo’jayev., dots.J.T.Ziyamuhamedovlar., Pu Sungling. Lyao Jay rivoyatlari.- T.:ToshDSHI nashriyoti , 2003.- B.6.

kelganida mablag‘I qolmaganini bilibdi. Bundan u juda qayg‘uribdi, nima qilishni bilmay qolibdi, shunda to‘tiqush debdi: ….. ”.[89]

Quyida M.X.Mahmudxo‘jayev va J.T.Ziyamuhamedovlar tomonidan amalga oshirilgan tarjima bilan tanishamiz:

“….Kunlardan bir kun u yiroq safarga otlanibdi, to‘tiqushni ham o‘zi bilan birga olib ketibdi. Shanshi o‘lkasining Jangju degan shahriga yaqinlashganida ularning hatto ovqatlanishga ham pullari qolmabdi. Bu ahvoldan ho‘jayin qayg‘u-hasratga tushibdi. Xo‘jayinning hafaligini ko‘rgan to‘tiqush sekin so‘z ochibdi:….”

Xitoy tilidagi “八哥儿” (“To‘tiqush”) rivoyatidagi mazkur parcha M.X.Mahmudxo‘jayev va J.T.Ziyamuhamedovlar tomonida o‘zbek tiliga aniq tarjima qilinib, tarjima jarayonida mazmun va mohiyatni bizning tafakkurimizga moslash uchun qayta ishlov berib, kitobxon e’tiboriga havola etgan.

“Podsho hazratlari” rivoyatida bo‘lib o‘tadigan voqealar bevosita Xunan provinsiyasi harbiy gubernatori hamda podsho hazratlariga bog‘liq bo‘lib, mazkur Xunan provinsiyasi Xitoyning markazida joylashgan.

Rivoyatda nafaqat harbiy gubernatorning qing‘ir ishlari, balki podsho hazratlarining ham kirdikorlari fosh qilinib, ular vijdon ixtiyoriga topshiriladilar. Shuningdek, Xan sulolasi vakillari xitoyda qanchalik hurmat e’tiborga sazovor ekanliklariga ham urg‘u beriladi. Xan sulolasi Xitoyda miloddan avvalgi 206 yildan milodning 221 yiligacha hukmronlik qilgan sulolalardan bo‘lib, bugungi kunda ham Xan millatilik xitoylar boshqa mayda millatlarga qaraganda eng yuqori o‘rinda turadilar. Hattoki ularning kiyinishlari ham boshqa mayda millatga tegishli bo‘lgan xitoylikdan keskin farq qilgan. Xunan provinsiyasida yashovchi xan millatlik xitoylar, podsho hazratlarini qing‘ir ishlarini fosh etish maqsadida o‘ta uddabironlik bilan harakatlanadilar va podsho hazratlarini mot qilishga erishadilar. Podsho hazratlarining ochko‘zligi, ziqnaligi va amal kursisidan o‘z manfaati yo‘lida foydalanganligi kun kelib o‘zining harob bo‘lishiga sababchi bo‘ladi.

“Laoshanlik rohib” rivoyati[90]da Xitoyning ulkan tog‘laridan biri tilga olinadi. Tog‘ nomini so‘zma-so‘z tarjima ilinganda “qari+tog‘”, - aynan “qari tog‘” deb emas, balki “ulkan tog‘ deb tarjima qilinsa,

[89] M.X.Mahmudxo`jayev., J.T.Ziyamuhamedov. Lyao Jay rivoyatlari. B-29
[90] O`sha manbaa. B.36.

birmuncha maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Rivoyatda rohiblarni chin ma’noda yuksak darajaga erishishlarida mazkur tog‘ning ahamiyati katta, shogirdlar ustozlari bilan shu tog‘da turli mashqlarni bajarib, ruhan va jismonan tayyorgarlik qiladilar. Vang Cheng ismli shaxs ham aynan shu tog‘ga kelib, yetuk rohib bo‘lib yetishishga maqsad qiladi, ustozi singari ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan mt.o‘jizalarni qilib ko‘rishni orzu qiladi, biroq uning dangasaligi natijasida kutilgan natijaga erisha olmay yaqinlari oldida uyatga qoladi.

“武 孝 廉” (“Harbiy unvonli magistr”) rivoyatida amaldorlik lavozimini sotib olishga shaylangan harbiy unvonli magistr amaldorlik kursisini sotib olish uchun xitoyning boshqa bir hududidan poytaxtga yo‘l oladi. U Djou shahriga kelgach kutilmaganda og‘ir betob bo‘lib qoladi, voqealarning asosiy boshlang‘ich nuqtasi aynan Djou hisoblanadi. Qadimdan har bir amaldorlikka davogar shaxs bir qator imtihonlardan o‘tishi va o‘sha davr talabiga binoan belgilangan mablag‘ni to‘lash evaziga amladorlikni qo‘lga kiritish mumkin bo‘lgan. Aynan mana shu kabi imtixonlar xitoyning poytaxtida amalga oshirilgan. O‘ziga berilgan imkoniyatdan unumli foydalana olmagan magistr natijada barcha qo‘lga kiritganlarini yo‘qotdi.

Yoki “蟋 蟀” (“Qora chigirtka”) rivoyati[91]da voqealar Xuain uyezdida bo‘lib o‘tadi. Mazkur hudud aholisi saroy a’yonlari va amaldorlari tomonidan qo‘yilgan talabni amalga oshirish uchun qancha qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Shuningdek, mazkur rivoyatda xitoyda qadimdan mavjud bo‘lib kelgan unvonlar haqida ham qisman to‘xtalib o‘tiladi. Masalan: Shyu say unvoni taqdim qilinadigan unvonlarning dastlabki darajasi hisoblanib, hattoki shu unvonga ega bo‘lish uchun kishilar bir necha bor imtihonlardan o‘tishi va qator qiyinchiliklardan boshdan kechirishiga to‘g‘ri keladi.

Pu Sungling Lyao Jay rivoyatlarining o‘zbek tilidagi tarjimasini o‘rganar ekanmiz, bu novellalarda geografik joy nomlari aytarlik darajada ko‘p keltirilmaganligiga guvoh bo‘lamiz, shunday bo‘lsada, Pu Sungling tomonidan bayon qilinadigan novellalar xitoyning deyarli barcha hududlariga aloqador hisoblanadi.

Yuqoridagilardan tashqari mualliflar M.X.Mahmudxo‘jayev, J.T.Ziyamuhamedov va D.M.Qodirovalarning “Sharq adabiyoti janrlari (Xitoy xalq masallari)” to‘plamida ham bir qator geografik joy

[91] O`sha manbaa.B-92.

nomlari tilga olinadi. Masalan: “Uy qursang zamini mustahkam bo‘lsin”[92] deb nomlangan masalda Janubiy Xitoyda Men Szyu nomli qushning patlari va tolalarini birlashtirib, qamish boshiga uya qurgani va noqulay obi havoda uyaning yerga qulab undagi qush poloponlari nobud bo‘lgani haqida voqea bayon etiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, Janubiy Xitoydagi bu qush shunchaki vosita bo‘lib, kishilarga biror ish qilinsa albatta o‘z o‘rniga qo‘yib bajarish maslahat qilinadi. Uy qurishda ham albatta bu joy uy qurishga loyiqmi, keyinchalik kishilarni turli muammolar tinch yashashiga halaqit berib oromini buzmaydimi degan savollarni qo‘yishni uqtiradi.

“Haqiqat egiladi, ammo sinmaydi” [93] masalida bo‘ladigan voqealar Chu tog‘idan topilgan qimmatbaho tosh haqida bo‘lib, Xe Chji ismli kishi uni topib oladi va o‘sha davr podshosi Lyaga olib boradi. Podshoning odamlari toshni qimmatbaho emas deb ma’lum qilishganida Xe Chji bir oyog‘idan ajraladi, keyinchalik ikkinchi oyog‘idan ajraladi. Navbatdagi shox taxtga o‘tirganda Xe Chjining aslida yolg‘onchi emasligi ma’lum bo‘ladi. Xe Chji oyoqlaridan ayrilgan bo‘lsada, biroq haqiqat ro‘yobga chiqishi uchun ortga qaytmasligini isbotlaydi.

“Mahsulotning sotilishi uning o‘ramiga ham bog‘liq”[94] masalida Chu va Jin xonliklaridagi savdogarlarning ta’rifiga bag‘ishlangan. Jin xonligi 376 yilgacha xitoyda mavjud bo‘lgan xonlik.

“Birovga choh qazisang, o‘zing tushasan”[95] masalida U knyazligi va Chu davlatining keskin munosabatlari natijasida uchinchi bir raqib foydalanmasligi uchun berilgan kerak maslahat natijasida xalqni katta talofatdan qutqarib qolingani bayon qilinadi. Bu holat quyidagicha ifodalaniladi: “…. Bog‘ning o‘rtasidagi daraxtda bir chigirtka bor, u eng baland shoxga qo‘nib olgan. U ovozi boricha kuylayapti, biroq o‘zining orqasida beshiktervatarni ko‘rmayapti. Beshiktervatar oyoqlarini juftlashtirib, chigirtkani tutishga hozirlanmoqda, lekin ko‘rmayaptiki, yonginasidagi chumchuq beshiktervatarni ov qilishga tayyor turibdi…..” mualliflar bu masal orqali kishilarning o‘ylamay ish qilishining natijasida nafaqat o‘zi balki butun bir xalqi ziyon ko‘rishi mumkinligi aytmoqchiligini ko‘rish mumkin.

[92] M.X.Mahmudxo`jayev., J.T.Ziyamuhamedov va D.M.Qodirovalarning “Sharq adabiyoti janrlari (Xitoy xalq masallari)”. Toshkent, 2005.- B.9.
[93] O`sha manbaa. B.10.
[94] O`sha manbaa .B.15.
[95] O`sha manba .B.22.

M.X.Mahmudxo‘jayev, J.T.Ziyamuhamedov va D.M.Qodirovalar tomonidan kitobxon e’tiboriga havola qilingan mazkur “Sharq adabiyoti janrlari (Xitoy xalq masallari)” ilmiy ommabop asarda Xitoy xalqining ming yillardan beri saqlanib kelayotgan o‘rta asr xitoy masallaridan 52 tasini, ba’zi birlarini bizning tafakkurimizga moslash uchun qayta ishlov berib, birinchi marotaba o‘zbek tilida kitobxon e’tiboriga havola etiladi. Asarda berilgan masallarning hammasida ham geografik joy nomlari ko‘rsatilmagan bo‘lib, mazkur tadqiqot ishida o‘sha 52 ta masaldan ayrimlarini, ya’ni faqat joy nomlari keltirilganlarini misol sifatida keltirib o‘tdik. Biroq, Xitoy masallarining paydo bo‘lishi ko‘hna Xitoy tarixiga borib taqaladi va ularda sodir bo‘ladigan voqealar butun nafaqat Xan millatiga balki Xitoy hududida istiqomat qiladigan barcha millatlarga tegishli bo‘lib, ular masal pand-nasihat, o‘git uslubida yozilgan, achchiq haqiqatni ma’joziy shaklda ifodalovchi janr ilgari suriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. E.Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. T., 2012.
2. Liao Zhai (Pu Sungling) novellalari // (Xitoy adabiyoti bo‘yicha xrestomatiya) T.; Muharrir, 2012.
3. Сирожиддинов Ш., Одилова Г., Бадиий таржима асослари, Тошкент, “Мумтоз сўз”, 2011.
4. Ziyamuhamedov J. “O‘rta asr xitoy novellalari” T.; ToshDSHI nashriyoti, 2010.
5. Sultanov D. She’r va tarjima. Samarqand. 2009.
6. Xolbekova B. She’riy tarjima mezoni // Jahon adabiyoti. 2009. №11.

SINXRON VA ILMIY-TEXNIKAVIY TARJIMA SOHALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

SINXRON TARJIMA O'QITISHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

PhD. ***NodiraYUNUSOVA,*** *TDSHU katta o'qituvchisi*

Sinxron tarjima psixologik jarayonida eng chuqur qismi bo'lib, tarjimaning psixologik aniqlashda uning mohiyatini tushunish muhim hisoblanadi. Bu esa tarjima nazariyasi va psixolingvistika o'rtasidagi bog'liqlikni izohlaydi.

Psixolingvistika nutqini hosil qilish va idrok yetish jarayonlarini til tizimiga orqali o'rganiladi. Bu fan tilning inson nutqiy faoliyatining dinamik tizimi sifatida talqin qilishga intiladi. Psixolingvistikaning ob'yekti nutq faoliyati, tarjima nazariyasining ob'ekti esa nutq faoliyatining maxsus turi bo'lganligi uchun bu fanlarning vazifalari ko'p jihatdan bir-biridan ajralib turadi[1]. Sinxron tarjimaning xususiyatlari psixolingvistika ma'lumotlaridan va tarjima matni idrok etishning o'zi bir vaqtda jarayonlarini ta'minlovchi mexanizmlarni o'rganish uchun foydalaniladi.

Sinxron tarjima tarjimaning eng qiyin turlaridan biri, bu nutq faoliyatining psixolingvistik xususiyatlari, shu jumladan kiruvchi signalni idrok yetish xususiyatlari, lingvistik axborotni qayta ishlashning turli bosqichlarida xotiraning ishlashi, tarjima tilida so'zlashuvchining yaratish xususiyatlari, shuningdek, qilingan tarjima yechimini nazorat qilish xususiyatlari bilan bog'liq. Tarjima odatda tarixiy-madaniy, adabiyotshunoslik, lisoniy-uslubiy, ruxshunoslik yo'nalishlarida tadkik etiladi. Ammo bu yo'nalishlarning barchasi bevosita, va bilvosita mazkur soxalarning biri —lisoniy-uslubiy yo'nalishida o'z aksini topadi, chunki tarjima hamma vaqt til materiallari bilani ish ko'rishni taqozo etadigan jarayondir. Binobarin, tarjima nazariyasida ikki til lingvistik-stilistik vositalari bilan bog'lik lisoniy tadqiq yo'nalishi alohida o'rin tutadi[2]. Demak tarjima amaliyotini hatto adabiyotshunoslik yo'nalishida ham, aksariyat hollarda til xodisalarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Tarjima xususida gap borar ekan, bir tildan ikkinchi tilga alohida so'zlarni, so'z birikmalarini, butun bir asarni tarjima qilish nazarda

tutiladi. Tarjima teng ma’nolilik (muqobillik) ni taqozo qiladi, boshqacha qilib aytganda, amalga oshirilgan tarjima asliyatga mazmun jihatdan muvofiq bo‘lishi lozim.

Bu esa mazkur tarjima turining boshqa xususiyatlarini va birinchi navbatda qat’iy vaqt chegarasini belgilaydi: sinxron tarjimonga faqat so’zlovchi tomonidan nutq yetkazish vaqti beriladi. Bu jarayon tarjimonning ketma-ket tarjimasi uchun biroz vaqt beriladi. Shuning uchun, sinxron muvaffaqiyat uchun asos tahlil va sintez (ya’ni, fikrlash) orqali yemas, balki shartli reflekslar orqali tarjima qilish imkonini beradi.Tarjimon so‘zlovchining nutqi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, uni tarjima qilishi kerak. Shuning uchun tarjimon bilan so‘zlovchining o‘rtasida o‘zaro bir-birini tushunish yotadi[3]. Bundan tashqari, sinxron tarjimaning o‘ziga xos xususiyati segmentli xarakter deb ataladi: sinxron tarjimon matnni qabul qilib segmentlarda tarjima qiladi, ketma-ket tarjimada esa tarjimon avval butun matnni tinglaydi.

Tarjimon bir vaqtning o‘zida ham tinglab va gapirish sharoitida doimiy konsentratsiyani va uzluksiz gapirishni talab qiladi. A. F. Shiryaev sinxron tarjimaning psixolingvistik modelini bo‘yicha bir qancha takliflar bergan. Har birini uch turga bo‘lib chiqgan: tarjimaning maqsad vazifasi va yechimni qidirish, amalga oshirish bosqichlari [4].

Mazkur ta’rifning tarkibiy qismlarini batafsilroq ko’rib chiqamiz. Tarjimonning birinchi bosqich vazifasi sharoitidan kelib chiqib yo’nalishni o’z ichiga oladi. Sinxron tarjima, asosan majlis, uchrashuv hamda anjumanlarda foydalanilishi bilan ketma ket tarjimaga o’xshatishdek tuyuladi. Biroq so‘ngi yillarda sinxron va ketma ket tarjimadan foydalanishda ixtisoslashuv alomatlari tobora sezilmoqda. Masalan sinxron tarjima asosan ko’p tilli xalqaro simpoziumlar, xalqaro tashkilotlar ishtirokchilariga notiq nutqini eshitish jarayonida uni ikki va undan ortiq tillarga tarjima qilish lozim bo‘lgan vaziyatlarda shu soha bo‘yicha maxsus tayyorlangan sinxronchi tarjimonlar tomonidan amalga oshirilsa, ketma ket tarjima tarjimon va so‘zlovchi (notiq)ning bevosita muloqoti jarayonida ikki tomonlama uchrashuv va konferensiyalarda, diplomatik uchrashuvlarda ko‘proq amalga oshiriliyapti.

Bundan tashqari, sinxron tarjima ketma-ket tarjimadan quyidagi jixatlari bilan ham farq qiladi:

1. Sinxron tarjimada notiq nutqi nutq tugashi, gap yakunlanishi koʻtilmasdan tarjima qilinadi. Ketma-ket tarjimada esa tarjimon notiqning xar bir jumlasini tarjima qilishga urinadi. Bunda notiq tarjima amalga oshirilguncha nutqini toʻxtatib turadi.

2. Sinxron tarjimada tarjimon oʻzini kommunikatsiya ishtirokchilaridan ajratib turuvchi turli-tuman texnik apparaturalardan foydalanadi [5].

U notiq nutqini maxsus xonada quloqqa taqiladigan naushnik orqali eshitib, tarjima qiladi va uni mikrofon orqali shu tilni tushunadigan tinglovchilarga yetkazadi. Bu tarjima maxsus kanallar orqali faqat shu tilda eshitib tushunadigan ishtirokchi-tinglovchilarning naushniklariga yetkaziladi. Faraz qiling, konferensiya zalida chet tilida, masalan, xitoy tilida gapirayotgan notiqning ma’ruzasini sinxronchi oʻzbek yoki rus tilini tushunadigan ishtirokchilar uchungina o’zbek yoki rus tiliga tarjima qilib o’zatadi. Agar notiq o’zbek yoki rus tilida gapirayotgan boʻlsa, sinxronchi uni xitoy tilini tushunadigan ishtirokchilar uchun xitoychaga tarjima qilib uzatadi. Agar konferensiya zalida bir necha, masalan, ingliz, fransuz, nemis xitoy millatiga mansub vaqillar ishtirok etayotgan bo’lsa, maxsus apparaturalar oldida ana shu tillarda sinxron tarjima qiladigan uchta sinxronchi ish olib borishi kerak [6]. Bu xolda turli tillarda soʻzlashuvchi ishtirokchilar naushniklarni o’zlari tushunadigan tarjima tili kanallariga ulaydi. Demak, sinxronchidan eshitilgan axborotni shu ondayok tarjima tiliga o’girish, notiqning nutq tezligiga moslashishga ulgurish talab qilinadi.

Sinxron tarjimaga oʻrgatishning ikkinchi maqsadi tarjimonni eshitiladigan nutqni shu ondayok tushunib tarjima qilishning psixolingvistik asoslariga oʻrgatishdir.

Bu oʻrinda gap: — sinxron tarjima jarayonida notiq nutqini tushunishga yoʻnaltirilgan maxsus koʻnikma va malakalarni shakllantirish;

— qisqa vaqt ichida eshitilgan nutq asosida kerakli soʻz va jumlalarni qidirib topish koʻnikmalarini shakllantirish;

— notiq nutqini qabul qilish jarayonining oʻzida unda boshqa tilda gapirish koʻnikma va malakalarini shakllantirish;

— yuqoridagi uch jarayonni sinxronlashtirish malakalarini shakllantirish;

— notiq nutqini transformatsiya qilish malakalarini egallash haqida ketayapti [7].

Sinxron tarjimadan kuzatiladigan uchinchi maqsad bo’lajak mutaxassislarda ijtimoiy-iktisodiy fanlar, tili o’rganiladigan mamlakat madaniyati buyicha bilimlarni kengaytirish va mustaxkamlashdir. Sinxron tarjimadan ko‘zatiladigan xususiy maqsad sinxronchining lingvistik, psixolingvistik, psixologik bilimlarini amalda namoyon qila olishini ta’minlashdir [8].

Shuningdek, maqolada muhokama qilingan psixolingvistik jihatlar sinxron tarjima tamoyillarini ochib beradi va tarjimondan yuksak ma’naviy, madaniy, ahloqiy, g‘oyaviy sifatlarni egallashni ham talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Andreyeva, N.V. Psixolingvisticheskie modeli funksionirovaniya pamyati pri sinxronnom perevode // Vestnik RGU im. I. Kanta, filologicheskie nauki. — 2007. — №
2. Vendina, T.I. Vvedenie v yazikoznanie: Ucheb. posobie. — M.: Vissh. shk., 2008. — 391 s. 920 «Molodoy uchyoniy» . № 6 (110) Filologiya . Mart, 2016 g.
3. Gurin, I.V. Priyomi rechevoy kompressii pri sinxronnom perevode s russkogo yazika na angliyskiy [Elektronniy resurs]. — Rejim dostupa: http://rudocs.exdat.com/docs/index-88396. html (data obraщeniya: 10.03.2016).
4. Dudareva, N.A. O nekotorix trudnostyax sinxronnogo perevoda // «Vestnik IGEU». — 2009. — № 1. — c. 68–71.
5. Kuznesova, I.N., Metkovskaya A.I. Mexanizm rechevoy kompressii v protsesse sinxronnogo perevoda // Ekologiya SChO RF. — 2012. — № 1 (28). — c. 60–68.
6. Sdobnikov, V.V. Teoriya perevoda (uchebnik dlya studentov lingvisticheskix vuzov i fakultetov inostrannix yazikov)/Petrova O.V. — M.: AST: Vostok — Zapad, 2006. — 448 s.
7. Chernov, G.V. Osnovi sinxronnogo perevoda: Ucheb. dlya in-tov i fak. inostr. yaz. — M.: Vissh. shk., 1987. — 256 s.
8. Shveyser, A.D. Teoriya perevoda. Status, problemi, aspekti. — M.: Librokom, 2009. — 216

ФУНКЦИИ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

*PhD. **Хусния Зикруллаева**, преподаватель ТГУВ*

С появлением новых технологий лексикография также развивается широко. В этом направлении появляются новые слова

для обозначения новых значений. Однако, для передачи точного значения, функции терминов выходят на первый план, и, определив их функции, мы можем предложить конкретный перевод к специальной лексике.

Коммуникативная функция применима к терминам, поскольку она является средством передачи знания [1, 67]. Г.В. Колшанский утверждает, что данная функция в основном нацелена на «установление взаимопонимания в процессе коммуникации» [2, 3]. Данная функция также описывается в терминологии не только для упорядочения мышления, но и для передачи специализированных знаний в один или несколько языков и структурирования информации, содержащейся в специализированных текстах.

В рамках этой функции научно-технические тексты имеют информативную и описательную специфику, а самый главный принцип здесь – информативность. Использование при этом научно-технических терминов позволяет специалистам в этой области передать знания более эффективно, что проявляется именно в точности и соответствии терминов. Анализируя эти критерии более детально, необходимо отметить, что в соответствии с информативной функцией, научно-технические тексты по мере возможности требуют детального логического мышления, выражаемого терминами, при искажении этой функции нарушается восприятие текста. В связи с этим предлагается использовать точный и конкретный научно-технический термин. Наряду с этим необходимо отметить, что каждый термин должен соответствовать своей сфере функционирования, вне зависимости от обстоятельства, адаптироваться к каждому отдельному случаю, а также не выводить намеченную цель за рамки восприятия.

Коммуникативная сторона явно наблюдается в турецком языке. Здесь нельзя не принять к сведению работы Мустафы Кемаля Ататюрка и Зия Гекальпа. Они создали более разработанное и хорошо сформулированное направление в области языкознания, с помощью которого им хотелось поднять язык на общепонятный уровень и популяризировать его среди всех слоев населения [3, 91].

Кроме вышеперечисленных функций, к научно-техническим терминам прикрепляют также эвристическую функцию, целью которой является открытие нового знания. На начальном этапе

образования научно-технических терминов встречаются не соответствующие реальности понятия. Устранение таких первоначальных расхождений, как утверждает В.М. Лейчик, осуществляется в результате изучения теории, которая после тщательного рассмотрения переходит в определенную модель. При этом научно-технической терминологии присуждается эвристическая функция, участвующая в научном познании и открытии истины [1, 70].

Научно-технические термины тесно связаны также с когнитивной функцией. Как известно, эта функция имеет дело с решением разнообразных проблем относительно сознания, психологических процессов. Также данная функция ведет к познанию и получению знания. Исходя из вышеприведенных аспектов, необходимо подтвердить тот факт, что когнитивная функция научно-технического термина определяется при ментальном познании каких-либо специальных и отдельных событий действительности.

Следует отметить, что вместе с коммуникативной функцией когнитивная функция также является одной из главных функций для научно-технической терминологии в целом. Как утверждает Г.В. Колшанский, «когнитивный мир языка, т.е. общественное сознание, в своей форме объективно отражает исходный мир и поэтому служит средством дальнейшего его познания, правильной ориентацией человека в природе и в конечном итоге способом теоретического овладения закономерностями мира» [2, 21]. Именно закономерности мира выражаются специальными терминами, поскольку научно-технические термины являются одним из главных приоритетов для познания мира человечеством, получения знаний в определенной области. Данная функция, согласно концепции И.М. Трояновой, осуществляется в сознании процессов, тесно «связанных с приобретением, использованием, хранением, передачей и выработкой знаний» [4, 57]. Итак, при логической трактовке когнитивной функции по отношению к научно-технической терминологии она дает возможность получить новейшие знания о реальности, а также позволит обрабатывать, хранить и передавать эти полученные знания будущему поколению. Учитывая вышеизложенное, следует подчеркнуть, что «когнитивная функция определяет термин как

итог длительного процесса познания сущности предметов и явлений объективной действительности и внутренней жизни человека, как вербализацию специального концепта, которой первоначально может быть не просто мысленным объектом, но даже проявлением чувственного познания» [1, 71]. По этому поводу Ш. Сафаров пишет, что когнитивная функция преобразовывается при переводе. В случае ее полного отсутствия, влияние перевода на сознание человека ослабевает или полностью исчезает. Поэтому переводчик должен всячески найти подход к сохранению этой функции [5, 85].

Все отмеченное выше ведет к тому, что длительный процесс познания реальности приводит к получению наиболее точного специального знания.

Таким образом, изучение функций научно-технических терминов позволит раскрыть природу и выявить их предметно-логические свойства в языкознании. Исследования показали, что А. Дилачар, Г.В. Колшанский, В.М. Лейчик и М. Тереза Кабре представили различные мнения на сущность терминов. Были выделены наиболее специфические и универсальные характеристики терминов. А.В. Суперанской, А.А. Реформатским было отмечено, что термины имеют свое специальное назначение, понятие, которые определяются внутри своего терминологического поля. Поэтому было установлено, что внутри своего терминологического поля термин однозначен. Наряду с этими аспектами, необходимо подтвердить, что понятия при формировании терминов зависят от временного фактора.

В трудах М. Тереза Кабре и ИСО 704-2010 имеются одинаковые подходы рассмотрения терминов [6, 112-114]. В этой связи, на наш взгляд, при изучении научно-технических терминов можно полагаться на ее изучение. Функции М. Тереза Кабре наиболее пригодны к научно-техническим терминам. Следует отметить тот факт, что научно-технические термины в рамках коммуникативной функции использовались не только для передачи информации на другие языки, а также упорядочения информации в текстах. Также в работах И.С. Квитко встречаются более подробная информация, которую можно с уверенностью применить к современной научно-технической терминологии, так как в ее работе краткость, синонимия терминов рассматриваются

условными процессами, поскольку не всегда можно реализовать эти аспекты в терминологии.

В последнее время многие научные области интегрируются со многими направлениями и отраслями, поскольку интеграция наук ведет к более широкому изучению определенной области. В настоящее время очень сложно определить область материаловедения и инжиниринга, которая связана с физикой, химией и биологией и практически невозможно установить границу между ними [7]. В свою очередь Т. Мухтаров также утверждает, что «понятие «технический» текст очень расплывчато. Так, например, начав с чисто «технических» текстов, описывающих различное производственное оборудование, можно перейти к текстам, описывающим хирургическое оборудование, т.е. к медицине, а медицина, как известно, тесно связана с биологией» [8, 5]. Следует отметить, что при создании какого-либо оборудования специалист сталкивается с химией, поскольку в процессе разработки используются химические материалы с определенными свойствами и структурами, а также он имеет дело с физикой, так как изучается воздействие материалов на принципы работы какого-либо устройства. Необходимо отметить тот факт, что современная наука ориентируется на решение существенных проблем в научно-технической области.

Итак, научно-технический термин трактуется как специальная лексика, которая направлена на изучение влияния химических элементов и физического воздействия на функционирование того или иного оборудования. Кроме этого, научно-технические термины используются для описания научных изысканий, процессов и поиска решений к определенным научно-техническим проблемам. Так как эти термины могут функционировать и применяться в различных технических направлениях, то их вполне можно назвать общенаучными терминами, используемыми в нескольких областях науки и техники [9, 55].

Подводя итог, можно сказать, что научно-техническая терминология –одна из главных лексических единиц для получения специальной информации и связана со многими отраслями науки.

Список использованной литературы:

1. Лейчик В.М. Терминоведение. Предмет, методы, структура. – М.: ЛКИ, 2007. – С. 67-71.

2. Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка – М.: URSS, 2005. – С. 3-21.

3. Dilaçar A. Tükkiye’de dil özleşmesi. – Ankara: Ankara Üniversitesi basımevi, 1969. – 25 s.; Karaman B.İ. Atatürk and the Turkish Terminology Reform: The (Re-)turkification of Geography Terms // Bilig, 2014, #69. – P. 91.

4. Троянова И.М. Когнитивная функция как одна из важнейших функций языка // Вестник ТГПУ, 2008, Выпуск 2 (76). – С. 57.

5. Сафаров Ш. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. – Тошкент: Навруз, 2019. – 85 б.

6. Cabré, M.T. Terminology – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1999. –. P. 112-114; ГОСТ Р ИСО 704-2010. – Терминологическая работа. Принципы и методы. 2011.

7. Третьяков Ю.Д., Метлин Ю.Г. Материаловедение. Большая российская энциклопедия. https://bigenc.ru/chemistry/text/2193033.

8. Мухтаров Т., Ходжаева Н.. Научно-технический перевод. – Ташкент: ТашГИВ, 2015. – С. 5.

Судовцев В.А. Научно-техническая информация и перевод. – М.: Высшая школа, 1989. – С. 55.

NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI

Barno TURDIQULOVA, *Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi*

Har qanday professional tarjimon faoliyatning u yoki bu turi yoki yo‘nalishi bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus atamalarni tarjima qilishga duch keladi. U biron-bir kasbga oid matnlarning ma’nosini, mazmun-mohiyatini tushunish muammosini hal qilishi lozim bo‘ladi. Savodli va eng aniq tarjimani amalga oshirish uchun atamalarni tarjima qilish xususiyatlarini, spetsifikasini bilishi lozim. Tarjimon tarjima qilinayotgan tildagi atamaga eng yaqin ekvivalentni topa olishi uchun tarmoqning o‘ziga xos leksikasini yaxshi bilishi va tushunishi kerak.

Tarjima adekvatligiga erishish uchun atama va matnning o‘zaro aloqadorligi tushunish, atamalarning struktur va semantik turlaridan foydalana olish talab qilinadi [1].

Ma’lumki, ko‘pgina texnikaviy terminlar o‘zbek tiliga rus tilidan, rus tiliga esa lotin, yunon, ingliz, frantsuz, nemis va boshqa bir qancha tillardan kirib kelgan. Bu terminlarni o‘rganish nafaqat

terminshunoslik, balki tilshunoslikning ham oldiga qo‘yiladigan muhim masalalardan biridir. Biz o‘rganayotgan geologiya terminologiyasiga tog‘-konchilik geologiyasi, mineralogiya, oltin qazib chiqarish kabi boshqa bir qator sohalar terminshunosligi qatoriga neft va gaz terminshunosligi ham kiradi. Neft va gaz terminshunosligi Rossiya va boshqa MDH davlatlari hamda xorijiy mamlakatlar tilshunoslari tomonidan tadqiq va tahlil qilingan. Masalan, rossiyalik D.G.Kukasova neft va gaz geologiyasiga oid ingliz va rus terminlarining tuzilishini batafsil o‘rgangan [3]. Ammo aytish joizki, neft va gaz sohasi terminshunosligi xususiyatlari, ularni tarjima qilish usullari va lug‘at boyligi ingliz-o‘zbek va o‘zbek-ingliz tarjimashunosligida, ayniqsa qiyosiy tarjima aspektida chuqur va maxsus tadqiqot predmeti bo‘lmagan.

Biz o‘rgangan ilmiy ishlar orasida T.Sh.Xolmanovaning magistrlik dissertatsiyasida [5] neft va gaz sohasiga oid terminlarning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinish usullari hamda soha terminologik tizimining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif tarjimada kuzatiladigan leksik, grammatik va stilistik qiyinchliklarni ham ko‘rsatadi. Neft va gaz sohasidagi terminologiyada birikma terminlar bir, ikki, uch va hattoki undan ortiq komponentlardan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, bir komponentli: oxygen – kislorod; attachment – birikma; configure - sozlash; ikki komponentli: molecular compounds – molekulyar birikmalar; illumination gas – rangli gaz; coal gas –gazli toshko‘mir; natural gas – tabiiy gaz; uch va undan ortiq komponentli birikma terminlar: coke-oven gas – koksli gaz yoqilg‘isi; petroleum-prcing area – neft ishlab chiqarish zonasi. Shuningdek, metaforik o‘xshatish asosida semantik-sintaktik usulda termin yasashning ko‘lami juda kengdir.

O‘zbek tilidagi neft va gaz sohasiga oid terminlarni shakllanishida va tarjima qilishda aksariyat hollarda rus tili asosiy manba vazifasini o‘tagan. Ayrim hollarda ularning rus tilidagi shakli saqlangan, boshqa hollarda esa o‘zbek tilidagi yangi termin bilan ifodalangan. Bu borada olimlar o‘rtasida bahslar yuzaga kelgan. Biroq, tushunmovchilik holatini oldini olish maqsadida rus tilidagi shakli saqlanini ma’qul deb topilgan. Ba’zi terminlar esa kimyo, biologiya va fizika sohalari orqali neft va gaz sohasi termini sifatida paydo bo‘lgan. Bunday terminlar geokimyo, geofizika, paleobotanika kabi geologiya yo‘nalishlarida ham

ishlatiladi. Masalan: hydrocarbon - uglevodorod, carbon - uglerod, pressure - bosim, acid rain - kislota yomg‘iri va hk.

Ingliz, rus tillaridan ilmiy-texnik adabiyotlarni tarjima qilish – o‘zbek tili ilmiy-texnik terminologiyasini shakllantirish va boyitishdagi asosiy va muhim manbalardan biri hisoblanadi. Chunki tarjima jarayonida o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan tushunchalarni biror tarzda ifodalash masalasi hal bo‘ladi. Bunda yo termin aynan o‘zlashtiriladi, yo yangidan termin ijod qilinadi, yohud o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan u yoki bu so‘zga ilmiy-texnik ma’no yuritiladi. Ushbu masalani biror tarzda hal qilish tarjimonga bog‘liqdir. Ayniqsa hali tegishli inglizcha-o‘zbekcha ilmiy-texnik lug‘atlar tuzilmagan bir paytda bu borada tarjimonning mas’uliyati yanada oshadi. Tarjimada ishlatilgan termin muayyan ma’non to‘g‘ri ifodalay olsa, bu butun terminologik sistemaning yutug‘i bo‘lib chiqadi. Agar tarjimada qo‘llanilgan termin tushunchani noto‘g‘ri ifodalasa va u o‘zbek tilidagi grammatik qonunlar asosida yoritilmagan bo‘lsa, bu terminni iste’mol qiluvchilarga jabr ko‘rsatadi. Noto‘g‘ri terminni tuzatish masalasi ayrim vaqtlarda chigallashib ketadi va yo‘l qo‘yilgan xatoni to‘g‘rilash osonlik bilan kechmaydi [5, 46-47].

Ilmiy-texnik adabiyotlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish asosan XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Hozirgacha o‘zbek tili leksikografiyasila 100dan ortiq terminologik lug‘atlar nashr etilgan. Bir qator dissertatsiya, risola, kitob, maqolalarda ingliz va o‘zbek tillari terminologiyasining nazariy masalalri ko‘rib chiqilgan. Terminologik lug‘atlar bu tadqiqotlarning amaliy yechimi bo‘lib, ular u yoki bu terminologik sistemalarni tartibga solish, birxillashtirish kabi talablarni amaliy jihatdan hal qiladi.

Neft va gaz sohasiga oid terminlar tarjimasi ilmiy-texnikaviy tarjimaning eng qiyin turlaridan biridir. Bu soha tarjimasi keng qamrovligi bilan boshqa turdagi tarjimalardan farqlanadi. Sohaning geologiya, mahsulotlarni qazib olish, ularni qayta ishlash, tayyor mahsulotdan foydalanish kabi turlaridagi terminlar o‘ziga xos ahamiyatga egadir.

Tarjimon chet tilini mukammal bilishi, coha terminlarini chuqur o‘rgangan bo‘lishi, professionallar ishlatadigan maxsus slenglarni bilishi kerak.

Neft va gaz sohasiga oid matnlarni tarjima qilishdan oldin tarjimon tarjima qilinadigan tilda ekvivalentlarni izlab topish uchun neft va gaz

sanoati haqidagi zaruriy bilimlarga ega boʻlishi kerak. Tarjima qilinayotgan tilda ekvivalent topilmasa tarjima transformatsiyalariga murojaat qilishi lozim. Terminlarni tarjima qilishda koʻpincha quyidagi transformatsiyalardan foydalaniladi:

- tavsifli tarjima yoki eksplikatsiya. Bu usul notanish terminni tushuntirishda eng qulay usul boʻlsa-da, u ortiqcha soʻzlari koʻp va choʻzilib ketgan tarjimadan iborat. Masalan: air gap at – osoyishta dengiz sathidan yarimchoʻktirilgan burgʻilash platformasining yuqori korpusidagi pastki qirrasigacha vertikal boʻylab masofa;

- of old koʻmakchisi yordamida qaratqich kelishigidan foydalanish yoʻli bilan tarjima qilish. Masalan: well of flow – quduqning namoyon boʻlishi;

- transkriptsiya qilish. Bunda termin ikkala tilda birday eshitiladi. Masalan: Dornick Hills - Dornik Xillz (Pensilьvaniya tizimidagi boʻlimning togʻ jinslari tizmasi);

- transliteratsiya – tajima qilinayotgan tildagi harflar yordamida terminning grafik shaklini yaratish yoʻli bilan tarjima qilish. Bu juda oz uchraydigan usul boʻlib, u tufayli tarjimonning “soxta doʻstlari” paydo boʻlgan. Masalan: contribution, data, decade, instance, simulation, etc. Bunday tarjima matn maʼnosini buzadi;

- kalkalash – terminlarni oʻzbek tili vositalari yordamida aniq tiklash yoʻli bilan tarjima qilish, yaʼni soʻzma-soʻz tarjima. Masalan: Turbobit — turboiskana, drilling axi — burgʻilash oʻqi;

- turli qoʻshimchalardan foydalanib tarjima qilish. Masalan: land systems – yer ustki seysmorazvedkasi uchun sistemalar; maintenance floor –qurilmalarga xizmat koʻrsatish uchun maydoncha.

Hattoki ingliz tilidagi oddiy soʻzlarni tarjima qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin, chunki ular ham ixtisoslashtirilgan terminlar boʻlib qolishi mumkin. Masalan: christmas tree (rojdestvo archasi) - fontanli (favvorali) armatura; show – “shou” emas, balki neft va gazning namoyon boʻlishi; killing a well – “quduqni oʻldirish” emas, balki “boʻgʻib, toʻsib qoʻymoq”; Fish – “baliq” emas, balki quduqqa tushirilgan biron narsa; fishing – “baliq tutish” emas, balki ”tutish ishlari” va hk. Shuning uchun tarjimon sohaga oid maxsus terminologiyani oldindan oʻrganib chiqishi kerak boʻladi [2]. Tarjimaning notoʻgʻriligi, noaniqligi qurilmalarning ishdan chiqishi, ishlab chiqarishdagi avariyalar va shikastlanishlar kabi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, terminlarning ko‘pma’noligiga ham e’tibor berish zarur. Masalan: oil – smazka, moy, neft deb tarjima qilinishi mumkin.

Terminlarning ko‘pma’noligi texnik tarjimonga qiyinchiliklarni yuzaga chiqaradi [4]. Masalan, tarjima paytida kerakli ma’no tanlanmaganda qanday oqibatlarga uchrash mumkinligi quyidagi misolda ko‘rinadi: “development” so‘zi neftь va gaz sanoatida, aynan esa neftь va gaz konlarini o‘zlashtirish sohasida “konni qazish”,”sozlash, me’yoriga yetkazish” deb tarjima qilinadi. Umuman olganda esa kontekstga bog‘liq bo‘ladi: “…analogous projects of optimal development of oil and/or gas fields” – “neftь konlarini qazishni optimal birlashtirish bo‘yicha o‘xshash loyihalar”. Mazkur terminning boshqa ma’nolari ham bor: development of heat — issiqlikning ajralib chiqishi; advanced development — tajriba namunasini ishlab chiqish; crestal development — neftь konini markazdan periferiyaga qarab qazish; delayed development — konni sekinlatib parmalab qazish va ayni vaqtda uni ekspluatatsiya qilish; early development — konni qazishning dastlabki davri; marginal development — konni periferiyadan markazga qarab parmalab qazish; field development — neft konini qazish; recent development — so‘nggi takomillashuvlar, texnikaning so‘nggi yutuqlari; simultaneous development — konni bir vaqtning o‘zida ham qubbalaridan, ham qanotlaridan qazish; wave development — to‘lqinlarning hosil bo‘lishi. Ko‘rinib turibdiki, barcha ma’nolar kontekstga bog‘liq.

Shuningdek, tarjima qilishdan oldin matnni to‘la tushunib, uning ma’no va mazmunini aniqlashtirish kerak. Ya’ni tarjimon avval faqat matn o‘quvchisi bo‘lib, u matnni native speaker (til tashuvchisi) sifatida tushunishi lozim, buning uchun u o‘rganilayotgan tilning barcha xususiyatlarini (stilistika, leksika, grammatika) bilib olishi va mazkur fandagi bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Neft va gaz zahiralari bo‘yicha matnlarni tarjima qilishda ham ma’lum qiyinchiliklar yuzaga keladi. “Oil and gas reserves” deganda reservs termini oddiygina “zahiralar” deb emas, balki “quduq bilan ochilgan uchastkadagi qazib chiqarilgan zahiralar” deb tushuniladi. Inglizcha “subsurface” termini “er osti, geologik muhit” deb tarjima qilinadi. “Er osti”, “er osti uchastkasi”, “er osti boyliklari” terminlarini ingliz tiliga tarjima qilinishi turlichadir. Masalan, “Er osti boyliklari to‘g‘risidagi qonun” - Underground Resources Law; “er osti boyliklarini qazish” - development of mineral resources. Bundan

tashqari,ko‘pkomponentli terminlar ham uchrayki, ular tarjimaning turg‘un variantlariga ega:

Oil and gas properties — neft va gazga boy uchastkalar, nefть va gazning balansdagi zahiralari, nefть va gaz xossalari;

Upstream activities — razvedka qilish va qazib olish bo‘yicha faoliyat;

Cost recovery oil — kompensatsiyalangan neft.

Ayrim nomlar tarjimasini esa har doim tekshirib turish kerak:

Brent — Brent neftining navi;

Society of Petroleum Engineers — Amerika tog‘ muhandislari instituti muhandis-neftchilarining Jamiyati;

World Petroleum Council — Butunjahon neft kengashi;

Eagle — Igl koni;

Sand —Send koni;

Petroland government —Petrolandiya hukumati.

Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash kerakki, tarjimon uchun professionalizmning yuksak darajasiga erishish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun tarjimon maxsus adabiyotlarni, sifatli va yangilanayotgan materiallarni o‘rganishi kerak. Geologik terminlarni, xususan, neft va gaz sohasiga oid terminlarni tarjima qilishda quyidagi qiyinchiliklar uchrashi mumkin:

1) Terminlarning ko‘pma’noliligi. Tarjimon sohaga oid bilimlarga ega bo‘lsa, ko‘plab terminlar orasidan zarur bo‘lganini tanlay oladi.

2) Ko‘pkomponentlik. Har bir termin yo bir komponentli, yoki ko‘pkomponentli bo‘lishi mumkin. Matn bilan ishlaganda avval har bir tushunchani alohida tarjima qilish va tekshirish, keyin bu tushunchani qo‘shni so‘z bilan birlikdagi tarjimasini tekshirish kerak bo‘ladi.

3) Tarjimon terminning o‘zbek tilidagi maqbul variantini topa olmasa, rus tilidagi terminologiyaga murojaat qilishi va to‘g‘ri keladigan terminni topishi mumkin. Shuning uchun o‘zbekchadan inglizchaga, inglizchadan o‘zbekchaga tarjima qiluvchi tarjimon rus tilini ham bilishi kerak. Bundan tashqari, soha bo‘yicha bilimlarga ham ega bo‘lishi zarur.

4) Turli nomlarni, qisqartmalarni, ularning tarjimasini albatta tekshirib chiqish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Герд А.С., Значение термина и научное знание. // Научно-техническая информация. Серия 2. – М.,1991. №10. – С.1-4.

2. Головин Б. Н., Кобрин Р.Ю., Лингвистические основы учения о терминах. – М.: Высшая школа,1987.- 105 с.

3. Кукасова Д.Г., Специфика процессов образования английских и русских терминов нефтегазовой геологии: сравнительный аспект. // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота. 2018. №8(86). Ч.2. С.350-354.

4. Лейчик В.М., Термины-синонимы, дублеты, эквиваленты, варианты. // Актуальные проблемы лексикологии и словообразования. Выпуск 2. — Новосибирск, 1973. — С.103–106.

5. Холманова Т.Ш., Нефт ва газ соҳасига оид терминларнинг инглиз тлидан ўзбек тилига таржима қилиш муаммолари. Магистрлик даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Т.:ЎзДЖТУ, 2013.- 80 б.

XITOY OMMAVIY AXBOROT VOSITASIDA SINXRON TARJIMADA SIYOSIY TABRIK XABARLARI LEKSIKASINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Dinora SAIDOVA, *TDSHU magistranti*

Bugungi kunda tabriklash odob-axloqi zamonaviy madaniyatning ajralmas qismidir. Bu esa o‘z navbatida aloqa normalari va etiket qoidalariga rioya qilishni talab qiladi. Tabriklash uchun har doim ko‘p sabablar mavjud. Masalan, tug‘ilgan kun, yubileylar, davlat va kasb bayramlari va boshqalar. Ushbu tadbirlarning barchasi nafaqat sovg‘alarni, balki chin yurakdan izhor etilgan tabriklarni ham talab etadi. Tabriklar turli lavozimdagi shaxslar o‘rtasida bo‘lishi mumkin. Qanday ko‘rinishga ega bo‘lishidan qat’iy nazar tabriklar o‘xshash tuzilishga ega bo‘ladi. Shaxsiy, yozma yoki telefon suhbati shaklida bo‘lganda tabrik quyidagilardan iborat bo‘ladi:

Kirish so‘zlari (manzil).

Tabriklar matni.

Yakunlovchi so‘zlar.

Agar tabriklash yanada norasmiy bo‘lsa, unda tuzilish har qanday bo‘lishi mumkin.

Hurmatli ... - norasmiy aloqa uslubiga ega bo‘lgan hamkasbi yoki kompaniyaning rahbari uchun,

Aziz....., Janobi oliylari ... - rasmiy ravishda rahbar uchun qo‘llaniladi.

Hurmatli hamkasblar ... - jamoaga rasmiy murojaat uchun.

Xalqaro miqyosda hamkor davlatlar o‘rtasida sherik davlat hayotida yuz bergan voqealar, bayramlar, ko‘nilsizliklar kabi holatlarda tabriknoma yoki rasmiy xabar yo‘llash odat tusiga kirgan. Bunday hujjatlar tabriklash xususiyatidan tashqari, ikki tomonlama hamkorlikni baholashni o‘z ichiga oladi. O‘zaro hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlanishini, agar kerak bo‘lsa, ular yo‘q qilishga ham turtki bo‘ladi. Telegrammalar odatda elchilar orqali yuboriladi, ular qabul qiluvchi mamlakat an’analariga muvofiq murojaat qiladilar. Telegrammalarni yetkazish shakllari barcha davlatlarning diplomatik vakillari uchun bir xil bo‘lishi kerak. Mamlakat rahbarlari tabriklardan tashqari, jamoat tashkilotlari, partiyalar, ijodiy uyushmalar, shahar rahbarlari tomonidan muborakbod telegrammalar va xatlar yuborilishi mumkin. Xalqaro hamkorlik vakillari chet ellik sherikning tabriklarini yodda tutishi kerak. Davlatlararo munosabatlarda telegramma almashish, do‘stlik shartnomalari va diplomatik aloqalar o‘rnatilgan yil munosabalti bilan ham tabriklar yuboriladi. Bu kabi davlat va hukumat rahbarlari, boshqa rasmiylar vakillar o‘rtasida tabriknomalarni almashish holatlari rasmiy muloqotda an‘anaga aylangan.

Bu turdagi siyosiy tabriklarni quyida XXR matbuot sayti “Renmin ribao” va O‘zbekiston Respublikasi rasmiy matbuot agentligi uza.uz misolida ko‘rib chiqamiz.

XXR matbuot sayti “Renmin ribao” ning 2020 –yil dekabr va 2021-yil yanvar va fevral oylaridagi yo‘llangan tabrik xabarlariga nazar tashlasak, xitoy matbuot agebtligida umumiy xisobda 33 ta rasmiy tabrik yo‘llangan. Bulardan 4 tasi chet davlatga yo‘llangan tabrik bo’lib, 21 tasi mahalliy hamda davlat ichida yuborilgan tabriklardir[96].

Masalan,

22.12.2020 Raketa muvafaqiyatli uchurilganligi bilan tabrik.

24.02.2021 Xitoyning Marsga uchirgan navbatdagi detektori uchinchi marotaba muvafaqiyatli natija berdi.

24.02.2021 Hukumatning yoshlarga yo‘llagan tabrigi

26.02.2021 Hebey partiya vakillarining muvaffaqiyati bilan tabrik.

20.12.2020 jahon chempioni Messing navbatdagi g‘alabasi bilan yuborilgan tabrik.

26.02.2021 BMT tashkiloti XXR ni qishloqlardagi qashshoqchilikni yo‘q qilishdagi muvaffaqiyati bilan tabrikladi.

O‘zbekiston Respublikasi rasmiy matbuot agentligi uza.uzning 2020-yilning dekabr oylarida va 2021-yilning yanvar va fevral oylarida yo‘llangan tabriklariga nazar solsak jami 21 ta tabrikni tashkil etib, shulardan 7 tasi chet davlatlarga, 14 tasi mahalliy davlat ichida yuborilgan tabriklar hisoblanadi[97].

Masalan, 17.02.2021 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jahon savdo tashkiloti bosh direktori Ngozi Okonjo-Ivealaga ushbu yuksak va ma’suliyatli lavozimga tayinlangani munosabati bilan tabrik yo‘lladi.

09.02.2021 Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan Adiblar xiyobonida davom etayotgan tadbirda xorijlik navoiyshunos olimlar ham onlayn ishtirok etib, tabrik yo‘llamoqda.

07.02.2021 Xitoy Kommunistik Partiyasi Markaziy Qo‘mitasi Bosh kotibi, XXR va Markaziy harbiy kengash raisi Si Szinpin ko‘p millatli xalqini yaqinlashib kelayotgan bahor bayrami yoki oy taqvimi bo‘yicha yangi yil bilan tabrikladi. U Chin eliga baxt, omad, mamlakatga esa farovonlik tiladi.

21.01.2021 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Jozef Baydenga uning davlat rahbari lavozimiga kirishgani munosabati bilan tabrik yo‘lladi.

11.01.2021 Xalqaro iste’molchilar tashkiloti prezidenti, professor, doktor, Marimutu Nadason O‘zbekiston iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasiga «Yil tanlovi»da g‘olib chiqqani munosabati bilan Federatsiya raisi Jahongir Sarimsoqov va jamoaga tabriknoma yo‘lladi

XXR raisi Si Szipinning AQSh prezidenti Jo Baydenga yo‘llagan tabrigi siyosiy nutqning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Siyosiy nutq bu – siyosiy soha vakillarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa mavzularda so‘zlagan nutqidir. Siyosiy nutqning maqsadi va mavzusi aniq, tinglovchilari esa belgilangan bo`ladi.

致电祝贺！

新华社消息，11 月 25 日，国家主席习近平致电约瑟夫·拜登，祝贺他当选美国总统。

同日，国家副主席王岐山致电卡玛拉·哈里斯，祝贺她当选美国副总统。

11 月 13 日，外交部发言人汪文斌表示，我们一直在关注美国国内和国际社会对这次美国总统选举的反应。我们尊重美国人民的选择，我们向拜登先生和哈里斯女士表示祝贺。同时我们理解美国大选的结果会按照美国的法律和程序作出确定。

习近平在贺电中指出，**“推动中美关系健康稳定发展，不仅符合两国人民根本利益，而且是国际社会的共同期待。希望双方秉持不冲突不对抗相互尊重、合作共赢的精神，聚焦合作，管控分歧，推动中美关系健康稳定向前发展，同各国和国际社会携手推进世界和平与发展的崇高事业。**

同日，国家副主席王岐山致电卡玛拉·哈里斯，祝贺她当选美国副总统”。

Tabriknoma!

Sinxua yangiliklar agentligining xabar berishicha, 25-noyabr kuni prezident Si Szinpin Jozef Baydenga AQSh prezidenti etib saylangani bilan tabriklash uchun qo‘ng‘iroq qildi. Shu kuni vitse-prezident Van Qishan Kamala Xarrisni chaqirib, AQSh vitse-prezidenti etib saylangani bilan tabrikladi. 13-noyabr kuni Tashqi ishlar vazirligi vakili Van Venbinning aytishicha, biz AQSh va xalqaro hamjamiyatning ushbu AQSh prezidentlik saylovlariga munosabatini kuzatmoqdamiz. Biz Amerika xalqining tanlovini hurmat qilamiz va Bayden va Xarris xonimni tabriklaymiz. Shu bilan birga, biz AQSh saylovlari natijalari AQSh qonunlari va tartiblariga muvofiq belgilanishini tushunamiz.

Si Szinpin o'z tabrigida Xitoy-AQSh munosabatlarining sog‘lom va barqaror rivojlanishiga ko'maklashish nafaqat ikki xalqning tub manfaatlari foydasini inobatga oladi, balki xalqaro hamjamiyatning birga intiqlik bilan kutganidir.

Umid qilamizki, har ikki tomon ham nizolashmaslik, qarama-qarshiliklarga duch kelmaslik, o‘zaro hurmat va o‘zaro manfaatli hamkorlik ruhini saqlab qoladi, hamkorlikka e‘tiborni qaratadi, kelishmovchiliklarni boshqaradi, xitoy-amerika munosabatlarining

sog‘lom va barqaror rivojlanishiga ko‘maklashadi, tinchlik va taraqqiyotning ezgu maqsadlarini ilgari surish uchun boshqa mamlakatlar va xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik qiladi. Shu kuni vitse-prezident Van Qishan Kamala Xarrisni chaqirib, AQSh vitse-prezidenti etib saylangani bilan tabrikladi.

Siyosiy nutq matni boshqa nutq shakllaridan o‘zining grammatik qurilishi, ifoda shakllari, leksik birliklarni qo‘llash chegarasi bilan keskin farq qiladi. Siyosiy nutq matnini leksik tahlil qilish nafaqat lingvistik ahamiyatga ega, balki o‘sha nutq leksikasi orqali so‘zlovchinig maqsadi nimalardan iborat ekanligi, mavzuga bo‘lgan munosabatini ham bilib olish imkoniyati bo`ladi.

Nutq leksikasi:

28 ta ot so‘z turkumiga oid;

17 ta fe’l so‘z turkumiga oid;

9 ta sifat so‘z turkumiga oid;

2 ta olmosh so‘z turkumiga oid;

4 ta ravish so‘z turkumiga oid;

1 ta son so‘z turkumiga oid;

6 ta bo’g’lovchi oid;

Bundan ko`rinib turibdiki, nutqda ot so‘z turkumiga oid so‘zlar salmog‘i yuqori. Otlarning esa aksariyat qismini turdosh otlar tashkil etadi. Nutqda ma‘lum miqdorda atoqli otlar (xalqaro tashkilot nomlari, davlat va shahar nomlari, shaxs nomlar) ham mavjud. Tabrigimizda leksikaning eng katta qismini otlar tashkil etgan: 21%. Shu jumladan, fe`llar 12.7%, sifatlar 9%, olmoshlar 1.5%, ravishlar 3%, son 0,7%, qolgan qismi esa yordamchi so‘z turkumlari hissasiga to‘gri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish. – T., 2008.
Sadriddinova M. Лексика узбекских пословитс и поговорок. AKD.- Toshkent, 1985

2. Hamidov, N. Ismatullayeva, S. Ergasheva. Sinxron tarjima (o‘quv qo‘llanma). –Toshkent: ToshDSHI, 2020. – 140 b.

3. Shukurova Z. “Qissasi Rabg‘uziy” da maqollar . O‘zbek tili va adabiyoti. 2012

Internet saytlar:

1. www.renminrebao.cn
2. www.yangshan.cn

SIYOSAT VA DIPLOMATIYADA OG‘ZAKI TARJIMONNING O‘RNI VA VAZIFALARI

Farzona NOROVA, *TDSHU magistranti*
Nodira NOROVA, *O‘zDJTU talabasi*

Siyosat va diplomatiya sohalari bilan tarjima o‘rtasida jamiyat va qabilararo munosabatlarning vujudga kelishidan boshlab o‘zaro aloqa o‘rnatilgan. Ular o‘rtasidagi uzviy bog‘liqik esa tildir. Qadimda ham qabilalar o‘zini himoya qilish va har tomonlama, ayniqsa iqtisod va savdo sohasida rivojlanish uchun avval yaqin atrofdagi, keyinchalik esa uzoqroqdagi qabilalar bilan aloqa o‘rnata boshlashgan. Buning natijasida qabilararo madaniy, iqtisodiy, harbiy va diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan va rivoj topgan. Bunday munosabatlarni o‘rnatish uchun esa bir qabila ikkinchi qabilani tilini biluvchi odamni elchi yoki elchining tarjimoni qilib yuborishgan, ularga qo‘yiladigan asosiy talablarga ikki tilni yaxshi bilish, muzokaralarning olib borilishini nazorat qilish, tarjima qilingan xabarning ma’nosi o‘zgartirilmasdan va tarjima tili madaniyatiga to‘g‘ri keladigan qilib yetkazib berish kabilar kirgan. Shu sabab, tarjimonlar asosan ikki taraf o‘rtasida turuvchi vositachi vazifasini bajarishgan. Bu qadimdan tarjimonlarning eng asosiy ijrosi bo‘lgan va bu vazifa vaqt o‘tishi bilan o‘zgarmagan. Katta tsivilizatsiyalar yuzaga kelgach esa davlatlararo rivojlanish yanada jadallashgan, siyosiy, iqtisodiy, savdo va madaniyat sohalarida o‘zaro aloqa rivojlanishi uchun esa ikki yoki undan ortiq tilni biluvchilarga bo‘lgan talab yanada oshgan. Fir’avn Xoremheb maqbarasidagi rasmlarda faraon elchilari yoki tilmochlari boshi ikki tarafga qaragan figura bilan aks ettirilgan, chunki elchining va tarjimonning vazifasi ikki davlat o‘rtasidagi muzokaralarda ishtirok etish va ikki taraf foydasi uchun xizmat qilish edi. Bunday misollar qadimgi yunon va Rim imperiyasi, shuningdek, qadimgi Xitoyda ham kuzatiladi. [3, 21] Ko‘pincha bunday odamlar turli tillarni yaxshi egallagani uchun ushbu vazifaga tayinlangan bo‘lishsa, ba’zi mamlakatlarda tarjimonlar yetishtirilgan. Masalan, Usmonli turklar imperiyasida Venetsiyaliklar bilan muloqot uchun Dragomanlar (arabchadan “tarjimon”) tayyorlangan bo‘lsa [6, 771-800], Choson, ya’ni qadimgi Koreyada 1392-yilda Tarjimonlar Byurosi tashkil etilib, u yerda qo‘shni davlatlar tilini biluvchi tarjimonlar tayyorlangan [7, 58-95; 8]. Tarjimonlar ko‘pincha til bilganlari uchun tanlanganlar bo‘lgani uchun ular nafaqat diplomatik va siyosiy uchrashuvlarda, balki savdo,

madaniyatga oid uchrashuvlarda ham ishtirok etishgan, urush davrida esa ular hukmdorlar bilan urush maydonigacha borishgan. Urushlar davrida tarjimonlar xattoki sotqin deb ko‘rilgan yoki Shubha ostida qolishgan. Yuqorida aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, tarixda tarjimonlar ham tilmoch, ham maslahatchi, ham elchi yoki bir vaqtning o‘zida shularning barchasi bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan, elchi va tarjimon o‘rtasida esa aniq bir farq bo‘lmagan. Demak, siyosiy va diplomatik muzokaralar yuzaga kelganidan buyon bu soha tarjimonlik faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, tarjimonlar esa mamlakatlar siyosati va diplomatiyasida beqiyos rol o‘ynashgan.

Og‘zaki tarjimaning hozirgi ko‘rinishga kelishi hamda alohida soha sifatida rivojlanishi, ayniqsa sinxron tarjimaning katta maydonga qadam qo‘yishi 20-asrda bo‘lib o‘tgan ikkita Jahon Urushi bilan bog‘liq. Bungacha siyosiy va diplomatik yig‘ilish va uchrashuvlar asosan bir tilda so‘zlashuvchi taraflar yoki ikki til so‘zlashuvchi taraflardan iborat bo‘lgan. Masalan, Yevropa davlatlarining barchasi fransuz tilida so‘zlashgan, ularning uchrashuvida tarjimon kerak bo‘lmas edi. Bunday uchrashuvlarga ingliz tili yoki ba’zida rus tili qo‘shilganda tarjimon yordamidan foydalanilar edi. Shu sabab 20-asrgacha siyosiy va diplomatik maydonda ketma-ket tarjima turi qo‘llanilgan. Birinchi Jahon Urushidan keyin bo‘lgan yig‘ilish va konferensiyalarda bir yoki ikki til emas balki uch va undan ortiq til so‘zlashuvchilari qatnashgan, ketma-ket tarjima bunday sharoitga to‘g‘ri kelmay qoldi. Masalan, Birinchi Jahon Urushidan so‘ng, 1919-yilda bo‘lib o‘tgan Parij Tinchlik Konferensiyasida 27 dan ortiq millatlar ishtirok etgan, ularning barchasi uchun bir vaqtning o‘zida tarjima qilish uchun ketma-ket emas balki sinxron tarjimadan foydalanilgan. Keyinchalik Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Millatlar Ligasining tashkil topishi esa ko‘p tomonli uchrashuvlarning va turli millatlar ishtirokidagi tadbirlarning ko‘payishiga zamin yaratdi, bu esa, o‘z navbatida, sinxron tarjimaning tobora keng qo‘llanilishiga olib keldi. Ikkinchi Jahon Urushidan keyin, 1946-yilda 21 ta millat vakillari qatnashgan Parij Konferensiyasida, shuningdek, Nyurnberg va Tokyo sud jarayonlarida sinxron tarjima keng miqyosda qo‘llanildi.

Nyurnberg sud jarayoni sinxron tarjimaning soha sifatida shakllanishining asosi deb hisoblanadi, chunki ushbu jarayonda tarjimaning bu turi rasmiy qo‘llanilgan. Ushbu sud jarayonini tashkillashtirish davrida, ingliz, fransuz, nemis va rus 4 to‘rtta rasmiy

tilda hamda qolgan ishtirokchi millatlar tillarida so‘zlashuvchi tarjimonlar yozma va ketma-ket tarjimonlar, armiya xodimlari, lingvistlar, xattoki o‘rta ta’lim bitiruvchilari orasida talablarga muvofiq ravishda tanlab olingan. Tarjimonlarga qo‘yilgan talablarga binoan, ular keng madaniyat tushunchasiga, ensiklopedik bilim, yuqori darajadagi xabardorlik, sinchkovlik, qiziquvchanlik va xotirjam fe’lga ega bo‘lishlari kerak edi. To‘rtta rasmiy til tarjimonlari to‘rt guruhga bo‘linib sinxron tarjimani amalga oshirsa, qolgan millatlar tarjimonlari ketma-ket tarjimani amalga oshirishgan [1, 40–50.].

Urushdan so‘ng yuzaga kelgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham o‘z tashkilotini yuritishda sinxronistlardan foydalana boshladi. Bularning barchasi sinxron tarjimaning soha sifatida jadal rivojlanishiga zamin yaratdi va 1953-yilda Xalqaro Konferensiya Tarjimonlari Asotsiyatsiyasi tashkil etildi. Ushbu tashkilot hozirgi davrda ham yagona xalqaro tarjimonlar tashkiloti bo‘lib, 90 dan ortiq davlatlarda o‘z faoliyatini olib bormoqda. Shu davrda ijroga tushgan og‘zaki tarjima amaliyoti hozirgi kungacha yetib keldi.

Globallashuv jarayonining jadal rivoji tufayli keng miqyosdagi xalqaro konferensiyalar, siyosiy va diplomatik uchrashuvlarning o‘tkazilish soni ham tobora ortmoqda. Bunday uchrashuv va konferensiyalar muvoffaqiyatli o‘tkazilishi uchun esa tarjimonlarning xizmati asosiydir. Shu sabab, globallashuv natijasida ayniqsa siyosiy va diplomatik sohasidagi professional og‘zaki tarjimonlarga bo‘lgan talab ham oshdi.

Siyosiy va diplomatik sohada og‘zaki tarjimonlar asosan ketma-ket va sinxron tarjimani amalga oshirishadi. Ketma-ket tarjimada tarjimon avval noti nutqini eshitadi, keyin esa tarjimani amalga oshiradi. Notiq nutqi katta nutqning bir qismi, yoki tugallangan gap, yoki xattoki bir so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin. Bunday tarjima ko‘pincha ikki tarafli uchrashuvlarda, faqatgina bitta matnni tarjima qilish kerak bo‘lgan konferensiyalarda qo‘llanilib, tarjimon odatda ishtirokchilar bilan birga bo‘ladi. Sinxron tarjimada esa sinxronist notiq nutqi boshlanishi bilan yoki bir necha soniya o‘tib tarjimani amalga oshiradi, ya’ni u bir vaqtning o‘zida ham eshitadi ham tarjima qiladi. Sinxron tarjima odatda turli taraflar qatnashadigan anjuman va konferensiyalarda qo‘llanilib, bunda tarjimonlar alohida butkalarda o‘tirishadi va ularning tarjimasi naushniklar orqali qabul qiluvchilarga yetkazib beriladi. Bundan tashqari, sinxron tarjimaning yana pichirlab tarjima qilish (chuchotage)

degan ko‘rinishi bo‘lib, bunda tarjimon matnni qabul qiluvchining qulog‘iga pichirlab tarjima qiladi. Bunday tarjima turi ko‘pincha maxfiylik va jiddiylik darajasi yuqori bo‘lgan uchrashuvlarda, yoki ketma-ket tarjima bilan birga ishlatiladi, ya’ni uchrashuvda bir tilda so‘zlashuvchi odamlar yoki guruhlar va bitta o‘zga tilda so‘zlashuvchi odam yoki guruh bo‘lganda avvalgisiga ketma-ket tarjima qilinadi va bitta o‘zga til so‘zlashuvchisiga pichirlab tarjima qilinadi. Bunda va sinxron tarjimada asosan vaqt tejaladi.

Tarjimonning asosiy vazifasi bu asliyat tilida berilgan xabarni tarjima tiliga qabul qiluvchilar uchun muvofiq holda bekami-ko‘st yetkazib berishdir. Bu jarayonda tarjimonlar ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar o‘rtasidagi vositachi bo‘lib, muloqotning muvoffaqiyatli amalga oshirilishida ahamiyatli o‘rin tutadi. Ammo siyosiy va diplomatik sohadagi tarjimonlar boshqa sohadagi tarjimonlarga qaraganda ikki barobar mas’uliyatga ega bo‘ladi va qattiqroq talablarga javob berishi lozim bo‘ladi. Bunday diskursiv holatda ishtirokchilar, ya’ni siyosatchilar, diplomatlar, elchilar yoki vakillar nafaqat o‘z nomidan balki o‘zlari vakillik qilgan organ yoki davlat nomidan so‘zlashadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, til bu siyosat va diplomatiyadagi asosiy vositadir, diplomatik til juda nozik, qaytariluvchan bo‘lib, unda ma’no kamdan-kam ochiq-oydin aytiladi, har bir so‘z ahamiyat bilan tanlanadi, so‘zlarning ma’nolaridagi farqlar esa qattiq nazorat qilinadi, har bir so‘zning o‘z maqsadi mavjud bo‘ladi, chunki ushbu soha ishtirokchilarning har bir so‘zi va gapi global va davlat miqyosida katta ta’sirga ega bo‘ladi. Tarjimonlar esa nafaqat ikki tilni puxta bilishi, balki ma’nolardagi nyuanslarni ham anglab yetishi va ulardan to‘g‘ri foydalanishi kerak, u nafaqat yetkazilgan xabarni tushunishi va tarjima tilida yetkazib berishi, balki bu xabarni qabul qiluvchilarning qadriyatlari va madaniyati, tushunchalariga muvofiq holda tarjima qilishi lozim. Aks holda asliyat tilida noziklik bilan tuzilgan ma’no qo‘pol yoki noto‘g‘ri tarjima tufayli yetkazib berilmasligi, taraflar o‘rtasida tushunmovchilik, xattoki davlatlar o‘rtasida nizoga sabab bo‘lishi mumkin.

Diplomatik va siyosiy uchrashuvlar boshqa sohalarni ham qamrab olishi mumkin, misol uchun savdo, iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash haqidagi siyosatlar yoki aloqalar. Bunday uchrashuvlarda tarjimon ishtirokchilar bilan butkada emas, balki ularning yonida yurib kasalxona, sanoat zavodlari, savdo do‘konlariga tashrif davomida

ketma-ket yoki pichirlab tarjima qilish xizmatini amlaga oshirishadi. Mavzusi aniq belgilangan konferensiyada oldindan tayyor nutqni tarjima qilishdan farqli ravishda, bunday tarjima va muzokaralardagi tarjimada ishtirokchilar xohishiga koʻra mavzu kutilmaganda oʻzgarishi mumkin. Bunday sharoitda yuqori darajadagi tarjimani amalga oshirish uchun tarjimon ensiklopedik bilim, yuqori darajadagi xabardorlik, mavzu borasidagi bilim hamda vaziyatga moslashuvchanlik qobiliyatiga ega boʻlishi kerak. Shu bilan birga tarjimon, ishtirokchilar haqida ham yaxshi bilishlari kerak, shunda tarjima qilinayotgan matn ham toʻgʻri tushunilib muvofiq ravishda tarjima qilinadi.

Tarjima jarayoni bu ijtimoiy harakatdir, tarjimon asosiy muloqotchi emas, balki ishtirokchidir, shu sabab u oʻzini tanishtirish yoki savollar berishdan tashqari oʻz nomidan gapirmaydi, faqatgina tarjimani amalga oshiradi. Siyosiy va diplomatik muzokaralar yoki konferensiyalar tarjima jarayonida tarjimon nafaqat asliyat tilidagi xabarni tarjima tiliga oʻgiradi, balki har bir soʻzning maʼnodagi farqliklarini boshqaradi, soʻzlovchining muloqotdan boʻlgan maqsadidan kelib chiqqan holda puxtalik bilan soʻzlarni tanlashi va maʼnoni yaratishi kerak.

Sinxron tarjimaga nisbatan ketma-ket tarjimada ishtirokchilar oʻrtasidagi muloqot koʻproq boʻladi, tarjimon toʻxtovsiz ravishda eshitish va soʻzlash rollarini almashib bajaradi. Muzokaralar tarjimasida tarjimon ikki vazifani bir vaqtning oʻida bajarishi lozim: nutq matnini tarjima tilida yaratadi va bilinar yoki bilinmas ravishda muloqotni yoʻnalishtiradi. Bu asosiy ishtirokchilar vazifasidan farq qilsa-da, oʻziga xos strategiyalarni talab qiladi. Chunki tarjimon matnni shunday muqobillik va puxtalik bilan tarjima qilishi kerakki, tinglovchi xabarni eshitganida uni qabul qila olishi va muloqot doʻstona ravishda davom etishi kerak, shuningdek, u soʻzlovchi nazarda tutgan xabarni ham maʼno darajasida oʻzgarishsiz toʻgʻri yetkazib berishi lozim. Buning uchun tarjimon asliyat tilidagi matnning asl maʼnosini saqlab qolgan holda tarjima tili koʻnikmalari va madaniyati hamda tinglovchining shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tarjimani amala oshiradi, yaʼni barcha taraflarning foydasiga teng ravishda xizmat koʻrsatadi.

Bu vazifani amalga oshirish uchun esa tarjimon mavzuga oid bilim, koʻnikmalarni va terminologiyani bilishi, xalqaro siyosatdagi tarixiy va hozirda boʻlayotgan hodisalar bilan tanish boʻlishi,tomonlar oʻrtasidagi shartnoma, kelishuv hamda ziddiyatlar haqida bilishi, ularning ichki

siyosatini bilishi hamda diplomatik protokolga amal qilishi lozim. Tarjimonlar muloqot jarayoniga javobgar bo‘lgani sabab har bir tarafga birdek xizmat ko‘rsatishi, ya’ni barchaning manfaatini nazarda tutgan holda tarjimani bajarishi lozim.

Siyosiy va diplomatik sohadagi tarjimonlar oldidagi qiyinchiliklardan biri bu har xil mafaatga ega bo‘lgan tomonlar orasida muvozanatni saqlab qolishdir. Ba’zida tinglovchilar notiq darajasida bilimga ega bo‘lmasligi mumkin, bunday hollarda tarjimon xabar qabul qiluvchining bunday sohaviy yoki terminologik bilimdagi kamchiligini tarjima orqali barataraf etishi lozim, buning uchun esa tarjimonning o‘zi avvalambor ushbu darajadagi bilim sohibi bo‘lishi darkor. Keyingi qiyinchilik esa shundan iboratki, ular o‘zlarining qay darajada ishtirok etishini to‘g‘ri belgilashlari lozim. Siyosiy va diplomatik uchrashuvlar diplomatik protokolga qattiq rioya qilgan holda o‘tkaziladi, demak tarjimonlar bunday rasmiy uchrashuvlarda erkin muloqotchi va vositachi bo‘la olmaydi, ular faqat o‘zini tanishtirish kerak bo‘lgan vaqtda, yoki muloqotning qiyinchiliksiz davom etishi uchun savol yoki iltimoslar kiritishdan tashqari mustaqil so‘zlashmaydi. Ya’ni, ular yangi mavzu yoki ishlatilmagan xabar qo‘shish yoki bor xabarni o‘zgartirish orqali muloqotga ta’sir etishligi, o‘z fikrini bildirishi yoki shaxsiy savol berishi yoki maslahat berishligi mumkin emas. Ular faqatgina muloqotning kereakli ravishda davom etishi uchun savol va iltimos qilsa bo‘ladi, masalan tarjimaning aniq va to‘g‘riligini ta’minlash uchun notiqdan xabarni yana bir bor qaytarishni so‘rashligi mumkin. Demak tarjimonlar professional masofani saqlagan holda barcha ishtirokchilarning fikrini to‘g‘ri va muvofiq ravishda tarjima qilishlari kerak. Bu maqsadga erishgan tarjimon esa muloqotni muvaffaqiyatli borishiga erishadi va ishtirokchilar ishonchini qozona oladi.

Qadimdan to hozirgacha tarjimonlar ba’zida elchi, ba’zida maslahatchi va tarjimon sifatida faoliyat ko‘rsatishgan, ular ikki yoki undan ortiq taraflar o‘rtasidagi muloqotda faol qatnashadi, tomonlar madaniyati orasidagi farqliklarni bartaraf etgan holda ularning umumiy fikrga kelishida, muzokaralarning yaxshi yakun topishida, davlatlararo aloqalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, bu rol ba’zida xattoki sezilmas qoladi, ayniqsa konferensiya tarjimonlari oynaning u tarafida bo‘lib qolishadi. Tarjimonlarning vazifalari elchilar, siyosatchi va diplomatlarning vazifasiga o‘xshaydi, ya’ni til yordamida har xil insonlar, guruhlar va davlatlarning muloqotining va aloqasining yuzaga

kelishi va rivojlanishiga zamin yaratishdir. Ular xabarni ma’no jihatdan to‘g‘ri va bekami-ko‘st yetkazib berishadi va bir-birini tilini tushunmaydigan taraflarning muloqotida asosiy vositachi bo‘lib xizmat qiladilar. Ayniqsa siyosiy va diplomatik soha tarjimonlari ikki til va undagi ma’no nyuanslarini yaxshi bilishi, to‘g‘ri so‘zlar yordamida sinchkovlik va ehtiyotkorlik bilan tarjima matnini yaratishlari, diplomatik protokolga qat’iy amal qilishlari kerak. Chunki ularning har bir so‘zi muloqot ishtirkochilari bo‘lmish siyosatchilar, tashkilotlar, vazirliklar va davlatlarn orasidagi aloqaning qay tarafda rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Francesca., Gaiba (1998). *The origins of simultaneous interpretation: the Nuremberg Trial*. Ottawa [Ont.]: Ottawa University Press. pp. 40–50.
2. Hamidov X., Sinxron tarjima muammolari, O‘zbek sharqshunosligi: buguni va ertasi. Ilmiy to‘p. 5. – T.:ToshDShU, 2014.
3. Kadrić, M., Rennert, S., & Schäffner, C. (2021). *Diplomatic and Political Interpreting Explained (1st ed.)*. Routledge.
4. Nosirova S., “Xitoy tili diplomatik terminologiyasi”, ma’ruzalar matni. – T.: 2009.
5. Roland, R. (1999) *Interpreters as Diplomats: A Diplomatic History of the Role of Interpreters in World Politics*. Ottawa, ON, Univeristy of Ottawa Press.
6. Rothman, E.N. (2009) “Interpreting Dragomans: Boundaries and Crossings in the Early Modern Mediterranean,” *Comparative Studies in Society and History*, 51(4), pp, 771-800.
7. Sixiang, W. (2014) “The Sounds of Our Country: Interpreters, Linguistic Knowledge, and the Politics of Language in Early Choson Korea,” in Elman B.A. (ed.), *Rethinking East Asian Languages, Vernaculars, and Literacies, 1000-1919*. Leiden, Brill, pp. 58-95.
8. Song, K. (2001) *The Study of Foreign Languages in the Choson Dynasty (1392-1910)*. Seoul, Jimoondang Pub.
9. Ширяев А.Ф. Синхронный перевод: Деятельность синхронного переводчика и методика преподавания синхронного перевода. – М.: Воениздат, 1979.

SINXRON VA KETMA-KET TARJIMA JARAYONIDA ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDA QISQARTIRISH USULI XUSUSIDA

Munira UMAROVA, *TDSHU magistranti*

Sinxron tarjima jarayonida abbreviaturalar, qisqartma so‘zlarni ahamiyati alohida o‘rin egallaydi. Qisqartma so‘zlarning qanday holsil qilinishi, qanday ma’no anglatishi va ularning tarjimasi haqida so‘z yuritilgan.

Arab tili o‘ziga hos bo‘lgan xususiyatlari bilan boshqa tillardan ajralib turishi, “Naxt” (qisqartirish)ning o‘zagi va qanday ma'nolarni anglatishi, “Naxt” usulining tarixi, “Naxt” masalasida arabshunos olimlarning qarashlari haqida keng yoritilgan.

Ilim bu bir tubsiz ummon kabi xazina desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ummon qariga qanchalik chuqur sho‘ng‘isak shuncha noyob duru gavharlarga ega bo‘lganimiz kabi ilim o‘rganishga ham chuqur kirishsak yangi marralarni zabt etishimiz onson kechadi. Shu borada tarjima sohasi ham ilmning bir bo‘lagi hisoblanadi. So‘nggi paytlarda tarjimaning ahamiyati tobora oshib bormoqda, shuning uchun dunyodagi biron bir mamlakatda uning ahamiyatini inkor etish yoki e'tiborsiz qoldirish mumkin emas.

Xususan O‘zbekiston Milliy Ensklopediyasida "abbreviatura" hamda "qisqartma so‘zlar" ga quyidagicha ta'rif berilgan. Abbreviatura italyancha"abbreviature" — qisqartma, lotincha "abbrevio" — qisqartiraman degam na'nolarni anglatadi. Bundan tashqari lingvistik jihatlari haqida quyidagicha ta'rif berilgan. Lingvistikada: so‘z birikmalarini qisqartirib hosil qilingan so‘zlar:

a) birikma tarkibidagi so‘zlar birinchi harflari alifbo tartibida o‘qiladi yoki oddiy so‘z — harflar anglatgan tovushlar kabi talaffuz etiladi. Masalan, BMT (be-me-te) — Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi);

b) murakkab qisqartma so‘zlar: so‘z birikmalari tarkibidagi so‘zlar birinchi harflaridan tashqari, ular ma’lum qismlari (morfemalari) olinib yasaladi. Masalan, O‘zR (O‘zbekiston Respublikasi), yurfak (yuridik fakultet) [1, 16].

O‘zbek tilida qisqatrma so‘zlarning hosil qilinishi ularning ma'nolar va qanday so‘zlarni qisqartirish mumkinligi haqida so‘z yurutiladi. Qisqartma so‘zlar - barqaror so‘z birikmalari komponentlarining bosh harflarini yoki ma’lum qismlarini olib qo‘shish bilan hosil qilingan so‘zlar. Masalan, IIV — Ichki ishlar vazirligi, XTB

— Xalq ta’limi boshqarmasi, fil-fak — filologiya fakulteti. Qisqartma so‘zlar nutqda ixchamlikka erishish zarurati bilan dastlab yozma nutqda paydo bo‘ladi va faol qo‘llanishi natijasida keyinchalik og‘zaki nutqqa ham o‘tadi. Qisqartma so‘zlar asosan, ot turkumiga mansub bo‘lib, quyidagi yo‘llar bilan hosil qilinadi:

1) so‘z birikmasi komponentlarining birinchi harflarini olib qo‘shish bilan (HDP — Xalq demok-ratik partiyasi, DTM — Davlat test markazi, OAK — Oliy attestatsiya komissiyasi); Qisqartma so‘zlarning bu turi ilmiy adabiyotlarda abbreviatura deb ham ataladi;

2) so‘z birikmasi tarkibidagi 1-so‘zning 1-bo‘g‘inini, qolgan so‘zlarning 1-harflarini olib qo‘shish bilan (O‘zMU — O‘zbekiston milliy universiteti, "O‘zAS" ("O‘zbekiston adabiyoti va san’ati");

3) so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlarning bosh qismlarini olib qo‘shish bilan (biofak — biologiya fakulteti, jurfak — jurnalistika fakulteti);

4) so‘z birikmasi tarkibidagi 1-so‘zning 1-bo‘g‘inini, qolgan so‘zlarni qisqartirmay qo‘shish bilan (O‘zdonmahsulot, O‘zgazloyiha);

5) aralash yo‘l bilan (O‘zbektelekom, O‘zteleradiokompaniya, O‘zavtoyo‘l) va boshqa

Qisqartma so‘zlar xalqaro tashkilotlar (BMT, YUNESKO), mamlakat va davlatlar (XXR, RF, AQSH), siyosiy partiyalar, harbiy uyushmalar (O‘zLDP, NATO), ilmiy-o‘quv muassasalari (O‘zR FA, O‘zDJTU, FarDU), vazirlik, idora, muassasa, tashkilot, korxonalar (XTV, DTM, O‘zmashxolding, Toshshaharyo‘lovchi), mashina, asbob-uskunalar va inshootlar (EHM, ATS, GES) va boshqalarning nomlarini bildiradi. Qisqartma so‘zlar tayyor holda boshqa tillardan o‘zlashtirilishi (YUNESKO, FIFA, FIDE, NATO, AES) yoki muayyan til, masalan, o‘zbek tili materiallari asosida hosil qilinishi mumkin. Keyingi turga mansub o‘zbekcha qisqartma so‘zlarning aksariyati rus tilidagi so‘z birikmalari va ular asosidagi qisqartma so‘zlarning kalkalari hisoblanadi, masalan, BMT<OON, DAN< GAI, OAV (ommaviy axborot vositalari)< SMI (sredstva massovoy informatsii), EHM< EVM kabi [2, 23].

Arab va o‘zbek tilida qo‘llaniladigan qisqartmalarning farqli jihatlari mavjid. Arab tili - ko‘plab, o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Arab tilidagi bu xususiyatlar arab tilshunosligining deyarli barcha qatlamlarida mavjuddir;

Sintaktik, morfologik, semantik, fonetik, balog‘iy vahokazo.. Arab tilidagi ana shunday o‘ziga xos xususiyatlardan biri bu “naht” – qisqartirish, (yangi so‘z hosil qilish) uslubidir.

“Naht” so‘zi arab tilida, «nahata» o‘zagidan olingan bo‘lib, quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1. (Toshga) o‘yib naqsh solmoq; yozmoq; o‘yma naqshlar yasamoq.
2. Yangi so‘z hosil qilmoq.
3. Biror kishini yomonlab gapirmoq, yomonlamoq, g‘iybat qilmoq [3, 810].

“ Naht” usulining tarixi.

Arabshunos olimlarning fikriga ko‘ra, arab tili tarixida “naht” usuli nazariyasi haqidagi fikrni birinchi bo‘lib Ahmad Ibn Farohidiy “Mu’jam ul-ayn” asarida bayon qilgan. U “naht” so‘zining ma’nosini izohlab, unga ilmiy islohiy ta’rif bergan va bir qancha misollar ham keltirgan. Shuningdek:

- Ibn Foris “Fiqh ul-lugat“ va “Maqoyis ul- lug‘at” asarida,
- Hofiz Suyutiy “Al- Muzhir” asarida,
- Ibn Jiniy “Xasois” asarida “naht” borasida bir qancha qimmatli fikirlarini aytilgan.

“Naht” masalasida arabshunos olimlarning qarashlari.

1. “Naht” samoiymi yoki qiyosiymi?”
2. “Naht”ning ishtiqoqga aloqadorligi masalasi.
3. “Naht” masalasidagi mazhablar masalasi.
4. “Naht” masalasida duch keladigan savollar.

Agar nahtni ishtiqoqqa qo‘shsak, bu tilning kengayishi va osonlashtirish yoki torayishi va qiyinchiligiga olib keladimi?" kabi savollar arabshunos olimlar o‘rtasida bahsli masalalardan hisoblanadi [4, 277].

Arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda qisqartmalar ochiladi va to'liq tarjima qilinadi. Tarjima matnidagi qisqartma haqida birinchi marta aytib o'tishda, avval uning parchalanishini o'zbek tiliga to'liq tarjimasi, so'ngra xuddi shunday qisqartma mavjud bo'lsa, o'zbek tilida o'rnatilgan yoki tarjimon o'zi tomonidan birinchi harflardan tuzilgan shifrlangan va tarjima qilingan asl qisqartmasidan, agar o'rnatilgan ekvivalent bo'lmasa. Agar qisqartmani ochib bo'lmaydigan bo'lsa, u holda arab tilida qoldiriladi va tarjimada ushbu qisqartmani ochib bo'lmasligini aytilishi kerak.

Arab tilida so'z yoki so'z birikmalarining abbreviaturalari va qisqartirilishi juda kam uchraydi. Ular asosan murakkab, aniq tavsiflovchi atamalarni qisqartirish, yil yoki oy nomini belgilash, metrik o'lchov tizimining birliklari (kilogramm, kilometr), valyuta birliklari, joy nomlarini qisqartirish uchun ishlatiladi. Davriy nashrlarda turli xil axborot agentliklari nomlarining qisqartirishlari mavjud. Rus tiliga o'xshash, arab tilida "va boshqalar" qisqartmasi (va boshqalar) keng tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1- jild. T.: 2005.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11- jild. T.: 2005.
3. An-Naym, arabcha o‘zbekcha lugat - T.: 2003.
4. Djo‘raev Sh. Sinxron va ketma-ket tarjima jarayonida islomiy atamalarning tarjimasida “naht” (Qisqartirish) usulini qo‘llash. Jizzax, 2020.

SINXRON VA KETMA-KET TARJIMADA MILLIY SO‘ZIGA HOSLIKNI IFODALOVCHI SO‘ZLAR

***Abdulaziz DJUMANOV**, TDSHU magistranti*
Ilmiy rahbar: PhD. Mubarakova D.

Rivojlangan mamlakatlar qatorida ona tilimizning ham xalqaro tillar safiga qo‘shishga katta umid bog’lab, boshqa chet tillardan o‘z ona o‘zbek tilimizga va aksincha o‘zbek tilidan chet tiliga bevosita, ya’ni hech bir o‘zga til vosichaligisiz tarjima qilish faoliyati jadal suratlar bilan taraqqiy topmoqda. Xususan, uzoq davrlardan buyon mamlakatimizda asosan yozma tarjima sohasi keng ish olib borar edi. Lekin so‘nggi yillarda davr talabi bilan og’zaki tarjimaning, jumladan aynan sinxron tarjimaning salmog’i ortib bormoqda[1].[98]

Barchamizga ma’lumki, tarjima o‘ta nozik jarayon bo‘lib, bunda tarjimon bor mahoratini ishga solib uni qayta yaratish ustida tinimsiz samarali izlanishlar olib borishi talab etiladi. Uning dolzarbligi shundaki, kitobxon uchun notanish bo‘lgan asar albatta tarjimon orqali yetib keladi va bu asardan ma’naviy ozuqa olishda yoki umumiy tasavvurga ega bo`lishda qayta yaratilgan asarning asliga muqobilligi juda muhimdir. Shu o`rinda A.Mo‘minova bu haqida shunday fikr

bildiradi: “Tarjima bilan shug’ullanuvchi shaxs, ya’ni tarjimon ikki til, ikki millat o‘rtasidagi ko‘prikdir, uning tarjima qilish qobilyati orqali xalqning, millatning eng nozik qirralari aks ettiriladi” [2]. Darhaqiqat, butun bir xalqning madaniyati,turmush tarzi,an’analari va dunyoqarashi albatta uning tilida namoyon bo`ladi. Shuning uchun ham bu jihatdan tarjimon zimmasida turgan mas’uliyat juda katta. Ayniqsa muayyan xalq tiliga mansub bo‘lgan milliy so`zlarni ya’ni xos so‘zlarni tarjima qilishda tarjimonning yondashuvi alohida e’tiborga molikdir. Chunki tarjimon asarni qanday ko‘z bilan ko‘rsa o‘quvchi ham shundayligicha qabul qiladi, xulosa chiqaradi[2].[99]

Misol uchun, o‘zbek tilida uchragan so‘zlar va tushunchalar boshqa tillarda bo‘lmasligi yoki mazmun, shakl, hajm jihatdan farq qilishi mumkin. Lekin aynan milliyligimizni ifoda etadigan vositalar ham shulardan ekanligini hisobga olgan holda madaniyatimizning o‘ziga xos qirralarini o‘quvchiga yetkazib berishda uning tarjima muammolari barchamizning oldimizda ko‘ndalang turibdi. Xos so‘zlarni tarjima qilishda quyidagi usullardan barakali foydalanishimiz mumkin. E.Ochilov bunday usullardan 3 ta, F.Bakiyev esa 5 tasi misolida har bir usulning yutuq va kamchiliklarini yoritib bergan. Bular: 1) transliteratsiya yoki transkripsiya qilish, 2) sarlavha osti izohlari va tushuntirish, 3) kalkalash, 4) analogiya (o‘xshash so‘zlar bilan tarjima qilish), 5) tasviriy tarjimalar.

Sinxron tarjima xalqaro konferensiyalarda keng qo‘llanishidan tashqari, yana diplomatik faoliyatlar, muzokara uchrashuvlar, savdo-sotiqqa oid tadbirlar, ommaviy axborot vositalari, tayyorlash va o‘qitish kurslari, televidenie, xalqaro hakamliklar va hokazo ko‘plab sohalarda keng foydalaniladi. Mazkur tarjima turidan farqli izchil tarjima usuli ko‘lami nisbatan kichikroq bo‘lgan faqat ikkita ishchi tildan foydalanadigan tadbirlarda ko‘p foydalaniladi, masalan, diplomatic uchrashuvlar, ikki tomonlama muzokaralar, ekspedisiyalar, kichik sohaviy muhokama kelishuvlar, muxbir intervyulari, sud jarayoni, banket nutqlarida foydalaniladi.

Ma’lumki, badiiy tarjimada milliy kolorit tushunchasi bizga noma’lum bo‘lgan xalqning urf-odatlari, hayot tarzi, umumiy olganda, milliy xususiyatlari tushuniladi. Shunday ekan, milliy koloritni saqlagan holda eng maqbul usullardan to‘g’ri foydalanib tarjima qila olgan tarjimonni shak-shubhasiz o‘z kasbining ustasi deyish mumkin.

Misol uchun, o‘zbek tilida uchragan so‘zlar va tushunchalar boshqa tillarda bo‘lmasligi yoki mazmun, shakl, hajm jihatdan farq qilishi mumkin. Lekin aynan milliyligimizni ifoda etadigan vositalar ham shulardan ekanligini hisobga olgan holda madaniyatimizning o‘ziga xos qirralarini o‘quvchiga yetkazib berishda uning tarjima muammolari barchamizning oldimizda ko‘ndalang turibdi. Xos so‘zlarni tarjima qilishda quyidagi usullardan barakali foydalanishimiz mumkin. E.Ochilov bunday usullardan 3 ta, F.Bakiyev esa 5 tasi misolida har bir usulning yutuq va kamchiliklarini yoritib bergan. Bular:

1) transliteratsiya yoki transkripsiya qilish,
2) sarlavha osti izohlari va tushuntirish,
3) kalkalash,
4) analogiya (o‘xshash so‘zlar bilan tarjima qilish),
5) tasviriy tarjimalar.

1. Transliteratsiya – bu usul Asliyat tilidagi so‘zning harflarini o‘zgartirish orqali Tarjima tilidagi boshqa harflarga moslashtirish. “Milliy xos so‘zlarning transliteratsiya yo‘li bilan tarjimada berilishining asosiy sababi asliyatda qo‘llanilgan milliy xususiyatli til vositalarining tarjima tilida mavjud bo‘lmaganligidir”[3, 32].

Quyidagi so‘zlar ham transliteratsiya va transkripsiya usulida tarjima tiliga ko‘chgan: “Somebody knocked with a handle of kamchi at the gate” [3, 8] “Shu payt kimdir qamchi dastasi bilan darvozani taqillatdi” [4, 10]

“Give to her newly made kurpacha, let them put it around sandalwood” [5, 31] “Anovi yangi qoplag’an ko‘rpalaringni ber, tanchaga o‘shani yopsin” [6, 34]

2. Ko‘pincha transliteratsiya yoki transkripsiya usulida tarjimaga ko‘chgan so‘zlar anglatgan ma’no yoki tushunchani o‘quvchi bilan yaqindan tanishtirish maqsadida sarlavha osti izohlari va tushutirishlaridan foydalaniladi. Quyidagi so‘zlar ham shu yo‘sinda tarjima qilingan. “He ate two pieces of handalak (a small honey melon) and drank several pialas (a drinking bowl (as used in Central Asia)) of tea” [3, 10] “Faqat bir-ikki tilim handalak yediyu uch-to‘rt piyola choy ichdi” [4, 10] “The guests in Qutidor’s house were well respected people, treated with first and second courses of many kinds of foods and sweets like khalva (pastry of nuts, sugar and oil) and nisholda (type of custard)” [5, 54] “Qutidorning tashqarisig’a er mehmonlar,

ichkarisiga xotin mehmonlar to‘lg’anlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholda bilan izzatlanardilar” [6, 59]

3. Ba’zan asliyatdagi so‘zlarning tarjima tilida muqobili bo‘lmasa ham saqlab qolish imkoniyati bo‘ladi. Bunga kalkalash yo‘li bilan erishish mumkin. Kalkalashbu so‘zma so‘z tarjima qilishdir.

Quyidagi gapda ham bu usuldan foydalanilganini yaqqol ko‘rish mumkin: “Call my father a lion-armed man” [3, 30] “Sherpanja deb otamni aytsinlar” [4, 35]

4. Analogiya – bu asliyat tilidagi so‘zni tarjima tiliga o‘xshash va muqobil tushuncha bilan berish. “Tarjima tilida goho asliyatdagi lisoniy vositalar ma’nolariga ma’lum darajada yaqinroq mazmunli birlikar uchrasada ular o‘zlarining shartli muqobillaridan xislat xususiyat, shakl, hajm-miqdor jihatdan farqlanadi, bu tafovut tarjimada o‘zaro almashinuviga yo‘l qo‘ymaydi” [7, 93]. “Mullah Fazliddin left his heavy red chakmon and wet high boots at the threshold [3, 10]. “Mulla Fazliddin ho‘l bo‘lib og’irlashgan piyozi chakmoni va etigini dahlizda yechib qoldirdi” [4, 11].

5. Tasviriy tarjima - bu iboralarning mazmunini o‘zgaruvchan so‘z birikmalari yordamida berish [7]. Shunday holatlar bo‘ladiki, tarjima tilida asliyat tiliga ekvivalent va o‘xshash frazeologik birikma topilmaganda tasviriy yo‘l bilan tarjima qilinadi. Milliy so‘zlarni tarjima qilishda ham so‘zlar ma’lum bir belgilariga ko‘ra tasvirlangan holda tarjmaga ko‘chadi.

Tarjima tarjimasi og‘zaki tarjima turi bo‘lib, unda ma’ruzachi kichik tugallangan jumla yoki jumlani aytadi va keyin tarjimonga ularni tarjima qilish imkoniyatini beradi. Tarjimani tarjima qilishda tarjimon, odatda, an'anaviy ketma-ket tarjima bilan tez-tez sodir bo‘ladigan katta davrlarni xotirada saqlashga hojat yo‘q. Internetda bunday ta’rifni topdim:

Paragraf-phrasal tarjimasi-matnni tinglashdan keyin butunlay emas, balki jumlalar yoki paragraflar bo‘yicha tarjima qilingan ketma-ket tarjimaning soddalashtirilgan turi. Bir martalik tarjimaning bir turi, ehtimol, o‘qituvchi yoki boshqa talaba taklifni o‘qigan “ta’lim tarjimasi” deb hisoblanishi mumkin, undan keyin talaba ushbu taklifni tarjima qilish imkoniyatini oladi. Agar u darhol ishlamasa, o‘qituvchi taklifni yana bir bor o‘qishi mumkin. Kasb-hunarga asoslangan tarjima sharoitida tarjimon ba’zan ma’ruzachidan yangi so‘zlarni to‘liq takrorlashini so‘rashi mumkin. Tarjimon juda muhim joylarni yoki

birinchi marta eshitilmagan raqamlarni so‘rasa, hech qanday aybdor bo‘lmaydi. Izchil tarjima bilan, bu, odatda, chiqarib tashlanadi va juda istalmagan. Tarjimada, shuningdek, ketma-ket tarjimada, tarjimonning oldindan tarjima qilingan matnga ega bo‘lgan holatlar juda kam uchraydi va egozadacha spikerning nutqi orasidagi intervalda uni aniq o‘qish uchun kamayadi. Bir martalik yoki ketma-ket tarjima foydasiga tanlov vaziyatga, ta’qib qilinadigan maqsadlarga va tarjimonning tegishli malakaga ega bo‘lishiga bog‘liq. Tarjimonlar to‘liq izchil tarjimaga ega bo‘lib, ishonchli va noaniq holda katta davrlarni jamoatchilikka tarjima qila olishadi. Shuning uchun haqiqiy tarjima amaliyotida maxsus sinxron uskunalarsiz tarjima yoki ma’lum bir tezlashtirilgan, yarim sinxron tarjima ustunlik qiladi. Tarjima qilinganida, tarjimonning jonli yuki ushbu ketma-ket tarjimaga qaraganda ancha past. Shu ma’noda, tarjima tarjimasi, ehtimol, ketma-ket tarjimaning soddalashtirilgan versiyasi sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, vaqt o‘tishi bilan va ketma-ket tarjima bilan, ma’ruzachi tarjimon bilan ishlash qobiliyatiga, pauza qilish va semantik akslarni aniq belgilashga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, milliy so‘zlarni tarjima qilish jarayonida tarjimondan ushbu usullarning yutuq va kamchiliklarini hisobga olib milliy koloritni saqlagan holda tarjima qilish talab etiladi. E.Ochilov ham o‘zining “Badiiy tarjima masalalari” kitobida asar tarjimasida milliy koloritni saqlab qolishga bag’ishlangan qismini “Muammolar muammosi” deb atagani bejiz emas, albatta. Shunday ekan, tarjima usulini tanlashda matnning uslubiy hamda janr xususiyatlaridan kelib chiqib tarjima qilish, ayniqsa ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. http://ziyonet.uz/uploads/books/49959/543e115b9541a.pdf
2. Mo‘minova A. “Aka-uka Grimlarning “Katze und maus in gesellschaft” ertagida yurish-harakat fe’llarining qo‘llanilishi va ularning o‘zbek tiliga tarjimasidagi o‘ziga xos birliklar” maqolasi, “Til, madaniyat, tarjima va muloqot” Respublika ilmiy-ommaviy konferensiyasi materiallari- Samarqand, 2016-2017 noyabr.
3. Q.Musayev “Tarjima nazariyasi asoslari”-Toshkent, 2005. "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 4 July 2020 159 www.openscience.uz
4. P.Qodirov “Starry nights Babur”-Samarqand, 2019.
5. P.Qodirov “Yulduzli tunlar”-Toshkent, 2018.
6. A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”-Toshkent, 2014.
7. E.Ochilov “Badiiy tarjima masalalari”-Toshkent, 2014.

ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОЦЕССА ПОДГОТОВКИ СИНХРОННЫХ ПЕРЕВОДЧИКОВ

Абдуллох БАКИЕВ, *магистрант ТГУВ*
Научный руководитель: PhD. Исматуллаева Н.Р.

Начинающему синхронисту важно определить, каким образом он будет расширять свой кругозор и из каких источников будет получать актуальную информацию. Помимо того, чтобы своевременно получать фоновые знания, полезным является также анализ такой информации, и, следовательно, способность ее пересказать и перевести. Здесь хотелось бы добавить о важности получения новой информации именно посредством прослушивания. Таким образом, дополнительно совершенствуется аудирование и улучшается навык восприятия речи на слух. Становится не только проще воспринимать речь говорящего, но также усваиваются определенные грамматические конструкции, устойчивые словосочетания, используемые в той или иной сфере, а также различные особенности произношения. Отсюда следует отработка навыка запоминания терминов, полученных в результате работы со средствами массовой информации, литературой, фильмами и т.д.

Важным является ведение глоссариев на разную тематику, куда необходимо записывать незнакомые для себя слова, а затем заучивать и немедленно использовать. Здесь каждый начинающий переводчик-синхронист уже обладает своими собственными способами запоминания данных слов, подходящими лично для него, так как он уже владеет иностранным языком на определенном уровне. Однако, по словам Като Ломб, лучше всего записывать слова, используя контекст: «Если во время прослушивания сообщения я слышу незнакомое слово (вначале, как правило, очень много незнакомых слов, так что записываю те, которые успеваю, и по возможности без ущерба для внимания к речи), то отмечаю его в тетрадке и после передачи отыскиваю в словаре. Немедленно. Потому что в памяти сохраняется еще контекст этого слова. Контекст же помогает и в том случае, если

слово услышано неправильно (что случается довольно часто)» [1, 190].

Следующей рекомендацией к самостоятельной подготовке переводчиков-синхронистов является работа над дикцией и голосом. Данная часть процесса подготовки является особенно важной, ведь работа синхронистом подразумевает постоянную работу с людьми и, следовательно, ответственность перед ними. Для работы над данным аспектом в процессе подготовки мы рекомендуем чтение текстов вслух, использование скороговорок на родном и иностранном языке, чтение стихотворений, применение упражнений или даже посещение специализированных курсов — все это, является неотъемлемой частью работы над дикцией, голосом и интонацией. Помимо всех вышеперечисленных рекомендаций по самостоятельной подготовке к синхронному переводу особенно важной является работа над реакцией и способностью быстро переключаться.

Реакция в процессе синхронного перевода должна быть мгновенной. А.Г. Фалалеев говорит, что необходимо поставить себя в такие условия, когда вы не сможете думать, а сможете только реагировать. «Или, если возникает пауза, значит, что-то не состоялось, не произошло, возник сбой, — вот тогда мы кратко разберем, что произошло. Это может быть полное незнание какой-то темы. Это может быть неспособность к быстрому переключению, потому что скорость такая, что человек просто сидит оторопев. Именно от скорости, не от темы, не от лексики». Также, при отработке быстроты реакции могут быть полезны различные виды спорта, требующие скорости и собранности. Наравне со всеми вышеперечисленными рекомендациями, необходимо с самого начала работать над тем, чтобы одновременно слушать оратора и пытаться повторять то, что он говорит, с небольшим отставанием в несколько секунд, разумеется, на иностранном языке. Использовать можно небольшие отрывки длиной в 20 минут. Это позволит развить навык одновременного слушания и воспроизведения речи, плавности в переводе, а также данная подготовка является хорошим способом постепенно перейти непосредственно к самому синхронному переводу.

Анна Иванченко, синхронный переводчик и автор доклада «Развитие навыков синхронного перевода» заявляет, что «для того, чтобы овладеть мастерством синхрона, даже не обязательно устанавливать дома переводческую кабину. Нужны лишь компьютер с доступом к Интернету, наушники и терпение» [4, 304]. Итак, в нашей работе для процесса самостоятельной подготовки к синхронному переводу рекомендуется выполнить следующие шаги:

1) Определить уровень владения иностранным языком.

2) Определить уровень владения родным языком.

3) Определить наличие или отсутствие опыта в переводе, а также его вид.

4) Изучить доступный учебный материал.

5) Изучить опыт отечественных и зарубежных переводчиков синхронистов.

6) Определить имеющееся у вас время на подготовку.

7) Определить продолжительность и частоту занятий по подготовке.

8) Определить уровень осведомленности о ситуации в мире, а также источники для получения соответствующей информации.

9) Определить способы запоминания новой терминологии.

10) Подобрать упражнения на работу над дикцией и голосом.

11) Определить уровень реакции и скорости переключения.

Поскольку данное время период развития высоких технологий, особенных сложностей с поиском и подбором материала для подготовки не возникает. В распоряжении переводчика имеется различная литература, которая содержит в себе необходимую для подготовки информацию, сеть Интернет, где возможно найти аудио и видео материалы.

Чтобы упростить сам процесс поиска данного материала, мы проанализировали различные источники и выбрали те, которые, на наш взгляд, являются наиболее пригодными и достоверными. Во-первых, при подготовке к синхронному переводу мы настоятельно рекомендуем обратиться к печатной литературе, в число которых входят учебники, книги, журналы, а также научные статьи, авторами которых являются опытные научные деятели, а также опытные синхронные переводчики. Сюда же относится и биография известных синхронных переводчиков, а также

интервью, в которых непосредственно они сами рассказывают о собственном опыте и пути становления в сфере синхронного перевода.

Сегодня такой материал без особенных затруднений можно найти в электронном варианте посредством сети Интернет. Авторы, А.П. Чужакин и серия его работ под названием «Мир перевода», состоящая из семи книг, А.Г. Фалалеев и его пособия по самостоятельной подготовке к синхронному переводу «Упражнения для синхрониста», И.С. Алексеева [2, 187], которая является автором значительного количества работ, в число которых входят такие книги как «Профессиональный тренинг переводчика» и «Профессиональное обучение переводчика», а также Линн Виссон, которая написала книгу под названием «Синхронный перевод с русского на английский» [3, 272].

Список выше перечисленных материалов является далеко не полным, но именно указанные авторы являются наиболее опытными и известными в сфере синхронного перевода. К печатной литературе также можно отнести и узкоспециализированные журналы для переводчиков, а именно журнал «Мосты» издательства Р.Валент. Этот журнал доступен в электронном формате непосредственно на сайте самого издательства, а также в Электронно-Библиотечной Системе IPRbooks.

В журнале публикуются статьи переводчиков различных специальностей, как устных, так и письменных. На страницах журнала переводчики, специализирующиеся в различных областях знаний, имеют возможность обсуждать актуальные проблемы, полемизировать друг с другом, делиться секретами профессионального мастерства. Во-вторых, в процессе подбора материала для подготовки к синхронному переводу, важную роль играют видео и аудио ресурсы, размещенные в сети Интернет.

Каждому переводчику, который хочет заниматься именно синхронным переводом, необходима надлежащая подготовка для обретения требующихся навыков.

Заключение

Основные результаты исследования: изучены профессиональные требования к переводчикам-синхронистам; проанализирован процесс подготовки переводчиков-синхронистов

в стране и за рубежом; осуществлен сопоставительный анализ специализированных учебных материалов; предложены рекомендации для подготовки к синхронному переводу; осуществлен подбор учебного материала; предоставлены упражнения для подготовки к синхронному переводу.

Также, проанализировав существующие программы подготовки к синхронному переводу и учебные материалы, был составлен перечень рекомендаций, которые, необходимы для обретения навыков, требующихся для развития в направлении синхронного перевода. К ним относятся определение уровня владения родным и иностранным языками, наличия или отсутствия опыта в переводе, а также его вида, анализ теоретического материала и опыта в подготовке отечественных и зарубежных переводчиков, определение доступного на подготовку времени, продолжительности и частоты занятий, уровня реакции и скорости переключения, а также уровня осведомленности о ситуации в мире.

В ходе работы, были подобраны необходимые учебные материалы для самостоятельной подготовки синхронистов, к числу которых относится не только печатная литература, но и электронная, а также аудио и видео ресурсы, социальные сети, интервью и биографии опытных синхронных переводчиков.

Список использованной литературы:

1. Ломб, К. Как я изучаю языки: Заметки полиглота. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2016.

2. Алексеева, И.С. Профессиональное обучение переводчика — СПб.: Институт

3. Виссон, Л. Синхронный перевод с русского на английский. — М.: Р. Валент, 2005.

4. Митягина, В.А. Подготовка переводчика: коммуникативные и дидактические аспекты. — М.: Флинта, 2013.

5. Сдобников, В.В. 20 уроков устного перевода [Текст] / В.В. Сдобников. — Н. Новогород: НГЛУ им. Н.А. Добролюбова, 2003.

6. Фалалеев, А.Г. Упражнения для синхрониста. Зеленое яблоко. Самоучитель устного перевода с английского языка на русский. — СПб.: Перспектива, Юникс, 2014.

7. Цвиллинг, М.Я. О подготовке переводчиков вообще и синхронистов в частности. Мосты. Журнал переводчиков. — 2007. — №4. — С. 67-68.

8. Чернов, Г.В. Теория и практика синхронного перевода. — М.: Международные отношения, 1978.

MEDIA MATNLARIDA FRAZEOLOGIZIMLARNING TARJIMASI (ARAB-O‘ZBEK KOMBINATSIYALARIDA)

Shamsiddin ABLOQULOV, *TDSHU magistranti*
Ilmiy rahbar: PhD. Mubarakova D.

Media-aloqa vositasi sifatida, odamlar aloqa jarayonini amalga oshirish uchun foydalanadigan barcha vositalar, kanallar yoki ma'lumotlarni uzatish shakllari deyiladi.

Ommaviy axborot vositalari shunchalik kengki, ular yozishdan tortib to bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarigacha.

Muayyan aloqa vositasining kontseptsiyasiga ko‘ra, jo‘natuvchi va qabul qiluvchining rollari almashinishi yoki o‘zgarmasligi mumkin. Shuning uchun ommaviy axborot vositalari kamida ikkita asosiy aloqa paradigmalariga javob berishadi:

Ushbu tadqiqotda biz Arab tilining frazeologik birliklarining filologiya fanlari doktori, professor V. D. Ushakovning rus tiliga tarjimalariga tayandik. Uning monografiyasi “Qur'onning frazeologiyasi” yagona arabiy frazeologik birliklarni tarjima qilish sohasidagi tadqiqotlar [1, 203].

Xuddi shu frazeologik birliklarni tarjima qilishda O‘zbek tiliga Arab tili, bizning fikrimizcha fikr, u tarkibiy-tipologik va funktsional-semantik tayanib maqsadga muvofiqdir ekvivalentlikni o‘rnatishda yondashuvlar frazeologik birliklar. Bu bizga ta'kidlash imkonini beradi quyidagi o‘zaro bog‘liqlik:

1) to‘liq ekvivalentlar;
2) qisman ekvivalentlar;
3) analoglar;
4) noaniq (lakunar) birliklar.

Qarama-qarshi (lakunar) birliklarni tarjima qilish uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi:

hisoblash, tarjima qilishning tavsiflovchi usuli,

tarjimaning leksik usuli va estrodiol tarjimasi.

Ma’lumki, istiqlol qo‘lga kiritilgandan keyin o‘tgan davr mobaynida xalqimizning o‘z yurti, tili, madaniyati va qadriyatlari tarixini chuqurroq o‘rganishga qiziqish ortib, uni taro‘ib-tashviq qilishga yanada jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Zero, davlatimiz va

millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun G‘oyat muhim va dolzarb masalaga aylanib bormoqda [2].

Lug‘ at - bu nafaqat so‘zlarni, balki ularning kuchli birikmalaridan iborat birikmalarini ham o‘rganadigan fan. Ushbu "birlik" shu qadar ajralmaski, ular nutqda so‘zlar bilan deyarli bir xilda ishlaydi. Bunday birikmalarga frazeologik birliklar deyiladi.

“Ikki etik bug”, “omborni o‘rash”, “uyga mix tushirish” kabi iboralar barchaga yaxshi ma'lum. Bunday birikmalardagi har bir so‘z deyarli o‘z ma'nosini yo‘qotgan. Frazeologizmning ma'nosini bilmasdan, uni ko‘pincha uning "tarkibiy qismlari" atamasidan ajratish mumkin emas (chunki bu endi leksemaga aylanmaydi, tilshunoslar frazeologiyaning "tarkibiy qismlari" haqida alohida gapirishadi). Bunday shakllanishlar ko‘pincha chet elliklar tomonidan shubha ostiga olinadi, chunki ularning ma'nosi so‘zlar ma'nolarining yig‘indisi emas, aksincha ular hikoyaga yoki badiiy obrazga burilgan hikoya. Frazeologik birliklarning paydo bo‘lishi tarixi tadqiqotning eng mashhur va qiziqarli sohalaridan biridir.

Tilshunos olimlar doim sarlavhaning tilning muayyan bir hodisasi sifatida tadqiq qilishga intilganlar. Olimlarning tadqiqotlarida sarlavhaning lingvistik mohiyati haqida bir qator nuqtai nazarlar ham uchraydi. Shunday nuqtai nazarlardan birida sarlavha gap bo‘lishi mumkin emas, chunki gap og‘zaki nutqda mutanosibi bo‘lgan til birligi ekanligi ta’kidlanadi. Bu fikrlarni rus tilshunosi A.A.Shaxmatova ham qo‘llabquvvatlab, sarlavhalarni sintaktik tadqiq qilishdan chiqarib tashlash kerak deydi.[3]

Yana bir arab tadqiqotchisi Rashid Abu Rayan sarlavhalar tarkibiga bag‘ishlangan tadqiqotida quyidagi turlarni ko‘rsatadi. 1) Sodda. Bir so‘zdan iborat. 2) Kombinatsiyalangan. Ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat. O‘z navbatida u quyidagi turlarga bo‘linadi. - sifat bilan kombinatsiyalangan (الصادق الفجر;(- izofa birikmasi bilan kombinatsiyalangan)االنسان حقوق;) - predikativ aloqa orqali kombinatsiyalangan)نافع العلم;) - bog‘lovchi orqali kombinatsiyalangan (... االسالم و.(1 Aksariyat tadqiqotchilar sarlavha gazetaning matn tizimida o‘ziga xos kommunikativ jihatdan kuchli o‘ringa ega ekanligini tan olishadi, chunki u sintaktik tuzilishidan qat’iy nazar, nashr mazmuni haqida o‘quvchilarni xabardor qilish uchun xizmat qiladi. Arab tilidagi har bir gazeta materiali shakl va axborotni taqdim etish tartibi nuqtai nazaridan o‘zining ichki mikrotizimiga ega bo‘ladi:

xabar matni (الجسم (va sarlavha majmuasi (العناوين .(Sarlavhalar majmui o‘z navbatida bir qator unsurlarga ega bo‘ladi: sarlavhalar (العناوين ,(sarlavhausti va sarlavhaosti sarlavhalar (الفرعية العنوين ,(kirish matnlari (الصدر.(2 Biz o‘z tadqiqotimiz jarayonida zamonaviy arab gazetasi sarlavhalarining asosiy sintaktik tuzilmalari ko‘rib chiqdik, sarlavhaning sintaktik tuzilishini tanlash muallifning kommunikativ niyatiga bog‘liq ekanligini ko‘rdik. Bundan tashqari, arab yozuvi konsonant yozuvlar sirasiga kiradi — bunday yozuvlarda so‘z ichidagi unlilar yozuvda ifodalanmaydi. Misol uchun, “Eski o‘zbek yozuvi” qo‘llanmasida keltirilgan “zolim”, “g‘azab” so‘zlarining arab imlosida yozilishiga e’tibor bersak, “zolm” (5 tovush — 4 harf), “g‘zb” (5 tovush — 3 harf) shaklida yozilganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, o‘zbek tilida unlilar soni ko‘proq bo‘lgani holda, arab yozuvida unlilarni ifodalaydigan faqat uchta harf mavjudligini ham qayd etish lozim.

Demak, asrlar davomida ishlatilgan arab alifbosida « bir tovushga — bir harf» tamoyiliga amal qilingan, deya olmaymiz. Kirill yozuvida ham bu tamoyilga qat’iy rioya qilingan, deyish qiyin. “Ya”, “yu”, “yo” (misol uchun, “yalpiz”, “yurt”, “yomon”) harflarining aslida ikki tovushni bildirishi, “ye” harfining o‘rniga qarab bir yoki ikki tovushni bildirishi (masalan, “yengil” so‘zida ikki tovush, “men” so‘zida bir tovush), bitta “j” harfining ikkita tovushni ifodalashi (solishtirib ko‘ring: “jiyda” — “jirafa”), “ng» harflarining o‘rni kelganda ikki tovushni (“menga”) yoki bir tovushni (“dengiz”) bildirishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Xulosa ta’kidlaganimizdek, “xalqimiz tarixda foydalangan arab, kirill alifbolari bir tovushga— bir harf “tamoyiliga asoslangan”, deyish unchalik ham haqiqatga mos emas. Faqat isloh qilingan arab alifbosida (1921−1929) va “yanalif”da (1929−1940 yillarda ishlatilgan lotin alifbosida) bu tamoyil u yoki bu darajada kuzatilgan, deyishimiz mumkin. Biroq bu alifbolarning amal qilish muddatini arab, kirill yoki amaldagi lotin alifbolari qo‘llanilgan davr bilan solishtirib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ушаков В.Д. Фразеология Корана: Опыт сопоставления фразеоречений Корана и арабского классического языка. – М.: Восточ. лит. РАН, 1996. – 203 с.

2. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida frazeologizmlarning qo‘llanilishi Tamikayeva Dilafro‘z Maxmudovna SamDCHTI o‘qituvchi va erkin tatqiqotchisi Dilafruztamikayeva84@gmail.com

3. Шайхуллин Т.А., Набиуллина В.Р. Специфика арабского газетного заголовка как языковой единицы и его типы. //Современный мусульманский мир: электрон. журнал . 2018. № 2.С.1.

XALQARO JURNALISTIKA VA TARJIMA MASALALARI

QADIMGI XITOYDA HUQUQIY KOMMUNIKATSIYA TURMUSH MADANIYATINING O‘ZIGA XOS KO‘RINISHI SIFATIDA

Muhabbat SALIYEVA, *TDSHU dotsenti*

Huquqiy qarashlar qonun bilan tartibga solinadigan, ya’ni oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan majburiy me’yorlar majmuasidan iborat. Biroq jamiyat hayotining barcha sohalarini qonun asosida tartibga solishning iloji yo‘q. Qadimgi Xitoy qonunchiligini bilish ayni paytda zamonaviy Xitoy muammolarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi: “Bizning xalqimizning demokratik qonunlari....”, deydi Dun Biu, “xalqimiz uchun foydali bo‘lgan qonunlar, ham Vatanimizning o‘tmishidan, ham o‘tmishdagi qonunlardan ta’sirlandi” hali ham zamonaviy Xitoyda jinoyatchi va fuqarolik huquqi o‘z ta’siriga ega” .

Ba’zi o‘rinlarda axloqiy qarashlar, xususan, urf-odat va udumlar qonundan ustun bo‘lishi ham mumkin. Ular odamlar tomonidan milliy qadriyat darajasida ixtiyoriylik asosida amalga oshiriladi.

“Xitoy xalqi uchun eng muhim VII-XII asrlarda uning a’zolarini “hurmatli”, “erkin”, (“lyanjen”) va (“tszyanjen”) ga tegishli bo‘lgan shaxslar to‘g‘risida “shafqatsiz”, “tszyanьjenь” qonunlari bilan aniq ko‘rsatib o‘tilgan. “Lyanjenь” deb nomlangan odamlar doirasi bir xil aniq xususiyatlarga ega emas edilar. Shunisi diqqatga sazovorki, ayni noaniqlik sosoniy eron qonuniga ham taalluqli edi. Dastlabki sosoniy qonuni ozod, oliyjanob tushunchasini “hissiz odam” kontseptsiyasiga tenglashtirgan, kontseptsiyani Xitoyning “lyanjenь”ga o‘xshashligini bilar edi. Bu ma’noda “Ozod” so‘zi qadimgi arman tiliga ko‘chirilgan va “qul” so‘ziga qarshi “erkin” so‘zini tarjima qilish uchun “Injil”

tarjimasiga kiritilgan ("tszyanjen",(J 伊恩 - qul) shaxsan bepul", boshqa har qanday davlatda o‘z erkiga ega bo‘lgan shaxs edi"

Mavzu bilan bog‘liq holda huquqiy kommunikatsiya haqida gapirganda, quyidagilarni e’tiborga olish kerak. Qonunga rioya qilish, eng avvalo, uning borligi va undan ko‘pchilik xabardor bo‘lishiga bog‘liq, bu esa targ‘ibot-tashviqotga, ya’ni ommaviy huquqiy kommunikatsiya tizimi shakllarining rivojlanganligiga bog‘liq. Qachonki qonunlar yaratilsa, ularga rioya qilish ta’minlansa, keng omma o‘rtasida huquqiy madaniyat shakllanadi.

Qadimgi to‘liq shakldagi ilk qonunlar faqat milodiy VII asrga to‘g‘ri keladi. Tan qonunchiligi bizgacha to‘liq qismlari bilan yetib kelmagan bo‘lsa-da, Tan sulolasiga tegishli, ammo miloddan avvalgi VII asrdan qadimgi Xitoy qonunchiligini zamonaviy tadqiqotchilarni manbalariga asoslangan holda, V-XV asrlarni tanladik. Mamlakatni bilish uchun uning huquqlarini bilish kerak. Mamlakatlar tarixini to‘la-to‘kis o‘rganish uchun uning qonunlarining tarixini o‘rganish zarur.

O‘rta asrlarda Xitoyda yozilgan kitoblarda huquqiy masalalar asosan ma’naviy-ma’rifiy, ma’muriy yoki ilmiy yondashuvlar bilan bir qatorda keltirilgan, shuning uchun ko‘p hollarda bularni bir-biridan ajratish qiyin. Shu bilan birga, ma’lum bir huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqilgan va joriy qilingan. O‘rta asrlarda Xitoy davlati va markaziy davlat apparati tarkibiga oltita bo‘lim kirgan: rasmiy, moliya, marosimlar, harbiy, jazo va jamoat ishlari bo‘limlari. Min davrida oltita bo‘limning rahbarlari tomonidan imperatorga o‘sha bo‘limlar ishlariga oid xabarlar bergan va ularning faoliyatini nazorat qiladigan maxsus amaldor tayinlangan, maxsus bo‘limlar tashkil etilgan, saroy ishlari, politsiya xizmati va boshqalar faoliyat olib borgan.

Qadimgi Xitoyda oila patriarxal harakterga ega bo‘lgan. Nikoh ota – onalar tomonidan tuzilgan. Nikoh va oila huquqi asoslari konfutsiylik ta’limoti asosiga qurilgan edi. Katta oilaviy aloqalar mustahkamligi bilan ajralib turgan, oila boshlig‘i uning mutloq hukmdori hisoblangan. U oilani itoatsiz a’zolarini jazolash huquqiga ega edi. Shu o‘rinda bir misol: “Bobo o‘sha yili qog‘ozda quyidagilarni chop etdi: Mening buyuk ajdodlarim shimoldan Yuchjou va Shochjou hududlariga ko‘chib o‘tib o‘zlarining familiyalarini Markaziy Osiyoning hukmdorlari nomidan farq qiladigan “Si” deb o‘zgartirganlar, shuning uchun silar Lyu ismini familiya nomi bilan o‘zgartirdilar, ammo onaning familiyasini qabul qilish xatti – harakat qoidalariga zid keladi" ,

deyiladi. Demak, bir fuqaroning qiziqishlari, harakatlari boshqa kishilarning huquqlariga zarar yetkazmasligi kerak. Jamiyatda yashaydigan odamlarning o‘zaro munosabatlari doimo murakkab bo‘lib kelgan, chunki har bir odam odatda o‘z manfaatini, o‘z huquqlarini himoya qiladi. Ma’lumki, bunday paytda bir odamning huquqlari ikkinchi odamning huquqlari bilan chegaralanadi. Ya’ni, huquqlar tengligi ularning chegarasi borligini anglatadi. Shuning uchun inson jamiyatda qonun-qoidalarsiz yashay olmaydi. Har kishi o‘z manfaatini himoya etgan joyda qonun barchaning manfaatini himoya qiladi va shu asnoda ma’lum shaxslarning harakatlarini chegaralashi mumkin.

“Xouxanshu shunday deb yozgan edi: “Minglab gumondorlar qatl qilinmasligi uchun maydon yo‘q edi”. Agar bir asrda tarixiy yozuvlarga ishongan bo‘lsangiz, aholi soni 50-56 milliondan, 16 milliongacha ko‘proqqa kamaygan bo‘lsa, ko‘proq dehqonlar o‘z qishloqlarini tark etishga majbur bo‘ldilar. Qullar xo‘jayinlaridan qochib ketishdi. Urushlar sug‘orish tizimini yo‘q qilishga olib keldi” . V.S.Taskinaning “III-V asrlarda Xitoyda ko‘chmanchi xalqlar tarixi haqida materiallarda Xitoy tarjimasida prizentatsiya va boshqalar sharhlari” nomli kitobida hukm chiqarish tartibi tilga olingan. Ushbu misolda tarixchilar huquqiy kommunikatsiyani ijro etuvchilar haqida fikrlar bildirilganligi ahamiyat kasb etadi. Nafaqat qonunlar mavjudligi, balki ularning mazmuni va ahamiyatini tushunish, ushbu ma’lumotlarni xalqqa yetkazish ham muhim masala bo‘lgan. Qonun birinchi o‘rinda jismoniy kuch ishlatishga asoslanmasligi kerak. Qonunchilik tizimining yetakchi vazifasi – huquqiy me’yorlarni xalqqa tushuntirishdir, ya’ni samarali ommaviy huquqiy kommunikatsiyani amalga oshirishdir. Qonun, eng avvalo, ma’naviy, tarbiyaviy, axloqiy kuchga ega bo‘lishi zarur. Agar qonun faqat xalqni bo‘g‘ishga, bo‘ysundirishga, ezishga yo‘naltirilsa, bunday qonunlarning umri juda qisqa bo‘ladi. “Tarixiy manbalarda bir necha bor yerni o‘g‘irlash taqiqlanganligi to‘g‘risidagi imperatorlik farmonlari yozuvlari saqlab qolingan. Hokimiyat qochoqlarni qo‘lga olish va jazolash bilan band edi. Mamlakat atrofidagi yerlardan ruxsatsiz foydalanish harakati faqat chorvadorlarga emas, balki savdogarlarga ham taqiqlangan” . Shu munosabat bilan barcha hududlarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida, tergov asosan shikoyat qilish yoki uezd yoxud okrug boshqarmasiga xabar berish bilan boshlangan. Xabar berish, ayniqsa o‘g‘irlik va odam o‘ldirishga taalluqli bo‘lib, berilayotgan xabarlar aniq bo‘lishi talab qilingan.

Noto‘g‘ri xabar uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Bu esa Huquqiy kommunikatsiyaning asosiy qonuniyati hisoblanadi. Tergov natijalari haqida xulosa, ayblov dalolatnomasi tuzilgan. Qadimda "dalillarni taqdim etish", "ayblash" va boshqa yuridik iboralar ko‘p ishlatilgan. Sudda ish yuzasidan qiyoslash bo‘yicha qarorlar chiqarish keng qo‘llanilgan. Asarda shunday ma’lumotlar bor: “V asrning o‘rtalarida hukumat davlatga tegishli yerlarga ajratiladigan mablag‘larni ko‘paytirish va dehqonlarga solinadigan davlat solig‘i sifatida tan olishga harakat qildi. Biroq bu choralar faqat bir necha bor o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Xronikalarning guvohligiga ko‘ra, VI asrga kelib, o‘n minglab yer maydonlaridan faqat bir maydongina ro‘yxatga olingan. Dastlab feodal amaldorlar va’da qilingan imtiyozli shartlar dehqonlar hayotini og‘irlashtirdi. Ta’qib va taqiqlarga qaramasdan, dehqonlar ko‘pincha o‘zlarining katta hajmdagi yer uchastkalaridan chiqib ijarachiga aylandilar, bunday jarayonlar dehqonlarning noroziligi va g‘alayonlariga olib keldi” .

In’ podsholigi davrida - yerlar podsho (van) mulki hisoblangan, mukofot, in’om tariqasida yer olganlar undan faqat foydalanish huquqiga ega bo‘lganlar. Chjou podsholigi davrida yerlarning xususiy mulkka egalik huquqiga aylanishi, Sin’ podsholigi davrida qator podsholiklar yerni olish – sotish haqidagi bitimlar tuza boshlaganlari, miloddan avvalgi 1 asrlarga to‘g‘ri keladi. Yer sotilishidan yoki boshqa egasiga o‘tishidan qat’iy nazar yer davlatniki bo‘lib qolavergan. In’ podsholigi davrida, qullar davlat mulki hisoblangan, bu huquq faqat podsholarga tegishli bo‘lgan.

Chjou podsholigi davrida qullarni almashtirish va sotib olish huquqi mavjud bo‘lgan, bu davrda qullar ikkita toifaga bo‘linganlar: davlat qullari va xususiy qullar. Sin’ podsholigi davrida fuqarolar keng ko‘lamda qullarni olib sotish huquqiga ega bo‘lganlar. Qadimgi Xitoyda huquqiy reglamentlarida shartnomalar tuzib borilgan, xususiy huquq me’yorlari mustaqil rivojlanmagan. Shartnomalarning bir necha turlari mavjud, ular quyidagilar: ayirboshlash shartnomasi; oldi-sotdi shartnomasi; hadya shartnomasi; qarz shartnomasi; yerni ijaraga berish shartnomasi; Shaxsiy ijara shartnomasi. Bu shartnomalarning talablari asosan huquq bilan tartibga solingan.

O‘rta asrlardagi maktablar va kutubxonalar, olimlar, murabbiylar, harbiy san’at mutaxassislari bor edi. Shaharlarda harbiy-mudofaa, ma’muriy, iqtisodiy va madaniy tizimlarda faoliyat olib borganlar.

Shimoliy Veyda chaqirilgan yopiq mahallalar, keyinroq fanda tilga olib o‘tilgan manbalarda, qishloq aholisini besh eshik va o‘n eshikka aylantirdilar. Tepaliklar atrofidagi devorlarning darvozalari tungi vaqtda qulflangan. 636 yilgacha ular beshinchi qo‘riqchi guruhlari tomonidan himoyalangan, keyinroq esa aholining tinchligi saqlanayotganligini doimiy bildirib turish maqsadida baraban, do‘mbira kabi cholg‘u asboblaridan foydalanilgan. Chunki feodal hokimlar shaharlarda to‘plangan odamlarning itoatkorlikdan chiqib ketishidan qo‘rqqan, otliqlar doimo ko‘chalarni nazorat qilgan. Uchta eng yuqori darajali mansabdorlardan tashqari, barcha fuqarolar ko‘chaga kechqurun chiqishi taqiqlangan. “Agar hamma istagan vaqtda eshiklarini ochsa, jinoyatlar osongina yuzaga kelishi mumkin edi” .

Tan qonunlarida shahar devorini oshib o‘tishga jur’at etgan har qanday odamni jazolash aytib o‘tilgan. “Xitoyda qullikdan feodalizmga qaytish Hindistondan Uzoq Sharqqa kirib kelgan buddizm tarqalishi bilan bog‘liq edi. Buddist monaxlar va voizlar” Markaziy Osiyodan Xitoyga kelib, Gansu, Shenьsi va Xenan shaharlariga joylashdilar. V asrda Janubiy qirolliklarda mashhur Buddist diniy o‘qituvchilari Lyan sulolasining hukmronligiga katta ta’sir ko‘rsatgan va o‘zlari uchun turli imtiyozlarni qo‘lga kiritgan” , deya ta’riflanadi manbada. Bu davrlarda qonunlar va farmoyishlarning tobora ko‘payib borishi huquqda qarama–qarshi me’yorlarni keltirib chiqargan va ulardan foydalanishni qiyinlashtirgan. Oqibatda, huquqni kodifikatsiya qilish zarurati paydo bo‘lgan.

“Rasmiylarning nomzodlik va sertifikatlash huquqi faqat markaziy hukumatga tegishli edi. Lavozimga tayinlash davlat imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgandan so‘ng amalga oshirilar edi. Imperator ishtirok etgan yig‘inlarda imtihonga alohida ahamiyat berildi. Eng katta ilmiy daraja olgan Szinьshi muhim rasmiy idoralarga nomzod bo‘ldi. Uch yilda bir marta o‘tkaziladigan muntazam saroy imtihonlarida 700 nafar talabgorlar ro‘yxatga olindi, imtihondan faqat bir necha kishi o‘tdi. Szinьshi darajasiga nomzod she’rlar va madhiyalar yaratishi kerak edi. Kamroq darajaga erishish uchun (chjuke) Konfutsiy ta’limotining klassik asarlarini sharhlash qobiliyati talab qilinadi. Butun ta’lim tizimi hayotdan ajralgan bilimlarga ega bo‘lishga bag‘ishlangan edi” .

O‘rta asrlarda Xitoy mamlakatlari huquqiy tizimining u yoki bu qadriyatlar tizimlardagi ma’naviy, diniy madaniyatlarning huquqiy

printsiplari, institutlar va normalar bilan bog‘liq o‘ziga xos belgilari mavjud. Xitoy va Hindiston an’anaviy huquqiy tizimlarining shakllanishida ikki g‘oyaviy oqim. Konfutsiylik ahloqining “li” normalari va huquqi, oilaviy munosabatlarning tartibga solinishi, sud jarayoni, kabi masalalarga kengroq e’tibor berilishi bilan ahamiyatlidir.

“Toba Xunning islohotlari, shuningdek, syanьbiy kiyimlarini kiyishga va sudda syanьbiy bilan gaplashish taqiqlangan. Barcha vijdonli syanbiylarga ism va familiyalarini Xitoychaga o‘zgartirish taklif qilindi. To‘g‘ri, bir necha o‘n yil o‘tgach, shimoliy Syanbiy davlatini (Shimoliy Si 550-577 va Shimoliy Chjou 557-581) almashtirish uchun ikki kishi kelganida, bu taqiqlarni unutib qo‘ydilar va ularning o‘rniga "Syanbi uyg‘onish" deb nomlangan qisqa davr keldi, ya’ni Syanbax madaniyatining hukmron doiralari orasida yangidan tug‘ilish, shu jumladan, nomlar yangilanishi, Shimoliy Xitoy, Syanbiy Xitoyga aylandi. Shimoliy Xitoyda esa ajnabiylarning taxminan 20% ni janubga ko‘chirilishiga qaramay qolgan katta qismi Xitoy millati bo‘lib qoldi” , bu yerda asosan ommaviy kommunikatsiya shakllarining turli yo‘nalishlarini ko‘rish mumkin, ko‘chmanchi xalqlarning xitoycha ismga ega bo‘lishini, ularning har qanday qarshiliklarga qaramasdan o‘zlarini Xitoy fuqarosi deb hisoblashlari kabi masalalarni huquqiy kommunikatsiyaning u yoki bu shakllari bilan bog‘lash mumkin, shu o‘rinda bir misol: “Janubiy Xitoy va Janubiy sulolalar deb ataydigan bo‘lsak, IV-VI asrlarda ularning tarixda ba’zi jihatlari Shimoliy Xitoydan sezilarli darajada farq qilardi, biroq umumiy xususiyatlar mavjud edi. Shimol va Janubni birlashtirgan asosiy narsa xalqlarning keng miqyosda ko‘chishi va qorishib ketishi edi. Shimol shafqatsiz xurujlarga duch kela boshlagach, ommaviy qirg‘in va Xitoy qulligini, yuz minglab ba’zi hisob-kitoblarga ko‘ra, bir milliongacha odamlarni ayniqsa, boylar uy bekalari va ma’rifatli konfutsiy ta’limoti ruhoniylari majburlash yo‘li bilan janubga ko‘chirildi, u yerda uch qirollik davrida cheksiz urushlar davom ettirildi, unda mahalliy qabilalar ishtirok etdi. Shimoldan yangi kelganlar, birinchi navbatda, daryolardagi vodiylarga joylashib, ular guruhni faol ravishda rivojlantira boshladilar” . Bunda asosan Xitoy xalqining ming bir azoblar qa’rida ham o‘zligini yo‘qotmaganligi, ular o‘z huquqiy qadriyatlarini saqlab qolganligini ko‘rish mumkin. Xitoy fuqarolarining diniy marosimlarga bo‘lgan ishonchi asosan budda diniga sig‘inishi edi. Din orqali turli qonunlarga bo‘sundirishga

harakatlar qilingan. “Odil bo‘lish uchun, shimoliy xonadonlarning hukmdorlari, shuningdek, G‘arb missionerlarining say-harakatlari bilan ishlab chiqilgan Hindistonda paydo bo‘lgan dinni qo‘llab-quvvatlashdi. Xitoyda, shimolda ham, janubda ham buddist ibodatxonalari faol ravishda qurilgan. Monastirlar yaratilgan bo‘lib, ular ishchi, dexqonlar bilan katta miqdordagi yerlarga ko‘chirilgan. Buddizm Xitoyga o‘z vaqtida keldi: fuqarolik urush va zo‘ravonlik bosqini holati nafaqat markaziy hokimiyatni, balki xorijiy dinlarning Xitoyda mustahkamlanishiga to‘sqinlik qila olmaydigan rasmiy Konfutsiychilikni ham zaiflashtirdi. Rohiblar tomonidan qadimiy buddist matnlarini xitoychaga tarjima qilishda zarur bo‘lgan Pali va Sanskrit tilidagi versiyalari xitoylik ekvivalentlar sifatida ishlatilgan. E’tiborga olish kerakki, qiyinchiliklar davrida urushlar qochoqlar – tinchlik va dam olish bilan buddistlar ibodatxonasida, charchagan ziyolilar uchun - kerakli yolg‘izlik, tinch muloqot uchun imkoniyat yaratdi. Bu omillar Buddizmni nafaqat Xitoyda mustahkamlash, balki u yerda tarqqiyparvar din bo‘lishi, Xitoy sharoitlariga asta-sekin moslashishga yordam berdi” , asosan diniy bog‘lanishlar orqali buddizm dinining rivojlanishida huquqiy kommunikatsiyalarning ahamiyati juda katta bo‘lganligini ko‘rsatadi. Xitoy davlatining o‘ziga xos jihatlarida asosan Konfutsiy ta’limotining odilona fikrlarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Huquqiy kommunikatsiya shakllari va usullari diniy, madaniy, ilmiy tarzda allomaning barcha ta’limotlarida o‘z aksini topgan.

“Janubiy Xitoyda Konfutsiy axloq me’yorlarida oilaviy munosabat normalari, shu jumladan, oilalarning birgalikda yashash amaliyoti, ayniqsa ijtimoiy rahbarlarning tavsiflari muqaddas sanalgan. Bunday targ‘ibotlar Xitoyning janubiy viloyatlarida, ba’zan esa bir qavmda ommaviy tarzda aholi punktlarini mustahkamlashga hissa qo‘shdi. Konfutsiyning axloqiy normalari va qadriyatlari (buddizm bilan boyitilgan) an’anaviy madaniyatning umumiy modeliga aylandi. Bularning barchasi V-VI asrlarda Janubiy Xitoydan kelgan muhojirlar shimolda qadrlanadi. Ba’zida katta hurmatga sazovor, ba’zan yuqori lavozimlar va tegishli rasmiy obro‘ga ega bo‘ladi” .

MUSTAQIL TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHI

Ruxsora ELMURATOVA, *O‘zJOKU tadqiqotchisi*

Davlat boshlig‘ining parlamentga Murojaatnomasi – dasturiy siyosiy-huquqiy xujjatdir (A.X.Saidov)

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z mustaqil taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda ta’kidlanganidek, jamiyatni rivojlantirishning turli masalalari yuzasidan ishlab chiqilgan maqsadlar, jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirish, yoshlarga keng imkoniyatlar yaratish hamda Uchinchi Rennesans paydevorini barpo etish bugungi kun tartibiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Albatta biz rejalashtirayotgan barcha o‘zgarishlarning nihoyatda ko‘p qirrali va o‘ta muhim ekanini men chuqur tushunaman, biroq yo‘limizda qanday to‘siq va qiyinchiliklar, keskin va dolzarb muammolarga duch kelsak ham, shoshma-shosharlik bilan, pala-partish qarorlar qabul qilishga, yaxshi o‘ylab ko‘rilmagan hatti-harakatlarga yo‘l qo‘yishga haqqimiz yo‘q” [1, 54.].- deyiladi farmonda.

Akademik Akmal Saidov “Inson huquqlari: parlament a’zolari uchun qo‘llanma” kitobida ta’kidlaganidek, “Harakatlar strategiyasining maqsadi – amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har taraflama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini liberallashtirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat” [2, 9], degan g‘oyalar ostida davlatimiz raxbarining sa’y-harakatlari guvohi bo‘lib turibmiz. Har qanday davlatning qudrati uning qonunlarining mustahkamligida va amaldagi qonunlarning to‘la quvvat bilan ishlashida namoyon bo‘ladi. Demak, qonun ustuvorligi, uning to‘la quvvat bilan ishlashi davlat barqarorligi va ijtimoiy adolatning mustahkamligi demakdir. Ana shunday sharoitda chinakam

demokratik rejim yuzaga keladi, davlat va jamiyat boshqaruvida huquqiy kommunikatsiya maqsadlarining mushtarakligiga erishiladi. “Milliy qadriyatlar va jahon davlatchiligi hozirgi zamon yutuqlari asosida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish hamda modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari Harakatlar strategiyasida aniq va ravshan ko‘rsatilgan” [3, 23-24].

Axboriy huquqiy kommunikatsiyaning davlat va jamiyat boshqaruvida, demokratik boshqaruv mezonlarini belgilovchi asosiy tamoyillarni izchillik bilan hayotga joriy etadi. Inson huquqlari va manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik oshkoralik, xalq bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot tamoyillaridan unumli foydalanish, ma’muriy protsessual kodeksni «Ma’muriy protseduralar to‘g‘risida»gi Qonun, «Davlat xizmati to‘g‘risida»gi Qonun va boshqa yangi loyihalarni tayyorlash, ularni qabul qilish kabi masalalar bugun dolzarb bo‘lib turgan bir davrda, xalq bilan davlat o‘rtasidagi vositachi sifatidagi OAVning ahamiyati benihoya katta.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev: «Oldimizga qo‘ygan maqsad va muddaolarga yetishish uchun kadrlarning amaliy zaxirasini shakllantirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim masalalarini o‘z ichiga oladigan maqsadli dasturni ishlab chiqish vaqti keldi deb o‘ylayman. Asosiy vazifa – bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o‘ylangan, har tomonlama to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tartibini shakllantirishdan iborat» [4, 5], - degan edi.

Demokratik islohotlar yo‘li – biz uchun yakkayu yagona va eng to‘g‘ri yo‘l ekan, bu yo‘lda o‘ziga xos tizim, ya’ni Uchinchi Rennesans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilish ishtiyoqi jamiyatimizdagi har bir kishining oliy maqsadiga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, “Hech shubhasiz, o‘z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonch bizni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda. Bu intilishlar ulkan amaliy ishlarga aylanib, buyuk xalq harakati tobora kengayib bormoqda. Bunday qudratli safda bo‘lishning o‘zi katta baxt, katta sharafdir” [5]. -deyiladi. Bu yerda ilg‘or qarashlarning keng rivoj topganligini o‘zida aks ettirgan.

Davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash, davlat boshqaruvi sohasiga yangicha uslublarni joriy etish ishlari hamda jamiyat boshqaruvini takomillashtirish, shuningdek, xalqqa munosib turmush sharoitlarini yaratish bilan bog‘liq vazifalar samarali tarzda amalga oshirilmoqda. Eng asosiysi, jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada erkinlashtirish va isloh qilish jarayonlari izchil davom ettirilgani, qaysi soha yoki tarmoqda bo‘lmasin, dolzarb muammolar aholi bilan ochiq muhokama qilinib, ularning yechimini topishga erishilmoqda.

Barcha qarorlarni xalqning fikr-mulohazalari va murojaatlari asosida qabul qilish islohotlarning tez va samarali amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat yangilanishining zaruriy shartlaridan biri, bu islohotlarning samarasi, avvalo, xalqning ma’naviy-ruhiy yangilanishi, tafakkurining yuksalishi, yuz berayotgan o‘zgarishlar uning hayotiga va taqdiriga daxldor bo‘lganini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi.

Jahon parlamentarizmi amaliyotiga ko‘ra, Murojaatnomalarda, bir tomondan, Prezident yakuniga yetgan yilda davlat hokimiyati organlari erishgan yutuq va natijalar haqida hisobot beradi. Ikkinchi tomondan esa, mamlakat rahbari yangi kirib kelayotgan yilda davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlar, ya’ni amaliyot dasturini taqdim etadi.

Dunyo miqiyosida olib qaralganda, davlat boshlig‘i tomonidan parlamentga Murojaatnoma taqdim etilishi tarixi olis XIII asrga borib taqaladi. Shu tariqa 800 yildan ortiq tarixga ega ushbu davlat-huquq an’anasiga Buyuk Britaniya Qirolligining parlament huzurida shohona nutq so‘zlashi – “Kings Queens speech” tantanasi ilk namuna vazifasini o‘tagan.

Shundan beri Buyuk Britaniya parlamentining har galgi yangi sessiyasi qirol yoki qirolichaning “shohona nutqi” bilan boshlanishi huquqiy odatga aylanganligi so‘zimizning isbotidir. Bunday nutq, odatda parlamentning yaqin kelajakdagi faoliyati yuzasidan Xukumat tavsiya etgan dastur hisoblanadi. Bu dasturning parlament tomonidan tasdiqlanishi amaldagi Hukumatga ishonch votumi bildirilgani bilan tengdir.

Bugun yangi O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi mavqeini oshirish bo‘yicha Prezidentimizning 12 dan ortiq farmon va qarorlari

qabul qilingan bo‘lib mazkur xujjatlar muayyan ijobiy o‘zgarishlarga erishishimiz uchun mustahkam huquqiy asos vazifasini o‘tamoqda. Xususan, mamlakatimiz “Biznes yuritish indeksi”da 100 pog‘onadan ortiqroq yuqoriladi va hozir 69-o‘ringa chiqdi. Shu bilan birga O‘zbekiston keyingi davrda “Iqtisodiy erkinlik ”indeksida 26 pog‘onaga, “Logistika samaradorligi indeksi”da 19 pog‘onaga ko‘tarilganligini aytib o‘tish quvonarli albatta. Shuningdek yaqin kunlarda “So‘z erkinligi va hisobdorlik indeksi”, hamda “Jahon matbuoti erkinligi indeksi” kabi xalqaro reytinglarda ko‘rsatkichlarimizni butunlay yangilash davr talabiga aylanmoqda. Mana shu masalalar yuzasidan O‘zbekiston Prezidenti Oliy majlisga Murojaatnomasini keng jamoatchilikka havola qildi. Agar ushbu nihoyatda dolzarb siyosiy - huquqiy tadbir oynaiy jahon kanallarida va internet tarmoqlarida to‘g‘ridan - to‘g‘ri namoyish etilganligini hisobga olganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Murojaatnomalari nafaqat milliy parlament a’zolariga, balki butun O‘zbekiston xalqiga murojjati sifatida nihoyatda qimmatli ahamiyat kasb etadi.

Zero Akademik Akmal Saidov aytganlaridek, “Davlat boshlig‘ining parlamentga Murojaatnomasi – dasturiy siyosiy-huquqiy xujjatdir” [6, 4].

Xulosa qilib aytganda mavjud qonunlarning amaliyotga samarali tatbiq etilishi ko‘p jihatdan aholining huquqiy madaniyatiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Mirziyoev Sh.M. Harakatlar strategiyasi 2017-2021 y. 2017 yil – shiddatli islohotlar yili. –T.: “Adolat”, 2018. –B. 54.

2. Saidov A.X. Inson huquqlari: parlament a'zolari uchun qo‘llanman. –T.: “Baktria press”, 2020.-B.9.

3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha, Harakatlar strategiyasini va «xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirish Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: Ma'naviyat. 2018. – B. 23-24.

4.Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019. – B. 5.

5. Mirziyoev Sh.M. 29 dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasi “Xalq so‘zi” gazetasi 30.12. 2020y. 276 (7778)-soni.

6. Saidov A.X. Davlat boshlig‘ining parlamentga Murojaatnomasi – dasturiy siyosiy-huquqiy xujjatdir. Demokratlashtirish va inson huquqlari Jurnali. 2020. №1-son. –B.4.

DAVLATLARARO MUNOSABATLAR (O’ZBEKISTON VA HINDISTON ALOQALARI)

Mirvohid XIDAYEV, *TDSHU talabasi*

Hindiston va O’zbekiston o’rtasidagi do’stlik aloqalari tarixga borib taqaladi. Savdo-sotiq, madaniy, iqtisodiy aloqalar yildan yilga ushbu ikki davlat o’rtasida yanada yaxshilanib bormoqda. Bugungi kunda Hindiston jadal rivojlanmoqda, zamonaviy qiyofa kasb etmoqda. Uning qudratli davlat va iqtisodiyoti rivojlangan mamlakat sifatida jahondagi o‘rni tobora mustahkamlanmoqda. Ushbu mamlakat, ayniqsa, yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar, sanoat, dasturlash, sog‘liqni saqlash, xizmat ko‘rsatish sohalarida ilg‘or hisoblanadi. O‘zbekiston bilan Hindiston xalqaro maydonda, jumladan, BMT va SHHT doirasida bir-birining tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi. Mintaqaviy va xalqaro dolzarb masalalar bo‘yicha tomonlarning pozitsiyalari o‘xshash yoki yaqin hisoblanadi. Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, narkotiklarning noqonuniy aylanishi, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, shuningdek, boshqa mintaqaviy va global tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashishda ikki tomonlama va ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasida O’zbekiston va Hindiston hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, investitsiyaviy, innovatsiya, transport, energetika, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish tobora kengaymoqda, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan fikrlar almashilmoqda. Hindiston ulkan iqtisodiy imkoniyatlarga ega, sanoati rivojlangan mamlakat. Yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha dunyoda oltinchi o‘rinda turadi. Yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar, dasturlash, sog‘liqni saqlash, xizmat ko‘rsatish sohalari rivojiga katta e’tibor qaratayotgan mamlakatimiz uchun Hindiston tajribasi va texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Hindiston uchun ham izchil rivojlanayotgan, investorlarni qo‘llab-quvvatlayotgan O‘zbekiston istiqbolli hamkor davlatdir. Savdo-iqtisodiy hamkorlik mamlakatlarimiz munosabatlarining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi kunda O‘zbekistonda Hindiston sarmoyasi ishtirokida 145 korxona faoliyat yuritmoqda. Ularning 58 tasi to‘liq xorij kapitali evaziga tashkil etilgan. 2018 yilning birinchi choragida Hindiston sarmoyasi ishtirokida 9 ta korxona tashkil etilgani hind ishbilarmonlarining mamlakatimizda faolligi oshayotganidan dalolatdir. Bunga misol qilib bugungi kunda Hindistonlik tadbirkor Murari Jalan

kompaniyasi hisoblangan MJ Developers O‘zbekistonni o‘ziga xos falsafasini amalga oshirish markazlaridan biri sifatida tanladi. MJ Developers kompaniyasi asoschisi Murari Jalan mamlakatimiz ko‘chmas mulk sohasining turli loyihalariga o‘zini bag‘ishlash uchun O‘zbekistonga tashrif buyurgan. U mahalliy loyihalarda mamlakat uchun yangi golf-klublar, shuningdek, ta'lim muassasalari, tibbiyot va dam olish maskanlarining bo‘lishini ko‘zda tutgan. «Minerva City», «Lake City» «shahar ichida shahar» – faxrli nomga mutlaq mos kelgan holda ulkan maydonni egallaydi. Bu yerda nafaqat turar joy uylari va ofis binolari mavjud savlatli osmono‘par inshootlar qad ko‘taradi, balki ko‘plab ko‘ngilochar markazlar ham joylashadi, jumladan akvaparklar va basseynlar. Barchasi qulay istiqomat, mukammal shoping va hordiq, biznes yuritish uchun bir joyda jamlangan. Ushbu “ Shahar ichida shahar” ya’ni “MINERVA” cityda yana xalqaro maktab hamda Xalqaro “MINERVA” universiteti ham qurilishi rejalashtirilgan. Ushbu hind ishbilarmonlaridan birining tashabbusi ikki davlatning yuritayotgan do’stlik aloqalarining dalolatidir.

Fan va texnologiyaning hozirgi zamonaviy tendensiyalari bilan uyg‘unligiga e’tibor qaratib, ushbu sohada mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligi va buning uchun har ikki davlatda yetarlicha infratuzilma yaratilinmoqda. O’zbekistonda oliy ta’lim yo’nalishi bo’yicha Hindistonning bir qancha Universitetlari o’z faoliyatlarini amalga oshirib kelishmoqda.

Toshkent shahridagi Amity Universiteti bir necha yo'nalishlarda bakalavr va magistratura dasturlarini taqdim etadi, hamda universitet axborot texnologiyalari, kompyuter muhandisligi, iqtisodiyot, turizm menejmenti va biznes boshqaruvi sohasidagi xalqaro darajadagi mutaxasislarni tayyorlaydi.

Yana bir Hindistonning nufuzli universitetlaridan biri Sharda universiteti Andijonda joylashgan bo'lib bir qancha bakalavr dasturlarini taqdim etib kelmoqda. Kompyuter muhandislik, kompyuter fanlari mutaxasisligi bo'yicha, sun'iy ong, elektr muhandislik, axborot texnologiyalari, elektronika va kommunikatsiya muhandisligi va birqancha biznes yo'nalishlarda (BBA) mutaxasislarni tayyorlamoqda.

Joriy yilda Jizzax viloyatida ham yana bir Hindistonning nufuzli Sambhram institutining filiali ochildi.

O’zbekiston va Hindistonning do’stligini ifoda etuvchi, oliy ta’lim yo’nalishidagi yana bir omillardan Toshkent Davlat

Sharqshunoslik Universiteti hisoblanadi. Ushbu Universitetda talabalarga hindiy tili, hind adabiyoti, hind madaniyati va siyosati o’rgatiladi. Shu bilan birgalikda hindiy tilini yaxshi o’zlashtirgan va iqtidorli talabalarga Hindistonga borib bir yil davomida ta’lim olish imkoniyati ham beriladi. Universitet O’zbekistondagi Hindiston Respublikasi elchixonasi va Toshkent shahridagi Hindiston madaniyat markazi bilan birgalikda ko’plab ma’naviy hamda madaniy tadbirlarni amalga oshirib keladi. Talabalarga Hindiston madaniyati va boy merosi bilan yaqindan tanishish uchun elchixona va Hindiston madaniyat markazi hamisha yordam berib keladi. Joriy yil ya’ni 2020-2021-o’quv yilidan boshlab talabalarga yangi yo’nalish bo’yicha ta’lim berilmoqda. Hindiston va O’zbekiston o’rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’naviy hamda boshqa yo’nalishlar bo’yicha ommaviy auditoriyaga ma’lumotlarni yetkazish bo’yicha Xalqaro jurnalistika hind-ingliz tili bo’yicha talabalar tayyorlanmoqda. Bu esa albatta do’stlik aloqalarining kelajakda ham mustahkam bo’lishidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, ikki mamalakat O’zbekiston va Hindiston o’rtasidagi davlatlar aro munosabatlar xar sohada yildan yilga rivojlanib bormoqda. Buning isboti tariqasida ta’lim, madaniyat, iqtisodiyot kabi yo’nalishlarni misol qilib ko’rsatish ham mumkin. Ikki davlat o’rtasidagi siyosiy munosabatlarda ham do’stlik harakterini yaqqol ko’rish mumkin.

MUNDARIJA

G.Sh.Rixsiyeva	Tarjimonlar va tarjimashunoslar tayyorlash dolzarbligi forum muhokamasida	4

TARJIMASHUNOSLIK TARIXI, TARJIMA STILISTIKASI, TANQIDI HAMDA TAHRIR MASALALARI

A.Mannonov	Tarjimada “soxta ekvivalentlik” masalasi……..	7
Q.Omonov	O‘rta asrlarda eski o‘zbek tilida bitilgan rasmiy matnlarda qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy birliklarning talqini va tarjimasi masalasi…….....	13
Z.Isomiddinov	Tarjima siyosati haqida…….....	15
X.Raximov	Alisher Navoiy ijodining olmon tili va adabiyotidagi retseptsiyasi: talqin, tabdil va tarjima muammolari……..	20
Z.Sadiqov, S.Sadiqova	G‘aybulla Salomov tarjimashunoslik maktabi…….....	24
Q.Mamurov, N.Tilakova	Tarjimada til va tafakkur masalasi……..….	29
A.Alimbekov	Turk adabiyotini o‘rganish va tarjima tarixidan…….....	34
X.Hamidov	Olimning ikkinchi umri…….....	41
E.Ochilov	Sa’diy hikmatlari ogahiy tarjimasida…….....	44
R.Sharipov, O.Jumaboev	Yashar Kamolning “Sevgi afsonasi” romanidagi mifologik unsurlarning o‘zbekcha tarjimada berilishi…….....	55
N.Xodjayeva	Hindiy tilidan frazeologizmlar tarjimasida variantlilik…….....	62
I.Ilyasov	Tarjima va nashr mas’uliyati…….....	67
F.Sapayeva	Badiiy tarjima amaliyotida qayta tarjima talablari…….....	73
X.Hamidov	O‘zaro yaqin tillardan tarjimaning dolzarb muammolariga doir……..	80
X.Alimova	Fors tilidagi otlashgan sifatdoshlarning o‘zbekcha tarjimasiga doir…….....	91
С.Насирова	Термины военного дела в древнем Китае.....	95
S.Xashimova	Xitoy tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlarda nasriy badiiy san’atlarning berilishi haqida.....	102
N.Ismatullayeva	Konfutsiy ta’limotida “中庸” falsafiy atamasining tarjimada berilishi.....	110
J.Abdupattaxov	Arab tilshunosligining rivojlanish bosqichlari.....	113
G.Nazrullayeva	Hindiy tilidan o‘zbek tiliga milliy-madaniy frazeologizmlar tarjimasi va tahlili.....	118
A.Maxamadtoirova	Ifoda usuliga ko‘ra qiyoslash konstruksiyalarida leksik va sintaktik gradatsiya.....	123

M.Taylanova Ertaklar tajimasida leksik-semantik transformatsiyaning o‘rni..... 132
G.Kebaytuli O‘zbek tilidagi istak gaplarni xitoy tiliga tarjima qilish muammolari..... 138
M.Saydumarova Badiiy asarda nutq odobi va uning arab tiliga tarjimasi xususida..... 142
Jo Min Young O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarni koreys tiliga tarjima qilish muammolari..... 147
N.Imomiddinova Xitoycha harbiy terminlarning leksik-semantik tahlili..... 152
S.Husanova, G.Aripova Mahoratli tarjimon..... 158
Э.Замалеева Сопоставительный анализ и критерии выделения обстоятельства образа действия в пашто и русском языке..... 161
S.Ismoilova Ta’limga oid terminlarini uyg‘unlashtirish xususida..... 169
R.Abdullaeva Atama va terminlar tarjimasining murakkabligi..... 172
N.Isojonova Arab va o‘zbek tilidagi mushtarak otlarning semantik tahlili..... 179
D.Khikmatov O‘zbek va xitoy tilidagi ritmik sinonimiyada sintaktik omillar..... 183
I.Safarova Xitoy tilida neologizmlarning 热 re, 城 cheng, 迷 mi yarimsuffikslar yordamida yasalishining o‘ziga xos xususiyatlari haqida..... 188
S.Islomova Arab maqollarining o‘zbek tilidagi muqobillari va semantik tahlili..... 192
Г.Джурабекова К вопросу перевода устойчивых выражений (на материале корейского языка)..... 197
Н.Цой Обзор научной литературы по переводу пословиц и пословичных изречений..... 200
К.Исмаилова К вопросу о переводе форм вежливого обращения…. 204
Шин Чи Сон К вопросу перевода предикативных частей речи корейского языка..... 207

NASRIY VA SHE’RIY TARJIMA MUAMMOLARI

Ш.Имяминова, С.Якубов Узбекская литература на немецком языке на примерах узбекских писателей Абдулла Кадири и Абдулла Каххара..... 211
A.Mamadaliyev “Shum bola” qissasining ingliz tiliga tarjimasi xususida..... 215
A.Mahmudov G.E.Lessing dramalari tarjimasida asliyat hamda vositachi tilning o‘rni..... 222
F.Husainova Afanasiy Fet she’rlarining o‘zbek tilidagi tarjimasiga oid

	ayrim mulohazalar.....	229
M.Kayumova	Haldun Taner asarlarining badiiy tarjimadagi talqini.....	233
S.Zaynutdinova	Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida arabiy so‘zlarning salmog‘i.....	240
K.Fazilova	Abay she’riyatini tarjima qilishning ayrim qiyinchiliklari va xususiyatlari.....	246
I.Fatxutdinova	“Basantiy” romani tarjimasida milliy xos so’zlarning tarjimada ekvivalentini berish usuli.....	252
Sh.Hasanova	Xitoy tilida fe’l frazeologik birliklarining tahlili.....	257
N.Xudoyberdieva	A.Navoiy ijodining sharq olimlari tomonidan o‘rganilishi.....	261
M.Umarova	Manzar Salim – mashhur urdu tili tarjimoni.....	269
M.Rustamova	Kobo Abening “Qumdagi xotin” asari tarjimasidagi ayrim o‘xshatishlar badiiyati.....	271
M.Otaboeva	Ingliz she’riyati tarjimasining o‘ziga xos jihatlari.....	279
Sh.Muxamedjanova	Xitoy tili harakat yo‘nalishi fe’llarining modifikatorlik xususiyatlari.....	285
N.Zabixullayev	Oybekning “A.Navoiy” romani arabcha tarjimada portret tasvirining berilishi masalasiga doir.....	291
Z.Tursunbayeva	Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” asarining hindcha tarjimasida arxaizmlar xususida.....	297
M.Yoqubjonova	Umar Sayfiddinning “Ont” hikoyasi o’zbek tilida.....	301
B.Mamarajabov	Dariyzabon xalq og‘zaki ijodida obrazlar talqini	306
K.Rasulova	Oybekning “Navoiy” romani tarjimalariga doir.....	310
D.Shodmonova	Yashar Kamol asarlarining tarjimalari xususida.....	314
M.Ismoilova	Umar Xayyom ruboiylarining o’zbekcha tarjimalari.....	318
N.Sunnatova	Sa’diy “Guliston”ining o‘zbekcha tarjimalari.....	322
D.Shukurova	Yapon tilidan o‘zbek tiliga bilvosita tarjimaning ayrim muammolari.....	325

MADANIYATLARARO MULOQOT VA BADIIY TARJIMANING LINGVOMADANIY ASPEKTLARI

Г.Мансурова	Лингвокультурологические аспекты поэтического и художественного перевода.....	331
X.Hamidov, N.Eshnazarova	Turkcha kinofilmlardagi qarg‘ishlarni o‘zbek tiliga o‘girish muammolariga doir.....	337
D.Mubarakova	Lingvomadaniyatshunoslik aspekt sifatida o‘xshatishlarning tarjimasi.....	342
S.Saidakbarova	Lingvomadaniyatshunoslikda gastronomik komponentli frazeologizmlarning o‘rni.....	346
G‘.Raxmanov	Til leksikasiga oid lingvomadaniy madaniy xususiyatlarni tarjima vositasida qiyoslash.....	350
Z.Salimova	Turk tilida zoonimlar vositasida inson obrazini yaratish va tarjima qilish masalalari……	355

D.Ashirbayeva Koreys va o‘zbek tillarida murojaat birliklarining ayrim funktsional xususiyatlariga doir..... 364
B.Shamsieva Badiiy tarjimada madaniyat transferini namoyon bo‘lishida lingvomadaniyatshunoslikning ahamiyati..... 371
A.Zoirova Feminizm tushunchasining tarixiy-falsafiy asoslari..... 376
N.Izzatullayeva Pu Sungling asarlari tarjimasida geografik joy nomlarining berilishi……. 380

SINXRON VA ILMIY-TEXNIKAVIY TARJIMA SOHALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

N.Yunusova Sinxron tarjima o‘qitishning psixologik aspektlari..... 385
Х.Зикруллаева Функции научно-технических терминов..... 388
B.Turdiqulova Neft va gaz terminologiyasini tarjima qilish xususiyatlari..... 393
D.Saidova Xitoy ommaviy axborot vositasida sinxron tarjimada siyosiy tabrik xabarlari leksikasining morfologik xususiyatlari..... 399
F.Norova, N.Norova Siyosat va diplomatiyada og‘zaki tarjimonning o‘rni va vazifalari..... 404
M.Umarova Sinxron va ketma-ket tarjima jarayonida arab va o‘zbek tillarida qisqartirish usuli xususida..... 411
A.Djumanov Sinxron va ketma-ket tarjimada milliy so‘ziga hoslikni ifodalovchi so‘zlar..... 414
А.Бакиев Организация процесса подготовки синхронных переводчиков..... 419
S.Abloqulov Media matnlarida frazeologizimlarning tarjimasi (arab-o‘zbek kombinatsiyalarida)..... 424

XALQARO JURNALISTIKA VA TARJIMA MASALALARI

M.Saliyeva Qadimgi Xitoyda huquqiy kommunikatsiya turmush madaniyatining o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida..... 427
R.Elmuratova Mustaqil taraqqiyotning yangi bosqichi..... 434
M.Xidayev Davlatlararo munosabatlar (O’zbekiston va Hindiston aloqalari)..... 438

“O‘zbekiston tarjimashunoslari forumi – 2021” (ilmiy maqolalar to‘plami). –T.: TDSHU, 2021. − 445 b.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
*PhD. **Nargiza Ismatullayeva***

Mas’ul muharrir:
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori,
*filologiya fanlari nomzodi, dots. **Gulchehra Rixsiyeva***

Taqrizchilar:
*filologiya fanlari nomzodi, dots. **Rustam Sharipov***
*filologiya fanlari nomzodi, dots. **Ergash Ochilov***

Muqova dizayni:
*TDSHU o‘qituvchisi **Gulnoza Nazrullayeva***

Kompyuter verstkasi:
Iroda Safarova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021-yil 25-noyabrdagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Bosishga ruxsat etildi 06.12.2021.
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 20,75 b.t. 100 nusxada bosildi.
Buyurtma № ____

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021